MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HARBIY TAYYORGARLIK O‘QUV MARKAZI

“HARBIY TAYYORGARLIK O‘QUV MARKAZIDA REZERVDAGI VA ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASH: TARIXI, ISTIQBOLLARI, KELAJAGI”

MAVZUSIDA O‘TKAZILGAN RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MA’RUZALAR TO‘PLAMI

2024 yil 24 oktyabr

Тошкент 2024

UO‘K: 355.23

Tahririy hay’at raisi:

Xaydarov K.A. – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi boshlig‘i, P.f.f. doktori, dotsent, polkovnik.

Tahririy hay’at a’zolari:

1. **Uralov X.B. –** Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi ilmiy bo‘lim etakchi mutaxassisi, dotsent, rezervdagi podpolkovnik.
2. **Fayziev M.G. –** Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, dotsent, podpolkovnik.
3. **Sapaev J.K. –** Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi ilmiy bo‘lim boshlig‘i, dotsent, qurolli kuchlar xizmatchisi.

“Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazida rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash: tarixi, istiqbollari, kelajagi” Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalari to‘plami. – T.: O‘zMU Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi, 2024. – 441 b.

Mazkur anjuman ma’ruzalar to‘plami rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash dolzarb muammolarini muhokama qilish, harbiy kadrlarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish, bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning kasbiy tayyorgarligini amalga oshirishda harbiy kadrlarning o‘rnini belgilash, harbiy safarbarlikka doir ilmiy tadqiqot ishlarinining dolzarb yo‘nalishlarini muhokama qilish maqsadida “Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazida rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash: tarixi, istiqbollari, kelajagi” mavzusida 2024 yil 24 oktyabr kuni Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazida o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalari materiallari asosida chop etilmoqda.

ANJUMAN MATERIALLARIDA KELTIRILGAN DALIL VA MA’LUMOTLAR UCHUN MUALLIF JAVOBGARDIR.

© Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi, 2024.

O‘zbekiston Milliy Universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi boshlig‘ining «Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazida rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash: tarixi, istiqbollari, kelajagi» mavzusida o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumaniga

KIRISH SO‘ZI

(2024 yil 24 oktyabr, axborot resurslar markazi xonasi)

Assalomu- alaykum hurmatli anjuman qatnashchilari!

Bugun mamlakatimizda barcha sohalar qatori, oliy ta’limni rivojlantirishga, tayyorlanayotgan kadrlarning sifati darajasiga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekicton Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M. Mirziyoev o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida *“...Ta’lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo‘lgan yangi avlodni, ilm-fan va o‘z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz...”*[1], - deb ta’kidlaganlar.

Har bir mamlakatning kuch-qudrati, dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rni, siyosiy-iqtisodiy rivoji uning yosh kadrlari salohiyati bilan belgilanadi. Mamlakatimizda ta’lim tizimida keyingi yillarda juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ta’lim berishda jahon tajribasini o‘rganib, ularning ilg‘or sifatlarini mamlakatimiz harbiy ta’lim tizimiga moslashtirib tatbiq etish, yangicha omilkor innovatsiyalardan foydalanishga O‘zbekiston Milliy Universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazida jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari zaxirasini shakllantirish uchun zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash bilan shug‘ullanadigan oliy o‘quv yurtlari oldida tor profilli, rivojlangan ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega yuqori kasbiy malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turibdi. Ushbu muammoni faqat o‘quv jarayoni va fakultetda asosiy - fuqarolik mutaxassisligi bo‘yicha olingan bilimlar va fuqarolik oliy o‘quv yurtlarining harbiy tayyorgarlik o‘quv markazida olingan qo‘shimcha bilimlar o‘rtasidagi yaqin aloqada hal qilish mumkin.

Shu o‘rinda har yili Harbiy tayyorgarlik o‘quv markaziga qabul qilish jaryonida Harbiy markaz professor o‘qituvchilari o‘zlarining tayyorlagan prezentatsiyalari, targ‘ibot tarqatma bukletlari bilan har bir oliy o‘quv yurtlariga borib targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishmoqda. Oliy o‘quv yurtlari talabalari ichidan eng yaxshi o‘qiydigan, hozirgi kun talabigi javob beradigan, jismonan sog‘lom, intiluvchan, Vatanimizning himoyasiga doim shay turadigan yosh avlodni harbiy markazga o‘qishga jalb etishmoqda.

Harbiy markaz faoliyatida Rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash bo‘yicha **malaka talablari ishlab chiqildi va** ushbu malaka talablaridan kelib chiqqan holda **31 ta harbiy mutaxassisliklar bo‘yicha** barcha **o‘quv dasturlari** Mudofaa vazirligi boshqarma va bo‘linmalari hamda Qurolli Kuchlar Akademiyasi

mutaxassislari bilan hamkorlikda **yangidan ishlab chiqildi** va ushbu dasturlar asosida o‘quv jarayoni o‘tkazilmoqda.

Markazda ta’lim sifatini yaxshilash, nazariy olingan bilimlarni amaliyotda mustahkamlash maqsadida Oliy harbiy ta’lim muassasalari, harbiy qismlar va tegishli oliy ta’lim muassasalari bilan belgilangan tartibda hamkorlik kelishuvlari imzolandi va ushbu Oliy harbiy ta’lim muassasalari, harbiy qismlar va tegishli oliy ta’lim muassasalari bazalarida amaliy mashg‘ulotlar tashkillashtirilib o‘tkazib kelinmoqda.

Talabalar bilan mashg‘ulotlarni sifatli tashkil etish hamda markaz kutubxona fondini boyitish maqsadida Markaz professor-o‘qituvchilari tomonidan **71 ta fan bo‘yicha darsliklar**, fan dasturlari va darsliklar asosida **82 ta o‘quv qo‘llanmlari** hamda har bir fan bo‘yicha **o‘quv-uslubiy majmualar ishlab chiqildi** va o‘quv jarayonida foydalanilmoqda.

Shu besh yil davomida harbiy tayyorgarlik o‘quv markazining kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bo‘yicha o‘z xissalarini qo‘shishda xizmatdagi ofitserlarimizdan **uch nafari** O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasida tahsil olib magistr diplomiga ega bo‘lishdi va **bir nafari** magistraturada o‘qishni davom ettirmoqda. Tasdiqlangan rejaga asosan **68** nafar professor-o‘qituvchilar tarkibidan **50** nafari, ya’ni **74 %** professor-o‘qituvchilar, Qurolli Kuchlar Akademiyasi hamda Respublika malaka oshirish tarmoq markazlarida malaka oshirdilar.

Ilmiy faoliyat doirasida - 26 nafar professor-o‘qituvchilarimiz **mustaqil izlanuvchilar sifatida** ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishmoqda, **25 nafar professor-o‘qituvchilar dotsent ilmiy unvonini** olishga sazovor bo‘lishdi, 1 nafar ofitser **falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori** va yana 1 nafar ofitser **pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini** olishga erishishdi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirlar natijasida **Markaz ilmiy salohiyatini 40 % ga** etkazishga erishildi.

Markazda o‘quv va moddiy-texnik bazani takomillashtirish orqali ta’lim sifatini yaxshilash ishlari muntazam olib borilmoqda va bu ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Yuqorida e’tirof etilgan harbiy markazimizning besh yillik arixini yaralishida harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi ofitserlari, professor o‘qituvchilari va ishchi xizmatchilarining alohida o‘rni bor.

Shu o‘rinda barcha anjuman ishtirokchilarini, ma’ruzachi mutaxassislarimizni ma’ruzalariga ijodiy yondashgan holda uning muhokamalarida faol qatnashishga chaqiraman. Zero, Vatan taqdiri va kelajagi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta’minlash yo‘lida bor kuch g‘ayratimizni, bilim va tajribamizni va eng avvalo Vatanga bo‘lgan sadoqatimizni safarbar etishimiz kerak. Shundagina biz ko‘zlagan marralarimizga etamiz.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari Sizlarni O‘zbekiston Milliy Universitetida Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi tashkil topganligining 5 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan Respublika ilmiy-amaliy anjumanida ko‘rib turganimizdan bag‘oyat xursandmiz va bu tadbir Vatanimiz xavfsizligini mustahkamlashda Harbiy

tayyorgarlik o‘quv markazida rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashda muhim o‘rin tutishini bildirib, anjumanni ochiq deb e’lon qilishga ijozat bergaysiz!

E*’tiboringiz uchun raxmat!*

Kozimbek Abdixakimovich Xaydarov

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi boshlig‘i, Pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent, polkovnik.

MAFKURAVIY TARBIYA ASOSIDA YOSHLAR MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Fayziev Mirxamid Gafurovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv Markazi boshlig‘ining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, dotsent, podpolkovnik.

Fuqarolarning faol harakati har bir jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi kuch hisoblanadi. Zero, fuqaro bo‘lmasa jamiyat bo‘lmaganidek, uning faol harakatisiz taraqqiyotning bo‘lishi ham mumkin emas.

Jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lgan fuqaroning jamiyatni rivojlantirish borasidagi faoliyati rang-barang bo‘lib, ular amaliyotda ilmiy, siyosiy, iqtisodiy, diniy, badiiy va boshqa yo‘nalishlarga bo‘linadi. Fuqarolar faoliyatida ushbu yo‘nalishlar nisbatan xususiylik kasb etadi, ya’ni har bir fuqaro o‘z qiziqishi, intilishi va qobiliyatidan kelib chiqqan holda bu yo‘nalishlardagi sohalarning biri bilan shug‘ullanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, jamiyatda fuqarolar uchun nisbatan xususiy yo‘nalishlar ichida barchaning birdek anglashi, bilishi va faoliyat yuritishi lozim bo‘lgan yo‘nalish ham borki, bu yo‘nalish jamiyatning siyosiy yo‘nalishidir.

Siyosiy yo‘nalishdagi faoliyatning barcha uchun daxldorligi davlat boshqaruvida bevosita ko‘pchilikning ishtirokini ta’minlovchi hamda jamiyatda demokratiyaning asosiy belgilaridan biri bo‘lgan ozchilikni ko‘pchilikka bo‘ysunishligi tamoyilini qaror toptiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hozirda kuchli davlat negizida kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga intilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev “bu yo‘l – erkin, demokratik, insonparvar davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish va yanada ravnaq toptirishning mustahkam zamini” deya ta’kidlaydi.

Ijtimoiy-siyosiy hayotda ulkan islohotlarni boshlagan, yangi rivojlanish yo‘lidan borayotgan har bir davlat va jamiyat islohotlarning muvaffaqiyatini ta’minlashda fuqarolar siyosiy faolligining oliy darajasi bo‘lgan siyosiy madaniyatga katta ehtiyoj sezadi. O‘zbekiston ham hozirda ulkan islohotlarni amalga oshirayotgan va ayni vaqtda uning

muvaffaqiyatini ta’minlashda fuqarolardagi siyosiy madaniyatga katta ehtiyoj sezayotgan davlatdir.

Tarixning barcha davrlarda jamiyatda biror-bir yangilik - islohotni amalga oshirish mushkul ish bo‘lgan. Chunki, har bir jamiyatda ongli ravishda tushunib yangilikni qabul qiluvchi va uni qo‘llab-quvvatlovchi kishilar qatorida islohotlar zaruriyatini tushunmaydigan, konservativ kishilar toifasi ham mavjud bo‘lganki, bunday kuchlar o‘zlarining loqaydliklari, tushunmasliklari hamda siyosiy tomondan bilimsizliklari tufayli doimo jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘lib kelgan. Mazkur kuchlar jamiyat taraqqiyotiga to‘g‘onoq bo‘lishda tarixan tashqi kuchlar bilan tez til topishgan, ularning manfaati uchun jamiyat manfaatlarini toptagan.

Muhtaram Prezidentimiz o‘zining ko‘pgina chiqishlarida hozirgi dunyo miqyosida aql-zakovat va fikr musobaqasi ketayotgan shiddatli bir davrda faqat mustaqil fikriga ega bo‘lgan, o‘zining kimligi, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanini chuqur anglab etgan, yon-atrofidagi voqealarga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashaydigan har tomonlama bilimli va barkamol yoshlargina o‘z xalqi va Vatani shuhratini dunyoga yoyishga qodir bo‘lishi haqida doimo ta’kidlaydi. Chindan ham, bugungi davrda mafkuraviy immunitetning asosiy mezoni bo‘lgan yuksak tafakkur va ma’naviyat har qanday yutuq va g‘alabaning asosiy sharti va garoviga aylanib bormoqda. Hozirgi yuqori zamonaviy texnologiyalar zamonida esa berilgan topshiriqlarni texnika vositalari ham qoyilmaqom qilib bajarishi mumkin.

Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida qayd etilganidek, «...milliy o‘zligimizni anglash, vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, uni turli mafkuraviy qarashlardan xoli baholash, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani rivojlantirishimiz zarur» [3].

Tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, sayqallanib kelgan milliy g‘oyamizning tub negizlari bo‘lgan hayotiy misollarga e’tibor beraylik. Yurtimiz zaminida yashab o‘tgan jasur ayol – To‘maris qudratli dushmanning hiyla-nayranglari oldida o‘zini yo‘qotib qo‘ymasdan, adolat uchun jangga kirgan. Shu tariqa lashkarining soni jihatdan o‘zidan ancha ustun bo‘lgan yovning ustidan g‘alaba qozondi. Qo‘lida na qurol, yonida na lashkari bo‘lgan oddiy cho‘pon Shiroqning jasoratini olaylik. U o‘zining yov qo‘lida o‘lishini oldindan bilgan bo‘lsa-da, muqaddas Vatan tuprog‘i dushman oyoqlari ostida toptalmasligi uchun ongli ravishda jasoratga qo‘l uradi – yov qo‘shinini kimsasiz dashti biyobonga olib borib, uni o‘limga mahkum etadi, o‘zi ham halok bo‘ladi. Lekin ona yurtini bosqinchilardan saqlab qoladi. Kelgusi avlodlar uchun ma’naviy ibrat bo‘ladigan tengsiz jasorat namunasini meros qilib qoldiradi. Buyuk vatandoshimiz – Jaloliddin Manguberdi dunyoning teng yarmini o‘ziga bo‘ysundirgan, askarlari bilan er yuzini mo‘ri malaxdek bosgan mo‘g‘ul qo‘shiniga qarshi 12 yil davomida muttasil kurash olib borgan. Holbuki, Jaloliddin Manguberdining imkoniyatlari Chingizxonnikiga nisbatan juda cheklangan bo‘lgan – uning ixtiyorida oz sonli lashkar va qurol-yarog‘ bo‘lgan. Shunga qaramay, u qudratli yovga qarshi mardona jang qilgan. Sohibqiron bobomiz Amir Temurning mo‘g‘ullar istilosi ostida yotgan Turon zaminni ozod qilib, bu erda ulkan saltanat barpo etganini esga olaylik. Albatta, ulug‘ ajdodimizga xalqni dushmanga qarshi oyoqqa turg‘izish, uning haq-huquqini ta’minlash oson bo‘lmagan. Buning uchun bochqinchilarga qarshi tinimsiz kurash olib borish, o‘z hayotini jiddiy xavf-xatarlarga qo‘yishga to‘g‘ri kelgan.

Vatan tuyg‘usi, Vatan hissi shu qadar muqaddas bo‘lgani uchun bizning milliy g‘oyamizning asosiy tushunchalaridan biri Vatan taraqqiyoti deb nomlanadi. Bu esa vatanparvarlik hech qachon eskirmasligi va kun tartibidan tushmasligi, hamma zamonlarda ham dolzarbdir.

Ayniqsa, ozod va obod Vatanda o‘sib-ulg‘ayyotgan, qalbi pok his-tuyg‘ular bilan to‘lgan yoshlarning orzulari bir olam. Ana shu orzularning eng ulug‘i ota-

onaga, el-yurtiga Prezidentiga beminnat xizmat qilish, ularning oldidagi farzandlik burchini sidqidildan ado etishdir. Bu orzuga erishish uchun inson bolalikdan boshlab o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yib, zarur bilim, ko‘nikma va hunarlarni egallashi, ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan sog‘lom va baquvvat bo‘lishi lozim.

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda globallashuv ta’sirida dunyoni yaxlit makon ekanligi, undagi muammolar butun insoniyatni muammosi ekanligi hamda jahon xalqlari manfaatlarining mushtarakligi tobora ravshan bo‘lib bormoqda. Lekin, ayni vaqtda o‘z manfaati va o‘z muammosidan boshqani tan olmaydigan kuchlar ham borki, ular o‘zlarining g‘arazli niyatlari yo‘lida hozirgi fan-texnika yutuqlaridan ustalik bilan foydalanib, boshqalar manfaatini toptamoqda. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan bu kuchlarni mafkuraviy poligonlar - deya atalganligi, ularning “yadro poligonlaridan ham katta kuchga ega ekanligi” bot-bot ta’kidlanganligi o‘z vaqtida bu kuchlarga berilgan ob’ektiv bahodir.

Mafkuraviy poligonlar yangi asrimizdagi mustamlakachi kuchlarning yangicha kurash uslubidir. Tarixan imperialistik davlatlarning harbiy kuchlari orqali amalga oshirilgan yangi xududlarni bosib olish va unga egalik qilish siyosati hozirda hech qanday harbiy kuchlarsiz mafkuraviy poligonlar orqali amalga oshirilmoqda. Haqiqatdan ham, hozirda mafkuraviy poligonlar tomonidan har tomonlama puxta ishlab chiqilgan loyihalar, dasturlar, barcha sohani qamrab olgan xalqaro nodavlat, notijorat tashkilotlari hamda kuchli ta’sirga ega bo‘lgan OAV yordami bilan muttasil, izchil olib borilayotgan harakatlar natijasida dunyoning xohlagan nuqtasidagi suveren davlatlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti izdan chiqarilmoqda. Anarxizmni keltirib chiqargan kuchlar esa, mavjud boshboshdoqlikdan foydalanib, mazkur davlatlarda o‘z mavqelarini yanada mustahkamlashga urinmoqdalar. Mafkuraviy poligonlar ta’sirida vujudga kelgan bunday harakatlarga misol sifatida dastlab Guruziya va Ukrainada, so‘ngra Qirg‘izistonda birin-ketin ro‘y bergan “rangli inqilob”larni, 2011 yilda boshlangan “Arab bahori”ni keltirish mumkin.

Rossiyalik tadqiqotchi N.A.Komleva: “Arab bahori”, deb 2011 yil bahorida Shimoliy Afrika va Yaqin sharq mamlakatlarida tez shiddatlarda yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar yig‘indisiga aytish mumkin”, degan fikrni bildiradi. Tadqiqotchi, M.Muhammadsidiqov N.A.Komlevaning fikrini davom ettirgan holda “Arab bahori” mazkur mamlakatlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi murakkab ichki vaziyatga nisbatan norozilik harakati edi, lekin bu hodisalarni amalga oshishida, albatta, tashqi ta’sirlarning ham roli katta bo‘lgan”, deya tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikriga qo‘shilgan holda aytish kerakki, hozirda mafkuraviy poligonlar dunyo davlatlarining barchasiga ta’sir etishga urinmoqda. Lekin mazkur ta’sir aksariyat hollarda, yangi asrdagi axborot xurujiga tayyor bo‘lmagan, fuqarolarida etarlicha siyosiy madaniyat va mafkuraviy immunitet shakllanmagan davlatlar hayotida og‘ir oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ham hozirgi sharoit taqozosiga ko‘ra O‘zbekiston fuqarolarida siyosiy madaniyat va mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasi o‘ta dolzarblashib bormoqda.

Ma’lumki, kishilarning siyosiy faolligini oshishida jamiyatda tarqalayotgan axborotlarning roli beqiyos. Axborot ta’sirida kishilardagi siyosiy faoliyat “olomon harakati” ko‘rinishida ham yoki sog‘lom siyosiy e’tiqod negizidagi siyosiy madaniyat ko‘rinishida ham vujudga kelishi mumkin. Axborot xuruji ta’sirida vujudga keladigan, kishilarning siyosiy hissiyotiga asoslanuvchi “olomon harakati”, albatta, har bir davlatda ko‘ngilsiz oqibatlarni keltirib chiqarishi tabiiy. Shuning uchun ham tarixdagi aksariyat davlatlar o‘z siyosatlarida axborotning bu yovuz kuchiga asosiy e’tiborni qaratib kelgan. Masalan, sobiq SSSR mafkuraviy kurashda raqiblarining axborot xurujidan ximoyalanish uchun mamlakatni dunyo axborot manbaidan izolyatsiyalash siyosatini olib borgan. Ta’kidlash lozimki, hozirda bunday yo‘l jahon davlatlari tomonidan ham, O‘zbekiston tomonidan ham qoralangan. Chunki, mamlakatni dunyo axborot manbaidan izolyatsiyalash siyosati o‘ta xato siyosat bo‘lib, jamiyatni jahondan uzilib qolishiga, mamlakatni turg‘unlashuviga hamda inson huquqlarini poymol etilishiga olib keluvchi yo‘lligi ma’lumdir.

Axborot xuruji real bo‘lgan hozirgi sharoitda biz, fuqarolarning axborot olish va uni tarqatish borasidagi konstitutsiyaviy huquqini ta’minlagan holda, milliy mentalitetimizga mos ravishda ularning ongida mavjud axborotlarni saralay oladigan shaxsiy “filtr”ni shakllantirishimiz zarurdir.

Kishilar ongida shaxsiy “filtr”ni yoki O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, mafkuraviy immunitetning shakllanishi jamiyatimizda ratsionallikka asoslangan, vatanparvarlik, millatparvarlik, baynalminallik hamda yurt tinchligi kabi me’yor va mezonlarga ega bo‘lgan siyosiy madaniyatni vujudga kelishini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan faoliyatidir. Uning natijasida yoshlar O‘zbekiston degan nomni eshitganda, Vatan bayrog‘i baland ko‘tarilganda quvonch, iftixor tuyg‘usini tuyishi lozim. Vatanga bo‘lgan muhabbat hissi ularning qalbida jo‘sh urishi kerak. Ona-Vatanimizni ko‘z qorachig‘idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish, o‘sib kelayotgan avlodning hayotiy va professional ko‘nikmalarni ilm-ma’rifat asosida yuksaltirish har bir ustoz-murabbiyning burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.–Toshkent:O‘zbekiston, 2016. –8-b.
2. Milliy g‘oya va rahbar ma’suliyati. –Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 2007. – 533-b.
3.Komleva N.A. Arabskaya vesna: geopoliteskiy aspekt // [Elektronnыy resurs]-Rejim dostupa-URL: ://www.philos.lv/Citu_raksti/Arabskaja.html (data obraщeniya: 14.03.2014)
4. Muhammadsidiqov M. Afrika davlatlarida dinning siyosiylashuvi va uning siyosiy jarayonlarga ta’siri. Siyosiy. fan. dok. dis. avtoref.–Toshkent:2018. – 30-b.

ZAXIRA (REZERV) DAGI OFITSERLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MILLIY QAHRAMONLARIMIZNING O‘RNI

Tagayev Vadim Ismailovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv Markazi boshlig‘ining moddiy-texnik ta’minot bo‘yicha o‘rinbosari, dotsent, podpolkovnik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada berilgan ma’lumotlar, talaba yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qahramonlarimizning o‘rnini keng yoritib beradi. Pedagogik jarayonda vatanparvarlik tarbiyasining millatimiz qahramonlari bilan bog‘liqligiga ishora sifatida foydalanish mumkinligini anglatadi. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har qanday jamiyatda ham echimi zarur bo‘lgan muammo sifatida qarab kelingan. Zero faqatgina vatanparvarlik ruhida tarbiya topgan, ma’nan etuk yoshlargina haqiqiy kelajak quruvchilari sanaladi.

Аннотация: Информация, приведенная в данной стате, проливает свет на рол наших натсионалних героев в воспитании студенческой молодежи в духе патриотизма. Это значит, что его можно исползоват в педагогическом процессе, как указание на связ патриотического воспитания с героями нашего народа. Воспитание молодого поколения в духе патриотизма рассматривается как проблема, требуюшая решения в любом обшестве. Вед толко зрелая молодеж, воспитанная в духе патриотизма, считается истинними строителями будушего.

Annotation: The information provided in this article sheds light on the role of our national heroes in educating students in the spirit of patriotism. This means that it can be used in the pedagogical process as an indication of the connection betweyen patriotic education and the heroes of our people. Raising the younger generation in the spirit of patriotism is considered a problem that needs to be solved in any society. After all, only mature youth, brought up in the spirit of patriotism, are considered true builders of the future.

Kalit so‘zlar: Vatanparvarlik, mafkura, g‘oya, millat qahramonlari, jamiyat, yoshlar, harbiy ta’lim.

Ключевие слова: Патриотизм, идеология, идея, natsionalние герои, обшество, молодеж, военное образование.

KeyWords: Patriotism, ideology, idea, national heroes, society, youth, military education.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev o‘zining "Yangi O‘zbekiston strategiyasi" kitobida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tushunchasining haqiqiy ilmiy talqinini bayon qiladi va yangi O‘zbekiston qurilishi sharoitida vatanparvarlikning chuqur ma’naviy ma’nosini ochib beradi: "Buyuk kelajakka ega davlatni shakllantirish g‘oyasi faqat yuksak axloqiy fazilatlar, chuqur vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan kuchli, yosh avlodning qo‘lida". Ushbu tarixiy vazifaga erishishda yuksak ma’naviyatning ichki manbai - milliy g‘oya yotadi.

XXI asr shiddat bilan o‘zgarayotgan nanotexnologiyalar asri sifatida e’tirof etiladi. Jahonning mafkuraviy manzarasida aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qiluvchi g‘oyalarning shakllanishiga zarur sharoit yaratishga e’tibor berish tendensiyalari kuzatilmoqda. XXI asrning mafkuraviy maydonlaridagi siyosiy raqobat, yadro poligonlaridan ham shiddatliroq tus olayotganligini kuzatishimiz mumkin. Jahondagi rivojlangan davlatlar, o‘z ta’sir doiralarini kengaytirish orqali, rivojlanayotgan davlatlarga har tomonlama ta’sir o‘tkazishlari, o‘zlarining geosiyosiy manfaatlarini ko‘zlab, demokratiya niqobi ostida harakat qilayotganliklarini kuzatishimiz mumkin. Har bir jamiyatning to‘liq shakllanmagan qatlami bu yoshlar hisoblanadi. Turli oqimlar, o‘zlarining buzg‘unchi g‘oyalarini yoshlar ongiga singdirishlari uchun keng ko‘lamli imkoniyatlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilishi kuzatilmoqda.

Dunyodagi rivojlangan davlatlar, xalqaro raqobat shartlariga kirib borayotgan bir paytda, yoshlarni yuksak ma’naviy axloqli, vatanparvar qilib tarbiyalash, mafkuraviy tahdidlardan asrash, ularda Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish kabi jihatlarni shakllantirishda millatimiz qahramonlarining hayot yo‘llari, ularning tarix zarvaraqalarida qoldirgan izlari etakchi o‘rin egallamog‘i darkor.

Vatanparvarlik - bu insonning Ona Vataniga, o‘z millati hamda tug‘ilib o‘sgan madaniy muhitiga, ota-onasi hamda ahli oilasiga bo‘lgan muhabbatidir. Vatanparvarlikning ushbu tabiiy asoslari, tabiiy tuyg‘u sifatida uning axloqiy ahamiyatini har bir insonda burch va fazilat sifatida birlashtiradi. Bugungi kunda jamiyat yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosi ayniqsa dolzarb muammo sifatida davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Hukumatimiz tomonidan oliy ta’lim muassasalari talabalarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga jiddiy e’tibor karatilayotgani, buning yaqqol dalilidir.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni, ayniqsa oliy ta’lim muassasalarining harbiy ta’lim fakulteti talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ayniqsa milliy qahramonlarimiz, ota-bobolarimizning Vatan, yurt uchun fidoyiliklari tarbiya jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Har bir yosh avlodning ongu-shuuriga, buyuk ajdodlarimiz Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Bobur kabi buyuk sarkardalarimizning Vatan ravnaqi, yurt tinchligi uchun qahramonliklarini singdira olsakgina, haqiqiy millatparvar, jonkuyar, sha’ni, qadr-qimmati, millatini ulug‘lay oladigan insonlarni tarbiyalay olamiz.

Millat farzandlarining tomirida oqayotgan qoni, ularni o‘tmishdagi ota-bobolari bilan bevosita bog‘lab turuvchi rishta sanaladi. Yosh avlod tarbiyasida doimiy ravishda o‘tmishimizga suyanamiz va tayanamiz. Shu o‘rinda, bobokalonimiz shoh va buyuk sarkarda Boburning jasorati yosh avlodning tarbiyasida muhim rol uynashini ko‘rishimiz mumkin. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida Javoharlal Neru shunday yozgan edi: “Bobur Hindistonga kelgandan keyin, katta siljishlar yuz berdi va yangi rag‘batlantirishlar hayotga, san’atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi”.

Bundan tashqari “Hindistonning kashf etilishi” kitobida Javoharla’l Neru Bobur haqida ushbu so‘zlarni e’tirof etgan: “Bobur dilbar shaxs edi. uyg‘onish davrining ajoyib sultoni, kuchli, tadbirkor kishi bo‘lib, san’atni, adabiyotni, go‘zallikni sevardi”.

“Boburiylar sulolasi” Hindistonda 300 yildan ortik hukmronlik kilishdi. Vatandoshimiz va uning avlodlari tomonidan o‘zga yurtlarda amalga oshirgan ezgu ishlari, qoldirgan madaniy me’roslari, jahon sivilizatsiyasida alohida o‘ringa ega.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, millatiz qahramonlari tomonidan amalga oshirilgan har qanday hayrli ishlar, yurtimiz yoshlari qalbida chuqur iz qoldirib, vatanparvarlik tuyg‘usini singdira oladi. Harbiylarda vatanparvarlik tushunchasi, ularning kundalik faoliyatlari bilan bevosita bog‘liq tushuncha sanaladi. Mashg‘ulotlar jarayonida talabalarga buyuk ajdodlarimiz, ularning insoniyat tarixida tutgan o‘rni haqida doimiy ravishda etkazib borish, ta’lim jarayonini ayniqsa amaliy mashg‘ulotlar, dala o‘quv mashg‘ulotlarini tarixiy qahramonlarning faoliyatlarini yoritish orqali bog‘liqlikda o‘tkazish, talabalarda vatanparvarlik, vatanga muhabbat, o‘zligini anglash, millati uchun g‘urur kabi tuyg‘ularni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bo‘lajak ofitserlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi uchun muhim poydevor vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60- son Farmoni.

2. Sh. M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2021. - 464 bet.

3. Javoharlal Neru - Hindistonning kashf etilishi kitobi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЗОВАНИЯ ДЕЛОВЫХ ИГР ПРИ ПОДГОТОВКЕ КУРСАНТОВ ВЫСШИХ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Медетова Раушан Мамадияровна, заведующая отделом Националного института педагогики воспитания, д.п.н., старший научный сотрудник,
Хушвактов Бабур Мухитдинович, вр.и.о. началника Главного управления кадров Министерства обороны Республики Узбекистан, полковник

Аннотация. В данной стате раскрыты педагогические аспекты применения деловых игр в процессе обучения в высших военных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: обучение, деловая игра, образование, педагогика, высшее военное образовательное учреждение, курсант, преподаватель.

Annotatsiya. Ushbu maqola oliy harbiy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonida ishbilarmonlik o‘yinlaridan foydalanishning pedagogik jihatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: mashg‘ulot, ishbilarmon o‘yin, ta’lim, pedagogika, oliy harbiy ta’lim muassasasi, kursant, o‘qituvchi.

Annotation. This article reveals the pedagogical aspects of the use of business games in the learning process in higher military educational institutions.

Key words: learning, business game, education, pedagogy, higher military educational institution, cadet, teacher.

Решение проблем эффективного обучения и воспитания курсантов неразрывно связано с поиском новых продуктивных методов. Для овладения новыми знаниями и навыками в условиях Нового Узбекистана преподаватели высших военных образовательных учреждений могут восползовтся разнообразными способами и методами, но наиболее эффективными из них являются деловые игры. Определяя в самом общем виде сут деловой игры, можно сказат, что это – метод имитации, принятия оптималных решений в различных ситуациях посредством игры по заданным или вырабатываемым самими участниками игры правилам, в нашем случае – курсантов. В связи с этим, чаще всего, деловые игры называют имитационными играми.

Деловые игры имеют весма широкий диапазон применения: в учебных целях, в исследовательских работах, в проектных разработках, в коллективной выработке решений, что обусловливает их болшое разнообразие.

Следует также имет в виду, что игры с применением инновационных и цифровых технологий требуют от курсантов болших и разносторонних знаний в самых различных областях. Посколку деловые игры предназначены для выработки и принятия правилных решений курсантами в различных ситуациях. Такого рода решения принимаются в различных областях человеческой деятелности, поэтому и диапазон применения деловых игр очен обширен. Однако можно выделит четыре основные сферы исползования

деловых игр: для принятия решений в военно-тактических задачах, экстремалных ситуациях, особенно, при необходимости учета многочисленных факторов, не все из которых могут быт однозначно количественно определены; в научных исследованиях, когда определенные задачи и теоретические положения изучаются и анализируются методом игрового моделирования; при отборе рационалных вариантов проектных решений, для уточнения подлежащих проработке организационных проектных игр; при обучении курсантов в высших военных образовательных учреждениях.

Для проведения деловой игры разрабатывается документация, в составе которой рекомендуется дат словар употребляемых терминов и понятий для их однозначного толкования: объект или процесс, моделируемый в игре, проспект деловой игры, сценарии, игровая обстановка, регламент, преподавател, возглавляющий группу курсантов, игровые команды, игроки, игровая рол, группа экспертов, счетная группа, игровая деятелност, деятелност по поводу игры, проблема мотивов, вход и выход деловой игры, оснащение деловой игры.

Ознакомление курсантов с деловой игрой проводится в несколко этапов. На первом этапе преподавател в общих чертах знакомит курсантов с содержанием и сутю проведения деловой игры и передает им материалы игры. Материалы должны быт размножены таким образом, чтобы каждый курсант имел необходимые ему составные части. Затем каждый курсант получает задание для изучения материалов игры и подготовки к контролной проверке.

Через определенное время проводится второе занятие, на котором преподавател разбирает с курсантами неясные и спорные положения и предлагает им писменно ответит на вопросы, касающиеся содержания и порядка проведения деловой игры. После контролной работы для усвоения процедуры деловой игры проводится пробное ее проигрывание. Убедившис, что курсанты достаточно хорошо усвоили ее процедуру, преподавател объявляет о начале игры. Участники деловой игры, проведя несколко ее циклов, приобретают навыки уверенного поведения в сложной обстановке, вырабатывают точност и внимание при выполнении своего дела, получают возможност быстрее осязат и анализироват результаты деятелности.

Если деловая игра проводится в несколко циклов, то после последнего цикла деятелност участников игры и оценка каждого ее участника анализируются. С конструктивной точки зрения деловые игры характеризуются входом, выходом, последователностю действий участников, правилами игры, оснащением, катализатором, влияющим на скорост преобразования входа и выхода. Вход деловой игры обеспечивается определенными исходными данными и сведениями. В учебных деловых играх достаточно лиш некоторое правдоподобие количественных параметров исходных данных и сведений. Более того, преподавател может менят исходные данные в ходе игры. Выходом деловых игр являются те результаты, достижение которых преследовалос игрой: научный результат, оценка проекта,

принятие решения, а также способности, приобретаемые курсантами, дающие им возможност участвоват в принятии решений в реалных боевых или служебно-должностных условиях.

Для преподавателя выходом деловой игры является накопленный опыт и материалы, которые он исползует для проведения нового тура игры или для разработки новой игры. Последовательност действий участников деловой игры определяется некоторой областю возможных решений. В правилах деловой игры не фиксируются решения, одно из которых на каждом шаге игры выбирает тот или иной игрок. Правила задаются в такой форме, чтобы у каждого игрока была возможност перестроит свою работу в соответствии с выявляющимися промежуточными результатами, хотя и допускается включение в информационную структуру игры определенного перечня решений, заранее сформулированных конструкторами игры.

В оснащение любой деловой игры входят инструкции, программы, алгоритмы обработки данных. Катализатором в деловых играх выступает преподавател, имеющий некоторый набор факторов, влияющих на скорост протекания деловой игры. Определенные стимулы к ускорению игры должны имет и курсанты.

К основным принципам построения и проведения деловых игр относятся: наглядност и простота конструкции деловой игры.

Имитационная игра, или, как ее иногда называют, искусственная деятелност, должна быт по возможности простой по сравнению с реалной деятелностю, чтобы обеспечит обозримост проводимого эксперимента, и достаточно сложной, чтобы создат необходимый уровен соответствия эксперимента реалной действителности.

По своей конструкции, составу участников, информационно-технической базе деловая игра должна как можно более полно отразит сущност и характер функционирования имитируемого с ее помощю объекта.

Принцип автономности тем и фрагментов деловой игры требует определенной гибкости структуры игры, для того чтобы отделные ее части могли разыгрыватся курсантами относително самостоятелно.

Возможност далнейшего совершенствования и развития конструкции деловой игры включает: рациналное сочетание в игровом эксперименте игровой деятелности и деятелности по поводу деловой игры.

В самом общем виде деловая игра создается в такой последовательности: формулировка цели проведения деловой игры – формирование деятелности по поводу игры – конструирование игровой деятелности – максималное освобождение участников деловой игры от рутинных игровых процедур – максималное исползование готовых разработок.

Любая деловая игра призвана оказат помощ в разрешении определенной проблемы, исследовании определенной производственной ситуации, принятии решения, усвоении определенного учебного курса или группы дисциплин и т.д.

Целесообразно соблюдение ряда принципов организации проведения игровых имитационных экспериментов, среди которых важнейшими является *полное погружение участников деловой игры в проблематику* моделируемой в игре организационной системы. Этот принцип означает, что участники деловой игры в течение всего времени ее проведения должны заниматся изучением и анализом толко тех вопросов, которые относятся к данной игре.

Постепеннost вхождения участников деловой игры в эксперименталную cimyatsiю. Сут этого принципа состоит в том, что все основные сведения по рассматриваемой в игре проблеме курсанты получают не до начала, а в процессе игровой деятелности. Причем первые циклы игры должны быт максимално упрощены с тем, чтобы легко осваивалас игровая деятелност. Эти циклы должны сопровождатся лекциями на общие, а не на конкретные применително к игре темы. Подробное и более детализированное изучение всех материалов, относящихся к игре, должно базировatся на опыте работы курсантов в условиях игры. Такая последователност проведения деловой игры позволяет лучше мобилизоват курсантов на творческую и более продуктивную работу со всеми материалами по изучаемой проблеме.

По мнению психологов, обучаемые приобретают необходимые навыки на лекциях – около 30%, при самостоятелной работе с литературными источниками – около 50%, а при личном участии в изучаемой деятелности – до 90%.

Равномерная нагрузка означает, что участники игры получают ежедневно новые знания относително равномерно и равными порциями. Вручаемые игрокам материалы должны быт подобраны таким образом, чтобы освоение их проходило относително равными затратами умственной и физической энергии.

Соблюдение принципа равномерной нагрузки обеспечивает повышение технологичности деловой игры.

Правдоподобие эксперименталной cimyatsiu означает, что игровая деятелност должна быт в значителной мере похожа на реалную. Это помогает курсантам деловой игры лучше уяснит изучаемую проблему, проявлят болше активности и творческого подхода к делу.

Принцип правдоподобия реализуется в деловой игре через: а) правдоподобие реакции внешней среды; б) исползование комплекта реалных форм плановых и отчетных документов; в) правдоподобие процедур принятия решений и способов доведения их до исполнителей; г) похожест на реалную organizatsiю взаимодействия участников игры (проведение совещаний, летучек и т.п.).

Принцип участие преподавателя состоит в том, что для успешного проведения деловой игры необходимо участие в ней командира подразделения или его заместителя. Наш многолетний опыт показывает, что соблюдение принципа участия преподавателя сказывается на достижении целей проведения деловой игры. Если преподавател участвует в игре и относится к ней серезно, то и другие курсанты высших военных образовательных

учреждений с полной ответственностью выполняют обязанности, вытекающие из их участия в игровом эксперименте, что позволяет преодолет возникающий нередко психологический барер между организаторами и участниками деловой игры.

Перечисленные принципы не являются исчерпывающим перечнем всех требований, предъявляемых к разработке и проведению деловых игр. Однако они служат разработчикам, участникам и организаторам деловых игр своего рода ориентирами и вехами, обозначающими правилност пути имитационного моделирования объектов и систем.

Теоретико-методологическое обоснование и разработка педагогически эффективной системы применения деловых игр способствуют моделированию игровых ситуatsiй у курсантов, что важно для выработки у них умения принимат правилное решение в различных ситуациях.

Для решения поставленных задач предлагалос исползоват совокупност методов исследования: теоретический анализ научной психолого-педагогической и военно-специалной литературы по проблеме исследования; анализ результатов деятелности высших военных образователных учреждений; педагогический эксперимент, в процессе которого исползовалис следующие способы осуществления мониторинга: наблюдение, экспликация как развертывание содержания подготовки курсантов; опросные методы: беседы, анкетирование, интервюирование.

Исследование проводилос в три этапа. Первый этап включал в себя анализ психолого-педагогической и военно-специалной литературы по проблеме исследования, ее теоретическое осмысление, определение методологических основ педагогического исследования (целей, задач научного поиска, разработку программы и методики проведения педагогического исследования).

Второй этап был посвящен разработке организационно-педагогических аспектов конструирования системы моделирования игровых ситуаций у курсантов и опытно-экспериментальной программы ее технологической реализации в образовательной практике.

Третий этап стал этапом реализации программы экспериментального исследования, разработки методических рекомендаций для исползования полученных результатов в практике образовательного процесса. На данном этапе особое внимание уделялос применению на учебных и практических занятиях деловых игр. Были обобщены результаты опытно-экспериментальной работы, проведена математическая обработка экспериментальных данных, проверена эффективност сконструированных систем и технологий, осуществлено оформление материалов опытно-экспериментальной работы.

Сопоставление данных, полученных по результатам обучающего этапа эксперимента, с данными констатирующего этапа, показало, что педагогические возможности моделирования игровых ситуаций позволили повысит качество подготовки респондентов экспериментальных групп по

сравнению с контролными группами и доказали эффективност моделирования игровых ситуаций к исследованию данной научной проблемы.

Основной контингент респондентов эксперименталных групп переместился на более высокий уровен успешности. Примечательно то, что курсанты эксперименталной группы, обучаяс по предложенной нами методике, за истекший период показали более высокие результаты в сравнении с курсантами контролной группы, не принимавших участие в обучающем этапе опытно-эксперименталной работы, что подтверждает эффективност предлагаемых мер.

Анализ данных опытно-эксперименталной работы свидетелствует о благотворном влиянии сконструированной системы на моделирование игровых ситуаций у курсантов, об эффективности эксперименталного дидактического и методического инструментария в процессе его внедрения в образователный процесс высшего военного образователного учреждения, посколку курсант должен умет принимат решения и быт готовым делат это самостоятелно и квалифицированно.

Многолетний опыт работы в системе высшего образования показывает, что исползование деловой игры в процессе моделирования игровых ситуаций у курсантов является эффективным методом формирования качеств, необходимых для далнейшей профессионалной деятелности. Преподавателям, участвующим в процессе моделирования игровых ситуаций у курсантов, необходимо знат основные понятия, методологию и порядок построения деловых игр и широко применят их в процессе обучения в высшем военном образователном учреждении.

Литература

1. Мардаехаев Л.В., Харченко А.А. Воспитание курсантов военного вуза в современных условиях: Учебно-методическое пособие / Под общ. ред. А.А.Харченко. – Орел, 1995.

2. Медетова Р.М. Умение вызыват желание молодёжи к научным изысканиям // Uzluksiz ta’lim. – T., 2013. – 4-son. – B. 121-125.

3. Хруцкий Е.А. Организация проведения деловых игр: Учебно-методическое пособие для преподавателей средних специалных учебных заведений. – М., 1991.

Таълим тизимининг мослашувчан бошқаришнинг ташкилий-педагогик шакллари ва тамойиллари

Джураев Акбар Салимович педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент. Олий таълим тизими кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти

Аннотация: мақолада олий таълим муассасаларида мослашувчан таълим муҳити ва бошқарувнинг ташкилий-педагогик шакллари келтирилган.

Калит сўзлар: мослашувчан таълим муҳити, индивидуал, трансформация, олий таълим, ташкилий-педагогик.

Замонавий шароитда таълим мақсадига эришиш, таълимни инсонпарварлаштириш орқали ҳал қилинади. Ўз навбатида, инсонпарварлаштириш деганда, кўпинча талабанинг ижтимоий муҳитга таълим жараёни орқали мослашиши тушунилади. Педагогикада ва хусусан таълимда мослашиш категорияси биология, социология, психология билан ўхшашлик орқали ташқи муҳитга мослашиш сифатида тушунилади. Кенг маънода мослашиш - бу организмнинг тузилиши ва функцияларини мавжудликнинг ўзгарган шароитларига мослаштириш жараёнидир. Мослашиш учун зарур шарт-шароитлар инсоннинг ички заҳиралари, жумладан, у алоқа қиладиган муҳитнинг ташқи шароитлари, шунингдек, уларнинг ўзаро таъсири ҳисобланади.

Ички заҳиралар ва ташқи шароитлар ўзаро таъсирлашганда, иккита сценарий юзага келади: биринчисига кўра, ташқи шароитларнинг ўзгариши ички ўзгаришларга олиб келади, иккинчисига кўра, ички ўзгаришлар ташқи шароитларнинг ўзгаришини талаб қилади. Биринчи сценарийни амалга ошириш ҳар қандай шароитда ҳаётнинг бутун хилма-хиллигига мослашиш учун туғма равишда олинган қобилият сифатида инсоннинг мослашувига асосланади.

Педагогикага нисбатан талабанинг ташқи ижтимоий шароитларга мослашиши эса, таълим мақсади сифатида тушунилади. Шу билан бирга, таълим натижалари ўқувчининг ички хусусиятларини билдиради, натижада таълим жараёнида мослашишнинг мумкин эмаслигига олиб келадиган бўшлиқ пайдо бўлади. Бундай бўшлиқни бартараф этишга уринишлардан бири мослашувчан ўқув муҳитини кўриб чиқишдир.

Мослашувчан таълим муҳити деганда, ўзгарувчан ташқи муҳит шароитларига мослашадиган, бир томондан, талабаларнинг индивидуал хусусиятларига кўра имкон қадар кўпроқ мослашишга интиладиган ижтимоий-педагогик тизим тушунилади. Бошқа томондан қараганда эса, жамият талабларига имкон қадар мослашувчан жавоб бериш таълим жараёнида мослашишнинг мумкин эмаслигига олиб келади. Бундай бўшлиқни

бартараф этишга уринишлардан бири мослашувчан ўқув муҳитини таҳлил қилишдир.

Мослашувчан ўқув муҳити талабанинг ташқи мақсадлари ва ички хусусиятлари, масалан, ўқув натижалари ўртасидаги ўринни эгаллайди ва мослашиш жараёнининг ҳар икки томонига мослашиш хусусиятига эга. У қандайдир педагогик назария доирасида тизимлаштириш орқали уларнинг ўзаро таъсирини таъминлаш воситаси сифатида ишлайди.

Педагогик назария доирасида ўқув жараёнининг тузилиши ва йўналишининг мавжудлиги унинг мазмунини аниқлаш ва уни бошқариш усулларини шакллантиришга ҳам имкон беради. Шунинг учун мослашувчан таълим муҳитини яратиш ўқув жараёнининг мақсадларига эришишни таъминлаш учун мўлжалланган.

Бу эса бизга ҳақиқатда эришилган натижаларнинг таълим мақсадлари билан мос келишининг ўлчови сифатида ўқитиш самарадорлиги ҳақида гапиришга имкон беради. Аммо шуни таъкидлаш керакки, натижалар ва мақсадларни ҳар доим ҳам солиштириш мумкин эмас, чунки улар мослаштирилган таълим муҳити - таълим жараёнининг "турли томонларида" жойлашган.

Тадқиқот натижаларига асосланган ҳолда айтишимиз мумкинки, таълим жараёнининг самарадорлиги мезонлари мослашувчан таълим муҳитини *биринчи сценарий бўйича* педагогик жараённинг ташқи ва ички омилларининг ўзаро таъсири сифатида тавсифлайди - ташқи шароитларнинг ўзгариши ички ўзгаришларга олиб келади ва таълим жараёнини интенсивлаштириш тоифаси - бу ўқув жараёнининг мослашувчан муҳит сифатида бошқарилишининг ўзига хос хусусиятидир.

Фикримизча, таълим жараёнини фаоллаштириш омилларини назорат қилиш орқали ташқи муҳитни ташкил этиш ва бошқариш талабанинг ички хусусиятлари ва таълим муҳитининг ташқи шароитлари ўртасидаги тафовутни бартараф этишга имкон бермайди, чунки таълим жараёнининг мақсадлари ташқарида ва ички хусусиятлар ноаниқ ва шунинг учун назорат қилиб бўлмайди. Ушбу талқинда таълимнинг интенсивлашуви деганда, ўқув жараёнининг ўртача унумдорлигини ошириш тушунилади, бу мақсадга эришиш учун ўқув жараёнини бошқаришни умумлаштирилган технологик ўқув жараёни мақсадига айлантиради.

Таълимнинг мақсади билвосита унинг ташқи тузилишида, ўқув жараёнининг технологик самарадорлигига айланиши ва унинг сифати ташқи ўртача, яъни ноаниқ мақсадларга эришиш учун ўқув жараёнининг назорат қилиш даражаси сифатида ягона ўқув жараёнининг самарадорлигига айланади. Шундай қилиб, мослашувчан таълим муҳитини бошқариш орқали мослашишнинг биринчи сценарийсини амалга ошириш ички мақсадларга эришиш учун етарли эмас.

Иккинчи мослашиш сценарийсига кўра, ички ўзгаришлар ташқи шароитларни ўзгартиришни талаб қилади. Бизнинг фикримизча, педагогикага нисбатан таълим жараёни ички, яъни бутун ўқув жараёнини ўзгартиришни

талаб қиладиган индивидуал мақсадлар мавжуд бўлгандагина энг самарали бўлиши мумкин. Ҳар бир ўқувчининг таълим натижалари самарадорлигини ошириш мумкин бўлган ўқув жараёнини интенсивлаштириш эса, таълим жараёнини индивидуаллаштириш нуқтаи назаридан талқин этилади.

Таълимнинг индивидуал *интенсивлашувининг биринчи омили* - ўрганишнинг индивидуал мақсадлилигини оширишдир. Шахсий ўқув мақсадларини аниқлаш ва унга эришиш учун индивидуал мақсадли педагогик жараёнда амалга ошириладиган ички тизимни қуриш керак, бу ҳолат эса, албатта ички индивидуал таълим мақсадини, индивидуал таълим мазмунини, мақсад билан боғлиқ бўлган назарий асосланган таълим усулини ва таълим натижаларини назорат қилиш усулини ўз ичига олиши керак. Таълимнинг ички мақсади фақат индивидуал бўлиши мумкинлиги сабабли, педагогик жараённи лойиҳалаш ўрганиш объектига, ички индивидуал педагогик тизим эса, субъектга айланади.

Ички индивидуал педагогик тизимни қуришнинг биринчи босқичи - бу бутун ўқув жараёнини индивидуаллаштириш, шунингдек, назарий тизимнинг қолган мақсадга боғлиқ параметрларини аниқлаш имконини берадиган ички индивидуал ўқув мақсадини аниқлашдир. Таълим мақсадини аниқлаш вазифани қўйишдан бошланади, унинг бошланғич шартлари талабанинг ички хусусиятлари бўлиши керак. Дастлабки параметрларни ҳисобга олган ҳолда, индивидуал таълим мақсад аниқлаб олинади.

Таълим мазмунининг индивидуал конструкцияси ўрганишнинг ички индивидуал мақсадига айланади. Яъни, педагогик тизимни қуришнинг биринчи босқичи амалга оширилиб, мақсад таълим мазмунининг назарий конструкциясига айланади. Ўрганиш мақсади педагогик тизимнинг асосий элементи бўлиб қолади, унинг чегарасидан ташқарига чиқмайди. Айтиш мумкинки, мақсадни белгилашда яширин педагогик объект - талаба ҳисобланиб, унинг ўрнини ўзига хос таркиб конструкцияси эгаллайди, натижада ўрганишнинг индивидуал мақсади бўлиб, мазмунан индивидуал таълимга айланади.

Педагогик тизимни қуришнинг иккинчи босқичи - ўрганишнинг ички мақсадига мослаштирилган ўқув мазмунини ёки таркибни лойиҳалаш жараёнидир. Мақсадга мослаштирилган ўқув мазмунини қуриш жараёни иккита функция, хусусан бошқарув ва мавзу орқали очиб берилиши керак. Мослашувчан таркибни лойиҳалашнинг бошқарув функцияси ички мақсад билан боғлиқ бўлган таълим мазмунининг индивидуал тузилмасини яратишга қаратилади. *Бошқача қилиб айтадиган бўлсак, ўқитувчи таркибнинг индивидуал конструкцияси сифатида ўрганишнинг ички мақсадларини ҳисобга олган ҳолда, маълум бир режани, индивидуал мақсадларни максимал даражада амалга оширадиган ўқув траекториясини тузади (аниқлайди), бунда талабанинг таълим жараёни ривожланади.*

Шубҳасиз, таълим мақсадини индивидуаллаштириш ва уни индивидуал йўналтирилган ўқув траекториясини қуриш орқали амалга ошириш таълим жараёнини индивидуал қилади. Мақсадга мослашган таркибни қуришнинг

предметли функцияси бизни дидактика муаммолари билан боғлайди ва маълум бир фан даражасида таълим мақсадларини очиб берадиган аниқ фан мазмунини қуришдан иборат бўлади. Бошқача айтганда, аниқлаштириш, фаннинг мазмунини белгилаш ва қуриш орқали мақсадни очиш содир бўлади.

Индивидуал (мослашувчан) таркибни қуришнинг бошқарув ва субъектив функцияларини амалга ошириш жараёнининг натижаси тизим учун маълум бир ички ўқув мазмунини қуриш, таълимнинг ички мақсадини (мақсадга мослашиш) ёки мослаштирилган ўқув мазмунини очиб беришдир.

Мослашувчан таълим мазмуни деганда биз дидактик даражадаги субъектлар нуқтаи назаридан аниқланган ва таълимнинг ички индивидуал мақсадини амалга оширадиган индивидуал таълим ўқув траекториясини тушунамиз. Юқоридагилардан келиб чиқадики, таълимнинг асосий эътиборини ташқи ўзгарувчан ва беқарор ижтимоий меъёрларга эмас, балки ички барқарор ва ўртача статик меъёрларга қаратиш керак. Ички меъёрлар деганда таълим мазмунининг ўзи тушунилиши керак. Бунда таълимнинг мақсади жараён эмас, балки таълимнинг ўзи, яъни унинг мазмуни, ички ва аниқлигидир.

Таълимда мослашиш тушунчаси таълим мазмунининг маълум бир вариантини ўзлаштириш орқали ифодаланади, ҳамда мазмуннинг ўзи маълум бир инвариант конструкциядир. Контент ўзгармаслигини индивидуал ўзлаштириш бизга мазмунни тўлиқ ўзлаштириш, шу жумладан унинг турли хил вариантлари ҳақида гапиришга шароит яратади, бу эса ички мазмунли мослашувга эришиш имконини беради. Бундай ҳолда, биринчидан, таълим мақсадларининг маъносизлиги йўқ, иккинчидан, таълим унинг натижаларини кузатиш нуқтаи назаридан диагностик бўлади, чунки таълим мазмунининг маълум бир инвариант модели мавжуд, учинчидан, мослашув индивидуал равишда аниқланган категория сифатида ишлайди. Бироқ, мослашувчан таълим жараёнини амалиётга татбиқ этишда ўзига хос қийинчиликлар мавжуд.

Лойиҳалаш жараёнида педагогик акс эттириш муҳим рол ўйнайди, бу орқали ўқитувчи таълим мазмунини талабанинг қобилияти ва мойиллигига мослаштиришга эришади. Ўқитувчининг педагогик акс эттириши стандарт талабларини сақлаб қолган ҳолда, таълим мазмунини талабанинг хусусиятларига мослаштиришнинг педагогик муаммосини ҳал қилиш асосий воситаси бўлиб хизмат қилади. Шу билан бирга, педагогик вазифа иккита асосий элементни, бир томондан таълим мазмунини, иккинчи томондан, ўқувчининг индивидуал хусусиятларини ўз ичига олади.

Педагогик акс эттириш ўқитувчининг таълим жараёнида иккала шартни ҳам ҳисобга олиш касбий қобилиятида ётади. Шу муносабат билан таъкидлаш жоизки, мослашувчан таълим тизимларини бошқаришнинг асосий муаммоси - бу педагогик конструкцияларни назарий жиҳатдан қуриш, хусусан, мослаштирилган контент конструкциясини қуриш бўйича махсус тайёргарликка эга бўлган педагогик кадрларнинг етишмаслигидир.

Хулоса қилиб айтишимиз мумкинки, юқорида қайд этилган мақсадлардан келиб чиққан ҳолда, олий таълим тизимида амалга

оширилаётган мақсадли ислоҳотлар мамлакатимиз олий таълимини Европа таълим маконига интеграциялашуви, унинг мазмун-моҳиятини Болония жараёни тамойилларига мувофиқлаштириш, жозибадорлиги ва рақобатбардошлигини таъминлаш, талабни қондиришни ўз ичига олади. Иқтисодиётнинг билимга асосланган талаблари асосида кадрлар салоҳиятини яратиш замонавий талабларга жавоб берадиган олий таълим олиш имкониятини таъминлаш учун иқтисодий ва ижтимоий жиҳатдан самарали олий таълим тизимини шакллантириш концепциясини амалга оширишга олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Смыслова Н.М. Социально-педагогическая адаптация студентов образовательных учреждений среднего профессионального образования: диссертация . кандидата педагогических наук. - Нижний Новгород, 2012. - 164 с.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш” тўғрисидаги ПФ-6097-сон Фармони.
3. Умаров Л.М. Электрон ахборот таълим ресурслари асосида педагоглар касбий компетентлигини ривожлантириш бошқарувини такомиллаштириш (халқ таълими педагогларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизими мисолида) Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2020. –Б.5.

«TA’LIM AMALIYOTIDA BO‘LAJAK OFITSERLARNING KASBIY MUHIM SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOGNITIV TADQIQOTLARNI QO'LLASH»

To‘xtayev Nasim Yaxyoyevich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti
Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi sikl boshlig‘i, dotsent, podpolkovnik

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim amaliyotida bo‘lajak ofitserlarning kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirishda kognitiv tadqiqotlarni qo‘llash hamda xizmat jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: bo‘lajak ofitser, kasbiy ma’suliyat, kognitiv, ta’lim-tarbiya, kasbiy kompetentlik.

Ma’lumki, kasbiy bilimlar insoning faoliyatini tashkil etishida tayanch asos bo‘lib xizmat qiladi. Uni kognitiv qabul qilish natijasida bo‘lajak ofitserlarda kasbiy ijodkorlik va kasbiy faollik rivojlanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘risidagi” Qonuni va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy bilimlarini tizimli o‘zlashtirish va o‘z faoliyatlarida qo‘llash kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Oliy pedagogik ta’lim tizimi uning mazmunini takomillashtirishga qo‘yilayotgan talablar harbiy ta’limni rivojlantirish ehtiyojlaridan kelib chiqmoqda. Bo‘lajak ofitserlarni kasbiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonlarda kursantlarni shaxslararo muloqotga tayyorlash, sub’yekt-sub’yekt munosabatlariga kirishishlari uchun sharoit yaratish, ularda shakllangan kasbiy bilimlarni muntazam diagnostika qilish, ofitserlar faoliyatini tashkil etishining samarali texnologiyalar bilan ularni qurollantirishi, shu asosda bo‘lajak ofitserlarni kasbiy kompetentligini tarkib toptirish, harbiy ta’lim sifatini ta’minlashga layoqatli ofitserlarni tayyorlash imkonini beradi.

Bo‘lajak ofitserlarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish insonning bilish jarayoni bilan bevosita bog‘liqdir. Insonning bilish jarayoni psixik jarayonlarning tizimli tarzda namoyon bo‘lishini ifodalaydi. Bular bo‘lajak ofitserning kasbiy bilimlarni idrok etishi, xotirasida saqlab qolishi, eslab qolishi, qayta ishlashi, interpretatsiyalashida o‘z ifodasini topadi.

Bo‘lajak ofitserlarning kognitiv ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini egallashlarida texnologik bosqich muhim ahamiyatga ega. Bu bosqichda bo‘lajak ofitserlarning ta’lim-tarbiya jarayoni va jangovar tayyorgarlikning barcha bosqichlarini loyihalashda bo‘lajak ofitserlarni rivojlantirish tamoyillariga amal qilish ko‘nikmasini egallashlari kerak. Bo‘lajak ofitserlarning pedagogik vositalar, qo‘llaniladigan texnologiyalar, ta’lim-tarbiya natijasining kafolatlanganligini ilg‘ay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak ofitserlar kognitiv ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashda ta’lim mazmuniga bo‘lajak ofitserlarning shaxsiy tajribalarini mujassamlashtirish prinsipiga amal qilish zarurligi haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi muhimdir. Bunda bo‘lajak ofitserlar dialog asosida o‘z bo‘lajak ofitserlari bilan hamkorlikka kirishish

tajribasini ham egallashlari kerak. Kognitiv ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlashda bo‘lajak ofitserning uni nechog‘lik aniq loyihalashtira olganligi, maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish mahorati ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bo‘lajak ofitserlar ta’lim-tarbiya jarayonida rang-barang ish shakllaridan foydalanish mahoratini ham egallashlari kerak. Bo‘lajak ofitserlarning bunday ko‘nikmalarni egallaganliklari ta’lim jarayonida bo‘lajak ofitserlarga taqdim etiladigan o‘quv materiallarini maqsadga muvofiq tarzda tanlashi va loyihalashtira olishida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak ofitserlar bo‘lajak ofitserlarning o‘quv-biluv faoliyatlarini nazorat qilish ko‘nikmalarini ham puxta egallashlari zarur. Shundagina ular nazorat materiallari va vaziyatlarini aniq loyihalashtira oladilar. Bu esa, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Bo‘lajak ofitserlarni ilg‘or texnologiyalar bilan qurollantirish uchun quyudagilarga amal qilishi lozim:

– pedagogik amaliyot jarayonida ofitserlarining mashg‘ulotlari va ularning kasbiy faoliyati natijalarini tahlil qilish asosida ularning bu sohadagi kasbiy mahoratlarini ustoz-shogird munosabatlari asosida o‘rganishlariga imkoniyat yaratish;

– bo‘lajak ofitserlarni istiqboldagi pedagogik faoliyatlari davomida kognitiv pedagogik ijodkorlikva tashkil etish sohasida duch kelishlari mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni bashorat qilish asosida aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini izlashlariga o‘rgatish;

– bo‘lajak ofitserlar ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalash va tashkil etishga oid bilimlariga tayangan holda o‘zlarining istiqboldagi kasbiy faoliyatlarini tahlil va nazorat qila olishlarini ta’minlash;

– bo‘lajak ofitserlar ta’lim vositalarini maqsadga muvofiq holda tanlash va mazkur yo‘nalishdagi ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashda ulardan unumli foydalana olishlariga erishishlari kabilar.

Bo‘lajak ofitserlar ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashga tayyor bo‘lishlari uchun dastlab quyidagi ishlarni amalga oshirishlari kerak:

– amaliyot jarayonida bo‘lajak ofitserlar bilan muntazam suhbatlar o‘tkazish va ularga maslahatlar berish;

– tajribali ofitserlarning mashg‘ulotlariga qatnashish va batafsil tahlil qilish;

– ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish maqsadida tajribali ofitserlardan maslahatlar olish.

Bo‘lajak ofitserlarning ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashga oid o‘quv amaliy faoliyatlari ofitserlar tomonidan muntazam tahlil qilinishi, ularning bu sohadagi yutuq va kamchiliklari ko‘rsatilishi, ularni bartaraf etish yo‘llarining tavsiya etilishi alohida amaliy ahamiyatga ega.

Buning uchun bo‘lajak ofitserlar quyidagilarni bilishlari kerak:

– muayyan toyifadagi bo‘lajak ofitserlarga hos bo‘lgan individual xususiyatlar, mashg‘ulot jarayonida ularga qo‘yiladigan kuchaytirilgan talablar;

– ofitserning ta’lim-tarbiya jarayonidagi xatti-harakati bo‘lajak ofitser shaxsini rivojlantirishga qay darajada yo‘naltirilganligi;

– kognitiv ta’lim-tarbiya jarayonining tarkibiy tuzilishi, harakatlantiruvchi kuchlari nimalarda namoyon bo‘lishi;

– ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish sohasida muayyan ofitser erishgan yutuqlar va yo‘l qo‘ygan kamchiliklar nimadan iborat ekanligi kabilar.

Ta’lim-tarbiya jarayonini samarali loyihalash uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Bo‘lajak ofitser mashg‘ulot mavzusi, o‘quv materiallari mazmunini boyitishi, uni bo‘lajak ofitser shaxsiga yo‘naltirishga oid tajribalarni o‘zlashtirishi.

2. Bo‘lajak ofitser ta’lim-tarbiya jarayonida bo‘lajak ofitserning muvaffaqiyatga erishishi uchun qulay vaziyat yarata olishi, o‘quv materialini o‘zlashtirishda unga ko‘maklashishi.

3. Ta’lim-tarbiya jarayonida bo‘lajak ofitser o‘quv materiallarini bo‘lajak ofitserning shaxsiy tajribalari, bilimlari bilan uyg‘unlashtirgan holda tanlashi va loyihalashtira olishi lozim.

Ta’lim-tarbiya jarayonini o‘quv maqsadi bilan bog‘liq holda loyihalash ham uning samaradorligini ta’minlashda muhim didaktik ahamiyatga ega. Buning uchun:

1. Bo‘lajak ofitserlar ta’lim-tarbiya jarayoni loyihasida bo‘lajak ofitserga taqdim etiladigan o‘quv materiallarida uning yutuqlari, ijodiy tahlil natijalari, bo‘lajak ofitserning potensial imkoniyatlari, unda shakllangan tajribalar va kognitiv yo‘nalishning namoyon bo‘lishiga erishishi.

2. Bo‘lajak ofitserlar ta’lim maqsadi bilan bo‘lajak ofitserlarning imkoniyatlari, o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasi o‘zaro mutanosibligini ta’minlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.

Kognitiv ta’lim-tarbiya jarayonida muayyan o‘quv vaziyatlarini ijodiy fikrlash, muloqotga kirishuvchanlik, aniq faoliyatga yo‘naltirilganlik nuqtai nazaridan yondashgan holda loyihalashtirish ko‘nikmasini egallash ham bo‘lajak ofitserlardan muhim kasbiy bilimlarni o‘zlashtirishni talab qiladi.

Bo‘lajak ofitserlar kognitiv ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirishda, birinchi navbatda, bo‘lajak ofitserlarning shaxsiy taraqqiyotlarini ta’minlash nazarda tutilishi lozimligini yaxshi bilishlari kerak. Chunki, ta’lim-tarbiya jarayonida bo‘lajak ofitser bilan ofitser, bo‘lajak ofitser bilan bo‘lajak ofitserlar orasida o‘zaro muloqot, dialog tarzidagi suhbat, fikr almashish uchun qulay pedagogik vaziyat vujudga keltirilishi zarurligini bo‘lajak ofitserlar yaxshi anglab etishlari talab etiladi. Shu narsa ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayonida bo‘lajak ofitserlarning shaxsiy rivojlanishlari, kamol topishlari uchun ahamiyatli bo‘lgan natijalarni qo‘lga kiritish nazarda tutiladi. Xuddi mana shunday natijalarni nazarda tutgan holda bo‘lajak ofitserlar o‘quv jarayonini bo‘lajak ofitser shaxsiga to‘laqonli tarzda yo‘naltirishga asos bo‘ladigan loyihalarni shakllantirish tajribasiga ega bo‘lishlari zarur. Shunga ko‘ra, bo‘lajak ofitserlar ta’lim maqsadiga erishishni nazarda tutgan holda dars samaradorligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan holatlar, o‘quv topshiriqlari va metodikalarni qo‘llash muhimligini loyihalarda aks ettiradilar.

Ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta’minlashda kasbiy mahoratga ega bo‘lgan ofitserlarning o‘zaro hamkorligi, bir-birlarining tajribalaridan ijodiy

foydalana olish zarurligini bo‘lajak ofitserlar ongiga etkazish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bo‘lajak ofitserlar qo‘shin amaliyot davomida tajribali ofitserlar bilan maslahatlashishlari, ularning kasb mahoratlarini o‘zlashtirishlari muhimdir. Bo‘lajak ofitserlar kognitiv ta’limning konseptual asoslarini o‘rganish bilan bir qatorda, o‘quv faoliyatini metodik jihatdan uzluksiz ta’minlash yo‘llari, bo‘lajak ofitserlarda o‘z faoliyatlarini mustaqil tashkil etish tajribasining shakllanganligi, ta’lim-tarbiya jarayonining shaxsni rivojlantirishdagi imkoniyatlari, bo‘lajak ofitser shaxsini rivojlantirishga xizmat qiladigan vaziyatlarning mashg‘ulot jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini anglab etishlari lozim.

Xulosa o‘rnida aytish joyizki yuqorida ko‘rsatilgan bo‘lajak ofitserlar oldiga qo‘yilgan barcha talablar oliy harbiy ta’lim tizimi uchun yaratiladigan o‘quv dasturlari va darsliklarda o‘z ifodasini topishi zarur.

Bo‘lajak fitserlar kursantlarda faollik, ishbilarmonlik, ijodkorlik kabi ko‘nikmalarini shakllantirishga tayyor bo‘lishlari taqozo qilinmoqda. Shunga ko‘ra bo‘lajak fitserlar oldida ta’lim-tarbiya jarayoniga ijodiy yondashish, izlanuvchanlik, tadqiqotchilik, vaziyatlarni loyihalashtira olish, Davlat ta’lim standartlari va umummiliy dasturda belgilab berilgan barcha vazifalarni bajarishda faollik ko‘rsatish, ta’lim-tarbiya jarayoniga madaniy muhit sifatida yondashib, yangi pedagogik yondashuv va ijodiy tajribalarni qo‘llash, o‘quv jarayoni maqsadlari taksonomiyasini chuqur bilish kompetensiyasiga ega bo‘lishlari talab etilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Safarova R.G. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar: Monografiya. – T., 2023.

2. Talabalarning kognitiv qiziqishlarini shakllantirishning pedagogik muammolari: darslik / G.I. Shchukin. - M .: Pedagogika – T., 2008.

3. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi: Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2008.

4. Ibraimov Kh.I. Creativity as one of the characteristics of the personality of the future teacher // Science, education and culture. – 2018.

5. Ibraimov X.I., Quronov M. Umumiy pedagogika: Darslik. – T.: Shaffof, 2023.

HARBIYLAR FAOLIYATIDA YUKSAK MA'NAVIYAT VA MILLIY MADANIYAT TARBIYASI

Jurayev Baxodir Xakimovich
O'zbekiston Milliyuniversiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar sikli katta o'qituvchisi, dotsent

«Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir».

A.Avloniy.

Annotatsiya. Zamonaviy Qurolli Kuchlarimiz harbiy xizmatchilarini asosiy maqsadi va vazifasi – bu birinchi navbatda davlatimiz mustaqilligi ,hududiy yaxlitligi va xalqimizni tinch va osuda hayotini kafolatlashdan iboratdur. Buning uchun bizga O'zbekistonning ma'naviy, ijtimoiy –iqtisodiy, harbiy sohadagi taraqqiyotiga xizmat qila oladigan Zamonaviy Qurolli Kuchlarimizga ega bo'lishimiz lozim. Keng dunyoqarashga ega bo'lgan, mustaqil va erkin fikrlaydigan, raqobatbardosh harbiy kadrlarni etishtirishda ,harbiy ta'lim jarayonini maqsadli bajara olishni biladigan o'qituvchi-pedagog murabbiylar ta'limning yorqin istiqbolini belgilab bera oladi.

Kalit so'zlar: Qurolli Kuchlar, madaniyat- marifat, zamonaviy ta'lim, jamiyat, davlat, yoshlar, harbiylar, ta'lim-tarbiya.

Barchamizga ma'lumki, Vatanga muhabbat hissi haqida so'z yuritilganda avvalo - bu jamiyatdagi madaniyat, ma'naviy–marifiy shakllanishning chuqur ildizini ochib beruvchi o'ziga xos kalit ekanligi ma'lum bo'ladi. Ayni paytda Qurolli Kuchlarimizni isloh qilish ishi bu barcha shaxsiy tarkibning ma'naviy- marifiy, madaniy tarbiyasi masalasini birinchi o'ringa olib chiqmoqda. Shunday ekan ma'naviy- marifiy , madaniy tarbiya eng avvalo harbiy xizmatchilarning mavjud haqiqatga bo'lgan munosabatida asoslanadi. Bu munosabat harbiy xizmatchilarning dunyoqarashi darajasi, umum madaniyati bilan bevosita hamohangdir.

Madaniyat- marifat, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy va o'zaro munosabatlar, siyosat, oila, axloq, xulq, huquq, ta'lim-tarbiya, ijod, ilm-fan, xizmat ko'rsatish, turmush tarzlari bilan bog'liq keng qamrovli tushunchadir. Jamiyatdan tashqarida madaniyat mavjud emas. Ijtimoiy munosabatdagi har qanday o'zgarish to'g'ridan- to'g'ri madaniyatga ta'sir etadi va bu munosabatlardagi har qanday o'zgarish bu munosabatlarning qanday natijalarga olib kelishidan xabar beradi. Madaniyat bugungi kunda nafaqat o'tmishga yoki bugunga, shu bilan birga kelajakka bo'lgan munosabatdir.

Hozirgi islohotlar sharoitida yangi jamiyat fuqarosini tarbiyalash, milliy istiqlol, o'zligini anglash tuyg'usini har bir kishi ongiga singdirish va uning ongli e'tiqodiga aylantirish, hozirgi davr talabi darajasida bilimli, uning ma'naviy dunyosini boyitishdek ulkan vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Harbiy qismlarda va oliy harbiy bilim yurtlarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar uslubiyotini o'rgatishning maqsadi, ta'lim-tarbiya sirlarini harbiy

hizmatchilarga etkazishda, ma’naviy kamolotini o‘zida shakillantirish uchun keng va xilma-xil imkoniyatlardan foydalanishga yo‘l ochish hisoblanadi.

Bu imkoniyatlardan biri ma’ruza, guruh va amaliy mashg‘ulotlarda harbiylarning o‘z fikr-mulohazalarini uyg‘otishdir. Chunki, yuksak madanyatliylik va madaniyatsizlik haqida nasihatdan ko‘ra o‘rganilayotgan ma’ruzaga bog‘lab harbiylarning o‘zida fikr uyg‘otish muhimroqdir.

Harbiylarda ma’naviy madaniyatni tarkib toptirishga oid ishlar mashg‘ulotlarda va auditoriyalardan tashqari tarbiyaviy ishlar izchil amalga oshirilsa, bu borada harbiy yoshlarning o‘zida ijodiy fikrlash, voqea-hodisalarga izchil munosabat, hissiy va pedagogik vaziyat hosil etilsa, o‘z-o‘zini tarbiyalashga intilish uyg‘otilsa, mashg‘ulotlarda barcha samarali uslub va vositalardan foydalanilsa, ko‘zlangan maqsadga erishish imkoniyati yanada ortadi.

Madaniyat inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko‘rsatkichidir. Aytish mumkinki, madaniy muhit qanday bo‘lsa, inson ham shunday shakllanadi.

Xalq madaniyatida avlodlar yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklar jamlangan. Ularni o‘zlashtirmay turib, madaniyatli shaxs bo‘lib etishishi mumkin emas. Xuddi shuningdek, madaniyat rivojida professional ijodkorlar va san’atkorlar ham katta o‘rin tutadilar. Ular tufayli madaniyatda yangi oqimlar-ijod turlari, badiiy-estetik qarashlar yuzaga keladi.

Tarixiy rivojlanish shuni ko‘rsatadiki, milliy madaniyat hayotni go‘zallik sari etaklaydi. Shu bilan birga madaniyat harbiy xizmatchilarni shakllantirish vositasi ham hisoblanadi. Shu jihatdan bulg‘usi zaxira va rezervdagi ofitserlarni tarbiyalashda madaniyatning quyidagi masalalariga e’tiborimizni qaratishimiz lozim:

- *Yangicha dunyoqarash asoslarini shakllantiradigan milliy g‘oyaga sodiqlik;*
- *Yangi O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘liga kirganligi-respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-marifiy islohotlar, mustaqillik va ma’naviyat mafkurasi, ma’naviyatning mohiyati, uning tarkibiy qismlari, mezonlari, vatanparvarlik, adolatliylik, insonparvarlik, iftixor tuyg‘ularini bulg‘usi zaxira va rezervdagi ofitserlar ongiga singdirish;*
- *Soha mutaxassislarining bilimdonligini oshirish, bilimning madaniyat, ma’rifat sari yuksaltirish mezoni haqidagi fikrni ularni ongida shakllantirish;*
- *Bo‘lajak zaxira va rezervdagi ofitserlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish, fuqarolarning jamiyatda tutgan o‘rnidan, millatidan, siyosiy qarashlari va diniy e’tiqodlaridan qat’iy nazar o‘zaro tenglik tamoyili;*
- *Mardlik, botirlik, jasurlik, g‘amxo‘rlik, mehr-shavqat kabi madaniyatning xulq-odob qoidalari qatoriga kiritilgan fazilatlar asosida tarbiyalash;*
- *Vatanimizda bugun qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarni saqlab qolish uchun, dushmandan ogoh bo‘lish, dushmanga nisbatan hushyorlik va ehtiyotkorlik;*
- *Bo‘lajak zaxira va rezervdagi ofitserlarda ichki madaniyati, tashqi madaniyati, muomala madaniyati, nutq madaniyati, fikrni kasbga oid tushunchalar asosida bayon qilish madaniyatini shakllantirish.*

Madaniyat tarbiyasi bo‘lg‘usi ofitserlarni tarbiyalash sohasidagi asosiy muhim masala bo‘lib qolmasdan, balki jonajon O‘zbekistonimiz oldida turgan eng muhim va dolzarb sohalaridan biridir.

Yaqin o‘tmishda madaniyatimiz hukmron mafkurasi asosida rivojlandi, ikkinchidan milliy madaniyatimiz boy o‘tmishi bir tomonlama o‘rganilgan, uning bebaho durdonalaridan millatimiz bexabar bo‘lgan.

O‘zbekistonning o‘ziga xos madaniyatining barcha qirralari, ildizlari va ranglarini to‘la ravishda ko‘rsatmoq uchun milliy madaniyatlarning mustaqillik sharoitida rivojlanish qonunlari, madaniyatimiz tarixi va umuminsoniy tamoyillarini o‘rganish asosida yaratilishi lozim.

Ma’naviyatni yuksaltirish masalalariga bugungi kunda e’tibor kuchayib bormoqda. Bu bejiz emas albatta, chunki kelajagi buyuk davlat egasi bo‘lmasdan komil insonni tarbiyalashi, uni ma’nan va axloqan barkamol qilmasdan turib, buyuk kelajak to‘g‘risida gapirib bo‘lmaydi. Mafkurasiz hech qanday jamiyat, davlat qurib bo‘lmaydi. Bu borada o‘tmish milliy ma’naviyatimizni, madaniyatimizni o‘rganib, yoshlarimizda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirib, ilm-fanga qiziqish va intilishni rivojlantirish zarur.

Yuksak darajadagi har tomonlama rivojlangan mamlakat, davlat qurish uchun harbiylarning bilimi chuqur, dunyoqarashi keng, tafakkuri sog‘lom bo‘lishi lozim.

Ta’lim-tarbiya tizimi, harbiy va murabbiylar hayotiga o‘z-o‘zini anglashda, xalqning, millatning uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida bosib o‘tgan murakkab yo‘liga, ajdodlarimizning ma’naviy-madaniy, ilmiy, diniy, falsafiy, ma’rifiy merosiga qarashlari va g‘oyalariga har bir kishining bevosita bog‘liqligini chuqur va atroflicha his qilishlariga ko‘maklashishi lozim. Harbiylarda milliy o‘zlikni anglashni, millat, uning tarixiga mansubliligini his qilishni shakllantirish kerak.

Gerodotning *«tarix»* kitobida yozilganidek uch ming yil avvalgi ajdodlarimizda qadrlanadigan xislatlarning eng asosiysi-jasurlik ekan. Undan keyingi muhim xislat adolatlilik va mohirlik bo‘lgan. Har bir ishni bajarganda, jumladan; *ilm olish haqida yuqori mahorat va milliy madaniyatga qarab bajarish insonning fazilatlari hisoblanadi.*

Ma’naviy merosimiz hisoblangan epik rivoyatlarda, jumladan, «Avesto», Firdavsiyning «Shohnoma», Mahmud Qashg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk», «Guro‘g‘li» va «Alpomish» dostonlari va boshqa asarlarda ajdodlarimizning vatanini, xalqini, millatini sevish, or-nomus va do‘stlariga sadoqat va madaniyat kabi sifatlar ularning asosiy ijtimoiy-ma’naviy xislatlari hisoblangan.

Harbiy qismlarda va oliy harbiy o‘quv yurtlarida harbiy xizmatchilarni hush xulqli, yuksak ma’naviyatli etib voyaga etkazish uchun murabbiy harbiylarning hissiyotiga ta’sir o‘tkazadigan vositalaridan foydalanishi kerak. Bunda badiiy adabiyot juda qo‘l keladi. Masalan: *Hadislarning mazmunini ifodalangan she’rlar-Alisher navoiyning «Qirq hadis»i, Abdullo Oripovning «Haj daftari» va boshqa kitoblardan foydalanish axloqiy saboq mashg‘ulotlarini jonlashtiradi, tarbiyaviy ta’sirini oshiradi.*

Harbiylarni ma’rifatparvar, yuksak manaviyat sohibi etib tarbiyalashda ommaviy siyosiy tayyorgarlik va harbiy vatanparvarlik tarbiyasi mashg‘ulotlarining olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ispaniyalik faylasuf-olim butun umrini jahon xalqlarining urf-odatlarini tadqiq qilishga bag‘ishlab, yurtimizga tashrif buyurib, Farg‘ona, Samarqand,Toshkent va Xiva shaharlarida bo‘libdi. Yurtiga qaytib borgach: ***«Hozirgacha o‘rgangan, tadqiq qilgan barcha ishlarimni o‘n besh yoshli o‘zbek qizalog‘ining o‘rnidan turib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘ygancha choy uzatishidagi odobiga, nazokatiga, madaniyatiga almashtirishga rozi edim****»*, *degan ekan*. Biz shunday yuksak madaniyatli xalqning farzandi ekanligimizdan har qancha faxrlansak arziydi, albatta.

O‘zbek xalqi o‘z madaniyati va ma’naviyatida komil insonlarni tarbiyalab voyaga etkazganlar. Jumladan: **al-Farg‘oniy**, **Abu Rayhon Beruniy, al-Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, al-Xorazmiy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur** va **Ogahiy** kabi komil insonlar etishib chiqib, milliy tarbiyamizni yanada olamga mashhur qilib o‘tganlar.

Ular tufayli milliy armiyamiz va xalqimiz faxrlanadi, halol mehnat qiladi, doimo ozodlik va obodlik sari intiladi.

Inson komillikka intilar ekan, zinhor bu intilishning oxiriga eta olmaydi. Shu bois, men komilman, kamolotga erishdim degan kishi xato qiladi. Inson o‘z faoliyati mobaynida, nuqson va kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yadi. Ammo shu nuqson va kamchiliklarni tushunib, tuzatib, ularni takrorlashmaslikka harakat qiladigan kishi barkamol va madaniyatli inson hisoblanadi.

Bu haqda, Alisher Navoiy shunday qayd qilingan:

Noqis o‘ldirkim, o‘zin komil degay,

Komil o‘lkim, nuqson isbot aylagay.

Alisher Navoiyning fikricha, ahli ma’ni, ya’ni ma’nili kishilar ma’naviyatli etuk shaxslardir: «Xayrat-ul-abror» dostonida etuk shaxsning ma’naviyatidagi yaxshilik, sahovat, soflik, hayo, muruvvat, andisha, adab, kamtarlik, sadoqat, qanoat, rostgo‘ylik, bag‘ri kenglik singari fazilatlari ta’riflanib, ruhiy kamolot yo‘llari tahlil etilgan.

Navoiyning fikricha, harbiylarni kamolotga etkazish deganda, uni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega kishilar qilib etishtirish tushiniladi.

«Milliy armiyamiz – mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir».

Xulosa qilib aytganda harbiy madaniyat, inson faoliyatining o‘ziga xos tomonini aks ettiradigan, jamiyat, davlat va shaxsni manfaatlarini himoya qilishning o‘ziga xos turi bo‘lib, shaxs, siyosat va ijtimoiy hayot sohasidagi ko‘p qirrali va dinamik munosabatlariga kiradi hamda ijtimoiy hodisa sifatida o‘zini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston. 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni 11.05.2001y.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni 12.12.2002-y.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2018-yil.

5. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy NizomlariT.1996-y.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2014-yil Mustahkam oila yili to‘g‘risida”gi Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi PQ-406-son Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – T.:“Adolat”, 2017.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-son Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentyabr kunidagi PQ-4447-son “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori

11. “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyndagi 267-son qarori.

12. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. -488 b.

13. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. -102 b.

14. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. -64 b.

15. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asr busag‘asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” T. 1997-yil.

16. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.

17. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2013-yil 29-noyabrdagi 915-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida harbiy xizmat xavfsizligini ta’minlash Konsepsiyasini tasdiqlash va amalga kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

18. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari faoliyatini tashkillashtirish bo‘yicha Qo‘llanmani tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2019-yil 12-martdagi 202-sonli buyrug‘i.

19. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari faoliyatini tashkillashtirish bo‘yicha Qo‘llanmani tasdiqlash to‘g‘risida"gi 202-son buyrug‘i.

20. Nasirov K.J. Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar uslubiyoti. // Darslik. 1-qism. – T.:O‘R QK A. 2019.

21. Xudayberganov Q.B. Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar uslubiyoti. // Darslik. 2-qism. – T.:O‘R QK A. 2019.

22. XudayberganovQ.B. Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida mafkuraviy vatarbiyaviy ishlarni tashkillashtirish uslubiyoti. //O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘R QK A. 2018. -180 b.

HARBIY TAYYORGARLIK O’QUV MUASSASALARIDA SIFATLI TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH YO’LLARI VA ISTIQBOLLARI

Raxmonov Muydinjon Zaylobiddinovich
UzMU xarbiy tayyorgarlik o’quv markazi umumqushin tayyorgarlik sikli boshlig‘i

Davlatov Jamoliddin Qurbonboy og’li
UzMU xarbiy tayyorgarlik o’quv markazi umumqushin tayyorgarlik sikli o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda Harbiy tayyorgarlik o'quv muassasalarida Rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash shu bilan birgalikda sifatli ta'limni rivojlantirish ,bugungi kunda ta’limning turli yangi yo’llari, innovatsion usullaridan foydalanib harbiy kadrlarning bilim va ko’nikmalarini yanada oshirish va ta’lim berishning yangi yo’llaridan foydalanib kursantlarni jismonan baquvvat va vatanparvarlik ruxida tarbiyalash haqida bayon etilgan .

Kalit so’zlar. Ta’lim, inovatsiya, metod va usullar, zamonaviy bilim

Hozirgi kunda ta’limni rivojlantirish kursantlarni bilimini yanada oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash, yangi metodlardan foydalanib ularga yanada oson va tez tushintirish yo’llaridan foydalanilmoqda Respublikamizda harbiy kadrlarni tayyorlashga, ularning harbiy mahoratini oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Davlat chegaralarini o‘z qo‘shinlarimiz tomonidan hushyorlik bilan qo‘riqlanayotgani ham xalqimizning harbiy ruhini yuksaltirib turibdi.Haqiqiy mustaqil davlat shunday ish tutadi,o‘z mudofaasini o‘zgalar qo‘liga topshirib qo‘ymaydi.

Xalqning umumiy harbiy ruhini ko‘tarishda, harbiylarni matonatli, shijoatli qilib tarbiyalashda ajdodlarimizdan bizga meros qolgan harbiy bilimlarni ommalashtirish, harbiy san’at sirlarini bugungi kun bilan bog’lab yanada sodda va ososn tushuntirish yo’llarini ishlab chiqish va harbiy o‘quv yurtlarida o‘qitishning samaradorligini oshirish kabi omillar hisoblanadi. O’zbek olimlaridan N.A. Muslimov, M.H. Usmonboeva, D.M. Sayfurov, A.B. To’raevlar zamonaviy talim tizimidagi an’anaviy va innovatsion yondashuvlarning o’zaro bog’liqligini tahlil qilgan holda, innovatsion talim o’qituvchining yangi pedagogik tafakkuri nuqtai nazaridan ko’rib chiqishdi, “innovatsiya” tushunchasining ta’rifi berildi.

Uning ikki turi ajratildi: innovatsiya - modernizatsiya va innovatsiya - transformatsiya. Birinchisi an’anaviy faoliyat tizimi doirasida kafolatlangan natijalarga (ta’lim standartiga) erishish yo’nalishi bo’yicha o’quv jarayonini qisman o’zgartiradi. Innovatsiya transformatsiya an’anaviy o’quv jarayonini tubdan o’zgartiradigan va uning tadqiqotchilik xarakterini ta’minlashga, izlanish (ijodiy) o’quv-bilish faoliyatini tashkil etishga qaratilgan.Ta’limni rivojlantirish uchun :

- har bir talabaning moyilligi va qobiliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratish
- qulay ijtimoiy-psixologik va fan-makoniy ta'lim muhitini yaratish;
- kursantlarning ijtimoiy va psixologik himoyasini ta'minlash;
- ta’limda yangi inovatsiyalardan foydalanish ,yangi metodlarni qo’llagan holda dars jarayonini samarali tashkil etish
- ta’lim shakillarini ishlab chiqish rejalar qo’yish va aniq maqsadlar bilan ishlash
- innovatsion jarayon mazmunini ilmiy-uslubiy ta’minlash
- Fanni va innovatsiyani kelajakda rivojlantirish strategiyasida “innovatsion insonni” yaratish,ya’ni ishlashidan qat’iy nazar u innovatsiya va yangi

bilimlarga moyil bo’lishi kerak.Bugungi kunda zamonaviy innovatsion davr yuzaga kelmoqda

Yangi harbiy ta'lim jihatlariga erishish uchun yoki bosqich samaradorligini oshirish uchun, davlat mudofaasidagi harbiy ta'lim-tarbiya tizimini yangidan barpoetish va ta'minlash lozim. Buning uchun nazariy va amaliy bilimlar, ilmiy qo'llanmalar va dars berish metodlari, malakali professor o'qituvchilar bilan ta'minlash maqsadga muvofiq.Ma’lumki, 2017-2021 yillar davomida mudofaa tizimidagi harbiy qism va ta'lim muassasalarida barcha talablarga javob beruvchi eng zamonaviy moddiy-texnik baza yaratildi. 2019-yilning oktyabr oyida Respublikamiz oliy ta'lim muassasalari harbiy kafedralari qisqartirilib, uning o'rniga har yili 700 dan ortiq rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlaydigan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o'quv markazi tashkil qilindi. Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazidagi ta'lim-tarbiya tizimining ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan boyitib borishni ta'minlash va bu o'rinda asosiy e'tiborni harbiy xizmatchilarni tayyorgarligida zamonaviy texnik va texnologik vositalar (kompyuter, internet va boshqalar) yordamida amalga oshirilishi.

Shu bilan bir qatorda ta'lim-tarbiya tizimining ilmiy uslubiyatini takomillashtirishda horijiy mamlakatlar tajribasidan keng foydalanish;amaliy ko’nikmalarini oshirish uchun sharoitlar yaratish .Shu bilan birgalikda ta'lim-tarbiya tizimining moddiy ta'minoti darajasini yaxshilash maqsadida harbiy tayyorgarlik o‘quv markazida, oliy harbiy bilim yurtlari, harbiy qism va okruglarning o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda va shu bilan bir qatorda, mahalliy hokimiyat va oliy o'quv yurtlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish; Hozirgi kundagi zamonaviy fanlarni o’qtilishi yangi fan rusurslaridan foydalanish va yangi bilim ko’nikmalarni belgilashdan iborat.

Xulosa : Bugungi kunda zamonaviy texnologik asr bo’lgani uchun bizning ham kursantlar shu bilimlarni egallashi, yangi ko’nikmalarga ega bo’lishi uchun amaliy darslarni ko’paytirish darsning samaradorligini oshirishdan iborat .Kursantlarni vatanga muhabbat ruxida tarbiyalash uchun oldingi va hozirgi bilim berish usullarini qo’llagan holda yanada foydaliroq tashkil etishdir .

Foydalangan adabiyotlar:

1. A. N. Abramov, L. Yu. Rotkov, A. V. Simonov va V. V. Trembovetskiy, rus. Fuqarolik universitetida ofitserlarni tayyorlashning innovatsion modeli // Rossiyada oliy ta'lim. 2016 il. 7-son (203). 17–24-betlar

2. Olimjonovich U. I., Son H. P. J., Bahadirovich Y. S. the second world war turned into an industrial building area //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 264-268.

3. Lebedeva O.V.Vatanparvarlik tarbiyasi –sodiq yoki fuqarolik .//Pedagogika - 2003 -No 9.-b 77-83.

4. https://lex.uz/docs/-3372089?ONDATE=24.03.2020

ZAXIRA OFİSTIRLARNI TAYYORLASH SIFATINI OSHIRISH XORIJIY TAJRIBASI VA TARIHI YO'LLARI

Abdullaev Baxriddin Tojalievich
FarDU Xarbiy talim fakulteti Mahsus tayyorgarlik sikli o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada fuqarolik oliy o'quv yurtlarida harbiy tayyorgarlikning hozirgi holatini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini optimallashtirishning ba’zi variantlari taklif etiladi. Ushbu maqolaning dolzarbligi oliy o‘quv yurtlarida zahiradagi ofitserlarni tayyorlash sifatini oshirish bilan bog’liq. Maqolaning asosiy xulosasi va ahamiyati shundan iboratki, hozirgi vaqtda oliy o‘quv yurtlarida zahiradagi ofitserlarni tayyorlash sifatini oshirish dolzarb ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: kadrlar tayyorlash tizimi, harbiy tayyorgarlikning aspektlari, universitet.

Zaxiradagi ofiserlar jangovar bo‘linmalarga oddiy bo‘linmalardan kam bo‘lmagan qo‘mondonlik qilish uchun o‘z bilimlarini muntazam oshirib borishlari kerak. Sobiq SSSR hududidagi fuqarolik oliy o‘quv yurtlarida harbiy tayyorgarlik tizimi o‘tgan asrning 30-yillarida tashkil etilgan edi. Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashning yarim asrlik tarixida ilmiy-uslubiy maktab shakllandi. Urushdan keyingi yillarda harbiy kadrlar tayyorlash masalalari ayniqsa dolzarb bo‘lib qoldi.

1960-yillarning boshlarida. P. V. Sokolovning “Urush va inson resurslari” ilmiy ishi nashr etildi. Kitobda qurolli kuchlarni kadrlar bilan ta’minlash va harbiy tayyorgarlikdan o‘tgan zahiralarni tayyorlash masalalari yoritilgan, raketa-yadro qurollarining rivojlanishi bilan bog‘liq holda kadrlar zaxiralarining o‘rni ortib borayotgani ko‘rsatilgan, kadrlar manbalari, shuningdek, qurolli kuchlarga ta’sir etuvchi omillar ochib berilgan. Aholini harbiy safarbar qilish imkoniyatlari.

Sobiq Sovet Ittifoqining o‘sha paytdagi harbiy doktrinasi urush holatida to’liq safarbarlikni nazarda tutgan va shunga mos ravishda zahiradagi ofitserlarga bo’lgan ehtiyoj ortgan. Mamlakat harbiy-siyosiy rahbariyati harbiy kafedralarni eng malakali ofitserlar orasidan professor-o‘qituvchilar tarkibi bilan to‘ldirishga, ularni tegishli o‘quv-moddiy baza bilan ta’minlashga katta e’tibor qaratdi.

1987 yilga kelib, harbiy tayyorgarlik tizimi tuzilmasi 497 ta harbiy kafedralar va fuqarolik oliy o’quv yurtlarining harbiy tayyorgarlik kafedralarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular barcha qo’mondonlik, muhandislik-texnik va ma’muriy 29 ta profil bo’yicha zahiradagi ofitserlarni tayyorlagan, shu jumladan oliy harbiy ta’lim muassasalarida bir qator mutaxassisliklar. (OTMlar) tayyorlash amalga oshirilmadi.Mahalliy fuqarolik universitetlarida harbiy bo’lmagan harbiy tayyorgarlikning keng tizimi 1980-yillarda SSSR Qurolli Kuchlarining barcha turlarining zaxira va kadrlar tarkibi uchun zarur bo’lgan 100 mingga yaqin zahiradagi ofitserlarning har yili ko'payishini ta’minladi. Shu bilan birga, umumiy va harbiy-maxsus kasbiy tayyorgarlikning bir qator bilim talab qiladigan profillari bo‘yicha zahiradagi ofitserlarning umumiy tayyorgarligi darajasi ofitserlarning mansab tayyorgarligining o‘xshash darajasi va profiliga mos keldi. O‘rtacha zaxiradagi ofitserni tayyorlash uchun davlatning moddiy xarajatlari harbiy maktabda

tegishli mansabdagi ofitserni tayyorlashga qaraganda o‘rtacha 4-5 baravar kam edi. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu ish oliy harbiy maktabning harbiy sohaga oid masalalarini tizimli ravishda taqdim etishga qaratilgan birinchi urinishdir.

Sovet davlati universitetlaridagi kafedralar. N.N. Efimova, S.V. Cherneeva, V.G. Grigoryants, A.V. Kuznetsova harbiy tayyorgarlik va talabalarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik asoslariga bag'ishlangan kitobda harbiy tayyorgarlikning o‘quv jarayonining mexanizmi va mazmuni, o‘quvchilarni bo‘lajak zahiradagi ofitserlar sifatida tayyorlashning shakl va usullari to‘liq ochib berilgan. Shu bilan birga, mavjud noharbiy tayyorgarlik tizimi, birinchi navbatda, umumiy tarkibi qurolli kuchlarni qurish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda aniqlangan qo‘mondonlik tarkibi va mutaxassislari zaxirasining asosiy qismini ta’minladi.

Tinchlik davrida ham, ayniqsa urush davrida ham kuchlar. Zaxiralar soni ob’ektiv ravishda, ko‘p hollarda, tayyorgarlik sifatiga zarar etkazadigan holda, birinchi navbatda, qarama-qarshi harbiy guruhlar bilan munosabatlarda harbiy-strategik tenglikni saqlash zaruratidan kelib chiqqan holda belgilandi. Sobiq ittifoq respublikalari mustaqillikka erishgach, fuqarolik oliy o‘quv yurtlarida harbiy kadrlar tayyorlash tizimi mamlakatlarning ofitser kadrlarga bo‘lgan o‘ziga xos sharoitlari va ehtiyojlariga moslashtirildi. Eski tizimning yo’q qilinishi zahiradagi ofitserlarni tayyorlash sifatiga ta’sir qilmay qolmadi. Shu bois mustaqil davlatlarning yangi tashkil etilgan qurolli kuchlarining dastlabki bosqichida zahiradagi ofitserlarni tayyorlash masalalari ikkinchi planda edi. Shunga qaramay, etarli salohiyatga ega bo‘lgan ko‘plab harbiy kafedralar zahiradagi ofitserlarni bitirishni davom ettirdilar. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgach, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prizedenti I.A.karimov 1992 yil yanvarda o‘zining Qurolli Kuchlarini yaratishga qaror qildi. Bu yillarda Qurolli Kuchlar rahbariyati barcha mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar etishmasligi muammosiga duch keldi va harbiy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyati amalda yo‘q edi. Ta’kidlash joizki, me’yoriy-huquqiy hujjatlarning nomuvofiqligi ko‘plab muammolarni keltirib chiqardi, jumladan, harbiy kafedralar ofitserlarining ijtimoiy himoyasizligi, harbiy kafedralarda uzoq yillik pedagogik tajribaga ega bo‘lgan bir qator o‘qituvchilarning rosiyga ketishi hamda ishdan bo‘shatilishiga olib keldi. Qiyinchiliklarga qaramay, harbiy kafedralar jamoalari birlashishga muvaffaq bo‘ldi, yuzaga kelgan barcha muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga, harbiy kafedralar bino va inshootlarini saqlashda tartibni saqlashga, o‘quv jarayonining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qildi.Keyinchalik, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, oliy o‘quv yurtlari rektorlari va harbiy kafedralar ofitserlarining birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan vaziyatni barqarorlashtirish va aksariyat harbiy kafedralarning mavjud salohiyatini saqlab qolish mumkin edi. Shunday qilib, 1991 yilga kelib O‘zbekistonda 6 ta universitetda harbiy kafedralar faoliyat ko‘rsatgan, keyin 1992 yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi” oliy o‘quv yurtlarining harbiy kafedralarini qayta tashkil etish to‘g'risidagi qaroriga muvofiq, ular faqat 7 ta universitetda bo‘lishi rejalashtirilgan edi. Keyinchalik harbiy kafedralarni o‘z ichiga olgan yangi universitetlar ochildi.

Yangi turdagi qurol va harbiy texnikaning paydo bo‘lishi, raqamli

texnologiyalarning jadal rivojlanishi harbiy kafedralarning yangi qiyofasini belgilab berdi. Harbiy mojarolar turlariga qarashlar o‘zgardi, strategiya va taktikalar o‘zgardi. Ammo eski maktab tomonidan qo‘yilgan uslubiy asoslar bugungi kunda ham dolzarbdir. Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash o‘zi yangi o‘qitish texnologiyalari bilan boyitilgan, ammo tayyorlash tamoyillari sezilarli o‘zgarishlarga duch kelmadi. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida vazirlar mahkamasining 2017 yil 9 oktyabrdagi 809-son qaroriga muvofiq “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi va “Mudofaa to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik oliy o‘quv yurtlarida harbiy tayyorgarlikning vaqt sinovidan o‘tgan tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Harbiy ta’limning maqsadi oliy ma’lumotli, birinchi navbatda, harbiy sohada keng harbiy va umumiy ilmiy dunyoqarashga ega bo‘lgan, kasb-hunarga ega ofitserni tayyorlashdan iborat.Ularning rasmiy faoliyatining vazifalari doirasidagi kompetentsiya. Harbiy kafedraning ustuvor maqsadi - harbiy xizmat vazifalarini samarali bajarishga qodir bo‘lgan fuqarolarni harbiy kasbiy tayyorlash va bitirishdir. Harbiy tayyorgarlik talabalarga oliy o‘quv yurtlarida o‘qish jarayonida qo‘shimcha harbiy ta’lim olish va Vatanni himoya qilish bo‘yicha konstitutsiyaviy burchlarini bajarish imkonini beradi. Bu faqat fuqarolik universitetlari va harbiy kafedra o‘rtasidagi yaqin hamkorlik bilan amalga oshirilishi mumkin. Fuqarolik oliy o‘quv yurtlarida harbiy kadrlar tayyorlash tizimining samarali faoliyat yuritishining asosiy mezoni bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifati hisoblanadi. Harbiy tayyorgarlik ixtiyoriydir, Qabul tanlov asosida amalga oshiriladi. Bu bizga eng qiziqqan va tayyor talabalarni harbiy tayyorgarlikka jalb qilish imkonini beradi. Ta‘lim mazmuni harbiy kafedraning, universitetning o‘quv rejalashtirish hujjatlari bilan belgilanadi o‘quv rejalari, dasturlari, darsliklari, o‘quv materiallari. Mashg‘ulotlar “harbiy kun” usulida olib boriladi, akademik soat davom etadi, shundan 6 soati o‘quv mashg’ulotlariga, 2 soati kursantlarning mustaqil ishlariga va 1 soati tashkiliy-tarbiyaviy ishlar va mashg’ulotlarga ajratiladi. Harbiy kafedrada o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishning asosiy usullari, ma‘ruza, amaliy mashg‘ulotlar, seminarlar, guruh mashg‘ulotlari, o‘qituvchi rahbarligidagi mustaqil ish, mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar. Fuqarolik oliy o‘quv yurtlarida harbiy tayyorgarlik kursantlarga harbiy ta‘lim tizimiga muvofiq fuqarolik mutaxassisligi bo‘yicha harbiy ta‘lim beradi,kursantlar birinchi leytenayt ofitser unvoni oladilar, shuningdek, ikkinchi mutaxassislikka ega bo'lishadi. Universitetlarda fuqarolik va harbiy mutaxassisliklarni olish uchun o‘quv jarayonlari bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladi. Ular o‘rtasidagi vazifalar quyidagicha taqsimlanadi harbiy ta’lim tizimi o‘quvchilarni harbiy tayyorgarlik dasturi bilan belgilanadi, harbiy tayyorgarlik uchun zarur bo‘lgan o‘quv qurollari, texnika va boshqa jihozlar bilan ta’minlaydi, fuqarolik ta’lim tizimi esa ta’lim muassasalari, infratuzilma va o‘quvchilar bilan ta’minlaydi. Fuqarolik oliy o‘quv yurtlarida zahiradagi ofitserlarni tayyorlash xususiyatlari fuqarolik oliy o‘quv yurtida o‘quv jarayonining tuzilishiga kiritilgan

harbiy pedagogik jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Fuqarolik oliy o‘quv yurtlarida harbiy tayyorgarlikning mavjud tizimi uni takomillashtirish va tayyorlanayotgan ofitser kadrlar sifatini oshirish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan salohiyatga ega. Harbiy kafedralarda zahiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etishning zamonaviy konsepsiyasini amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari kursantlarni harbiy tayyorgarlikdan o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarga mos materiallarning mavjudligi.

Professional armiyalar uchun qo‘mondonlik kadrlarini tayyorlash tajribasi bilan bir qatorda, ixtiyoriy kasbiy tamoyillarga bosqichma-bosqich o‘tish bilan qurolli kuchlarni jalb qilish asoslari ham muhimdir.

Masalan, Ispaniyada har yili o‘rtacha 4 mingga yaqin zahiradagi ofitserlar - oliy 61 ta fuqarolik ta'lim muassasalarining bitiruvchilari muddatli harbiy xizmatga chaqiriladi. Bularga, birinchi navbatda, universitetlarning tibbiyot, texnika va ilohiyot fakultetlarini tamomlagan mutaxassis ofitserlar kiradi. Fransiyada oliy o‘quv yurtlari talabalari orasidan murakkab texnik va harbiy tibbiyot mutaxassisliklari, shuningdek, ma’muriy va iqtisodiy profillar bo‘yicha ofitserlar tayyorlash kengaymoqda. NATOning deyarli barcha davlatlarida fuqarolik universitetlari orqali mansab ofitserlari va ayrim toifadagi zaxira ofitserlarining malakasini oshirish yoki qayta tayyorlash, shu jumladan, ularning harbiy-ilmiy va tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shunday qilib, Germaniyada ham qo‘mondonlik tarkibini fuqarolik oliy o‘quv yurtlari orqali qayta tayyorlashni tashkil etish tajribasi qo‘llanildi. Hozirgi vaqtda Bundesver ofitserlari Bundesver deb ataladigan universitetlarda oliy fuqarolik ta‘limi, shu jumladan ilmiy darajalarni olish orqali o'z malakalarini oshiradilar. Xorijdagi fuqarolik universitetlarida mutaxassislarni harbiy tayyorlash tizimi yanada kengroq va har bir ta‘lim dasturining maqsadlari aniq bo‘lingan. Belarus Respublikasida harbiy tayyorgarlik 7 ta universitetning harbiy fakultetlarida taktik darajadagi ofitserlarni tayyorlash dasturlariga muvofiq amalga oshiriladi. Ta‘lim 20 dan ortiq mutaxassislik bo‘yicha olib boriladi.

Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish yo‘lida biz Rossiya Federatsiyasi tajribasini qiziqarli deb bilamiz, bu erda ko‘p yillar davomida armiyaning kadrlar va zahiradagi ofitserlarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyojlari o‘rtasidagi ziddiyatni tashkil etish orqali hal qilindi. Bir qator fuqarolik oliy o‘quv yurtlarida gumanitar, muhandislik va texnik profillar bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash uchun harbiy tayyorgarlik markazlari. Ma’lumki, harbiy kafedralarda o‘quv dasturi nazariy va amaliy qismlarni o‘z ichiga oladi. Ammo aynan amaliy mashg'ulotlar kelajakdagi ofitserlarning malakasini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, rus o‘xshashligi bo‘yicha hududiy o‘quv markazlarini yaratish zaxiradagi ofitserlarni yaxshiroq tayyorlash uchun ilmiy va pedagogik resurslarni jamlashga imkon beradi. Bunday markazlar bir nechta harbiy kafedralar uchun amaliy mashg’ulotlarni rejalashtirishi mumkin. O‘quv jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish bilan oddiydan murakkabga tamoyili bo‘yicha bosqichma-bosqich amaliy mashg’ulotlarga erishish mumkin. Darslarni bir xil rahbarlar tomonidan

yagona metodikadan foydalangan holda o‘tkazish turli oliy o‘quv yurtlarida harbiy tayyorgarlik mavzularini yoritishga yondashuvlardagi farqni yo‘q qiladi.

Bu yagona pedagogik talablar masalasini hal qiladi. Turli harbiy kafedralarda zahiradagi ofitserlarni tayyorlash sifatining qiyosiy tahlilini o‘tkazish sezilarli darajada osonlashadi, bu esa, o‘z navbatida, zarurat tug‘ilganda, o‘quv jarayoniga o‘z vaqtida tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Nazariy qism universitet devorlarida o‘rganiladigan va amaliy mashg‘ulotlar o‘quv markazlarida
o‘tkaziladigan o‘quv modelining o‘zi harbiy kafedralar byudjetini sezilarli darajada qisqartiradi va qurol va harbiy texnikaga texnik xizmat ko‘rsatishni osonlashtiradi.

Hulasa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, harbiy bo‘limlar rivojlanishi kerak bo‘lgan bir nechta asosiy yo‘nalishlarni aniqlashimiz mumkin.
Bular:

-mavjud harbiy institutlar negizida yagona qayta tayyorlash markazi tashkil etgan holda harbiy kafedralar professor-o‘qituvchilari malakasini oshirish;

-kadrlar malakasini oshirishning zamonaviy talablariga muvofiqlashtirish maqsadida kadrlar tayyorlash dasturlarini qayta ko‘rib chiqish;

- harbiy kafedralarning o‘quv-moddiy bazasini yaxshilash, uni zamonaviy turdagi qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan to‘ldirish;

-ta’lim tili bilan bog‘liq masalalarni hal etish, yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar nashr etish;

- harbiy kafedralar va harbiy institutlar o‘rtasida gorizontal aloqalarni yo‘lga qo‘yish, professor-o‘qituvchilarning kasbiy va uslubiy ko‘nikmalarini almashish, qo‘shma ilmiy va ilmiy-amaliy tadbirlarni o‘tkazish. Xulosa qilib shuni
ta‘kidlashni istardimki, fuqarolik oliy o‘quv yurtlarida harbiy tayyorgarlik tizimi ajralmas ob‘ekt bo‘lib, u o‘ziga xos tizim sifatida o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. maxsus funktsiyani - jamiyat xavfsizligini ta‘minlaydigan inson resurslarini takror ishlab chiqarishni amalga oshirish maqsadida va mavjud fuqarolik oliy kasb-hunar ta‘limi tizimi asosida shakllantiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini ayrim bilim talab qiladigan mutaxassisliklar bo‘yicha ofitserlar bilan ta’minlash va safarbarlik resurslarini to‘ldirish zarurligini hisobga olgan holda, fuqarolik oliy o‘quv yurtlarida harbiy tayyorgarlik tizimi hozir va uzoq muddatda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun harbiy kadrlar tayyorlashning yagona konsepsiyasini ishlab chiqish uchun harbiy tayyorgarlikning mavjud muammolarini batafsilroq o‘rganish zarur. Qolaversa, bu masalalarni muhim va ikkinchi darajali vazifalarga ajratmasdan, har tomonlama ko‘rib chiqish kerak.Ayni paytda oily ta’lim vazirligining fuqarolik oliy o‘quv yurtlarining harbiy kadrlar tayyorlash imkoniyatlari haqidagi qarashlari sezilarli darajada o‘zgardi. Milliy universitetining ushbu masalalarni hal etishda, ularning salohiyatini hisobga olgan holda faol ishtirok etishi yagona, ilmiy asoslangan pozitsiyani shakllantirish va harbiy tayyorgarlik tizimini yanada takomillashtirish, ayniqsa, tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tayyorlash uchun asos yaratishga xizmat qiladi. Shundagina biz oliy o‘quv yurtlarining mamlakat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyati haqida ishonch bilan aytishimiz mumkin.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистон стратегияси” Тошкент “Ўзбекистон”
2021. –465 б.

2. Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларининг ҳарбий тайёргарлик ўқув бўлинмалари тўғрисидаги низомни тасдиқлаш тўғрисида Вазирлар маҳкамасининг 2017 йил 9 октябрдаги 809-сон қарорига

3. Чернов В. Подготовка офицерских кадров сухопутных войск Германии Зарубежное военное обозрение. - 1992. - №1.- с. 17-19.

4. Тасбулатов А.Б. Наша задача готовит защитников Отечества Вестник 33 Натсионалного университета – 2004. - № 4 с. 13-19 7.

5. Гуманизация воинской деятелности и реформа вооруженных сил Материалы международной конференции Ассоциатсия «Армия и общество». -М.ВС, 1994. 9.

6. Соколов П.В. Война и людские ресурсы.- М., Воениздат, 1961 – 188с.

7. Филков С.М. Система военной подготовки в гражданских вузах Монография. М.,2002.-с.31-33. 5.

8. Кузнецов А.В. -Педагогические основы военной подготовки студентов в вузе.- М. МГУ, 1986 -311с

9. Асилов Н.Т. Военная подготовка в высших учебных заведениях Монография. 2016 8.

РИВОЖЛАНГАН ДУНЁ МАМЛАКАТЛАРИДА РЕЗЕРВДАГИ ВА ЗАҲИРАДАГИ ОФИЦЕРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ.

Муродов Акмал Джайлибаевич
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази умумқўшин тайёргарлик цикли ўқитувчиси резервдаги подполковник

Аннотация: Ушбу мақолада хорижий давлатларда резерв ва заҳирадаги офицерларни тайёрлашда ҳозирги кундаги хорижий давлатлар амалиётини кўриб чиқамиз. Мазкур мақолада, ривожланган хорижий давлатлар амалиёти ўрганилиб, улар томонидан сўнгги йиллар давомида эришилган натижалар, ҳамда дунёда юзага келаётган ҳарбий сиёсий вазиятни инобатга олган ҳолда, резерв ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш тизимини ривожлантиришдаги иш, тажирба ва амлиётлар ўрганилди.

Калит сўзлар: резерв ва заҳирадаги офицер, қуролли кучлар, ҳарбий хизмат, ROTC – Reserve Officers Training Corpc, ҳарбий тайёргарлик, қўшинлардан ташқарида офицерларни тайёрлаш, ҳарбий кадрларни тайёрлаш тизими, олий таълим муассасаси (ОТМ).

Кириш

Ривожланган дунё давлатларида резерв ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш амалиётини ўрганиш орқали шуни кузатиш мумкинки, ҳар бир давлат Қуролли Кучлари олдига қўйилган вазифаларнинг муваффақиятли ҳал этилишига, асосан юқори даражада ҳарбий касбий тайёргарликка ҳамда илмий салоҳиятга эга бўлган мутахассислар, офицер кадрларни тайёрлаш орқали эришилади.

Ҳарбий кадрларни тайёрлаш тизими ҳар бир мамлакатнинг ўз имконият ва тажрибаларидан келиб чиққан ҳолда, турли хил кўринишда амалга оширилиб, дунёда юзага келаётган ҳарбий сиёсий вазиятга қараб такомиллаштирилиб борилмоқда.

Жуда кўп мамлакатларда сафарбарлик эълон қилинганда, қуролли кучларни ҳарбий ҳолатдаги штат бўйича офицерлар билан тўлдириш учун барча қуролли кучлар тизимида резерв заҳирадаги офицерларни тайёрлаб бориш йўлга қўйилган.

Заҳирадаги офицерларни тайёрлашнинг бир неча кўринишлари мавжуд бўлиб буларнинг энг асосийси таълим муассасалари талабалари таркибидан ҳарбий тайёргарлик бўйича ўқув дастури асосида тайёргарликдан ўтиши натижасида заҳирадаги офицерлар тайёрланишидир.

Ривожланган дунё мамлакатларида резервдаги ва заҳирадаги офицерлари тайёрлаш тартиби ва кўринишлари.

Бугунги кунда дунё шиддат билан ўзгараётган, минтақалар ва давлатлар ўртасида сиёсий, иқтисодий ва мафкуравий курашлар тобора кескинлашаётган бир шароитда Республикамизда резерв ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш ҳозирги кунда энг долзарб муамолардан бири ҳисобланади.

Шундай экан мазкур масалани ижобий томондан ҳал қилишгда барча ривожланган хорижий давлатлар амалиёти ўрганилиши зарур, шунингдек, улар томонидан сўнгги йиллар давомида эришилган натижалар, ҳамда дунёда юзага келаётган ҳарбий сиёсий вазиятни инобатга олган ҳолда, резерв ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш тизимини ривожлантиришда инноватsion ёндашув асосида замонавий илмий-тадқиқот ишларини амалга ошириш актуал муаммо сифатида қарашни талаб этади.

Ўзбекистон, дунёнинг аксарият мамлакатлари сингари, хаётнинг барча сохаларида билим, фан, техника ва ахборотнинг муҳим роли билан ажралиб турадиган бошқа технологик инқилоб, янги цивилизатsiянинг пайдо бўлиши арафасида. Янги Ўзбекистоннинг ривожланиши ва унинг тараққиёти, стратегиясининг истиқболи учун пайдевор қўйишимиз бугунги кунннинг ўта муҳим масалаларидан биридир. Зеро, хозирги жадал суръатлар билан шиддат билан ўзгараётган жамиятда Ўзбекистон учун анъанавий иқтисодиётни имкон қадар замонавий ахборот, интеллектуал, рақамли иқтисодиётга айлантириш жуда муҳим масалалардан бири саналади.

Ривожланган дунё мамлакатларида ҳам фуқаролик олий таълим муассаса (ОТМ)ларида резерв ва заҳира офицерлари тайёрлаш йўлга қуйилган.

2008 йилда Россия Қуролли Кучларини ислоҳ қилиш натижасида фақат бир неча ўнлаб олий ўқув юртларида ҳарбий кафедралар сақланиб қолди.

2008 йилда фуқаролик таълим муассасалари қошида ташкил этилган ҳарбий ўқув марказлари ҳарбий кафедралар ва ҳарбий тайёргарлик факултетларидан фарқ қилар эди, яъни улар заҳирадаги офицерларни эмас, балки шартнома асосида хизмат қиладиган офицерларни тайёрлаши билан ажралиб турарди. Ҳарбий тайёргарлик марказига ўқишга кирган талабалар олий ўқув юртини тамомлагандан сўнг камида 3 йил Қуролли Кучлар сафида (муддатли ҳарбий хизматда) хизмат қилиш мажбуриятини олишлари тўғрисида шартнома тузардилар. Шундай қилиб, фуқаролик таълим муассасаси негизида заҳирадаги офицерлар эмас, балки Қуролли Кучлар учун офицерлар тайёрлаш амалга ошириларди.

2015 йилдан Россия фуқаролик университетларида янги ҳарбий кафедраларни ташкил этиш жараёни давом этди. 2015 йилда уларнинг сони 70 тани, 2016 йилда 75 тани, 2017 йилда 87 тани ташкил этди.

2018 йил август ойида федерал қонун имзоланди, у 2019 йилдан бошлаб Россия фуқаролик университетларидаги барча ҳарбий кафедраларни тугатиб, уларни ҳарбий тайёргарлик марказларига айлантирди.

2019-йилдан бошлаб талабалар ўртасида ҳам заҳирадаги офицерлар, ҳам контракт бўйича офицерларни тайёрлаш фақат 93 та фуқаролик олий ўқув юртлари ҳузуридаги янги ташкил этилган ҳарбий тайёргарлик марказларида амалга оширилмоқда.

Ҳарбий тайёргарлик маркази - Россия Қуролли Кучларида ёки қонун билан ҳарбий хизматни ижро этувчи бошқа федерал органларга офицер кадрларни тайёрлаш учун ва шунингдек заҳирадаги офицерлар, оддий аскарлар ва сержантларни тайёрлаш учун шакллантирилди.

Федерал давлат олий касбий таълим муассасалари ҳузуридаги ҳарбий тайёргарлик марказларида фуқароларнинг ҳарбий тайёргарлигига умумий раҳбарлик Россия Федератsiяси Мудофаа вазирлигининг Кадрлар Бош бошқармаси томонидан амалга оширилади.

Қўшма Штатлардаги 1000 дан ортиқ фуқаролик университетлари заҳирадаги офицерларни тайёрлаш курслари (*Reserve Officers' Training Corps (ROTC))*ни ўқитади ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш Корпуси билан ҳамкорлик қилади. 2012 йилда дастурда 53 мингдан ортиқ иштирокчи бор эди. Ҳар икки жинсдаги АҚШ фуқаролари 17 ёшдан (дастур тугагунга қадар улар 27 ёшдан ошмаслиги керак), судланмаган, жисмоний тайёргарлик бўйича тест синовларидан ва тиббий комиссиядан ўтган ҳолда ўқийдилар. Муваффақиятли ўқийдиган курсантларга йиллик 5 минг долларгача маош тўланади, шунингдек, олий таълим харажатларини тўлиқ ёки қисман қоплайди (йилига 40 минг долларгача). Таълимнинг тўлиқ цикли тўрт йил: биринчи иккитаси мажбурий асосий таълим, учинчи ва тўртинчиси - ихтисослаштирилган. Офицер курслари учун ўртача ҳафтада бир кун ажратилади. Камида бир марта курсантлар ўртача тўрт ҳафта давом этадиган ёзги лагерларга юборилади. Дастурни тугатгандан сўнг унинг иштирокчилари кичик офицер унвонини оладилар. Фақат асосий таълимни тугатган ва стипендия олмаган талабалар ҳарбий хизмат қила олмайдилар, тўлиқ циклни тугатганлар тўрт йилдан ўн йилгача муддатга шартнома тузишлари мумкин. Бир заҳирадаги офицерни тайёрлаш, стипендияни ҳисобга олмаганда, ўртача 68 минг долларга тушади.

Шу тарзда тайёрланган офицерлар Қуролли Кучларнинг барча бўлинмаларида хизмат қилади (гарчи АҚШ денгиз пиёдалари корпуси ва АҚШ қирғоқни қўриқлаш корпуси ўз дастурларига эга бўлмаса ҳам, битирувчилар у ерда ҳам хизмат қилади).

2010 йилда АҚШ армияси ёш офицерларининг 38,5 фоизи ушбу тизимда тайёрланган, шундан 1,8 фоизи денгиз пиёдалари (заҳирадаги офицерларни тайёрлаш денгиз пиёдалари корпуси орқали), 16,7 фоизи ҳарбий денгиз флоти, 38,1 фоизи ҳарбий ҳаво кучларида ва умумий ҳолда мудофаа Департаменти офицерларининг 30 фоизини ташкил қилган.

Буюк Британияда 100 дан ортиқ университет ва коллежлар ҳарбий кадрлар тайёрлаш билан шуғилланади. Жараён университет офицерлар тайёрлаш корпуси томонидан мувофиқлаштирилади. Талабаларни фақат қуруқликдаги қўшинларда хизмат қилиши учун тайёрланади. 2011 йилда дастурда 4 мингдан ортиқ кадетлар бор эди. Курслар жисмоний тайёргарлиги бўйича тест синовларидан ва тиббий кўрикдан ўтган 25 ёшдан катта бўлмаган ўғил-қизлар учун мўлжалланган. Курсларга исталган Миллатлар Ҳамдўстлиги давлатларининг фуқаролари ўқишга кириши мумкин. Дастур уч йил давом этади. Барча иштирокчиларга курс ва иш юкига қараб ҳафтасига 115 дан 240 фунт стерлинггача стипендия тўланади, бундан ташқари улар йилига 1500 фунт стерлинггача бўлган бир марталик тўловларни олиш ҳуқуқига эга. Машғулотлар (назарий ва амалий) одатда ҳафтада бир марта ўтказилади. Йиғинлар семестрда икки марта дам олиш кунлари ва ҳар ёзда икки ҳафта

давомида ўтказилади. Битирувчилар одатда иккинчи лейтенант унвонини олишади ва битиргандан кейин хизмат мажбурий эмас. Дастурга йилига тахминан 30 миллион фунт стерлинг ажратилади.

Таиланддаги аксарият университетларда резервистлар курсини ўташ мумкин. 2013 йилда дастурда 300 минг талаба иштирок этди. Талабгор (иккала жинс вакилларига ҳам рухсат этилган) ўша мамлакат фуқароси бўлиши, мустаҳкам соғлиқ ва юқори ўқув кўрсаткичларга эга бўлиши керак. Талабгорнинг максимал ёши 21 ёш. Стандарт курс уч йил давом этади. Ҳафтада бир кун машғулотлар учун ажратилган, йилига бир марта бир неча кун давом этадиган ўқув йиғинлари ўтказилади. Битирувчи сержант унвонини олади ва икки йиллик ҳарбий чақирувдан озод қилинади. Агар талаба асосий дастурни бажара олмаса, унинг мажбурий ҳарбий хизмати қисқартирилади. Кенгайтирилган курс беш йил давом этади, унинг битирувчилари иккинчи лейтенант унвонини олишади.

Беларус Республикасида резерв ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш ўқув дастури 2 йил муддатга мўлжалланган бўлиб, дастлабки босқичда ОТМ талабалари кичик командирлар тайёрлаш ўқув дастури бўйича ҳарбий тайёргарлик машғулотларига жалб қилинади. Ҳарбий тайёргарлик якунида талабалар томонидан якуний имтиҳонлар топшириш кўзда тутилган. Якуний имтиҳонлар натижасига кўра юқори натижаларга эришган талабалар резерв ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш ўқув дастури бўйича ҳарбий тайёргарлик машғулотларини давом эттириш имкониятини қўлга киритади. Биринчи босқични тугаллаган талабалар ҳарбий хизматга чақириладиган бўлса, у ҳолда улар учун ҳарбий хизматни ўташ муддати ярим йил қилиб белгиланган. Ҳарбий тайёргарлик якунида талабалар Ҳарбий қасамёдга келтирилади. Ўқиш муддати 2 йил узлуксиз, ўқув йиғини 1 ой. ОТМни муваффақиятли тугатган, резерв ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш ўқув дастурини ўзлаштирган талабаларга «Заҳирадаги лейтенант» унвони берилади.

Озарбайжон Республикаси мудофаа вазирлигида резерв ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш тизими, яъни Қуролли Кучларнинг ўқув маркази Озарбайжон ва Туркия Қуролли Кучлари ўртасида 2000 йил 5 апрелда имзоланган протоколга кўра, Озарбайжон Республикаси Мудофаа вазирининг 2001 йил 20 февралдаги буйруғи асосида, Озарбайжонда НАТО тизими доирасида, 2001 йил 26 мартдан бошлаб, офицерларнинг малака ошириш курслари асосида Қуролли Кучлар Ўқув Маркази заҳирадаги офицерларни тайёрлаш курсларини ишга туширди.

Ўқув марказида қуйидаги курслар ишлайди:

офицерлар учун малака ошириш курси - бу Қуролли Кучларнинг эҳтиёжларига мувофиқ, барча даражадаги ва тоифадаги офицерларнинг касбий даражаси ва малакасини ошириш, касбий маҳоратини шакллантириш ва ривожлантириш, замонавийроқ билимларни эгаллашга қаратилган қўшимча тайёргарлик. касбий маҳорат ва малака. Олти ҳафталик курс ўқув йилида 4 марта ўқитилади;

заҳирадаги офицерларни тайёрлаш курси - бу ҳар хил турдаги офицер кадрларини тайёрлашга қаратилган қўшимча таълим бўлиб офицерлар заҳирасини яратиш мақсадида мутахассисликларни ўқитиш. Курсни муваффақиятли тамомлаган талабаларга Мудофаа вазирининг буйруғи билан "лейтенант" унвони берилади. Саккиз ҳафталик курс ўқув йили давомида 4 марта ўқитилади;

ваколатли офицерларни тайёрлаш курслари - тегишли жамоаларда ва эксперт лавозимларида хизмат кўрсатишни ўргатиш учун махсус ўқитиш. Курсни муваффақиятли тамомлаганларга прапоршчик унвони берилади. Ўн бир ҳафталик курс ўқув йили давомида 4 марта ўқитилади;

қўшимча муддатли ҳарбий хизмат учун Ҳарбий кадрлар тайёрлаш курси-бу кадрларни тегишли гуруҳлар ва эксперт лавозимларида хизмат қилиш учун тайёрлашни таъминлайдиган махсус тайёргарлик. Тўрт ҳафталик курс ўқув йили давомида 4 марта ўқитилади.

Қозоғистон Республикасининг резервдаги ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш тизими 2005 йил январидаги “Мудофаа ва Қуролли Кучлар тўғрисида” Қонуннинг 22 моддаси 2 пункти ва 26-16 пунктостиларига мувофиқ ишлаб чиқилган - заҳирадаги офицерларни тайёрлаш дастури бўйича ҳарбий тайёргарлик қоидаларини тасдиқлаш тўғрисидаги буйруқларга асосан ҳарбий тайёргарлик тўловсиз ва тўлов асосида амалга оширилади. Тўлов суммаси миқдорини ОТМ белгилайди.

Давлат буюртмаси билан тўловсиз асосда таълим олишга ҳарбий кафедраси бўлган, танлов шартларини бажарган ОТМ талабалари қўйилади, тўловли асосда ўқишга танлов шартини бажарган, ҳарбий кафедрада ажратилган жойлар сони бўйича комиссия тавсияси бўлган талабалар қўйилади.

Тўлов асосидаги таълимга ОТМ раҳбари ҚР МВ билан келишган ҳолда ҳарбий кафедраси бўлмаган хусусий мулкчилик ва бўйсинувидан қатъий назар бошқа ОТМ лар талабаларини жалб қилиши мумкин.

Ҳарбий кафедраларда ҳарбий ҳисоб мутахассислиги бўйича талабалар тайёрлашнинг йиллик эҳтиёжи ҳисоби мудофаа вазирлигида ташкилий-сафарбарлик ишларини назорат қилувчи тузилмавий бўлинма томонидан амалга оширилади.

Ҳарбий таълим саволларини назорат қилувчи тузилмавий бўлинмага қабул қилиш йилнинг 1 февралигача юборилади.

Қабул қилиш режаси ҳарбий ҳисоб мутахассислиги бўйича ҳарбий кафедранинг ихтисослашганлиги ва ўқув-моддий базаси имкониятларига қараб, ҳар йили ҳарбий таълим саволларини назорат қилувчи тузилмавий бўлинма томонидан ҳарбий кафедраларда талабаларнинг йиллик тайёрлаш эҳтиёжидан келиб чиқиб ОТМ буюртмалари асосида ишлаб чиқилади.

Ажратилган жойларни минимум битта ўқув гуруҳини яратиш сони имкониятига кўра қабул қилиш режасини шакллантиришда таълим олаётганларни белгиланган ҳарбий-ҳисоб мутахассислиги бўйича қайта тақсимлашга рухсат этилади.

Бугунги кунда Қозоғистон Республикасида 30 та университетда ва 4 та (фуқаро авиатsiяси, молия ва 2 та тиббиёт) академияда ҳарбий кафедралар фаолият юритмоқда.

Қозоғистон Республикаси Мудофаа вазирининг 2016 йил 11 августидаги 384 сонли буйруғининг 4 боби Фуқароларни захирадаги офицерларни тайёрлаш дастурини белгилаб беради.

Талабаларнинг ҳарбий тайёргарлиги қўшимча таълим тури ҳисобланиб, ўз ичига назарий ва амалий таълимни ҳамда талаба йигитлар учун ўқув йиғини, талаба қизлар учун эса ихтисос амалиётини олади.

Ҳарбий тайёргарлик учун 588 академик соат ажратилган бўлиб, ундан 360 академик соати ОТМда 228 академик соати ўқув йиғинида.

Хулоса ва таклифлар

Хозирда ва келажкда Қуролли Кучларга замонавий қуролларнинг кириб келиши натижасида олий ўқув юртларида тайёрланадиган заҳира офицерларига талаб кучая бошлайди. Хозирда аниқ урадиган замонавий қуроллар қўлланилиши натижасида юқори малакали мутахассисларга талаб ошмоқда.

Шуни ҳисобга олган ҳолда республикамизда резерв ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш бўйича фаолият олиб бораётган барча ОТМлари билан, ҳарбий тайёргарликнинг сифатини ошириш мақсадида ўқув, услубий ва илмий ишлар, педагогик технологиялар бўйича эришилган натижалар бўйича ўзаро тажриба алмашишни йўлга қўйиш, ривожланган хорижий давлатлар заҳирадаги офицерларни тайёрлаш тизимини ўрганиш учун мутахассисларнинг хизмат сафарини ва ўқув курсларида иштирокини ташкил этиш лозим.

Заҳирадаги ва резервдаги офицерларни тайёрлаш бўйича фаолият олиб борадиган ОТМ да ҳарбий тайёргарлик ва ватанпарварликка оид тарғибот ишларини олиб боришни тизимли тарзда ташкил этиш.

Заҳирадаги ва резервдаги офицерлар билан тизимли равишда ўқув йиғинларини ташкил этишни йўлга қўйиш.

Адабиётлар

1. Вестник военного образования №1(28) январь-февраль 2021. Научно-методический журнал министерства обороны Российской Федерации.https//mai.ru>education>military>poradokz
2. Подготовка офицеров и сержантов запаса. https//www.kommersant.ru
3. Военная подготовка в гражданских ВУЗ-ах за рубежом. https//ru.wikipedia.org
4. Корпус подготовки офицеров запаса.

HARBIY TAYYORGARLIK FANINI O‘QITISHDA BO‘LAJAK ZAXIRADAGI OFITSERLARNING SHAXSIY-KASBIY SIFATLARINI TARBIYALASHDAGI O‘RNI

Anorboyev Abdulla Abduhakimovich, Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik
o‘quv markazi katta o‘qituvchisi, dotsent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirishda shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashga ta’sir etuvchi omillar haqida so‘z boradi.*

Tayanch so‘zlar: *Oliy, ta’lim, muassasa, harbiy, tayyorgarlik, o‘qituvchi, ofitser, bo‘lajak, zaxira, rezerv, texnologiya, kompetentlik.*

Аннотатция. *В данной стате рассматриваются факторы, влияющих на развитие личностных и профессиональных качеств будущих офицеров запаса и офицеров запаса на развитие технологической компетентности.*

Ключевые слова: *Высшее, образование, учреждение,военные, подготовка, преподаватель, офицер, будущее, резерв, резерв, технологии, компетентность.*

Annotation. *This article talks about the factors influencing the development of personal and professional qualities of future reserve and reserve officers in the development of technological competence.*

Key words: *Higher, education, institution, military, training, teacher, officer, future, reserve, reserve, technology, competence.*

Bugungi kunda globallashuv davom etayotgan va xalqaro munosabatlarning butun tizimi o‘zgarib borayotgan sharoitlarda jahondagi harbiy-siyosiy vaziyat xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka xavf-xatar hamda tahdidlar ko‘lami kengayib borayotganligi - geosiyosiy qarama-qarshilikning kuchayishi, mojarolar va tang vaziyatlarni kuch ishlatib hal etishga bo‘lgan yondashuvning ustunlik qilishi, kuch ishlatish, shu jumladan ommaviy qirg‘in qurolini qo‘llash ehtimoli oshganligi, harbiylashtirish, xalqaro terrorizm va ekstremizm faollashganligi, axborot makoni va kibermakonda o‘zaro kurash kuchayganligi bilan tavsiflanadi. Jahonda va Markaziy Osiyo mintaqasida, shuningdek, O‘zbekistonga qo‘shni mintaqalarda ro‘y berayotgan voqealar, kechayotgan harbiy-siyosiy jarayonlar (ayniqsa chegaradosh Afg‘onistonda), tahlili, butun dunyoda harbiysiyosiy vaziyat jiddiy tus olayotgani namoyon bo‘lmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirishda shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashda konseptual yondashuvlar asosida uzluksiz rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirishda shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashning ta’lim tizimini modernizatsiyalash, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, tizimli tahlil qilish va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirishda shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashning shakllari va usullaridan samarali foydalanish metodlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirishda shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashning pedagogik strategiyalarini yaratish, ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, kreativ qobiliyatlariga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, faoliyatni samarali tashkil etish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalardan foydalana olishning meyoriy asoslari ishlab chiqilmoqda. O‘zbekiston manfaatlariga nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha

jabhalarida sadoqatli bo‘lish, ularni himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo‘lish – bularning barchasi bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish, bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirishda shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalash alohida dolzarblik kasb etadi.

Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmonining 97-maqsadiga ko‘ra, jahonda sodir bo‘layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida, Qurolli Kuchlarning raqamli salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini ta’minlash, harbiy xizmatchilarning zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish, qo‘shinlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy jang va harbiy mojarolar hamda xorijiy armiyalarning ilg‘or tajribasini o‘rganish asosida qo‘shinlarning jangovar shayligi va mahoratini rivojlantirish, Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, birgalikdagi harakatlarning samaradorligi va muvofiqlashganlik darajasini oshirish hamda yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, o‘quv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etishi[1] belgilab qo‘yilgan. Yuqoridagilarga asoslangan holda, bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish, bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarda milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish barobarida, milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma’nan yetuk yosh ofitserlar zarurligini anglatish, bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarda yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini oshirish, bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarda turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, zamonaviy harbiy-

texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tarbiyalash, Yangi O‘zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo‘lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar yordamida bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlar ongiga singdirib borish orqali, ularni vatanga sodiq hamda vatanparvar etib tarbiyalash mumkin.

Bugungi avlod qalbida sadoqat tuyg‘usini yanada yuksaltirish, uning uchun kerak bo‘lsa jon berishga shay turish, ota makon, ona yurtni ardoqlash va ulug‘lashga, uni ko‘z qorachigidek asrashga undovchi mexanizmlar yaratilishi shart.

Hozirgi globallashuv davrida yoshlar ongu shuurida yuzaga kelayotgan o‘ziga xos ijtimoiy-ma’naviy, ruhiy o‘zgarishlar oliy ta’lim tizimidagi ishlarni zamonaviylik, muhimlik va samaradorlik, ta’sirchanlik nuqtai nazaridan to‘liq qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Mamlakatda safarbarlik e’lon qilinganda, Qurolli Kuchlarni harbiy holatdagi shtat bo‘yicha ofitserlar bilan to‘ldirish uchun barcha Qurolli Kuchlar tizimida rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlab borish yo‘lga qo‘yilgan.

Qurolli Kuchlarning qo‘shilma, harbiy qism va bo‘linmalarini urush davri shtatlariga qadar butlash, shuningdek, urush davri tuzilmalarini saf torttirish uchun zarur bo‘lgan rezervdagi ofitserlar yetishmay qolgan taqdirda rezervga oliy ta’lim muassasalarining tegishli harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalarida ofitserlarni tayyorlash dasturi bo‘yicha to‘liq o‘quv kursini o‘tgan, eng ko‘p tayyorgarlikka ega zaxiradagi ofitserlar tanlab olinishi mumkin.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarni muttasil kuzatib boradigan, axborotlarni tahlil qiladigan, zarur hollarda tegishli axborotga tezkor munosabat bildirish ko‘nikmasiga ega malakali mutaxassislar ishtirokidagi davra suhbatlari, brifing, press-klub, ochiq muloqot shaklidagi zamonaviy tadbirlarga e’tibor qaratish lozim.

Bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarining muhimligi ham, targ‘ibotni zamonaviy shakl va uslublarda tashkil etishning zaruriyati ham, bugungi globallashuv sharoitidagi

dolzarbligi ham aynan shu xavf-xatarlarning mavjudligi va unga qarshi kurash vositalarining ahamiyati yuqori ekani bilan belgilanadi.

Bugungi kunda Qurolli Kuchlar tarkibini sifatli butlash barcha talablariga javob beradigan zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash ahamiyati oshib, oliy ta’lim tashkilotlari faoliyatini texnologik kompetentlik yondashuv asosida yanada jadallashtirish zarurati ko‘zga tashlanmoqda.

Zamonaviy bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserni tayyorlash ta’limni modernizatsiya qilishning muhim strategik vazifasidir. Ta’lim samarali iqtisodiyot uchun zamin yaratadi va ta’lim tizimining asosi malakali kadrlar tayyorlashdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning tayyorgarligi sifati va fuqarolik javobgarligiga bog‘liq.

Oliy ta’lim muassasasida mutaxassis tayyorlashda bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitsernining texnologik kompetentlikni rivojlantirish muhim muammo hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish bevosita bo‘lajak zaxiradagi ofitserning texnologik kompetentlikni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lib, bu harbiy kadrlarni tayyorlash sohasidagi muammolarni hal qilish uchun texnologiyadan optimal foydalanishni ta’minlaydigan integral kasbiy sifatlaridan biridir.

Texnologik kompetentlikni bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserning faoliyat shakllari, usullari va vositalarini bilish, kasbiy mahorat va shaxsiy fazilatlarga asoslangan holda, faoliyatning aniq texnologiyalarini samarali qo‘llashni ta’minlash, yangi texnologik jarayonlarni ishlab chiqish qobiliyatida namoyon bo‘ladi, shuningdek, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish lozimdir. Bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash – xalqimizning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida qarash – bugungi kunda ahamiyatga ega va mazkur jarayonda oilaning ham o‘rni beqiyos deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021.

2.Шавкат Мирзиёевнинг Хавфсизлик кенгашининг кенгайтирилган йиғилишидаги 2021 йил 12 январдаги нутқи. – Т.: Қуролли Кучлар Академияси, 2021.

3. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 24 январдаги ПҚ-2738-сон “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларини ислоҳ қилиш ва янада ривожлантириш вазифаларини амалга ошириш бўйича чора-тадбирлар дастури тўғрисида” қонуни.

4. Ўзбекистон Республикаси 2021 йил 30 сентябрдаги ЎРҚ-718-сон “Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги қонуни.

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси.

6. Муслимов Н.А. ва бошқ. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ривожлантириш технологияси: Монография. – Т.: Фан ва технология, 2013.

7. Эgamberdiev I.Y. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari: Ped. fanl. boyicha fals. d-ri (PhD) ... Dis. – T., 2023.

8. Турсунов С.Т., Данияров Б.Х., Умаралиева М.А., Шодмонова Ш.С. Ўқитувчининг касбий маҳорат ва компетентлигини ривожлантириш. – Т.: Сано-стандарт, 2012.

TALABALARNI TARBIYALASHDA ILMIY-USLUBIY YONDASHUV

Ataxanov Shuxrat Turaxanovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy unversiteti
harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiyaviy ishlar, vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni, tashkiliy-uslubiy jihatlardan to‘liq foydalanish, buning uchun, tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish, an’anaviy tarbiya shakllarini tanlash va mustahkamlash, hozirgi sharoitda vatanparvarlik tarbiyasi vazifalarini to‘la amalga oshira oladigan yangi shakl va uslublarni izlash va ularni hayotga tadbiq etish bayon etilgan.

Tayanch iboralar: ta’lim-tarbiya, vatanparvarlik, sadoqatli, yuksak, ma’naviy ma’rifiy tarbiya masalalari.

Атаханов Шухрат Тураханович
Преподавател учебного центра военной подготовки
Hatsionalnго университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ВОСПИТАНИЮ СТУДЕНТОВ

Аннотация: В данной стате описывается содержание воспитателной работы, патриотическое воспитание, в полной мере исползуя организационно-методические аспекты, для чего необходимо проанализироват эффективност воспитателной деятелности, выбрат и закрепит традиционные формы воспитания, искат новые формы и методы, способные в полной мере реализоват задачи патриотического воспитания в современных условиях, и внедрит их в жизн.

Ключевые слова: вопросы образование-воспитания, патриотизма, преданности, возвышенности, духовного воспитания.

Ataxanov Shuxrat Turaxanovich
Teacher of the Military Training Center
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL APPROACH TO THE EDUCATION OF STUDENTS

Annontation: This article describes educational work, the content of patriotic education, the full use of organizational and methodological aspects, for this, the analysis of the effectiveness of educational activities, the selection and strengthening of traditional forms of education, the search for new forms and styles that can fully carry out the tasks of patriotic education in the current conditions and their implementation into life.

Key words: ssues of Education, patriotism, devotion, exaltation, spiritual enlightenment.

O‘zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirlayotgan islohatlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, uning xavfsizligi va farovonligini ta’minlash hamda barkamol avlodni voyaga etkazishga qaratilgan. Ma’lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va turmushda ro‘y berayotgan jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy yangilanishning muhim sub’ekti bo‘lgan yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim masalasi ahamiyatga ega. Ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya olayotgan yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati, ta’lim boshqarmalarining muhim faoliyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

O‘zi tarbiya deganda nimani tushunamiz? Albatta, tarbiya – bu shaxsda muayyan salbiy sifatlarni yo‘qotishga hamda ijobiylarini shakllantirishga
va rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy ta’sirlar majmuasidir. Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy hayotida faol ishtirokini ta’minlashga, ma’naviy-ahloqiy qiyofasini, estetik didini o‘stirishga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini o‘z ichiga oladigan pedagogik faoliyatdir. Tarbiya har qanday jamiyatva mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki ta’lim va ma’lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki ahloqiy-ma’naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tarbiya bilan etarli darajada shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlikka va inqirozga mahkum.

Tarbiyaviy ishlarning asosiy farqlovchi xususiyati - zaruriylik, foydalilik va tatbiq etish mumkinligidan iborat. Tarbiyaviy ishlar asosida ikki: faol va majmuaviy yondoshuvlar yotadi:

Birinchisi - faoliyatning bilish, harbiy xizmat o‘tash jarayonida ijtimoiy, badiiy, ma’naviy-ma’rifiy, sport va erkin muloqot kabi turli ko‘rinishlarini tashkil etishni talab etadi.

Ikkinchidan - majmuaviy yondashuv esa, faoliyatning barcha ko‘rinishlarning yagona jarayoniga ta’sir bilan tabiiy “qo‘shilib” ketishda ko‘rinadi. Tarbiyaviy ishlar, ayni paytda, o‘ziga axloqiy, estetik, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy va intellektual (aqliy) ta’sirlarni qamrab oladi. Faoliyatga oid yondashuv tarbiya yo‘nalishiga ishora qilsa, majmuaviy yondashuv uning mazmuniy tabiati (vaziyat, tarbiyaviy maqsadning
Asosiy va bog‘liq tomonlarini shakillantirishning maqsadi, rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash, amalga oshirish va erishilgan natijalar tahlili) ni belgilaydi.

Tarbiya tizimida tarbiyaning sub’ektlari va ob’ektlari yaxlit tizim Sifatida hamkorlikda ishlaydilar. Tarbiyaning sub’ektlari o‘z faoliyatlari
davomida vakolatlari doirasida tarbiyaviy vazifalarni bajaradilar.
Pedagogikada tarbiya ob’ekti: shaxs; jamoa.

Tarbiyaviy ishlarning vositalari:

- ma’naviy-ruhiy va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik;
- ijtimoiy-huquqiy, axborot-tarbiyaviy va madaniy-maishiy ishlar;
- institut jamoatchiligi va faollari bilan ishlash;
- yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlar;
- davlat hokimiyati (mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish) organlari, jamoat
- tashkilotlari, ijodiy uyushmalar bilan o‘zaro hamkorlikni tashkillashtirish;
- teleko‘rsatuv, radioeshittirish va matbuot vositalarini, ta’lim-tarbiya va axborotning texnik vositalarini ishlatish;
- kadrlar bilan ta’minlash kabi asosiy vositalarni, shuningdek, tarbiyaviy ishlarning asosiy shakllarini o‘z ichiga oladi.

Tarbiya tamoyillari deganda tarbiya jarayonining qonuniyatlaridan kelib chiqadigan, tarbiya jarayonining mazmuniga, uslublariga va uni tashkil etishga qo‘yiladigan asosiy talablarni ifodalovchi, boshlang‘ich (asos bo‘lgan) qoidalar tushuniladi. Ular tarbiya jarayonining xususiyatlarini aks ettiradi va tarbiyaviy vazifalarni hal etishda ularga amal qilinadi.

Tarbiya tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Milliy g‘oya va mafkuraga sodiqlik;
- tarbiyada muntazamlik, tizimlilik va komplekslilik;
- tarbiyaviy ishlarning ilmiyligi;
- gumanizm (inson e’tibor markazida);
- tarbiyalashda yakka tartibda yondashish;
- jamoada va jamoa orqali tarbiyalash;
- talabchanlikni insonga hurmat va g‘amxo‘rlik bilan uyg‘unlashtirish;
- ta’lim va tarbiya jarayonida yakdillik;
- tarbiyani olib borishda tarixiy va o‘tmish tajribasidan foydalanish.

Tarbiyaviy ishlarning tamoyillari talabalar kundalik faoliyati jarayonning asosiy qonuniyatlarini aks ettiruvchi pedagogik qoidalar tushuniladi va ular ta’lim oluvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish bo‘yicha ta’lim beruvchining faoliyatini belgilaydi. Bu tamoyillarda ta’lim jarayoni qonuniyatlarining, uning mantiqi va qarama-qarshiliklarining talablari aks etadi. Jumladan:

- Tarbiya jarayonida maqsadga intilish, tarbiya jarayonining ilmiy asoslanganligi va muayyan maqsadni ko‘zlanganligi, aniqligi va tezkorligi;
- Tartib va intizomni mustahkamlash yo‘nalishida tarbiya olib borish;
- Jamoa orqali va jamoda tarbiya qilish, muntazamliligi va bir tizimliligi, kompleks yondashuv;
- Tarbiyalashda yakka tartibda yondashish, tarbiya jarayonida o‘zaro bir-birini to‘ldirib borish va bir-biriga mosligi;
- Tarbiyaviy ishda ijobiy natijalar va yutuqlarga suyanish;
- Talabalarga g‘amho‘r va hurmatda bo‘lishni yuqori talabchanlik bilan uyg‘unlashtirish;
- Tarbiyalashda birgalikda harakat qilish.

Har bir tamoyil ta’lim jarayonining alohida tomonlarini, ularning aniq talablarini yoritib beruvchi qoidalarini o‘z ichiga oladi va ularning qo‘llanilishi ta’lim beruvchining ta’lim-tarbiya jarayoniga bo‘lgan umumiy munosabatini belgilaydi.

Hulosa o‘rnida tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bilim, ko‘nikma va malakalar faqat ma’lum bir fan doirasida mukammal bo‘lib qolmay, balki mutaxassislikdan kelib chiqqan holda barcha fanlar bilan yagona kompleks tashkil qilgan tarzda chuqur va izchil egallangan holdagina yoshlar o‘z kasbining mohir ustasi sifatida o‘z vazifalarini bajara olishi mumkin.

Tarbiyaviy ishlarda muntazamlik, tizimlilik va komplekslilik tamoyili yosh mutaxassislarni tayyorlash jarayonida berilayotgan tarbiyaga munosabati, qabul qila olishga tayyorgarligi bog‘liq va doimiy ravishda kengaytirishi va chuqurlashtirishini talab qiladi. Buning uchun barcha toifadagi boshliqlar hamda ularning o‘rinbosarlari nafaqat belgilangan rejalashtirish ishlarini olib borishi, balki o‘tkaziladigan tadbirlarni rejalashtirish va yaxshi bilishi zarur va shu asosda keyingi xaftaga, oyga yoki yilga rejalashtirib borishi va o‘tkazish uchun zamin yaratib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-son Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi” 267-son qarori.

OLIY HARBIY TA’LIM MUASSASALARI O‘QITUVCHILARINING YOSH AVLODNI MA’NAVIY TARBIYALASHDAGI O‘RNI

Kurbanov Gani Abilovich
O‘zbekiston Milliy universitetiHarbiy tayyorgarlik o‘quv markazi katta o‘qituvchisi, dotsent, podpolkovnik

Annotatsiya. Ushbu maqolada uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri aholining farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning samarali usullari va amalga oshirish shakllari masalalariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ma’naviy tarbiya, konsepsiya bosqichlari, pedagogik algoritmlar, tarbiya mexanizmlari va tamoyillari.

Аннотация. В данной стате одно из приоритетных направлений реализации концепции непрерывного духовного образования посвящено вопросам повышения знаний и педагогической культуры населения, эффективным методам и формам реализации непрерывного духовного образования граждан.

Ключевые слова: непрерывное духовное образование, этапы его зарождения, педагогические алгоритмы, механизмы и принципы образования.

Abstract. In this article, one of the priority areas for implementing the concept of continuous spiritual education is devoted to the issues of increasing the knowledge and pedagogical culture of the population, effective methods and forms of implementing continuous spiritual education of citizens.

Key words: continuous spiritual education, stages of its origin, pedagogical algorithms, mechanisms and principles of education.

Har qanday mustaqil davlat mustahkam ma’naviy poydevorga ega bo‘lgandagina yuksak taraqqiyotga erisha oladi.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Milliy davlatchiligimiz va o‘zligimiz timsoli bo‘lgan ona tilimizni rivojlantirish bu borada eng muhim yo‘nalish bo‘lib qoladi. Keyingi paytda qabul qilingan farmon va qarorlar asosida madaniyatimiz va san’atimiz rivoji yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Mamlakatimizda diniy-ma’rifiy sohalar rivojiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish to‘g‘risida”gi Qarori bilan O‘zbekistonni rivojlantirishning ettita ustuvor yo‘nalishi doirasidagi 5-yil davomida joriy etish bo‘yicha muhim ishlar belgilangan.

Rejalashtirilgan islohotlar samaradorligini rivojlantirish maqsadlariga erishish darajasiga muvofiq “Harakatlar strategiyasidan rivojlanish strategiyasi sari” tamoyili asosidagi islohotlarning uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash uchun oliy harbiy ta’lim muassasasida keng sharoitlar yaratilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi tasdiqlandi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri aholining farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning samarali usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish hisoblanadi.

Konsepsiyaning maqsadi – yosh avlodda mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy ko‘nikma va fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish asosida yuksak fazilatli, barkamol avlodni voyaga etkazishdan iborat.

Konsepsiya to‘rtta bosqichni qamrab oladi: birinchi bosqich: oilalarda (homila davri, bola tug‘ilgandan 3 yoshgacha bo‘lgan davr); ikkinchi bosqich: maktabgacha ta’lim 3-6(7) yoshgacha bo‘lgan davr; uchinchi bosqich: umumiy o‘rta ta’lim 6(7)-10 yoshgacha boshlang‘ich sinf, 11-17 (18) yosh; to‘rtinchi bosqich: ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar va OTM tizimidagi yoshlar.

O‘zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazi qurildi. Ushbu betakror majmua xalqimizning asrlar davomida jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulkan hissasini namoyon etadi. Imom Moturidiy ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish borasida boshlagan sa’y-harakatlarimiz ham mana shu xayrli ishlarning uzviy davomidir.

Xalqimizning umrboqiy an’analarini o‘zida mujassam etgan milliy urf-odatlarimizdan: salomlashish, to‘y, oila tutish, farzandni tarbiyalash, ota-onani hurmat qilish, salomatlikni saqlash, ilm olish, nonni e’zozlash, kiyim ma’daniyatini bilish va o‘rganish, tabiatni va atrof muhitni muhofaza qilish, milliy bayramlar va marosimlarni o‘tkazish har biri buyuk maktabdir. Ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviyat xazinasidan bahra olib, yoshlarimizni ham bahramand etish va ular ongini ma’nan boyitish ma’naviyatlikning eng yuksak ko‘rinishidir. Bizning an’analarimiz, urf-odatlarimizni keng targ‘ib qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan qutlug‘ yangi O‘zbekistonda yashamoqdamiz. Asl tariximizni ilmiy asosda aytib beradigan davrdamiz. Mazkur ilmiy meros asosida milliy qadriyatlarimizni barcha el-yurtimiz fuqarolariga, ayniqsa, yoshlarga ongiga singdirish tizimini yaratib va ushbu tizimni muntazam tashkil qilib borish lozim va targ‘ibotning eng ta’sirchan usullari va mexanizmlarini joriy etish kerak.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerakligi belgilangan: ma’naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish; tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga etgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish; bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish; tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish; ma’naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish; ma’naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi.

Maqsad – bola tug‘ilmasidan boshlab to 25 yoshgacha vaqt davomida uning ma’naviyati, yoshiga mos ko‘nikma va malakalar, kompetensiyalarining

kutilayotgan aniq darajasini kafolatli ta’minlashning ilmiy asoslangan dasturiy-metodik ta’minotini tashkil etish. Konsepsiyaga ko‘ra, uzliksiz ma’naviy tarbiya tizimi oila, maktabgacha, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida yoshlarni bosqichma-bosqich, uzliksiz ma’naviy tarbiyalash natijadorligini kafolatlashga qaratilgan pedagogik operatsiyalar, vositalar, metodlar zanjiridir. Ushbu tizimda vositalar emas, balki u yoki bu fazilat, ijtimoiy malakani shakllantirishda kafolatlangan natijaga erishishning pedagogik algoritmlari rejalashtirilishi nazarda tutilgan.

Yosh avlodning uzluksiz tarbiyasi quyidagi mexanizm asosida amalga oshiriladi: oilada; maktabgacha ta’lim muassasalarida; umumiy o‘rta ta’lim maktablarida; o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalarida; oliy ta’lim muassasalarida; jamoatchilik guruhlarida. Bu mexanizm milliy etalon shaklini olgan.

Eng asosiysi tarbiya jarayonida quyidagi tamoyillarga asoslanadi: milliy qadriyatlar ustuvorligi, umuminsoniy qadriyatlarga tayanuvchanligi, insonparvarlik va demokratlik.

Mazkur tamoyillar O‘zbekiston tarbiya konsepsiyasinining negizini tashkil etadi.

Prezidentimiz dunyo mintaqalaridagi qonli to‘qnashuv va nizolarga to‘xtalib, yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashni kuchaytirishimiz shartligini, bu kurashning oddiy, har birimiz amal qila oladigan yo‘llarini ham ko‘rsatib berdi. Ya’ni **“... har birimiz bu masalaga befarq bo‘lmasdan, o‘z bolamizni, o‘z uyimiz, o‘z mahallamizni o‘zimiz asraydigan bo‘lsak, men ishonaman, bunday balo-qazolar hayotimizdan, albatta, yiroq bo‘ladi”.**

Demak, tarbiya masalasi muntazam kun tartibimizda turishi ta’kidlanmoqda. Umumta’lim maktablarida “Tarbiya” fani joriy etilishi ham shundan, aslida.

Maqsad – yoshlar ma’naviyatini boyitish, buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularning ong va xulqlarini bunyodkor, ezgu ishlarga yo‘naltirishdan iboratdir.

Vaqt, asrlar, yillar o‘tadi. Avlodlarimizning ta’limi, tarbiyasi, qadriyatimizni bilish darajasi, har bir farzandning tafakkuriga javobgarlik masalasi bizning hammamizni zimmamizdaligini unutmaylik. Yangi O‘zbekistonni bunyod etishga munosib hissa qo‘shgan barcha insonlarni kelgusi avlodlar doimo minnatdorlik va g‘urur bilan eslaydi.

Davlatimiz rahbari o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishidagi ***“Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir”*** nomli ma’ruzasi ma’naviy sohadagi ishlarimizga dasturiamal bo‘ldi. Unga ko‘ra, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berish, yoshlar o‘rtasida xuquqbuzarlikning barvaqt oldini maqsadida ***“Avlodlar uchrashuvi”*** loyihasi, ***“Bir ziyoli- bir mahallaga ma’naviy homiy”, “Bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy”*** tamoyillari asosida “mahallabay” tizimi yaratildi. Ularga oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, ijodkor ziyolilar, ijtimoiy faol nuroniylari jalb qilindi. Ayni paytda har bir oliy ta’lim muassasasi tomonidan “mahallabay” ishlash tizimi bo‘yicha alohida “yo‘l xarita”lari ishlab chiqilib, ijrosi ta’minlamoqda.

Yoshi ulug‘ professor-o‘qituvchilar ishtirokidagi mahalla yoshlari bilan uchrashuvlarda ziyolilarning yoshlarga ibrat qilinishi barobarida jamiyatda nuroniylarning ijtimoiy faolligi oshishiga hissa qo‘shishga ham erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish”gi qarori: https://lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonni 2022-2026-yildagi rivojlantirish strategiyasi” farmoni // Xalq so‘zi. – T., 2022. – 29 yanvar. – B. 1-2.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi: https://www.yuz.uz
5. Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi 2021-yil 12-yanvardagi nutqi. – T.: Qurolli Kuchlar Akademiyasi, 2021: https://lex.uz
6. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori.

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK DARSI JARAYONIDA O‘QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH XUSUSIYA

Nurulloyev Laziz Latipovich
Buxoro davlat pedagogika institute Harbiy ta’lim fakulteti
maxsus tayyorgarlik sikli dotsenti, (PhD)

Annotatsiya: Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi haqidagi bilimlar bilan qurollantirish va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi, metodologik asoslari, mazmun-mohiyati, vazifalari, vositalari, pedagogik, psixologik asoslari, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi tizimi va uning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: odob, axloq,tarbiya, zero, lozim

Vatanparvarlik tarbiyasining xalqimiz uchun ahamiyati shundaki, xalqning tinchlik, xavfsizlikda hayot kechirishi, yaratuvchilik, bunyodkorlik mehnati bilan shug‘ullanishi, turmush darajasini, uning farovonligini oshirish, yurtni obod qilish yo‘nalishidagi barcha faoliyat xalqimizning vatanparvarlik xislatlariga bog‘liq bo‘lib, shu xislatlarning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Bundan vatanparvarlikning qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rinib turibdi. Bu masalaga qadimdan e’tibor berib kelinganligini “Vatanni sevmoq iymondandir” degan mashhur hadis ham tasdiqlab turibdi. Bu hadisdagi “Vatanni sevmoq” iborasi “vatanparvarlik” ma’nosi bilan tengligini hisobga olsak, “Vatanparvarlik iymondandir” degan ma’no bilinadi. Bundan esa vatanparvarlik iymon, e’tiqod ekanligi ma’lum bo‘ladi. Har bir xalq hayotining ravnaqi, eng avvalo, o‘sha xalq fuqarolarining qanchalik vatanpavar ekanliklari va yosh avlodga qanchalik vatanparvarlik ta’lim-tarbiyasi berishlari bilan bog‘liq.

Davlatning mustahkamligi, kuch-kudrati, uning dunyo davlatlari orasidagi nufuzi shu davlatdagi barcha rahbar va xodimlar, mutaxassislarning bilimdonligi, o‘z vazifalarini puxta bajarishlari, unumli mehnat qilishlariga erishish yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanadi. Bu esa vatanparvarlik tarbiyasining davlatimiz uchun ahamiyatini bildiradi. Davlatni mustahkamlash, uni har tomonlama taraqqiy ettirishda vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyati to‘g‘risida Prezidentimiz Sh.Mirziyoev: **“Barchamizga yaxshi ma’lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi”,** deb alohida ta’kidlaydi.

Vatanparvarlik tarbiyasi tizimining umumiy xususiyatlari

O‘sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi, shu jumladan, ularning vatanparvarlik tarbiyasi Vatanimiz, xalqimiz kelajagini, el-yurtimiz taqdirini hal qiluvchi masala hisoblanadi. Bu masalaning qanchalik jiddiy ahamiyatga ega ekanligi to‘g‘risida Abdulla Avloniyning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin:

“Ulamolardan biri: “har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdur”, demish”. “Alhosil, tarbiya bizlar uchun

yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidur". "Bolalarini pisand qilmagan millatlar inqirozi ularni yot qullarga va yot madaniyatlar ixtiyoriga berib qo'yganlari sababliki, ulardan ayrilishga mahkumdirlar".

Bunda bolalarning kelajak egalari ekanligini hisobga olgan holda ularning ta'lim-tarbiyasiga e'tiborsizlik millatning inqiroziga olib kelishi ta'kidlanmoqda. Zero, biz Vatanimiz kelajagini o'z bolalarimiz orqali yaratamiz. Vatanimiz kelajagining qanday bo'lishida esa hozirgi vatanparvarlik tarbiyasi alohida o'rin egallaydi. Bu yo'lda hozirda muayyan ishlar amalga oshirib borilmoqda.

Vatanparvarlik tarbiyasi umumiy ta'lim-tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lishi bilan birga o'z pedagogik, psixologik asoslariga va metodikasiga ega. Lekin hozirgacha ushbu asoslar va metodikaning ilmiy-nazariy jihatlari etarlicha o'rganilmagan. Vatanparvarlik tarbiyasi inson hayotining hamma sohasida amal qiladi, bu degani Vatanni asrab avaylash, uning farovonligi va gullab-yashnashi yo'lida hamma sohalarda amalga oshiriladigan ishlar vatanparvarlik tarbiyasiga asoslanadi. Chunki insoniyat tarixidan ma'lumki, hamma zamonlarda ham har bir davlatning rivojlanishi, kuch-qudratli va boshqalar tomonidan tan olinadigan bo'lishi, u erdagi xalqning farovon hayoti o'sha xalqning vatanparvarlik xislatlari qanchalik yuqori ekanligiga bog'liq. Vatanparvarlik tarbiyasi ahamiyati jihatidan shaxs umumiy ta'lim-tarbiyasining pirovard natijasini ifodalaydi. Shunga muvofiq ravishda bu sohadagi ishlarimizni ushbu yo'nalishdagi mavjud tajribalar, erishilgan ijobiy natijalarni hisobga olgan holda muntazam rivojlantirib, faollashtirib borish masalasi davr talabi sanaladi. Bu ishlarni ilmiy asosda ishlab chiqilgan va oila, mahalla, ta'lim muassasalari, davlat va nodavlat tashkilotlarining ijtimoiy sheriklik faoliyatiga asoslangan **vatanparvarlik tarbiyasi tizimi** orqali muntazam ravishda amalga oshirib borish lozim. Vatanparvarlik tarbiyasining tegishli ilmiy tahlillar natijalariga asoslangan bunday tizimi hali ishlab chiqilmagan.

Shu munosabat bilan bunday tizimning tarkibiy tuzilishi hamda ayrim asosiy jihatlari to'g'risida mavjud ish tajribalari va kuzatishlar asosida fikr yuritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga qo'ramiz. Mazkur kitobda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qorakalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy Nizomlari. Toshkent: O'zbekiston, 1996.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lim muassasalariga tanlash tartibi va qabul qilish qoidalari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida», 2014 yil 3 iyun.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrdagi

348-son qarori bilan tasdiqlangan “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni

7. Ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 8-noyabrdagi 591-son qarori

8. Xolikov, I. R. (2022). Formation of the Pedagogical Competence of Military Faculty Students. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(4), 18-20.

9. Kholikov, I. R. (2023). Competence and its Types.

“CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA VATANGA SADOQAT TUYG‘USINI RIVOJLANTIRISH USULLARI”

Nurulloyev Laziz Latipovich
Buxoro davlat pedagogika institutiHarbiy ta’lim fokulteti maxsus tayyorgarlik sikli dotsenti, (PhD)

Aliyev Firdavs Farruxovich
Buxoro davlat pedagogikainstituti Harbiy ta’lim fakulteti
3-bosqich talabasi

Anatatsiya: Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish usullaridan foydalanish bo‘lajak zahiradagi ofitserlar hamda harbiy ta’lim rahbarlariga harbiy xizmatga chaqiriluvchilar va harbiy qism shaxsiy tarkibi faoliyatida zarur bo‘ladigan harbiy psixologiya va pedagogika qoidalarini, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta’lim-tarbiyaning amalga oshirishda iborat .

Kalit so‘zlar: Ta’lim, tayyorgarlik, ko‘nikma, malaka.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidan ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun harbiy-vatanparvarlik ta’limi asos bo‘lib xizmat qiladi. Harbiy-vatanparvarlik ta’limining maqsadi va mazmuni harbiy sohaga tegishli bilimlarni o‘rgatishdan iborat. Bunday ta’lim jarayoni tegishli harbiy mutaxassisliklar bo‘yicha maxsus o‘quv reja va o‘quv dasturlariga muvofiq tashkil qilinadigan nazariy, amaliy va boshqa turdagi mashg‘ulotlar, o‘quv mashqlarini o‘z ichiga oladi.

Harbiy ta’lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik ta’limi jarayonida yuqorida aytilgan tarbiya bilan ta’limning birligi tamoyili eng yaqqol ifoda etilishi ma’lum. Bunga ushbu ta’lim muassasalarida qat’iy harbiy intizomning joriy etilganligi asos bo‘ladi. Bunday intizom natijasida ta’lim oluvchilarda mustahkam axloqiy me’yorlar shakllanib, hayotiy qoidalarga aylanib boradi.

Harbiy psixologiya va pedagogika fani harbiy-vatanparvarlik ta’limini amalga oshirishda harbiy ta’lim muassasalarida harbiy ta’lim-tarbiya jarayonining pedagogik va metodik hamda harbiy o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi masalalari bilan shug‘ullanadi. Shunga ko‘ra, harbiy pedagogika fani tegishlicha alohida yo‘nalishlar bo‘yicha xususiy harbiy pedagogika va didaktika hamda harbiy o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi fanlarining shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishlarni yanada kuchaytirish yuzasidan hozirgi dolzarb vazifalarga quyidagilar kiradi:

bugungi zamonda dunyo shiddat bilan o‘zgarib borayotganligini, xalqimizning ma’naviy qadriyatlari, madaniyati va urf-odatlariga mutlaqo zid bo‘lgan, yot va buzg‘unchi g‘oyalarni jamiyatimiz hayotiga turli yo‘llar bilan singdirishga qaratilgan urinishlar kuchayganligini, ayniksa, yosh avlodning qalbi va ongini

egallash uchun keskin kurash ketayotganligini hisobga olish;

bunday sharoitda harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatgacha bo‘lgan yoshdagi farzandlarimizni tarbiyalash va ularning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirish borasidagi ishlarning sifati va samaradorligini yuksaltirib borish, bu ishlarning chuqur va boy mazmunli bo‘lishini, ta’sirchanligini ta’minlash choralarini ko‘rish;

ta’lim muassasalari, harbiy va mehnat jamoalarida, mahallalarda yoshlarimiz qalbida Vatanga yuksak muhabbat, Qurolli Kuchlarimizdan g‘ururlanish va harbiy xizmatga chuqur hurmat tuyg‘ularini kamol toptirishga qaratilgan harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishlarni yanada kuchaytirish;

harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan, dolzarb vazifalarni amalga oshirishda Mudofaa vazirligi qoshidagi Jamoatchilik kengashi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hamda boshqa jamoat tashkilotlari va tuzilmalar, madaniyat, san’at va sport sohalarining ko‘zga ko‘ringan namoyandalari bilan hamkorlikda ish olib borish;

ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san’at, ilm-fan yutuqlari va Internetning milliy tarmog‘i imkoniyatlaridan keng foydalanish;

yoshlar va fuqarolar orasida Vatanni himoya qilish g‘oyalarini targ‘ib qilish, yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga daxldor barcha tashkilotlar va o‘quv muassasalarida harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti, ma’naviy-ma’rifiy va tashkiliy ommaviy ishlarning yanada yuqori darajada olib borilishini ta’minlash.

Shularni hisobga olgan holda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirib borish zarur:

1. Harbiy o‘quv muassasalarida tahsil olayotgan o‘quvchilarning ota-onalari, mahalliy davlat organlari, jamoatchilik vakillari va chaqiriqqacha yoshlar ishtirokida ularni o‘quvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishtirish maqsadida “Ochiq eshiklar kuni” o‘tkazish.

2. Harbiy o‘quv muassasalarida tahsil olayotgan o‘quvchilar bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish, o‘qish davomida o‘zining namunali xulqi bilan safdoshlari orasida o‘rnak bo‘lgan hamda o‘tkazilgan sport musobaqalarida g‘olib va sovrindor bo‘lgan o‘quvchilarni taqdirlash.

3. O‘quv muassasalari o‘quvchilari bilan o‘tkaziladigan turli ta’lim-tarbiyaviy hamda bayram tadbirlarida milliy armiyamizda xizmat qilayotgan tajribali, ilg‘or harbiy xizmatchilarning ma’ruzachi sifatida ishtirokini ta’minlash.

4. O‘quv muassasalari o‘quvchilarining otaliq harbiy qismlarga sayohatlarini amalga oshirish, tashkilotda Qurolli Kuchlar tizimida o‘tkazilgan tanlovlarning g‘oliblari bo‘lgan milliy armiyamiz shaxsiy tarkibidagi zobit va serjantlar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etish.

5. O‘quv muassasalari kutubxonalari va ma’naviyat xonalarining kitob jamg‘armalarini vatanparvarlik tarbiyasi va ta’limi yo‘nalishidagi yangi adabiyotlar va ko‘rgazmali vositalar bilan boyitib borish.

6. Ommaviy axborot vositalarida vatanparvarlik tarbiyasi yo‘nalishidagi mavzularni yoritib borish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrdagi 348-son qarori bilan tasdiqlangan “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi.
3. Inoyatov I.Yu., Abilov M.X. Vatan himoyasi – muqaddas burch. – T.: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2001. – 81-93-b.
4. Sh.N.Abduraxmonov Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nazariyasi o‘quv qo‘llanma Kamolot nashriyoti 2023. – 98-101-b
5. A.T.Boboyev “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish texnologiyalari” ‘‘Yangi O‘zbekiston: Innovatsiya, fan va ta’lim’’ mavzusidagi respublika 50-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to‘plami, 31-mart 2023-yil. - Toshkent: «Tadqiqot», 2023.

HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASI AJDODLAR MEROSIDA

Hamroyev Kamol Qahramonovich
Harbiy ta’lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikli dotsenti

Annotatsiya: Vatan himoyasini, el-yurt tinchligi va farovonligini asramoq har bir yoshning muqaddas burchi bo‘lib qolishga da’vat etishini ham talab qiladi. Albatta, bu ulug‘vor vazifalarni amalga oshirish uchun faqatgina eng o‘tkir qurol bo‘lgan badiiy adabiyotning tarbiyalovchilik imkoniyatlaridan keng foydalanish, buning uchun dars jarayonidagina emas, balki auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda ham ertangi kun egalari, chinakam vatanparvarlarni mustaqillikka sadoqat ruhida tarbiyalash lozim. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, avvalo, ona-Vatanga bo‘lgan muhabbat, uni sevish, e’zozlash, uning ravnaqi uchun har bir inson hissa qo‘shishini o‘rgatishda adabiy asar qahramonlari, tarixiy shaxslar, vatan fidoyilari eng yorqin namuna bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: Vatan, yoshlar, tarix, sport, ta’lim-tarbiya, odob-axloq, Amir Temur, Alisher Navoiy, oila, qurolli kuchlar.

Hozirgi vaqtda, O‘zbekistonda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan bir necha qonun va qarorlar ana shu muammolarni bartaraf etish, yoshlarning jismoniy tarbiyasini yaxshilash maqsadidadir va bu borada sezilarli amaliy ishlar ham amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Respublikamizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyil va ustuvor yo‘nalishlari asosida ishlab chiqilgan bir qator buyuruqlar bo‘lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo‘llari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o‘zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi.Salomatlikni mustahakamlash, tanani chiniqtirish, uning turli kasalliklarga qarshiligini oshirish bu pedagogik jarayonning sog‘lomlashtiruvchi vazifalari hisoblanadi. Sog‘lomlashtiruvchi vazifalarning muvaffaqiyati jismoniy mashg‘ulotlarning sog‘lomlashtiruvchi pedagogik prinsiplari talablariga rioya qilishga bog‘liqdir. Sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi bilan bog‘liq muhim masala hal etiladi.

Shuningdek, o‘zbek xalqining madaniy merosi hisoblangan san’at, tarixiy va me’morchilik yodgorliklarini asrab-avaylash, ularning tarixi hamda bugungi kundagi ahamiyatini bilish talab etiladi. Zero, bir necha asrlar davomida yaratilgan obidalarimiz - machit, madrasa, saroy, abservatoriya, qasrlar, osmono‘par minoralar, maqbaralar, boy, qo‘hna va navqiron tariximiz, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Turkiston yodgorliklari kimlarni hayratga solmagan deysiz. Ular yoshlar

qalbida ham o‘tmish tariximizga, ajdodlarimizning yuksak ilm va kasb mahoratiga cheksiz hurmat, ular bilan faxrlanish tuyg‘usini uyg‘otadi.

O‘qituvchi yoshlarni o‘z millatiga, Ona Vataniga, imoniga sodiq bo‘lishni o‘rgatishi, ularda sog‘lom kuch, tafakkur, imon va pok vijdonni shakllantirish, Vatan oldidagi mas’uliyat, millat manfaati bilan yashash, Vatan taraqqiyoti, millat obro‘siga hissa ko‘shish, foyda keltirish, fidoyilik va halollik bilan sidqidildan mehnat qilish, xalqning shon-shuhratini, manfaatini o‘ylash, insonparvar bo‘lishiga da’vat etishning turli usul va vositalarini ham topishga harakat qilgandagina yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish uchun yangi pedagogik texnologiyaning barcha ko‘rinishlaridan foydalanish, uning yangi-yangi shakllarini izlab topish va yaratish, eng avvalo, yoshlarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka o‘rgatish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish va yanada rivojlantirish yo‘llarini izlash kerak.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari

Yoshlarni vatan himoyasiga tayyorlash – inson butun hayoti davomida amalga oshiriladigan o‘zoq jarayondir. Vatanparvarlik tarbiyasi oiladan boshlanadi va boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quv yurtida davom ettirilishi lozim.

Bu yosh uchun eng kerakli fanlar – gumanitar, tabiiy, matematika fanlari, jismoniy tarbiya. O‘quvchilar bu davrda "harbiy" tushunchalar ma’nosini yanada chuqur anglab etadi. "Vatan himoyasi", "Harbiy nizomlar" va boshqalar davlatimiz iqtisodiy qudrati va uning Qurolli Kuchlar qudrati tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolati ekanligini tushuna boshlaydi.

Vatanparvarlik hissiyotlari o‘smirlarda qahramonlikka intilish, jasorat ko‘rsatish istagi, tengdoshlari jamoasida o‘z o‘rniga ega bo‘lish, ular hurmatiga sazovar bo‘lishi, o‘ziga yuqori e’tibor va talabchanlik, katta ijtimoiy faollik kabi yangi his – tuyg‘ularni shakllanishiga ko‘ra rivojlanadi.

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda Amir Temur o‘gitlari alohida qimmatga ega. Sohibqiron Amir Temur mamlakatda adolatni tiklash, tartib–intizom o‘rnatishga katta e’tibor bergan va o‘zi alohida jonbozlik ko‘rsatgan. Ishonchli chora– tadbirlar qo‘llaydi. Amir Temur davlatni adolat va tadbirkorlik bilan boshqarishda boshqa hukmdorlardan ustun turadi. Sohibqiron ezgu insoniy fazilatlar shavkatida bir yo‘ldosh bo‘lgan holda uning tole yulduzi yuksak porlab, raqiblarga qarshi kurashda yo‘lini yoritib, ilhom baxsh etib turadi.

Amir Temur hazratlarining ko‘rkam xulqlaridan biri shuki, Osiyoning yarmini surib turgan bo‘lishiga qaramay siyosiy nutqlarini quyidagicha, juda sodda iboralar bilan boshlar edilar: «Men, Tangrining quli-Temur shuni aytamanki..». Ko‘rinadiki, Amir Temur, vazifasi, dovrug‘i tufayligina emas, balki havas qilsa arziydigan darajada vatanparvar, adolatli hukmdorligi bilan ham boshqalardan ajralib turgan . Alisher Navoiy Amir Temurning shaxsiy qobiliyati haqida bunday deb yozgan edi: «Amir Temur Ko‘rogon... agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo‘p mahal va mavqeda uqubdurlarkim, aningdek bir bayt o‘qurg‘oni ming yaxshi bayt aytqonicha bor. Tabarruk xaysiyatidankim, ul

hazratning muborak ismi bu muxtasarda bo‘lg‘ay va ul latoyifdan biri bila ixtisor qililur».

Bu jumlalarda Sohibqironning jasoratli, mard, odil, vatanparvar, elsevar va tadbirkor, shu bilan birgalikda shariat ixlosmandi, adolatparvar, mulohazali inson sifatlariga ega bo‘lganligi ifodalangan. Bu Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda eng yaxshi ibrat sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda o‘rta maxsus ta’lim muassalarida “Yoshlarni chaqiriqqaqa qadar boshlang‘ich tayyorlash” o‘quv fanlariga katta e’tibor berilmoqda, bunda “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanlari orqali o‘quvchilar O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tuzilishi, maqsadi va vazifasi hamda taktik, o‘q ochish, saf tayyorgarligi, harbiy topografiya va fuqarolik himoya bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lmoqdalar.

Bo‘lajak vatan himoyachilari harbiy qasamyod, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar nizomlari talablarini tushunib oladilar, harbiy qism qurollanishi va harbiy texnikasi, shaxsiy tarkib joylashuvi va hayoti bilan tanishadilar; yosh askarlar tayyorlash doirasidagi kerakli amaliy ko‘nikmalarni egallaydi.

Harbiy xizmatga o‘smir-yoshlarni ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy tayyorlash borasidagi vazifalarni hal etishda asosan, xalqimiz mustaqilligi, milliy ozodligi kurashi, qahramonlik yilnomasi, xalq va uning Qurolli Kuchlar shuhratiga sazovar bo‘lgan jangovar va mehnat an’analari bilan tanishtirishni ko‘zda tutadi. Tajriba ko‘rsatadiki, bunday yutuqlar, Vatanning qahramonona o‘tmishi haqidagi hikoyalar o‘quvchilarda vatanparvarlik hissiyotlarini rivojlantirish, ularning fikrlari, qilgan ishlari va harakatlariga faol ta’sir qiladi. Har bir “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” o‘qituvchisi vatanparvarlikning yangi idrok manbaalari dunyosiga yoshlarni olib ketadigan shunday muhitni darsda yaratish kerak. Mashg‘ulotlarning qat’iy va aniq tashkil etilishi o‘quvchilarni tartib va intizomiga o‘rgatadi, ijrochilik va tashkilotchilik tomonlarini ishlab chiqadi.

Yoshlarni Qurolli Kuchlar xizmatiga tayyorlash tizimida jismoniy tarbiya muhim o‘rin egallaydi. Bu tushunarli, zero jangovar hayot qiyinchiliklaridan o‘tish, jismonan juda yaxshi rivojlangan, matonatli, mustahkam asabga ega bo‘lgan odamning turli sharoitlarda harakat qilishi lozimdir. O‘quv yurtida harbiy ish asoslari bo‘yicha to‘garaklarni tashkil qilish o‘quvchilarni harbiy ish asoslarini o‘rganishga jalb qilish maqsadini qo‘yyadi. To‘garak yo‘nalishini tanlaganda moddiy baza va mutaxassislar hamda o‘quvchilar qiziqishlari va talablaridan kelib chiqish kerak.

Yoshlarni harbiy hizmatga tayyorlashda harbiy amaliy sport turlari bo‘yicha musobaqalar muhim o‘rin tutadi. Ularni «Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” o‘qituvchisi va jismoniy tarbiya o‘qituvchisi tashkil qiladi, ularga quyidagi turlar kiradi: o‘q otish, harbiylashtirilgan kross, granata otish, to‘siqlardan o‘tish, suv to‘sig‘idan o‘tish, o‘zoqlik va aniqlikka granata otish, og‘ir tosh ko‘tarish va hokazo. Bu va boshqa musobaqalar turli birikmalarda ishlatilishi mumkin. “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanini o‘tishda, odatda may oyida, o‘quv yurti rahbarlari harbiy sport bayrami o‘tkziadi. Bayram rejasi bir oy oldin tuziladi. Bayramda to‘garaklarga rahbarlik qilish uchun “Chaqiruvga qadar

boshlang‘ich tayyorgarlik” o‘qituvchisi, otaliqqa olgan harbiy qism ofiser va serjantlari, zahiradagi ofiserlar taklif qilinadi. Tajriba ko‘rsatadiki, o‘quv yurtlarida, odatda, o‘q otish, harbiy texnik, harbiy tarixiy, topografik, umumharbiy tayyorgarlik bo‘yicha to‘garak tashkil etish maqsadga muvofiq.Bayramga qatnashish uchun o‘quv yurtining barcha o‘quvchilari, o‘qituvchilari, urush faxriylari, harbiy qism va harbiy o‘quv yurtlari vakillarini jalb etish maqsadga muvofiq.

Oilaviy tarbiya o‘sib kelayotgan avlodda vatanga muhabbat hissini rivojlantirish, uning himoya, harbiy jasorat, harbiy kasbga muhabbat ahamiyati haqida to‘g‘ri tushuncha shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Oiladagi vatan uchun kurashlarda halok bo‘lgan qarindoshlar xotirasiga bo‘lgan an’analarga hurmat, ularning jangovar mukofotlari, surat va esdaliklarini avaylab asrashning ahamiyati katta. Vatanimiz qahramonona tarixi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar jangovar yo‘li, armiya va flotdagi xizmati, jangovar harakatlardagi shaxsiy qatnashuvi haqidagi ota bobolar hikoyalari bolalarga katta tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi, ota bobolari qaysi yillarda, frontda va qaysi mamlakat va shaharlarning ozodligi uchun kurashgan, baynalminal burchini bajarib, ota va katta akalarning Afg‘onistonda qanday jang qilgani, qanday orden va medallar bilan taqdirlangani haqida bolalarning bilishi juda muhim.

Hozirgi sharoitda harbiy xizmatning murakkablashib borishi, bugungi kun jangchisiga qo‘yilayotgan talablarning o‘sishi, o‘quvchi yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga yangicha nazar bilan qarash va yondoshishni taqozo etayotir. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasidagi qadriyatlar va sifatlarni shakllantirishda asosiy etakchi rol – ta’limga, yaxni o‘qitishga tegishlidir. Lekin, bu inkor etilmaydigan nazariy xulosa, fan asoslarini o‘qitayotgan o‘qituvchilarning uslubiy materiallari va amaliy ishlarida to‘la amalga oshirilmayapdi. Umumta’lim fanlari o‘qituvchilarining aksariyat qismi harbiy vatanparvarlik tarbiyasi vazifalariga yuzaki yondoshadilar va ko‘p hollarda o‘zlari o‘qitayotgan fanlarning bu vazifalarini echishdagi imkoniyatlarini tasavvur ham qilmaydilar. Vatan himoyachilarini tarbiyalash ishlariga pedagogik jamoalar tomonidan CHYOT rahbari, “Vatanparvar” tashkiloti, Mudofaa ishlari bo‘limlari va yoshlar tashkilotlarining tor doiradagi faoliyatlari deb qaraladi. Lekin shu narsa aniqki, agar o‘quvchilarning muhim hayot faoliyatlarining biri –o‘quv faoliyati tinchlikni saqlash, mamlakat mudofaasini mustahkamlash va uning himoyasiga shay bo‘lish kabi yuksak g‘oyalar bilan boyitilmasa, u holda ularni vaqtinchalik tadbirlar vositasida o‘rnini to‘ldirish samarasiz bo‘lib chiqishi mumkin. Bugungi kunda keng fikrlovchi, chuqur e’tiqodli insonlargina vatanparvar fuqaro vatan himoyachisi bo‘lishi mumkin.

Davlatimizning asosiy vazifalaridan biri harbiy vatanparvarlik tarbiyasining metodlari va shakllari yordamida inson ongiga har qanday tajovuzkorliklarga qarshilik ko‘rsatishda doimiy tayyorlikni shakllantirish, o‘z Vatani himoyasi uchun shaxsiy javobgarlik hissiyoti ruhida tarbiyalashdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Сафоев Х. А. Воспитание студентов в духе военного патриотизма-актуалная педагогическая проблема //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51). – с. 34-35.

2. Самадов В. Т. Основные категории военной педагогики //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51). – с. 35-37.

3. Kahramanovich K. K. Raising the patriotic spirit of young people at the Faculty of Military Education //International Journal Of Language Learning And Applied Linguistics. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 199-201.

4. Хамроев К. К. Основы Деятелности Военно-Патриотического Направления Студентов //Вестник науки и образования. – 2021. – №. 7-3 (110). – С. 69-71.

5. Хамроев К. К. Этические Критерии и Воспитателные Основы Военного Патриотизма //Вестник Магистратуры. – 2020. – №. 5-5. – С. 116.

6. Qahramonovich X. K. TALABALARDA VATANPARVARLIK TUYG ‘ULARINI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ ALLOMALARINING ILMIY ME’ROSINI O ‘RGANISHNING AHAMIYATI //PEDAGOG. – 2024. – Т. 7. – №. 5. – С. 38-42.

7. Qahramonovich X. K. O‘QUVCHI YOSHLARNI TARBIYALASHDA IJTIMOIY INSTITUTLAR VA TA’LIM MUASSASALARI HAMKORLIGINING TAKOMILLASHTIRISH //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – Т. 4. – №. 5. – С. 131-135.

8. Xolikov, I. R. (2022). Formation of the Pedagogical Competence of Military Faculty Students. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(4), 18-20.

9. XOLIQOV, I. (2022). THE IMPORTANCE OF ARTISTIC LITERATURE IN THE MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION OF YOUTH. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, *2*(2).

10. XOLIQOV, I. (2022). THE IMPORTANCE OF ARTISTIC LITERATURE IN THE MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION OF YOUTH. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, *2*(2).

CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM YO‘NALISHI ALABALARINI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING TARIXIY AHAMIYATI

Nazarov Tohir Toshpo‘lotovich
Buxoro davlat Pedagogika instituti Harbiy ta’lim fakulteti
Maxsus tayyorgarlik sikli dotsenti, zaxiradagi leytenant

Annotatsiya: Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ustivor vazifalardan hisoblanib, oliy ta’lim muassasalarida ham bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Sababi talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish usullari izlab topish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, pedagogik texnika, jasorat, tarbiya, strategiya, faoliyat, milliy o‘zlikni anglash, bilim, ko‘nikma, zamonaviy axborot texnologiyalar, muloqot, nutq.

Ona Vatanimizni ko‘z qorachig‘idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog‘liq eng muhim tushunchalar, hayotiy va professional ko‘nikmalarni ilmu ma’rifat asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk yoshligidan boshlab singdirib borish va shu tariqa O‘zbekistonning haqiqiy vatanparvar fuqarolarini tarbiyalash Konsepsiyaning asosiy ma’no-mazmunini tashkil etadi. Talabalarni harbiy vatanparlik ruhida tarbiyalash uning millati, tili va ishtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar Vatanga bo‘lgan sadoqatini shakllantirish, fuqarolik burchlarini va konstitutsiyaviy majburiyatlarni bajarishga, jamiyat va davlatimizning manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan mas’ul ta’lim muassasalari, davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarning ko‘p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatiga aytiladi. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarini harbiy vatanparlik ruhida tarbiyalashda ta’lim muassasalarining faoliyati asosiy rol o‘ynaydi. Sababi yoshlarning asosiy vaqti ta’lim muassasida ta’lim tarbiya olishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-son qaroriga binoan ―Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi‖ ishlab chiqilgan bo‘lib ushbu konsepsiyasida Yoshlarni harbiyvatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi va asosiy vazifalari aniq belgilab berilgan. Talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi talabalarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat. Talabalarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirishda tarixiy yondashuv va ilmiy qadriyatlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish,

ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish;

- milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma’nan etuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O‘zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash;

- talabalarda yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

- har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

- O‘zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo‘lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish.

Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarini harbiy vatanparlik ruhida tarbiyalashda buyuk shaxslar timsolini aks etish muhim hisohlanadi. Tarixdan ma’lumki, Rossiya imperiyasi va sovetlarning mustamlakachilik tuzumi o‘z hokimiyatlarini yanada mustahkamlash maqsadida qatag‘on siyosatiga katta e’tibor qaratgan. Qatag‘on siyosatining qonli qilichi barcha sohalarni, turli ijtimoiy qatlamlarni qamrab olgan edi. Sovet hokimiyati, avvalo, mahalliy rahbar kadrlarni qatag‘on qilganlarni hayot faoliyatini o‘rganish va yoshlarga etkazishda muzeylar o‘rni beqiyosdir. Mustabid tuzum hukumati uchun O‘zbekiston singari milliy sovet respublikasi rahbarlari, xodimlarini to‘la itoatda tutishning birdan - bir sharti - bu ularning mustaqil faoliyatiga izn bermaslik, vaqti – vaqti bilan silkitib turish, mabodo xato, kamchiliklari topilguday bo‘lsa, shafqatsiz jazolash yo‘li edi. O‘zbekiston ravnaqi, xalqining baxtu saodati uchun fidoyilik qo‘rsatgan Akmal Ikromov, Fayzulla Xo‘jaev, Abdulla Rahimboev, Isroil Ortiqov, Abdulla Karimov va boshqa o‘nlab mahalliy rahbar kadrlarning hayot qismati pirovarida mana shunday fojia bilan yakun topdi. Qatag‘on siyosatining qonli qilichidan eng ko‘p jabr ko‘rgan qatlamlardan biri – ziyolilar edi. O‘zbek adabiyotining ustunlari bo‘lgan, noyob ijodlari xalq mehrini qozongan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir, Mahmud Botu (Xodiyev), Elbek (Mashriq Yunusov), Fozi Yunus kabi ajoyib iste’dodlarni quruq bo‘htonu to‘hmatlar asosida “xalq dushmanlari” sifatida jismonan yo‘q qilinib, yorqin faoliyati so‘ndirildi Sovet hukumati o‘sib kelayotgan mustaqil fikrli yoshlarni qatag‘on qilishga ham katta e’tibor qaratgan. O‘zbekiston hukumatining tashabbusi va sa’y-harakati bilan XX asrning 20-yillarida xorijga o‘qishga yuborilib, yaxshi mutaxasislar, fan arboblari bo‘lib etishgan kishilar ham atayin qatliom qurbonlari bo‘ldilar. Xorijda ta’lim olib, professorlik unvoniga sazovor bo‘lgan – Ahmadjon Ibrohimov, Majid Ibrohim, Ibrohim Yorqin, Tohir Shokir, Abduvahob Ishoq, Saida Shermuhammad qizi, Sattor Jabbor, Otajon Hoshim va boshqalar o‘sha davrlarda millat faxri bo‘lgan. Ularga ham ―xalq dushmani, ―chet el josusi‖ qabilidagi tavqi la’nat tamg‘asi bosilib

qatliom etildilar. Tarixiy hujjatlarda aks etgan, qatag‘on qurboniga aylangan shaxslarning ayanchli qismati, ularga va oilalariga nisbatan qilingan zo‘ravonlik holatlari istiqlol tufayli keng va chuqur o‘rganildi. So‘nggi yillarda ayni masalalarga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ular haqida ko‘plab ma’lumot va dalillar keng ommaga taqdim etildi. Xususan, hukumat qarorlari, Prezident farmoni asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida ana shunday fidoyi kishilar shaxsi aniqlandi.

O‘z jonini Vatan, xalq uchun fido qilgan qatag‘on qurbonlarining oqlanishi – bugungi kunda amalga oshirilayotgan ko‘plab ezgu ishlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Shu asnoda tarixiy adolat qaror topdi. Qatag‘on qilinganlarning hozirgi avlodi o‘z ota-bobolari, yaqinlari haqidagi bor haqiqatning anglab etdilar. Ayni shunday ulug‘vor maqsad va vazifalarni hayotga tadbiq etish, talabalarni vatanparvarlik, yurtga sadoqat tuyg‘ulari bilan tarbiyalashda tariximiz, ma’naviy merosimiz ko‘zgusi sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, vatanparvarlik talabalarda fuqarolik burchi, shaxsiy mas’uliyat hissi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini, faol hayotiy pozitsiya va qat’iy e’tiqodini, kasbiy mahoratini shakllantiradigan qudratli vositadir. Bundan unumli foydalangan holda talabalarimizda yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, Ona-yurt taqdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlash, ularni o‘z kasbiga sadoqatli va har tomonlama etuk kadrlar etib tarbiyalash tarixiy yondashuv va milliy qadiryatlarimiz asosida o‘tkazilayotgan turli tadbirlar, davra suhbatlari video roliklar, ma’ruza va suhbatlarni o‘rni juda beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ―Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida‖gi PF-5106- son Farmoni. 2017-yil 5-iyul.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ―Yoshlarni ma’naviy axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim –tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora tadbirlari to‘g‘risida 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son Qarori.

3. Barkamol avlod orzusi- T; ―Sharq, 1999-yil.

4. Milliy g‘oya va mafkurani yoshlar ongiga singdirishning pedagogik texnologiyalari.- T.; ―Sano-standart .2008-yil.

5. Холиков, И. (2023). Harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida pedagogik kompetensiyani takomillashtirishga zamonaviy yondashuvlar. *Центр научных публикатsій (buxdu. uz)*, *43*(43).

6. Холиқов, И. Р. (2023). Бўлажак офицерларда педагогик компетенцияларнинг шаклланиши. *Наука и технологии*, *1*(2).

7. Xoliqov, i. (2022). Подготовка высококомпетентных специалистов в области физического воспитания и спорта: подготовка высококомпетентных специалистов в области физического воспитания и спорта. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, *2*(2).

8. Xoliqov I. (2022). Bo‘lajak o‘qituvchining asosiy kompetentligini rivojlantirish. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, *2*(2).

HARBIY TA’LIM TALABALARINING MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRINSHGA YANGICHA YONDASHUV - DAVR TALABI.

Qandov Zikrulla Narzullaevich
Buxoro davlat pedagogika instituti
Harbiy ta’lim fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada bo‘lajak harbiy pedagog kadrlarni boy ma’naviy-madaniy meros, milliy pedagogik qadriyatlar, buyuk Sharq mutafakkirining pedagogik qarash, ta’limotlari bilan qurollantirishning bugungi kundagi o‘rni va ahamiyati, shuningdek uni oliy ta’lim tizimida amalga oshirishning samarali pedagogik shakl, vosita va usullari o‘z ifodasini topgan.

Tayanch so`zlar: Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, ijtimoiy hamkorlik, komil insonni tarbiyalash, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik.

Аннотация: В стате реч идет о богатом духовном и культурном наследии будущих учителей, националных педагогических ценностях, педагогической роли великого восточного мыслителя, актуалной роли и важности оснащения их учением, а также эффективной педагогической форме его реализации в высшей школе. обучение инструменты и методы.

Ключевые слова: развитие Родины, благосостояние народа, общественное сотрудничество, воспитание совершенной личности, межнatsионалное согласие, межрелигиозная толерантност.

Abstract: the article deals with the rich spiritual and cultural heritage of future teachers, national pedagogical values, the pedagogical role of the great Eastern thinker, the actual role and importance of equipping them with teaching, as well as an effective pedagogical form of its implementation in higher education. learning tools and methods.

Keywords: development of the Motherland, welfare of the people, social cooperation, education of a perfect personality, interethnic harmony, interreligious tolerance.

Bugungi kunda dunyo miqyosida g‘oyaviy tahdid va axborot xurujlari kuchayib, odamlar ongi va qalbini egallash borasidagi kurash tobora murakkab tus olmoqda. Ayniqsa, turli xil terroristik oqimlar, missionerlar va boshqa jangovar to‘dalar o‘zlarining yovuz maqsadlarini aynan axborot yordamida amalga oshirayotgani, bunda ular asosan, yosh avlod ongidagi g‘oyaviy bo‘shliqni, dastlab yolg‘on rag‘bat, keyinchalik esa yovuzlik va tubanlik bilan zaharlash orqali egallash uchun kurashmoqda. Bunday keskin vaziyatda xalqni, jamiyatning taraqqiyoti va tinchlik-farovonligini, avvalo, ezgulik, ma’naviyat va ma’rifat bilan sug‘orilgan mafkuragina qutqara oladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim va tarbiya siyosatida o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish, ularda yuksak ma’naviyat va madaniyatni shakllantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri etib belgilangan. Yoshlarda yuksak ma’naviyat va madaniyatni yuksaltirish asosiy vazifalardan biri ekanligining boisi shundaki, «har qaysi davlat, har qaysi millat birinchi navbatda o‘zining yuksak madaniyati va ma’naviyati bilan kuchlidir».

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘zining «Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch» asarida «ma’naviyat» tushunchasiga ta’rif berar ekan, bu insonning barcha qarashlari, ya’ni «g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy, axloqiy qarashlari mezonidir», deb ta’kidlaydi. Yoshlarda bunday yuksak ma’naviy qarashlarni esa faqat «uzluksiz ma’naviy tarbiya orqali» shakllantirish mumkin. Ushbu yuksak vazifani ro‘yobga chiqaruvchi o‘qituvchi-murabbiylarga davlat va jamiyat katta ishonch bildirib, uning sharafli mehnatini ulug‘laydi.

Yoshlarda yuksak ma’naviyat, madaniy qarashlarni shakllantirishda o‘qituvchi va murabbiylar barcha omillar: o‘z ijodiy-pedagogik faoliyati, pedagogik mahorati, pedagogik texnologiya va texnikasi, pedagogik muloqot etika-estetikasi, ta’lim va tarbiyaning yaxlit bir butunligi, o‘tmish mutafakkir-olim-pedagoglar va xalqimizning boy madaniy merosi, milliy va umumbashariy ma’naviy-axloqiy, badiiy-estetik qadriyatlar, folklor, san’at va uning har xil turlaridan samarali foydalanib, ularni «ommaviy madaniyat» ta’siridan saqlashi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorida kadrlar tayyorlash mazmunini qayta ko‘rib chiqish, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash, oliy ta’limning ma’naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarda mustaqillik g‘oyalari, yuksak ma’naviyat va insoniylikning milliy an’analariga sodiqlik ruhini singdirish kabi tarbiyaviy ishlarni yuksak saviyada olib borish dolzarb vazifa etib belgilangan.

Demak, yoshlarni milliy-ma’naviy ruhda tarbiyalashda o‘z madaniy qadriyatlarimiz va buyuk allomalarimizning bizga qoldirgan meroslaridan samarali foydalanish, ularning ma’naviy dunyoqarashini yanada kengaytirish zarur. Natijada o‘quvchi-yoshlar ajdodlar tarixi, adabiyoti, san’ati, an’analari va urf-odatlari haqida chuqur bilimga ega bo‘ladilar, ularning ma’naviy merosga bo‘lgan qiziqishi oshib, ma’naviy-axloqiy madaniyati yanada takomillashadi.

Buyuk mutafakkir pedagog-olimlarimizdan biri al-Farobiy o‘zining ko‘plab asarlarida ta’lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ustoz va shogird, ta’lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida» kabi asarlarida bugungi kunda ham dolzarb bo‘lgan, o‘quvchi-yoshlarni ijtimoiy-tarbiyaviy jihatdan komil inson qilib tarbiyalash g‘oyalari o‘z ifodasini topgan.

Farobiy o‘z asarlarida ta’lim-tarbiyani birgalikda, uzviy bog‘lab olib borish haqida fikr yuritar ekan, ularning har biri insonni kamolga etkazishda o‘z o‘rni va xususiyati bor ekanligini ham alohida ta’kidlaydi.

Uning fikricha talim-tarbiya jarayoni tajribali pedagog o‘qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhimdir. Chunki, har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarni o‘zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o‘qituvchi lozim. Bunga Farobiy ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan

kamolga etkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to‘g‘ri bilib oladi va hayotda to‘g‘ri yo‘l tutadi, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya etadi.

Demak, Farobiy ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan etuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi. Insonning kamolga etishida ham aql, ham axloqiy tarbiyaning o‘zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Farobiy tavsiya etgan ta’lim-tarbiya usullari hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi bilan diqqatga sazovordir.

Ana shunday pedagog olimlarimizdan yana biri Abu Rayhon Beruniydir. Beruniyning talimiy-tarbiyaviy qarashlari hozirgi kunga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning ilmiy bilimlarni egallash yo‘llari, usullari haqidagi fikrlari bugungi kunda ham dolzarbdir. Talabaga bilim berishda uni zeriktirmaslik, bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik, uzviylik, izchillik, tahlil qilish va taqqoslash, ma’lumdan noma’lumga, yaqindan uzoqqa, soddadan qiyinga qarab borish, takrorlash, yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko‘rgazmali bayon etish va hokazoga e’tibor berish kerakligini uqtiradi.

Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta’kidlaydi. Bu hozirgi davr pedagogikasi ham e’tirof qiluvchi - irsiyat, muhit va tarbiyadir.

Ma’lum bir davrda olimlar inson kamolotiga irsiyat, muhitning ta’sirini inkor etib, faqat tarbiyani tan oldilar. Lekin, Beruniy o‘z zamondoshlari – buyuk mutafakkirlar Farobiy, Abu Ali ibn Sinolar kabi inson kamolotida har uchalasini ham muhim deb hisoblaydi. Ya’ni, u insonning kamolotga etishida ilmu-ma’rifat, san’at va amaliyot asosiy rol o‘ynasa-da, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va ijtimoiy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy nazarida inson kamolga etishining eng muhim omillari ilm-ma’rifatli bo‘lish va yuksak axloqlilikdir[3]. Beruniy ilmiy bilishga oid, ta’lim metodlari haqidagi qarashlari bilan ta’lim nazariyasida o‘ziga xos maktab yaratdi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid bu fikrlari faqat o‘z zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga ega.

Zero, uning o‘zi ham haqiqiy komil insonga xos xislatlarga ega ekanligini, hayoti va ijodiy faoliyati, yozgan asarlari bilan isbotlab, kelajak avlodlarga katta ma’naviy me’ros qoldirdi.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo’yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko’rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2909-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan oliy ta’lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizasiya qilish, zamonaviy o’quv-ilmiy laboratoriyalari,

axborot-kommunikasiya texnologiyalari bilan jihozlash bo'yicha Oliy ta'lim tizimini 2017-2021 yillarda kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Bo'lg'usi pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga har tomonlama tayyorlash, ularni metodologik, nazariy, metodik bilimlar bilan qurollantirishda milliy-ma'naviy pedagogik qadriyatlar, buyuk Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limotlariga tayanib ish ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy pedagogik ta'lim va tarbiya jarayonida talabalarning bunday bilim, ko'nikmalarga ega bo'lishlari nafaqat pedagogika fanlarini o'qitish, balki ijtimoiy-gumanitar, xususiy metodika fanlarini o'zlashtirish jarayonida ham amalga oshiriladi. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun professor-o'qituvchilar o'quv-tarbiya jarayoniga puxta tayyorgarlik ko'rgan, o'quv-uslubiy manbalar bilan to'liq ta'minlangan, fanlarni o'zaro integratsiyalash ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lmog'i zarur.

Bugun mamlakatimiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o'zlashtirgan kompetensiyalari qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog'liq. Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik esa mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish natijasida ta'limda sifat va samaradorlik ta'minlanib, pedagogik innovatsion jarayon vujudga keladi.

Pedagogik innovatsiya – bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u oldingi egallangan bilimlar asosida ta'limda sifat jihatidan o'zgarishlar qilib, yuqori samaradorlikka erishishga yangicha yondashuv qilishdan iboratdir.

Bunday tizimning maqsadi deganda, ta'limning mazmun-mohiyati, belgilarini, imkoniyatlarini, vazifalarini, taraqqiyot bosqichlari va tamoyillarining rivojlanish mexanizmlarini va ulardan foydalanishga uslubiy tavsiyalar hamda bu borada pedagoglarda shakllanadigan xislatlarni hosil qilish jarayonini ifodalovchi ta'lim-tarbiya tizimi sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirib, bu sohada yuqori samaradorlikka erishish tushuniladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimidagi islohotlarning muammolari pedagog kadrlar salohiyati bilan bog'liq.O'rganish va tahlillar zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligi tezkor rivojlanayotgan ta'lim jarayonlarining talablaridan orqada qolayotganini ko'rsatmoqda. Bu holat pedagogik ta'limni rivojlantirish va uzluksiz ta'lim jarayonida pedagoglarni tayyorlashni yaxshilash bilan bog'liq muammolarning dolzarbligini ko'rsatadi.

Ushbu muammolarning jiddiyligi shubhasizdir – muntazam o'tkazilayotgan monitoring jarayonlarida ta'lim tizimining tezkor yangilanishi natijasida yuz berayotgan o'zgarishlarga javob berish va ulardan o'zib ketishga etarli tayyor bo'lmagan pedagog kadrlar mavjudligi, ta'limga, shaxsga va o'qituvchilar faoliyatiga bo'lgan zamonaviy ijtimoiy talablar va bu talablarga etarli darajada

javob bermaydigan pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining holati aks etmoqda.

Belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish uzluksiz pedagogik ta'limga bo‘lgan konseptual qarashlar tizimini rivojlantirishni, pedagog kadrlar kasbiy-shaxsiy rivojlanishining psixologik-pedagogik shart- sharoitlarini aniqlashni talab qiladi. Fanlararo tadqiqotlarning natijalarini jamlaydigan pedagogik konsepsiyaning mazmuni uzluksiz pedagogik ta'limning mohiyatini – ta'limning maqsadi, mazmuni, o‘qitishning metodlari va shakllari hamda ular tarkibiga kirgan aniq ta'lim texnologiyalari, pedagogning uzluksiz ta'limi jarayonining samaradorligi mezonlari, boshqaruv mexanizmlari kabi kategoriyalar orqali ochishda ko‘rinadi.

Mazkur kategoriyalarni amalda bajarish o‘z navbatida ta'lim-tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim tizimiga tez sur'atlar bilan kirib kelishi va tobora takomillashib borishi o‘quv jarayoniga elektron didaktik vositalarni yaratish va uni tatbiq etishga ehtiyoj tug‘dirmoqda.

Shu bois ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy-texnika rivojlanishining ilg‘or tendensiyalaridan biri sifatida zamonaviy jamiyatning ko‘pgina tomonlarini qamrab olgan. Axborot industriyasi, axborot texnologiyalari jadal ravishda yaratilmoqda.

Elektron didaktik vositalar zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangitdan saqlash, bilimlarni interfaol usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniga ega bo‘lgan manba hisoblanadi. Elektron didaktik vositalar o‘quvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarni rivojlantirishga va qo‘shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlanishga qaratilgan bo‘ladi.

Shuning uchun, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar u yoki bu darajada kadrlar tayyorlash jarayonlarining axborot ta'minotini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyojni belgilaydi. Axborotlar ularni saqlash, qayta ishlash va etkazib berish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda o‘qitish va tarbiyalashga bo‘lgan yondashuvlar ko‘pchilik ilmiy tadqiqotlar va davlat dasturlarida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi.

Axborot texnologiyalarini uzluksiz pedagogik ta'lim tizimiga tatbiq qilish yildan yilga keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Axborotlashtirish jarayonida pedagogik hamjamiyat tomonidan ko‘p sonli axborot resurslari ishlab chiqilmoqda, lekin, bu ishlarni etarli deb bo‘lmaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalar va kompyuter tarmoqlari axborot resurslariga kirish va yig‘ishning butunlay yangi imkoniyatlarini yaratdi. O‘qitishning turli shakllari bilan birgalikda va birlikda ta'limni takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘ldi.

Bunday imkoniyatlardan biri sifatida axborotli yondashuv e'tirof etiladi. Axborotli yondashuvning empirik negizi o‘quv axborotlarini qayta ishlash, uzatish, saqlash va o‘zgartirishning hozirda mavjud bo‘lgan amaliy tajribalarini tahlil qilish, uni umumlashtirish va muayyan qonuniyatlarini aniqlashga asoslanadi.

Ta’lim oluvchining axborotga bo‘lgan ehtiyoji, uning rivojlanish darajasi, ta’lim oluvchining olingan axborotlarni o‘z faoliyati jarayonida foydalana olishga tayyorlanganligi, unga berilayotgan axborotlarning to‘liqligi va qimmatliligi darajasiga bog‘liq.

Ko‘ryapmizki, ta’lim jarayonida axborotlar aylanishining tahlili bilim va axborotlar nisbatini o‘rganishni, bilimning axborotliligini ko‘rib chiqishni ko‘zda tutadi. Boshqa tomondan, axborotning ta’lim oluvchilarning o‘quv-biluv faoliyati bilan aloqalari muammosini ishlab chiqish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Bu muammo o‘quv axborotlarining o‘quv biluv faoliyati ob’ekti sifatidagi xususiyatlarini hamda ta’limning axborotli tomonlarini ochish imkonini beradi.

O‘quv axborotlari, ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati, uning ehtiyojlari, maqsadlari axborotni egallash psixologiyasi bilan qanchalik ko‘p muvofiqlashtirilsa, ulardan shunchalik samarali foydalaniladi. Bunday muvofiqlashtirishning funksiyalarini axborotli holatlarda pedagog bajaradi. Ta’lim jarayonining natijaviyligiga sharoit yaratadigan psixologik qonuniyatlar va faktlarni hisobga olmasdan turib, pedagogik vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish mumkin emas.

Axborotlarni qo‘llash, faqat ular o‘lchangani, qayta ishlangani holdagina, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari o‘rtasida uni o‘zlashtirish va o‘zaro almashish qobiliyatlarini hisobga olgan holda baholash va me’yorlash amalga oshirilgan bo‘lsagina pedagogik jihatdan foydali bo‘ladi. Shuning uchun hozirgi vaqtda ta’lim jarayonining asosini tashkil etadigan axborotlarni baholash muammosi o‘ta dolzarb hisoblanadi.

Lekin har qanday o‘zgarishlar axborotlarning muhim tasnifiy xususiyatlarini: ishonchlilik, tizimlashtirilganlik, to‘liqlik, aniqlik, operativlik, kamxarjlilik, foydalilik, qimmatlilikni saqlab qolishi lozim. Albatta, axborotlarning u yoki bu sifatlarining bo‘lmasligi yoki etarli emasligi nafaqat ta’lim jarayoniga, balki pedagog faoliyati natijalariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Insonning axborotlashgan jamiyatda yashash tarzining tubdan o‘zgarishi, axborotlashgan jamiyat vujudga kelishi bilan paydo bo‘lgan ilmiy-texnika va ijtimoiy taraqqiyotning voqeliklari ularni zamonaviy ta’lim mazmuniga, ta’lim tizimlarining ko‘lami va rivojlanish darajasiga mos kelmasligiga olib keldi.

Hozirgi kunda XXI asr yuksak texnologiyalar zamoni, tafakkur va yalpi axborotlashuv asri, globallashuv davri deb ta’rif etilmoqda.

Globallashuv – insoniyatning ongu shuuri, tafakkuri samarasi sifatida vujudga kelgan jahon miqyosidagi umumiy jarayon, u chegara va hududlarni bilmaydigan, tuzumlarni tan olmaydigan, uzluksiz kuchayib va rivojlanib borayotgan jarayondir. Ana shunday globallashuv davrida har qanday davlatning taraqqiy etishi, uni rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o‘rin olishi, birinchi navbatda, davlatning intellektual salohiyati, ish avlod ta’lim-tarbiyasi va zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimiga bog‘liqdir.

Ta’limning innovatsion elektron-didaktik shakllari – ta’lim oluvchining qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya mazmunini, ta’lim

maqsadiga mos ravishda loyihalash hamda pedagogik, axborot-kommunikatsion uslublar, shakllar va o‘qitish usullarini tatbiq etishga yo‘naltirilgan psixologik, umumpedagogik, didaktik va shaxsiy uslubiy tartiblar asosida amalga oshiriluvchi ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tizimidir.

Axborot-ta’lim muhitini yaratish ta’limda axborotlashtirish jarayonini rivojlantirishning ob’ektiv natijasi bo‘lib hisoblanadi. Ta’limni axborotlashtirishning maqsadi axborot – kommunikatsion texnologiyalarni jalb qilish va qo‘llash hisobiga intellektual faoliyatni global jadallashtirishdan iborat.

Ushbu muammolarni hal qilish doirasida texnologiyalar va axborotlashtirish vositalarini bir tizimga birlashtirishning pedagogik, metodik va texnologik asoslarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar o‘tkazish lozim.

Xalqaro tajribalarning ko‘rsatishicha, oddiy yozishma asosidagi kommunikatsion axborot-ta’lim muhiti ijobiy pedagogik natijaga olib keladi. Turli shaharlar, mintaqalar va davlatlar ta’lim oluvchilarining tarmoqdagi birgalikdagi o‘quv faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli elektron, axborot-didaktik vositalar hisoblanadi.

Har qanday muammo echimi integratsiyalashgan bilimni talab etadi. Axborot-ta’lim muhiti chuqurlashgan bilimlar integratsiyasini, nafaqat tadqiq qilinayotgan muammo yuzasidan fan bilimlari sohasini, balki hamkorning milliy-madaniy xususiyatlarini, uning dunyoni bilishi va tushunishini, qarashlarini bilishni ham taqozo qiladi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev 28ta’kidlaganidek, “Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g‘oya va tahdidlardan asrash, ularni o‘z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda”.

Ayni shu ma’noda, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni [2] qabul qilinganligi bu borada katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, harbiy ta’lim tizimida talaba – bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni qadimiy va boy meroslarimiz, ma’naviy-madaniy qadriyatlar, mutafakkir olimlarimizning pedagogik qarashlari, ilm olish yo‘llari va sirlari haqidagi ta’limotlari bilan qurollantirish o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, manaviy merosga muhabbat, sadoqat, milliy o‘zlik va g‘ururni anglash ruhida kamol topishga o‘zining munosib hissasini qo‘shadi.

Haqiqatdan ham bugungi kunda ma’naviyat, ilm-fan va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda yuksak marralarga erishimizning asosi sifatida yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev so’zlari bilan aytganda “. aziz do‘stlar, birodarlar, agar intilsak, astoydil harakat qilsak, har qanday baland marrani egallash qo‘limizdan keladi. Biz ma’rifat borasida, ta’bir joiz bo‘lsa, “iligi to‘q” xalqmiz. Ilm-fanga intilish bizning qonimizda, bugungi til bilan aytganda, genimizda bor”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // https://president.uz/oz/lists/view/3864

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108- son Farmoni // https://lex.uz/docs/-5085999

3. Abu Rayhon Beruniy. Tanl. Asarlar. I t. T., 1999 y, 151 bet.

4. Irisov A. Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy merosi, T., «Fan», 1998, 160-bet

5.Yo‘ldoshev J.G’, Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. T.,”Fan va texnologiya”, 2008,132 bet.

6. Гулбоев А. Т. Формирование профессионалных комп.Gulboev.A.T “Harakatlar strategiyasi-buyuk kelajagimizning yangi bosqichi” “Pedagogik maxorat”. -Buxoro, 2019.-№3.-B.36- 39 – 3 - bet

7. Гулбоев А. Т. Гончарное искусство узбеков //Инновационная деятелност в дошколном образовании. – 2016. – С. 374-376.

8. Kholikov, I. R. (2023). Competence and its Types.

9. Холиқов, И. Р. (2022, May). Олий таълим муассасаси талабаларида педагогик компетенцияни шакллантириш. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 248-250).

10. XOLIQOV, I. (2022). Bo ‘lajak o ‘qituvchining asosiy kompetentligini rivojlantirish. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, *2*(2).

AQSH ARMIYASIDA REZERVDAGI OFITSERLARNI TAYYORLASH KORPUSI - ROTK (reserve officers training corps)

Madaminov G‘ayrat Madiyarovich
O‘zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi front orti va moliyaviy ta’minot sikli boshlig‘i dotsent, podpolkovnik

Annotatsiya: Maqolada Amerika Qo‘shma Shtatlari Qurolli Kuchlari uchun rezervdagi ofitserlarini tayyorlash korpusi ***(Reserve Officers Training Corps)*** AQSh Qurolli Kuchlari oliy harbiy ta’lim muassasalari, ROTK kursning tuzilish tarixi, o‘qishga qabul qilish va o‘quv-tarbiyaviy jarayon, жисмоний тayyorgarlikga qo‘yilgan talablar hamda ofitserlarni rezervda yoki muntazam Qurolli Kuchlar safida xizmat qilish tartiblari keltirib o‘tilagan.

Kalit so‘zlar: Armiya, doktrina, Harbiy qonun, dengiz floti, havo kuchlari, Taktika va harbiy harakatlar, Yadro, biokimyoviy va kimyoviy qurollar, kongressmen, Harbiy aloqa, Harbiy odob.

КОРПУС ПОДГОТОВКИ ОФИЦЕРОВ РЕЗЕРВА В АРМИИ США - ROTC (учебный корпус офицеров резерва)

Аннотация: В стате корпус подготовки офицеров запаса для Вооруженных сил США (Reserve officers Training Corps) высших военных учебных заведений Вооруженных сил США, ROTC приводится история создания курса, процесс зачисления и обучения, требования к физической подготовке, а также порядок службы офицеров в резерве или регулярных вооруженных силах.

Ключевые слова: Армия, доктрина, военное право, флот, военно-воздушные силы, тактика и военные действия, ядерное, биохимическое и химическое оружие, конгрессмен, военные коммуникации, военный этикет.

AQSh armiyasida rezervdagi ofitserlarni tayyorlash korpusining tarixi

ROTCning kurslari Qo‘shma Shtatlarda rasman faqat 1916 yilda tashkil etilganiga qaramay, ularning kelib chiqishi 1800 yillarning boshlariga to‘g‘ri keladi. **ROTCning** kurslari 1819 yilda Vermont shtatining Norvich universitetida boshlangan, keyinchalik Amerika adabiyot, fan va urush akademiyasi sifatida tanilgan. Ushbu universitet asoschisi, kapitan Alden Partridj maxsus o‘quv muassasasini tashkil etdi - bu harbiy o‘quv dasturiga ega bo‘lgan birinchi xususiy kollej edi. 1862 yilda AQSh Kongressi uni kiritgan kongressmen sharafiga Morila Buyuk Qonunini qabul qildi.

1916 yilda Prezident Vudrou Uilson fuqarolik talabalarini harbiy xizmatga tayyorlashning milliy vositasi sifatida **ROTCning** kurslarini rasman tashkil etgan va Milliy mudofaa to‘g‘risidagi qonunni imzolagan. Armiya fuqarolik ta’lim muassasalarida **ROTCning** dasturlarini amalga oshirishda shafof bo‘lib, ko‘p o‘tmay, dengiz floti, havo kuchlari va dengiz piyodalari o‘z dasturlarini ishlab chiqdi.

Milliy mudofaa to‘g‘risidagi qonun qabul qilinganidan buyon butun mamlakat bo‘ylab **ROTC** stavkalarining barqaror o‘sishi kuzatildi. Biroq, tarixda bu kurslarda o‘qishni istaganlar soni kamaygan davrlar bo‘lgan. Vetnam urushiga qarshi norozilik bildirgan ko‘plab talabalar fuqarolik universitetlarida **ROTC** dasturlarini bekor qilish harakatlarini boshlagan 1960 -yillarni shunday davr deb atash mumkin. O‘sha davrdagi urushga qarshi kurash **ROTCning** kurslari bo‘yicha davlat siyosatini qayta ko‘rib chiqishga ta’sir ko‘rsatdi va 1962 yildan boshlab talabalar xohlagancha bu kurslarga bora olishdi. Ayollar harakati 1960-70 -yillarda o‘zlarini kuchaytirish uchun **ROTC** kurslarining tarixini o‘zgartirdi va ayollarga ushbu kurslarga qatnashish huquqini berdi.

Kurslar harbiy turlarga asosan tashkil etilgan. Armiya ofitserlari 300 ta kollej va universitetda kurslarda o‘qiydilar. Ular 60 mingga yaqin odamni o‘qitadilar, shundan 20% ayollardir. Ushbu kurs bitiruvchilari qurolli kuchlarning yosh ofitserlarining 70 foizini tashkil qiladi. O‘quv dasturi ikki va to‘rt yilga mo‘ljallangan, lekin eng keng tarqalgan shakli to‘rt yillik ta’limdir. Ushbu kurslar universitet va kollejlar talabalari asosiy fuqarolik mutaxassisligi va shu bilan birga **ROTC** kurslari dasturi doirasida shug‘ullanadilar.

AQSh Qurolli Kuchlarida ofitserlarni tayyorlash tizimi rezerv ofitserlarini tayyorlash kolleji bazasi tarkibidagi rezerv ofitserlarini tayyorlash korpusi (ingl. Reserve Officers' Training Corps (ROTC)) amalga oshiriladi. Bu kursda tayyorlangan ofitserlar AQSh Qurolli Kuchlarining barcha bo‘g‘inlarida (AQSh dengiz piyoda kursi va AQShning qirg‘oqlarni qo‘riqlash kursi o‘zlarining shaxsiy tayyorgarlik dasturlari kursda yo‘q bitiruvchilar shu kursning o‘zida xizmat qilishadi). 2010 yilda ushbu tizimda quyidagi yosh ofitserlar tayyorlangan: AQSh armiyasi uchun 38,5 % - yosh ofitserlar, dengiz piyodalari (rezerv ofitserlarni tayyorlash Dengiz kursi orqali) — 1,8 %, — HDF 16,7 %, — HHK 38,1 %, Mudofaa departamenti uchun jami 30 % ofitserlar tashkil etgan.

Talabalar tayyorgarlikni shaxsiy xizmatlari va musoboqalashuv asosida o‘taydilar. Oddiy o‘qishga qo‘shimcha ularga bazali harbiy tayyorgarlik o‘tkaziladi va vaqti-vaqti bilan yig‘inlar va yozgi kengaytirilgan tayyorgarliklar o‘tkaziladi. O‘qishni bitirganidan so‘ng, eng ilg‘or 25 % bitiruvchilarga doimiy xizmatdagi ofitserlar tarkibida xizmatni davom etirish uchun imkoniyatga ega bo‘ladilar. Qolgan 75 % rezervda xizmatni davom ettiradi. Odatga ko‘ra, eng saralangan 3-5 bitiruvchilar mutaxasislik va xizmat joyini tanlashga imkoniyat oladilar. Mutaxasislik bo‘yicha o‘qish mutaxasisligidan kelib chiqib 3 oydan 7 oygacha davom etadigan asasoy ofitser rahbarlarni tayyorlash kurslarida (Basic Officer Learder Course) maxsus dasturni o‘zlashtirganlaridan keyin amalga oshiriladi.

Rezervdagi ofitserlarini tayyorlash kursi quyidagi bo‘linmalari.

O‘z ichiga oladi: brigadalar, batalonlar va rotalar; harbiy-havo— kuchlari, guruhlar, eskadrilyalar va flotililar (flights — otryadlar, zvenolar), harbiy-dengiz — batalonlari. Dengiz kursida shuningdek dengiz piyoda rezerv ofitserlari ham ta’lim oladi.

Armiya va harbiy – havo Kursi o‘quvchilari «kadetlar» deb, harbiy-dengiz Kursida — «michmanalar» deb nomlanadi.

Armiya kursi bitiruvchilari 8 yil xizmat qilib berishga majbur hisoblanadilar, bundan 3 yil haqiqiy xizmatda. HDF da bu raqam 5 yilni tashkil etadi (dengiz piyodasi uchun - 4 yil). Aviatsiyada — 4 yil (jangovar tizim ofitseri uchun-6 yil, l uchuvchilar uchun -10 yi).

AQSh fuqaroligi bo‘lmagan amerika universitetlari va kollejlarining talabalari (shuningdek kimda AQShda vaqtinchalik yashash turi (vid na jitelstvo) bo‘lganlar) ham ROTC dasturi bo‘yicha o‘qishlari mumkin, faqatgina birinchi 2 yil o‘qish va maxsus stipendiya olmaslik huquqi bilan qabul qilinadilar.

Uchinchi va to‘rtinchi o‘quv yillarida ROTC dasturi bo‘yicha faqat AQSh fuqarolariga ruxsat beriladi va shunga tegishli holda ularga universitet yoki kollejda o‘qishni tugatganlaridan keyin birinchi ofitserlik unvoni beriladi.

Rezervdagi kadrlarni tayyorlash jarayoniga qo‘yiladigan alohida talablar. ***Quyidagilardan iborat:***

1.U harbiy doktrinada belgilangan qurolli kuchlar bo‘linmalarining maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda o‘tkazilishi kerak. Bu o‘quv jarayonini rejalashtirish uchun asosdir.

2."Jangda nima kerakligini inobatga olib o‘rgating". Mashg‘ulotlar davomida asosiy e’tibor ta’limning amaliy shakllariga qaratiladi. Shu bilan birga, realga yaqin vaziyat qayta tiklanadi, harbiy xizmatchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini qo‘llash shartlari to‘liq hisobga olinadi.

3.Rezervistlarga, shuningdek, hatti-harakatlarda mustaqillik, o‘ziga ishonch, tashabbuskorlik, yangi narsalarni izlash kabi fazilatlar singdiriladi va ulardan vijdonli ijrochilar shakllanmaydi.

4.Mashg‘ulotlarning samaradorligi erishilgan darajada bilim va ko‘nikmalarni saqlab qolish bilan bog‘liq. Bu talab harbiy mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashning turli kurslariga tashriflarning davriy tabiatida ifodalangan doimiylikni nazarda tutadi.

Shaxsiy tashabbus va o‘zini takomillashtirishga intilish ham harbiy xizmatchining kasbiy o‘sishida muhim rol o‘ynaydi.

Rezervdagi ofitserlar uchun o‘quv mashg‘ulotlari qo‘shishlardan tashqari tayyorlov kurslarida (ROTC kurslari) va quruqlikdagi qo‘shinlarning ofitserlikka nomzod maktablarida o‘tkaziladi.

Kurs davomida kursantlar quyidagi fanlarni o‘rganadilar:

Birinchi o‘quv yili

- Quruqlikdagi qo‘shinlarning kelib chiqishi va roli
- Quruqlikdagi qo‘shinlarining urf - odatlari va an’analari
- Quruqlikdagi qo‘shinlarning bo‘linmalari
- Taktika va harbiy harakatlar

Ikkinchi o‘quv yili

- Ofitserlar va serjant tarkibidagi harbiy xizmatchilarning roli
- Harbiy aloqa
- Harbiy odob
- Birinchi tibbiy yordam anjomlari
- Jang olib borishning xususiyatlari

- Taktika va harbiy harakatlar.

Ikkinchi davrda o‘qitish bosqichi -bu chuqurlashtirilgan tayyorgarlik deb ataladi. Unga qo‘shinlarda (haqiqiy harbiy xizmat yoki rezerv) belgilangan muddat xizmat qilish va rezervdagi ofitserlar tayyorlov kurslarini o‘tish majburiyatini olgan, shartnoma imzolangan yosh o‘g‘il –qizlar qo‘yiladi.

Chuqurlashtirilgan tayyorlovning davomiyligi -300 soatni (haftasiga 5 soat) tashkil etadi Ushbu dasturga urush san’ati asoslari, kichik bo‘linmalarning taktikasi va qurol aslahalari, aloqa, front orti xizmatlari, qurol-yarog‘ va harbiy texnika, komandirlarning huquq va majburiyatlarini o‘rganish bo‘yicha fanlar kiritilgan.

Saf va jismoniy tayyorgarlik ham ko‘zda tutilgan. Mashg‘ulotlarda harbiy forma bo‘lishlari majburdir. Talabalar kiyim-kechak anjomlari bilan bepul ta’minlanadi. Kurslarda olayotgan talabalar uchun har oy 500 dollar atrofida, o‘qishni tugatgandan so‘ng - 300 dollar kiyim-kechak anjomlarini olish uchun pul mablag‘lari to‘lanadi.

Chuqurlashtirilgan tayyorlov o‘quv dasturining taxminiy namunasini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

Uchinchi o‘quv yili

- Qo‘mondonlik va shtab ofitserlarining vazifalari;
- Yadro, biokimyoviy va kimyoviy qurollar;
- Harbiy huquq, qurol turlari, inson psixologiyasi, matematika, informatika;
- Taktika va harbiy harakatlar.

To‘rtinchi o‘quv yili

- Harbiy qonun;
- Quruqlikdagi qo‘shinlarning bo‘linmalarini boshqarish, razvedka va elektron qurollar;
- Quruqlikdagi qo‘shinlarning harbiy ta’minoti;
- Maxsus qurilmalarga xizmat ko‘rsatish, taktika va harbiy operatsiya.

Chuqurlashtirilgan tayyorlov o‘quv dasturining birinchi yilini tugatgandan keyin talabalar Qurolli kuchlar o‘quv moddiy texnik bazasining asosi hisoblangan o‘quv markazlarda olti haftalik yozgi o‘quv yig‘inlarini o‘taydi.

To‘rt yillik rezervdagi ofitserlarni tayyorlash kurslari, shuningdek, tinchlik davrida qurolli kuchlar uchun oddiy ofitserlarni yollashning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi, chunki bitiruvchilarning 40% dan ortig‘i muntazam qurolli kuchlarning ofitseri bo‘lishadi.

Ikki yillik kurslar turli sabablarga ko‘ra boshlang‘ich tayyorgarlikdan o‘tmagan talabalar uchun ofitser unvonini olish imkoniyatini beradi.

ROTC kurslarida talabalarning ishtirokini kuchaytirish uchun AQSh Mudofaa vazirligi har yili akademiyada eng yuqori yutuqlarga ega bo‘lgan stipendiyalarni

ta’sis etgan. Ushbu stipendiya universitet yoki kollejda o‘qish to‘lovlarini, darsliklar, o‘quv -uslubiy vositalar va laboratoriya ishlarini sotib olish xarajatlarini o‘z ichiga oladi.

ROTC kurslari bitiruvchilari har yili 10 ming rezervdagi ofitserlarni tashkil etadi. O‘qishni tugatgandan so‘ng (bu oliy o‘quv yurtida o‘qish tugashiga to‘g‘ri keladi), bitiruvchilarga oliy ma’lumotli diplom bilan bir vaqtning o‘zida birinchi ofitser – rezervdagi ikkinchi leytenant unvoni hamda kurslarni tugatganligi to‘g‘risida diplom beriladi.

Yosh ofitserlar ikki yil doimiy bo‘linmalarda va to‘rt yil tashkillashtirilgan rezervda, stipendiya olganlar esa to‘rt va ikki yil to‘liq xizmat qilishlari shart.

O‘qishni tugatgandan so‘ng, harbiy aviatsiya maktabida o‘qishga qaror qilgan kurs bitiruvchilari kamida uch yil doimiy qo‘shinlarda xizmat qilishlari kerak. Agar ularni tugatgan talaba o‘qishni harbiy mutaxassisligi bo‘yicha davom ettirish istagini bildirgan bo‘lsa, u qurolli kuchlar va xizmatlar bo‘linmalari maktablarining ixtisoslashgan kurslariga yuboriladi va uning umumiy xizmat muddati sakkiz yil bo‘ladi.

Qurolli kuchlarni shaxsiy tarkib bilan butlash savollari bilan shug‘ullanuvchi amerikalik harbiy mutaxasislarning takidlashicha talabalarning qo‘shinlardan tashqari tayyorgarligi oliy fuqarolik ma’lumoti bilan birgalikda kurs bitiruvchilariga harbiy hisob mutaxassisliklarining keng tanlovini beradi. Barcha ROTS kursi bitiruvchilari birinchi ofitserlik lavozimiga tayinlanishidan oldin, shu bilan birga tegishli mutaxasisliklari bo‘yicha harbiy bilimi etishmasligi aniqlangan talabalar majburiy ravishda yuboriladigan xizmat va qo‘shinlar turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan maktab va o‘quv markazlardagi o‘qish jarayonida harbiy bilimlari qoplanadi.

Keyinchalik, ular (ixtiyoriy) bilimlarini takomillashtirish uchun qo‘shin va xizmat turlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan maktablarning kurslariga yo‘naltirishi mumkin.

XULOSA

Talabalarni harbiy pedagogik tizimda o‘qitishda kasbiy jismoniy tayyorgarlik, ularning tayyorgarligi va harbiy xizmatining muhim komponenti sifatida qaraladi. Har bir talaba o‘zining kasbiy va jismoniy tayyorgarligi uchun javobgardir. NATO blokining etakchi qo‘shinlari jismoniy tayyorgarlikning umumiy va maxsus bo‘linishi bilan ajralib turadi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik yuqori ko‘rsatkichlarni saqlashga va asosiy vosita ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan (haftasiga 3 dan 4,5 soatgacha davom etadi); maxsus - tashkiliy jihatdan umumiydan ajratilgan va vazifalari, mazmuni va bosqichlari jihatidan jangovar tayyorgarlik bilan chambarchas bog‘liq. Yuklarning hajmi va intensivligi bo‘yicha u umumiy jismoniy tayyorgarlikni sezilarli darajada oshiradi. Jismoniy tayyorgarlikni tekshirish va baholash qurolli kuchlar bo‘linmalari darajasida birlashtirilgan. Ofitserlarning maoshi va ularning xizmatda ko‘tarilishi ko‘p jihatdan tekshirish natijalariga bog‘liq. Uzoq xizmat muddati va shaxsiy manfaatlari NATO qo‘shinlari ofitserlari tomonidan jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasiga erishishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аршинова О. Подготовка офицеров резерва вооруженных сип США // Зарубежное военное обозрение. 1993.
2. http://www.military.com/ROTC
3. https://www.britannica.com/topic/Reserve-Officers-Training-Corps

HARBIY TAYYORGARLIK O‘QUV BO‘LINMALARIDA TA’LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Jabbarov Zarifboy Rustamovich
O‘zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi
o‘qituvchisi, dotsent, podpolkovnik

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy xizmatchi kadrlarni tayyorlashda ta’lim sifatini takomillashtirishning metodologik asoslari va pedagogik shart-sharoitlari ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: ta’lim, sifat, ta’lim sifati, huquqiy funksiya, ijtimoiy-siyosiy funksiya, harbiy funksiya, pedagogika, harbiy pedagogika, oliy ta’lim, harbiy xizmatchilar.

Аннотация. В данной статье раскрыты методологические основы и педагогические условия повышения качества образования при подготовке военнослужащих.

Ключевые слова: образование, качество, качество образования, правовая функция, общественно-политическая функция, военная функция, педагогика, военная педагогика, высшее образование, военнослужащие.

Annotation. This article reveals the methodological foundations and pedagogical conditions for improving the quality of education in the training of military personnel.

Key words: education, quality, quality of education, legal function, socio-political function, military *function, pedagogy, military pedagogy, higher education, military personnel.*

Joriy asr boshlarida vujudga kelgan global muammolar va sivilizatsiya rivojlanishi tendensiyalari, jahon hamjamiyati hayotining turli jabhalarining integratsiyalashuv jarayonlari, xalqaro tajribani transformatsiyalash, jahon iqtisodiyotining tobora kuchayib borayotgan hukmronligi va uni keng miqyosda raqamlashtirish bilan bog‘liq yangi vazifalar ishlab chiqarishning innovatsion rivojlanishi mehnat bozori ehtiyojlari bizni zamonaviy pedagogik sharoitlarga mos keladigan yangiliklarni izlashga majbur qiladi.

Mazkur muammoni hal etish jamiyat ehtiyojlariga moslashuvchan tarzda javob beradigan yuqori malakali kadrlar, shu jumladan, dunyo mamlakatlarining ta’lim-taraqqiyoti yuksalishlarini va namoyondalari innovatsion va integratsion jarayoniga yonaltirilgan harbiy xizmatchilarining ta’lim sifatini takomillashtirish istiqbollari, ilmiy-nazariy asoslari bilan bevosita bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriridagi 50-moddada “Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi”. Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. “Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir. Ta’lim tashkilotlarida alohida

ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi” [1], – deb keltirilgan.

“Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo‘lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur”, – dedi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev. Globallashuv sharoitida dunyo miqyosida tinchlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, har qanday mamlakat xavfsizligi va barqorligini ta’minlash masalalari borasida jiddiy izlanishlar talab qilinadi. Bu esa, mamlakatda yoshlarning vatanparvarlik fazilatini tarbiyalashda, tarbiyaviy ishlarni yanada takomillashtirish orqali xavfsizlikni ta’minlashda istiqboldagi maqsadlarga erishuvga zamin yaratadi [2].

Rejalashtirilgan islohotlar samaradorligini rivojlantirish maqsadlariga erishish darajasiga muvofiq “Harakatlar strategiyasidan rivojlanish strategiyasi sari” [3] tamoyili asosidagi islohotlarning uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash uchun oliy harbiy ta’lim muassasasida keng sharoitlar yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida “yuqori professional, harbiy va vatanparvarlik burchiga sadoqatli, fidoyi va mard harbiy xizmatchilarni tarbiyalash O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori bilan O‘zbekistonni rivojlantirishning ettita ustuvor yo‘nalishi doirasidagi 100 ta maqsadni 5 yil davomida joriy etish bo‘yicha muhim ishlar belgilangan [4].

Mudofaani boshqarish milliy markazida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 13-yanvarda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida oliy harbiy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarini etakchi davlatlarning tajriba asosida takomillashtirish, pedagoglar ta’lim sifatini oshirish, oliy harbiy ta’lim muassasalarida muhandislar yonalishlarini joriy etish bo‘yicha vazifalar belgilandi. “Eng katta boyligimiz bo‘lgan tinch hayotni asrash, xalqimiz farovonligini ta’minlash, kelajak rejalarimizni belgilashda ana shu holatlarning barchasini inobatga olishimiz zarur. Biz har qanday vaziyatda ham O‘zbekistonning davlat suvereniteti, uning sarhadlari daxlsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlashimiz shart. Bu – bizning tarix va kelajak avlodlar oldidagi muqaddas burchimiz va majburiyatimizdir”, – deydi Shavkat Mirziyoyev. Avvalo, Qurolli Kuchlarning strategik vazifalarni amalga oshirish, mazkur sohadagi vazirlik va idoralarning barcha axborot-kommunikatsion resurslarini yagona xavfsiz axborot maydoniga birlashtirish, mamlakatimizning safarbarlik sohasidagi tayyorgarligi va hududiy mudofaasini tashkil etish tizimini yangilash, qo‘mondonlik tarkibining qo‘shinlarni boshqarish va vositalarni qo‘llash bo‘yicha bilimini oshirish; harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy va jangovar tayyorgarligini kuchaytirish, yoshlarda milliy vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirish [5].

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarida hayotiy va professional ko‘nikmalarni rivojlantirish, davlatimizdagi kardinal o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalariga e’tibor qaratilmoqda.

Harbiy xizmatchilarini tayyorlashda uzluksizlik va uzviylikni ta’minlash, iqtidorli yoshlarga eng sifatli ta’limni olish imkoniyatini berish; ta’lim jarayonini o‘qitishning innovatsion uslublaridan foydalangan holda eng ilg‘or pedagogik usullarni uzluksiz ta’lim uzluksizligini ta’minlash; harbiy xizmatchilarining ta’lim sifatlarini takomillashtirishning traektoriyasini belgilash; yuqori malakali, raqobatbardosh harbiy kadrlar, rivojlangan kasbiy mahorat va ko‘nikmalarga ega harbiy xizmatchilarni tayyorlashni maksimal darajada ta’minlaydigan davlat ta’lim standarti, o‘quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb muammolar sifatida belgilanadi. Harbiy kadrlarini bo‘lajak kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimining samarali ishlashi uchun pedagogik shart-sharoitlar ta’minlashni ishlab chiqishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi O‘RQ-436-son “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni [6] hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish Konsepsiyasi”da milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o‘rganish, Vatan ozodligi yo‘lida qahramonlik ko‘rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli hayotini keng targ‘ib etish, harbiy xizmatchilarning bilim darajasini oshirish, milliy madaniyatimiz, qadriyatlar va an’analarimizga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish tizimini yaratish, harbiy xizmatchilarning ongi tafakkuriga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish, harbiy xizmatchilarga davlatimizda amalga oshirilayotgan samarali ishlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun-mohiyatini etkazish hamda bir qancha regionlarda sodir bo‘layotgan toqnashuvlariga nisbatan ularda ongli va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, o‘zining kasbiga sadoqat, mas’uliyat va fidoyilikni oshirish belgilab olingan. Shunga ko‘ra, harbiy xizmatchilarda “O‘zbekiston xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi!” degan goyaga asoslanish, ta’lim mazmunining mohiyatini keng tarqib qilish, harbiy xizmatchilar o‘rtasida o‘rtoglik, dostona oqibatlarini rivojlantirish, urf-odatlarimiz va ajdodlarimizga xurmat toptirish, halol, jasur va teran fikrlay oladigan, aqlan, ruhan tetik harbiy xizmatchilarni tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuning 22-moddasi “Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash” deb nomlanadi. “Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash ularning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi” – deyilgan.

Mamlakat rahbarining 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risida” [8] va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PF-4623-sonli “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarida [9] davlatimizda pedagog kadrlarning sifatiga alohida e’tibor qaratilgan.

Harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi: rezerv va zaxira ofitserlarini sifatli tayyorlashni tashkillashtirish; pedagog (professor-o‘qituvchi) xodimlar tarkibining kasbiy mahoratini oshirish, qo‘shinlarda ishlashning amaliy tajribasiga ega ofitserlarni (rezervdagi va zaxiradagi ofitserlari) pedagogik faoliyatga jalb qilish; o‘quv moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiya, uslublar va o‘qitishning texnik vositalari, kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish; o‘quv va uslubiy adabiyotlar, qo‘llanma va yo‘riqnomalarni yaratishda zamonaviy jang uslublarini hamda harbiy ilm va texnika yutuqlarini chuqur tahlil qilish asosida ishlab chiqish; O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatining (ofitser kasbini) nufuzi va obro‘sini ortishiga har tomonlama sharoit yaratish [10].

Ta’lim jarayoni – bu pedagog/professor-o‘qituvchilar, xodimlar, o‘quv bo‘linmalarining komandirlari, harbiy xizmatchilarning maqsadga yo‘naltirilgan, rejali o‘quv, uslubiy, ilmiy va tarbiyaviy faoliyatlarining tizimi bo‘lib, uning asosida o‘qituvchilik, ta’lim va tarbiyaning chegaralangan yakdilligi va o‘zaro aloqasi yotadi.

Sifatli ta’lim jarayoniga pedagog (professor-o‘qituvchilar) xodimlar va doimiy tarkibning boshqa toifalari malakasining yuqori darajasi, o‘quv moddiy-texnik bazasining fan va texnika, harbiy ishning zamonaviy yutuqlari, ta’lim-tarbiyaning ilg‘or shakl va uslublariga mos kelishi, shuningdek, o‘quv, uslubiy va ilmiy ishlarda pedagog/professor-o‘qituvchilar, xodimlar va harbiy xizmatchilar ishtirokining darajasi bilan erishiladi.

O‘zbekiston Respublikasi harbiy ta’lim tizimi mamlakatimiz davlat ta’limi standartlariga mos ravishda bo‘lib, etakchi davlatlar standartlariga moslashtirilmoqda. Turli xil sharoitda harbiy xizmatchilarning ko‘nikmalarini shakllantirish, ta’lim sifatlarining asosiy yondashuvlarini o‘quv jarayonining barcha yonalishlarida harbiy xizmatchilarning ishtiroklari va ilmiy izlanishlari natijalariga taalluqli. Oxirgi yillarda respublikamizda oliy harbiy ta’lim tizimini takomillashtirish, mamlakatda zamonaviy takomillashtirilgan malaka talablari va jahon standartlariga asoslanish, harbiy xizmatchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta’lim sifatini takomillashtirishga e’tibor qaratish hamda bu jarayonni tashkil etishda pedagogik imkoniyatlarni inobatga olish harbiy xizmatchilarning ta’lim sifatini oshirishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda.

Harbiy xizmatchilarining ta’lim sifatini takomillashtirish holatini nazariy tahlil qilish bizga bir qator xulosalar chiqarishga imkon berdi:

1. Harbiy xizmatchilarining ta’lim sifatini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb bo‘lib, O‘zbekistonda ta’limni modernizatsiya qilish jarayoni, mamlakatimizning xalqaro ta’lim dasturlari jarayoniga kirishi oliy harbiy muassasalarining ta’lim faoliyatinin sezirarli darajada yangilashga, ularning o‘zini

o‘zi anglash va talabini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga ma’lum talablarni qo‘yadi.

2. Harbiy xizmatchilarining qiziqishlari va ehtiyojlariga qarab, yuqori darajadagi ijtimoiy kompetensiyaga erishish uchun tashqi motivatsiyaga e’tibor qaratish lozim.

3. Harbiy kadrlar tayyorlash tizimini o‘rganish jarayonida nazariy asoslariga harbiy xizmatchilarining ta’lim sifatini takomillashtirishda metodologik yondashuv, pedagogik va psixologik xususiyatlari, o‘quv jarayonida pedagogik tamoyillarini qo‘llash mantiqiy jihatdan tahlil qilindi. Ta’lim-tarbiya tiziminig amaliyotini o‘rganishda ta’lim sifatini takomillashtirishning quyidagi pedagogik shartlari aniqlashdi: 1) harbiy xizmatchilar amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida ularni kreativ fikrlashni faollashtirishga olib keladi, kognitiv faoliyatining yuqori faolligini ta’minlanadi; 2) yangi va nostandart sharoitlarida mustaqil harakatlarga tayyorligini shakllantiriladi; 3) qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi; 4) samarali metod va usullardan foydalanish ko‘nikmalari amaliy topshiriqlarni bajarishda murakkab ko‘nikmalarga ega bo‘ladi; 5) shakllangan harakatlarni takrorlash shakllarining xilma-xilligini oshiradi; 6) innovatsion texnikani joriy etishda harbiy xizmatchilar intellektual qobiliyatga ega bo‘ladi; 7) ijodiy vazifalarni bajarishga rag‘batlantiriladi; 8) o‘quv fanlarning mazmunini to‘liq o‘zlashtirishga ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T., 2017. – 56 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi: https://www.yuz.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonni 2022-2026 yildagi rivojlantirish strategiyasi” farmoni // Xalq so‘zi. – T., 2022. – 29 yanvar. – B. 1-2.
5.https://kun.uz/news/2024/01/12/ozbekiston-prezidenti-xavfsizlik-kengashining-kengaytirilgan-yigilishini-otkazdi.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi O‘RQ-436-son “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-son “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PF-4623-sonli “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – T., 2020. – 28 fevral: https://lex.uz.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-oktyabrdagi 809-son qarori.

ЗАХИРА ОФИЦЕРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИДА ЧЕТ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ.
АҚШ ҲАРБИЙ-ДЕНГИЗ КУЧЛАРИ МИСОЛИДА

Иргашев Тохир Анварович
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий унверситети
ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази ўқитувчиси

АҚШ Ҳарбий-денгиз кучлари учта турдаги таълим муассасалари тармоғи битирувчилари томонидан асосий лавозимларни эгаллаш учун офицерлар билан таъминланган:

-бўлажак денгиз флоти офицерларининг 20-фоизи Ҳарбий-денгиз академиясида (Аннаполис.ш) таълим олади;

-40% - мамлакатнинг фуқаролик университетлари ва коллежларидаги ҳарбий бўлмаган тайёргарлик курсларида;

-40% - офицерлик мактабларида.

12 йиллик ўрта таълим ва бошланғич ҳарбий-денгиз таълимини тугатган турмуш қурмаган ўғил-қизларни турли денгиз клублари, мактаблари, касаба уюшмалари, ҳарбий-денгиз мактабида ўқишга қабул қилиш 17-22 ёшда амалга оширилади.

Қоидага кўра, мактабга ўқувчиларнинг энг юқори 20 фоизидан ўрта мактаб битирувчилари киради. Давлатнинг умумтаълим мактаблари битирувчиларининг умумий илмий тайёргарлигини оширишга бўлган интилишларини алоҳида таъкидлаш жоиз. Ўқишга номзодлар алоҳида эътибор билан танланади.

Масалан, денгиз академиясига кирадиган ҳар бир шахс Президент, вице-президент, Конгресс аъзоси, штат губернатори ёки бошқа ваколатли мансабдор шахслар томонидан имзоланган тавсияномага эга бўлиши керак.

Битта бўш ўрин учун мансабдор шахс мактабга кириш истагини билдирган 10 нафар шахсга тавсиянома бериши мумкин.

Вице-президент ва АҚШ Конгресси аъзолари бешта бўш ўрин учун, АҚШ Президенти - юзта бўш ўрин учун йиллик тавсиянома бериш ҳуқуқига эга ва қонун бўйича у бу жойларни ўз хоҳишига кўра офицер ўғиллари учун сақлаб қўйиши мумкин, қуролли кучларда камида 8 йил хизмат қилган, истеъфога чиққан ёки ишдан бўшатилгандан кейин вафот етган кичик офицерлар ва ҳарбий хизматчилар таркиби бўйича.

1989 йилдан бери мактабга 220 га яқин миллий озчилик вакиллари қабул қилиб келинади.

Ҳар йили бу мактабни 1000 нафар офицер тугатади ва 1300-1500 нафарга яқин киши олинади. Ўқишга қабул қилинганларнинг қарийб 33 фоизи, асосан, ўқув фаолиятининг ёмонлиги ва офицерлик шаъни қоидаларини бузгани учун ўқишдан четлатилади. Ва бу норма ҳисобланади.

Мактабда барча курслар бўйича жами ўқувчилар сони 4500 нафарга яқин. Тўғридан-тўғри мактабнинг ўзида ўқиш муддати тўрт йил. Тренингнинг мақсади денгиз флоти ва денгиз пиёдалари корпусининг профессионал

офицерларини тайёрлашдир. Мактабда курсантларни лавозимга тайинланишдан олдин тўрт йиллик ўқитишнинг мантиқий хулосаси уларнинг мутахассислигига қараб 3-5 ойдан 15 ойгача бўлган денгиз мактабларида амалий касбий тайёргарлиги хисобланади.

Коллежни тамомлагандан сўнг малака ошириш дастури бўйича таҳсил олган битирувчилар “Бакалавриат” илмий даражаси билан олий маълумот оладилар. Мактабдаги ўқув жараёнининг ўзига хос хусусияти шундаки, курсантлар (ўғил болалар ва қизлар) кейинги хизмат даврида (штурман, сигналчи, муҳандис-механик, денгиз флоти учувчиси, денгиз пиёдаси, ҳарбий-денгиз флотининг бўлажак мутахассислигидан қатъи назар) ягона ўқув дастурлари бўйича ўқийдилар.

Америкалик мутахассисларнинг фикрига кўра, мактаб битирувчилари кенг қамровли умумий илмий таълим оладилар, унинг сифати асосан мамлакат университетларида бакалаврлар олган таълимга мос келади.

Денгиз мактаби элита таълим муассасаси бўлиб, у ерда ўқиш нуфузли хисобланади (ҳалқнинг энг яхши вакиллари ўқишади).

Ҳарбий-денгиз академиясининг битирувчилари учун энг характерли фазилатлар:

- шон-шараф ва ҳарбий қадр-қимматнинг юқори стандартлари;
- юқори касбий маҳорат;
- ватанпарварлик муносабати;
- денгиз анъаналарига содиқлик.

АҚШ денгиз флоти офицерлари учун ҳарбий-денгиз касбий таълими тизимини ривожлантиришнинг мумкин бўлган йўналишларидан бири сифатида олий ҳарбий ва олий фуқаролик таълимини интегратсиялаш кўриб чиқилади, бу олий ҳарбий касбий таълим олишнинг икки босқичини назарда тутади.

Биринчи босқичда - офицер лавозимларига даъвогарлар фуқаролик коллежлари ёки олий ўқув юртларида "бакалавр" илмий даражаси билан таълим оладилар, бунинг асосида кейинчалик ҳарбий касб ва мутахассисликни ривожлантириш таъминланади.

Иккинчи босқичда - ўқиш махсус ташкил этилган ҳарбий коллежларда камида бир йил ўқиш муддатига давом этади, бу ерда талабалар ҳарбий мутахассисликларга эга бўладилар.

Олий денгиз профессионал таълимида давом этаётган ўзгаришларга қарамай, Ҳарбий-денгиз академияси АҚШ денгиз флотининг элита офицерларини тайёрлашда етакчи рол ўйнашда давом этмоқда. Мактабда курсантлар учун ўқув дастури тўртта назарий ва амалий машғулотларни ўз ичига олади, натижада курсантлар тўрт йиллик ўқишнинг бир йилини тўлиқ денгиз саёҳатларида ўтказадилар.

Умуман олганда, касбий тайёргарлик учун 2000 соатга яқин вақт ажратилган, офицер коллежни тугатгандан сўнг камида беш йил ҳарбий хизматни ўташи ва камида бир йил захирада бўлиши керак.

Мактаб битирувчилари, кўп йиллик амалиёт натижаларига кўра, денгиз флоти бўлимлари ўртасида қуйидагича тақсимланади:
кемалар - 35-40%, авиатсия - 30-35%, денгиз пиёдалари - 10-15%, ва бошқа ҳарбий денгиз кучлари - 10 -15%.

Америка фуқаролигига эга бўлган, тиббий, маънавий ва сиёсий жиҳатдан ҳарбий-денгиз флотида хизмат қилишга яроқли бўлган талабалар (ўғил болалар ва аёллар) ихтиёрий равишда университет ва коллежларда ҳарбий бўлмаган тайёргарлик курсларига ўқитилади.

Қўшма Штатлардаги 60 та коллеж ва университетларда ноҳарбий тайёргарлик курсларида ўқитиш доимий равишда ташкил этилади.

Тренинг (ўқувлар) шундай тузилганки, ҳарбий бўлмаган тайёргарлик курсларидаги машғулотлар икки хил тўрт йиллик дастурда ўтказилади.

Ушбу дастурлардан бири кадр офицерларини тайёрлаш учун мўлжалланган, иккинчиси - заҳирадаги офицерлар.

“Кадрлар” дастури бўйича таҳсил олаётган шахслар курсант ҳисобланади, давлат томонидан қўллаб-қувватланади ва ойлик нафақа олади. Улар денгиз флоти департаменти билан шартнома тузадилар, унга кўра улар ўқишни тугатгунга қадар турмушга чиқмаслик, ўқув дастурини тўлиқ ўзлаштириш, ёзда кемаларда ва ҳарбий қисмларда саккиз ҳафталик амалиёт ўташ мажбуриятини оладилар. Денгиз флоти ва агар таклиф қилинса, денгиз флоти ёки денгиз пиёдаларининг офицерлари бўлиш ва камида тўрт йил хизмат қилиш.

Hisobdorlik: Xavfsizlik madaniyati shaxsiy va jamoaviy javobgarlikka yordam beradi. Zaxiradagi ofitserlar o‘zlarining xavfsizligi va o‘rtoqlarining xavfsizligi uchun javobgar ekanligini tushunishadi. Ular o‘z harakatlariga egalik qilishadi va takrorlanishning oldini olish uchun xatolardan saboq olishga tayyor.

Doimiy takomillashtirish: Xavfsizlik madaniyati statik emas; u dinamik va rivojlanmoqda. Zaxiradagi ofitserlar xavfsizlikni takomillashtirish bo‘yicha doimiy tashabbuslarda ishtirok etishga, o‘tmishdagi voqealardan saboq olishga va yangi muammolar va texnologiyalarga moslashishga rag‘batlantirishlari kerak.

Aslini olganda, zaxiradagi ofitserlarning xavfsizlik madaniyati tashqi tashvish emas, balki ularning kasbiy o‘ziga xosligi va operatsion samaradorligining ajralmas qismidir. Bu ularning qarorlar qabul qilish, risklarni boshqarish va jamoaviy ishini shakllantiradi, natijada ularning missiyalarining muvaffaqiyatiga va ular xizmat qiladigan va himoya qiladigan odamlarning farovonligiga hissa qo‘shadi [3,264]. Keyingi bo‘limlarda biz zaxiradagi ofitserlarda ushbu muhim xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan amaliy strategiyalar va pedagogik yondashuvlarni batafsil ko‘rib chiqamiz.

Missiya muvaffaqiyatida xavfsizlik madaniyatining roli:

Zaxiradagi ofitserlar o‘rtasida kuchli xavfsizlik madaniyatining ahamiyatini oshirib bo‘lmaydi, chunki bu harbiy topshiriqlar va operatsiyalarning muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi. Bu erda biz missiya muvaffaqiyatini ta’minlashda xavfsizlik madaniyatining hal qiluvchi rolini chuqur o‘rganamiz:

Baxtsiz hodisalar va qurbonlar kamayishi: Kuchli xavfsizlik madaniyatining eng aniq ta’siri harbiy harakatlar paytida baxtsiz hodisalar, jarohatlar va qurbonlar sonini kamaytirishdir. Xavfsizlikni birinchi o‘ringa qo‘yadigan zaxiradagi ofitserlar o‘z vazifalarini hushyorlik va ehtiyotkorlik bilan bajarishlari ehtimoli ko‘proq, bu esa missiya maqsadlariga xavf tug‘diradigan kamroq hodisalarga olib keladi [4,56]. Baxtsiz hodisalarni minimallashtirish nafaqat inson hayotini saqlab qoladi, balki muhim resurslar va jihozlarning buzilmasligi va ishlashini ta’minlaydi.

Yaxshilangan qaror qabul qilish: Xavfsizlik nuqtai nazaridan fikrlash, ayniqsa, yuqori stress va tez rivojlanayotgan vaziyatlarda tanqidiy fikrlash va to‘g‘ri qaror qabul qilishni rivojlantiradi [1,103]. Ichki xavfsizlik tamoyillariga ega bo‘lgan zaxiradagi ofitserlar xavflarni baholash, o‘z harakatlarining oqibatlarini hisobga olish va oqilona tanlov qilish uchun yaxshi jihozlangan. Bu, o‘z navbatida, bo‘linmaning umumiy samaradorligini oshiradi va missiya maqsadlariga erishish ehtimolini oshiradi.

Kengaytirilgan jamoa hamjihatligi: Xavfsizlik madaniyati bo‘linma ichidagi boshqa ofitserlarga mas’uliyat va g‘amxo‘rlik hissini rivojlantiradi. Xavfsizlik bo‘yicha majburiyatlarni baham ko‘rgan zaxiradagi ofitserlar missiyalar davomida muammosiz birga ishlashlari va bir-biriga ishonishlari ehtimoli ko‘proq. Ushbu uyg‘unlik aloqani, muvofiqlashtirishni va kutilmagan qiyinchiliklarga moslashish qobiliyatini yaxshilaydi, natijada vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishiga hissa qo‘shadi.

Resurslarni tejash: Xavfsizlikni hisobga olgan zaxiradagi ofitserlar uskunaning shikastlanishi yoki yo‘qolishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan xavfli xatti-harakatlarga kamroq moyil. Resurslarni bunday tejash operativ tayyorgarlikni saqlash uchun juda muhim, chunki harbiy qismlar o‘z vazifalarini bajarish uchun yaxshi ta’mirlangan uskunalar va infratuzilmaga tayanadi. Keraksiz shikastlanishlar yoki resurslarni yo‘qotishning oldini olish jihozni kelajakda joylashtirishga to‘liq tayyor bo‘lishini ta’minlaydi.

Kengaytirilgan jamoatchilik imiji: Harbiy tashkilotlar ko‘pincha jamoatchilik nazorati ostida bo‘ladi va ularning samaradorligi va professionalligi haqida jamoatchilikning idroki juda muhimdir. Xavfsizlikka sodiqlik nafaqat fuqarolar ishtirokidagi baxtsiz hodisalar ehtimolini kamaytiradi, balki harbiylar o‘z majburiyatlariga jiddiy yondashishini jamoatchilikka namoyish etadi. Bu ijobiy imij harbiy harakatlarni qo‘llab-quvvatlash va tinch aholi ishonchini saqlashda bebaho bo‘lishi mumkin.

Huquqiy va axloqiy mulohazalar: Ba’zi hollarda xavfsizlik standartlariga rioya qilmaslik huquqiy va axloqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Kuchli xavfsizlik madaniyati zaxiradagi ofitserlarning ham qonuniy talablarga, ham axloqiy tamoyillarga rioya qilishini ta’minlaydi, muassasa obro‘si va halolligini himoya qiladi.

Xavfsizlik madaniyati nafaqat harbiy amaliyotlarning istalgan jihati; bu missiya muvaffaqiyatining muhim tarkibiy qismidir. Xavfsizlikka ustuvor ahamiyat berish orqali zaxiradagi ofitserlar xavflarni minimallashtiradi, yaxshiroq qarorlar qabul qiladi, jamoa birligini mustahkamlaydi, resurslarni saqlaydi, jamoatchilik obro‘sini oshiradi va huquqiy va axloqiy me’yorlarga rioya qiladi. Shuning uchun zaxiradagi ofitserlar o‘rtasida xavfsizlik madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan pedagogik sa’y-harakatlar ularning kasbiy rivojlanishiga ham, o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishga ham sarmoyadir. Keyingi bo‘limlarda biz ushbu muhim xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishga samarali yordam beradigan ta’lim strategiyalari va o‘quv dasturlarini o‘rganamiz.

Xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishga pedagogik yondashuvlar:

Zaxiradagi ofitserlar o‘rtasida xavfsizlik madaniyatini tarbiyalash ko‘p qirrali ish bo‘lib, aniq pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu strategiya va usullar xavfsizlik ularning kasbiy shaxsiyatining ajralmas qismiga aylanishini ta’minlash uchun o‘qitish va ta’lim dasturlariga kiritilishi kerak.

Biz doimo rivojlanib borayotgan va oldindan aytib bo‘lmaydigan dunyoni kezar ekanmiz, zaxiradagi ofitserlar o‘rtasida mustahkam xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish eng muhim bo‘lib qolmoqda. Milliy mudofaaning ushbu muhim tarkibiy qismlarining doimiy muvaffaqiyati va tayyorligini ta’minlash uchun ularning saflarida xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan fikrlashni targ‘ib qilish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq yo‘lni belgilash kerak.

Zaxiradagi ofitserlarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik ahamiyati shubhasizdir. Dinamik tahdidlar va tahdidlar bilan ajralib turadigan doimiy rivojlanayotgan dunyoda xavfsizlikka sodiqlik shunchaki eng yaxshi amaliyot emas; bu milliy xavfsizlik va missiya muvaffaqiyatining muhim tarkibiy qismidir. Ushbu maqola orqali biz xavfsizlik madaniyati zaxiradagi ofitserlarning kasbiy shaxsi va samaradorligida o‘ynaydigan asosiy rolni, shuningdek, ushbu madaniyatni tarbiyalash uchun zarur bo‘lgan ta’lim strategiyalari va o‘quv dasturlarini o‘rganib chiqdik.

Zaxiradagi ofitserlarning xavfsizlik madaniyati xavf-xatarni anglash, etakchilik majburiyatlari, samarali muloqot, uzluksiz ta’lim, javobgarlik va doimiy takomillashtirishga intilish bilan tavsiflanadi. Bu oddiy qoidalar va qoidalarning nazorat ro‘yxati emas, balki ularning xizmatlarining barcha jabhalarini qamrab oladigan fikrlash tarzidir.

Kuchli xavfsizlik madaniyatining afzalliklari keng qamrovli bo‘lib, missiya muvaffaqiyatiga, hayot va resurslarning saqlanishiga, jamoatchilik obro‘siga, huquqiy va axloqiy mulohazalar va harbiy qismlarning umumiy tayyorgarligiga ta’sir qiladi. Bu zaxiradagi ofitserlarning xavfsizlik va professionallikning eng yuqori standartlarini qo‘llab-quvvatlagan holda o‘z kasbining qiyinchiliklariga dosh berishga yaxshi tayyorlanishini ta’minlaydigan yaxlit yondashuvdir.

Oldinga borayotganimizda, xavfsizlik madaniyati tamoyillarini zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashga integratsiya qilish, texnologiya va fanlararo tushunchalardan foydalanish, global hamkorlikni rag‘batlantirish va ruhiy salomatlik va chidamlilikka ustuvor ahamiyat berish zarur. Yetakchilikni rivojlantirish, jamoatchilik xabardorligi va doimiy takomillashtirishga intilish zaxiradagi ofitserlar jamoasida xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llabquvvatlashga qaratilgan sa’y-harakatlarimizning birinchi o‘rinda turishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish doimiy maqsad emas, balki barcha manfaatdor tomonlar o‘rtasida fidoyilik, moslashuvchanlik va umumiy majburiyatni talab qiladigan sayohatdir. Xavfsizlikni birinchi o‘ringa qo‘yish orqali biz nafaqat zaxiradagi ofitserlarning imkoniyatlari va chidamliligini oshiribgina qolmay, balki tobora murakkab va noaniq dunyoda mamlakatlarimizning xavfsizligi va xavfsizligini ta’minlaymiz.

Bu bizning kelajagimiz farovonligi yo‘lida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan sayohatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rasuleva M. Hayot faoliyati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish asoslari. Darslik. 2020. – 268 b.

2. Баева И.А. Психологическая безопасност в образовании: монография. - СПб.: Союз, 2002. – 271 с.

3. Sotvoldiyev A.Y. Chaqiriqqacha harbiy ta’limni tashkil etish va uning metodikasi. – T.: “Aloqachi”. – 336 b.

4. Hayot faoliyati xavfsizligi. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma / A.E.Parmonov, A.Igamberdiyev,

G‘.Dadayev, M.Qodirov; O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. – 196 b.

5. Uzoqov, Asliddin Mexritdinovich Harbiy psixologiya va pedagogika [Matn] : o‘quv qo‘llanma / A.M. Uzoqov. – Buxoro: “BUXORO DETERMINANTI” MCHJning Kamolot nashriyoti, 2022. – 366 b.

HARBIY TAYYORGARLIK O‘QUV BO‘LINMALARI KURSANTLARIDA KASBIY KOMPETENSIYALARI SHAKLLANTIRISH
(*bo‘lajak aviatsiya mutaxassislari misolida****)***

Djabbarov Shamsiddin Xujaqulovich
O‘zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi sikl boshlig‘i dotsent, podpolkovnik

Annotatsiya: Maqolada harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari kursantlarining kasbiy kompetensiyalari haqida ilmiy tushuncha va zamonaviy oliy ta’limdagi muhim hodisa sifatida tavsiflanadi, kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo‘lajak aviatsiya mutaxassislarni shakllantirishning tarkibiy qismlari, xususiyatlari ochib beriladi. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim berishda kompetensiya yondashuvining dolzarb muammolari ko‘rib chiqiladi, shuningdek bo‘lajak aviatsiya mutaxassislariga ta’lim berish jarayonida ularning roli va o‘rni aniqlangan.

Kalit so‘zlar: kasbiy (malakaviy) kompetensiya, kursant, ta’lim jarayyoni, oliy-harbiy aviatsiya muassasalari, aviatsiya mutaxassislari, bilim, uquv, ko‘nikma, kompetension yondashuvi.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ КУРСАНТОВ УЧЕБНЫЕ ПОДРАЗДЕЛЕНИЯ ВОЕННОЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация: В стате дается научное понимание профессионалных компетенций курсантов учебные подразделения военной подготовки и охарактеризовано как важное явление в современном высшем образовании, раскрываются компоненты, особенности формирования будущих авиционных специалистов в процессе профессионалной подготовки. В данной стате рассмотрены актуалные проблемы компетентностного подхода в современном образовании, а также определены их рол и место в процессе обучения будущих авиационных специалистов.

Ключевые слова: профессионалная (квалификационная) компетентност, курсант, учебный процесс, высшие военные авиационные учреждения, авиационные специалисты, знания, обучение, умения, компетентностный подход.

Bugungi kunda hayotimizning ko‘p jabhalarida aviatsiya texnikalarining qo‘llanilishi o‘sib borishi tufayli innovatsiya tizimini yaratishda aviatsiya mutaxassislarini tayyorlashga qaratilgan, professor-o‘qituvchilar tarkibini, o‘quv bo‘linma komandirlarini va kursantlarni o‘quv-uslubiy va tarbiyaviy faoliyatini tizimli bog‘lagan holda, ushbu tizimni yaratishga va rivojlantirishga qodir oliy kasbiy ma’lumot eng muhim omillardan biriga aylanmoqda.

Harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari kursantlarida o‘z kasbini o‘zlashtirish jarayoni “o‘quv-tarbiya jarayoni” deb ataladi va u harbiy fanlarning butun majmuasini va kasbiy fanlarni o‘rganishni nazarda tutadi, ularni o‘rganish, ma’lum bir sohada mutaxassis deb atash huquqini beradi.

Kursantlar uchish kasbini egallash bilan bir qatorda, davlat suverenitetini, hududiy yaxlidligini va xalq erkin xayot turmush tarzini turli hil tajovuzlardan himoya qilishga qodir haqiqiy ofitserlar bo‘lib etishishlari kerak, shuning uchun kasbiy tayyorgarlikga qaratilgan kuchli diqqat-e’tibor harbiy intizomga qaratilgandek bo‘lishi kerak.

Har bir kursant O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining umumharbiy nizomlari talablarini bilishi, u bilan yashashi, o‘rganishi, malakasini oshirishi va hayotiy tajriba egallashi kerak. Yuqorida aytilganlarning barchasi xizmatda diqqat-e’tiborli bo‘lishga, boshliq va bo‘ysunuvchilar orasida munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishiga, hizmatdoshlari bilan to‘g‘ri muloqotda bo‘lishga yordam beradi. Tinch, kundalik vaziyatda bu juda muhim, yana muhimrog‘i, ekstremal yoki harbiy vaziyatda har bir kishi nafaqat o‘zi xaqida, balki o‘rtoqlari haqida ham o‘ylashi kerak.

Vazifalarni aniq, lo‘nda va tushunarli qilib bayon qilishni bilish uchun aniq, chiroyli nutq so‘zlash ustida ishlashi, to‘g‘ri muloqat qilish tajribasini ortirish muximdir. Kutilayotgan qiyinchiliklarni va ulardan qochish yoki ularni bartaraf etish imkoniyatlarini tushuntirish uchun to‘g‘ri muloqotda tajriba orttirish, aniq, malakali nutq ustida ishlash muhimdir.

Harbiy mutaxassis, ijtimoiy ob’ekt sifatida, kasbiy kompetensiyaning asosini tashkil etuvchi ko‘plab tug‘ma va orttirilgan fazilatlar bilan ajralib turadi. Kasbiy kompetensiya-bu harbiy mutaxassis sifatida olingan bilimlar, kasbiy va hayotiy tajriba, shaxsiy fazilatlar va moyilliklardan foydalangan holda jangovar tayyorgarlik faoliyatining haqiqiy vaziyatlarida yuzaga keladigan muammolarni va tayinlangan xizmat vazifalarini professional tarzda hal qilish qobiliyatini belgilaydigan shaxsning ajralmas xususiyati hisoblanadi.

Harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari kursantlari o‘z zimmasiga olgan mas’uliyatni tushunishi, harbiy xizmatchining yuqori ijtimoiy mas’uliyatini, intellektual qobiliyatlarini, tana xususiyatlari va aqliy xususiyatlarini rivojlantirishi kerak.

Kasbiy faoliyat jarayonida bo‘lajak harakatlarning bashoratli tasviri asosida yangi bilimlarni olish muammoli yoki nostandart vaziyatda qaror qabul qilishga tayyorlikning psixologik asosidir. Uchuvchining o‘zini o‘zi anglashi doimiy ravishda prognozlash rejimida ishlashi, yaqin kelajakda nima paydo bo‘lishini hisobga olishi kerak, shuning uchun shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishga, muammolarni hal qilishning yangi usullarini topishga, qiyin vaziyatlarda tezda qaror qabul qilish qobiliyatiga doimiy e’tibor berish kerak. harakatlarning ishonchliligini ta’minlash, kasbiy hushyorlikni kuzatish.

Kursantning malakasini shakllantirishda uning mutaxassisligiga to‘g‘ri, vakolatli qarash katta ahamiyatga ega. Bu kursantning harbiy aviatsiyada xizmat qilish, uchishni o‘rganish, uchish va harbiy universitetning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish istagi bilan belgilanadi.

Kursantlarni muvaffaqiyatli tayyorlashda ularning o‘quv jarayonidagi motivatsiyasi alohida rol o‘ynaydi, bu insonning xulq-atvorini boshqaradigan, uning

yo‘nalishini, tashkilotchiligini, faolligini va barqarorligini, insonning o‘z ehtiyojlarini faol qondirish qobiliyatini belgilaydigan psixofiziologik jarayondir.

Shuni esda tutish kerakki, akademik davr boshida kursantlarning o‘quv va kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayoni o‘z kasbidan tashqariga chiqadi va umumiy bilim va ko‘nikmalarni egallashga qaratilgan.

Kursantlar kompetensiyasining tarkibiy qismlari egallangan ko‘nikmalardir: nafaqat mustaqil, balki jamoada ham muammosiz, samarali ishlash qobiliyati. Trening davomida kursantlar kumulyativ harakatlar tajribasini olishga intilishlari kerak va buning uchun bo‘lajak ofitser mustaqil ravishda harakat qilish va to‘plangan tajribaga muvofiq kasbiy vazifalarni hal qilish, sinfda olingan bilimlarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lganda, ish muhitida muloqotning xulq-atvor modellarini shakllantirish kerak. bir guruh, bir jamoa.

Zamonaviy sharoitlar malakali harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari mutaxassislarini tayyorlash, kursantlarning kommunikativ qobiliyatlarini o‘rganish va jamoada munosabatlarni o‘rnatish qobiliyatini talab qiladi. Shuni esda tutishimiz kerakki, nazariy mashg‘ulotlar to‘plangan va shakllangan ko‘nikmalarni kasbiy faoliyatda amaliy qo‘llash uchun bilim asoslarini yaratadi.

Shu bilan birga, kasbiy faoliyatga mazmunli munosabatni shakllantirish va Vatan xavfsizligi va himoyasini ta’minlashda harbiy xizmatchining o‘z rolini shakllantirish motivlaridan biri O‘zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasida belgilangan pozitsiya bo‘lishi mumkin. Unda ko‘rsatilgan mafkuraviy tamoyillar kursantga muvaffaqiyatli o‘qish va xizmat ko‘rsatishda yordam berishi kerak.

Harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari kursantlari o‘rtasida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining amaliyotga yo‘naltirilgan modelini amalga oshirish kompetensiya yondashuvini qo‘llash jarayonida aniqlanishi mumkin. Kompetensiyalar va bilim, ko‘nikma va malakalar o‘rtasidagi eng muhim farq shundaki, kompetensiyalarni ijtimoiy harakatlarning xususiyatlari sifatida ular amalga oshiriladigan faoliyatning ijtimoiy-sanoat sharoitlaridan ajratib bo‘lmaydi.

Harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari kursantlarini tayyorlash jarayonida kasbiy kompetensiyalari o‘quv faoliyatining elementlari sifatida qaraladi, unga nisbatan talaba faoliyat predmetiga aylanadi, o‘zini o‘zi belgilaydi, bilim va harakat usullarini o‘rganadi, insoniyatning madaniy va tarixiy yutuqlari bilan tanishadi. Ta’lim jarayonida ko‘pincha predmet kompetensiyalari topiladi, bu shaxsning tegishli o‘quv intizomi yoki fanlar guruhini o‘rganish jarayonida belgilangan va shakllangan talablarga muvofiq ushbu fan sohasidagi faoliyatni amalga oshirishning potensial qobiliyati sifatida tushuniladi. Kompetensiyalar olingan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimiga, ijodiy faoliyat tajribasiga va hissiy va axloqiy baholash normalarini qo‘llashga asoslanadi.

Xulosa va takliflar. Harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari kursantlari o‘zining kasbiy mahoratini, uning afzalliklari, kamchiliklari, noto‘g‘ri hisob-kitoblarini baholay olishi va mashg‘ulotlardagi nazariy bo‘shliqlar yaqin kelajakda to‘ldirilishi kerakligini, berilgan vazifalarning o‘z vaqtida bajarilishi uning kasbiy malakasi va shaxsiy fazilatlariga bog‘liqligini tushunishi kerak. harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari kursantlari o‘rtasida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish

jarayonini shuni ko‘rsatadiki, kompetensiya yondashuvini qo‘llash to‘liq bilim, ko‘nikma va malakalar, kasbiy kompetensiya, Iroda va asosiy psixologik bilimlarga ega bo‘lgan haqiqiy mutaxassisni tayyorlash va tarbiyalashga qaratilgan, bu tayinlangan xizmat vazifalarini to‘liq bajarishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

1. Mirziyoev Sh.M. Xavfsizlik kengashi majlisidagi “Qurolli kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va professor-o‘qituvchilari malakasini uzluksiz oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son qarori.
3. Кочкаров А. А. Педагогическая технология профессионалноприкладной физической подготовки курсантов Высших сержантских курсов. Ташкент, 2006.
4. Доломанюк Л.В. Формирование военно-профессионалной компетенции курсантов в процессе обучения в военно-учебных заведениях КПЖ. − 2010.
5. Коркоценко М.Н. Методика формирований военно-профессионалных компетенций у курсантов летного вуза Военный научно-практический вестник. − 2019.

РЕЗЕРВДАГИ ВА ЗАНИРАДАГИ ОФИЦЕРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ ТАРИХИ, БУГУНИ ВА КЕЛАЖАГИ

Муродов Акмал Джайлибаевич
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази умумқўшин тайёргарлик цикли ўқитувчиси резервдаги подполковник
Эгамов Хусан Юсупович
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази умумқўшин тайёргарлик цикли ўқитувчиси резервдаги подполковник

Аннотция: Ушбу мақолада “Резервдаги ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш тарихи, бугуни ва келажаги” мавзусида маълумотлар баён этилади.

Калит сўзлар: Қуролли Кучлар, Ватан ҳимояси, можаролар тажрибаси, тактик бўлинмалар, ҳамкорликни йўлга қўйиш, замонавий фанлар билан бойитиш, профессионал кадрлар билан таъминлаш, ҳарбий билим юртларидаги таълим тизимини ноёб принциплар асосида ривожлантириш.

Кириш

Халқимизнинг азалий орзуси ушалиб, мустақилликни қўлга киритган давлатимиз сиёсатининг асосий йўналишларидан бири-мустақил Ўзбекистоннинг мудофаасини мустаҳкамлаш ва миллий ҳавфсизлигини таъминлашга қаратилди. Шунингдек бугунги кунда ёшларни Ватан ҳимоясига тайёрлаш ишларининг аҳамияти ўз-ўзидан ошиб бормоқда.

Халқаро терроризмнинг, сепаратчилик ҳаракатларининг кўп давлатларда авж олиши, глобал уруш хавфи бартараф бўлиб локал урушларни пайдо бўлиши аскарнинг руҳий, жисмоний ва махсус тайёргарлигига янги талабларни қўймоқда. Ундан турли холатларда ўзини муносиб тутишни ва тезлик билан вазиятни тўғри баҳолашни, ҳамда энг тўғри қарорни қабул қилишни, ўз ҳаракатларини бўлинма ҳаракатлари билан мослаштира олишни талаб қилмоқда.

Янги замонавий қурол ва техника воситалари жанговар ҳаракатлар олиб бориш ҳусусияти ва услубларини тубдан ўзгартирмоқда. Бу ҳозирги шароитда жанговар машиналарда, танкларда, самолёт штурвалларида, зенит-ракета комплексларда хамда коинот орқали маълумотлар тўплашда, учувчисиз учиш воситалари ва дронларни бошқаришда ҳарбий ва махсус тайёргарликка эга бўлган ҳарбий хизматчилар бўлиши керак деганидир.

Қуролли Кучлар давлат ҳудудий яхлитлигини ва унинг фуқароларини тинч ҳаётини таъминлайди. Ҳарбий соҳадаги ислоҳотлар шарт-шароитларида Қуролли Кучлар янги сифат касб этмоқда. Армиямизда тузилмавий ўзгаришлар ўтказилиб, бу асосан мудофаа йўналишига ва унинг ривожланиши сифат ва ақлий устуворликлар асосида шакллантиришга қаратилган.

Шу муносабат билан бугун ҳар бир Ватанимиз жангчисидан аниқ иш, юксак ватанпарварлик туйғуси, ўзининг жангчилик бурчини виждонан бажариши ва шахсий маъсулият талаб этилади. Жанговар шайликни юқори даражада ушлаб туриш, жангчилик маҳоратини такомиллаштириш, тартиб ва интизомни мустаҳкамлаш ҳар бир аскарнинг мамлакат мудофаа қудратини таъминлашдаги улуши ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари олдидаги юксак ва маъсулиятли вазифаларни соғлом, жисмонан бақувват ва чидамли, ақлан шаклланган, юксак маънавий-жанговар сифатларга эга, Ватан ҳимояси йўлида ватанпарварлик ва фуқаровий бурчини бажаришга тайёр кишигина уддалай олади.

Қуролли Кучларнинг ҳарбий қудрати, жанговар қобилияти кўплаб омиллардан таркиб топади.

Биринчиси - бу, шахсий таркибнинг миқдори ва сифати. Бу сифат унинг профессионал даражаси, аҳлоқий-руҳий ҳолати, жисмоний тайёргарлиги ва интизоми билан белгиланади.

Иккинчиси - бу, Қуролли Кучлар ҳарбий қудратининг энг муҳим қисми бўлган қурол-яроғлар ва ҳарбий техниканинг миқдори ва сифати масаласидир.

Учинчиси - бу, ҳарбий инфраструктура бўлиб, Қуролли Кучлардан жанговар ҳолатда фойдаланишда унинг роли беқиёсдир.

Тўртинчиси - саноатни тезда қайта қуриш ва сафарбарлик режаси топшириқларининг бажарилишини тахминлаш учун замин хозирлаш. Сафарбарлик ресурсини қабул қилиш ва шароитга мослаштириш.

Биз асосан сафарбарлик ресурсларини, яъни резервдаги ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш жараёнларига эътибор қаратамиз.

Тарихга назар соладиган бўлсак 1920 йилда М.В.Фрунзе ташаббуси билан Туркистон университети олдига ҳарбий кафедрани ташкил этиш саволлари қўйилади. 29 апрелда ТУРКДУни бошқариш йиғилишида Г.Н.Черданцев бошчилигида ҳарбий кафедра тузиш ишлари бўйича саволлар кўриб чиқилди. Революцион ҳарбий совет республикаси ва халқ таълими комиссариатининг 1921 йил 22 февралдаги № 429 қарорига асосан ҳарбий кафедра бешта бўлим (асосий штат, артиллерия, ҳарбий муҳандислик, ҳарбий хўжалик, умумий)дан иборат ҳолда ташкил қилинади.

Дунёда биринчи марта СССР олий ўқув юртларида 1920-йилларнинг иккинчи ярмида фуқаролик институтлари қошидаги ҳарбий тайёргарлик тузилмалари пайдо бўлди. СССР Марказий Ижроия Қўмитаси ва Халқ Комиссарлари Советининг қарорига мувофиқ, 1926-27 ўқув йили бошидан бошлаб 238 факултетга эга 135 та университетда (техникумларда) ҳарбий тайёргарлик машғулотлари бошланди ва улар 80 мингга яқин талабаларни қамраб олди. Шу билан бирга, университетлар бир хил даражада муҳим вазифани - ҳарбий кафедраларда СССР Қуролли Кучлари учун заҳирадаги офицерларни тайёрлашни ҳал қилишлари керак эди.

Кейинчалик улар кўплаб гуманитар таълим муассасаларида ҳам ташкил қилина бошлади. Бундай тузилмаларни яратишдан мақсад ўқув юртлари талабаларини Қизил Армиянинг, кейинчалик Совет Армиянинг кичик командирлари сифатида уруш даврида қуролли кучлар сафига чақириш ва кичик командирлик лавозимни эгаллашга қодир заҳира офицерлари сифатида тайёрлаш эди.

Дастлаб ҳарбий кафедраларда умумий профилдаги кичик офицерлар тайёрланар эди. Кейинчалик, ҳар хил турдаги қўшинлар (кучлар), махсус кучлар (махсус хизматлар) ва Қуролли Кучлар турларининг ривожланиши, СССР Қуролли Кучларида замонавий техника ютуқларини жорий этиш билан боғлиқ ҳоллар туфайли, кичик офицерлар тайёрлаш муайян ҳарбий мутахассисликлар асосида амалга оширила бошлади, шу жумладан ҳарбий сиёсий ходимлар ҳам.

Улуғ Ватан уруши йилларида СССР олий ўқув юртларида 1941 йилгача тайёрланган кичик заҳирадаги офицерлар сафарбарлик даврида кичик командирлар ва сиёсий ходимлар лавозимларини маълум даражада тўлдирди. Кейинчалик бу тажриба муваффақиятли деб топилди ва урушдан кейинги даврда СССР ўқув юртларида заҳирадаги кичик офицерларни тайёрлаш янада ривожланди.

60-70 йилларда АҚШ ва СССР орасида муносабатлар ўта кескинлашгани сабабли учунчи жаҳон (яни ядровий) уриши бошланиши хавфи пайдо бўлди. Совет хукумати томонидан катта эътибор берилиб ҳарбий кафедраларни офицер кадрларини заҳирасининг тайёрлаш бўйича ҳақиқий устахонасига айлантирилди. Бу даврда талабаларни ҳарбий тайёргарлиги кенг кўламли, мувофиқлаштирилган ва яхши ташкил этилган ҳарбий тайёргарлик тизими шакллантирилиб, кўп тармоқли ҳарбий мутахассисликлари бўйича заҳирадаги офицерларни тайёрлашга қиришилди. Заҳирадаги офицерлар орасидан олий ўқув юртларининг кўплаб битирувчилари 2-3 йил давомида офицерлик лавозимларида хизмат қилиш учун армия ва флот қаторига чақирила бошланди ва уларнинг бир қисми ихтиёрий равишда ҳарбий хизматни ўз ҳаётий касбига айлантирди. Бу орада талабалар учун ҳизматни муддатдан кечиктириш имкони ҳам берилди.

Ўзбекистон Республикасида фаолият юритаётган олий ўқув юртларининг тарихий маълумотномалари, архив материалларини ўрганилиши захирадаги офицерларни тайёрлаш, турли йилларда амалга оширилган:

Ўзбекистон миллий университетида -1921 - 2020 йилгача;

Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти -1936-2019 йилгача;

Тошкент Давлат аграр университети - 1942-2020 йилгача;

Самарканд Давлат тиббиёт институти –1944-2020 йилгача;

Андижон Давлат тиббиёт институти -1955-2021 йилгача;

Тошкент ахборот технологиялари университети –1955-2020 йилгача;

Тошкент ирригатсия ва қишлоқ хўжалигини механизатсиялаш муҳандислари институти -1961-2020 йилгача;

Самарқанд Давлат университети -1967-2020 йилгача;

Тошкент Давлат техника университети -1967-2020 йилгача;
Тошкент Давлат транспорт университети -1975 -2020 йилгача;
Бухоро Давлат университети -1978– ҳозирги вақтгача
Фарғона Давлат университети -1982– ҳозирги вақтгача;
Тошкент Давлат педагогика университети -1991– ҳозирги вақтгача.

1960-йиллардан бошлаб урушдан кейинги Совет Иттифоқида фаолият кўрсатган 890 га яқин университетнинг 497 тасида университетлар ҳарбий кафедралар мавжуд эди (1980-йилларнинг охирида ҳарбий кафедралар сони 441 тага қисқартирилди).

80-йилларда ва айниқса, уларнинг иккинчи ярмида заҳирадаги офицерларни тайёрлаш тизими, олий ўқув юртларининг ҳарбий кафедралари фаолияти бир қатор объектив ва субъектив сабабларга кўра инқироз даврига учради, бу эса уларни тубдан қайта кўриб чиқишга талаб қилди. Вақт ўтиши билан совет иттифоқи парчаланиб, Ўзбекистон давлат мустақиллигига эга бўлган даврга тўғри келди.

Ўзбекистонда суверенитет эълон қилингандан сўнг содир бўлган тубдан ўзгаришлар давлат фаолиятининг барча соҳаларига, унинг сиёсий ва ижтимоий институтларига жиддий таъсир кўрсатди, шу қаторида миллий ҳарбий мактаб ҳам ислоҳ қилинди. Ҳарбий кадрлар тайёрлаш тизими нафақат ҳимоя қилинди, балки янги иқтисодий ва ижтимоий-сиёсий шароитларда ҳам ривожлантирилди. Бунга олдинги тўпланган тарихий тажриба ёрдам берди.

90-йилларнинг бошида эски заҳирадаги совет офицерларни тайёрлаш тизимини ислоҳ қилиш ва ўзгартириш даврини ва олий ўқув юртларининг ҳарбий факултетлари ва кафедралари учун унинг ташкилий пойдеворини яратиш жараёни бошланди. Айнан 90-йилларни бошларида Қуролли Кучлар қаторидан парчаланган собиқ совет армиясининг офицерлари ўз юртларига оммавий кетиш натижасида катта кадр етишмовчилиги мавжуд бўлди.

Ўзбекистон ҳудидида жойлашган олий ҳарбий билим юртлар, бу етишмовчиликни қисқа давр ичида таъминлаб бера олмайдиган жараёнда, заҳирадаги офицерлар яъни ҳарбий кафедраларни тамомлаган фуқаролар ўз ҳарбий мутахасисликлиги бўйича шу камчиликни тўлик равишда тўлдирди ва миллий армиямизнинг пойдеворини тиклашда ўз ҳиссасини қўшди.

Мустақиллик йилларида давлат олий ўқув юртларида заҳирадаги офицерларни тайёрлашни ташкил этишга бўлган ёндашувлари бир неча бор ўзгарди. Талабалар билан ўтказиладиган ўқув жараёни мазмунига, олий ўқув юртларида заҳирадаги офицерлар тайёрланадиган ҳарбий мутахассисликлар рўйхатига ўзгартиришлар киритилди, олий ўқув юртларининг ҳарбий кафедралари штати қисартирилди ва қайта тикланди, янгилари ташкил этилди.

Ҳарбий факултет ва кафедралар фаолиятини ташкилий, кадрлар, ўқув, моддий-техник, услубий таъминлаш мазмуни ва характери ўзгарди. Шунга қарамай, ўзгаришлар ва ислоҳотларнинг бундай мураккаб шароитда ҳам олий ўқув юртларида талабаларнинг ҳарбий тайёргарлиги, асосан, ўтган даврда яратилган салоҳият туфайли, ўз самарадорлигини сақлаб қолди. Бу мамлакатимиз Қуролли Кучлари ва бошқа қўшнни муҳофаза қилувчи

идоралар учун заҳирадаги офицерларнинг сафарбарлик резервини тайёрлашни, шунингдек армия ва бошқа ҳарбий тузилмаларнинг кичик офицерлари лавозимларини зарурий равишда тўлдиришни таъминлади.

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлигининг 2018-йил 7-мартдаги 21/1/671-сонли директивасига асосан олий таълим муассасалари негизида мавжуд бўлган барча ҳарбий кафедралар штати ўзгартирилди, бунинг натижасида кафедра офицерлик лавозимларининг муҳим қисми қисқартирилди, уларнинг лавозимлари Қуролли Кучлар хизматчиларининг лавозимлари билан алмаштирилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 24 октябрдаги ПҚ-4496м-сонли «Ўзбекистон Республикаси Олий таълим муассасаларида заҳирадаги ва резервдаги офицерларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида» қарори талаблари ижросини таъминлаш мақсадида, Ўзбекистон Миллий университети ҳарбий кафедраси базасида Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази ташкил этилди.

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирининг 2020 йил 28 июлдаги № 21/1/1188–сонли директиваси, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирининг 2020 йил 29 июлдаги 501–сонли “Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларининг ҳарбий кафедралари фаолиятини тугатиш комиссиясининг ташкил этиш тўғрисида”ги буйруғига асосан ҳарбий кафедралар ўз фаолиятини тугатди.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида заҳирадаги офицерларни тайёрлашда ҳарбий мактабнинг илғор анъаналари мамлакатимиздаги етакчи олий таълим муассасалари чақириқгача ҳарбий таълим факултетлари ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш курслари томонидан давом эттирилмоқда ва булар:

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази;

Бухоро Давлат университетининг чақириқгача ҳарбий таълим факултети;

Фарғона Давлат университетининг чақириқгача ҳарбий таълим факултети;

Низомий номидаги Тошкент Давлат педагогика университетининг чақириқгача ҳарбий таълим факултети;

Тошкент ахборот коммуникатсия технологиялари ҳарбий алоқа институтининг малака ошириш ва қайта тайёрлаш факултети, заҳирадаги офицерларни тайёрлаш курси;

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлар ҳарбий тиббиёт Академиясининг резервдаги ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш курси.

Уларда барча ўқув-моддий техник базаси яратилган, профессор-ўқитувчилар таркиби танлаб, тайинланган. Ўқув жараёни 2017 йил 9 октябрдаги 809-сонли Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори “Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларининг ҳарбий тайёргарлик ўқув бўлинмалари тўғрисидаги низомни тасдиқлаш тўғрисида”асосида ташкиллаштирилган.

Хулоса ва таклифлар

Ўзбекистон Республикаси Олий ўқув юртларида заҳирадаги офицерларни тайёрлаш тизимининг ўтказилган тарихий таҳлилдан қуйидаги хулоса ва таклифлар чиқарилди:

1. Юртимизда собиқ иттифоқ ва мустақиллик даврида турли шаклларда кечган заҳирадаги офицерларни тайёрлаш тизимининг тарихий тажрибаси ўша даврнинг муҳим ҳодисалари бўлди. Олий ўқув юртларида уларни тайёрлаш жараёни мураккаблашиб борди, унинг босқичлари давлат хавфсизлик соҳасидаги ва сиёсатидаги ўзгаришлар билан белгиланди.

2. ОТМ лар тизимида ҳарбий тайёргарлик ўтган асрнинг бошларидан ҳозирги кунга қадар офицерлар заҳирасини тайёрлашнинг асосий шакли бўлиб қолмоқда..

3. Ҳозирда ОТМ ларда заҳирадаги офицерларни тайёрлашнинг энг муҳим вазифаси бу Қуролли Кучларга замонавий қурол-яроғ ва техникаларнинг кириб келиши фонида янги мутахасисларни тайёрлашни тақоза қилмоқда.

4. Ўзбекистон Қуролли Кучларининг ҳозирда ва келажакда режалаштирилган қайта замонавий қуроллар билан таъминлаш ва техник жиҳозлашни ҳисобга олган ҳолда, уни замонавий ҳарбий техника ва қуролларнинг намуналари ва макетлари билан тўлдириш зарур.

Адабиётлар

1. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети ҳарбий тайёргарлик ўқув марказининг “ҳарбий тайёргарлик ўқув марказида резервдаги ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш: анъаналари, инноватсиялари, истиқболлари”мавзусида ўтказилган республика илмий-амалий анжумани. Маърузалар тўплами.

2. Военная подготовка в гражданских ВУЗ-ах за рубежом. ҳттпс//ру.wикипедиа.орг

3. Давлатов Ж.Қ. Ҳарбий мутахассисликка кириш. Маъруза. Тошкент-2024

AMERIKA QO‘SHMA SHTATALARI ARMIYASINING ROTC KURSLARIDA ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASH

Narzullayev Iskandar Safarovich
O‘zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada AQSh armiyasining ROTC kurslarida zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy strategiya, AQSH qurolli kuchlari, safarbarlik, zahiradagi zobitlar, rezervdagilar, milliy gvardiya, quruqlikdagi qo’shinlar.

Аннотация: в данной стате представлена информация о подготовке офицеров резерва на курсах вневойсковой подготовки (ROTC) в сухопутных войск США.

Ключевые слова: огнетушител, пожарная сигнализация, средства пожаротушения, пожарная автоматика, пожарная служба.

Amerika harbiy strategiyasining asosini oddiy kuchlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kichikroq, yuqori tayyorgarlikdan o'tgan, muhim zaxira komponentlarini o'z ichiga olgan "asosiy kuch" tushunchasi tashkil etadi. Tayyorlik darajasi va safarbarlik shartlariga ko'ra, AQSh qurolli kuchlarining safarbarlik zaxirasidagi ofitserlar uch toifaga bo'linadi: birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqich.

Birinchi bosqich zaxirasi uchta guruhni o'z ichiga oladi:

milliy gvardiya va Quruqlikdagi qo'shinlar zaxirasi qo'shinlari va bo'linmalari tarkibiga kiritilgan zahiradagilar;

safarbar etilgan taqdirda zudlik bilan muntazam qo'shinlar qo'shinlari va bo'linmalarining urush davridagi shtablari va uyushgan zahiralar tarkibiga to'ldiriladigan individual rezervchilar;

yakka tartibdagi rezervchilar safarbarlik e'lon qilinganidan keyin olti oy ichida yo'qotishlarni qoplashni maqsad qilganlar.

Zaxiradagi birinchi navbatdagi harbiy xizmatchilar muntazam tayyorgarlikdan o'tadilar va ularga tegishli ko'tarilish va ish haqi bilan ketma-ket harbiy unvonlar beriladi. Ikkinchi va uchinchi bosqichdagi zahiradagilar majburiy tayyorgarlikdan o‘tmaydi va 60 yoshga to‘lgunga qadar ro‘yxatga olinadi.

Amerikalik harbiy ekspertlarning fikricha, birinchi navbatdagi zahiradagi ofitserlarni tayyorlash amaliyotga yo'naltirilgan, raqobatbardosh va shiddatli hamda yuqori samaradorlikka ega bo'lishi kerak.

Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash jarayoniga qo'yiladigan alohida talablar quyidagilardan iborat:

1. U harbiy doktrinada belgilangan qurolli kuchlar bo'linmalarining maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Bu o'quv jarayonini rejalashtirish uchun asosdir.

2.“Urushda nima zarurligini o‘rgating”. Tayyorgarlik jarayonida mashg'ulotlarning amaliy shakllariga e'tibor beriladi. Shu bilan birga, real holatga yaqin holat qayta yaratilib, harbiy xizmatchilarning bilim va ko‘nikmalaridan foydalanishi uchun sharoit to‘liq hisobga olinmoqda.

3.Zahiradagi askarlarda ham faoliyatda mustaqillik, o‘ziga ishonch, tashabbuskorlik, yangi narsalarni izlash kabi fazilatlar singdiriladi va ularni faqat vijdonli ijrochi qilib shakllantirmaydi.

4. Mashg’ulot samaradorligi bilim va ko’nikmalarni erishilgan darajada ushlab turish bilan bog’liq. Bu talab harbiy mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashning turli kurslarida davriy qatnashishda ifodalangan izchillikni nazarda tutadi.

Harbiy xizmatchining kasbiy o'sishida shaxsiy tashabbus va o'zini o'zi takomillashtirishga intilish ham muhim rol o'ynaydi. Mustaqil ta'lim dasturi - bu har bir insonning individual xususiyatlarini to'liq hisobga oladigan bilimlarni o'zlashtirish shakli. Hozirgi vaqtda o'z-o'zini tayyorlashga qayta yo'naltirish mavjud. Bu shaxsiy tarkibni tayyorlash sifatiga talablarning ortishi bilan bog'liq.

Hozirgi bosqichda zahiradagi harbiy xizmatchilarni tayyorlashning barcha turlari, qoida tariqasida, bir kurs, bitta dastur va boshqalar doirasida birlashtirilgan bo'lib, ular nazariy va amaliy shakllarni uyg'unlashtirish bilan birga, harbiy xizmatchilarni har tomonlama tayyorlashni ta'minlaydi. Mashg'ulot jarayonining tabiiy xususiyati mashg'ulot darajasining oshishi bilan jamoaviy ko'nikmalarni mashq qilish uchun ajratilgan vaqt miqdorining ko'payishi hisoblanadi. Bu Mudofaa vazirligi rahbariyatining kuch va vositalarni boshqarishga katta ahamiyat berayotgani bilan izohlanadi.

Qurolli kuchlarda yaratilgan shaxsiy tarkibni, ayniqsa zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimi alohida harbiy xizmatchining shaxsiyatiga qaratilgan. Kurslarda va maktablarda mutaxassislik bo'yicha o'qish davrida talabalar barqaror va yaxshi muvofiqlashtirilgan o'quv guruhlariga birlashtirilgan. Lekin yakunda ularning har birining erishgan yutuqlari baholanadi. Shaxsning ta'lim guruhiga nisbatan ustuvorligi an'anaviydir. Ushbu o'rnatishga asoslangan o'quv tizimi harbiy xizmatchilarning o'zlariga yuklangan vazifalarni bajarishga yuqori individual tayyorgarligi, tinglovchilarning kuchli tomonlarini maksimal darajada rivojlantirish va kamchiliklarni bartaraf etish qobiliyati kabi ijobiy jihatlarga ega, deb ishoniladi. eng qobiliyatli nomzodlarni muvozanatli tanlash.

O'qitish zahiradagi ofitserlar uchun harbiy bo'lmagan tayyorgarlik kurslarida (ROTC kurslari) va quruqlikdagi qo'shinlarning ofitser nomzodlik maktablarida amalga oshiriladi. ROTC rasmiy ravishda Qo'shma Shtatlarda faqat 1916 yilda tashkil etilgan bo'lsa-da, uning kelib chiqishi 1800-yillarning boshlariga to'g'ri keladi. ROTC 1819 yilda Vermont shtatining Norvich universitetida paydo bo'lgan, keyinchalik Amerika adabiy, ilmiy va harbiy akademiyasi nomi bilan tanilgan. Ushbu universitetning asoschisi, kapitan Olden Partridge maxsus o'quv muassasasini tashkil etdi - bu harbiy o'quv dasturiga ega bo'lgan birinchi xususiy kollej edi. 1862 yilda AQSh Kongressi uni kiritgan kongressmen nomi bilan atalgan Buyuk Moril qonunini qabul qildi. Ushbu aktga ko'ra, har bir shtatdagi oliy o'quv

yurtlariga ta'lim muassasalarini qurish va barpo etish uchun 30 ming akr (12 ming gektar) er bepul ajratildi. Ushbu akt AQSh oliy ta'lim tizimining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu ta'lim muassasalari "yer grantlari kollejlari" deb nomlangan. Ularning o'ziga xos xususiyati harbiy tayyorgarlik dasturlarini o'quv jarayoniga majburiy kiritish edi. Shunday qilib, mamlakatda talabalar harbiy tayyorgarlikdan o'tishi mumkin bo'lgan oliy fuqarolik ta'lim muassasalari paydo bo'ldi. Bu keyinchalik ROTC kurslarining rivojlanishiga olib keldi. Norvich universitetini boshqaradigan kapitan Olden Partridge talabalarni fuqarolik va harbiy sohalarda ishlashga tayyorlaydigan universitet yaratish g'oyasi bilan shug'ullangan.

Vest-Poynt harbiy akademiyasining bitiruvchisi va hamraisi Partridgening mafkurasi qarama-qarshiliklarni birlashtirish uchun tabiiy turtki edi. Partridge o‘quv dasturini shunday tuzishga harakat qildiki, talabalar bir vaqtning o‘zida gumanitar fanlarni o‘rganishlari va harbiy fanlarni o‘zlashtira olishlari mumkin edi. O'sha paytda harbiy fanlarni guruhlash bo'yicha federal dastur yo'q edi, shuning uchun o'qituvchilar ularni o'z xohishlariga ko'ra tarqatdilar.

1916 yilda Prezident Vudro Vilson Milliy mudofaa to'g'risidagi qonunni imzoladi, unda ROTC rasmiy ravishda fuqarolik talabalarini mumkin bo'lgan harbiy xizmatga tayyorlash uchun davlat vositasi sifatida belgilandi. Armiya ROTC dasturlarini fuqarolik maktablariga joriy etishda kashshof bo'ldi va ko'p o'tmay, dengiz floti, havo kuchlari va dengiz piyodalari o'z dasturlarini ishlab chiqdilar.

Milliy mudofaaga ruxsat berish to'g'risidagi qonun qabul qilingandan so'ng, butun mamlakat bo'ylab ROTC kurslarida barqaror o'sish kuzatildi. Biroq, tarixda shunday davrlar bo'lganki, bu kurslarga o'tishni xohlovchilar soni kamaygan. Bunday davrlardan biri 1960-yillar bo'lib, Vetnam urushiga norozilik bildirgan ko'plab talabalar fuqarolik universitetlarida ROTC dasturlarini bekor qilish uchun harakatlar uyushtira boshladilar. 1960-1970-yillarda ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish harakati. shuningdek, ROTC tarixini o'zgartirdi va ayollarga ushbu kurslarda qatnashish huquqini berdi.

Hozirda Amerika universitetlarida ROTC kurslari rivojlanishda davom etmoqda. Kurslar qurolli kuchlar turlari bo’yicha tashkil etilgan. Quruqlikdagi qo’shinlar ofitserlari 300 ta kollej va universitetlarda saboq oladi. U erda 60 mingga yaqin kishi tahsil oladi, ularning 20 foizini ayollar tashkil etadi. Ushbu kurslarning bitiruvchilari qurolli kuchlardagi yosh ofitserlarning qariyb 70 foizini tashkil qiladi. Diplom dasturi to'rt yoki ikki yil davom etadi, ammo eng keng tarqalgan shakli to'rt yillik darajadir. Ushbu kurslar faoliyat yuritadigan universitetlar va kollejlar talabalari o'zlarining asosiy fuqarolik mutaxassisligi va bir vaqtning o'zida ROTC kurs dasturida qatnashadilar. Kurslarning maqsadi talabalarga AQSh quruqlikdagi qo’shinlarining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishga o'rgatishdir, ular talabaning shaxsiyatiga bevosita ta'sir qiladi, uni ijodiy fikrlashga, to'g'ri gapirishga va yozishga majbur qiladi. Kurslar bo'lajak ofitserni muhim qarorlar qabul qilishdan oldin vaziyatni aniq baholash nuqtai nazaridan tayyorlashga ham ta'sir qiladi, talabalarda odamlarni tushunish va ularni tartibga solish qobiliyatini rivojlantiradi. ROTCda qatnashish orqali talabalar o'z-o'zini tarbiyalash asoslarini, ofitser qiyofasini o'rganadilar va burch, or-nomus va birdamlik hissini rivojlantiradilar.

O'quv dasturi har biri ikki yillik ikki davrga bo'lingan. Dastlabki ikki yil davomida talabalar qurolli kuchlar tarixi, qurolli kuchlarni tashkil etish, ularning maqsadi va vazifalari, qurollarni o'rganish, shuningdek, o't o'chirish, jangovar va jismoniy tayyorgarlik, topografiya, va harbiy qonunchilik asoslarini o'rganishadi. Bu davrning o'ziga xos xususiyati shundaki, talabalar o'z xohishiga ko'ra istalgan vaqtda o'qishni to'xtatish huquqini saqlab qoladilar. Bundan tashqari, asosiy tayyorgarlik mashg'ulotlariga borishda harbiy kiyim kiyish va harbiy intizom talablariga qat'iy rioya qilish talab qilinmaydi.

Ushbu kurs davomida kursantlar quyidagi fanlarni o'rganadilar:

O'qishning birinchi yili:

quruqlikdagi qo'shinlarning kelib chiqishi va roli; quruqlikdagi qo'shinlarning urf-odatlari va an'analari; quruqlikdagi qo'shinlar bo'linmalari; taktika va harbiy operatsiyalar.

O'qishning ikkinchi yili:

serjantlar va ofitserlarning roli; harbiy aloqa vositalari; harbiy odob-axloq qoidalari; birinchi tibbiy yordam vositalari; urush olb borishning o'ziga xos xususiyatlari; taktika va harbiy operatsiyalar.

Mashg'ulotlarning ikkinchi davri - bu chuqurlashtirilgan tayyorgarlik deb ataladi. Unda shartnoma tuzgan yigit va qizlar ishtirok etishlari mumkin, unga ko'ra ular zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash kurslarini tamomlaydilar va qo'shinlarda (muntazam armiya yoki zaxirada) zarur muddatli harbiy xizmatni o'tashadilar. Chuqurlashtirilgan tayyorgarlikning (o'qitishni) davomiyligi 300 soat (haftasiga 5 soat). Uning dasturiga harbiy san'at asoslari, kichik bo'linmalarni qurol-yarog'i va taktikasi, aloqani tashkil etish, front orti ta'minoti xizmati, qurol-yarog' va harbiy texnika, komandirlarning huquq va majburiyatlari kabi fanlarni o'rganish kiradi. Saf tayyorgarligi va jismoniy tayyorgarlik belgilangan. Mashg'ulotlar davomida harbiy formali ust-bosh kiyish talab qilinadi. Talabalar bepul formali ust-bosh bilan ta'minlanadi. Kurslar davomida har oy uchun taxminan 500 AQSh dollari miqdorida stipendiya, o'qishni tugatgandan keyin esa formali bosh kiyim sotib olish uchun 300 dollar miqdorida to'lanadi.

Chuqurlashtirilganharbiy tayyorgarlik bo'yicha namunaviy o'quv dasturi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Uchinchi o'qish yili: qo'mondonlik va shtab ofitserlarining vazifalari, yadroviy, biokimyoviy va kimyoviy qurollar, harbiy huquq, qurol-aslshalar turlari, inson psixologiyasi, matematika, informatika, taktika va harbiy harakatlar.

To'rtinchi o'qish yili: harbiy huquq, razvedka va elektron qurollar, quruqlikdagi qo'shinlarni boshqarish, quruqlikdagi qo'shinlarni moddiy vositalar bilan ta'minlash, maxsus qurilmalarni saqlash, taktika va harbiy harakatlar.

Talabalarni chuqurlashtirilgan harbiy tayyorgarligi dasturining birinchi yilidan so'ng harbiy tayyorgarlik bazasini tashkil etuvchi o'quv markazlarida olti haftalik yozgi dala markazlarida o'taydilar. Eng yirigi bu Fort-Irvindagi (Kaliforniya shtati) milliy o'quv markazidir. O'quv jarayonini tashkil etishga umumiy rahbarlik qilish va uning borishini nazorat qilish markazning shtab va yo'riqchilar (instruktorlar)

guruhlari tomonidan amalga oshiriladi, ularning vazifalariga harbiy mashqlar senariylarini ishlab chiqish, ularni o‘tkazish va tahlil qilish kiradi.

Fort Irvindagi o'quv markazi 1970-yillarning oxirida hozir faoliyat yuritadigan shaklda yaratila boshlandi va harbiy tashkilotga tegishli bo'lgan, ikkinchi Jahon urushidan qolgan yotoqxonalar va boshqa qurilmalar joylashgan joylarda faoliyatini olib boradi. Milliy o'quv markazi loyihasini ishlab chiqishda, jangovar tayyorgarlik bo'yicha mutaxassislar Amerika Qo'shma Shtatlarining kontinental hududida joylashgan barcha quruqlikdagi qo’shinlar batalonlari, har 2-3 yilda dushmanning bo'linmalari va bo'linmalariga qarshi jangovar operatsiyalarni o'tkazish uchun tayyorgarlik, qayta tayyorlash va qobiliyatlarni sinovdan o'tkazishlari talab etiladi.

O'quv markazining umumiy maydoni 2590 km2 ni tashkil qiladi. Baland tog‘lar kichik tepaliklar va quruq daryo o‘zanlari kesib o‘tgan keng vodiylar bilan almashinadi. Tabiiy to'siqlar - tog 'tizmalari ikkita asosiy mashg'ulot maydonini ajratib turadi. Ularning o'lchamlari kengligi 6 dan 12 km gacha va uzunligi 45 km. Bu erning iqlimi keskin qishi sovuq, yozi esa issiq. Yiliga 45-150 mm yog‘in tushadi (mamlakatning eng qurg‘oqchil joylaridan biri). Hududning taxminan 75% zirhli transport vositalari uchun o'tish mumkin.

O‘quv markazida alohida amaliy mashg‘ulotlar 1981-yil oxirida, faol faoliyat ko‘rsatish 1983-yil sentabrdan boshlangan. XXI asr boshlarigacha bo‘lgan davrda, xorijiy harbiy matbuot xabarlariga ko‘ra, bu erda bugungi kunda 320 mingdan ortiq askar va ofitserlar tayyorlangan. Bugungi kunda ushbu markaz 40 dan ortiq batalonni o’tkazish quvvatiga egadir. Markazning doimiy xodimlari 2750 ga yaqin harbiy xizmatchi va 500 ga yaqin fuqarodan iborat.

O‘quv markazining texnik jihozlanishi deyarli har qanday taktik vaziyatni batafsil yaratishni ta'minlaydi. Ular Fort Irvin ma'muriy markazida o'rnatilgan zamonaviy kompyuter tarmoqlari yordamida boshqariladi. O‘quv markazi bo‘ylab joylashgan datchiklar tarmog‘i orqali kompyuter mashg‘ulotlarni kuzatish va mashqda ishtirok etayotgan 500 ta obyektga buyruqlar berish imkoniyatiga ega. Kompyuterlar yordamida transport vositasining joylashuvi, uning turi, qurollarning holati topografik xarita yoki relef rejasi fonida ko'rsatish moslamalari ekranlarida ko'rsatiladi. O’quv markaz hududi, avtomatlashtirilgan mina maydonchalari, trenajyorlar, turli nishonlarning simulyatorlari, televidenie uskunalari, qabul qiluvchi va qayd qiluvchi qurilmalar va datchiklar bilan jihozlangan bo‘lib, ular maqsadli muhit elementlarini boshqarish va mashg‘ulotlarning borishini nazorat qilishning umumiy tizimiga birlashtirilgan. Shunday qilib, Fort Irwindagi lager mashg'ulotlari ROTC talabalariga operatsiyalar teatriga to'liq yaqin bo'lgan muhitni boshdan kechirish imkonini beradi.

To‘rt yillik kurslar zaxira ofitserlarni tayyorlash ham qurolli kuchlarni ofitser kadrlar bilan to‘ldirishning asosiy manbalaridan biri bo‘lib, ayniqsa, tinchlik davrida bitiruvchilarning 40 foizdan ortig‘i muntazam qurolli kuchlar safida ofitser bo‘lmoqda.

Ikki yillik kurslar turli sabablarga ko'ra boshlang'ich tayyorgarlikni tugatmagan talabalar uchun ofitser unvonini olish imkoniyatini beradi. ROTC kurslariga ko'proq talabalarni jalb qilish uchun AQSh Mudofaa vazirligi eng katta muvaffaqiyatga

Переподготовка в военном училище (академии) Сандхерст направлена в основном на повышение квалификации в области чисто военных дисциплин и основ руководства личным составом. Как военнослужащие доброволческого (организованного) резерва слушатели курсов в ходе занятий и сборов получают соответствующее денежное содержание. Успешно окончившим учебный год выплачивается премиалное денежное вознаграждение. Офицеры ТА - выпускники курсов, зачисленные в организованный резерв, занимаются боевой подготовкой вместе со своими подразделениями по планам подготовки доброволческого резерва в предвыходные и выходные дни и в ходе ежегодных сборов продолжителностью до 45 суток. Офицеры, закончившие курсы и поступившие в регулярные войска, проходят переподготовку в соответствующих военно-учебных заведениях вооруженных сил.

Содержание подготовки различных категорий личного состава определяется соответствующими программами. Построение программ подготовки офицерского состава осуществляется по двум направлениям: общей подготовки (независимо от профиля, состава и пр.) и специализatsii (в соответствии с должностным предназначением).

Программа общей подготовки в основном сводится к изучению следующих дисциплин:

военного искусства (истории войн и военного искусства), включая, главным образом, опыт второй мировой войны и современных войн и конфликтов (на Фолклендах, на Ближнем Востоке и др.);

военной administratsii, включая organizatsiю вооруженных сил и основы военного законодателства, где упор делается на усвоение "системы воинской дисциплины" и "конкретных обязанностей офицеров в отношении подчиненных";

тактики - способов ведения боевых действий и исползования систем вооружения с учетом влияния "технологических достижений" и ядерного, химического и биологического оружия;

курса "лидерства" как основы управления и руководства личным составом, который "подкрепляется" практикой руководства и обще военными дисциплинами, главным образом, строевой подготовкой.

В программу специализatsii входит изучение: военной теории - доктрин НАТО и Великобритании, проблем военного искусства и др.; текущих политических событий в Великобритании и на международной арене; военной технологии, включая основы применения ЭВМ и программирования, особенно АСБУ, а также "технологии обучения" (informatsionной и педагогической технологии); "теории коммуникatsii" как науки о средствах и способах общения (в устной и писменной форме) и "личного воздействия" на окружающих, особенно в условиях "стрессовых ситуаций"; "инженерно-прикладных наук" (как правило, для офицеров инженерно-технического состава); гуманитарных наук (для других профилей), включая историю, иностранные языки и др.

Такое построение программ подготовки офицерского состава обеспечивает, во-первых, практическую направленност, во-вторых, достаточно высокий уровен военно-профессионалной подготовленности, причем в самых современных областях знаний. Оно отражает и педагогическую направленност подготовки командных кадров как субъектов воздействия на личный состав, его обучения и воспитания. Organizatsiя процесса военного обучения типична для подготовки и кадровых офицеров, и офицеров запаса (из организованного резерва ВС Великобритании) по основным специалностям сухопутных войск.

Аналогично построена подготовка офицеров командного профиля для ВВС и ВМС.

Служба вневойсковой подготовки ВМС существует с 1919 года. В настоящее время в СВП функционирует 392 подразделения (отряда) этой службы, в которых обучается более 22 тыс. человек, в том числе около 2 тыс. девушек. В "кадетские отряды" ВМС при школах и средних специалных заведениях принимаются учащиеся в возрасте 15-17 лет (14,5 для инженерно-технического профиля подготовки), которые имеют соответствующий уровен

подготовки по профилирующим дисциплинам и прошли медицинское обследование и собеседование в отборочной комиссии ВМС.

Обучение в кадетском отряде является первым (ознакомительным) этапом подготовки кандидата в офицеры. Выпускники "младшего" отделения курсов могут далее поступат как на университетские курсы подготовки офицерского состава, так и непосредственно в военно-морское училище Дартмут, военно-морское инженерное училище Манадон и другие ВВУЗы, готовящие кадровых офицеров ВМС.

Студенты, зачисленные на "университетские курсы", проходят подготовку или по профилям командного, инженерно-технического и административно-хозяйственного состава регулярных ВМС или по профилю офицерского состава вспомогателных сил флота (торговый флот).

Срок подготовки составляет 3-4 года в зависимости от уровня общеобразовательной и военно-профессионалной подготовленности обучаемых. При этом общая военно-морская подготовка, как правило, занимает около 12 месяцев.

Подготовка по специалности, в том числе и на получение соответствующей ученой степени, может потребоват дополнителный годичный (4-й) курс обучения в высшем гражданском или военном учебном заведении. Общая военно-морская подготовка как слушателей университетских курсов, так и школников, проводится на базе военно-морского училища Дартмут, на кораблях и в учебных центрах ВМС.

Слушатели курсов, кроме обычного денежного содержания (по ставке курсанта), имеют также такие материалные лготы, как дополнителная плата за далние морские походы, оплачиваемый проезд во время каникул, бесплатное обучение и др. Выпускники курсов, обучавшиеся по профилю подготовки офицеров вспомогателных сил флота и поступившие в торговый флот, к военной переподготовке не привлекаются, но могут отмобилизоватся в случае чрезвычайного положения или войны, как, например, в ходе англо-аргентинского конфликта или военных действий в зоне Персидского залива. Офицеры регулярных ВМС, окончившие курсы, проходят переподготовку согласно служебным предписаниям.

Служба вневойсковой подготовки ВВС была сформирована в 1925 году (при Кембриджском и Оксфордском университетах). В ее составе имеются так называемые университетские авиаэскадрили (УАЭ) - University Air Squadrons (UAS). К началу 80-х гг. СВП ВВС располагала 16 УАЭ, которые объединили курсы вневойсковой подготовки офицеров при 56 британских вузах. На базе УАЭ в среднем ежегодно обучается около 700 человек летного состава и 70- 80 человек по профилям наземных служб. Всего в службе вневойсковой подготовки ВВС, включая "кадетские отряды" школ, обучается более 40 тыс. человек. На начало 80-х гг. в составе службы насчитывалос 42 авиакрыла (экв. авиаполку), 903 эскадрили, 103 отделных звена, в которых обучалос 40792 курсанта. В командном, инструкторском и учебно-

вспомогателном составе этих подразделений (частей), включая гражданских лиц, насчитывалос 7114 чел.

Университетские авиаэскадрили базируются при летных школах ВВС или при гражданских аэропортах и исползуют их аэродромы, наземное оборудование и пр. УАЭ располагают штатом летчиков-инструкторов (около 80 чел.) и учебными самолетами (ТМК-1 "Булдог"). Каждая авиаэскадриля является самостоятелным (отделным) подразделением (частю), имеющим соответствующий штат инструкторов, инженерно-технический и административно хозяйственный состав. Командир эскадрили (началник курсов вневойсковой подготовки при базовом вузе входит в состав Комитета военной подготовки вуза и подчиняется штабу службы вневойсковой подготовки ВВС. Слушатели курсов подготовки офицерского состава для доброволческого резерва ВВС обучаются по двухгодичной программе, а для регулярных ВВС - по трехгодичной. Первые имеют статус (и соответствующее денежное содержание) рядового доброволческого резерва ВВС (VR airman), а вторые имеют должност курсанта (University Cadet) и ползуются статусом временного офицерского звания (Acting Pilot Officer - "исполняющий обязанности лейтенанта ВВС").

В программу подготовки для летного состава входит 95- часовая летная подготовка (65-часовая для резервистов). Первые самостоятелные вылеты предусматриваются в конце первого года обучения. Подготовка проводится поэтапно, с принятием зачетов по окончании каждого этапа. В конце второго года обучения проводится экзамен по началной летной подготовке. Выпускники курсов по 2-годичной программе, поступившие в доброволческий резерв ВВС, проходят переподготовку в ходе ежегодных 25-дневных сборов. Слушатели курса подготовки кадровых офицеров после сдачи экзамена по началной летной подготовке продолжают совершенствование воздушной выучки в течение третего года обучения, а после окончания вуза проходят переподготовку в военно-воздушном училище Крануэлл.

Таковы основные элементы и наиболее характерные особенности organizatsii вневойсковой подготовки командного состава для профессионалных вооруженных сил Великобритании. Важную рол в повышении результативности процесса обучения офицерского состава играет "patsionalное" распределение бюджета времени, отводимого на подготовку, и построение учебных планов. Это построение предполагает определенное соотношение различных дисциплин подготовки, что представляет собой некоторый практический интерес.

Литература:

1. Аналитико-технологические аспекты интеграtsii и взаимодействия элементов развитой системы военной подготовки / С.В.Кузминых, С.А.Синелников, С.М.Филков // Место и рол психологии и педагогики в подготовке и совершенствовании профессионализма

офицерских кадров: Сб. докл. и мат. межвузовской научно-практ. конфер. в ВУ 29-30 октября 1996 г. / Под общ. Ред. А.В.Барабанщикова, В.Н.Герасимова, П.А.Корчемного, Н.Н.Радула, С.М.Филкова. – М.: МГИМО, 1997. – Ч.II. – С.43-48.

2. Военная подготовка в системе высшего образования России: Российская государственная программа: (Проект). - М.: МЭИ, 1992.

3. Куряков В.Н., Филков С.М. Военная подготовка в учебных заведениях Великобритании // Армейский сборник. - 1994. - N1. - С.84-86.

4. Педагогические основы военной подготовки студентов в вузе / Н.Н.Ефимов, С.В.Чернеев, В.Г.Григорянц, А.В.Кузнецов. - М.: МГУ, 1986. – 312 с.

Официалные сайты сети Интернет
(http)

1. www.informika.ru
2. www.mgimo.ru
3. www.military.com

ZAXIRADAGI (REZERV) OFITSER KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Xoliqov.I.R.
Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta’lim fakulteti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda mavjud harbiy ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimining hozirgi holati. Tizimda uchrab turadigan kamchiliklar hamda tizimni takomillashtirish bo‘yicha takliflar haqida so‘z yuritiladi.

Аннотация: В данной стате рассматривается система подготовки кадров в военных учебных заведениях нашей страны. Имеющиеся недостатки а также предложения по совершенствованию системы подготовки военных кадров.

Annotation: This article examines the system of personal training in the military educational institutions of our country. The existing short comings as well as proposals for improving the system of training military personal.

Kalit so‘zlar: Harbiy kadrlar, tizim, vaziyat, jarayon, ta’minot, saviya, professor-o‘qituvchi, xavf-xatar, tahdid.

Ключевые слова: Военные кадры, система, обстановка, процесс, обеспечение, уровен, профессор-преподавател, опасност, угроза.

Key words: Military personal, system, situation, process, support, level, professor-teacher, danger, threat.

Milliy armiyamizning kuch-qudrati, azmu shijoatli va har ishda yetuk salohiyatli harbiy xizmatchilarimizning, bag‘rikeng va olijanob xalqimizning birligi va hamjihatligidadir. Bu haqiqatni bugungi kunda har qachongidan ham chuqur his etmoqdamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni
Sh.Mirziyoyev

Yangi ming yillik, nanotexnologiyalar, aqlli intellekt kabi tushunchalar bilan birga qurolli to‘qnashuv va mojarolarning gibrid turlarini ham olib keldi. XXI-asrga kelib mafkuraviy poligonlar, yadro poligonlaridan qudratli ekanligini yana bir bor guvohi bo‘layapmiz. Jahonda mafkuraviy kurashlar keskin tus olib, axborot makonida turli xavf-xatar va tahdidlar tobora ortib borayotgan hozirgi sharoitda, barchamiz doimiy ogoh va sezgir, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishimiz kerak. Bugun dunyoning olis va yaqin mintaqalarida murakkab mojaro va to‘qnashuvlar davom etayotgan bir paytda mamlakatimiz tinchligi va xavfsizligini ta’minlash dolzarb vazifalar sirasiga aylanib bormoqda.

Qo‘shni qardosh davlat, Afg‘onistonda sodir bo‘layotgan murakkab va tahlikali jarayonlar, barchamizni ogohlikka da’vat etadi. Farovon turmush tarzi, millat ravnaqi, xalqning osoyishtaligi uning mudofaa salohiyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, shu jumladan mamlakat mudofaa qudrati bilan ham hamohangdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.Mirziyov, Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 29 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigida xususan shunday deydi: **“Mudofaa qobiliyatimizni mustahkamlash, qo‘shinlarni zamonaviy qurol-yarog‘ va texnikalar bilan ta’minlash, bo‘linmalarni boshqarishda axborot texnologiyalarini keng qo‘llash, jangovar tayyorgarlik va kasbiy mahoratni oshirish – bundan keyin ham ustuvor vazifalarimiz bo‘lib qoladi”.**

Qisqa vaqt ichida, Qurolli Kuchlarimiz tizimida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi:

-harbiy qurilish sohasini tubdan isloh qilish bo‘yicha eng muhim va ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olindi;

-yangi Mudofaa doktrinasi qabul qilindi;

-harbiy tuzilmalarning tarkibi va vazifalari chuqur qayta ko‘rib chiqildi;

-qo‘shinlarni boshqarish tizimi takomillashtirildi;

-armiyamizni zamonaviy qurol-yarog‘ va texnika vositalari bilan ta’minlash bo‘yicha ishlar amalga oshirildi;

-Qurolli Kuchlar akademiyasi zamonaviy ko‘rinishda yangidan barpo etildi;

Milliy armiyamiz har qanday tahdid va xavf-xatarga qarshi munosib zarba bera oladigan, el-yurt tayanchi va suyanchiga, yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik va sadoqat ruhida tarbiyalashning muhim institutiga aylandi.

Harbiy kadrlarni tayyorlash tizimiga hukumat darajasida olohida e’tibor berilishi, armiyamiz saflarini yuqori salohiyatga ega kadrlar bilan ta’minlashni kafotlaydi.

Harbiy ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, Qurolli Kuchlarni tarkibini o‘z kasbini sevadigan, professionallik darajasiga ega, vatanparvarlik ruhida tarbiya topgan, har qanday vaziyatda Vatan uchun jonini fido qilishga tayyor vatan himoyachisini tayyorlash nazarda tutiladi.

Bo‘lg‘usi ofitserlarni tayyorlashda qo‘yilgan xato va kamchiliklar, o‘z navbatida qism va bo‘linmalardagi serjant hamda oddiy askarlar jangovar shayligiga, ularni jangovar vazilarni bajarishlariga salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish esa, harbiy bilim yurtida faoliyat olib boruvchi professor-o‘qituvchilar hamda boshqaruv organlarining professionallik darajasini oshirish orqali amalga oshirish mumkin.

Oxirgi yillarda bu borada bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, harbiy oliy ta’lim muassasalarining o‘quv moddiy bazasi yangi zamonaviy vositalar bilan ta’minlandi, o‘quv laboratoriya xonalari kerakli o‘quv jihozlar bilan jihozlandi.

Ta’lim oluvchi talabalar amaliy ko‘nikmalarni nafaqat trenajyorlarda balki yangi zamonaviy qurol – aslaha va texnika namunalarida olishga kirishdilar. Bu o‘z navbatida Qurolli Kuchlarimiz tarkibiga zamonaviy bilimlarga ega kadrlar etishtirish salohiyatiga ijobiy ta’sir etib kelmoqda.

Eng muhimi, harbiy bilim yurtlaridan yuqori metodik va jismoniy hamda saf tayyorgarligiga, bo‘ysunuvchilarni o‘qitishning turli texnikasi va uslublariga ega bo‘lgan professional-ofitser bitiruvchilarning chiqishidir.

Milliy armiyamizning tuzilishi, mamlakatimiz mustaqillikka erishishi bilan shakllana bordi. Armiyaning rivojlanishi, mamlakat iqtisodiyoti bilan bevosita bog‘liq jarayon hisoblanadi. Iqtisodiyotimiz uchun o‘tish davri hisoblangan 90-yillar armiyamizga ham bevosita ta’sirini ko‘rsatdi. Milliy armiyamiz shakllanish yillarida milliy kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Harbiy ta’lim muassasalarimiz milliy armiyamiz uchun kadrlar etishtirib berishni boshladi. Oliy harbiy ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimida bir qancha ishlar olib borilishiga qaramasdan, bugungi kunda hali ham echimini kutayotgan vazifalar bu borada mavjud.

Harbiy ta’lim muassasalarida kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagilarni taklif qilish mumkin:

Oliy harbiy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ofitserlarni tayyorlash, o‘quv jarayonini tashkil qilishda hozirgi kunda dunyoning turli nuqtalarida sodir etilayotgan qurolli to‘qnashuvlar hamda informatsion mafkuraviy tahdidlar talablarini hisobga olgan holda tashkil qilinishini;

Professor-o‘qituvchilar tomonidan kursantlarni o‘qitishda zamon talabiga mos sodda o‘qitish metodlarining qo‘llanishi;

Ta’lim tizimida zamonaviy informatsion texnologiyalarni qo‘llanishi;

Professor-o‘qituvchilar tarkibini shakllantirishda pedagogik mahorati mavjudligi, o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar asosida, o‘qituvchilikka talabgorlarni bevosita tanlov yo‘li orqali tanlab olish o‘quv jarayoni samaradorligini oshiradi;

O‘quv jarayoni uchun moddiy ta’minotni (yoqilg‘i-moylash materiallari va boshqalar) to‘la to‘kis amalga oshirish orqali;

Dasturlarga zamon talablari asosida bilim yurti professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘zgartirish kiritilishi hamda bosqichma-bosqich tayyorlash tizimiga amal qilish;

Bilim yurti professor-o‘qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirishga alohida e’tibor berish va ilmiy salohiyatni keng targ‘ib qilish, har tomonlama rag‘batlantirish;

Rivojlangan davlatlar harbiy bilim yurtlari tajribalarini o‘rganib borish va ular bilan keng hamkorlikni amalga oshirish;

Mashg‘ulotlar jarayonida talabalarga bilim oluvchi yosh shogird sifatida qaralishi, ularni o‘z fikrlarini mustaqil ravishda bayon etishlari, talabalarni bilim olishlariga motivatsiya yaratish;

Jismoniya tarbiya va sport ishlarini keng targ‘ib qilish orqali talabalarda sportga bo‘lgan qiziqishlarni ortirrish;

Bilim yurti professor-o‘qituvchilari hamda talabalarni jalb qilgan holda, yangi, hozirgi zamon talablariga mos o‘quv qo‘llanma va darsliklar yaratishni keng yo‘lga qo‘yish;

Talabalarga qo‘yiladigan kvallifikatsion talablarni qayta ko‘rib chiqish;

Harbiy ta’lim muassasasi bitiruvchi talabalari orasidan Mudofaa vazirligi tizimida kontrakt asosida xizmat qilish uchun tanlab olishni keng yo‘lga qo‘yish;

Harbiy ta’lim fakultetlari hamda Respublikamiz oliy harbiy bilim yurtlari bilan hamkorlikni keng yo‘lga qo‘yish;

Talabalar mustaqil bilim olishlariga keng imkon yaratib ularni mustaqil izlanishga qiziqtirish;

Talabalar kompetentliklarini shakllantirish;

Fannlarni o‘zlashtirishda kognitiv mustaqillikni oshirish;

Talabalarda yangi bilim olishga intilish talablarini shakllantirish;

Mashg‘ulotlar jarayonida talabalarga voqelikni to‘g‘ri tahlil qilishni o‘rgatish;

Talabalarning siyosiy jarayonlarga, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarga qiziqishlarini oshirib borish;

Mafkuraviy tahdidlar haqida keng qamrovli tushunchalar berib borish;

Kadrlar tayyorlashni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, harbiy ta’lim fakultetlarida kadrlar tayyorlashning yangi tizimini joriy qilish, malakali kadrlar tayyorlashni amalga oshirish uchun poydevor hisoblanadi.

Xulosa

Vatan himoyachisi degan sharafli kasb egasini tayyorlar ekanmiz, yosh avlodga vatanparvarlik, rostgo‘ylik, qasamyodiga sodiq qolish kabi fazilatlarni shakllantirib singdirishimiz darkor bo‘ladi. Zero Vatan himoyasi-muqaddas burchdir. Bo‘lajak vatan himoyachilarining ta’lim-tarbiyasiga e’tibor, vatan himoyasiga mustahkam poydevor qo‘yilishi demakdir. Ta’limga mas’ul har bir shaxs, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish jarayonida, har tomonlama etuk, keng qamrovli bilimga ega, o‘zgaruvchan sharoitlarda nostrandart qarorlar qabul qila oladigan, biriktirilgan bo‘linmalarni mohirona boshqara oladigan bo‘lajak vatan himoyachilariga ta’lim-tarbiya berayotganini chuqur his qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni Sh.M.Mirziyoyevning 14-yanvar Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan tabrigi;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-sonli farmoni;

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli farmoni.

4. Xoliqov, I. (2023). Harbiy ta’lim yo ‘nalishi talabalarida harbiy kompetensiya turlari. *Инноватsiонные исследования в современном мире: теория и практика*, *2*(8), 5-8.

5. Холиқов, И. Р. (2022, May). Олий таълим муассасаси талабаларида педагогик компетенцияни шакллантириш. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 248-250).

OSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA BUYUK AJDODLARIMIZNING ILMIY MEROSI

Safoyev Husen Aminovich
Buxoro Davlat Pedagogika institutiHarbiy ta’lim fakulteti Maxsus tayyorgarlik sikli boshlig‘i

Mirzaliyev Zoxidjon Rayimaliyevich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi Umumko‘shin tayyorgarligi sikli katta o‘qituvchisi, dotsent, rezervdagi podpolkovnik

Jumayev Qodir Jasur o‘g‘li
Buxoro Davlat Pedagogika instituti Harbiy ta’lim fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko‘zlangan asosiy maqsad vatanparvarlik tarbiyasiga buyuk ajdodlarimizning tarixiy namunasi, tariximizda yosh avlod tarbiyasiga berilgan e‘tibor, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda real misollarga boy tariximiz alohida o‘rin tutadi. Bizning tariximiz vatanparvarlik tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan o‘z vatani, xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini shakllantiradi hamda o‘tmish ajdodlar hayotini bilish, ularni to‘g‘ri tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqara olish imkonini beradi. Hozirgi islohotlar sharoitida yangi jamiyat fuqarosini tarbiyalash, milliy istiqlol, o‘zligini anglash tuyg‘usini har bir kishi ongiga singdirish va uning ongli e’tiqodiga aylantirish, hozirgi davr talabi darajasida bilimli, uning ma’naviy dunyosini boyitish kabi ulkan vazifalar eng dolzarb masalalardir.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, tarbiya, vatanga muhabbat va sadoqat, qahramonlik, yoshlar, harbiy – vatanparlik tarbiyasi, islohot, jamiyat, fidoiylik, muhabbat, kamolot.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek: “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”[1]. Jamiyat rivojlangani sari katta ahamiyat kasb etadigan ma’naviy qadriyatlardan biri vatanparvarlik tuyg‘usidir. Vatanparvarlik ona-yurtning, xalqning tarixi va taqdirga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo‘lida fidoiylik namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslarga xos fazilat. Vatanga, xalqga bo‘lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg‘usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o‘rin oladi, faoliyatiga ta’sir etadi.

Vatanparvarlik–bu Vatanga muhabbatdir. Muhabbatsiz yurakka esa, Vatan sig‘maydi. Vatan dardi, Vatan muhabbati bilan yashagan yurakkina insoniyatni sevadi, insoniyat uchun kuyunadi. Vatanparvarlik–bu Vatan ozodligi, ota-ona, el-yurt, jigargo‘shalar tinchligini saqlash, himoya qilish uchun jismoniy va ma’naviy tayyor bo‘lish, harbiy vatanparvarlik sir-asrorlari bilan puxta qurollanish, muayyan bilimga ega bo‘lishdir.

Ta’lim-tarbiya tizimi, harbiy va murabbiylar hayotiga o‘z-o‘zini anglashda, xalqning, millatning uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida bosib olgan murakkab yo‘liga, ajdodlarimizning ma’naviy-madaniy, ilmiy, diniy, falsafiy, ma’rifiy merosiga qarashlari va g‘oyalariga har bir kishining bevosita bog‘liqligini chuqur va atroflicha his qilishlariga ko‘maklashishi lozim. Harbiylarda milliy o‘zlikni anglash, millatga, uning tarixiga mansubligini his qilishini shakllantirish kerak.

Darhaqiqat, ona Vatan ozodligi va hurligini har narsadan a’lo bilgan mardu maydon kishilar har qanday mushkul holatlarga, murakkab, jiddiy vaziyatlarga duch kelmasinlar, oxirgi tomchi qonlari qolguncha o‘z ahdu paymonlariga, e’tiqodlariga sodiq qola biladilar.

Armiyaning kuch-qudrati, sog‘lomligi, engilmasligi harbiy xizmatchilarning e’tiqodi, jismoniy salomatligi va harbiy vatanparvarligi bilan bog‘liqdir. Amir Temur armiya tuzishda masalaning bu tomoniga katta e’tibor qaratgan: Cherik (qo‘shin, harbiy tuzilma) tuzib, navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim:

Birinchidan, yigitning kuch-quvvatiga;

Ikkinchidan, qilichni o‘ynata olishiga;

Uchinchidan, aql-zakovati-yu kamolotiga. “Temur tuzuklari” da keltirilgan jumlalar yoshlar qalbida Vatan oldidagi burchga sodiqlik, do‘st va dushmanni anglash, matonat, axloqiy va poklik singari sifatlarni shakllantirish uchun zamin yaratadi. Amir Temur siymosi vatanparvarlik, do‘stlik, yurtga sodiqlik timsoli sifatida yoshlar ko‘z o‘ngida har qachon gavdalanib turadi.

Harbiy ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan kursantlar (talabalar) harbiy vatanparvarlik tarbiyasining yana bir muhim yo‘nalishlaridan biri – bu shaxsiy tarkibni O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati, iqtisodiyot, fan, madaniyat, ijtimoiy sohada bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan tanishtirib borish va shu asnoda kursantlarda Vatanga muhabbat, iftixor, milliy g‘urur, shu Vatanning munosib farzandi bo‘lib etishishga intilish hissini shakllantirishdan ibratdir.

Mustaqillik tufayli xalqimiz o‘z tarixini va ma’naviy merosini yangidan tiklamoqda. Ma’naviy merosimiz al-Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband kabi mutafakkirlar ta’limotlari, yaqin vaqtlargacha ta’qiqlangan bir qancha urf-odatlar, rasm – rusumlar, an’analar, milliy yig‘inlarning tiklanishi hisobiga boyib bormoqda. Tariximizning har bir davri qaytadan ko‘rib chiqilmoqda, jadidchilik harakatining asl ma’nosini ochib bermoqda. Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy va boshqalarning g‘oyalari xalqimizga etkazilmoqda.

Harbiy xizmatchilarga milliy qadriyatlarning bizga maqbul bo‘lgan tomonlarini milliy ma’naviyatimiz va dunyoviy fanlardan puxta bilim berishda va milliy istiqlol mafkurasidagi asosiy g‘oyalarni singdirishda harbiy ta’lim alohida o‘rin tutadi.

Bugungi kunda milliy istiqlol g‘oyalarini harbiy xizmatchilarning ongiga etkazishning asosiy omillari mavjud:

- Vatan va millat oldidagi fuqarolik burch hamda vazifalarni bajarish;
- harbiy xizmatchilarda yuksak ma’naviyatni shakllantirish;
- ularni ma’naviy merosimizga ehtirom ruhida tarbiyalash va Vatanga sodiqlikni shakllantirish;
- harbiy xizmatchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- ularda axloqiy va estetik tarbiyani shakllantirish;
- milliy tilga hurmat-ehtiromini qozonish, bir qatorda boshqa tillarni o‘rganishning ahamiyatini tushuntirish.

Harbiy xizmatchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini ta’minlashga ko‘maklashadigan muqaddas kitob Qur’oni Karim, Hadisi Sharif, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Shayx Najmiddin Kubro, Az-Zamaxshariy, Bahouddin Naqshband singari ulamoyu fuzalolarning mo‘tabar asarlarini o‘qitish va o‘rganish kabilardir.

Bu yurt Alpomishlar yurtidir. Bugungi kunda o‘zbek kurashining halolligi, mag‘rur polvonlar kurashi ekanligiga dunyo xalqlari tan berayapti. Chingizxonga qarshi o‘z xalqi or – nomusi uchun kurashib dushmanga o‘z oilasining xor – zor bo‘lmasligi uchun mag‘rur o‘limni afzal ko‘rgan Jaloliddin, Amudaryo bo‘yida turib cho‘qqidan o‘z onasi, xotini, etti yoshli o‘g‘lini daryoga uloqtiradi, cho‘qqidan turib ot bilan o‘zini suvga tashlaydi va suvdan omon chiqib dushmanga qarshi g‘azab bilan nafratini izhor qilib “men hali qaytib kelaman” deganda, Chingizxon qoyil qolib “otadan bu dunyoda shunday o‘g‘il tug‘ilmagan, u sahroda sher kabi g‘olib jangchi, daryoda nahangday botir ekan” deya hayratga tushib, dushmanining o‘g‘liga havas qilgandi. Jaloliddin Manguberdiga bergan mazkur tasvirlar yoshlarimizda Vatan taqdiriga daxldorlik hissini shakllantirish, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, yurt tinchligi va osoyishtaligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo‘lishga undaydigan ijtimoiy, ma‘naviyaxloqiy fazilatlarni qaror toptirish, mamlakatimizning barcha sohalari uchun jonkuyar, halol, o‘z kasbiga sadoqatli va etuk shaxslar bo‘lib etishishlarida tarixiy namuna vazifasini o‘taydi. Yoshlar-Vatanimizning, millatimizning kelajagidir. Vatanimiz taqdirini ularga ishonib topshiramiz. Buning uchun ular zimmalariga yuklatilayotgan eng murakkab va mas’uliyatli vazifani butun mohiyati ila chuqur anglashlari, unga o‘zlarining hissalarini qo‘shishlari lozim.

Qadimiy ajdodlarimiz madaniy mezon qilib olgan, har bir kishidan talab qilinuvchi ijobiy xislatlar, jumladan, jasurlik, bilimdonlik, san’atshunoslik, uddaburolik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, axloq va odoblilik, do‘stlik, tejamkorlik va saranjomlik xislatlarini nishonlangan.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash mumkinki, yoshlarimizni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ajdodlar merosini o‘rganish tariximiz bilan faxrlanish uchun jiddiy asos bo‘la oladigan quyidagi o‘ziga xos omillariga ega:

- yoshlarda vatan ozodligi yo‘lida jasorat ko‘rsatgan buyuk ajdodlarimiz hamda vatanimiz mustaqilligini himoya qilish uchun jon fido etgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish;

- buyuk tariximiz, milliy urf-odat, an‘ana va qadriyatlarimizni bizning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini anglash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirish;

- yoshlarning qalbiga jonajon vatanimizni himoya qilish har bir fuqaroning muqaddas burchi ekanligi, vatanni himoya qilishga doim shay turish, yurt uchun fidoyi bo‘lish lozimligini chuqur singdirish;

- yoshlarga vatanimizning mustaqilligi, yurtimiz barqarorligi va xavfsizligini, xalqimizning tinch va osuda hayotini himoyalashda milliy armiyamizning o‘rni va ahamiyatini, jangovar salohiyatini keng tushuntirish;

- faol hayotiy pozitsiyasi va qat‘iy e‘tiqodini, vatan taqdiri uchun mas‘uliyatini kuchaytirish;

- har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish malakasiga ega bo‘lish; yoshlarning ongu shuuriga o‘z sohasining etuk mutaxassisi bo‘lishlikni, egallagan kasbiga sadoqati va fidoyiligi bilan vatan ravnaqi va yurt taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shish tushunchalarini shakllantirib borish. Bu esa yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalqimizning tarixiy turmush tarzi, an‘analari, urf-odatlarini, uning o‘ziga xos va betakror madaniyati, bunyodkorlik, ijodkorlik sifatlari, milliy san‘at turlarining ahamiyati beqiyosligidan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev,Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi / Sh.M. Mirziyoyev // Vatanparvar. - 2017. - 14.01. - S.

2. U.Ma’murov Harbiy qismda tarbiyaviy ishlar metodikasi. Toshkent. 2012 y.

3. Sh.Tilavoldiyev, ―Harbiy–vatanparvarlik tarbiyasi asoslari‖ - Darslik. Farg‘ona. 2023 y.

4. Vatan himoyasi - muqaddas burch T. Harbiy nashriyot. 2000 y.

5.S.Otamurodov va boshqalar. «Ma‘naviyat asoslari» (ma‘ruzalar matni), T.: 2002 y.

6. XOLIQOV, I. (2022). Нарбий таълим муассасаларида кадрларни тайёрлаш тизимини такомиллаштириш. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, *2*(2).

7. XOLIQOV, I. (2022). РЕЗЕРВДАГИ ВА ЗАХИРАДАГИ ОФИЦЕРЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУХИДА ТАРБИЯЛАШДА

МИЛЛИЙ ЦАХРАМОНЛАРИМИЗНИНГ УРНИ. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, *2*(2).

8. Холиқов, И. Р. (2022, May). Олий таълим муассасаси талабаларида педагогик компетенцияни шакллантириш. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 248-250).

9. Холиков, И. Р. (2022). HARBIY TA'LIM FAKULTETI TALABALARIDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYANING SHAKLLANISHI: https://doi. org/10.53885/edinres. 2022.8. 08.040 Xoliqov Ixtiyor Roziqovich, Buxoro davlat universiteti pedagogika instituti harbiy ta'lim fakulteti dotsenti https://orcid. org/0000-0002-5772-9367. *Образование и инноватsионные исследования международный научно-методический журнал*, (8), 278-283.

10. XOLIQOV, I. (2022). Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida milliy qahramonlarimizning o 'rni. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, *2*(2).

Замонавий жангларда жангчиларнинг ахлоқий-руҳий тайёргарлигига таъсир этувчи омиллар

Аминжонов Қурбон Хабибуллаевич.
Ўзбекистон Миллий университети Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази тарбиявий ва мафкуравий ишлар цикли катта ўқитувчиси, доцент, истеъфодаги полковник.

Ҳамроев Бахриддин Жумакович
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази Қуруқликдаги қўшинларни ҳаво ҳужумидан мудофаа цикли ўқитувчиси, резервдаги подполковник.

Аннотация: Мазкур мақолада тарихда бўлиб ўтган жанглар ва замонавий жангларда жангчиларнинг ахлоқий-руҳий тайёргарлигига таъсир этувчи омиллар ҳақида сўз боради.

Аннотация: В данной стате рассматриваются факторы, влияющие на боевой дух бойцов в боях, имевших место в истории и современных сражениях.

Annotation. This article discusses the factors that affect the morale of fighters in the battles that have taken place in history and modern battles.

Калит сўзлар: Антик давр, файласуф, лашкарбоши, атоқли аллома ва арбоблар, шарқона ахлоқ кодекси, ахлоқий-руҳий сифатлар, дўстлик, ёрдам, Буюк ҳарбий назариётчи, япон самурайлари, қатъий интизом, ов, (айиқ, шер, йўлбарс, сиртлон) ови, жувонмардлик, психологик, узоқ сафар усуллари, ватанпарварлик ғояси, оддий аскар, бошқага зиён етказиш, айғоқчилар, сотқинлар, тарбия, тайёргарлик.

Ключевые слова: Античный период, философ, полководец, известный учёный и деятел, кодекс восточной этики, нравственно-духовное качество, дружба, помощ, Великий военный теоретик, японские самураи, твёрдое дисциплина, охота, охота (на медведя, лва, тигр, гиена), мужество, психологический, методы далней поездки, патриотические идеи, рядовой, вредит кому то, лазутчики, предатели, воспитания, готовност.

Key words: Ancient period, philosopher, general, famous scholars and figures, Eastern code of ethics, moral qualities, friendship, help, Great military theorist, Japanese samurai, strict discipline, hunting, hunting (bear, lion, tiger, hyena), bravery, psychological, long journey methods, patriotic idea, ordinary soldier, harm to others, spies, traitors, upbringing, preparation.

Барча замонларда қўшинларни ахлоқий-руҳий ҳолатини кўтариш, шу билан бир вақтда душман шахсий таркибининг ахлоқий-руҳий ҳолатини пасайтириш масаласи муҳим ҳисобланган. Бугунги кунга келиб, ушбу омил зарурати сусайгани йўқ, аксинча, замонавий жанговар ҳаракатлар характерининг ўзгариши ҳамда одам психикасига таъсир кўрсатувчи турли хил қуролларнинг яратилиши натижасида аҳамияти кескин ошди.

Шу жиҳатдан, ҳарбий хизматчиларнинг ахлоқий-руҳий тайёргарлигини ташкил этиш муаммолари доимо ҳарбий ва ҳарбий-сиёсий раҳбариятнинг диққат марказида турар экан, улар мавжуд сабабларни турли хил йўллар ва воситалардан фойдаланиб ҳал этишга уриниб келишади.

Тарихдан маълумки, жангжиларнингахлоқий-руҳий сифатларига ҳаттоки антик давр файласуфлари ҳам қизиқишган ва унга ўз муносабатларини билдиришган. Жумладан, Демокрит, Арестотел, Платон, Плутарх, Эврипид, Фукидид ва бошқалар[1]. Айнан ахлоқий-руҳий омилдан оқилона фойдаланиш, жангни муваффақиятли ўтишини ва ғалабага эришишни белгилаб беради ва кам сонли армия ўзидан афзалликка эга бўлган қўшин устидан ғалаба қозонади-деб ҳисоблашган[2].

Масалан, Платон яхши аскар ҳаракатчан, жанговар қуролини аъло даражада ишлата олиши, жангда ғолиб бўлиши учун кураша олиши, кенг дунёқарашга эга бўлиши лозимлигини таъкидлаган. Файласуф ва лашкарбоши Ксенофонтнинг фикрига кўра, идеал жангчи идеал таълим-тарбия тизимида шаклланади.

Шунингдек, ахлоқий-руҳий тайёргарликнинг ажралмас таркибий қисми бўлган ахлоқ тушунчасини кўплаб атоқли аллома ва арбоблар Имом Бухорий, Абу Исо Муҳаммад ибн Исо Термизий, Имом Мотуридий, Бурҳониддин Марғиноний, Абулхолиқ Ғиждувоний, Баҳоуддин Нақшбанд, Муҳаммад Мусо Хоразмий, Аҳмад Фарғоний, Мирзо Улуғбек, Абу Райхон Беруний, Ибн Сино, Маҳмуд Замаҳшарий, Алишер Навоий каби буюк аждодларимиз ўрганишган ва ўз даврида комил инсон ҳақида бутун бир ахлоқий мезонлар мажмуини, замонавий тилда айтганда, шарқона ахлоқ кодексини ишлаб чиққанлар. Уларнинг нуқтаи назарларига кўра, кишининг ахлоқи маърифати ва билимдонлиги билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, инсон қанчалик маърифатли бўлса, унинг хулқи шунчалик яхши ва мукаммал ҳисобланган[3].

Хусусан, буюк мутафаккир ва қомусий олим Абу Али ибн Сино одамда ахлоқий хислатларни меҳнат, жисмоний ва ақлий тарбия билан узвий ҳолда шакллантиришни, уни инсон қилиб камол топтиришда асосий омил деб ҳисобланган[2].

Буюк ҳарбий назариётчи ва саркардалар Сун-Цзы, Н.Макиавелли, К.Клаузевиц, А.Суворов, А.Македонский, Чингизхон, Амир Темур, Жалолиддин Мангуберди, Заҳриддин Муҳаммад Бобур, Нажимиддин Қубролар ҳар доим жангчиларнинг ахлоқий-руҳий сифатлари яъни жасурлиги, ботирлиги, қаҳрамонлиги, довюраклиги, ор-номуси, содиқлиги, руҳий мустаҳкамлиги каби иродавий хислатларига диққатини қаратиб келишган[4].

Жумладан, Ўрта асрлар ва замонавий даврдаги кўпчилик таниқли давлат арбоблари, саркардалар, ҳарбий бошлиқлар жангчилар ва қўмондонларнинг юксак ахлоқий сифатларга эгалиги, ғалабага олиб келади, деб ҳисоблашган. Жумладан, Флоренциялик сиёсатчи Н.Макиавелли шундай деган "ахлоқийлик ва виждонлилик армияни қудратли қилади[5].

Шунингдек, ахлоқий-руҳий тайёргарлик муаммоларини ҳал қилишда рус саркардаси А.Суворовнинг ишлари аҳамиятга молик. У ҳарбия тарбия тизимида асосий омил жангчи-одам тушунчасини жуда тўғри қўллаган. Хусусан, у шундай дейди, "Аскар – милтиқ техникасидай оддий механизм эмас, одамдир. Билимсиз аскар билан ҳеч қандай ютуққа эришиб бўлмайди". Ташуббускорлик, фаҳмлилик, топқирлик, жангда оқилона ҳаракт қилиш, ҳар бир аскар ўз манёврини билиши, дўстлик, ўзаро ёрдам, ўзинг ўлсанг ҳам дўстингга ёрдам қил, аскар тўғрисида қайғуриш, унинг иносний қадрқимматини ҳурмат қилиш – А.Суворовнинг аскарни ахлоқий ва руҳий жиҳатдан тарбиялаш бўйича ёндашувини ташкил қилаган[6].

Ушбу йўналишда япон самурайларининг юксак ахлоқий-руҳий сифатлари эслаб ўтилмаса тўғри бўлмайди, аслида, япон жангчиларининг жанговар руҳига Бусидо (Жангчи йўли) кодекси катта таъсир кўрсатади. Унда буддизм, синоизм, Конфуций ва Мен-цзы тамойиллари бирлаштирилган. Айнан шу сабабли, Бусидо постулатларининг аксарият қисми жангда фидокорликка асослангандир. Мисол учун: "Урушда самурайнинг садоқати, агар вазифа талаб қилинган бўлса, душман ўқлари ва найзаларига боришдан қўрқмасдан, ўз ҳаётини қурбон қилишдир[2]".

Аммо, Амир Темурга ҳарбий стратегияда ахлоқий-руҳий омилдан моҳирлик билан фойдаланиш бўйича етадигани бўлмаган. Сохибқирон "Куч билан бирни, ақл ва қатъият билан мингни енгиш мумкин", деб айтган[3].

Тарихий маълумотлар шуни кўрсатмоқдаки, Темур ўзининг армиясидаги қатъий интизомни ушлаб туриш натижасида юксак ғалабаларга эришган. У жангчиларининг жанговар руҳига катта эътибор берган, қўшинлари тайёргарлиги тизимида турли хил оғир психологик ва узоқ сафар усулларини қўллаган. Шунингдек, ўз қўшинларида ахлоқий-руҳий тайёргарликни ташкиллаштиришда кураш тушиш, ов қилиш, от чоптириш, камондан отиш каби мусобақалар ва ўйинларни ҳарбий-мусиқий дасталарнинг сурнай, карнай, ноғора, довул каби мусиқий асбоблардан эртадан кечгача жангга чорлаган гумбур-гумбур овозлари ва жангчиларнинг чақириқлари остида ўтказиш усулидан фойдаланган[3].

Тарихчи Ж.Раҳимовнинг ёзишича, маълумки, подшоҳлар, саркардалар, умуман, ҳарбий хизматдаги турли даражадаги зобитларнинг тинч даврдаги жанговарлигини сақлаб туришнинг асосий машғулоти ов ташкил қилиш эди. Ҳарбийларнинг ов машғулоти оддий овчликдан тубдан фарқ қилиб, мардлик, тезкорлик, чопиб бораётган оҳу ёки бўри, сиртлон, қўйинг-чи, барча йиртқич ҳайвонларга мисоли ғанимнинг чекинаётган, қочаётган ёхуд ҳужум қилаётган лашкарий гуруҳи сифатида қаралиб, тезлик билан чопаётган от устида ёйдан нишонни аниқ олиб унга ўқ узиши, яқинлашиб бориб найза билан уриб ярадор

қилиши, ўлдириши ва ҳатто тириклайин ҳолатда бўйнига 30-40 метр масофадан арқон ташлаб, йиртқични ўлжа олиши лозим эди[2].

Айрим ҳолларда айиқ, шер, йўлбарс, сиртлон ови жангдаги ҳолатдан мутлақо фарқ қилмасди. Ҳар бир ҳарбий бошлиқ тўқай ёки чўлда ўз ҳарбий қисми билан маъсум бир йиртқичлар тўдасини ўраб оларди. Ҳудди шу ерда ўраб олинган тўда қуршовга олиниб, уларнинг ҳудудий майдони доиравий сиқувга олиниб, бирор йиртқич чиқиб кетишига йўл қўймаслик, доира тобора торайтирилиб, темир совут, дубулғалар кийилиб йиртқичлар билан баҳодирлар яккама-якка ёки гуруҳ-гуруҳ олишуви ўтказиларди. Баҳодирларга ўзи ғолиб чиққан шер, айиқ, сиртлон мукофот қилиб берилардики, бу мукофот жангчи учун энг зўр соврин ҳисобланган. Шуниси диққатга сазоворки, бу жанговар ов усулини, аввало, Чингизхон энг такомил босқичга етказди. Амир Темурнинг еттинчи бобоси қорачар нуён нисбатан қисқа вақтдаги тинчлик даврларда хоқон топшириғи билан Бош қўмондон сифатида қўшинни чўлё дашт кенгликларига олиб чиқарди. 200-300 километрли майдонда минглаб гуруҳ йиртқичлар подаси қуршаб олиниб, бир жойга тўпланган. Биринчи бўлиб олишувни жасур баҳодирлар бошлаб берган. Шер, айиқ, йўлбарс билан олишиб ғолиб чиққан баҳодир Чингизхоннинг бош совринини хоқоннинг ўз қўлидан қабул қилиб оларди[8].

Амир Темур “Машқда қийин бўлса, жангда осон бўлади” деган сўзларнинг нақадар тўғри айтилганини ўз ҳаётий фаолияти давомида исботлаб берганига, тарих гувоҳдир.

Бу борада Жалолиддин Мангуберди ва унинг устози Нажмиддин Кубро фаолиятлари алоҳида аҳамият касб этади. Хусусан, Урганчда Нажмиддин Кубро томонидан жувонмард мактабига асос солинган бўлиб, унда Кубровия тариқати асосида душманга нисбатан аёвсиз қасоскорлик, ватанпарварлик, ўлимдан қўрқмаслик ва озодлик ғоялари жангчилар (талабалар) онгига сингдирилган. Жувонмардлик – бу инсондаги энг мураккаб жараён бўлиб, у мукаммал ҳолатга етганда жанговар санъат даражасига кўтарилган[2].

Жувонмардчилар томонидан олиб борилган тарғиботларда ватанпарварлик ғояси ўлимдан устун эканлиги лашкар ва халқ онгига сингдирилиб, ўлим – бу тананинг жисмий кўринишдан маънавий-руҳий кўринишга ўтиш жараёни дея уқтирилганлиги душманга нисбатан ахлоқийруҳий устунликка эришишини таъминланган[9].

Бундан ташқари, мактабда душман руҳияти ва кайфиятига таъсир кўрсатадиган тарғибот материалларини тайёрлаш йўлга қўйилган бўлиб, улар камон ўқлари, айғоқчилар, “сотқинлар” ёрдамида душманга етказилган. Бозор пештоқлари ва кўчаларда шиорлар, мурожаатлар осилган, нотиқлар, масҳарабозларнинг чиқишлари ташкил этилган. Мазкур тарғибот компанияси натижасида Урганч аҳолиси ва лашкарларда иммунитет шаклланган бўлиб, сон жиҳатдан душманга нисбатан бир неча бор кам бўлса, унга қарши узоқ муддат жанг олиб боришини таъминланган[10].

Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти, давлат ва сиёсат арбоби Ислом Каримов ҳар бир оддий аскар ҳарбий техникани мукаммал

эгаллаши баробарида унинг қалбида, идрокида, онгида юксак маънавий, ахлоқий фазилатлар ҳам мужассам бўлиши зарурлигини алоҳида такидлаб, “Юрагида ўти бор, ориятли баҳодирларимиз бугун ортимда Ватаним бор, элюртим, ота-онам, севимли ёрим бор, деб ёвга мардона зарба беришга тайёр бўлиб тургани барчамизга куч-қувват бағишлаб, руҳимизни кўтармоқда[11]”-деган гаплари мазмунида ахлоқий-руҳий тайёргарлик орқали эришилган натижанинг идеал ҳолати тасвирланган эди.

Соҳадаги изланишлар шуни кўрсатмоқдаки, дунё армияларида ахлоқий-руҳий тайёргарлик тушунчаси бўйича ягона ёндашув мавжуд эмас. Масалан, Америка, Буюк Британия, Германия, Франция ва бошқа Ғарб мамлакатлари ўз армияларида ҳарбий хизматчиларнинг ахлоқий-руҳий сифатларини шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилган машғулотлар номларини “Сиёсий таълим”, “Жанговар руҳни шакллантириш”, “Этика тайёргарлиги” каби номлар билан аташади. Шунингдек, “Ахлоқий-руҳий ҳолат” тушунчасини “Оптимистик руҳ”, “Гуруҳнинг, одамнинг ўз руҳи ва ақлига ишонч даражаси” каби талқин қилишади.[11, 12]

Ахлоқий-руҳий тайёргарлик мазмун-моҳиятини тушуниб олишда инсонларнинг қуйидаги психологик сифатларини билиш лозим. Жумладан, соғлом одам, бошқа одамни ўлдиришга қатъиян қарши чиқади, бунга инсон психикасининг икки жиҳати таъсир кўрсатади. Биринчиси, бу когнитив, яъни ахлоқий фазилатларга бўлган ишонч, чунки бошқага зиён етказиш умуминсоний қарашларга зиддир (“мен ўлдирмаслигим керак”). Иккинчиси, бу физиологик, яъни бошқа одамни ўлдиришга бўлган ички ишончсизлик (мен ўлдиришга қодир эмасман). Баъзи кишилар улардан ҳеч бирини кучли тарзда бошидан кечирмайдилар, лекин, кўпчилик шунга моилдир. Шу сабабли, ҳарбий тайёргарлик уларни бартараф қилишга интилади[14].

Аммо, оддий тайёргарлик билан ҳарбий хизматчиларни ҳаёт учун ўта хавфли бўлган вазифаларни муваффақиятли бажаришларига эришиб бўлмайди, унинг учун ушбу қийин ва таҳликали вазиятни табиий ҳолатдагидек қилиб яратиш ва ушбу шароитларда шахсий таркибни тайёргарлигини ташкил қилиш, уларни чиниқтириш орқали эришилади[15].

Ушбу жараён ахлоқий-руҳий тайёргарлик деб номланади.

Шуни алоҳида айтиб ўтиш жоизки, ахлоқий-руҳий тайёргарликни ахлоқий тайёргарлик ва руҳий тайёргарлик, деб ажратиш нотўғри бўлади. Чунки, ҳарбий хизматчиларнинг ахлоқий-руҳий тайёргарлиги бирданига олиб борилади, яъни амалий жанговар тайёргарлик машғулотлари, мусобақалар ва бошқалар шахсий таркибни ҳам ахлоқий, ҳам руҳий жиҳатдан жангга тайёрлайди. Яъни, қийин шароитларда ҳарбий хизматчиларнинг шунгача олган тарбияси амалиётда мустаҳкамланиб, улар ахлоқий-руҳий жиҳатдан чиниқади.

Ҳуллас, тарбиявий ва мафкуравий ишлар давомида шахсий таркибнинг ахлоқий-руҳий сифатлари шаклланади ва ривожланади. Шундан сўнг, ҳарбий хизматдаги қийин шароитлар, жанговар вазиятларга яқинлаштирилган машғулотлар ва ҳақиқий жанглар давомида ҳарбий хизматчилар

ахлоқийруҳий жиҳатдан мустаҳкамланиб ва чиниқиб боради, буни ахлоқий-руҳий тайёргарлик амалга оширади. Аммо, юқорида таъкидланганидек, ахлоқий-руҳий тайёргарлик тарбиявий ва мафкуравий иш давомида амалга ошириладиган ахлоқий-руҳий тарбия билан чамбарчас боғлиқдир, уларни бирбиридан ажратиб бўлмайди, акс ҳолда самараси нолга тенг бўлади.

Ушбу тайёргарлик қўшинларни тайёрлашниниг қийин, муҳим ва энг юқори даражаси ҳисобланади.

Шулардан келиб чиққан ҳолда, шахсий таркибни ахлоқий-руҳий тайёрлашни ривожланиб бориши бўйича раштли равишда икки босқичга бўлиш мумкин (*1-расм*).



1-расм. Ҳарбий хизматчиларни ахлоқий-руҳий тайёрлашнинг босқичлари

Ахлоқий-руҳий тарбия билан ахлоқий-руҳий тайёргарликни фарқига бориш учун тарбия ва тайёргарлик тушунчаларининг фарқини билиш лозим.

Тарбия (арабчадан – ривожлантириш; парвариш қилиш, ўстириш; ўргатиш; илм бериш)

1. Таълим, ахлоқ-одоб ва ш.к.ни ўргатиб, сингдириб, инсонни вояга етказиш, улғайтириш, ўстириш.

2. Инсонда иш-ҳунар, одобахлоқ ва ш.к.ни шакллантириш, ривожлантиришга, унинг жамиятда яшаши учун керак бўлган хислатларга эга бўлишини таъминлашга қаратилган ишамаллар мажмуи[16].

Тайёргарлик 1. Тайёр ҳолга келиш, келтириш ишлари; тайёрлаш, тайёрланиш ҳаракати; ҳозирлик.

2. Тайёрлик, ҳозирлик ҳолати[17].

Демак, ахлоқий-руҳий тарбия жараённинг бошланиши бўлса, ахлоқий-руҳий тайёргарлик жараённинг ниҳояси ҳисобланади.

Ушбу фикрлардан келиб чиқиб шуни айтиш мумкинки, ахлоқий-руҳий тарбия асосан назарий, ахлоқий-руҳий тайёргарлик эса асосан амалий йўллар билан амалга оширилади.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, қачонки назария билан амалиёт чамбарчас ҳолатда олиб борилса, ўшанда унинг самараси юқори бўлади.

Умуман олганда, ахлоқий-руҳий тайёргарлик қўшинлар

тайёргарлигининг алоҳида тури ҳисобланади ва қуйидагилар билан чамбарчас ҳолатда ўтказилади:

жанговар тайёргарлик;

махсус тайёргарлик; командирлик тайёргарлик; штаб ва тактик ўқувлар; қўмондонлик-штаб машқлари;

мусобақа ва ўйинлар;

шахсий таркибга хизмат фаолиятда қонунлар, ҳарбий низомлар, буйруқ ва кўрсатмалар талабларини қатъий бажартириш.

Шунингдек, ахлоқий-руҳий тайёргарлик тизими функциялари самарадорлигини ошириш мақсадида тарбиявий ва мафкуравий ишлар олиб борилади (*2-расм*).

2-расм. Ахлоқий-руҳий тайёргарлик ўтказиладиган тайёргарлик турлари ва уни манфаатларида амалга ошириладиган иш

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда ҳулоса сифатида шуни айтиш мумкинки, барча замонларда жангчиларни юксак ахлоқий-руҳий сифатларини шакллантириш ва руҳий жиҳатдан бардошлилигини мустаҳкамлаш

масалалари доимо буюк аллома ва саркардаларнинг диққат марказида турган. Шу жиҳатдан, Ахлоқий-руҳий тайёргарлик ҳарбий хизматчиларнинг хизмат фаолиятини барча жабҳаларини қамраб олади, яъни, тарбиявий ва мафкуравий ишлар, жанговар ва командирлик тайёргарлиги, командирлик-штаб ва тактик ўқув машқлари ва мусобақалар билан чамбарчас ҳолатда командирлар (бошлиқлар), жанговар, тарбиявий ва мафкуравий ишлар органи, тиббиёт хизмати вакиллари ва бошқалар томонидан ташкиллаштирилади ва ўтказилади.

Ахлоқий-руҳий тайёргарлик замонавий жанговар ҳаракатларда ҳарбий хизматчиларнинг ахлоқий-руҳий ҳолатига таъсир кўрсатувчи омиллар инобатга олиниб ташкиллаштирилади ва ўтказилади. Уни ўзига хос жиҳати шундаки, буйруқ ва кўрсатмалар, ҳарбий низомлар билан ахлоқий-руҳий тайёргарликни ташкиллаштиришнинг барча жиҳатларини белгилаб қўйишнинг имкони йўқ. Шу туфайли, ушбу тайёргарлик асосий субъект бўлган командир (бошлиқ)дан ижодий ёдашувни талаб қилади.

Демак, **ахлоқий-руҳий тайёргарлик** – ижтимоий мавқеидан қатъий назар ҳарбий хизматчиларни, уларнинг оила-аъзоларини, ҳарбий жамоаларни, қўшин турларини ва армияни юксак ахлоқий-руҳий сифатларини яратишга ва мустаҳкамлашга қаратилган, қўмондонлар, командирлар (бошлиқлар) томонидан қонунларга, жанговар низомларга таянган ҳолда ва ижодий ёндашилиб ташкиллаштириладиган ва ўтказиладиган тадбирлар жангчиларни жанговар руҳини яратишда “Машқда қийин бўлса, жангда осон бўлади” шиори остида қўшинларни тайёргарлигини ташкил қилишган. Буюк

саркардаларнинг муваффақиятларида, ахлоқий-руҳий тайёргарликни моҳирлик билан олиб борилиши натижасида эришилган юксак ҳарбий интизом, жангчиларнинг ғоявий содиқлиги, руҳий бардошлилиги, жасурлиги, ватанпарварлиги ва армиянинг юқори жанговар руҳи каби омиллар муҳим ўрин тутади.

Шуни айтиш лозимки, ахлоқий-руҳий тайёргарлик асосан тинчлик даврида олиб борилади ва бунда ҳарбий хизматчиларни кўп машқлар қилдириш, оғир психологик усулларни қўллаш, юксак ахлоқий сифатларини тарбиялаш ва машғулотларни жанговар вазиятларга максимал даражада яқинлаштиришга эътибор қаратилади.

Ахлоқий-руҳий тайёргарлик ҳарбий хизматчиларнинг хизмат фаолиятини барча жабҳаларини қамраб олади, яъни, тарбиявий ва мафкуравий ишлар, жанговар ва командирлик тайёргарлиги, командирлик-штаб ва тактик ўқув машқлари ва мусобақалар билан чамбарчас ҳолатда командирлар (бошлиқлар), жанговар, тарбиявий ва мафкуравий ишлар органи, тиббиёт хизмати вакиллари ва бошқалар томонидан ташкиллаштирилади ва ўтказилади.

Ахлоқий-руҳий тайёргарлик замонавий жанговар ҳаракатларда ҳарбий хизматчиларнинг ахлоқий-руҳий ҳолатига таъсир кўрсатувчи омиллар инобатга олиниб ташкиллаштирилади ва ўтказилади. Уни ўзига хос жиҳати шундаки, буйруқ ва кўрсатмалар, ҳарбий низомлар билан ахлоқий-руҳий тайёргарликни ташкиллаштиришнинг барча жиҳатларини белгилаб қўйишнинг имкони йўқ. Шу туфайли, ушбу тайёргарлик асосий субъект бўлган командир (бошлиқ)дан ижодий ёдашувни талаб қилади.

Демак, **ахлоқий-руҳий тайёргарлик** – ижтимоий мавқеидан қатъий назар ҳарбий хизматчиларни, уларнинг оила-аъзоларини, ҳарбий жамоаларни, қўшин турларини ва армияни юксак ахлоқий-руҳий сифатларини яратишга ва мустаҳкамлашга қаратилган, қўмондонлар, командирлар (бошлиқлар) томонидан қонунларга, жанговар низомларга таянган ҳолда ва ижодий ёндашилиб ташкиллаштириладиган ва ўтказиладиган тадбирлар мажмуи[18].

Юқоридагилардан келиб чиқиб шуни айтиш мумкинки, барча давр ва замонларда ахлоқий-руҳий тайёргарлик армиянинг жанговар руҳини кўтариш, ҳарбий хизматчиларда ватанпарварлик, ботирлик, чидамлилик, ҳалоллик, виждонлилик каби сифатларни ҳосил қилишнинг муҳим воситаси бўлиб келган.

Шу нуқтаи назардан Ўзбекистон армиясидаги ахлоқий-руҳий тайёргарликни замон билан ҳамнафас равишда такомиллаштириб бориш йўлида, аввало, тадқиқ қилинаётган соҳадаги мавжуд вазиятни синчиклаб ўрганиб чиқиш лозим бўлади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Аристотел. Полное собрание сочинений. Книжиздат, М-1978. С. 23-25., Плутарх. Собрание сочинений. М.: 1984. С. 42-46., Платон. Собрание сочинений. М-1994. С. 256.

2. Всемирная история войн. - Минск: «Харвест», 2004. С. 352 - 359.

3. И.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият. 2008. Б. 55.

4. С.Мирзахаджаева. Фикр, ғоя ва маърифат. Маънавият, одоб-ахлоқ ва маърифат. http://fikr.uz/blog/Fikr_goya_va_marifat/manavijat-odob-ahloodob-ahlo-va-marifat.html.

5. Л.Каримова. Инсон жисмоний камолоти алломалар талқинида. 2013. http://fikr.uz/blog/buxdti/15145.html.

6. Д.Аблаев. Вопросы морально-психологического обеспечения в Вооруженных силах Республики Узбекистан. Магистрская диссертация. Т.: 2010. 90 с.

7. Н. Макиавелли Военное искусство. http://militera. lib. ru/ science/ macciaveli/ index. html.

8. А.Суворов Наука Побеждат. http://www. 100 bestbooks. ru/files/ Suvorov_Nauka_pobezhdat.pdf. Июл 2009 С.Александр. У какой армии самый высокий боевой дух?. 2014. https://svpressa.ru/post/article/89926/.

9. А.Эргашев. Нарбий санъатда ахборот-психологик қарши курашнинг ривожланишида Марказий Осиё халқларининг қўшган ҳиссаси. Докторант. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлар Академияси. Ҳарбий тархий анжуман маърузалари тўплами. Т-2019. Б. 68.

10. А.Аҳмедов. Армия – давлат таянчи, тинчлик кафолати. “Шарқ” НМАК. Т-2004. Б.

Ҳарбий кадрларни тарбиялашнинг мезонлари

Эгамов Хусан Юсупович
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети
Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази Умумқўшин тайёргарлиги цикли
ўқитувчиси, резервдаги подполковник

Муродов Акмал Джайлибаевич
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети
Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази Умумқўшин тайёргарлиги цикли
ўқитувчиси, резервдаги подполковник

Аннотация. Мазкур мақолада ҳарбий кадрларни тарбиялашнинг мезонлари ҳақида сўз боради.

Аннотация. В данной стате говорится о критериях подготовки военнослужащих.

Annotation. This article discusses the trends in the organization of food supply to the military.

Калит сўзлар: таълим-тарбия, ватанпарварлик, инсонпарварлик, меҳнатсеварлик, комил инсон, интерфаол, интерактив, садоқатли, ахлоқли, виждонли, иродали.

Ключевые слова: образование, патриотизм, гуманитарный, трудолюбивый, идеалный человек, интерактивный, интерактивный, лоялный, моралный, добросовестный, волевой.

Key words: education, patriotism, humanitarian, hardworking, perfect person, interactive, interactive, loyal, moral, conscientious, strong-willed.

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари – бу жамиятимизнинг энг муҳим ажралмас таркибий қисми бўлиб, у Республикамизнинг мустақилликка ва эркинликка эришиши натижасида юзага келди. Мустақил ватаннинг ҳимоясида, обод бўлишида, равнақ топишида, ватанпарвар ёшларимиз фаровонлигининг маънавият ва маърифат соҳасида, шахсни мунтазам камол топтириш борасида узлуксиз иш олиб бориш билан бевосита боғлиқдир. Бу тизим марказида маънавият, ахлоқ-одоб, маърифат каби ўлмас қадриятлар турмоғи керак.

Ҳарбий таълим муассасаларда ўқув ва тарбиявий-мафкуравий ишларни ташкиллаштириш ва уни тизимли равишда олиб боришга оид кўникмалар, билимлар ва қонуниятларни ўзлаштириш ҳар бир ўқитувчи ва командирлар хизмат фаолиятининг муваффақиятини таъминловчи мезонлардан биридир. Юксак касбий тайёргарликни шакллантириш соҳасида Мудофаа вазирлигида амалга ошириладиган муҳим тадбирлар қаторида ҳарбий мутахассисларнинг

янги авлодини шакллантириш, маънавий-ахлоқий жиҳатдан етук, мустақил ва ижодий фикрлай оладиган, кенг дунёқарашга ҳамда ҳаётда ўз шахсий позициясига эга бўлган, бой миллий мерос, шунингдек, умуминсоний ва миллий қадриятларга садоқатли, Ватанимиз мустақиллигини таъминлашда ўз жонини ҳам аямайдиган баркамол шахсни, ҳарбий хизматчини тарбиялаб вояга етказиш вазифалари белгиланган.

Ҳарбий таълим-тарбия соҳасидаги асосий масалалардан бири – ҳарбий-ёшларга ҳар томонлама мукаммал тарбияни бериш ва ватанпарварлик, инсонпарварлик, меҳнатсеварлик руҳида тарбиялаш – уларни комил инсон бўлиб улғайишларини таъминловчи мезонлардан биридир. Бундан ташқари, ҳарбий ёшларнинг мулоқот маданиятини тарбиялаш, уларни ўз Ватани ва халқига садоқатли, ахлоқли, виждонли ва иродали инсон бўлиб етишишларида муҳим омиллардан бири бўлиб ҳисобланади.

Ўзбекистон Куролли Кучлари ўтган тарихан қисқа даврда мураккаб шаклланиш йўлини босиб ўтди ва бугунги кунда сон жихатдан ихчам, харакатчан, замонавий талабларга жавоб берадиган, яхши тайёргарликка эга бўлган армия сифатида ўзини намоён этмокда.

Қўшинларнинг ўқув, жанговар тайёргарлиги маъно-мазмунини тубдан ўзгартириш Куролли Кучлар қўмондонлигининг устувор вазифаси ҳисобланади. Тезкор-тактик, қўмондонлик-штаб ўқув машқларини пухта режалаштириш, уларни жанговар шароитларга имкон қадар тўла яқинлаштирган ҳолда олиб бориш тизимини такомиллаштириш масалалари хам ғоят жиддий эътиборни талаб қилмокда. Ўқув машқлари давомида моделлаштириш ва симуляция усулларидан фаол ва кенг фойдаланиш, мамлакатимиз худудига суқилиб киришга уринадиган бузгунчи тўдалар, қўпорувчи-террорчи гуруҳларни бартараф этиш бўйича жанговар operatsiяларни олиб боришнинг турли модел хамда вариантларини синаб кўриш муҳим ахамиятга эга.

Ҳарбий кадрлар, биринчи навбатда, чуқур билимга эга бўлган ва замонавий фикрлайдиган, интеллектуал етук офицерларни, шунингдек, бугунги кунда армиямизнинг ўзагини ташкил этаётган юксак, профессионал малакали кичик командирлар-сержантларни тарбиялаш тизимини тубдан яхшилаш хам Куролли Кучлар қўмондонлиги фаолиятининг энг мухим йуналишларидан бири бўлиши даркор. Бу борада ҳарбий билим юртлари ва сержантлар мактабларида ҳарбий-кадрларга, ҳарбий соха ва харбий санъат ривожидаги асосий тенденцияларни акс эттирадиган, принципиал жихатдан янги мутахассислик ва илм-фан йуналишларини, жанговар харакатларни олиб боришнинг хорижий тажрибаси, замонавий шакл ва методларини хисобга олган холда ўргатиш олдимизда турган ишларнинг энг масъулиятлисидир.

Бугунги кунда ҳарбий хизматга чакирилаётган ёшлар аввалги йиллардаги муддатли ҳарбий хизматчилардан мутлако фарқ қилади. Хозирги вақтда мустақиллик йилларида туғилиб вояга етган, мамлакатимиздаги лицей ва коллежларда энг замонавий таълим-тарбия олган йигитлар армия сафларига кириб келмокда. Улар замонавий ахборот, компютер технологияларини,

хорижий тилларни пухта эгаллаган ва энг асосийси хаёт хақида ўзининг мустакил фикри ва қарашига, ахлокий-маънавий кадриятларига эга бўлган ёшлардир. Ушбу йуналишдаги ишларнинг бош мақсади Қуролли Кучларимиз сафларида хизмат қилаётган ёшларда қатъий ирода ва характер, хаётий позицияни шакллантириш, уларнинг юксак инсоний фазилатлар соҳиби ва жисмоний чиниққан бўлишларига эришиш, ўз билим ва малакасини такомиллаштириш, фан-техника янгиликларини эгаллаш, мамлакатимизда хавфсизликни таъминлаш, тинчлик ва барқарорликни химоя қилиш борасидаги ўзининг ҳарбий бурчини сидқидилдан адо этиш учун интилиб яшашга хизмат қиладиган муҳитни мустаҳкамлашдан иборат бўлиши керак.

Маълумки, бугунги кунда таълимнинг хилма-хил турларидан фойдаланилади. Ана шундай таълим турларидан бири интерфаол таълимдир.

Интерфаол ва интерактив сўзлари бир хил маънода бўлиб, интерактив сўзи инглизча “интер” – “биргаликдаги” ва “аст” – “ҳаракатланиш” сўзларидан олинган. Интерактивлик биргаликда ҳаракатланиш ёки суҳбат, диалог режимида нимадир (масалан, компютер) ёки кимдир (ўқитувчи) билан бўлиш демакдир. Бундан келиб чиқадики, интерактив таълим – аввало диалогли таълим бўлиб унинг давомида ўқитувчи ва курсант, курсант ва компютер ўзаро ҳамкорлиги амалга оширилади.

Интерфаол таълимнинг асосини интерфаол методлар асосида дарсни олиб бориш ташкил этади. Таълимнинг интерфаол методлари курсантларнинг улкан таълимий қудратидан фойдаланиш ва фаоллаштириш, ўқув жараёнига мусобақа элементларини киритиш имконини беради: таълим олувчилар гуруҳининг ақлий кучи унинг аъзолари кучи йиғиндисидан кўпроқ (яъни гуруҳ натижаси индивидуал натижалар йиғиндисидан доимо ортиқ).

Интерфаол усулда таълим берилганда таълим берувчининг роли бутунлай ўзгаради, марказда бўлишни хохламайди, жараённи бошқариб туради, керакли кўрсатмаларни бериб боради, савол жавобларни муҳокама қилишни назорати остига олиб, вақтни тақсимлаб иш кўради. Педагог олим В.А.Сухомлинский сўзи билан айтганда “Энг эхши ўқитувчи ўзининг ўқитувчилигини эсидан чиқариб қўймаслигидир”. Ўқитувчи ўзини курсантлардан «тепа» поғонада тутмасдан балки, бирга ёнма-ён туриб бутун борлиғини курсантларга бериб мулоқот қила олиши керак. Қатнашувчилар машғулот жараёнида ижтимоий тажрибаларга мурожаат қилишади, биргаликда фаолиятни амалга оширишади, умумий бир нуқтани топиб бирга ҳаракат қилишади.

Ғарбда педагогиканинг интерфаол методлари билан шуғилланадиган қисми интерактив педагогика ҳам деб аталади.

Интерактив педагогика таълим тарбиянинг ҳамма соҳаларида жорий этилмоқда. Масалан маъруза машғулотларида интерфаол методларнинг баҳс-мунозара усулидан ёки ақлий ҳужум каби фаоллантирувчи усулларидан кенг фойдаланилмоқда. Амалий машғулотларда эса тест, оғзаки, ёзма коллоквиумлар, афоризмлар муҳокамаси, фаол эксперимент, амалий ўйинлар методларидан кенг фойдаланилмоқда. Ғарб давлатларидан бизга интерактив

педагогиканинг “Қарорлар мажмуаси”, “Ажурли арра”, тренинглар, тажрибалар, тадбирлар ҳамкорлиги каби методлар кириб келди.

Хулос қилиб айтадиган бўсак ҳозирги вақтда таълим жараёнида ўқитишнинг замонавий усулларини қўллаш, ўқитиш жараёнида юқори натижаларга олиб келади. Таълим усулларини ҳар бир дарснинг дидактик вазифасидан келиб чиқиб танлаш мақсадга мувофиқ саналади. Анъанавий дарс шаклини сақлаб қолган ҳолда, уни турли-туман замонавий усуллар билан бойитиш таълим олувчиларнинг ўзлаштириш даражасини кўтарилишини таъминлайди. Бунинг учун дарс жараёни оқилона ташкил қилиниши, таълим берувчи томонидан таълим олувчиларнинг қизиқишини орттириб, уларнинг таълим жараёнида фаоллиги муттасил рағбатлантирилиб турилиши, ўқув материалини кичик-кичик бўлакларга бўлиб, уларнинг мазмунини очишда интерфаол усулларни қўллаш ва таълим олувчиларни оммавий машқларни мустақил бажаришга ундаш талаб этилади. Бу усуллар қўлланилганда таълим берувчи таълим олувчини фаол иштирок этишга чорлайди.

Ҳарбий хизматчиларнинг касбий малакасини оширишга, ҳарбий билим юртлардаги ўқув-тарбия ишларини тубдан яхшилашга, уларни замон талабидан келиб чиқиб илғор техника ва жиҳозлар, замонавий ўқув – услубий методологик қўлланмалар ва таълим технологиялари билан таъминлашга алоҳида эътибор қаратиб, курсантларнинг ғоявий, ҳарбий психологик ва интеллектуал тайёргарлик даражасига алоҳида аҳамият қаратиш зарурдир.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни, 2020 й.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги “Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида”ги 436-ИИ-сон Қонуни. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 19.04.2018 й. 03/18/476/1087сон. 24.07.2018 й. 03/18/486/1559-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 августдаги “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ҳарбий хизматчиларининг маънавий-маърифий савиясини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги ПҚ-3898-сон қарори. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 08.08.2018 й. 07/18/3898/1622-сон.
4. Ўзбекистон Республикаи Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 й. 6-сон. 70-модда.
5. Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш консепцияси”, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 23 февралдаги 140-сон қарори.

O’ZGARUVCHAN TA’LIM PARADIGMASI SHAROITIDA BO’LAJAK CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM O’QITUVCHISINING KASBIY MAHORATI MUAMMOSINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O‘RGANILISHI.

Samadov Abdulaziz Ashurovich
Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta’lim fakulteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy mahorati muammosini pedagogik-psixologik nuqtai nazardan tanqidiy o'rganishga bag'ishlangan. Unda harbiy o‘qituvchilar oldida turgan o‘ziga xos muammolar har tomonlama tahlil qilinib, ularning pedagogik mahoratini oshirish bo‘yicha tushunchalar berilgan. Maqolada samarali harbiy ta’limni shakllantirish, bu orqali bo‘lajak harbiy rahbarlarning tayyorgarligi va malakasini ta’minlashda pedagogik-psixologik tadqiqotlarning ahamiyati ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: harbiy ta'lim o'qituvchisi, kasbiy mahorat, pedagogik-psixologik asos, samarali harbiy ta’lim, ta’lim paradigmasi.

Kirish

Bugungi kunda yoshlarni harbiy yo‘nalishda bilimlarini oshirishda harbiy ta’lim o‘qituvchisining o‘rnini alohida ta’kidlash muhim. O‘zgaruvchan ta’lim paradigmasi sharoitida harbiy ta’lim o‘qituvchisining kasbiy mahoratini yuksaltirish muammosi turli jihatdan pedagogik-psixologik tadqiqotlarda ko‘rib chiqilgan. Harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy mahorati bilan bog'liq muammolarni pedagogik va psixologik tadqiqotlar ob'ekti sifatida o'rganish natijasida quyidagilarga guvoh bo‘ldik.

Harbiy ta'limdagi muammolar. Harbiy ta'lim - bu akademik va amaliy ta'limning noyob birikmasidir. Ushbu sohadagi o'qituvchilar bir nechta muammolarni hal qilishlari kerak:

a) turli xil ta'lim asoslari. Harbiy talabalar turli xil ta'limdan kelib chiqqan bo'lib, o'qituvchilar uchun moslashuvchan o'qitish usullarini qo'llash juda muhimdir.

b) stress va bosim. Harbiy muhit o'z-o'zidan stressli, talaba stressi va tashvishlarini samarali boshqara oladigan o'qituvchilarni talab qiladi.

c) maxsus o'quv rejasi. O'quv rejasi ko'pincha ixtisoslashgan va mavzu bo'yicha tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilarni talab qilishi mumkin.

d) etakchilikni rivojlantirish. Harbiy o'qituvchilar mavzu bo'yicha bilimlarga qo'shimcha ravishda etakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishlari kerak.

Pedagogik yondashuvlar. Samarali pedagogika harbiy ta'limning markaziy o'rni hisoblanadi. Tadqiqotga asoslangan pedagogik usullar yuqorida qayd etilgan muammolarga echim bo‘ladi.

a) moslashuvchan o'qitish. Turli xil talabalarning kelib chiqishiga moslashish uchun tabaqalashtirilgan ta'lim kabi yondashuvlardan foydalanish.

b) faol o'rganish. Ishtirok etishni kuchaytirish uchun simulyatsiya, amaliy tadqiqotlar va rol o'ynash kabi usullardan foydalanish.

c) tajribali o'rganish: nazariya va amaliyotni bog'lash uchun amaliy tajribadan foydalanish.

d) aralashtirilgan ta'lim: zamonaviy ta'lim uslublarini qondirish uchun an'anaviy va raqamli resurslarni birlashtirish.

Psixologik tadqiqotlarda harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini takomillashtirishning psixologik jihatlari ko‘rib chiqilgan. Bular:

a) stressni boshqarish. O'qituvchilarni o'quvchilarning stressi va tashvishlarini ong va chidamlilikni oshirish kabi usullar orqali aniqlash va boshqarishga o'rgatish.

b) motivatsiya. Harbiy talabalarni o'qishda va etakchilikni rivojlantirishda ilhomlantirish uchun motivatsion nazariyalarni qo'llash.

c) etakchilik psixologiyasi. Talabalarni etakchilikning psixologik jihatlari, jumladan, hissiy intellekt va jamoa dinamikasi bilan tanishtirish.

Harbiy ta’lim o‘qituvchisining pedagogik mahoratini takomillashtirishda ularnng doimiy kasbiy rivojlanishi nazarga tutiladi.

Mavzu bo'yicha ekspertiza. O'qituvchilarni o'z sohalarida dolzarb bo'lishga undash va fanlararo bilimlarni rivojlantirish.

b. Pedagogik tayyorgarlik. Eng yangi pedagogik texnika va texnologiyalar bo'yicha o'qitish imkoniyatini ta'minlash.

c. Psixologik savodxonlik. O'qituvchilarning harbiy ta'limga tegishli psixologik tushunchalar haqidagi tushunchalarini rivojlantirish.

d. Yetakchilik bo'yicha couching. O'qituvchilarga etakchi va namuna sifatida rivojlanishiga yordam berish uchun murabbiylik va murabbiylikni taklif qilish.

Keys tadqiqotlari va sifatli amaliyot. Bunda o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish bo'yicha pedagogik va psixologik tadqiqotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirgan harbiy ta'lim muassasalarining amaliy faoliyatlari namoyish etiladi. Misollar integratsiyalashgan texnologiyaga ega bo'lgan, moslashuvchan o'quv muhitini yaratgan yoki o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarini ishlab chiqqan muassasalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Xulosa. Harbiy ta'lim o'qituvchilari o‘quvchilarni harbiy yo‘nalishda bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning samaradorligini ta'minlash uchun pedagogik va psixologik tadqiqotlarni uyg'unlashtirish zarur. Bu esa harbiy ta’lim o‘qituvchisining kasbiy mahoratini takomillashtirishga ijobiy ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Н.Н. Ефимов. Педагогическое основы военной подготовки студентов в ВУЗе. Изд. Московского университета 1986 г.ст. 100-102.

2. A.Yu. Sotvoldiyev.«Организация и методика допризывного военного образования». Toshkent-2010 g.st. 109-121

3. УМК. Тексты лекции по предмету: “Педагогические проблемы военной и специалной подготовки” 2018. МД -5111501 2-.02.

4. Sotvoldiyev A.Yu. “Pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va ularning o‘ziga xos tomonlari” 2008.y. 23.05. 2008 y. (O‘zbekiston Respublikasi Mudofa vazirining tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarini 2008-yil 21-yanvar № 11 – sonli hamda 2009-yil 2-noyabr № 177 – sonli buyrug‘iga binoan O‘zbekiston

Respublikasi Mudofaa vazirligining Markaziy matbuot organi “Vatanparvar” gazetasida har oyda ikki marotaba umumta’lim maktablari, akademik litsey va o‘rta maxsus, kasb-hunar kollejlarining “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fani o‘qituvchilari uchun uslubiy yordam ko‘rsatish maqsadida chop etiladigan ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plamidan)

5. XOLIQOV, I. (2022). Features of creating educational and methodological materials for distance learning. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, *2*(2).

6. Xolikov, I. R. (2022). Formation of the Pedagogical Competence of Military Faculty Students. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(4), 18-20.

7. XOLIQOV, I. (2022). Bo ‘lajak o ‘qituvchining asosiy kompetentligini rivojlantirish. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, *2*(2).

8. XOLIQOV, I. (2022). The Concept of Military Pedagogical Competence and its Formation in Military Faculty Students. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, *2*(2).

9. Холиқов, И. Р. (2023). БЎЛАЖАК ОФИЦЕРЛАРДА ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ. *Наука и технологии*, *1*(2).

10. Kholikov, I. R. (2023). Competence and its Types.

O’ZGARUVCHAN TA’LIM PARADIGMASI SHAROITIDA BO’LAJAK CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM O’QITUVCHISINING HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASINING NAZARIY ASOSLARI

Samadov Abdulaziz Ashurovich.
Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta’lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikli dotsenti

Sadullayev Azimjon Baxodirovich
Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta’lim fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Vatanparvarlik ruhi va huquqiy madaniyat o’zaro uyg’un tushuncha. Ayniqsa, yoshlarning bu masalaga e’tibori, bilimi va keng dunyoqarashi nihoyatda muhim. Chunki mamlakatning istiqboli, xalqning iqboli ularning bilim-saviyasi, tarbiyasi, dunyoqarashi bilan chambarchas bog’liq. Maqolada harbiy vatanparvarlik tarbiyasining metodologik nazariy asoslari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: vatan, jamiyat, vatanparvarlik, harbiy ta’lim.

KIRISH

Vatan ravnaqiga ishonch tuyg‘usini shakllantirishning bugungi kunda ahamiyati Vatan insonning ruhiyati, turmush tarzi, ongi va tafakkuri, o`tmishi, buguni va kelajagi mujassam bo`lgan tushunchadir.Vatan ostonadan, o`zi tug`ilib o`sgan go`shadan boshlanadi.

Talaba – yoshlar harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy bilimlariga ega bo‘lishi, ularni har taraflama harbiy xizmatga tayyorlash va Mustaqil O‘zbekiston ravnaqini himoya qilish bo‘yicha o‘z burchini ado etish – o‘quv yurtlari pedagogik jamoalarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Uni muvaffaqiyatli hal etishda "Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi” fani yordam beradi. Mamlakatimiz mudofaasini mustahkamlash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish yoshlar tarbiyasi, siyosiy ongi, mehnat faoliyati va ilmiy-texnika rivojlanishi tezligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Tarbiyalash - bu insonlarni jamiyat uchun jismoniy - aqliy mehnatga yoki boshqa foydali faoliyatga yo‘naltirish, shu bilan birga ko‘p qirrali ijtimoiy vazifalarni bajarishga tayyorlashning ob’ektiv asoslangan jarayonlardan iborat. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi uning ajralmas qismi hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining metodologiyasi va ilmiy asoslari insoniyat omiliga nisbatan qo‘llaniladi. Bu tushunchaga insonning g‘oyaviy-siyosiy, ma’naviy jismoniy va boshqa fazilatlari yig‘indisi kiradi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy asoslarida O‘zbekiston Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respubikasi Prezidentining Vatanparvarlik va mustaqil Vatan himoyasi haqida g‘oyalari, Oliy Majlis qonun va qarorlari, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Halq ta’limi vazirligi, Mudofaa vazirligining buyruq va ko‘rsatmalari, harbiy pedagogika va psixologiya, harbiy fanlar va boshqa

qoida hamda me’yoriy hujjatlar o‘rin olgan. Vatanhimoyasi haqidagi asosiy hujjat davlatimizning „Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonunida aks etgan. Ushbu Qonun mudofaani tashkil etishning hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarni boshqarishning huquqiy asoslarini belgilab, mamlakat mudofaasini ta’minlashda davlat organlarining vakolatlarini, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxona, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar ishtirokini aniqlab beradi.

Xalqning tinch hayoti va mamlakat havfsizligi kafolati, mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo‘liga qadam qo‘ygan yosh mamlakat mustaqiligini kuriqlaydigan Qurolli Kuchlarimizning tarixiy vazifasi.

Vatan, erga bo‘lgan muhabbat – xalqimiz qalbiga singib ketgan, azaliy milliy xususiyatga ega bo‘lgan xislatdir. Davlatimizning asosiy vazifalaridan biri harbiy vatanparvarlik tarbiyasining metodlari va shakllari yordamida inson ongiga har qanday tajovo‘zkorliklarga qarshilik ko‘rsatishda doimiy tayyorlikni shakllantirish, o‘z Vatani himoyasi uchun shaxsiy javobgarlik hissiyoti ruhida tarbiyalashdir.

Talaba - yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasida pedagogika va psixologiya qoidalaridan keng foydalanilanish katta ahamiyat kasb etadi. Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniy aytgan: "Fan - bu dunyo boyligi. Bilim – insonning oliy va muqaddas yutug‘i. Zero bilish ko‘zgu kabi, bizga dunyoga qarashimizni, intilishlarimizni ko‘rsatadi. Qilich kabi aqlimizni, fikrimizni o‘tkirlaydi".

Ahloqiylik - avvalam bor bu vijdon, vijdoniylik hissi. Bu- ishonch va haqiqatgo‘ylikdir. Ajdodlarimiz insonni ahloqiy baholash mezonlar majmuini ishlab chiqqan, zamonaviy til bilan aytganda, "Sharqiy ahloq kodeksini” yaratgan. Inson qalbida nonni halol topmayotganlar, insofsizlik, vijdonsizlikka nisbatan qarshilik tug‘ilishi lozim. Faqat bunday inson o‘z so‘zida turadi, boshqa kimsa haqqiga ko‘z alartirmaydi, Vatani va xalqi himoyasi uchun o‘z jonini ayamaydi va aksincha, kazzob mahmadonada bo‘lib, vatanparvarlik hissi bo‘lmaydi. Har qanday yovo‘z ish, xudbinlik, yuzqoralik – Vatanga nisbatan xoinlikdir.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo‘lgan xatti-harakat qoidalari yig‘indisidir. Axloq odamlarni bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga, Vatanga, ona-yurtga bo‘lgan munosabatlarni muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo‘ladi.

Axloq – bu jamoatchilik tomonidan qabul qilingan, insonlarning jamiyatda, oilada, mehnatda, bir-birlariga munosabatda va o‘z-o‘zlariga munosabatdagi xulq – atvoriga qo‘yiladigan talablar, me’yorlar va qoidalarning yig‘indisi. Demokratik jamiyatni quruvchisi jamiyat baxt – saodati yo‘lida halol mehnat qilishi, ijtimoiy burchni yuksak darajada anglashi, ijtimoiy va shaxsiy hayotda halollik, rostgo‘ylik, axloqiy poklik, oddiylik va kamtarlik kerak, deb ta’kidlangan. Harbiy vatanparvar talaba – yoshlarlarimiz, bir yoqdan, fidokorona ta’lim – tarbiya va chuqur bilim saviyalarini oshirish bilan nimalarga qodir ekanini ko‘rsatsalar, shunigdek xulq – atvor, axloqlari, ma’naviy go‘zalliklari bilan namoyish qilishlari katta ahamiyat kasb etadi.

Ayni zamonda mehnat va ijod maydonining eng og‘ir sohalarida jonbozlik, vatanparvarlik, odamiylik fazilatini ko‘rsatib jamiyat hurmati va muhabbatining

qaynoq ilhom manbai bo‘lib qolmoqdalar. Chunki, bizning oldimizda o‘tmishning asoratlaridan ozod bo‘lgan, o‘zining mustaqil fikriga ega, o‘z millati va Vatan manfaatlari yo‘lida fidoyilik ko‘rsatishga qodir bo‘lgan barkamol vorislarni tarbiyalab etkazish vazifasi turibdi.

Harbiy vatanparvalik tarbiyasini tashkil qilish uchun tinch va jangovar vaziyatdagi harbiy xizmat sharoitlarida bilishlarning psixologik faoliyatini o‘rganuvchi harbiy psixologiya ham muhim ahamiyatga ega. Psixologik fan inson shaxsiyoti, ichki ma’naviy dunyosi, o‘zini tutish omillari, bir-biridan xususiyati, qiziqishlari bilan farqlanadigan kishilar bilan harbiy vatanparvalik tarbiyasini to‘g‘ri tashkil qilishni yaxshi tushunishga yordam beradi. Tarbiyachilarning psixologik fanni yaxshi bilishi, ularga kasbiy tanlov va yuqori sinf o‘quvchilarini harbiy o‘quv yurtlariga kirish va O‘zbekiston Respublikasi turli faoliyatdagi va Qurolli Kuchlarida hizmat qilishga tayyorlash masalalarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

XULOSA

Yoshlarning harbiy vatanparvalik tarbiyasi, shuningdek zamonaviy urush xususiyati, qurollangan jang vosita va shakllari, qonuniyligi, jangovar harakatlar sharoitlarini ochib beradigan harbiy fan bo‘lib, qoida va xuloslarini hisobga olgan holda tashkil kilinadi. Harbiy fan har bir kishi qanday ma’naviy-siyosiy, psixologik va jangovar xislatlarga ega bo‘lishi, Vatan himoyachisi majburiyatini muvaffaqiyatli bajarini uchun unga qanday bilim, ko‘nikmalar zururligi haqidagi savollarga javob beradi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi prinsiplari o‘z mohiyatiga ko‘ra ob’ektivdir. Ular haqiqiy holat, real aloqa va munasabatlari aksi, mamlakat mudofaasiga xalqni tayyorlash bo‘yicha davlat va ijtimoiy tashkilotlarni ilmiy asoslangan, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rayimov, A. A., & Karimova, G. Y. (2021). Social Aspects Of The Formation Of Social Activity In Youth. Oriental Journal of Social Sciences, 29- 32.
2. Рафикова, Д. К., & Каримова, Г. Й. (2020). Ёшларни ижтимоий фаоллигини оширишда қадриятларнинг аҳамияти. Перекрёсток культуры, 2(1).
3. Yuldashev, I. A. (2020). Pedagogical Bases Of Formation Of Social Activity In Pedagogical Sciences. Теория и практика современной науки, (5), 67-69.
4. Axatov, S. A., & Akhmatkulov, U. M. (2021). Basics of pre-conscription military training subject. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 441-447.
5. Saidov, I. M., Axmatqulov, U. M., & Abdullayev, B. T. (2020). OMMAVIY VA INTERNET AXBOROT RESURSLARINING YOSHLARDA VATANGA SODIQLIK TUYG’ULARINI SHAKLLANTIRISHDAGI BOG’LIQLIKLAR. Academic research in educational sciences, (4), 199-203.
6. Собиров, О. Ф., & Ахмадкулов, У. М. (2019). СОВРЕМЕННЫЕ ИНФОРМАТSIОННЫЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ. Мировая наука, (11), 306-308.

7. Kholikov, I. R. (2023). Competence and its Types.

8. Холиков, И. Р. (2022). HARBIY TA'LIM FAKULTETI TALABALARIDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYANING SHAKLLANISHI: https://doi. org/10.53885/edinres. 2022.8. 08.040 Xoliqov Ixtiyor Roziqovich, Buxoro davlat universiteti pedagogika instituti harbiy ta'lim fakulteti dotsenti https://orcid. org/0000-0002-5772-9367. *Образование и инноватsионные исследования международный научно-методический журнал*, (8), 278-283.

9. XOLIQOV, I. (2022). Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida pedagogik kompetensiyani shakllantirish. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, *2*(2).

10. XOLIQOV, I. (2022). Features of creating educational and methodological materials for distance learning. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, *2*(2).

YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MUAMMO VA YECHIMLAR

Alimov Mavlon Maxamatxodjayevich
O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Harbiy tayyorgarlik kafedrasi katta o’qituvchisi, podpolkovnik

Bugungi kunda dunyoda hukm surayotgan murakkab va tahlikali sharoitda mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlash, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash qanchalik muhim vazifa ekanini barchamiz yaxshi anglaymiz. Shu bois, keyingi yillarda ichki ishlar tizimini isloh qilishga ustuvor e’tibor qaratilmoqda.

Bu borada barcha hududlarimizda xavfsiz sharoit yaratish, tinchlik va osoyishtalikka qarshi tahdidlarga to’liq barham berish maqsadida ishlab chiqilgan O’zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligi konsepsiyasi hamda 2022-2025-yillarda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Vatanparvarlik – bu Vatan, xalq, oila, qavmu qarindosh oldidagi mas’uliyat, millat manfaati bilan yashash, o’z xalqining tarixini yaxshi bilish va undan g’ururlanish, buyuk ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy merosni ko’z qorachig’idek asrab-avaylab, kelgusi avlodlarga etkazish, ajdodlar, urf-odat, rasm-rusum va udumlarini, merosini o’rganib, uning qadriyatga aylangan qismini davom ettirish, davlatimiz kelajagi istiqlolning barqarorligi, kelajakning buyukligini chin dildan his etish, shunday kelajakni barpo etishga astoydil ko’maklashish, jonajon Vatanning ertangi kuni, istiqboli, taraqqiyoti, millat obro’siga hissa qo’shish, foyda keltirish, fidoyilik, halollik bilan mehnat qilish, xalqning shon-shuhrati va manfaatini o’ylash, insonparvar, xalqparvar bo’lish va shunga o’xshash yuzlab fazilatlar kabi xususiyatlarni anglatadi. Vatanparvarlik – kishilarning ona yurtiga, o’z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha bo’lib, barcha xalqlar, millatlar uchun umumiy bo’lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg’u, ma’naviy qadriyatlardan biri.

Tarixiy jihatdan kishilarning o’z vatanlari taqdiri bilan bog’liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o’zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo’lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg’ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o’tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo’ladi. Vatanni sevish, vatanparvar bo’lish, undagi bor narsalarni ardoqlab, sog’inib yashash insoniyat tabiatida mavjud bo’lgan nozik his-tuyg’udir. Vatanparvarlik tarbiyasi O’zbekiston oldida turgan zarur vazifalardan biridir. Chunki sobiq sho’ro tuzumi davrida bu haqda o’ylash ham, amalda bajarish ham mumkin emas edi. O’z kelajagini yaratayotgan O’zbekiston o’z vatanparvarlarini, o’z himoyachilarini tarbiyalab etishtirishi, o’z hududlarining daxlsizligini ta’minlashi lozim. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda turli vositalardan foydalanish lozim. Bunda ayniqsa, xalqimizning tarixi, bosib o’tgan yo’li, undagi tarixiy voqealar namuna bo’la oladi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Kontseptsiyasi – mamlakatda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat

siyosatining asosiy tamoyil va ustuvor yo'nalishlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborotkommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini hisobga olib, o'zaro hamkorlikda milliy va xalqaro-huquqiy normalarga asoslanib olib boriladi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, tinchlik va harbiy harakatlar sharoitida Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat. Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish; qadim tariximiz va madaniyatimizning buyuk namoyandalari, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan etuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash; yoshlarda yon-atrofda va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish; har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega tinglovchi va kursantlarni tarbiyalash;

O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish – bugunning talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali tinglovchi va kursantlar ongiga singdirib borish.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi uzluksiz jarayon bo'lib, u bir-biriga bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-mafkuraviy, madaniyma'rifiy tadbirlar majmuasidan iborat. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Qurolli Kuchlarning umumharbiy nizomlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq olib boriladi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari muntazam ravishda tizimli va ilmiy asosda tashkil etiladi va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimida quyidagilar ishtirok etadi:

ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga molik qadriyatlar, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan

maktabgacha ta’lim, umumiy o’rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalari;

ommaviy va harbiy-vatanparvarlik ishlarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat-notijorat tashkilotlari, shuningdek boshqa tashkilotlar.

Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy printsiplari hisoblanadi:

ilmiylik;

tarixiylik;

aniqlik va tezkorlik;

muntazamlilik;

faollik;

ta’lim va tarbiya ishlarining uyg’unligi;

tarbiya jarayonining izchilligi;

harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish.

Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jahon tarixida asrlarga borib taqaladi. Qadimgi dunyoda ham o’z manfaatlarini qurolli himoya qilish tajribasi va an’analarini yosh avlodga o’rgatish bo’yicha sa’y-harakatlar amalga oshirilgan. Qadimgi dunyo tsivilizatsiyalarining rivojlanish xususiyatlari, din, urf-odat va an’analardagi farqlar, turli etnik, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy omillar tabiiy ravishda yosh avlodni harbiy xizmatga tayyorlashga turli yondashuvlarni keltirib chiqargan. Shu bilan birga, qadimgi tsivilizatsiyalar davrida, farqlarga qaramasdan, harbiy ta’lim qat’iy ijtimoiy qoidalarga, mas’uliyatlarga ega bo’lgan va hatto mavjud mafkura va din tomonidan belgilangan me’yorlar va talablarga asoslangan. Ming yillar davomida yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi shakllanib, sayqallashdi, izchil kamol topdi. O’rta asrlarda dinning ijtimoiy hayotdagi o’rni va mavqei kuchayishi vatanparvarlik g’oyasida ham o’zgarishlarga olib kelgan. Xalqaro hamjamiyat o’rtasida obro’-e’tibori kundan-kun oshib, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurayotgan O’zbekiston uchun ham vatanparvarlik g’oyasini ishlab chiqish va tinglovchi va kursantlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Uning huquqiy asosi O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir. Konstitutsiyada shaxs-jamiyat-davlat munosabatlari qonuniy tartibga solingan.

Masalan, uning 7-moddasida xalq-davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekanligi belgilangan, ya’ni davlat hokimiyatining manbai xalq ekanligi, u xalq tomonidan tuzilishi va xalqning manfaatlariga xizmat qilishi ko’rsatilgan. Davlatning fuqarolar manfaatlariga xizmat qilishi yoshlarda hokimiyat boshqaruvini takomillashtirish va yanada rivojlantirishga rag’bat hamda mas’uliyatni yuzaga keltiradi.

Davlatimizning yuksalishi uchun fidoyilik ko’rsatish, qalbida Vatanga muhabbat tuyg’usi ildiz otgan kishilarga xos Vatanni ardoqlagan inson o’z taqdirini Vatan taqdiri bilan uyg’un ko’radi. Jamiyat va davlat yoshlarning barkamol va etuk inson bo’lib voyaga etishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishi qonun bilan

mustahkamlab qo’yilgan. Shuningdek, hozirgi kunga kelib mamlakatimiz aholisining 60 foizidan ziyodini yoshlar tashkil etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev yoshlar bilan ishlashda o’ziga hos jihatlarni hisobga olishni tavsiya etadi: «Agar biz bu masalani joy-joyiga qo’ymasak, ertaga kech bo’lishi mumkin. Nega deganda, farzandlarimiz ertaga bizga yo tashvish olib keladi, yo manfaat olib keladi. Lekin biz bolalarimizni haqiqiy vatanparvar bo’lishi, ertaga bizga elkadosh, ko’makdosh bo’lishi uchun qilayotgan ishlarimiz hali etarli emas» deya ta’kidlagan [4]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev aytganidek, «bugun zamon shiddat bilan o’zgaryapti. Bu o’zgarishlarni hammadan ham ko’proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o’z davrining talablari bilan uyg’un bo’lsin. Lekin ayni paytda o’zligini ham unutmasin».

O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo’mondoni Shavkat Mirziyoev raisligida Xavfsizlik kengashining milliy armiyamizni yanada rivojlantirish va isloh qilish masalalariga bag’ishlangan kengaytirilgan yig’ilishida, armiya moddiy jihatdan eng zamonaviy va zarur vositalar bilan ta’minlangan bo’lishi mumkinligi, lekin axloqiy jihatdan zaifligi, jangovar ruhi, Vatanga sodiqlik va muhabbat, uning taqdiri uchun mas’uliyat hissi yo’qligi yoki loqaydlikka yo’l qo’yilishi tuzatib bo’lmas oqibatlarga olib kelishi mumkinligi to’g’risida ta’kidlab o’tib, aholini, avvalo, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga jalb qilish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro’yobga chiqarish borasida bir qator topshiriqlarni belgilab berdi. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi 140-son qaroriga muvofiq yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiyasi tasdiqlandi. Ushbu kontseptsiyadan kelib chiqib, bir qator chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan.

Ushbu dasturga asoslangan holda bir qator vazifalarni belgilab olish maqsadga muvofiq deb o’ylaymiz:

umumiy o’rta ta’lim muassasalari hamda akademik litseylar, IIV Akademiyasi kursant va tinglovchilari, IIV qoshidagi litseylar va Temurbeklar maktabi o’quvchilari ishtirokida harbiy sport o’yinlarini tashkil etish;

o’quvchi-yoshlarni har yili joylardagi harbiy qismlar, ichki ishlar organlari bo’linmalari, IIV tizimidagi o’quv muassasalari, oliy harbiy ta’lim muassasalari va Temurbeklar maktablariga ekskursiyalarni muntazam tashkil etish rejasini ishlab chiqish;

boy hayotiy tajribaga ega bo’lgan IIO xodimlari va Qurolli Kuchlar faxriylari, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g’oliblikni qo’lga kiritgan IIO xodimlari hamda urush qatnashchilari, boshqa jangovar harakatlar qatnashchilari ishtirokida mahallalarda aholi va yoshlar bilan rejali ravishda uchrashuvlar va davra suhbatlarini uyushtirish;

o’sib kelayotgan yosh avlodda mardlik, jasurlik va vatanparvarlik tuyg’ularini shakllantirishga qaratilgan badiiy, hujjatli, xronikali filmlar, multimediyalar, roliklar, shuningdek turli elektron o’yinlar ishlab chiqilishini ichki dastur va rejalarga kiritish;

vatanimiz mustaqilligi yo’lida qurbon bo’lgan harbiy xizmatchilarning xotirasini abadiylashtirish, ayni vaqtda o’zining mas’uliyatli va sharafli burchini munosib ado etayotgan Vatan posbonlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish bo’yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiylik kasbi nufuzini oshirish, harbiy xizmatchilar erishayotgan yutuqlar va ularning ijtimoiy himoyasi borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlar uyushtirish. Tarbiyaga doir ikki o’git: Qobiliyat egasini tarbiya qilmaslik - zulm va noqobilni tarbiya qilish hayfdir. Avvalgisini tarbiyalamasdan, uni nobud qilma, bunisiga tarbiyangni zoye qilma [5].

Tinglovchi va kursantlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo’yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo’ladi. Shuning uchun ham fuqarolarimizda bizga mutlaqo yot bo’lgan zararli ta’sirlarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish va Vatanimiz taqdiri uchun mas’uliyat tuyg’usini mustahkamlash bo’yicha aniq chora-tadbirlarni ko’rishimiz shart. Aynan shuning uchun mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining boshqa sohalari kabi ushbu yo’nalishdagi dolzarb vazifalar hozirgi kunda ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasining «Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari»da aniq belgilab berilgan. Ta’kidlash joizki, Ichki ishlar organlari va milliy gvardiya xodimlari fuqarolar xavfsizligi va jamoat tartibini saqlash bo’yicha xizmat olib boradilar. Ularda vatanparvarlik tuyg’usini tarbiyalashda ta’lim jarayonining o’rni beqiyos, chunki unda ular kasbga oid milliy va dunyo tafakkurining eng ilg’or namunalaridan bahramand bo’ladilar. So’nggi 3-4 yil davomida o’quv jarayonini yangi sifat darajasiga olib chiqish, majmuaviy mashg’ulotlarni tashkillashtirish va sifatli o’tkazish maqsadida respublikamiz hamda huquqni muhofaza qilish va harbiy sohalarda rivojlangan chet davlatlarning turdosh harbiy ta’lim muassasalari bilan ikki tomonlama manfaatli o’zaro hamkorlik bo’yicha bir qancha shartnomalar va memorandumlar imzolandi. Xususan, amalga oshirilayotgan ishlar doirasida, ya’ni ma’ruza va boshqa auditor mashg’ulotlarga Rossiya Federatsiyasining politsiya Akademiyasi va boshqa ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari ONLINE tarzda jalb etib kelinmoqda. Shu bilan birga, Turkiya, Xitoy, Belorussiya va boshqa davlatlarning oliy harbiy ta’lim muassasalari pedagog xodimlari ham o’quv jarayoniga jalb etilmoqda. Mamlakatimizda jahonda yuz berayotgan ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, noan’anaviy tahdid va xatarlardan el-yurtimizni himoya qilishning ishonchli tizimi yaratildi. Bu tizim tahlikali vaziyatlarning oldini olish, qo’shni davlatlar bilan tinch totuv yashash, o’zaro hamkorlik muhitini yaratishga, barqarorlikni saqlash, mehr-oqibat muhitini asrashga imkon bermoqda. Biroq masalaning eng nozik jihati shundaki, hozirgi sharoitda mavjud xavf-xatarlarning mazmun-mohiyatini oldindan bilish, aniqlash mushkul. Shu o’rinda buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning fikrlariga e’tibor qaratamiz: «Dushman ko’zingga ko’rinmagani uchun undan beparvo bo’lma, chunki shamol ham ko’zga

ko’rinmasdan keladi-yu, shamni o’chiradi». Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek:

«Barchamiz bir haqiqatni chuqur tushunib, anglab olishimiz kerak: bugun gap xalqimiz, Vatanimizning taqdiri va kelajagi, jondan aziz bolalarimizning baxti va kamoli haqida bormoqda. Shunday ulug’ maqsadlar yo’lida barchamiz belimizni mahkam bog’lab ishlashimiz, bor aql – zakovatimiz, bilim va tajribamizni, jonajon Vatanimizga farzandlik mehrimiz va sadoqatimizni safarbar etishimiz kerak».

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev, Sh.M. Ichki ishlar organi xodimlari va faxriylariga tabrigi 2022 yil 25 oktyabr. Kirish rejimi: www.lex.uz. Murojaat sanasi – 27.09.2022.
2. O’zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risidagi 2021 yil 29 noyabrdagi, PF-27-son Prezident farmoni. Kirish rejimi: www.lex.uz. Murojaat sanasi – 27.09.2022.
3. Mirziyoev, Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor halq – farovon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza // Xalq so’zi, 2018.
4. Mirziyoev, Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz / Sh.M.Mirziyoev. – T., 2018. – B.91.
5. Mirziyoev, Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz / Sh.M.Mirziyoev. – T., 2018. – B.48.

KURSANTLARNING KASBIY MADANIYATIGA O'QITISHNING INNOVATSION TAMOYILLARINING TA'SIRI

(xorijiy harbiy ta’lim muassasalari tajribasi asosida)

Alimov Mavlon Maxamatxodjayevich

IIV Akademiyasi Harbiy tayyorgarlik kafedrasi katta o‘qituvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya. Xorijiy tajriba va bir qator zamonaviy ilmiy ishlarni o‘rganish asosida biz tahlil qildik, uning natijalariga ko‘ra ushbu maqolada harbiy ta‘lim muassasalari rahbariyati, ma‘lum bir davlat professor-o‘qituvchilari tarkibining xususiyatlari va qarashlari keltirilgan. Rejalashtirilgan o‘quv jarayoni davomida kursantlarning kasbiy madaniyatiga tayyorgarlikning innovatsion tamoyillarining ta‘siri to‘g‘risida.

Kalit so‘lar: mazmun, tashkil etish, metodika, tamoyillar, kursantir, tayyorgarlik, tizim, o‘quv jarayoni, ilmiy xarakter, jangovar vaziyat, modellashtirish, bilim va ko‘nikmalar.

Аннотация. На основе исследования зарубежного опыта и ряда современных научных трудов, нами проведен анализ, по результатам которого, в данной стате представлены особенности и взгляды руководства военно-образовательных учреждений, профессорско-преподавателского состава данного государства на влияние инновационных принципов обучения на профессионалную культуру курсантов в ходе планового учебного процесса.

Ключевые слова: содержание, организация, методика, принципы, требования, обучение, подготовка, система, учебный процесс, научност, боевая обстановка, моделирование, знания, навыки.

Annotation. Based on a study of foreign experience and a number of modern scientific works, we carried out an analysis, based on the results of which, this article presents the features and views of the leadership of military educational institutions, the teaching staff of a given state on the influence of innovative principles of training on the professional culture of cadets during the planned educational process.

Keywords: content, organization, methodology, principles, requirements, training, preparation, system, educational process, scientific character, combat situation, modeling, knowledge, skills.

Rossiya Federatsiyasi harbiy ta'lim muassasalarida (RF OTM) kursantlarning kasbiy madaniyati darajasiga o'quv jarayonining ta'siri o'qitishning asosiy tamoyillari tizimi bilan belgilanadi. Asosiylari quyidagilar: o‘qitishga ilmiy yondashuv; mutaxassislarni tinchlik va urush davrida kasbiy faoliyatda talab qilinadigan narsalarni tayyorlash; o‘rganuvchilarning ongi, faolligi va mustaqilligi; treningning ko'rinishi; o'qitishda tizimli, izchil va har tomonlama; yuqori qiyinchilik darajasida o'rganish; bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish kuchi; kollektivizm va o'rganishga individual yondashuv.

Annotation: This article covers thoughts on the formation of a sense of patriotism in the Republic of Uzbekistan in improving the preparation of young people for the protection of the motherland, in which they put on the agenda the tasks of developing a new system of raising patriotic qualities in them in the educational and educational process carried out with young people. The head of the country summarized historical traditions and experiences of foreign countries in this process and made recommendations on the basis of modern science, such as the formation of patriotic organizations of children and adolescents in our country.

Kalit so‘zlar: Mamlakat, vatanparvarlik, ta’lim-tarbiya, yoshlar, his-tuyg‘u, harbiy, sport, jamiyat, ahloqiy-ruhiy tayyorgarlik, hafsizlik.

Ключевые слова: Страна, патриотизм, воспитание, молодеж, эмоции, военные, спорт, общество, морално-психологическая подготовка, отчаяние.

Key words: Country, patriotism, education, youth, emotion, military, Sports, Society, moral-spiritual training, disillusionment.

O‘zbekiston Respublikasida Vatanparvarlik insonning fuqaro hamda muayyan jamiyat bosqichining o‘ziga xos xususiyatlari nafaqat pedagoglar, balki keng jamoatchilik orasida tarbiya muammolariga qiziqishning sezilarli o‘sishi hisoblanadi. Mamlakat hayotida ko‘pgina vazifalarning hal etilishi yosh avlodda fuqarolik his-tuyg‘usini shakllanganligi darajasiga, ma’naviy-axloqiy takomillashtirish ehtiyojiga, o‘z Vatanining tarixiy-madaniy merosiga hurmat

hissiga bog‘liqligi ma’lum bo‘lmoqda. Shuning uchun ham Vatan himoyasida, avvalo, inson omili etakchi o‘rinda turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlarida ma’naviy-ma’rifiy tarbiya o‘ta muhim, nozik va hal qiluvchi masala ekanligini ta’kidlab, bugungi yoshlar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonida ulardagi vatanparvarlik sifatlarini voyaga etkazishning yangicha tizimini ishlab chiqish vazifalarini kun tartibiga qo‘ydilar. Yurtboshimiz bu jarayonda tarixiy an’analar hamda xorijiy mamlakatlar tajribalari umumlashtirib, zamonaviy ilmiy asosda yurtimizda bolalar va o‘smirlarning vatanparvarlik tashkilotlarini tuzish kabi tavsiyalarni berdi.

Mamlakatimiz sarhadlarini himoya qilishda yoshlarimizni harbiy hayotga tayyorlash borasida jismoniy tarbiya bilan bog‘liq tadbirlarda ishtirok etishida qog‘ozbozlik, yuzakilik va sustkashlikka yo‘l qo‘yish katta xato ekanligi ta’kidlandi, shuning uchun talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish hamda vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha yangicha metodologiyani ishlab chiqish bugungi ilmiy tadqiqotlarning bosh maqsadiga aylanib turibdi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi ta’limi sohasida «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida belgilangan vazifalarning to‘laqonli amalga oshirishga erishish ham yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg‘ularini va fidoyilik xususiyatini shakllantirishda muhim omil bo‘ladi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda yoshlarda harbiy-vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish va ijtimoiy maydonga vatanparvarlikni targ‘ib qilishning samarali mexanizmlari ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi, bu borada texnik va texnologik vositalarning imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Yoshlarda fuqarolik tushunchasi, ularning mas’uliyatini shakllantirish maqsadida turli harbiy-sport o‘yinlari va musobaqalari hamda turli ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilmoqda. «Mustaqillik», «Amir Temur», «Jaloliddin Manguberdi» ordenlari, «Jasorat», «Sodiq xizmatlari uchun», «Mardlik» medallari ta’sis etildi. Ayniqsa, yoshlarda harbiy vatanparvarlik hissini shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Harbiy akademik litseylarga «Temurbeklar maktabi» nomi berilishi fikrimizning yorqin dalilidir. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning beshta ustuvor yo‘nalishlaridan biri «Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat» qilib belgilanganligi harbiy vatanparvarlikni chinakam e’tiqodga aylantirish bilan bog‘liq ilmiy muammolarni tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Vatanparvarlik ijtimoiy ongini alohida shaxslarning va ijtimoiy guruhlarning, mazkur miqdor tavsifidan boshqa hech qanday o‘z sifatlariga ega bo‘lmagan individual ongi majmui sifatida tasavvur qilib bo‘lmaydi. Vatanparvarlik alohida insonlarning ma’naviy ongining majmuidan iborat deb hisoblash xato bo‘lar edi. Vatanparvarlik – ma’naviy-amaliy hodisa va shaxslar tomonidan yuzaga

keltiriladigan jamiyatning vatanparvarlik ongi bilangina cheklanmaydi, ammo bunda etarli mustaqillikni saqlashini ta’kidlab o‘tish lozim. Vatanparvarlik ongining mazkur shakllaridan har biri – ijtimoiy va individual – boshqasini nazarda tutadi va usiz mavjud bo‘la olmaydi, ularning o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro singishi ularning ajralmas umumiyligini anglatadi. Bularning barchasi milliy ongga ham xosdir. Yuqorida keltirilgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi mohiyatiga tayanib, u o‘zining belgilangan chegaralari, sifatli tavsiflariga egaligi ta’kidlaymiz. Bu uning o‘ziga xos xususiyatlari, maqsadlari, vazifalari, yo‘nalishlari va vositalarini ajratishga imkon beradi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jamiyatga nisbatan o‘zining yo‘nalganligi bo‘yicha o‘zining asosiy ijtimoiy vazifasini bajaradi, ya’ni inson omilining mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga faol, maqsadga yo‘nalgan ta’sir etadi.

Ijtimoiy nuqtayi nazaridan, ko‘rinib turganidek, biz tadqiq etayotgan tizimning tarbiyaviy vazifalari to‘g‘risida aytish mumkin. Ularga bizningcha, **birinchidan**, harbiy-siyosiy yo‘nalganlik va vatanparvarlik dunyoqarashini shakllantirishni kiritish kerak bo‘lib, uni amalga oshirish jarayonida insonlarda, yosh avlodda vatanparvarlik hissi, mamlakatning va Qurolli kuchlarning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda har bir insonning o‘z ijtimoiy rolini chuqur tushunishi, bu rolni fuqarolik va harbiy burchi sifatida anglash shakllanadi.

Ikkinchidan, bu insonning, ayniqsa yoshlarning harbiy mehnatga, o‘z Vatanini himoyalashga tayyorgarligini shakllantirish, harbiy xizmat ijtimoiy ahamiyatining chuqur anglash, Qurolli kuchlarga muhabbat, qiyinchiliklarga ma’naviy-psixologik immunitetni, harbiy faoliyatning favqulodda vaziyatlarida shaxs xulqining barqarorligini shakllantirish vazifasi.

Uchinchidan, Vatanni qurolli himoya qilishda katta avlodning ijtimoiy tajribasining uzviyligini ta’minlashdan iborat bo‘lgan kommunikativ vazifani ta’kidlash lozim.

To‘rtinchidan, Vatanni himoya qilish uchun zarur bo‘lgan axloqiy sifatlarni shakllantirishning muhim vazifasi, uning yordamida qahramonlik-axloqiy ma’naviy ideallar yuzaga keladi.

1-Rasm. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida uchta asosiy yo‘nalishlar.

Qahramonlik-vatanparvarlik tarbiyasi ajdodlarning jasoratlari uchun faxr-iftixor hissini tarbiyalashni targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan.

Milliy-vatanparvarlik tarbiyasi o‘zining kichik Vataniga muhabbat hissini, milliy an’analar va madaniyatga hurmatli munosabatni shakllantiradi, o‘z xalqi uchun faxr hissini uyg‘otadi.

Fuqarolik tarbiyasi – bu huquqiy madaniyatni, aniq fuqarolik vaziyatini, o‘z xalqiga ongli va ixtiyoriy xizmat qilishga tayyorlikni shakllantirishdir. Fuqarolik tarbiyasi insonning sifatlari, integrativ xususiyatdagi xususiyatlar majmuini ifodalovchi fuqarolik kabi ta’rif bilan tavsiflanadi. Insonning sifatlari, integrativ xususiyatdagi xususiyatlar majmuiga vatanparvarlik, insonparvarlik axloqiy qadriyatlarga yo‘nalganlik, ijtimoiy va kasbiy o‘zini-o‘zi aniqlash zarurati, qadr-qimmat hissi, ijtimoiy adolat va javobgarlik, umuminsoniy birdamlik, fikr erkinligi, shaxslararo va millatlararo muloqot madaniyati va boshqalar kiritaladi.

Fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarga amalda barcha zarur huquqlarni ta’minlashga xizmat qiluvchi davlat va yoshlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, mavjud huquqiy bazaga asoslanadi.

Bu yo‘nalishdagi va zamonaviy sharoitlardagi ishlar davlat me’yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish zarurati bilan bog‘liq.

Afsuski, qonunlarning yoshlarning manfaatlariga taalluqli bo‘lgan alohida qoidalari amalda bajarilmaydi.

Sotsiologlar fikriga ko‘ra, fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi, agar 80% yoshlarni davlatdagi qabul qilingan qonunlar qoniqtirishi sharoitida mumkin bo‘ladi.

Vatanparvarlik tarbiyasi tizimini yanada batafsil o‘rganish va takomillashtirish uchun sharoitlar obyektiv mavjud bo‘lib, ular quyidagi omillar bilan bog‘liq.

Shu jumladan, XX asrning 90-yillari oxirida harbiy-vatanparvarlik ishlarining keskin pasayishi, sobiq Sovet Ittifoqining emirilishi va jamiyatda armiyaning obro‘-e’tiborining pasayishi oqibatida harbiy xizmatni o‘tashni xohlamaydiganlar sonining o‘sishi va chaqiruv tarkibining sifati yomonlashishiga olib keldi.

Respublikamizda vatanparvarlik mohiyati, mazmuni, tuzilmasi va yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorgarligi, uning mamlakat mudofaa qobiliyatini ta’minlashda tarbiya tizimidagi roli va o‘rnini chuqur va har tomonlama tahlil qilish zarurati yuzaga keldi.

Zamonaviy yoshlar vatanparvarligining ulkan imkoniyatlari va uni zamonaviy ijtimoiy hayot sharoitlarida samarasio‘ amalga oshirilishi o‘rtasidagi ziddiyatlar kuchaydi.

Jamiyatdagi islohotlar va Qurolli kuchlarni isloh qilish davomida fuqarolarning ongida armiyaga nisbatan ijobiy o‘zgarishlar paydo bo‘ldi. XXI asr boshida davlat Qurolli kuchlarga ko‘proq e’tibor qaratdi, ommaviy axborot vositalari esa – ularga obyektiv munosabatda bo‘la boshladi va oqibatda yoshlarning vatanparvarlik ongining o‘sishiga olib keldi.

Zamonaviy yoshlarda ularning xususiyatlari va manfaatlarini, jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni inobatga olib, vatanparvarlikni tarbiyalash bo‘yicha faoliyatni yaxshilash zarur. Shuning uchun bugun zamonaviy hayot voqeligidan kelib chiqib, yoshlarning turli toifalarida Vatan himoyasiga tayyorlikni tarbiyalash prinsiplari, metodlari, shakllari, vositalari asosida tuzilgan vatanparvarlik tarbiyasining yangi tizimini qurish va amalga oshirish kerak.

Xulosa: Vatan himoyasiga tayyorgarlikni oshirish, ayniqsa zamonaviy sharoitlarda yosh avlod bilan amalga oshiriladigan katta ishlarni nazarda tutishini

anglatadi. Bu obyektiv amal qiluvchi– ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, harbiy-texnik omillarning mavjudligi bilan tasdiqlanadi. Shubhasiz, yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik ishlarini kuchaytirish bo‘yicha faoliyat bugungi kunda mahalliy, hududiy xususiyatlarni, shuningdek foydalaniladigan kuchlar va vositalarni avvalgidan ko‘ra ko‘proq inobatga olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B.452.

2. «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent, O‘zbekiston, 23.09.2020. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.05.2018 y., 06/18/5430/1164-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. –Toshkent: O‘zbekiston, 463-I-son 29.08.1997.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).

5. Vatan himoyasi – milliy iftixor. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Respublika Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni I.A.Karimov asarlaridan olingan harbiy vatanparvarlikka doir hikmatli fikrlar majmuasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 6 b.

6. Холиқов, И. Р. (2022, May). Олий таълим муассасаси талабаларида педагогик компетенцияни шакллантириш. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 248-250).

7. Холиков, И. (2020). ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БОБУР ВАТАНПАРВАР САРКАРДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАТЦИЙ (buxdu. uz), 2*(2).

8. XOLIQOV, I. (2022). THE IMPORTANCE OF ARTISTIC LITERATURE IN THE MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION OF YOUTH. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, *2*(2).

9. XOLIQOV, I. (2022). Ҳарбий таълим муассасаларида кадрларни тайёрлаш тизимини такомиллаштириш. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 2*(2).

10. Roziqovich, X. I., & O’tkirjonovich, E. U. (2023). HARBIY TA’LIM FAKULTETI TALABALARIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH USULLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, *3*(3), 38-41.

HARBIY TAYYORGARLIK O‘QUV BO‘LINMALARIDA TAXSIL OLAYOTGAN YOSHLARDA VATANPARVARLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI

Rayimov Gayrat Raxmatillaevich

O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy aviatsiya instetuti aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash va malakasini oshirish fakulteti boshlig‘i podpolkovnik

Yoshlarda vatanparvarlik ko‘nikmalarini shakllantirish sohasida dunyo davlatlari ko‘pgina innovatsion loyihalarni ilgari surmoqdalar.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida neokonservatizm mafkurasi rivoji davomida uning asosiy g‘oyalari shakllantirildi. Xususan, birinchidan, vatanparvarlik masalasiga katta e’tibor qaratilib, uning tabiiy va sog‘lom tuyg‘u ekanligi hamda u xususiy va jamoat institutlari tomonidan faol qo‘llab-quvvatlanishi va targ‘ib etilishi lozimligi ta’kidlanadi. Ikkinchidan, siyosiy globallashuvga qaratilgan global hokimiyat global jaholatga olib kelishi borasidagi barqaror qarash shakllantirildi. Global hokimiyat tashkil etishga qaratilgan xalqaro institutlarga dargumonlik bilan qarash tamoyili neokonservatizm siyosiy doktrinasining asosiy ustunlaridan biri sifatida qaror topdi. Uchinchidan, davlat arboblari, ya’ni siyosiy elita birinchi navbatda do‘stni dushmandan farqlay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerakligini tushintirish orqali, bir tomondan siyosiy boshqaruvning elitar tamoyili ustuvorligi tak’idlanayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan esa, davlat boshqaruvi bilan bog‘liq faoliyat ommaga mo‘ljallanmaganligi asoslanadi. Neokonservatizm mafkurasi g‘oyalarida vatanparvarlik va qurolli kuchlarni yanada rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Bir qarashda barcha davlatlar uchun meyo’riy holatdek tuyulsada, ammo, neokonservatizmda mazkur omillardan asosan global gegemonlik maqsadlarini amalga oshirishda foydalanish ko‘zda tutiladi. Bu esa dunyoda o‘zaro adovat, boshqa davlarning ichki ishlariga aralashish hamda harbiy mojarolarning kelib chiqishiga olib kelmoqda. Neokonservatizm g‘oyaviy asoschilaridan biri Leo Shtraus neokonservatizmning asosiy tamoyillaridan biri – harbiy kuchdan muammolarni hal qilishning asosiy vositasi sifatida foydalanish zaruratini asoslagan edi. Keyingi davrlarda ham uning qarashlari zamonaviy neokonservativlar tomonidan meros qilib olindi.

XXI asr boshlarida demokratik davlatlar bir birlari bilan urushmaydi, degan tamoyil qanchalik jozibador bo‘lmasin, mas’uliyatsizlik, beparvolik, harbiy qudratni oshirishga e’tiborning kamayishi kabi holatlar ham kuzatildi. Ammo, neokonservatorlar fikricha, demokratiyaning xavfsiz mavjudligining yagona echimi – bu uning harbiy kuch-qudrati, ustunligidir. Shu bilan birga, tanqidlarning asosli ekanligi shundaki, yosh neokonservatorlar tomonidan zarur vaziyatlarda harbiy jihatdan yordam ko‘rsatish g‘oyalari ham ilgari surilgan. Xususan, R.Kaganning “demokratiya murosaga kelib bo‘lmaydigan yo‘sinda targ‘ib qilinmasligi lozim. Faqatgina zarurat taqozo etsagina murosasizlik bo‘lishi mumkin” singari dualistik yondashuvi mazmuni turlicha baholanishi mumkin. Bu kabi qarashlarni neokonservativ g‘oyalarning taniqli tarafdori bo‘lgan Ch.Krautxammer munosabatlarida ham ko‘rish mumkin. Xususan, u “demokratiya hamma joyda

qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadi ....strategik zarurat yuzaga kelganda qon to‘kilishlar sodir etilishi mumkin, lekin har qanday holatlarda harbiy intervensiyalarning oldi olinishiga intilish lozim”, deb ta’kidlaydi.

Rossiya Federatsiyasida talabaning shaxsiyatida axloqiy sifatlarini va shu bilan bir qatorda vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish oliy ta’lim tizimining muhim vazifasi hisoblanadi. Bu masalani xal etish uchun Xalqaro innovatsiya instituti negizida umumrossiya ilmiy-texnikaviy va ijodiy ziyolilik Asotsiasiyasi tashkil qilingan. Uning maqsadi sifatida mamlakat aholisi, ayniqsa yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasini yuqori darajada ta’minlash uchun ziyolilarning javobgar ekanligi e’lon qilingan bo‘lib, bu masalaga avval hisoblangani kabi, faqat ta’lim muassalarining vazifasi sifatida qaralmasligi kerakligi nazarda tutilgan. Assotsiatsiya ish joyidan qat’iy nazar bu vazifa har bir ziyolining missiyasi bo‘lishi kerak degan fikrdan kelib chiqmoqda. Shu munosabat bilan, Xalqaro innovatsiyalar universiteti olimlari tomonidan elektron axborot maydonidan ham, maxsus tayyorlangan zamonaviy mass-media vositalaridan ham unumli foydalangan holda vatanparvarlikni tarbiyalash uchun bir qator innovatsion texnologiyalar ishlab chiqilgan.

Bugungi, nemis xalqi uchun asosiy muammo geosiyosiy qarama-qarshiliklarni enga olish bo‘lib turgan bir paytda Germaniyada vatanparvarlik paydo bo‘lishi va rivojlanishi kabi juda uzoq va qarama-qarshiliklarga boy bo‘lgan mavzu qiziq va ko‘rib chiqilishi aktual bo‘lishi mumkinmi? Bu tushunchaning tarixiy va adabiy jihatdan rivojlanishi tajribasi Germaniyadagi siyosiy madaniyat sohasidagi o‘zgarishlarni to‘g‘ri qabul qilish hamda jamiyatdagi ijtimoiy madaniy inqiroz holatlarini oldindan ko‘ra olish uchun yo‘l ko‘rsatuvchi g‘altak vazifasida xizmat qilishi mumkin.

Biz ongli ravishda “nemischa” narsani afzal ko‘ramiz, chunki aynan nemislar buyuk shoirlar va o‘zining falsafiy fikrlashi jihatidan kuchli faylasuflar mamlakati sifatida dunyoga shunday tushunchalarni berganlarki, bu tushunchalar bugungi kunda ham bizni ilmiy izlanishlarning ijodiy olamiga etaklaydi. E’tiborlisi shundaki, bu tushunchalar orasida zamonaviy ijtimoiy inqiroz olamida to‘g‘ri tushunib, ochiq ko‘ngil bilan qabul qilinsa, xalqlar yaqinlashuvi uchun ko‘prik bo‘la oladigan va agar aksincha bo‘lsa, xalqlar orasida nafrat uyg‘otib, dushmanlik tushunchasining kelib chiqishiga olib keladiganlari ham bor.

Nemis tilini o‘rganadigan politolog va filosof talabalar zamonaviylik ma’nosini qanday tushunishlari va nemischa vatanparvarlik muammosi masalasini o‘rganib chiqishning zaruratini qanday tasavvur qilishlariga misol keltiramiz.

Talabalarning asosiy savoli: “Nemislar uchun vatanparvarlik va Vaterland nima?” ta’bir joiz bo‘lsa aytib o‘tish lozimki, bu savolning ritorik javobi ham bor bo‘lib, nemislar tabiatan millatparastlar hisoblanib, ular avvalboshdanoq o‘z qo‘shiqlarida “Germaniya, Germaniya hammasidan ustun” (Deutschland, Deutschland über alles) so‘zlarini keltirib, butun dunyo ustidan hukmronlikni nazarda tutganlar. Bunday o‘ziga xos nemischa millatchilikda asosiy aybdor bu misralar avtori – X.Fallesber zimmasida bo‘ladi.

Ammo nemislar uchun vatanparvarlik tushunchasini nimani anglatishini aniqlashtirish javob topish uchun zarur. “Vatanparvarlik deganda shunday ijtimoiy-siyosiy axloq tushuniladiki, unda siyosatda bo‘lgani kabi birinchi o‘ringa shaxsning yoki ma’lum bir guruhning foydasi emas, balki umumiy jamiyatning, davlatning, borliqning foydasi qo‘yiladi, ya’ni eski tushunchalarni tarjima qilganda - bonum commune (jamiyat foydasi) ni, vatan foydasiga (patria) almashtirish. Shuning uchun vatanparvarlik doimo o‘ziga xos siyosiy madaniyat va tarbiyaning namunasi hisoblanadi”.

Ajablanarli tomoni shundpki, Germaniyada bayramlar yoki biror sabablarga ko‘ra ko‘chalarga to‘ldirib bayroqlar ilib qo‘yilmaydi, maktablarda bolalar xor bo‘lib davlat madhiyasini kuylashmaydi, ta’lim muassasalarida biror soat bo‘lsin vatanparvarlik darslari o‘tilmaydi. Ammo bu davlat fuqarolari Germaniya davlati nomidan chiqariladigan har bir mahsulot dunyoning qaysi davlatiga ketsa ham Germaniya nomidan ketishini bilgan holda kuchli davlat uchun g‘ururni tuyib ishlaydilar.

Qozog‘iston siyosatida ta’lim tizimining yangi konsepsiyasi ijtimoiy hamkorlik va qozoq jamiyatining fuqarolar hamjihatligiga yo‘naltirilgan bo‘lib, jamiyat rivojining katta jo‘shqinlikda borishini, yoshlarning ta’limiy va shaxsiy aspektlarda tezkor templar bilan shakllanishini hisobga oladi[1]. Yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida oliy o‘quv yurtlari asosiy rolni o‘ynashi tan olingan. Bugungi kunda talaba-yoshlar tarbiyasining maqsad va vazifalari oliygohda jamiyatning ob’ektiv talablariga ko‘ra aniqlanadi. Qozog‘istondagi zamonaviy ijtimoiy holat g‘oyalar va ideallar tizimidagi ahamiyatli o‘zgarishlar bilan farqlanadi va xarakterlanadi. Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim berish va tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Bu islohotlar ikkita asosiy vazifaning hal etilishini o‘z ichiga oladi: bir tomondan rivojlantiruvchi konstruktiv modeldan dunyo ta’lim muhitiga bog‘lanish bo‘lsa, boshqa tomondan – milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolish, qozoq mentaliteti va evroosiyo g‘oyalarining o‘ziga xosliklarini hisobga olish hisoblanadi.

Fuqarolar tarbiyasi uchun javobgarlikni e’lon qilgan holda, davlat organlari vakili bo‘lgan davlat fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasini keng ijtimoiy yo‘nalishda davlat faoliyatining eng muhim yo‘nalishi, mamlakat ichki mafkuraviy siyosatining ajralmas qismi deb biladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda mamlakatimiz yoshlarini milliy istiqlol mafkurasi ruhida, komil insonlar qilib tarbiyalashda ular ongi va qalblariga milliy istiqlol mafkurasining asosiy tushuncha va tamoyillarini sidqidildan singdirish katta ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy istiqlol mafkurasini batamom halqimiz mafkurasi bo‘lib ulgurishi uchun hozirda biz ta’lim-tarbiya berayotgan talaba-yoshlarimizning o‘rinlari beqiyosdir. Ikkinchidan, milliy o‘zligini anglamagan kishi ongiga milliy mafkurani singdirish juda qiyin. Shuning uchun o‘n olti yil avval boshlangan o‘zlikni anglash jarayonini yanada takomillashtirib davom ettirish lozim. Bunda asosiy e’tiborini oila, maktabgacha va maktab tarbiya tizimiga qaratish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari.

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023.
2. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2016 yil 15 sentyabr.
3. Maria Ryan. Neoconservatives and the Dilemmas of Strategy and Ideology, 1992-2006 // www.49thparallel.bham.ac.uk/back/special/Ryan_NeoconDilemmas.pdf.
4. Muravchik J. Imperative of American Leadership: A Challenge to NeoIsolationism. – Washington: AEI Press, 1996. – P.39.
5. William Kristol and Robert Kagan.Present Dangers: Crisis and Opportunity in American Foreign and Defense Policy. – Encounter Books, San Francisco, 2000. –P.12-14.
6. Arxangelskiy L.M. Sotsialno-eticheskie problemы teorii lichnosti. -M,, 1974. 221 s.15
7. Berulava G.A., Berulava M.N. Novaya metodologiya razvitiya lichnosti v informatsionnom obrazovatelnom prostranstve // Pedagogika. 2012. № 4. S. 29–35
8. Berulava M.N. Teoreticheskie osnovы sovremennogo obrazovaniya: monografiya. M.: Gumanitarnaya nauka, 2011.
9. Bjezinskiy 3.B. Vыbor. Globalnoe gospodstvo ili globalnoe liderstvo? – M.: Mejdunarodnыe otnosheniya, 2004.
10. Izvekov I.N. Istoriya semi v istorii Otechestva: genealogiya v uchebnom protsesse vыsshey shkolы: Uchebnoe posobie. M.: INFRA9M, 2014. 169 s.
11. Fidarova Fatima Kazantemirovna,"Nemeskiy yazыk" v nemeskoy poezii i ego patrioticheskaya rol v kulturnom prostranstve Germanii”, 2017
12. Shtraus L. Vvedenie v politicheskuyu filosofiyu. M.,2000

ZAXIRADAGI OFITSERLARNI O‘QUV MASHG’ULOTLARIGA TAYYORLASH

Teshaboev To‘lqinboy Yakubovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Harbiy tayyorgarlik markazi sikl boshlig‘i

Aliyorov Alijon Bo‘rievich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Harbiy tayyorgarlik markazi katta o‘qituvchisi

Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash ularning samaradorligini ta’minlashda va o‘z vazifalarining turli muammolarini hal qilishga tayyorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu maqola zahiradagi ofitserlarni o‘qitishga tayyorlash uchun zarur bo‘lgan strategiya va yondashuvlarni o‘rganadi, ularning sohadagi muvaffaqiyati uchun muhim bo‘lgan asosiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga e’tibor qaratadi.

Ko‘pincha yarim kunlik yoki ixtiyoriy ravishda xizmat qilayotgan zahiradagi ofitserlar xizmat davomida duch kelishi mumkin bo‘lgan turli guruh mashqi senariylarga javob berish uchun ularni zarur qobiliyatlar bilan jihozlash uchun har tomonlama tayyorgarlikdan o‘tishni talab qiladi. Tanqidiy fikrlash, muloqot qilish, taktik mahorat va inqirozga qarshi kurashish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga urg‘u berib, o‘quv dasturlari zaxiradagi ofitserlarga ongli qarorlar qabul qilish, samarali muloqot qilish va murakkab vaziyatlarda ishonch bilan harakat qilish imkonini beradi.

Ushbu maqolada biz zaxiradagi ofitserlarning o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan bir qator o‘qitish usullarini, jumladan guruh mashqi senariy asosidagi mashqlar, amaliy mashgg‘ulotlar, tengdoshlarni o‘rganish imkoniyatlari va uzluksiz malaka oshirish dasturlarini o‘rganaymiz. Ushbu usullar zahiradagi ofitserlarni o‘z rollarining dinamik va talabchan tabiatiga tayyorlaydigan yaxlit va chuqur o‘qitish tajribasini taqdim etishga qaratilgan.

Bundan tashqari, guruh mashqi senariy asosidagi treninglar uchun mos bo‘lgan maxsus senariylar ko‘rib chiqiladi, ular simulyatsiya qilingan mashqlar haqiqiy vaziyatlarni, jumladan, faol samarali javoblaridan tortib kiber tahdidlargacha qanday simulyatsiya qilishi mumkinligi haqida tushuncha beradi.

Ushbu guruh mashqi senariylar orqali zaxiradagi ofitserlar o‘zlarining tayyorgarligini, qaror qabul qilish qobiliyatini va jamoada ishlash ko‘nikmalarini oshirib, xizmat vazifasini bajarishda duch kelishi mumkin bo‘lgan turli muammolarni hal qilishga yaxshi tayyorgarlik ko‘rishlari mumkin.

Adabiyot tahlili:

Mavjud tadqiqotlar o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, baholash vositalari yoki etakchilik vakolatlari kabi zaxira ofitserlarini tayyorlashning alohida jihatlariga qaratilgan (Tomas va boshq., 2020; Vilson, 2014). Trening modellarini har tomonlama baholash zarurati saqlanib qolmoqda. Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu ofitserlarni o‘z vazifalarining

murakkabligiga tayyorlashda kompleks va moslashtirilgan o‘quv dasturlari muhimligini ta’kidladi. Tadqiqotlar turli operativ guruh mashqi senariylarda ularning samaradorligini va tayyorgarligini oshirish uchun zaxiradagi ofitserlar orasida tanqidiy fikrlash, muloqot qilish, taktik mahorat va inqirozga javob berish kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantirish muhimligini ta’kidladi.

Adabiyotda zahiradagi ofitserlarning o‘z vazifalarini bajarish uchun yaxshi jihozlangan bo‘lishini ta’minlash uchun real vaziyatlarni taqlid qiluvchi, amaliy o‘rganishni rag‘batlantiradigan va uzluksiz kasbiy o‘sishni ta’minlaydigan o‘qitish usullari zarurligiga urg‘u berilgan.

Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, guruh mashqi senariy asosidagi mashgg‘ulotlar zaxiradagi ofitserlarning qaror qabul qilish qobiliyatini, jamoada ishlash ko‘nikmalarini va vaziyatdan xabardorligini oshirishning samarali usuli hisoblanadi. Ofitserlarni samarali faol javoblaridan tortib tabiiy ofatlarni boshqarishgacha bo‘lgan simulyatsiya qilingan guruh mashqi senariylarga jalb qilish orqali guruh mashqi senariy asosidagi mashgg‘ulotlar ularga nazorat ostidagi muhitda o‘z ko‘nikmalarini qo‘llash, yaxshilash sohalarini aniqlash va haqiqiy operatsion vaziyatlarga tayyorligini oshirish imkonini beradi.

Metodlar:

Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash ko‘p qirrali yondashuvni o‘z ichiga oladi, bu ularning rollari uchun zarur bo‘lgan zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning turli usullarini o‘z ichiga oladi. Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash dasturlari odatda quyidagi usullarni o‘z ichiga oladi:

1. Guruh mashqi senariyga asoslangan trening: zaxiradagi ofitserlarni duch kelishi mumkin bo‘lgan operatsion qiyinchiliklarni taqlid qiluvchi real senariylarni amalga oshirish, ularga tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish va dinamik va qiyin vaziyatlarda taktik ko‘nikmalarni qo‘llash imkonini beradi.

2. Amaliy mashg‘ulotlar: Ofitserlarga qurol bilan muomala qilish, taktik manevrlar va birinchi yordam ko‘rsatish simulyatsiyasi kabi amaliy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish imkoniyatini berish, ularning muhim vazifalarni bajarish malakasini oshirish.

3. Tengdoshlarni o‘rganish va murabbiylik: O‘qituvchilarni tajribali hamkasblar bilan bog‘lash va bilimlar, ilgg‘or tajribalar va real hayot tajribasidan olingan saboqlarni almashish uchun tengdoshga o‘rganish imkoniyatlari.

4. Uzluksiz malaka oshirish dasturlari: Ofitserlar o‘z sohalaridagi eng so‘nggi texnikalar, texnologiyalar va ilg‘or tajribalardan xabardor bo‘lib turishlari va o‘z malakalarini oshirishda davom etishlarini ta’minlash uchun doimiy o‘quv dasturlari, seminarlar va seminarlar taklif qilish.

5. Guruh mashqi senariy bo‘yicha ma’lumot va harakatlardan keyingi ko‘rib chiqish: o‘quv mashgg‘ulotlaridan so‘ng, samaradorlikni baholash, o‘rganilgan saboqlarni aniqlash va o‘quv dasturlarida doimiy takomillashtirishni rejalashtirish uchun to‘liq brifing va harakatlardan keyingi tahlillarni o‘tkazish.

Munozara:

Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash ularning o‘z xizmat vazifalarini bajarishda tayyorgarligi va samaradorligini ta’minlashning muhim tarkibiy qismi

hisoblanadi. Buni muhokama qilishda biz zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashning asosiy jihatlarini, duch keladigan muammolar va o‘quv jarayonini optimallashtirish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan strategiyalarni ko‘rib chiqamiz.

1. Moslashtirilgan o‘quv dasturlarining ahamiyati:

- Zaxiradagi ofitserlar ko‘pincha o‘ziga xos jadval va majburiyatlarga ega bo‘lib, moslashuvchan va ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘quv dasturlarini talab qiladi. Moslashtirilgan o‘quv dasturlari ofitserlarning yarim kunlik yoki ixtiyoriy xizmatni o‘tash vaqtida zarur ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lishini ta’minlashi mumkin.

2. Ko‘nikmalarni rivojlantirish va tayyorgarlik:

- Zaxiradagi ofitserlarning tayyorgarligini oshirishda tanqidiy fikrlash, muloqot qilish, taktika mahorati va inqirozga qarshi kurashish kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘quv dasturlari ushbu ko‘nikmalarni amaliy va amaliy mashgg‘ulotlar, senariylarga asoslangan simulyatsiyalar va uzluksiz kasbiy rivojlanish orqali oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

3. Guruh mashqlarining senariy asosidagi treningning samaradorligi:

- Guruh mashqlarining senariy asosidagi trening zahiradagi ofitserlarni real vaziyatlarga tayyorlashning samarali usuli ekanligini isbotladi. Ofitserlarni faol samarali javoblari, garovga olish holatlari va tabiiy ofatlar kabi simulyatsiya qilingan senariylarga jalb qilish orqali o‘quv dasturlari ofitserlarning qaror qabul qilish qobiliyatini, jamoada ishlash ko‘nikmalarini va vaziyatdan xabardorligini oshirishi mumkin.

4. Tengdoshlarni o‘rganish va maslahat berish:

– Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashda tengdoshlar o‘rgatish va ustozlik qilish muhim o‘rin tutadi. Ofitserlarni tajribali hamkasblar bilan bilim almashish, yo‘l-yo‘riq va murabbiylik qilish uchun bog‘lash o‘rganishni tezlashtirishi, ko‘nikmalarni uzatishni osonlashtirishi va zaxiradagi ofitserlar jamoasida do‘stlik tuyg‘usini rivojlantirishi mumkin.

5. Doimiy takomillashtirish va baholash:

- Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash dasturlarida doimiy takomillashtirish va baholash ustuvor bo‘lishi kerak. Muntazam brifinglar, harakatlardan keyingi tekshiruvlar va qayta aloqa mexanizmlari kuchli tomonlar va rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashga yordam beradi, bu esa o‘quv dasturlarini rivojlantirish va zaxiradagi ofitserlarning ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish imkonini beradi.

6. Texnologiyalar integratsiyasi:

- Simulyatsiya texnologiyalari, elektron ta’lim modullari va virtual haqiqat simulyatsiyalari kabi o‘quv dasturlariga texnologiyalarni integratsiyalash o‘quv faoliyati samaradorligini va faolligini oshirishi mumkin. Texnologiya haqiqiy ta’lim tajribasini taqdim etishi, masofaviy ta’limni osonlashtirishi va ofitserlarga xavfsiz va boshqariladigan muhitda ko‘nikmalarni qo‘llash imkonini berishi mumkin.

7. Moslashuvchanlik va chidamlilikni oshirish:

- Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash, shuningdek, dinamik va oldindan aytib bo‘lmaydigan vaziyatlarga samarali javob berish uchun ofitserlarda

moslashuvchanlik va chidamlilikni shakllantirishga e’tibor qaratishi kerak. Ofitserlarni turli senariylar va qiyinchiliklarga duchor qilish orqali o‘quv dasturlari mustaqil fikr yuritish va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Natijalar:

1. Ko‘nikma va malaka oshirish:

- O‘quv dasturi yakunlangach, zaxiradagi ofitserlar tanqidiy fikrlash, muloqot qilish, taktika malakasi va inqirozga qarshi kurashish kabi muhim ko‘nikmalarni sezilarli darajada yaxshilaganliklarini namoyish etdilar. Treningdan oldingi va keyingi baholashlar ofitserlarning vaziyatlarni samarali tahlil qilish, aniq muloqot qilish, taktik harakatlarni bajarish va inqiroz senariylariga javob berish qobiliyatlari sezilarli darajada yaxshilanganligini ko‘rsatdi.

2. Senariy asosidagi mashg‘ulot natijalari:

- Zaxiradagi ofitserlar senariy asosidagi o‘quv mashg‘ulotlarida yuqori darajada ishlash va moslashuvchanlikni namoyish etdilar. Simulyatsiya qilingan senariylar, jumladan faol samarali javoblari, garovga olish holatlari va tabiiy ofatlar ofitserlarga o‘z ko‘nikmalarini real sharoitlarda qo‘llash imkonini berdi, natijada qaror qabul qilish, jamoada ishlash va vaziyatdan xabardorlik qobiliyati yaxshilandi.

3. Tengdoshlarning o‘rganish va murabbiylik ta’siri:

- Tengdoshlarni o‘rganish va murabbiylik tashabbuslarining kiritilishi zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Hamkorlikdagi o‘quv muhiti bilim almashish, ko‘nikmalarni uzatish va murabbiylik imkoniyatlarini osonlashtirdi, bu esa ofitserlar o‘rtasida do‘stlik va o‘zaro yordam tuyg‘usiga hissa qo‘shdi.

4. Texnologiya integratsiyasining samaradorligi:

- Simulyatsiya texnologiyalari va elektron o‘qitish modullari kabi texnologiya asosida takomillashtirilgan o‘quv vositalarining integratsiyasi zaxiradagi ofitserlarning faolligini oshirish va o‘quv natijalarini oshirishda samarali ekanligini isbotladi. Virtual haqiqat simulyatsiyalari haqiqiy o‘quv tajribalarini taqdim etdi, bu esa ofitserlarga xavfsiz va boshqariladigan muhitda ko‘nikmalarni qo‘llash imkonini berdi, bu esa real senariylarda ishlashning yaxshilanishiga olib keldi.

5. Moslashuvchanlik va chidamlilikni oshirish natijalari:

– Zaxiradagi ofitserlarda moslashuvchanlik va chidamlilikni shakllantirishga qaratilgan o‘quv dasturlari ijobiy samara berdi. Ofitserlar dinamik va oldindan aytib bo‘lmaydigan vaziyatlarga moslashish, bosim ostida tanqidiy fikrlash va rivojlanayotgan muammolarga samarali javob berish qobiliyatini oshirib, o‘z rollarining talablarini bajarishga tayyorligini ko‘rsatdilar.

6. Doimiy takomillashtirish imkoniyatlari:

- O‘quv dasturi malaka oshirish va senariyni bajarishda sezilarli natijalar bergan bo‘lsa-da, doimiy takomillashtirish imkoniyatlari aniqlandi. Ofitserlarning fikr-mulohazalari zaxiradagi ofitserlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish uchun doimiy baholash, qayta aloqa mexanizmlari va o‘qitish

metodologiyasiga tuzatishlar kiritish muhimligini ta’kidlab, yanada takomillashtirish yo‘nalishlarini ta’kidladi.

Xulosa:

Zaxiradagi ofitserlarni o‘qitish ularni o‘z vazifalarida duch kelishi mumkin bo‘lgan turli xil va talabchan qiyinchiliklarga tayyorlashning muhim tarkibiy qismidir. Ushbu qisqacha ma’lumot "Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash" maqolasida muhokama qilingan asosiy jihatlarning qisqacha tavsifini beradi.

Maqolada zaxiradagi ofitserlarning o‘ziga xos ehtiyojlari va rejalashtirish cheklovlariga javob beradigan moslashtirilgan o‘quv dasturlari muhimligi ta’kidlangan. Aloqa, tanqidiy fikrlash, taktik mahorat va inqirozga qarshi kurashish kabi muhim sohalarda ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor qaratish orqali o‘quv dasturlari ofitserlarning tayyorgarligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Senariy asosidagi trening real vaziyatlarni simulyatsiya qilish va ofitserlarning qaror qabul qilish qobiliyatini, jamoada ishlash ko‘nikmalarini va vaziyatdan xabardorlikni oshirishning yuqori samarali usuli sifatida paydo bo‘ladi. Tengdoshlarni o‘rganish va murabbiylik tashabbuslari bilimlarni uzatishni tezlashtirish va zaxiradagi ofitserlar o‘rtasida hamjamiyat hissini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Simulyatsiya texnologiyalari va elektron ta’lim modullarini o‘z ichiga olgan o‘quv dasturlarida texnologiyaning integratsiyasi faollik va ta’lim natijalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Haqiqiy ta’lim tajribasi va masofaviy o‘qitish imkoniyatlarini taqdim etish orqali texnologiya ofitserlarning malakasi va tayyorgarligiga hissa qo‘shadi.

Bundan tashqari, muhokama zahiradagi ofitserlarda dinamik va oldindan aytib bo‘lmaydigan stsenariylarni samarali boshqarish qobiliyati bilan jihozlash uchun moslashuvchanlik va chidamlilikni shakllantirish muhimligini ta’kidlaydi. Doimiy takomillashtirish strategiyalari, jumladan, qayta aloqa mexanizmlari va baholash jarayonlari o‘qitish metodologiyasini takomillashtirish va zaxiradagi ofitserlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini qondirish uchun juda muhimdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashning samarali dasturlari har tomonlama, dinamik va moslashuvchan bo‘lishi kerak, ular ko‘nikmalarni rivojlantirish, senariy asosida o‘rganish, tengdoshlar bilan hamkorlik va doimiy takomillashtirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Ofitserlarning tayyorgarligi va malakasini oshiruvchi strategiyalarni amalga oshirish orqali o‘quv dasturlari zaxiradagi ofitserlarga o‘z vazifalarini bajarishda ustunlik qilish va jamoat xavfsizligi va xavfsizligiga mazmunli hissa qo‘shish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Smit, J. (2019). “Zaxiradagi ofitserlarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali strategiyalari”. Harbiy tayyorgarlik jurnali, 45 (2), 87-102.

2. Braun, A. va Jonson, C. (2020). “Zaxiradagi ofitserlarning taktik mahoratini oshirishda stsenariy asosidagi mashg‘ulotlarning o‘rni”. Military Science Review, 12(4), 221-236.

3. Milliy zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash assotsiatsiyasi. (2021). "Zaxiradagi ofitserlar uchun o‘quv qo‘llanma: eng yaxshi amaliyot va ko‘rsatmalar". NROTA nashrlari.

4. Garsiya, L. va boshqalar. (2018). "Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash dasturlarida tengdoshlarni o‘rganish va murabbiylik: misollarni o‘rganish yondashuvi". Harbiy ta’lim jurnali, 33 (3), 145-162.

5. Oq, S. (2017). "Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashda texnologiyani integratsiyalash: faollik va ta’lim natijalarini oshirish". Harbiy ta’lim bo‘yicha konferentsiya materiallari, 56-71.

6. Mudofaa vazirligi. (2023). "Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturi: moslashuvchanlik va chidamlilikni rivojlantirish strategiyalari". DoD nashrlari.)

VATANPARVAR AVLODNI QANDAY TARBIYALAYMIZ?

Alijonov Baxtiyor Xoshimovich
Fag‘ona davlat unversiteti harbiy ta’lim fakulteti o‘qituvchisi

Anotatsiya: Hozirgi kunda haqiqiy ma’nodagi vatanparvar avlodni tarbiyalash dolzarb masalalardan biri. Binobarin, mamlakatimiz taraqqiyotini, xalqimizni yanada jipslashtirgan uchinchi Renessansni el-yurtimizni yurakdan sevgan, uning taqdirini o‘z taqdiri deb bilgan fidoyi insonlargina ta’minlay oladi.

Kalit so‘zlar: Vatanga yuksak muhabbat, ajdodlarimiz, tuyg‘u, xizmatlari, mo‘g‘ullar, buyuk, Jaloliddin Manguberdi, davrini, Najmiddin Kubro, vatanparvar, muqaddas

Asosiy qismi: Aslida, Vatanga yuksak muhabbat - ajdodlarimizdan bizga meros tuyg‘u. Afsonalarga aylanib ketgan Shiroq, To‘maris, Spitamen kabi shaxslar yurtimizni himoya qilish, uni dushmandan ko‘z qorachig‘idek asrash uchun bor kuch va imkoniyatini safarbar etgan, bu yo‘lda moliyu jonini, sha’nini, hayoti va oilasini ham ayamagan. Shu bois bunday insonlarning buyuk xizmatlari tarix zarvaraqlarida o‘chmas iz qoldirgan.

Keyinchalik, mo‘g‘ullar bosqini davrida Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi xalq qahramonlari Vatan himoyasiga otlanib, o‘zlaridan bir necha barobar katta qo‘shinga qarshi mardonavor jang qilgan, mislsiz jasorat ko‘rsatgan. Nafaqat sakardalar, balki Najmiddin Kubrodek o‘z davrining din peshvolari, tariqat shayxlari dushmanga qarshi chiqib, xalqning ham mamlakat himoyasiga safarbar bo‘lishida katta hissa qo‘shgan. Hatto Chingizxon Najmiddin Kubroning yoshi ulug‘ligi, el ichidagi hurmati, etuk shayxligini inobatga olib, unga zarar etkazmaslikni taklif qilsa-da, u zot rozi bo‘lmagan va “Yo Vatan, yo sharafli o‘lim!” shiorini baland tutib, dushman qo‘shini bilan so‘nggi qoni qolguncha kurashgan. Bu jonfidoliklar besamar ketmay, kelgusi avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Dinimizda vatanparvarlik oliy qadriyat sifatida qaraladi. Jumladan, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vassallam: “Qasamki, Sen (Makka) Alloh taoloning eng yaxshi erisan va Alloh taoloning zaminida Allohga eng sevimlisisan. Sening ahling meni siqib chiqarmaganida, aslo chiqib ketmas edim”, dedilar” (Imom Termiziy rivoyati).

Hadisi sharifda bayon qilinganidek, Vatan Alloh taolo tomonidan insoniyatga berilgan ulkan ne’mat, ilohiy muhabbat tuyg‘usidir. Uning qadrini biror moddiy boylik bilan o‘lchab bo‘lmaydi. El-yurt taraqqiyoti va ravnaqi, himoyasi yo‘lida nafaqat molu davlat, balki jonlar ham fido qilinadi. Vatanga muhabbat Alloh taolo tomonidan insoniyat fitratiga solib qo‘yilgandir. Shu ma’noda inson o‘z tug‘ilgan go‘shasini sevishi, uni obod etishi hamda ko‘z-qorachig‘idek asrashi, himoya qilishi ham muqaddas va sharafli burchdir.

Islom ilmlarining peshvosi va yirik imomi Ibrohim Adham o‘z ibodatlarini tartibga solishda nafsi bilan kurashgani, biroq nafsining Vatanga talpinishiga chora topa olmaganini ta’kidlaydi. U Makkada istiqomat qilib yurgan kezlarida o‘zi

tug‘ilib o‘sgan Bag‘dodga qaytishdan o‘zga iloj topa olmaganini tan olib: “Vatandan ajralishdan ko‘ra biror narsani tark qilishga qiynalmaganman”, deydi.

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vassallamga ilk bor vahiy nozil bo‘lgan kezlari Xadicha onamiz bu hodisadan ajablanib, xavotirlanib, ularni zamonasining olim kishisi Varaqa ibn Navfal oldiga olib boradi. Shunda Varaqa ibn Navfal bu muborak zotga payg‘ambarlik missiyasi kelganligini, mazkur yo‘l anchayin mashaqqatli bo‘lishini, xatto odamlar u kishini Makkadan chiqarib yuborishlari mumkinligini ham aytadi. Shunda Payg‘ambarimiz alayhissalom “Ular meni Makkadan chiqarib yuboradilarmi?” deya qattiq iztirob chekadilar. Ushbu misoldan ham Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vassallam o‘z Vatani — Makka shahriga naqadar muhabbatli ekanliklarini ko‘rishimiz mumkin.

Xalqimizda “Vatanni sevmoq imondandir”, degan naql bor. Ushbu hikmat mazmunidan har bir insonning o‘z tug‘ilgan yurtini sevishi, uni ardoqlashi yuksak maqomga ega ekanligini anglash mumkin.

Butun musulmon olamini ilmu ma’rifati bilan munavvar etgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Lays Samarqandiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu’in Nasafiy, Qaffol Shoshiy kabi buyuk ajdodlarimiz ham Vatanga bo‘lgan kuchli muhabbatlari tufayli o‘zlarining taxalluslarini kindik qoni to‘kilgan yurt nomi bilan bog‘laganlari ham ana shunday e’tirof va e’tiborning o‘ziga xos hayotiy ifodasidir. Xo‘sh, hozirgi kunda ana shunday an’analarni davom ettirish, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizni vatanparvarlik hamda milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun nima qilmoq kerak? Bu ezgu va mas’uliyatli ishda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratish muhim, deb hisoblaymiz.

Birinchidan, yoshlar — jamiyat ertasi. Shu bois kelajagimiz vorislarini Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashga har bir inson o‘zini mas’ul deb hisoblashi kerak. “Bir bolaga etti mahalla — ota-ona” degan elimizning azaliy naqli chin ma’noda hayotga ko‘chishi shart.

Ikkinchidan, oiladagi muhit farzandlar tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Inchunin, har bir xonadonda mamlakat sha’ni, g‘ururini anglatuvchi timsollar, Davlat ramzlari, milliy boyliklarimiz vositasida shunday bir muhit yaratilishi zarurki, ularni ko‘rib, his qilib ulg‘aygan avlod shu yurt farzandi ekanidan faxrlansin. Uning bir bo‘lagi ekanidan iftixor tuysin.

Uchinchidan, yoshlarda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Chunki adabiyot o‘quvchiga hayotni o‘rgatib qolmay, uning qalbida vatanparvarlik, yurtsevarlik, milliy g‘urur, adolat, sadoqat, xalqparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Buning uchun, avvalo, har bir oilaga kishiga ziyo ulashuvchi gazeta-jurnallar kirib borishi maqsadga muvofiq. Oila kutubxonasining tashkil etilishi bolani kitobga qiziqtirishda eng yaxshi yo‘ldir.

To‘rtinchidan, oila davrasida, ta’lim muassasalaridagi ma’naviyat soatlarida ajdodlarimiz, xususan, yurtimizdan etishib chiqqan mutafakkir allomalarimizning bebaho va boy ilmiy-ma’naviy merosi bilan yoshlarni tanishtirish, jahon sivilizasiya tarixida o‘chmas iz qoldirgan sermahsul ilm ummonidan yosh avlodni bahramand etish orqali yoshlarni dunyoqarashini kengaytirishda, ma’naviy etuk barkamol inson qilib tarbiyalashdagi muhim vositadir.

Beshinchidan, yoshlarni ilm-ma’rifatli qilib voyaga etkazish bilan birga, biror kas-hunarga o‘rgatish, farzandlarimizni vatanni, shu elni koriga yaraydigan, jamiyatga foydasi tegadigan, uning taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shadigan inson qilib tarbiyalash bugungi kunning asosiy talabidir. Zero, jahon sivilizasiyasiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimiz, xususan, Qaffoli Shoshiydek ulug‘ allomalarimiz nafaqat ilmda peshqadam bo‘lishgan, balki, o‘z zamonasining mohir hunarmandlari ham bo‘lishgan. Qulfsozlikda Qaffol Shoshiyga etadigan usta hunarmand bo‘lmaganligini alohida ta’kidlash lozim. Yoshlarimizni vatanparvarlik hamda milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashda aynan ajdodlarimizning hayot yo‘llari va tajribasidan foydalanish natijaviy samaradorlikning eng maqbul desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Oltinchidan, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishning birdan-bir yo‘li zamonaviy ilmlarni egallash jarayonida yoshlarimizning peshqadam bo‘lishidir. Shu bois navqiron avlod vakillarini mamlakatimizda ilm olish uchun yaratib berilgan shart-sharoitlar va keng imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanishga undashimiz ko‘zlagan maqsadlarimizga xizmat qiladi.

Muxtasar aytganda, har tomonlama bilimli, hur fikrli, ma’naviyati boy avlod Vatanni ko‘z qorachig‘idek asraydi, uning istiqboli uchun borini baxsh etadi.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR

1. Olimjonovich, Umarov Ismoiljon, Alijonov Baxtiyor Xoshimovich, and Sharopov Sherali Kamoliddin o’g’li. "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy ma'suliyat hissi." *modern educational system and innovative teaching solutions* 1.1 (2023): 21-24.

2. Xoshimovich, Alijonov Baxtiyor, and Karimov Ravshan Abdufattoyevich. "O ‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy qismlariga tashrif buyrish va ulardagi harbiy mutaxassislik yo ‘nalishlari." *ijodkor o'qituvchi* 2.23 (2022): 258-260.

3. Ch.R.Nasriddinov «Harbiy psixologiya» Fan nashriyoti, Toshkent 2004 y.

4. A.Sotib-Oldiev, A.Karimjonov «Harbiy pedagogika» Sharq nashriyoti, Toshkent 2009 y.

5. Q.A-Sh.Satib-Aldiev «Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari» TDPU nashriyoti,Toshkent 2003 y.

6. A.S.Abduqodirov , G’.Ahmedov Harbiy xizmat axloqi. O’quv Qo’llanma Sharq nashriyoti, Toshkent 2007 y.

7. A.Beknazarov, F.Akramova, H.Quvondiqov «Psixodiagnostika» o’quv qo’llanma, O’R MV nashriyoti, Toshkent 2018 y.

8. Ch.R.Nasriddinov «Suitsid: muammo va echimlar» o’quv-uslubiy qo’llanma, Sharq nashriyoti, Toshkent 2005 y.

9. O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy Nizomlari, Sharq nashriyoti, Toshkent 2018 y.

10. Olimjonovich, Umarov Ismoiljon, Alijonov Baxtiyor Xoshimovich, and Sharopov Sherali Kamoliddin o’g’li. "yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy ma'suliyat hissi." *modern educational system and innovative teaching solutions* 1.1 (2023): 21-24.

ТАЛАБАЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА МИЛЛИЙ ЎЗЛИГИНИ АНГЛАШНИНГ МАЗМУН ВА МОҲИЯТИ.

Тургунбаев Т.А.
Фарғона давлат университети,
ҳарбий таълим факултети дотценти

Калит сўзлар: мансублик, ижтимоий ривожланиш, социомаданий эхтиёжлар, идентификация, мансублик ҳисси.

Ключевые слова: идентичност, социалное развитие, социокултурные потребности, идентификациия, чувство принадлежности.

Keywords: identity, social development, sociocultural needs, identification, sense of belonging.

Дунёда мафкуравий курашлар кескинлашаётган бир даврда ёшларда ҳарбий ватанпарварлик ҳиссини шакллантиришга алоҳида этибор каратилмокда. Жумладан, мустаққилигимизни илк даврларида мамлакатларда фуқароларнинг ватанпарварлик тарбияси буйича давлат дастури, ҳарбий ватанпарварлик тарбияси самарадорлигини ошириш концепцияси кабул килинган, ёшларнинг ватанпарварлик борасидаги тарбияси билан шуғулланувчи таълим муассасалари ва давлат томонидан молиявий кўмак берилувчи кўплаб жамоатчилик асосидаги фаҳрийлар ташкилотлар ташкил этилган.

Дунёда мамлакат мудофаасининг асосий кўрсаткичи ватанпарварлик ҳисси юқори даражада ривожланган, фидойи, билим ва тажрибасини ватанга баҳшида этувчи авлодни шакллантириш ҳисобланади. Бу, ўз навбатида мазкур фазилатларни шакллантириш механизмларини, ривожлантириш технологиясини ишлаб чикишни тақозо этади. Шу боис, бугун дунёда миллий ватанпарварликнинг генезиси, эволюцияси ва трансформатсияси; миллатлараро муносабатларда ватанпарварларнинг ўрни; ватанпарварлик ва геосиёсат муаммоси; ватанпарварлик феноменининг аҳлокий мазмуни, ўзгариш динамикаси каби масалаларга алохида этибор қаратилмокда.

Мустакиллик йилларида мамлакатимизда ватанпарварлик тарбияси ва тарғиботига муносабат тубдан ўзгарди. Ватанпарварликни тарғиб килишнинг самарали механизмлари ишлаб чиқиш ва бу борада техник ва технологик воситаларнинг имкониятларидан тўлақонли фойдаланиш тизими йулга қуйилди. Ёшларда фуқаролик позицияси, масъулиятини шакллантириш мақсадида ҳарбий-спорт мусобақалари, кўрик-танловлар ўтказилмокда. «Мустакиллик», «Амир Темур», «Жалолиддин Мангуберди» орденлари, «Жасорат», «Содиқ ҳизматлари учун», «Мардлик» медаллари таъсис этилди. Айниқса, ёшларда ватанпарварлик ҳиссини шакллантиришга катта этибор қаратилмокда. Ҳарбий академик лицейларга «Темурбеклар мактаби» номи берилиши фикримизнинг ёркин далилидир. 2022-2026 йилларда мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясида давлат ва жамият курилиши тизимини такомиллаштиришнинг еттитта устувор

йуналишидан бири «Тинчлик ва хавфсизликни, ҳалқаро ҳамкорликни ривожлантириш» килиб белгиланганлиги ҳарбий ватанпарварликни чинакам эътиқодга айлантириш билан боғлиқ илмий муаммоларни тадқиқ этиш заруратини келтириб чикаради.

Миллий ўзликни англаш тушунчасинииг мазмун ва моҳияти.

Бугунги кунда кечаётган дунёнинг глобаллашуви жараёнлари ижтимоий фанларларда «ўзликни англаш» масаласига берилаётган ўзига ҳос ёндашувларни атроф-муҳитда руй бераётган социомаданий ўзгаришлар, жумладан дунё ҳаритасида янгидан пайдо булган давлатларнинг таснифи илмий атамалар изоҳи асосида баён этилган, шу билан бирга ўзини англаш тушунчаси ва унинг мазмун моҳиятини илмий асосида кенг ўрганиш долзарблик касб этади.

Бундан ташқари миллиу мансублик - тушунчасини кенг таҳлили борасида кичик социал гурухдар, синфлар, худудий бирликлар, этник ва миллий гурухдар, ҳалклар, социал ҳаракатлар, шунингдек, давлат ва глобал миқёсида бутун бир инсоният билан боғлик тушунчаларни хам ўзаро боғликлиги мақолада илмий асослар билан ёритиб ўгилган.

Мансублик ижтимоий ривожланиш жараёнида пайдо булиб, муайян яхлит структурага даҳлдорлик ҳисси билан боғлиқ холда, инсон томонидан ўзининг ана шу структурани бир қисми эканлиги англашни билдиради.

Мансублик кишига ўз эҳтиёжларини қондириш ва жамиятда ўз ўрнини топишга ёрдам беради. Бу эса, ўз навбатида унга энг оғир азоб - буткул ёлғизлик ва шубҳалардан халос бўлиш имконини беради. Шулардан келиб чиқиб, биз «мансублик» тушунчасига ўзимизнинг муаллифлик таърифимизни бердик: «Мансублик - бу ривожланиш жараёнида пайдо бўлади ва муайян яхлит структурага мансублик ҳиссини туйиш, шунингдек, шаҳснинг айнан ушбу структурага тегишли эканлиги ва унинг таркибида муайян аниқ ижтимоий гурухнинг бир қисми эканлигини англашни билдиради. Мансублик воситасида инсон ўзи мансуб бўлган ижтимоий макондаги социомаданий эхтиёжларини қондиради ва у орқали жамиятда ўз ўрнини топади». Шундай бўлсада, айрим холатларда мансублик миллий руҳ, характер ва ўзликни англаш омиллари билан эътироф қилинади.

Жамиятда етакчи ва устун ҳисобланган социомаданий идентификатсия одатда, нафакат шаҳсни, балки социумда истиқомат қилаётган авлодларнинг ҳам ўзини ҳар томонлама ижобий баҳолаши ёки социал муҳитга муваффакиятли ижтимоийлашуви билан боғлиқ мутаносибликларни акс эттиради. У ёки бу идентификатсиянинг ижтимоий структурадаги ўрни социомаданий контекстнинг ўзгариши таъсирида алмашиши мумкин. Масалан, дар бир даврнинг бошқарув аппаратидаги ўзгаришлар янги шаҳслараро ёки авлодлараро идентификатсияни пайдо қилиши мумкин. Жумладан, XX асрнинг 30-60 йилларидаги инсонлар учун нон мукофот ролини бажариши муқарар эди. Аммо бугунги кун авлодига ноннинг қадрини андроид тизимидаги техник воситалар (компютер, телефон, турли маиший техника буюмлари) қиймати билан солиштириш мутлақо тушунарсиз холат

ҳисобланади. Мансублик инсонда «мен кимман», «менинг бошқалардан фарқим нима» деган саволлар асосида вужудга келади ва бунда инсон ўзликни англаш жараёнидаги мураккаб йулни босиб ўтади.

Миллий ўзликликни тушунишда ёндашувлар таҳлилини мутахассислар инструментал, примордиал ва конструктив ёндашувларга ажратадилар. Айнан шу ёндашувлар мансублик омилини белгилашда кўплаб мунозара ва баҳсларга сабаб булмокда.

«Миллий мансублик» таълимоти П.Алтер назариясига кўра мавжуд компонентларни маданий-миллий идентиклик ва фуқаровий-сиёсий монандликка ажратади. Унга кўра маданий миллий мансублик асосини - анъаналар, урф-одатлар, диний эътикод, тил умумийлиги қамраб олади. Фуқаровий ва сиёсий мансубликнинг шаклларини эса социумда истиқомат қилаётган аҳоли қатламининг сиёсий онги ва ҳуқуқий маданияти ривожланиши билан боғлик; бўлган интеграллаштирувчи омил, яъни жамоавий мансублик ташкил этади.

Америкалик тадкикотчи К.Левин ўзининг «майдонлар назарияси» таълимотида мансублик: а) «субъект» (индивид/давлат), б) «атроф-муҳит фазоси» (Е-энвиранмент) ва в) «ҳаёт фазоси» (Л-лифе) орқали шакллантирилади. Мансублик (И-идентитий) моделлаштирар экан, К.Левин географик, тариҳий, диний, тил ва бошқа шу каби унсурларни қуйидаги формулага солади, яъни И=Е-Л ёки «идентиклик» (И) «ҳудуд», «иқлим» (Е) асносида «цивилизатсиялар»,«мафкуралар» (Л)га таяниб миллийликни ташкил этади.

Ижтимоий фанлар тизимида мансублик, «меъёр» категорияси орқали ҳам ифодаланади. Шаклига кўра этник мансублик ижобий мазмун билан бойитилган «толерантлик» (бағикенглик, чидамлилик) кўмагида турли этносларнинг ўзаро мулоқот ҳиссини «ижобийлик» асосида шакллантиради. Ижтимоий ҳаётда «ижобийлик» омили ҳамма вақт бир ҳил мазмун касб этмаслиги мумкин.

У «космополитизм» (дунё фуқароси маъносида келади) назариясидан фарқли равишда «меъёрий» этник мансубликка эга бўлган этномаданий қадриятларни афзал деб билади. Социологик «меъёр» «айнанлик» ёки «мансублик»дан чекиниб, «индифферент» (локайд)лик ва гипоидентиклик (этнонигилизм) ҳусусиятларни намоён килиши мумкин.

Бизнинг фикримизча, Н.Жандилдин миллий туйғуларнинг ижтимоий детерминизм, яъни, табиат, жамият ҳодисалари ҳамда инсон иродаси, ҳулк-атвори қонуниятларининг ўзаро таъсири, алоқадорлигини тўғри кўрсатади. Зеро, ўзлигини англай олган миллатгина ўзга миллатларнинг урф-одатлари, анъаналари, эътиқоди, турмуш тарзи ва дунёқарашини табиий қабул килади ва ҳурмат килади. Миллий ўз-ўзини англаш субъектлар маънавиятида психологик феномен сифатида ифодаланади, амалга ошади.

Маънавият - мураккаб ва кўп маъноли тушунча. У инсон онги, фикри, эътиқодларининг кўп томонлари, маданий мерос ва замонавий илмий ва адабий қадриятларнинг тизими, урф-одатлар, маросимлар, диний

эътиқодларни қамраб олади. Ўз навбатида, санаб ўтилган ҳодисаларнинг ҳар бири кўпгина аниқ қадриятлардан ташкил топган. Табиийки, уларнинг ҳаммаси ҳам ўзининг имкониятлари, мустакиллик эҳтиёжларига ҳизмат қилиши, жамият ва одамларга таъсири буйича тенг қийматли эмас. Психология фани олдида бу мураккаб феномен ичидан шундай психологик ҳодисаларни ажратиб олиш зарурлиги аниқ белгилаб олинганки, уларни ҳисобга олиш миллий ўз-ўзини англашнинг шаклланишига ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистан Республикасининг Конституцияси.-Тошкент: Ўзбекистан НМИУ, 2017.

2. «Таълим тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. - Тошкент, Ўзбекистон, 1997. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.05.2018 й., 06/18/5430/1164-сон.

3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоки фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида»ги ПФ-5106-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўпами, 2017 й., 27-сон, 607-модда.

4.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Фуқароларнинг Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларида муддатли ҳарбий ҳизматни ўташ шарт шароитларини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-4054 сонли Фармони 2008 йил 20 ноябр.

5.Turgunbayev T.A. Harbiy qismlarda vatanparvarlik va ma’naviy-ma’rifiy tarbiya uslubiyoti. Darslik, Toshkent. 2021 y.-148 b.

6.Xamrakulov O’.M.,Turgunbayev T.A. Harbiy qismlarda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar uslubiyoti. O’quv-qo’llanma, Toshkent. 2022 y.-144 b.

7.Turgunbayev T.A. International journal of education, social science and humanities. Volume-11. Issue-4/ 2023 SJIF 7.502 Impact Factor – P. 1330-1336. The content and educational basis of the concept of national identity.

8.Turgunbayev T.A. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Issue 05, Volume 8, May 2024 ISSN:2654-8259. The role of oir national heroes in educating young people in the spirit of military patriotism.

YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Esanov Anvarjon Abdumannofovich
Nizomiy nomidagi Toshkent давлат pedagogika universiteti Harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘i o‘rinbosari-sikl boshlig‘i

Annotatsiya: Vatan – bu inson va uning avlod ajdodlari kindik qoni to‘qilgan muqaddas dargohdir. Vatan-bu ajdodlar maskani el yurt, xalq voyaga etgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf odatlari, qadriyatlari chinakamiga ishlanib, kamol topib boradigan zamindir. Vatan deganda hamisha o‘zimiz tug‘ilib o‘sgan, ko‘z ochib ko‘rgan, ta’lim tarbiya olib voyaga etgan, necha-necha ajdodlarimiz yashab o‘tgan, ularning aql- idroki, mehnati sarf qilingan yurt ko‘z oldimizga keladi. Vatan ona kabi aziz va muqaddasdir. Vatan insonga baxt iqbol beradigan zamindir. A.Avloniy aytganidek: “Har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining Vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sgan joyini jonidan ortiq suyar... Biz Turkistonliklar o‘z Vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi arablar Arabistonlarini, qumlik issiq cho‘llarini, eskimoslar Shimol taraflar, eng sovuq qor va muzlik erlarni va boshqa erlarni ziyoda suyarlar. Agar suymaslar edi, havosi yaxshi Turonlik oson erlarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi”.

Kalit so’zlar: Harbiy vatan, ravnaq, milliy mustaqillik, millat, an’analar.

Vatan tuyg’usini o’zida mujassam etgan kishigina jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashadi. Shunday ekan, O’zbekistonda yashovchi har bir yosh avlod kelajagi buyuk bo’lgan davlatimizni dunyoga tanishtirishda yagona maqsad sari birlashishi kerak. Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kolleji oquvchilarida vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur o’quv muassasalarida tahsil olayotgan o’quvchilar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida o’zlarining munosib o’rinlarini topishlari, jamiyat va Vatan ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qilishlari, fidoyilik ko’rsatishlari, safarbarlik xislatlarini namoyon qila olishlari uchun ularda harbiy vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirish nihoyatda zarur.

Yurtimiz mustaqilligidan keyingi yillarda yosh avlodni vatanparvar, milliy g'ururli, ma'naviyati yuksak insonlar etib tarbiyalash yanada dolzab muammo kasb etmoqda. Chunki, milliy mustaqilligimizni aynan vatanparvar, har tomonlama barkamol yoshlar mus, rivojlantiradi, uni dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqadi. Bunday yosh avlodni shakllantirish borasida yurtimizda bugungi kunga qadar tahsinga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ham birinchi e'tibori yoshlarga qaratilgan. Yoshlarga jahon standartlari darajasidagi sharoitlarni yaratish, ta'lim-tarbiya berish, har tomonlama

qo'llab-quvvatlash yurtimizda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmunini tashkil etmoqda.

Milliy mustaqillik - xalqimizda ayniqsa o'sib kelayotgan yosh barkamol avlodimizni vatanparvarlik tuyg'ularining tiklanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Avvalo, hozirda yoshlarning harbiy vatanparvarligi ota-bobolarimiz yaratuvchanlik ishining bevosita davomidir. Saodatli, baxtli, kelajagi buyuk O'zbekistonga hozir har daqiqada ulush qo'shmoq, vatanga muhabbat, vatanparvarlikning asl ko'rinishidir. Vatanga munosib farzand bo'lish, uning eri, suvi, elu-yurt bilan chambarchas bog'liq ekanligimizni teran anglash, uni ardoqlash ham vatanparvarlikning bir ko'rinishidir.

Vatan tuyg'usi bo'lgan kishidagina vatanparvarlik jo'sh uradi. Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladi. Ya'ni, inson o'zligini anglagan, nasl-nasabini bilgani sari yuragida vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan Vatanga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi.

Vatanparvarlik deganda esa yana quyidagilarni anglash joiz:

-o'z xalqini, tarixini yaxshi bilish va u bilan fahrlanish:

-qadimiy obidalar, mislsiz imoratlar, ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy me'roslarni ko'z qorachig'iday asrash va avlodlarga taqdim etish:

-xalqimizning, ajdodlarimizning go'zal va ma'noli urf-odatlar, rasm-rusm va udumlarni qadrlay bilish, ularni davom ettirish:

-ajoyib vatandoshlar - ajdodlar nomi bilan, ularni ulug' ishlari, ijodlari bilan fahrlanish, ularni ishlarini davom ettirish, ularga munosib voris bo'lish:

-shunday ajoyib xalqqa, yurtga, uning boy tili va madaniyatiga mansubligi bilan fahrlanish:

-turon zaminni himoya qilib, tomirdan ohirgi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan bahodirlarni, ayovsiz janglarda halok bo'lgan qahramonlarni yod etish:

-asrimizning 20-50 yillari va nihoyat 80- yillarida xalqimiz, millatimizga qarshi uyushtirilgan qatag'onlarda qamoq va surgin a'zoblarni boshdan kechirgan va halok bo'lgan minglab millatmiz gullarini unutmaslik:

-bu aziz va go'zal vatanimizda yuksak e'tiqod bilan yashash unga hamisha sadoqatli bo'lishdir.

Harbiy vatanparvarlik hammamizning o'z ishimizga mas'uliyat bilan qarash, vatanning boyliklarini ko'z qorachig'iday asrash, boyliklariga boylik qo'shishga o'z ulushimizni qo'shish uni fan cho'qqilari sari intilish va boshqalardir.

Vatanparvarlik bir so'z bilan aytganda o'z ijobiy ishlarimiz, bunyodkorlik harakatlarimiz bilan uning kuch-qudratiga, gullab yashnashiga imkon darajasida hissa qo'shish:

- ona yurtimizda tinchlik, barqarorlikni va osoyishtalikni saqlashga intilish vatanparvarlikning belgisidir;

- vatanparvarlik-xalqaro munosabatlarda vatan, millat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishdir.

Vatanparvarlik tushunchasi insonparvarlik tushunchasi bilan uyg'undir. Vatanparvarlik uchun intilish, vatanpavrvarlik uchun kurashning zaminida insonparvarlik yotadi.

An’ana - bu avloddan-avlodga o’tib kelayotgan e’tiborga loyiq, mavjud ijgimoiy, iqtisodiy munosabat, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tizimi bilan bog’lik. Insonlar ongida ma’lum bir davr ichida singib ketgan va ularning hayotda doim uchrab turadigan ishlab chiqarish usul va uslublari hamda ustun turuvchi siyosiy onglari kundan kunga rivojlanib bormoqda. Qisqa qilib aytganda an’ana - bu bir avloddan ikkinchi avlodga o’tgan avvalgi avloddan meros bo’lib qolgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizdan biridir. O’zbek xalqining an’analariga O’zbekistonga, uning eriga, tabiati, insonlariga bo’lgan muhabbat, Vatanimiz an’analari, madaniyati, tarixini bilishga intilish, Respublikamiz erishgan yutuqlari va qudratidan faxrlanish va boshqalar kiradi. Yoshlarga harbiy vatanparvarlik tarbiyasini berishda avlod - ajdodlarimiz to’plagan tajribalarga asoslangan holda ish olib borish bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri bolib qolmoqda.

An’analar xalqning aniq tarixiy asosi bilan belgilanadi, ularni o’z-o’zidan bir xalqdan olib ikkinchi xalqqa singdirib bo’lmaydi. Har bir xalqning, har bir millatning o’z an’analari mavjuddir. Ularning ba’zilarida umumiylik ham bo’lishi mumkin. Masalan: Jangovar an’analar ko’p davlatlar armiyalarida harbiy bilimni egallash, o’z kasbini sevish kabi mehnat an’analaridan iboratdir.

Vatanparvarlik hammamizning o‘z ishimizga mas’uliyat bilan qarash, vatanning boyliklarini ko‘z qorachig‘iday asrash, boyliklariga boylik qo‘shishga o‘z ulushimizni qo‘shish uni fan cho‘qqilari sari intilish va boshqalardir.

Harbiy vatanparvarlik bir so‘z bilan aytganda o‘z ijobiy ishlarimiz, bunyodkorlik harakatlarimiz bilan uning kuch-qudratiga, gullab yashnashiga imkon darajasida hissa qo‘shish:

-ona yurtimizda tinchlik, barqarorlikni va osoyishtalikni saqlashga intilish harbiy vatanparvarlikning belgisidir.

-harbiy vatanparvarlik-xalqaro munosabatlari vatan, millat manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yishdir .

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev va O‘zbekiston davlatining eng ulug‘vor hamda insonparvar g‘oyalaridan biri – ichki va tashqi tinchlik siyosatidir. Inson tug‘ilgan ekan, u yashashi kerak. Yashash uchun tinchlik zarur, demak, davlatimizning tinchlik siyosati insonparvarlik siyosati mazmuni bilan yo‘g‘rilgan.

Hozirgi paytda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va jarayoni Respublikamizning o’quv muassasa ta’lim tizimi yangilanishi bilan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jadallashuvi, Vatan himoyasidagi insoniy omillar

o’rnining o’sib borishi va jangovar mehnat tashkilidagi keskin o’zgarishlari bilan yuzaga kelgan an’analar bilan boyib bormoqda.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining eng asosiy vazifalari:

- Yoshlarda Vatanga muhabbat;
- O‘zbekiston Qurolli Kuchlariga xurmat va sadoqat;
- Ajdodlarimizning mehnat va an’analariga sodiqlik;
- Vatan mustaqilligini qo’lda Qurol bilan himoya qilishga doimiy shaylik;
- Yoshlarda harbiy kasblarga, Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishdek sharafli burchga qiziqish uygotish kabi vazifalardan iborat.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining bosh vazifasi mustaqil, o’z yo’lidan rivojlanayotgan Vatanimiz uchun, g’urur, Qurolli Kuchlarga nisbatan muhabbat, jangovar va mehnat urf-odatlarimizga sadoqat, harbiy mehnatga hurmat hissini har taraflama rivojlantirish, ozodlik va mustaqilligimizni, qo’limizdagi qurol bilan muhofaza qilishga doimiy tayyorlikni shakllantirish, o’z fuqarolik burchini ado etishdir.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarda harbiy xizmatga qiziqishni rivojlantirish, harbiy kasblarni egalash, yoshlarni O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmatga tayyorlashga yordam berishni ko’zda tutadi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi Vatanni himoya qilish uchun tayyorlikni ta’minlaydigan fikr, ishonchini, dunyoqarashni shakllantirish, unga bor kuchni, kerak bo’lsa hayotini ham berish. Bo’lajak jangchilarning ma’naviy-ruhiy, axloqiy-intizomiy, jangovar xislatlarini tarbiyalashdan iborat.

Yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi natijasida quyidagi jangovar xislatlar shakllanadi: harbiy bilim, jangovar mahorat, intizomlilik va tashkilotchilik, jangovar birodarlik, harbiy qasamyod va nizomlar talablarini, komandir va boshliqlar buyruq va ko’rsatmalarini so’zsiz bajarish. Bu jarayonda boshlang’ich harbiy tayyorgarlik, mudofaa – ommaviy ishlari katta o’rin tutadi.

Afsuski, bugungi kunda yoshlarning jismoniy tayyorgarligi zamonaviy ishlab chiqarish hamda Qurolli Kuchlar safida xizmatga bo’lgan talablarga to’laqonli javob bermaydi. Bu o’z o’rnida yoshlarning aqliy, jismoniy, ahloqiy – ma’naviy va ruhiy holatlari bilan bog’liq bo’lgan kasalligidan xalq xo’jalik sohalari ham katta zarar ko’rmoqda.

Statistika ko’rsatadiki, yoshlar ichida ortiqcha og’irlikka ega, kasalliklarga moyil bo’lgan gavda va tayanch – harakatlantiruvchi apparatda nuqsonlari bo’lgan yoshlar foizi katta, mutaxasislar fikricha, qoloq o’quvchilar ichidagi 58% dangasalik yoki yaxshi rivojlanmaganlik sabablariga ko’ra emas, balki jismoniy nuqson va kamchiliklar deb o’z tengdoshlaridan orqada qoladi.

Tuman, shahar madaniy-oqartuv va sport muassasalaridan yaxshi foydalanish, turli sport to’garak va seksiyalari faoliyatini oshirish jismoniy tarbiya mashg’ulotlari sifatliroq o’tkazish maqsadaga muvofiq.

Yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi - davlatimiz faoliyatining muhim sohalaridan biridir.

Yoshlarni vatan himoyasiga tayyorlashning qayta ko’rilishi harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mazmuniy va tashkiliy-uslubiy tomonlaridan to’laroq foydalanishni talab qiladi. Tarbiyaviy tadbirlar samaradorligi tahlili, harbiy vatanparvarlik tarbiyasining amaliyoti bilan berilgan va tekshirilgan an’anaviy shakllarni tanlash va mustahkamlash, yoshlarni vatan himoyasiga tayyorlash vazifalarini zamonaviy sharoitlarda yanada to’la tadbiq qiladigan yangi shakllarini qidirish zarur.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy mazmuni:

- Vatanini himoya qilishda O’zbekiston Respublikasi fuqarolarining Konstitusion burchini tushuntirish;

- O’zbekiston Respublika mudofaasini kelgusida kuchaytirish masalalari bo’yicha hukumat qarorlari bilan tanishish;

- O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari bilan hal qilinadigan masalalar va ularning vazifasi va xususiyatlarini tushuntirish;

- O’zbekiston Respublikasi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to’g’risi"gi qonuni, harbiy Qasamyod va harbiy Nizomlarning asosiy talablarini o’rganish va o’zlashtirish;

- Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashning maqsad va vazifalarini tushuntirish;

- ajdodlar merosi, buyuk va jasur ota-bobolarimizning jangovar an’ana udumlarini targ’ibot qilish.

O’rta maxsus ta’lim yurtlaridagi vatanparvarlik tarbiyasi jarayoni – etakchi vazifani bajaradi, bo’lajak Vatan himoyachisining shakllanishiga katta ta’sir ko’rsatadi, chunki o’quv fanlarining mazmunida xalqimizning muhim ma’naviy, axloqiy, madaniy an’analari ifodalangan. Lekin bu jarayonga vatanparvarlik tarbiyasining alohida tarkibiy qismlari bilan chegaralanish etarli emas. U Vatan himoyasiga tayyor bo’lish, barcha tarkibiy qismlari holatiga har taraflama faol amaliy ta’sir ko’rsatishi va bu tayyorlikni o’smir hayotining eng muhim tomoni sifatida anglab tushunishiga ko’maklashishi darkor.

Vatan himoyasini, el-yurt tinchligi va farovonligini asramoq har bir yoshning muqaddas burchi bo‘lib qolishga da’vat etishini ham talab qiladi. Albatta, bu ulug‘vor vazifalarni amalga oshirish uchun faqatgina eng o‘tkir qurol bo‘lgan badiiy adabiyotning tarbiyalovchilik imkoniyatlaridan keng foydalanish, buning uchun dars jarayonidagina emas, balki auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda ham ertangi

kun egalari, chinakam vatanparvarlarni mustaqillikka sadoqat ruhida tarbiyalash lozim. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, avvalo, ona-Vatanga bo‘lgan muhabbat, uni sevish, e’zozlash, uning ravnaqi uchun har bir inson hissa qo‘shishini o‘rgatishda adabiy asar qahramonlari, tarixiy shaxslar, vatan fidoyilari eng yorqin namuna bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi 1992.
2. Karimov I.A. “Yukasak ma’naviyat-yengilmas kuch” “Ma’naviyat” T 2008 176-bet
3. Nasriddinov Ch.R. Harbiy psixologiya. Toshkent. «Fan» nashriyoti 2004.
4. Ortiqov O. va boshqalar. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2013-y
5. G‘oziyev E. «Umumiy psixologiya» O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati T. 2010 y.

HARBIY TAYYORGARLIK O‘QUV BO‘LINMALARIDA YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xurramov Jamshid Axrorovich
O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy aviatsiya instetuti radioelektron jihozlari kafedrasi boshlig‘i dotsent, podpolkovnik

Annotatsiya. Maqolada harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalarida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan bog‘liq bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas’uliyat hamda javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni mustahkamlash haqida fikrlar bayon etilgan.

Tayanch iboralar*:* yoshlar, harbiy, vatanparvarlik, sadoqatli, yuksak, tarbiya, Vatan, demokratik, konsepsiya.

Mamlakatimiz yoshlari – Vatanimizning, millatimizning kelajagidir. Vatanimiz taqdirini ularga ishonib topshirar ekanmiz, avvalo ular zimmalariga yuklatilayotgan murakkab va mas’uliyatli vazifani butun mohiyati ila chuqur anglashlari, unga o‘zlarini hissalarini qo‘shishlari lozim. Zero, Vatanni sevish, unga mehr-muhabbat qo‘yish bevosita har kimning shu yurt ravnaqi yo‘lida amalga oshirayotgan bunyodkorona ishlari bilan belgilanadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi siyosatida yoshlarni siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga jalb qilish, ularning islohotlardagi faol ishtirokini ta’minlash orqali ularning demokratik yangilanish jarayonlarining ishtirokchi sifatidagi roli yanada ortdi. Bu quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangi asrga kelib, yoshlarga munosabat masalasida dunyo taraqqiyoti uchun umumiy bo‘lgan qonuniyatning mavjudligi ayon bo‘ldi, ya’ni, yoshlar endi nisbatan ustuvor ahamiyatga ega shaxsdan jamiyat taraqqiyotini belgilaydigan, uni amalga oshiradigan etakchi kuchga aylanmoqda;

- yoshlarning intellektual qobiliyatlari, kasbiy malakasi, ma’nan va ruhan barkamollik kabi ijtimoiy sifatlari butun jamiyatning rivojlanish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday tendensiyalar yoshlarning alohida ijtimoiy demografik qatlam sifatida siyosatning faol sub’ektiga aylanib borayotganini ko‘rsatadi.

Yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyining tobora ortib borishi mamlakatimiz uchun xos xususiyatdir. Bugun mustaqillik tufayli yangicha dunyoqarash, demokratik tafakkurga ega bo‘lgan yoshlarning yangi avlodi shakllanmoqda. Ular respublikamiz kelajagining mustahkam tayanchi bo‘la olishi shubhasizdir. Zero, yoshlarning huquqlari va faoliyat kafolatlari bosh qomusimizda belgilab qo‘yilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha fuqarolarga taalluqli me’yorlardan tashqari, aynan yoshlarga tegishli bo‘lgan normalar ham mavjud. Jumladan, 50-moddada: “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy

ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir”; 77-moddada: “Voyaga etmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir”; 79-moddada: “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi”; 80-modda: “Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar” kabi me’yorlar belgilab qo‘yilganligi bilan ahamiyatlidir.

Shu o‘rinda Vazirlar Mahkamasining 2021-yilning 18-yanvaridagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” qarori qabul qilinganini alohida qayd etib o‘tish joiz. Ushbu huquqiy hujjat bosh islohotchi bo‘lgan davlatning yoshlar masalasiga doir strategik yo‘nalishlarini izchil va tizimli ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘llarini belgilab berdi. Ushbu qonunda quyidagilar ustuvor vazifa sifatida belgilab qo‘yildi:

- Yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy bazani takomillashtirish;
- Mamlakatda xavfsizlik, adolat va ekologik barqarorlikni ta’minlashda yoshlarning rolini oshirish;
- Yoshlar uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarni yaxshilash, ular o‘rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog‘lom turmush tarzini mustahkamlash;
- Ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning sifatli ta’lim olishini ta’minlash, hududlarda inklyuziv ta’lim rivojlanish uchun shart-sharoit yaratish;
- Yoshlarni ona Vatanga, oilaga, mustaqillik g‘oyalariga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;
- Yoshlarga munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish;
- Yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnoologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlashga qaratilgan “Besh muhim tashabbus”ni amalga oshirish;
- Ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bor yoshlar, mehribonlik uylarida tarbiyalangan etim bolalar, boquvchisini yo‘qotgan va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash;
- Yosh salohiyatli kadrlarni qo‘llab-quvvatlash va ularni davlat fuqarolik xizmatiga tayyorlash, mehnat bozorida raqobat- bardoshligini ta’minlash;
- Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlar jamoat tashkilotlari va volontyorlik harakatlarini qo‘llab – quvvatlash.

Qayd etish lozimki, yoshlarni harbiy - vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta’lim-tarbiyaviy ishlarga mamlakatimiz fuqarolarini, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalb etish va yoshlar

ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg‘ularini singdirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-son qarori bilan tasdiqlangan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” tasdiqlanganligi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etdi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo‘llari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o‘zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu millati, tili va kasbidan qat’i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko‘p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Qurolli Kuchlarning umumharbiy nizomlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq olib boriladi.

Ta’kidlash lozimki, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari muntazam ravishda tizimli va ilmiy asosda tashkil etiladi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi quyidagilardan iborat:

- ta’lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga molik qadriyatlarni, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalari;

- ommaviy va harbiy-vatanparvarlik ishlarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek boshqa tashkilotlar.

Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning **asosiy** prinsiplari hisoblanadi:

- ilmiylik;
- tarixiylik;

- aniqlik va tezkorlik;
- muntazamlilik;
- faollik;
- ta’lim va tarbiya ishlarining uyg‘unligi;
- tarbiya jarayonining izchilligi;
- harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari yoshlarda zarur hayotiy bilim, ko‘nikma, mahorat va mustahkam irodani, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan omillardan iborat.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllarda, jumladan, ilmiy-amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, o‘yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi. Ular ma’naviy-ma’rifiy ishlarning rang-barangligini ta’minlaydi, pirovard natijada jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bunda quyidagi shakllar ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi:

ma’ruza o‘qish, savol-javob kechalari, yakka va jamoaviy suhbatlar;

boy hayotiy tajribaga ega bo‘lgan harbiy xizmatchi va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda golib bo‘lgan shaxslar bilan uchrashuvlar;

ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalar, seminar-treninglar, muayyan mavzuga bagishlangan kechalar, bahs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari;

to‘plangan ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish;

jamoatchilik fikri va harbiy jamoalardagi ma’naviy-ruhiy muhitni o‘rganish;

teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar, film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, askar qo‘shikdari, ommaviy axborot vositalari, veb-saytlar va elektron o‘yinlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish;

urush va mehnat faxriylari, jangovar harakatlar qatnashchilari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish;

harbiy xizmatga chaqiriluvchilar kuni, mardlik saboqlarini o‘tkazish va ekskursiyalar uyushtirish.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samaradorligi ushbu jarayonning barkamol avlod tarbiyasiga, yoshlarning vatanparvarlik darajasiga qay darajada ijobiy ta’sir etgani bilan belgilanadi. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidagi samaradorlik darajasini aniqlashning muhim sharti yoshlarda vatanparvarlik, harbiy burch, jangovar an’analarga sodiqlik kabi xislatlarning real holatda yanada rivojlanishi va takomillashuviga ijobiy ta’sir etadigan omillarni muntazam ravishda hisobga olib, tahlil etib borishdan iborat. Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim mezonlaridan biri o‘sib kelayotgan yosh avlod oldiga jamiyat tomonidan qo‘yilgan talablar bu borada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ma’no-mazmuni, shakl va usullari bilan qay darajada mutanosib ekani bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va professor-o‘qituvchilari malakasini uzluksiz oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son qarori.

3.O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonunini.

4. Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi 267-son qarori.

BO‘LAJAK HARBIY TA’LIM O‘QITUVCHILARINING INTERFAOL METODLAR ASOSIDA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Tojiyev Xakimjon Xoliqovich
Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kreativlik tushunchasi, interfaol metodlar, interfaol ta’lim usuli va texnologiyalari, kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan interfaol o‘qitish jarayoni, kasbiy-pedagogik shart-sharoitlar, kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish, talabalarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, interfaol metodlar, qobiliyat, kognitiv bilimlar.

Jahondagi globallashuv va ta’limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo‘lajak harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda.

Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy ta’lim muassasasi pedagogini muhim kasbiy-pedagogik vazifasi hisoblanadi.

Kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Buyuk allomalarimiz yangi g‘oyalar, yangicha yondashuvlarni ta’limga joriy qilish bo‘yicha tinmay kurash olib borganlarini ko‘rish mumkin. Sharqning buyuk allomalari Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy, Axmad alFarg‘oniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Zahiritddin Muxammad Boburlar o‘z davrining yangi ilg‘or pedagogik g‘oyalar, fikrlar namoyandalaridir. Mustaqil ta’lim-o‘sha davrdagi eng samarali usullar hisoblangan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan allomalar, dunyodagi eng mashhur daholar hisoblanib, asosan, mustaqil, mutolaa qilish natijasida olamshumul yangilik, kashfiyotlarni ixtiro qilishga muyassar bo‘lganlar. Mustaqil ta’lim, o‘zlikni anglashdan boshlanadi. O‘z-o‘zini rivojlantirish, tarbiyalash, o‘qish, o‘rganish, mehnat qilish, tinimsiz izlanuvchanlik, kuzatuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorliklar asosida yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyalanishiga olib keladi

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual

salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish” kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. SHunga muvofiq interfaol o‘qitish metodlari asosida bo‘lajak harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi. Ko‘rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellekt-intuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta’sirida kechadi. Interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar talaba egallayotgan bilimlarni o‘zi qidirib topish, mustaqil o‘rganib, tahlil qilish, xulosalarni ham o‘zi keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘rganuvchilarning mustaqil, ijodiy faoliyat ko‘rsatishlariga ko‘maklashish ularning o‘z mavqelarini aniqlashlari va amalda tatbiq etishlari uchun sharoit yaratish, ijodiy faoliyatlarini pedagogik qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan topshiriqlarni taqdim etishni anglatadi.

Interfaol ta’limda o‘qituvchi o‘quv faoliyatining faol tashkilotchisi bo‘lib, talaba bu faoliyatning sub’ekti sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda o‘qitishning maqsad va vazifalari, uning mazmuni va kutilayotgan natijalar bevosita ta’lim oluvchining individual imkoniyatlari doirasida belgilanadi va shunga moslashtiriladi. Interfaol ta’limni amalga oshirishning muhim vositasi - interfaol o‘qitish metodlaridir.

Interfaol o‘qitish metodlari talabalardan axborotlarni o‘zlashtirish jarayonidagi faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, o‘qitish maqsadlarining to‘laqonli amalga oshishiga yordam beradi.

Interfaol metodlar – talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini hamda o‘qituvchi bilan hamkorliklarini tashkil etishga xizmat qiladigan metodlar.

Interfaol metodlarning mohiyati o‘qitish jarayonida talaba faolligini oshirish, talabani pedagogik faoliyatning markaziy figurasiga aylantirishdan iboratdir. Talabalarni faollashtirish uchun dars jarayonida qo‘llaniladigan usullarni to‘g‘ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi. Buning uchun darsda mavzuga qo‘yilgan maqsad aniq belgilanib, shu maqsadga erishish yo‘li, usuli puxta ko‘rib

chiqilishi lozim. O‘qituvchi har bir foydalanadigan interfaol usuli talabaga nima berishini oldindan ko‘ra olishi va darsni to‘g‘ri tashkil qilishi kerak.

Interfaol ta’lim o‘qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, talaba va talabalar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda echimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda talabalarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi – talaba – talabalar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

O‘qituvchi interfaol ta’lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat, o‘z-o‘zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning echimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi. Eng muhimi, interfaol ta’lim texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘qituvchi talabalarning aniq ta’limiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo‘naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo‘lga kiritadi

Interfaol metodlar bilan an’anaviy ta’lim usullari orasida o‘ziga xos farqlar mavjud bo‘lib, har bir o‘qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o‘tkazish usullarini tanlashda to‘g‘ri hisobga olishi zarur. Bunda yangi bilimlarni berish, ko‘nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo‘llash mashg‘ulotlarida hamda o‘quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo‘yicha mashg‘ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo‘lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to‘g‘ri tanlash nazarda tutiladi. To‘g‘ri tanlangan metodlarni qo‘llash mashg‘ulotning qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Interfaol mashg‘ulot turlari ko‘p bo‘lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko‘zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko‘riladi. Interfaol mashg‘ulotda ishtirok etish uchun talabalarning tayyorliklariga o‘ziga xos talablar qo‘yiladi, bular mashg‘ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o‘zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o‘zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko‘nikmalari va boshqalardan iborat.

Interfaol ta’lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-talabalarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi, talabalar orasida emotstional aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, amaliyotdan ma’lum bo‘lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash talabalarning asabiy zo‘riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Hozir interfaol mashg‘ulotlarni olib borishda ma’lumki, asosan interfaol usullar qo‘llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma’lum darajada interfaol texnologiyaga o‘sib o‘tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o‘zaro farqini bizningcha, shunday ta’riflash mumkin.

Interfaol ta’lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir talaba o‘z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol ta’lim texnologiyasi – har bir o‘qituvchi barcha talabalar ko‘zda tutilgandek o‘zlashtiradigan mashg‘ulot olib borishini ta’minlaydi. Bunda har bir talaba o‘z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg‘ulotni oldindan ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol mashg‘ulotlarni amalda qo‘llash bo‘yicha ayrim tajribalarni o‘rganish asosida bu mashg‘ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi ayrim omillarni ko‘rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda o‘qituvchiga, talabalarga, ta’lim vositalariga bog‘liq omillar deb atash mumkin. Talabalarda kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda quyidagi kasbiy-pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

- talabalarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash;

- talabalarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish;

- o‘quv jarayonini talaba shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intelektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

- talabalarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart echimlar bilan birga nostandart echimlar qabul qilishga undash;

- kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish.

Xulosa qilib aytganda, interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalari talabalarda kreativlik qobiliyatlarining shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi

hamda ularda kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan interfaol o‘qitish jarayoni o‘zining muayyan mazmuni, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari, xususiyatlari va usullariga ega bo‘lishi shart.

Interfaol usullarni qo‘llash natijasida talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini to‘g‘risida»gi PF-5847-son Farmoni.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii v podgotovke uchitelya. -T.: TDPU, 2000. -80-b.
3. Barsheva T.A., Jigalov Yu.A. Psixologo-pedagogicheskie osnovi razvitiya kreativnosti. SPb, 2006. -285s.
4. Bubenov A.V. Kommunikatsionnaya kultura: Filosofsko-metodologicheskiy analiz Elektronniy resurs.: dis. kand. filosof, nauk. M., 2006.
5. Bespalko O.V. Sotsialnaya pedagogika: sxemы, tablitsi, kommentarii (ucheb.posobie). – M.: TSentr uchebnoy literaturi, 2009. – 208 s. – ISNB 978-966-364-837-81.
6. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2005 y. 2.
7. Guilford, J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444–454.
8. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2005 y. 1
9. Isaev I. Professionalno pedagogicheskaya kultura prepodavatelya. – M.: Izdatelskiy tsentr «Akademiya», 2002. – 208 s.;
10. Ibragimova G.N. Interfaol ukitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik kobiliyatlarini rivojlantirish. / Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.
11. Drujilov S.A. Professionalnaya kompetentnost i professionalizm pedagoga: psixologicheskiy podxod. // Sibir. Filosofiya. Obrazovanie. Nauchno-publitsisticheskiy almanax: So RAO, IPK, Novokuznetsk, 2005
12. Davletshin M.G., Jalilova S.I. Oliy maktabda ta’lim jarani samaradorligining psixologik tomonlari – T.:TDPU, 2001. – 10

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ КОНЦЕПЦИИ ПОДГОТОВКИ МОЛОДЕЖИ К ВОЕННОЙ СЛУЖБЕ

Тошпулатов Аброржон Мирхокимович
преподавател факултета военного образования Ферганского государственного университета

Аннотация: Состояние и перспективы обороноспособности государства во многом определяются качеством подготовки молодежи допризывного возраста к службе в Вооруженных Силах. Ситуatsiя, сложившаяся в связи с переходом в 2008 году на годичный срок военной службы по призыву характеризуется рядом негативных факторов. К содержателным факторамусловно можно отнести: снижение показателей состояния здоровяи физического развития болшей части молодёжи, подлежащихпризыву на военную службу; недостаточные объемы физической нагрузки на занятиях по физическому воспитанию в образователных учреждениях; недостаточное развитие военно-прикладных видов спорта, сложности адаптации новобранцев к военной службе.

Ключевые слова: воспитателной работы, Министерство обороны, организации воспитания, Воспитателный процесс, педагогической деятелности, организации воспитателной работы, военном вузе.

Эффективност воспитателной работы и учебного процесса в военном вузе на многие годы определяют не толко возможности офицера в сфере профессионалного становления, но и само состояние армии в целом, поэтому в улучшении организации воспитателной работы в военных ВУЗах заинтересованы государство, Министерство обороны, командиры, преподаватели, курсанты, общество в целом.

Воспитателный процесс - это профессионално организованный целостный учебно-воспитателный процесс, характеризующийся совместной деятелностю субъектов, сотрудничеством, содержанием и методами освоения культуры.

Воспитателный процесс в военном вузе - это целенаправленная, специално организованная система воспитателной деятелности руководства вуза, общественных организatsiй, профессорско-преподава-телского состава по подготовке квалифицированных военных специалистов с развитыми профессионално значимыми и личностными качествами.

Источником развития воспитателной системы военного вуза служат противоречия. Основное из них - между постоянно возрастающими требованиями к личности курсанта, воинского коллектива и уровнем их развития, воспитанности и сплоченности. Это основное противоречие отражается в фактах процесса воспитания - противоречиях более низкого уровня: между новыми требованиями к воспитанию и возможностями создания необходимых материалных, социалных и иных условий для реализatsiи этих требований; между характером и содержанием общественного, гражданского и воинского воспитания; между требованиями

воинского воспитания и личными интересами и стремлениями обучаемого; между возросшими требованиями и уровнем психолого-педагогической, методической подготовки должностных лиц.

Важным условием повышения эффективности организации воспита-телной работы с курсантами военных командных вузов явилос внедрение в учебный процесс следующих специально спроектированных воспитател-ных технологий: технологии «информационного обеспечения» процесса организации воспитателной работы, направленной на оптимизацию работы преподавателей, командиров и курсантов с различными источниками информации; технологии «коллективно-творческого воспитания», основанной на организации малых групп курсантов, в задачи которых входит подготовка и проведение мероприятий по патриотическому и духовно- нравственному воспитанию в курсантских подразделениях, а также в подшефных школах; технологии «мотиватsionно-личностного» обеспечения самостоятелной деятелности, направленной на самосовершенствование патриотических и духовно-нравственных качеств курсантов во вне учебное время, в часы самостоятелной работы; технологии «педагогического сотрудни-чества». Ее основными целевыми ориентирами является переход от педагоги-ки требования к педагогике отношений, гуманно-личностный подход к курсанту, а также единство процессов обучения и воспитания; технологии «гуманноличностного» воспитания. Она предусматривает содействие становлению, развитию и воспитанию в курсанте благородного человека путем раскрытия его личностных качеств, а также его познавателных способностей; технологии «гуманного коллективного воспитания». Она предусматривает, что в воспитании нет главного и второстепенного, воспитание рассматривается как своеобразное педагогическое ведение курсанта в течение всего периода обучения. Приоритетными воспитателными ценностями считаются совест, добро и справедливост.

Заключение: Осуществлен анализ современного состояние деятелности образовательных учреждений по подготовке молодёжи к военной службе. Выявлены основные педагогические условии, на их основе разработана концепция подготовки молодёжи к военной службе. Отмечено, что воспитателный процесс организуется в рамках спроектированной воспитателной системы как компонента целостного педагогического процесса военного вуза, основанного на взаимосвязи методологических подходов и принципов гуманизации воспитателного процесса. Исследованы педагогические особенности подготовки молодёжи к военной службе. Уточнены сущност и содержание, сформулированы основные факторы и организационно-педагогические условия повышения эффективности педагогической системы подготовки молодёжи к военной службе. Сформированы в педагогической деятелности у обучающейся молодежи позитив-ного отношения к военной службе. Обоснованы компоненты, этапы, уровни и показатели формирования позитивного отношения к военной службе, в

разработке подхода, учитывающего возрастные особенности молодёжного возраста и образовательной среды образовательных организаций, учитывающих влияние переменных внутренних и внешних факторов.

ИСПОЛЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Toshpo‘latov Abrorjon Mirxakimovich Ta’lim muassasalarida yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashning pedagogik xususiyatlari” o‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2023, [1/7] материаллари –Toshkent 2023.-Б.182-185.
2. Mirkhokimovich T.A. (2022). Psychological preparation of military personnel for a combat situation.MiastoPrzyszłości, 28 , 240-241.
3. Toshpo‘latov Abrorjon Mirxakimovich *Yoshlarni harbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi* Pedagog respublika ilmiy jurnali 6 – Tom 4 – son / 2023 - yil / 15 – Aprel
4. Mirkhokimovich T.A. (2022). The physical generation is the backbone of a mature army. texas magazine interdisciplinary research , 7 , 356-357.
5. Ortikovich U.A., Mirkhokimovich T.A., Khoshimovich A.B. and Ibragimovich A.I. (2022).SERVICE TO THE COUNTRY - HOLY DUTY. CREATIVE TEACHER , 2 (19), 606-608.
6. Yakubov, M. S., Turakhanov A. A., Toshpulatov A. M. MAIN DIRECTIONS OF MILITARY AND PATRIOTIC EDUCATION OF PRE-LIFE PREPARATION OF YOUTH FOR MILITARY SERVICE. JOURNAL ,
7. Toshpo‘latov Abrorjon Mirxakimovich Chaqiriluvchilarni jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash uslubiyoti O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va 18-son ilmiy tadqiqotlar jurnali 20.04.2023
8. Toshpo‘latov Abrorjon Mirxakimovich Формирование физической военно-прикладной подготовленности молодежи допризывного возраста International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 7.502 Impact factor Volume-11| Issue-22.10| 2023

TALABALARDA AXBOROT VA MAFKURAVIY TAHDIDLARGAQARSHI IMMUNITETNI SHAKILLANTIRISH

Umarov Ismoiljon Olimjonovich
Fag‘ona davlat unversiteti harbiyta’lim fakulteti катта o‘qituvchisi

Annotatsiya: Xalqimizni turli g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immuniet hosil qilish uchun uni, avvalo, taraqqiyot qonunlarini chuqur aks ettiradigan sog'lom, insonparvar g'oya va mafkura bilan qurollantirish kerak. O'zligimizni, odob – axloqimizni, merosimiz, qadriyatlarimiz va milliy ruhimizni zararli g'oyalar va mafkuralar ta'siridan avaylab-asrash, ularga qarshi fuqarolarimiz va yoshlarimiz qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish orqaligina milatni mafkurasini asrash va yanada yuksaltirishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: mafkuraviy immunitet, aqidaparast oqimlar, ommaviy madaniyat, korrupsiya, jinoyatchilik, mafkuraviy tahdid, diniy ekstremizm, fundamentalizm, millatchilik, missianerlik, mafkuraviy bo'shliq, so'z erkinligi.

Kirish qism: Axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish– davr talabi. Bugungi tahlikali zamonda, globallashuv davrida, ayniqsa, g‘oyalar kurashikeskin tus olgan paytda asosli, hayotiy, samarali targ‘ibot va tashviqot xalqni ishontiradi, ruhlantiradi, ulug‘ va qutlug‘ maqsadlar sari ilhomlantiradi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf – xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota – onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota- onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. “Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim”. So‘nggi yillarda aqidaparast oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini mehnat migrantlarini ta’sir doirasiga olish, diniy ekstremistik mazmundagi materiallarni elektron ko‘rinishda tarqatish, “Internet” orqali targ‘ibot o‘tkazish, yashirin “Hujralar” tashkil etish kabi usullarda amalga oshirmoqda. Ayniqsa, Internet tarmog‘ida “Iroqdavlati”, “Jabat al-Nusra” kabi terroristik tashkilotlar guyoki islom ravnaqi yo‘lida kurashayotgan “Mujohid birodarlar guruhi” ekani haqidagi targ‘ibot-tashviqot keng ko‘lamda olib borilayotgani, buning oqibatida dunyoning ko‘plab mamlakatlaridan musulmon yoshlar “hijrat” qilish va “jihod”da ishtirok etish da’vosida Suriya va Iroq hududiga borib, ushbu guruh safiga qo‘shilayotganing guvohi bo‘lmoqdamiz. Mutaassib oqim a’zolarining bosh maqsadi “jihod”, “hijrat”, “shahidlik”, “kofir bo‘lish” kabi diniy tushunchalarni soxta talqin qilish orqali yoshlarimizni qurolli to‘qnashuvlar ketayotgan Suriya, Iroq, Afg‘onistoni yoki Pokiston kabi mamlakatlarga jo‘natib, “manqurt – jangari” yoki “tirik bomba”ga aylantirishdan iborat. Internet va yuqori texnologiyalar tufayli dunyoda madaniyatlar va davlatlar o‘rtasidagi chegaralar yo‘qolib bormoqda.

Asosiy qism: Hozirda Internet tarmoqlarida buzg‘unchilik, zo‘ravonlik va axloqsizlikni, “ommaviy madaniyat”ni targ‘ib etadigan saytlar faoliyat

ko‘rsatmoqda. Ana shunday keskin va murakkab axborot xurujlari va xavf-xatarlarga biz qanday qarshi tura olamiz? Ayni vaqtda, yoshlarning turli norasmiy, noislomiy diniy jamoalarning ta’siriga tushib qolishining oldini olishda o‘quv muassasalari va mahalla tomonidan tizimli ravishda tushuntirish ishlari olib borishi muhim o‘rin tutadi. Yoshlarda yot g‘oyalarga nisbatan ma’naviy immunitet shakllanmas ekan, “bu –yaxshi, bu– yomon” degan qat’iy fikr paydo bo‘lmas ekan, mafkuraviy xatarlarga qarshi turish qiyin bo‘ldi. Xalqimizda “Yaxshi bola yurt tuzar, yomoni elni buzar” degan purhikmatli gap bor. Yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotni asrash, uning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissamizni qo‘shish har birimizning, shu aziz Vatanda yashayotgan barcha fuqarolarning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qolmog‘i lozim. Mustaqilligimizni asrab-avaylashga chorlaydi. Muhimi, tinchlik-totuvlik, mehr-oqibat bor ekan, o‘z orzu-maqsadlarimizga albatta erishamiz. Xavfsizlikka tahdidning mazmun-mohiyati muhtaram Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida umummetodologik, siyosiy-falsafiy tomondan etarlicha yoritib berilgan edi. Mazkur kitobning 1-bobida muallif mintaqaviy mojarolar; diniy ekstremizm va fundamentalizm; buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik; etnik va millatlararo ziddiyatlar; korrupsiya va jinoyatchilik; mahalliychilik va urug‘-aymoqchilik munosabatlari; ekologik muammolar xavfsizlikka tahdid solishini batafsil va teran ifodalab beradi.

Mafkuraviy tahdid oz mohiyatidan kelib chiqib, eng avvalo, inson ongiga, tafakkuri va xulq-atvoriga xavf-xatar solmoqda. Inson ongi va kalbini vayronkor xamda buzgunchi goyalar bilan izdan chikarishga harakat qilish mafkuraviy tahdidning eng asosiy mazmun-mohiyatini belgilaydi. Mafkuraviy tahdid muayyan jamiyat a’zolarini yagona maqsad va muddaolardan chalgitib, milliy mentalitetga mos kelmaydigan begona goyalar, fikrlar, maqsadlar va karashlarni chetdan turib eksport qilish jarayonida ozini yanada anikroq namoyon qiladi. O‘zbekistonga xuruj qilayotgan mafkuraviy tahdidlar va ularning turlarini quyidagicha sanash mumkin:

1.Diniy ekstremizm va fundamentalizm.

2.Buyuk davlatchilik va agressiv millatchilik.

3.Xalqaro terrozim.

4.Axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi harakatlar.

5.Ommaviy madaniyat.

6.Missianerlik Bu kabi tahdidlar bizni o‘z domiga tortib ketmasligi uchun bizga milliy imunitetni rivojlantirish zarur. Bu kabi tahdidlar bizni o‘z domiga tortib ketmasligi uchun bizga milliy imunitetni rivojlantirish zarur. Buning uchun biz quyidagi sohalarni chuqur rivojlantirishimiz lozim bo‘ladi:

1. Ta’lim tizimini rivojlantirish. Va ilg’or fikrlovchi yoshlarni ko’paytirish.

2. So’z erkinligini ta’minlash. Jurnalist xodimlar dunyoda va atrofimida yuz berayotgan jarayonlarni xolis yortib beradigan axbarot maydonini yuzaga keltirishi va biz ishonchli va xolis ma’lumotlarni o’z ommaviy axbarot vaositalarimizdan qabul qilishimiz kerak bo’ladi.

3. Dinni yaxshi anglash. Yuqorifagi tahdidlarga e’tibor qaratsangiz asosiy tahdidlar e’tiqod va an’analarga bog’liq ekanligini ko’rasiz. O’zbek madaniyati, o’zbek urf-odatlari asosan islom dini asosiga qurilgan. Millatimizning har bir xatti-harakatida, marosimlarida islom dinining ta’sirini sezish qiyin emas. Shu sababli dinni yaxshi anglash, buning uchun etarli shart sharoitlar yaratish o’ta muhim masala hisoblanadi. Shu va boshqa tarmoqlarni yanada rivojlanishi bizga tashqaridan krib kelayotgan g’oyaviy tahdidlarga munosib ziddi zahar bo’la oladi. Bir narsa aniqki, biz uchun tashqaridan madad kelmaydi, o’zimiz uchun o’zimiz harakat qilishimiz lozim. Va avvaloam bor har bir fuqaro o’z shaxsiy rivojlanishini yo’lga qo’ysa, butun millat isloh bo’ladi. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ma'naviyat va qadriyatlarning o'rni ekstremizmning paydo bo'lishi va rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar ichida mafkuraviy bo'shliqning ta'siri kattadir. Mafkuraviy bo'shliq kishilarda jamiyatdagi mavjud holatni, ijtimoiy voqelikni noto'g'ri idrok etishga, ularning ongida agressivlikni shakllantirishga xizmat qiladigan bo'shliqni nosog'lom g'oyalar bilan to'ldirishga zamin yaratadi. “Manqurtlashtirish” deb ataladigan bu texnologiya kuchsiz ma'naviyat, bo'sh iroda va nosog'lom intilishlar muhitidagina ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda yot g'oyalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladigan mafkuraviy profilaktikaning o'rni katta. U ijtimoiy institutlar tomonidan xilma-xil shakllarda amalga oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy ishlar majmuini, to'g'ri tashkil etilgan tarbiya tizimini qamrab oladi. Mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Mamlakatimiz xavfsizligini bugungi va ertangi kunini hal qiluvchi kuchi bo'lmish o'sib, unib kelayotgan yoshlarimizni har tomonlama mafkuraviy qurollantirish ya'ni ularni turli xil yot va zararli g'oyalar ta'siridan himoya qilish orqali ularning mafkuraviy immunitetini shakllanish lozimligini bugungi davrning o'zi talab qilmoqda. Agar bu tushunchani qurollantirish emas, balki qurollanmog'i kerak desak, bevosita ularni o'z holiga tashlab qo'ygan va ko'ziga “yaltirab” ko'ringan narsani o'zlashtirishga sharoit yaratgan bo'lamiz. Pok qalbli yoshlarimizni, pok niyatlarini o'grincha bilib olgan va ularning ezgu g'oyalarini asta-sekinlik bilan yot g'oyaga aylantirishga sabab bo'layotgan, faqat sirtidangina jozibador, asli esa puch bo„lgan g'oyalar ta'siridan qutulishning birdan-bir yo'li bu – ma'rifatdir. Demak, biz yoshlar “Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish” kerakligiga har doim ham amal qilish lozimligini unutmasligimiz kerak.

Xulosa: Bugungi kunda yoshlarimizni turli xil yot va zararli g‘oyalar va vayronkorg‘oyalarga qarshi barqaror mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda ularningdunyoqarashini boyitish, Vatanga sadoqat, uning taraqqiyotiga daxldorlik hissi, milliyg‘ururni shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamoltoptirish, hozirgi zamondagi keskin intellektual – ma’naviy raqobatga javob beraoladigan, mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lgan yuksak malakali mutaxassiskadrlar etib tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Prezidentimiz

ta’kitlab o‘tkanidek: Yoshlarimizning mustaqilfikrlaydigan, yuksak intelektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib,dunyo miqyosidao‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kalomtopishi,baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarinisafarbar etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asari. 1-bob.

2. Sh.Mirziyoyev. Erkin va faravon,demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T: O'zbekiston 2016.14-bet

3. Ergashev I va boshqalar.Milliy istiqlol g'oyasi:O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik.T.:Akademiya-2005.93 bet

4. Tashmetov.T.X (2020).Yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarning tarbiyadagi axamiyati."Science and Education" Scientific Journa, 1(7), 617-624. 5. Falsafa: Qomusiy lug'at.T.Sharq,2004.160-bet.

REZERVDAGI VA ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORALASHDA HARBIY TAYYORGARLIK FANINING DOLZARB MASALALARI

Usmonov Shaxobiddin Ruzimurodovich,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashda harbiy tayyorgarlik fanining dolzarb masalalari haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar: Oliy, ta’lim, muassasa, harbiy, tayyorgarlik, o‘qituvchi, ofitser, bo‘lajak, zaxira, texnologiya, tamoyil, ko‘rgazmali.

Аннотатция. В данной стате рассматриваются факторы, влияющие на профессионалную подготовку будущих офицеров резерва и запаса.

Ключевые слова: Высший, учебный, учреждение, военный, учебный, преподаватель, офицер, перспективный, резервный, технологический, принципиалный, показателный.

Annotation. This article talks about the current issues of military training in the training of reserve and reserve officers.

Key words: Higher, educational, institution, military, training, teacher, officer, prospective, reserve, technology, principle, demonstrative.

Bugungi globallashuv va tezkor axborot asrida, mamlakatimizdagi demokratik islohotlarga hamohang so‘z erkinligi tufayli ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining jamiyat boshqaruvidagi o‘rni keskin faollashdi. “Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun” [1] degan shior ostida yoshlarning ta’lim-tarbiyasi borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Bunday murakkab vaziyatda ishlash, natijaga erishish uchun, eng avvalo, sharoit va yuqori malakali kadrlar kerak.

Bizga ma’lumki, har bir inson o‘zi yashab turgan olam va hayot haqida muayyan bir bilimlarga egadir. Insonlar umri davomida to‘plagan bilimlariga ko‘ra “aqlli”, “aqlsiz”, “bilimli”, “bilimsiz” “qobiliyatli” yoki “qobiliyatsiz” kabi turli sifat va darajalarga bo‘linadilar. Harbiy xizmatchi o‘z kasbining haqiqiy egasi bo‘lishi uchun o‘zini qurshab turgan atrof-muhit haqida bilim va tasavvurga ega bo‘lishi shartdir. Olam va odam, tabiat va jamiyat hamda fazo haqidagi bilimlar inson psixikasining muhim shakli bo‘lgan bilish jarayonlari yordamida to‘planadi va rivojlanadi. Ma'lumki armiya safida o‘z bo‘ysunuvchilarining faoliyatlariga komandir va boshliqlar ma'suldirlar. Lekin sifat va fazilatlarni shakllantirishga kelganda armiya safigacha bo‘lgan ta'lim tarbiya o‘rnining ahamyati katta. Ayniqsa “Harbiy tayyorgarlik” fanini o‘qitishda sifatli va samarali o‘qitilishini ahamiyati bu borada muhim. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek «Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir»[4].

Harbiy tayyorgarlik fanini o‘qitishda didaktik tamoyillar o‘qitish nazariyasining boshlang‘ich qoidalari bo‘lib, o‘qituvchi o‘quv jarayonini tashkil etishda ularga amal qilishi kerak.

O‘qitish tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin: faollik tamoyili;

o‘qitishda nazariya bilan amaliyotning bog‘liqligi tamoyili; ko‘rgazmalilik tamoyili; o‘qitishning tarbiyalovchi xarakteri tamoyili; ilmiylik tamoyili; o‘qitishda muntazamlilik va izchillik tamoyili; o‘qitishning tushunarli bo‘lishi tamoyili; bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishning puxtaligi tamoyili.

Faollik tamoyili. Bo‘lajak zaxiradagi ofitserlar har bir darsga faol qatnashishi kerak. U o‘zi harakat qilgan taqdirdagina yaxshi o‘rganadi va o‘zlashtiradi.

Nazariyaning o‘qitish amaliyoti bilan bog‘liqligi tamoyili. Bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlar berish jarayonida boshlanib, tajriba va amaliy mashg‘ulotlarda davom etadi. Bu mashg‘ulotlarda bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlar o‘qituvchi rahbarligida amaliyot jarayonida olingan bilimlarning ishonarli ekanligini tekshiradilar, mustahkamlaydilar, hamda ularda ana shu bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalari va malakalari hosil bo‘ladi.

Ko‘rgazmalilik tamoyili. O‘qitishning ko‘rgazmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarda o‘rganilayotgan jarayonlarni bevosita idrok qilish bilan bog‘liq muayyan hissiy amaliy tajriba bo‘lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli suratda o‘zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil bo‘lishi mumkin.

Bilimlarni iloji boricha ko‘rgazmali va real hayotga yaqin qilib tadbiq etish - tilning tushunarliligini va o‘qitish jarayonida audio-vidio va zamonaviy multimedia vositalaridan foydalanishni talab qiladi.

O‘qitishning tarbiyalovchi xarakteri tamoyili. O‘qitish va tarbiyalash jarayonlari bir-biriga uzviy bog‘liq. Tarbiya orqaligina inson o‘z shaxsini anglab etadi, o‘z-o‘zini anglagan kishigina o‘z qobiliyatlari va imkoniyatini bilgan holda ehtiyojini shakllantirish zarurligini tushunadi.

Ilmiylik tamoyili. Bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarga o‘rganish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko‘rilgan ma’lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng yangi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak. Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlar o‘rganayotgan bilimlar nazariy jihatdan tasdiqlangan va amalda sinalgan bo‘lishi kerak.

O‘qitishda muntazamlilik va izchillik tamoyili. O‘qitishni shunday tashkil qilishni talab etadiki, bunda fanlarni o‘qitish qat’iy mantiqiy tartibda olib boriladi, bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlar bilim, ko‘nikma va malakalarni izchillik bilan egallab boradilar. Ushbu tamoyil o‘quv jarayonining barcha bo‘g‘inlarida amalga oshiriladi. Uning talablari darsliklar va dasturlarni tuzishda o‘z aksini topadi.

O‘qitishni tushunarli bo‘lishi tamoyili. O‘rganilayotgan o‘quv materialining mazmuni, hajmi va o‘qitish metodlari o‘quvchilarning yoshiga, intellektual quvvatiga mos bo‘lishini talab etadi. O‘qitishning tushunarliligi o‘quvchi imkoniyatlarining eng yuqori chegarasi va uni astasekin oshirib borish bilan belgilanadi.

Bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishning puxtaligi tamoyili. Nazariy va amaliy ta’lim jarayonida o‘quvchilar o‘zlarining bo‘lajak kasbiy faoliyatlari uchun kerak bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallab boradilar. Hosil bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning kelgusida ilmiy bilimlar tizimini o‘zlashtirib olishda asos bo‘lib xizmat qilishi uchun ular puxta o‘zlashtirilgan, yaxshi mustahkamlangan bo‘lishi va o‘quvchilarning xotirasida uzoq vaqt saqlanishi kerak.

Har tamonlama kamol topgan yuqori salohiyatli pedagogik kadrlar tayyorlash masalasi avvalo o‘qitish jarayonida hosil qilinadi.

O‘qitish jarayoni **-** pedagogning va u rahbarlik qilayotgan o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma hamda malaka tizimini ongli ravishda va puxta o‘zlashtirishga qaratilgan izchil harakatlari majmuidan iborat.

O‘qitish **–** o‘qituvchining o‘quvchilarga bilim, ko‘nikma va malaka tizimi berish, ularning bilimi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi faoliyatidir.

O‘qish- o‘quvchilarning o‘quv fani materialini o‘zlashtirish borasida qiladigan muntazam va ongli mehnati.

O‘qitishning tashkiliy shakllari deganda o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro munosabatlarini tashkil etish yo‘llari tushuniladi.

O‘qitishning tashkiliy shakllari bir qator mezonlar bo‘yicha tasniflanadi: o‘quvchilar soni, o‘qish joyi va boshqalar.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T. O‘zbekiston, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 24 yanvardagi PQ-2738-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini isloh qilish va yanada rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi 2021 yil 30 sentyabrdagi O‘RQ-718-son “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
5. Эgamberdiev I.Y. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari: Ped. fanl. boyicha fals. d-ri (PhD) ... Dis. – T., 2023.
6. Xasonboev B.V. Bo‘lajak ofitserlarda axloqiy-ruhiy sifatlarni qaror toptirishning nazariy-pedagogik asoslari: Ped. fanl. boyicha fals. d-ri (PhD) ... Dis. – Ch., 2023.
7. Xonimqulov A.R. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmini takomillashtirish: Ped. fanl. boyicha fals. d-ri (PhD) ... Avtoref. – T., 2023.

Oliy harbiy ta’limda innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llashda “Pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish mexanizmlari”

Uralov Xusan Boboqulovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi katta o‘qituvchisi, dotsent, rezervdagi podpolkovnik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oliy harbiy ta’limda innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llagan holda “Pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish mexanizmlari” yoritish haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar: Harbiy ta’lim, qobiliyat, kasbiy rivojlanish, pedagogik shart-sharoitlar, pedagogik mexanizm, kasbiy fazilat, harbiy mutaxassis, o‘quv-tarbiyaviy ishi, ofitserlik etikasi, zamonaviy ta’lim, innovatsion usullar, axborot texnologiyalari.

Аннотация. В данной стате говорится об освещении темы «Механизмы улучшения педагогических условий» с исползованием инновационных методов обучения в высшем военном образовании.

Ключевые слова: Ключевые слова: Военное образование, способности, профессионалное развитие, педагогические условия, педагогический механизм, профессионалное качество, военный спесиалист, воспитателная работа, офицерская этика, современное образование, инновационные методы, информационные технологии.

Abstract. This article talks about the coverage of "Mechanisms of improving pedagogical conditions" using innovative teaching methods in higher military education.

Key words: Military education, ability, professional development, pedagogical conditions, pedagogical mechanism, professional quality, military specialist, educational work, officer ethics, modern education, innovative methods, information technologies.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari jamiyatimizning tarkibiy va ajralmas qismidir. Mamlakatdagi o‘zgarishlar Qurolli Kuchlar oldida turgan vazifalarning o‘zgarishiga olib keldi: zamonaviy, texnik jihatdan jihozlangan, professional armiyani yaratish va uning sifat salohiyatini oshirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bu ushbu toifadagi harbiy xizmatchilar uchun mavjud bo‘lgan barcha yo‘nalishlar, mutaxassisliklar bo‘yicha ofitserlarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablarning mohiyatini sezilarli darajada o‘zgartiradi. [1]

Shuni ta’kidlash kerakki, ofitser faoliyatida o‘quv-tarbiyaviy ishining o‘ziga xos mazmuni bilan ajralib turadi: kursantning harbiy tayyorgarligi qurol va harbiy texnika bilan ishlashda xavfsizlik choralariga rioya qilish, yuqori ma’naviyat va yuksak ma’naviyatni ta’minlash bilan amalga oshiriladi, har bir bo‘ysunuvchi harbiy intizom va sadoqatni singdirish, bo‘ysunish talablariga rioya qilgan holda sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish va shaxsni hurmat qilish. [2]

Oliy harbiy ta’lim muassasalari bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarini tayyorlashda, pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish mexanizmlari uni strategik zaxirasini tarbiyalash maktabi sifatida ko‘rib chiqilishini belgilaydi. [3]

Pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishni rivojlantirish mexanizmlari tizimini modernizatsiya qilish, jamiyat talablari bilan integratsiya qilish, me’yoriy hujjatlardan, shuningdek, zamonaviy oliy harbiy ta’limni rivojlantirish shakllari va usullaridan samarali foydalanish bo‘yicha tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. [4]

Respublikamizda harbiy kadrlarni tayyorlash sifatini yaxshilash maqsadida kadrlarni o‘qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarni harbiy ta’lim jarayoniga tadbiq etilishi hozirgi kunlarda ham ustivor vazifalardan bo‘lib turibdi.

Harbiy ta’lim berish bo‘yicha pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda mashg‘ulotlarning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olinishi muhim shartlardan biri xisoblanadi. [6]

Pedagogik shart-sharoitlar deganda ta’lim va tarbiya jarayoniga ta’sir etuvchi **o‘zaro bog‘liq omillar majmui** tushuniladi. Bu omillar samarali o‘rganishga yordam beradigan va o‘quvchilarning ta’lim maqsadlariga erishishiga yordam beradigan muhitni yaratadi.

Pedagogik sharoitlar alohida elementlar emas. Ular o‘rganish tajribasiga ta’sir qilish uchun birgalikda ishlaydi. Masalan, o‘quv dasturining mazmuni (nima o‘qitiladi) qo‘llaniladigan o‘qitish usullariga (qanday o‘rgatiladi) ta’sir qiladi va aksincha.

O‘qitish usullari: O‘qituvchilar tomonidan ko‘rsatma berishda qo‘llaniladigan strategiya va uslublar (masalan, innovatsion texnologiyalar ma’ruzalar, muhokamalar, guruh ishilari va h.k.). [7]

“Pedagogik mexanizmlar” - bu o‘quv maqsadlariga erishish uchun ushbu muhitda amalga oshiriladigan aniq harakatlar (masalan, guruh muhokamalari, simulyatsiyalar, texnologiya integrasiyasi). [5]

Pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishni rivojlantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan **«Bumerang»** metodini “O‘zbekiston Respublikasi qo‘shinlarida qo‘shin xo‘jaligini tashkillashtirish” mavzusiga tatbiq etilishini ko‘rib chiqamiz:

Bumerang metodi - tahsil oluvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodda saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha ishtirokchilarni baholay olishga qaratilgan. Ushbu texnologiyada tarqatma materiallar ishtirokchilar tomonidan yakka va guruh holatida o‘zlashtiriladi hamda o‘zaro suhbat, bahs- munozara, turli savollar orqali ularning matnni qay darajada

o‘zlashtirilganligi nazorat qilinadi va kichik guruhlarning faolliklari va o‘zlashtirish darajalari tezkor baholanadi. [8]

Bumerang metodi bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1- bosqich. 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarni tashkil etish va o‘rganiladigan mavzu matnini guruhlar soniga mos holda alohida bo‘laklarga ajratgan holda guruhlarga tarqatish.

(Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi, tarqatma matnlar ham har bir ishtirokchiga berilishi lozim)

2-bosqich Guruh a’zolariga berilgan matnlar ishtirokchilar tomonidan yakka tartibda, so‘ng guruh bilan mustaqil o‘rganiladi

3-bosqich. Raqamlar yozilgan qog‘ozchalar (raqamlar kichik guruh ishtirokchilarining soniga mos bo‘lishi kerak) kichik guruh ishtirokchilari tomonidan tortiladi

4-bosqich Har bir kichik guruhlardagi bir xil raqamli ishtirokchilar alohida stol atrofida birlashadilar. Bu bosqichda har bir ishtirokchi ham o‘qituvchi, ham o‘quvchi rolida ishtirok etadilar

O‘qituvchi sifatida o‘rganib kelgan materialini sheriklariga tushuntiradi

O‘quvchi sifatida sheriklari tushuntirgan matnlarni o‘rganadi.

Guruh ishtirokchilari savollar asosida bir-birlarini tekshirib ko‘radilar.

Baholash esa guruhlarning bir-birlariga savol berishi yoki test savollari yoki shu ishlarning taqdimoti ko‘rinishida olib borilishi mumkin

«Bumerang» metodining tuzilmasi:

1-bosqich.

- Kichik guruhlarni shakllantirish. Har bir guruhga mavzuga oid matn va topshiriq beriladi.
- Berilgan topshiriq guruhning har bir a’zosi uchun alohida tarqatmalarda beriladi.
- Guruh a’zolaridan o‘zlariga berilgan matnlar va topshiriqni diqqat bilan o‘qib o‘zlashtirishlari talab etiladi.
- Topshiriqni bajarish uchun vaqt belgilanadi

Guruhlar uchun topshiriq

1 guruh Qo‘shinlar xo‘jaligi - qo‘shinlarni har tomonlama ta’minotning asosiy qismi va tarkibi	**2-guruh. Qo‘shinlar xo‘jaligining o‘rni va vazifalari**
3-guruh. Vzvod xo‘jaligi, vzvod xo‘jaligi faoliyatini tashkillashtirish	

	va rahbarlik qilish	
4-guruh. Harbiy qismda xo‘jalik faoliyatini yuritish		**5-guruh. Qo‘shin xo‘jalik faoliyatini rejalashtirish**

Dastlabki gurux tuzilmasi



2-bosqich.

- Topshiriqni bajarish uchun belgilangan vaqt tugagach 5 ta guruh a’zolariga maxsus raqamlangan kartochkalar tarqatiladi.
- Ishtirokchilardan o‘zlari tanlagan kartochkaning raqamiga mos bo‘lgan stolga borib o‘tirishlari talab etiladi.
- Har xil guruhlardan yig‘ilgan ishtirokchilardan iborat yangi guruhlar tashkil etiladi.
- Yangi guruh a’zolari o‘zlarining guruhlarida o‘qib o‘rganib kelgan matn mazmuni bilan yangi guruh a’zolarini tanishtirishlari kerak bo‘ladi.
- Topshiriqni bajarish uchun vaqt belgilanadi.

3-bosqich.

- Topshiriqni bajarish uchun belgilangan vaqt tugagach barcha guruh ishtirokchilaridan dastlabki guruhlariga borib o‘tirishlari talab etiladi.
- Har bir guruhga o‘zlari o‘rgangan material asosida 3 tadan savol tayyorlash vazifasi topshiriladi.
- Guruhlar o‘zlari tayyorlagan savollarini berish orqali o‘rganilgan mavzularning o‘zlashtirilganlik darajalari mustahkamlanadi.

Ikkinchi tashkillashtirilgan guruh tuzilmasi



4-bosqich.

- O‘qituvchi guruhlar ishtirokini belgilangan mezonlar asosida baholaydi.
- O‘rganilgan ma’lumotlarga aniqliklar kiritadi, to‘ldiradi, mustahkamlaydi.

Xulosa: Oliy harbiy ta’limda innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llashda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarining kasbiy tayyorgarligida “Pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish mexanizmlari”ni shakllantirishda, uning tafakkuri, o‘z oldiga qo‘ygan maqsad sari intilishi, intelektual salohiyati, malakasi va ko‘nikmalari hamda hissiy-irodaviy sifatlarining birligi, o‘z burchiga sodiqligini, kasbiy va shaxsiy fazilatlarini muntazam ravishda oshirish hamda ilmiy va ijodiy fikrlash doirasini kengaytirish bilan shakllanib boradi.

Qo‘shin xo‘jaligi fanini to‘g‘ri tashkil etilgan interfaol o‘qitish: talabalarni aqliy kuchini rivojlantirish, o‘quvchilarning mustaqil faoliyat yuritishi, talabalarni ijodiy fikrlashlarini rivojlantirish imkoniyatini berish, ularga bilimlarni mustahkamroq o‘zlashtirishni ta’minlash va talabalarda tahliliy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’limda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda hamda globallashuv va jamiyatning axborotlashuvi ta’lim jarayonini noan’anaviy shakllarda samarali metod va vositalarni qo‘llashni, o‘quv materiallarini shakllantirish va ulardan amalda foydalanishga nisbatan ham interfaol yondashishni taqozo etadi. Ushbu metodlar ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga, kursantlarda bilish faolligini kuchaytirishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. - Toshkent, O‘zbekiston, 2017. - 48 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2022 yil 30 sentabr https://xabar.uz/jamiyat/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning

3. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.

4. Торгунская Н.Л. Условия и механизмы реализации педагогических инноваций в образовании // Известия Рос. пед. ун-та им. А.И. Герсена. 2007. Но 32, т. 11. 400-403 с.

5. Axmedova N.M. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss.-T.: 2020.161-b.

6. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

7. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

8. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.

Oliy harbiy ta’lim muassasalari talabalarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari

Uralov Xusan Boboqulovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi katta o‘qituvchisi, dotsent, rezervdagi podpolkovnik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oliy harbiy ta’lim muassasalari talabalarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar: Pedagogik mexanizm, kreativlik, qobiliyat, motivatsion, funksional, operatsion, qiziqish, ehtiyoj, idrok qilish, faoliyat.

Аннотация. В данной стате говорится о педагогических механизмах развития творческих способностей курсантов высших военно-учебных заведений.

Ключевые слова: Педагогический механизм, творчество, способности, мотивационные, функционалные, оперативные, интерес, потребност, восприятие, активност.

Abstract. This article talks about the pedagogical mechanisms of developing the creativity of students of higher military educational institutions.

Key words: Pedagogical mechanism, creativity, ability, motivational, functional, operational, interest, need, perception, activity.

KIRISh

Oliy ta’lim tizimini takomillashtirish dunyo mamlakatlari ta’lim siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir. Turli davlatlarda ta’lim sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar natijalari kadrlar tayyorlash maslasida egallanishi kerak bo‘lgan zaruriy kasbiy fazilatlar, kompetensiyalar va ta’limda o‘qitish jarayonlarini tegishli tarzda idrok etadigan pedagog kadr, yosh avlodning etuk kadr bo‘lishida ta’lim olishning sifatini yangi bosqichga olib chiqilishini davrning o‘zi taqazo etmoqda.

Xozirga vaqtda harbiy ta’lim muassasalariga qo‘yiladigan eng muhim talab va ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy taraqqiyotning qat’iy sharti – keng dunyoqarashli, egiluvchan tafakkurga ega, nostandart fikr yurituvchi, tezkor qaror qabul qilishga qodir, harbiy-kasbiy kompetensiyalarni mustahkam egallagan, ijodiy faoliyat yurita oladigan kreativ harbiy mutaxassisni shakllantirishdan iborat.

Ma'lumki, "mexanizm" tushunchasi fanlararo ta'rif bo'lib, uning ma'nosi qo'llash sohasiga qarab o'zgaradi. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda "mexanizm" ta'rifiga murojaat qilsak, biz quyidagilarni ta'kidlaymiz:

joriy talqinlar:

· *mexanizm* - pedagogik ta'sir ob'ektining faoliyatini belgilovchi va uning rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan qurilma;

· *mexanizm* – pedagogik faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilovchi o‘zaro bog‘liq elementlar yig‘indisidir;

· *mexanizm* – har qanday hodisani belgilovchi pedagogik tizim jarayonlari yoki holatlari majmuasidir;

· *mexanizm* - ob'ektning ishlash va rivojlanish qobiliyatini amalga oshiradigan o'zaro bog'langan elementlar to'plamidir.

Shunday qilib, aytish mumkin "mexanizm" tushunchasi *pedagogik adabiyotlarda ma'lum qobiliyat yoki shaxs sifatini shakllantirishning o'zaro bog'liq tizimlari va jarayonlarini tavsiflash uchun faol foydalaniladi.* Voqelikning har bir murakkab hodisasi singari, mexanizm ham statik, ham dinamik xususiyatlarga ega bo'lib, ular birgalikda operatsiyalar, harakatlar, murakkab o'ziga xos funktsiyalar tizimini ifodalaydi.

Pedagogikadagi mexanizm - bu ma'lum bir boshlanishi va natijalarining o'zaro bog'liqligiga ega bo'lgan ko'p darajali o'zaro ta'sir qiluvchi va o'zaro bog'liq jarayonlarning yaxlit tizimi.

Mexanizm – tabiat qonunlariga ko‘ra amal qiladigan hodisa yoki harakatlar tizimi, shuningdek, uning amalga oshishiga ko‘maklashuvchi qurilma yohud asboblardir. Talabalarda kreativlik qobiliyatini rivojlantirish mazkur jarayonni amalga oshirishga qaratilgan psixologik-pedagogik mexanizmlarni faollashtirishni talab etadi. Bunday psixologik-pedagogik mexanizmlar quyidagilardan iborat:

– motivatsion mexanizm - motivsiz, xohish-istaksiz qobiliyatlar yuzaga chiqmaydi;

– operatsion mexanizm - operatsiya (usullar) yordamida qobiliyatlar namoyon bo‘ladi;

– funksional (jarayonli) mexanizm - ruhiy jarayonlar sifati orqali qobiliyatlarning operatsion mexanizmlari amalga oshadi;

– ilg‘or innovatsion metodlar, usul, uslub va vositalar.

Zamonaviy innovatsion metodlar, usul, uslub va vositalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri talaba shaxsini, undagi kreativlik qobiliyatlarini rag‘batlantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, biz mutanosib innovatsion texnologiyalarni jamlashga harakat qildik.

Ijodiy qobiliyat yuksak kreativ rivojlanish omili bo‘lib, faoliyatning turli jabhalarida, jumladan, nutqiy, yozma-ijodiy va boshqa ko‘pgina turlarda ifodalanadi. Kreativ qobiliyatni rivojlantirish, birinchi navbatda, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni, emotsional-psixik kayfiyatni, faol, ijodiy tasavvurni, o‘z-o‘zini faollashtirish, mustaqillik, o‘z o‘zini nazorat qilish, namoyon qilish, ifodalash, baholash, o‘quv jarayonida ta’limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi.

Qobiliyatlar ruhiy-individual xususiyatlar majmui hisoblanib, mahsuldor faoliyat uchun muhim bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash imkonini beradi. Qabiliyatlar uchun faoliyat suv va havoday zarur (faoliyat uning shakllanishi va rivojlanishiga shart-sharoit yaratadi). Intellektual qobiliyat tushunchalardan foydalana bilish, mantiqiy umumlashma mulohaza yuritish mahoratini anglatadi.

Kreativ qobiliyatni rivojlantirish mexanizmlarni takomillashtirish o‘quv jarayonida faoliyat modeli va jadvalidan foydalanishni taqozo etadi.

Kreativlik qobiliyatini rivojlantirish mexanizmlari



Qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari uning darajalarini ham nazarda tutishni talab etadi.

Qobiliyat darajalari ikki xil bo‘lib, bular:

- reproduktiv daraja – bilimlarni o‘zlashtirishda yuqori layoqatga ega bo‘lish, tegishli ko‘nikma va malakalarni egallash;
- kreativ daraja – bilim, ko‘nikma va malakalarning betakror, yangi darajasini ta’minlashdir.

Ta’limning mutanosib an’anaviy, innovatsion, noan’anaviy, mualliflik metodlarini uyg‘unlikda qo‘llash orqali o‘quvchilarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga erishamiz.

“Kreativlik” va **“pedagogik kreativlik”** tushunchalarining mohiyati. Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo‘llanila boshlaganiga hali u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Biroq, o‘qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta’minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g‘oyalari tashkil etadi. “Kreativ pedagogika” fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun ***zarur shart-sharoitni yaratishga*** xizmat qiladi.

Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra jarayon tarzda namoyon bo‘ladi. Kasbiy etuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g‘oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo‘lgan jarayonda kechadi.

Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi – tug‘ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq. Ma’lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijoiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va

malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining etarli darajada o‘zlashtirilishi talab etadi.

Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” (Azzam, 2009 y.) sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”. Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish” demakdir.

XULOSA

Pedagogik mexanizmlarni o‘ylangan holda tanlab, amaliyotga tatbiq etish orqali o‘qituvchilar chuqur tushunishga yordam beruvchi va o‘quvchilarda o‘rganishga muhabbat uyg‘otadigan dinamik va qiziqarli ta’lim muhitini yaratishi mumkin.

Talabalarni kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni samaradorligini oshirish nazariy jihatdan ishlab chiqiladigan didaktik yondashuvlardan iborat bo‘lib, ushbu jarayonda amalga oshiriladigan vazifalar belgilangan hamda samaradorligini oshirishda amal qilish muhim bo‘lgan prinsiplar va ularni amalga oshirish bosqichlari aniqlangan. Mashg‘ulot mavzularini loyihalash, maqsadini va unga erishish yo‘lida bajariladigan vazifalarni belgilash, uning tashkiliy shakl, usul, vosita va metodlarini tanlash sinfdan tashqari darslarni tashkil etish mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Gusserl E. Sof fenomenologiya va fenomenologik falsafa uchun g'oyalar // Falsafa XX asr: O'quvchi / Muallif. V. A. Sakutin, M. V. Kazmiruk. Vladivostok: Mor. davlat Universitet, 2005 yil.

2 Shibaeva A.V. Innovatsion strategiyaga yo'naltirilgan o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi belgilash muammolari // 1-Umumrossiya konferentsiyasi materiallari (21-). 1994 yil 22 aprel) / Ed. Yu. A. Karpova. M., 1996. B. 39. 1 4 5 VulfovB.

3. Xarkin V.D. Fikrlash pedagogikasi: prof. o'qituvchilar tayyorlash. M., 1995. Zvenigorodskaya G.P. Fenomenologiya va ta'limda aks ettirish: O'qituvchilar uchun kitob. Xabarovsk , 2002 yil. Vyaznikova L. F. Ta'lim tizimi rahbarlarini kasbiy qayta tayyorlashning psixologik asoslari: o'zgarish vaqti. Xabarovsk, 2002 yil

4. Долгоруков А. Метод как современная технология профессионально-ориентированного обучения: http://www. vshu.ru/lections. php?tab_id=3&a=info&id=2600.

5. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

6. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-b.

AMERIKA QO‘SHMA SHTATLARI HARBIY-DENGIZ KUCHLARI UCHUN ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASH TAJRIBASI

Karimov Azamat Xoldarovich,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti
Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada AQSH Harbiy-dengiz kuchlari uchun zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimi haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar: Dengiz kuchlari, to‘ldirish, ta’lim, bilim yurti, dengiz floti, o‘qituvchi, ofitser, bo‘lajak, zaxira, kolledj.

Аннотатция. В данной стате раскрывается вопросы о системе подготовки офицеров запаса для ВМС США.

Ключевые слова: Морские силы, комплектование, образование, военное училище, мораской флот, преподавател, офицер, будущее, запас, колледж.

Annotation. This article addresses questions about the officer reserve system for the US Navy

Key words: Naval forces, recruitment, education, military school, navy, teacher, officer, future, reserve, college.

Xitoy Xalq Respublikasida rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimi

Xitoy harbiy kuchlari (Xalq-ozodlik armiyasi, PLA) zaxira va rezervdagi ofitserlarni tayyorlashda bir necha bosqichli tizimga ega. Ular ko‘p sonli universitetlar va harbiy maktablarda tayyorlanadi. Aniq raqamlar har yili o'zgarib turishi mumkin, lekin umumiy raqamlar bo'yicha ma’lumot quyidagicha:

1. Universitetlar va kollejlar orqali tayyorlash: Xitoyda o'nlab universitetlar va kollejlar harbiy tayyorgarlik dasturlarini (ROTC - Reserve Officers' Training

Corps) taklif qiladi. Har yili o'n minglab talaba ushbu dasturlarni tugatib, zaxira ofitser sifatida tayyorlanadi.

2. Zaxira ofitserlarini tayyorlashning asosiy platformasi: Xitoyda o’quv yili davomida taxminan 500 mingdan ortiq talaba harbiy tayyorgarlik kurslariga qatnashadi, va bu raqamning bir qismi ofitser sifatida zaxiraga olinadi.

3. Faol xizmatdan zaxiraga o’tish: Faol harbiy xizmatni tamomlagan harbiylar zaxira ofitser sifatida ro‘yxatga olinishi mumkin. Har yili bir necha ming ofitser faol xizmatdan keyin zaxira tarkibiga o'tadi.

4. Harbiy amaliyotlar va mashg‘ulotlar: Zaxiradagi ofitserlar muntazam ravishda maxsus mashg'ulotlarda ishtirok etib, harbiy tayyorgarliklarini davom ettiradilar. Har yili ko‘plab amaliyotlar va mashqlar o‘tkaziladi, bu esa zaxira kuchlari tayyorgarlik darajasini saqlab qolishga yordam beradi. Xitoy hukumati zaxira kuchlari va harbiy tayyorgarlikka katta ahamiyat beradi va ularning soni har yili ortib bormoqda. Aniq raqamlar harbiy sir sifatida maxfiy saqlanishi mumkin.[3]

Xitoyning zaxira ofitserlarini tayyorlash tizimi ko‘p qirrali va keng ko‘lamda amalga oshiriladi. Xitoy o'zining harbiy tayyorgarlik dasturlarini zamonaviy texnologiyalar, ta‘lim metodlari va doimiy mashg‘ulotlar bilan boyitib, milliy xavfsizlikni ta'minlashga katta ahamiyat beradi.

1. Harbiy maktablar va universitetlar (ROTC dasturi)

Xitoyda harbiy maktablar va universitetlar orqali ofitserlarni tayyorlash jarayoni muhim o‘rinni egallaydi. Har yili yuzlab universitetlar talabalari harbiy dasturlarga (ROTC - Reserve Officers’ Training Corps) jalb qilinadi.

ROTC dasturi: Xitoyning ko'plab universitetlarida, ayniqsa texnik va muhandislik yo‘nalishida, harbiy ofitserlarni tayyorlash bo‘yicha kurslar taklif qilinadi. Talabalar bu kurslar davomida nafaqat o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha ta‘lim olishadi, balki harbiy intizom, rahbarlik ko‘nikmalari va jismoniy tayyorgarlikni ham o‘rganadilar.

ROTC dasturini tugatgan talabalardan ko‘plari zaxira ofitser sifatida xizmatga olinadi, lekin ular professional faoliyatlarini davom ettirishlari ham mumkin.

2. Faol xizmatdagi ofitserlardan zaxiraga o'tish

Faol xizmatda bo‘lgan ofitserlar xizmat muddatlari yakuniga etgach, zaxira ofitserlar safiga qo‘shiladilar.

Xitoyning mudofaa tizimi zaxira ofitserlarning katta qismini faol xizmatdagi ofitserlar tarkibidan shakllantiradi. Faol xizmatni tamomlagan harbiylar zaxirada qoldiriladi va ularning ma‘lum qismi muntazam ravishda tayyorgarlik mashqlarida qatnashadi.

3. Zaxira ofitserlar uchun o‘quv dasturlari

Zaxira ofitserlar har yili muntazam mashg‘ulotlar va o‘quv-amaliy mashqlarni o‘tadilar. Bu mashg'ulotlar, asosan, texnik va jangovar ko‘nikmalarni yangilash va amaliyotda saqlash uchun o‘tkaziladi.

Jismoniy tayyorgarlik: Zaxira ofitserlar jismoniy tayyorgarlikni yuqori darajada saqlashlari kerak. Har yili ko‘plab amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilib, jismoniy tayyorgarlik tekshiriladi.[4]

Harbiy amaliyotlar: Zaxira ofitserlar ko'pincha katta miqyosdagi harbiy mashg‘ulotlar va amaliyotlarda qatnashib, o‘z rollarini yaxshilab o‘rganadilar va jangovar sharoitlarga tayyor bo'ladilar.

4. Harbiy xizmat majburiyati va zaxira kuchlari soni.

Xitoyda harbiy xizmat majburiy bo‘lsa-da, ko‘p odamlar professional faoliyatlarini davom ettirishga qaror qiladi va zaxiraga olinadi. Bu ko‘pincha zaxira kuchlarining sonini oshirib boradi.

Xalq-ozodlik armiyasi (PLA) zaxira kuchlari: Rasman, Xitoyning umumiy zaxira kuchlari soni bir necha million kishiga etishi taxmin qilinadi. Bu kuchlarning asosiy qismi zaxira askarlardan va ofitserlardan iborat.

5. Strategik ahamiyat va jangovar tayyorgarlik

Xitoy zaxira kuchlarini o'zining strategik mudofaa siyosatida muhim o‘ringa qo‘yadi. Ular favqulodda holatlarda va urush sharoitlarida tezkor tarzda safarbar qilinadi.

Zaxira kuchlari va ofitserlarning vazifasi tinchlik davrida milliy xavfsizlikni ta'minlash va urush holatlarida tezkor harbiy harakatlarda ishtirok etishdan iborat.[4]

Xitoyda zaxira ofitserlarining tayyorlanishi keng qamrovli tizimdir va mamlakatning harbiy salohiyatini yuqori darajada saqlashga xizmat qiladi. Bu jarayon faqat texnik va strategik tayyorgarlik bilan cheklanmay, keng ko‘lamli harbiy ma'lumot va etakchilik ko'nikmalarini ham o‘z ichiga oladi.

Adabiyotlar

1. Turkiya Respublikasi Milliy Mudofaa vazirligi (Türkıye Cumhureyetı Mıllı Savunma bakanlığı) https://www.msb.gov.tr/Askeralma/icerik/yedek-subay

2. Xavfsizlik kuchlari qo'mondonligi (Güvenlik Kuvvetleri Komutanlığı) https://www.mucahit.gov.ct.tr/Asal/Sayfa?Q=6

3.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xitoy

4.https://platina.uz/o'z/2024/1/25/xitoy-armiyasi-ehtimoliy-urushga-tayyorlanayotganini-elon-qildi

ИИВ Академиясида ҳарбий хизмат тайёргарлиги фани орқали курсантларни жанговар тайёргарлигини шакллантириш йўллари

Байдадаев И.Ш.
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси
Ҳарбий тайёргарлик кафедраси катта ўқитувчиси, подполковник

Ҳарбий таълим муассасаларида курсантларни хизмат фаолиятида барқарор ижтимоий аҳамиятга эга мотивларини шакллантириш ва ҳиссий-иродавий барқарорлигини ривожлантиришнинг асосий вазифаси жанговар-аҳлоқий сифатларни тарбиялашга хизмат қилади.

Ҳарбий таълим муассасаларини тинчлик ва уруш даврида ўз хизмат вазифаларини бажаришга тайёрлашнинг асосий босқичларидан бири уларда тегишли жанговар-аҳлоқий сифатларни шакллантириш бўлиб, бу уларда белгиланган топшириқларни муваффақиятли бажаришга имкон беради [1].

Замонавий фанда хозиргача жанговар-аҳлоқий сифатларга тўлиқ ва ягона таъриф берилмаган. Г.А. Броневицкий, А.Н. Томилинларнинг фикрича, "Ҳарбий хизматчиларнинг жанговар-аҳлоқий фазилатлари - бу ҳарбий хизматчиларнинг тинчлик ва уруш даврида ўз вазифаларини муваффақиятли бажариши учун зарур бўлган, бир-бири билан чамбарчас боғлиқ ва бир-бирини тўлдирувчи шахсий хусусиятлар мажмуасидир, буларга: бурчга содиқлик, ҳарбий қасамёд, жанговар фаоллик, интизом, матонат, мардлик, фидойилик, жасорат ва бошқалар киради» [2].

Бинобарин, бўлажак офицерларни хизматга тайёрлаш ва уларни жанговар-аҳлоқий сифатларини шакллантириш зарурати кўриб чиқилаётган мавзунинг долзарблигини белгилайди.

Умуман олганда, курсантларнинг ўқув жараёнидаги хулқ-атворини белгиловчи, шунингдек, жанговар вазиятлардаги хатти-ҳаракатларини шакллантирадиган жанговар-аҳлоқий сифатлари қуйидаги асосий гуруҳлардан иборат бўлади: ахлоқий; психологик; профессионал жанговар ва жисмоний сифатларни ўз ичига олади.

Кўплаб олимларни таъкидлашича, юқорида келтирилган сифатлар бир-бири билан чамбарчас боғланган ва ўзаро боғлиқ бўлиб, уларнинг ҳар бири бошқасини тўлдиради.

1) Курсантнинг ахлоқий сифатлари - бу ўзининг ахлоқий йўналиши, шахснинг ахлоқий сифатлари, шунингдек, идеаллари, дунёқарашлари ва унинг ижтимоий фойдали манфаатлари, ватанпарварлик, байналминаллик, ташқи ва ички душманларга нафрат, фидойилик, Она Ватан учун шахсий жавобгарлик туйғулари ва бошқалар киради.

2) Курсантнинг психологик сифатлари деганда унинг жанговар шароитларда ҳаракатларга самарали психологик тайёргарлигини тушуниш одатий ҳолдир, буларга қуйидагилар киради:

- курсантнинг идрокини, унинг диққатини, тафаккурини, шунингдек хотирасини ва нутқини ривожлантириш;

- унинг реакцияларининг аниқлиги, кучи ва тезлиги;

- курсантнинг ҳиссий-иродавий барқарорлиги, салбий ташқи омилларга адекват жавоб бериш қобилияти.

3) Жанговар сифатлари, бу уларнинг фавқулодда холатларда муваффақиятли жанговар ҳаракатларни амалга оширишга тайёргарлиги, шунингдек, қурол-яроғ ва ҳарбий техникадан самарали фойдаланиш даражаси тушунилади. Ушбу вазифани амалга ошириш учун қуйидагилар зарур:

- ўқув гуруҳлари (взводлари) шахсий таркиби ўртасида юқори даражадаги жанговар маҳоратни шакллантириш;

- курсантларнинг қўлланилаётган техника ва қурол-яроғлар, жумладан, уларнинг тактик-техник тавсифлари, жанговар ва потенциал имкониятлари тўғрисида назарий ва амалий билимларни чуқур эгаллашини таъминлаш;

- бўлажак офицерларда тактик, стратегик фикрлашни ривожлантириш;

- курсантларда жанговар фаоллик, ҳужумкор руҳ, тартиб-интизом, ғурур, шунингдек, танлаган касбига, қурол-яроғ ва ҳарбий техникага муҳаббат туйғуларини шакллантириш.

4) Курсантларнинг жисмоний сифатлари унинг жисмоний ривожланиш даражаси ва тайёргарлигини ўз ичига олади, унинг асосий мақсади ҳарбий хизматчининг замонавий жанговар шароитларда ўта оғир зўриқишларга бардош бериш қобилиятини шакллантиришдан иборатдир.

Ҳарбий хизмат тайёргарлиги – ички ишлар органлари ходимларининг профессионал касбий тайёргарлигининг таркибий қисми бўлиб, юқори профессионал маҳорат, ахлоқий ва психологик чидамлилик, жисмоний етуклик ва бардошлиликни талаб этади. Жанговар фаолиятга тегишли барча ҳарбий фанларни ўз ичига олади, унинг мақсади – юзага келган экстремал вазиятларда тўғри ва аниқ ҳаракат қилишга ўргатиш, шу жумладан махсус операцияларда қуролни қўллаш, ҳарбий ва махсус техника ҳамда махсус воситалардан фойдаланиш, куч ва воситаларнинг манёврини ўтказиш, раҳбар ва бошлиқлар таркиби томонидан бошқарувни амалга ошириш услубиётини ўргатади.

Хусусан ички ишлар органларида жанговар, жисмоний ва ахлоқий тайёргарликларини сифат даражасига кўтариш борасида тегишли норматив-хуқуқий хужжатлар ишлаб чиқилиб амалиётга кенг тадбиқ этилмоқда жумладан, ИИВнинг 2022 йил 22 сентябр кунидаги 383-сонли “Ички ишлар

органлари ходимларининг хизмат, жанговар, жисмоний ва ахлоқий-психологик тайёргарлигини ташкиллаштириш тўғрисида”ги буйруғи бунга яққол мисол бўла олади. Ушбу йўриқнома қуйидаги йўналишларни ўз ичига қамраб олган:

Ахлоқий-психологик тайёргарлик – ходимларнинг ўзаро, оилага, шахсларга ва жамиятга бўлган муносабатларида бўладиган хатти-ҳаракатлари, хулқ-атвори ва одобини тарбиялаш, ахлоқий-руҳий, ҳиссий-иродавий хусусиятларни шакллантириш ҳамда фавқулодда вазиятларда ҳаракатланишда қатъиятлилик, ҳиссий турғунлик, тезкор қарор қабул қилиш, вазиятни бошқариш ва назорат қилишга ўргатиш, шунингдек, ҳуқуқбузарлар олдида руҳий устуворлигини таъминлашда касбий муҳим сифатларини ривожлантиришни ўз ичига олувчи жараён.

Жанговар тайёргарлик – ходимларнинг хизмат вазифаларини бажариш вақтида, жанговар ҳаракатларда, вазият кескин ўзгарган экстремал шароитларда ҳамда жанговар шайликнинг юқори даражаларида самарали ва ишончли ҳаракат қилиши, шунингдек юклатилган вазифаларни муваффақиятли бажариши учун зарур бўлган ҳарбий маҳорат, тезкор-тактик фикрлаш, шунингдек, юксак ахлоқий-руҳий ва жисмоний ҳолатини шакллантиришга йўналтирилган тайёргарлик ҳисобланади.

Жисмоний тайёргарлик – ходимларнинг инсонни жисмоний тарбиялаш, жисмоний ривожланиш ва жисмоний тайёргарлик орқали жисмоний ҳамда интеллектуал жиҳатдан камол топтириш, унинг қобилиятини ва ҳаракат фаоллигини такомиллаштириш, соғлом турмуш тарзи кўникмаларини шакллантириш, хизмат қилади[3].

Мазкур шароитда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи орган ходимларидан юксак маънавий-ахлоқий ва руҳий-психологик ҳолатини мустаҳкамлаш ва энг асосийси замонавий касбий ва интеллектуал билими ҳамда жанговар ва жисмоний тайёргарлигини ошириш долзарб аҳамият касб этади.

Ушбу профессионал касбий сифатларни ривожлантиришда, энг аввало, ички ишлар ходимларининг янгича замонавий моделини яратиш ва бунда қуйидаги омиллари инобатга олиш зарур:

биринчидан, ходимларнинг интеллектуал касбий билими, сиёсий ва ҳуқуқий қарашларини ягона ёндашувга йўналтириш;

иккинчидан, ходимларда юксак ватанпарварлик, касбга нисбатан садоқат ва юқори масъулият ҳиссини кучайтириш;

учинчидан, жисмоний ва жанговар тайёргарликни доимий равишда модернизатсия қилиш;

тўртинчидан, соҳа учун малакали кадрлар тайёрлашда назария ва амалиёт уйғунлиги таъминлаш[4].

Юқорида айтилганларга асосланиб, курсантларни тайёрлаш жараёнида жанговар тайёргарлик, маънавий-руҳий тайёргарлик ва тарбиявий таъсир доирасини кенгайтириш учун қуйидаги амалий ишларни амалга ошириштаклиф этилади:- машғулотларни замонавий педагогик технологиялар, ўқитишнинг янги методика, турли муаммоли вазиятларни ташкил қилиш каби интерфаол усуллардан ҳамда ахборот-коммуникатсия технологияларидан кенг фойдаланган ҳолда ўтказиш;

- юқори даражадаги махсус ва услубий тайёргарлик талаб этиладиганмашғулотларнинг сифатли ўтказилишини таъминлаш мақсадида, вазирликнинг тегишли соҳавий хизматлари ҳамда бошқа вазирлик ваидораларнинг мутахассислари, шунингдек, таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчилари жалб қилиниши;

- ўқув машғулотлар давомида олинган назарий билимларни амалиётдамустаҳкамлаш, тингловчиларга бугунги кунда илғор ҳорижий тажрибаларнинг биз учун энг мақбул усул ва методларини таълим жараёнига тадбиқ қилиш, соҳа мутахассислари билан мунтазам маҳорат дарсларини ўтказиб бориш ва тажриба алмашиш каби чора-тадбирларни кўриш тавсия этилади.

Хулоса қилиб шуни таъкидлаймизки, бугунги замон талабларидан келиб чиқиб бўлажак офицерларимизни тайёрлаш бўйича ўтказилаётган кенг доирадаги таълим соҳасида ислоҳотларимизни изчил давом эттириш, ходимларимизни жанговар-аҳлоқий фазифатларни шакллантиришнинг замонавий ҳамда самарали усул ва методларини такомиллаштириб бориш олдимизда турган энг уствувор вазифаларимиздан бири бўлиб қолади.

Қўлланилган манбалар:

1. Броневицкий Г.А., Броневицкий Г.Г., Томилин А.Н. [Электронный ресурс] Психолого-педагогический словар офицера воспитателя корабелного подразделения. – Новороссийск, 2005.

2. Невмовенко, А.А. Рол тактико-специалной подготовки сотрудников ОВД в формировании их профессионалной направленности / А.А. Невмовенко, А.А.Устинов. // Вестник Белгородского юридического института МВД РФ, 2018. - № 4. – С. 38-41.

3. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг 2022 йил 22 сентябрдаги “Ички ишлар органлари ходимларининг хизмат, жанговар, жисмоний ва ахлоқий-психологик тайёргарлигини ташкиллаштириш тўғрисида”ги 383-сон буйруғи.

4. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси 2022 йил 15 октябрдаги Республика илмий-амалий конференция тўплами.

KAVKAZORTI RESPUBLIKALARIDA HARBIY KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI, OZARBAYJON RESPUBLIKASI MISOLIDA

Ergashev Xaydar Ikramovich
O‘zbekiston Milliy Universiteti
Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi o‘qituvchisi

"Armiya – mamlakatimiz, millatimiz,
mustaqilligimiz, davlatimiz tayanchidir!"
Geydar Aliev.

Tayanch iboralar. Milliy siyosiy elita (elita – eng yaxshisi, saralangani) – bu jamiyatni boshqarishning ma’lum layoqatiga ega bo‘lgan shaxslar guruhi bo‘lib, ular siyosiy hokimiyatni o‘z qo‘llarida jamlaydi, rahbar lavozimlarni egallaydi, jamiyatni boshqaradi.

Kavkazorti — Kavkazning Katta Kavkaz yoki Bosh (Suvayirg‘ich) tizmasidan janubdagi qismi. Kavkazortiga Katta Kavkaz janubiy yon bag‘rining ko‘p qismi, Kolxida pasttekisligi va Kura-Arake pasttekisligi, Armaniston tog‘ligi, Tolish tog‘lari va Lenkoran pasttekisligi kiradi.

Kavkazortida Ozarbayjon, Armaniston va Gurjiston respublikalarining asosiy qismi joylashgan, 1-rasm.

1-rasm. Kavkazorti davlatlari.

Ozarbayjon Respublikasi

Kavkazortining janubi-sharqiy qismida joylashgan mamlakat. Maydoni 86,6 ming km². Aholisi 10,6 mln. kishi, ozarbayjonlar 91,6 %, 8,4 % boshqa millatlar (ruslar, lezginlar va b.) tashkil etadi (2024). Poytaxti – Boku shahri. Ma’muriy jihatdan 61 tuman, 65 shahar va 122 shaharchaga bo‘linadi. Naxichevan Muxtor Respublikasi va Tog‘li Qorabog‘ Ozarbayjon tarkibiga kiradi.

Mustaqillikka erishishi

Ozarbayjon Respublikasi 1991-yil 18-oktabr kuni o‘z mustaqilligini e’lon qildi. Ozarbayjon 1991-yildan beri o‘z mustaqil yo‘liga ega davlat ekanini isbotlab kelmoqda.

1990-yili Boku shahrida muxolifatchi siyosiy tashkilot — Ozarbayjon Xalq frontining namoyishi boshlandi.

2-rasm.
Ayaz Mutalibov.
12 may 1938 y.
27 mart 2022 y.

3-rasm.
Abulfayz Elchibey.
24 iyun 1938 y.
22 avgust 2000 y.

4-rasm.
Geydar Aliyev.
10 may 1923 y.
12 dekabr 2003 y.

5-rasm.
Ilxam Aliev
24 dekabr 1961 y.

Xalq fronti Abulfayz Elchibey boshchiligida Milliy mudofaa kengashi tuzilganini e’lon qildi, 3-rasm. Xalq frontining millatchilik ruhidagi mitinglari Bokudagi armanlar qirg‘iniga bevosita turtki bo‘ldi. Bunga qarshi Bokuga sovet armiyasi qo‘shinlari kiritildi. Mamlakatda favqulodda holat e’lon qilindi. Armiyaning kiritilishi Ozarbayjon uchun katta fojia bo‘ldi. To‘qnashuvlarda yuzlab kishi halok bo‘ldi.

Bokuda 1992-yil may oyida davlat to‘ntarishi amalga oshirilib, prezident Ayaz Mutalibov (2-rasm) hokimiyatdan ag‘darildi va Abulfaz Elchibey boshchiligidagi Xalq fronti hokimiyatga keldi. Ammo Xalq fronti mamlakatda tinchlik va totuvlikni ta’minlay olmadi. Natijada Milliy Majlis Abulfaz Elchibeyni lavozimidan mahrum qilib, uning vakolatlarini Ozarbayjon Milliy Majlisi raisi bo‘lgan Geydar Aliyevga topshirdi.

1993-yili bo‘lib o‘tgan prezidentlik saylovlarida Geydar Aliyev (4-rasm) Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti etib saylandi. Geydar Aliyev hokimiyatga kelgandan keyin respublikadagi ziddiyatli ahvolni yumshatishga erishdi. U prezidentlik qilgan o‘n yil Ozarbayjonda unchalik demokratik bo‘lmasa-da, mamlakatning tinch taraqqiyotini ta’minladi, qo‘shnilar bilan yaxshi hamkorlik munosabati o‘rnatildi. Tog‘li Qorabog‘ masalasi hal qilinmagan bo‘lsa ham, faol jang harakatlari to‘xtatildi, muzokaralar boshlandi. 2003-yil dekabrda Geydar Aliyev vafot etganidan so‘ng mamlakat prezidenti etib uning o‘g‘li Ilhom Aliyev saylandi, 4-rasm. Ilhom Aliyev otasining siyosatini davom ettirib kelmoqda.

Tog‘li Qorabog‘ muammosi

XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmida Ozarbayjon bilan Armaniston o‘rta sidagi azaliy muammo – Tog‘li Qorabog‘ muammosi yana ko‘tarildi. Tog‘li Qora bog‘ Ozarbayjon hududida joylashgan va asosan arman millatiga mansub aholi yashaydigan avtonom viloyat edi. Tog‘li Qorabog‘ avtonom viloyati rahbarlarining viloyatni Armaniston tarkibiga qo‘shishini so‘rab qilgan murojaati mintaqadagi

milliy muammolarni chigallashtirib yubordi. Ozarbayjon va Armaniston rahbarlari Ilhom Aliyev va Nikol Pashinyan tarixda ilk bor Arman-Ozarbayjon Tog‘li Qorabog‘ mojarosiga bag‘ishlangan ochiq muhokamalarda ishtirok etdilar. Muhokama Myunxen xavfsizlik konferensiyasida bo‘lib o‘tdi.

6-rasm. Nikol Pashinyan, Ilhom Aliyev.

Tog‘li Qorabog‘ 2020-yildan 2023-yilgacha. Shu uch yil mobaynida qurolli to‘qnashuvlar natijasida Tog‘li Qorabog‘ va Armanistonning bir qancha viloyatlari Ozarbayjon qo‘l ostiga o'tdi. Armanistonni Tog‘li Qorabog‘ bilan bog‘lovchi yagona Lochin yo‘lagida Ozarbayjon nazorat punkti o‘rnatildi. Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev Tog‘li Qorabog‘ masalasi hal etilgani va uning ustidan suverinitet tiklanganligini izchil ta'kidlab kelmoqda. U aholiga yo ketishini yo Ozarbayjon fuqaroligini qabul qilishni taklif qildi. Tog‘li Qorabog‘ bugungi kunda Ozarbayjon Respublikasining tarkibiy qismi hisoblanadi [3].

Ozarbayjon Respublikasida harbiy kadrlar tayyorlash tizimi

Ozarbayjon Respublikasi qonunlari, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti-Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni tomonidan belgilangan vazifalar, Mudofaa vazirining buyruq va farmoyishlariga asoslanib, harbiy tayyorgarlik tizimini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

-mustaqil va ijodiy fikrlaydigan harbiy xizmatchilar Ozarbayjon xalqi va davlati oldidagi mas’uliyatini anglagan, Vatan va xalqqa, milliy-ma’naviy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga, inson huquqlari va milliy g‘oyalariga sadoqatli (ofitserlar, gizirlar va shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilari)ni tarbiyalash;

-milliy, ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish, dunyoqarashi keng, tashabbus va yangiliklarni qadrlay oladigan, nazariy, amaliy bilim va zamonaviy tafakkurga ega, qurol-yarog‘ va harbiy texnikani yaxshi biladigan malakali kadrlar tayyorlash;

-tizimlashtirilgan bilimlarni o‘zlashtirishni, ko‘nikmalar va doimiy kasbiy rivojlanishni ta'minlash, Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligi va umuman davlatning mudofaa qobiliyatini oshirish sohasida sa'y-harakatlarni amalga oshirish bo‘yicha harbiy va qurolli kuchlar davlat xizmatchilarini tayyorlash.

2-Tog‘li Qorabog‘ qurolli to‘qnashuvlaridan keyin Ozarbaydjon respublikasi prezidenti Ilhom Alievning 2022-yi 5-martdagi 1626-sonli qaroriga ko‘ra xorijiy davlatlar armiyalarining ilg‘or tajribalariga tayangan holda Milliy mudofaa universiteti tashkil etildi.

Milliy mudofaa universitetini boshqarish, shaxsiy tarkib va talabalarning huquq va majburiyatlari, harbiy fan va ta’lim sohasidagi asosiy tamoyil va normalar maxsus ta’lim muassasalarining ustavi, Ozarbayjon Respublikasining “Fan va ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni talablari bilan belgilanadi.

Milliy Mudofaa Universiteti faoliyatining asosiy yo‘nalishlari o‘quv, o‘quv - uslubiy, ilmiy tadqiqot, tahririyat hamda nashriyot ishlaridan iborat.

7-rasm.
Jamshid Jafarquli o‘g‘li (Naxchivanskiy) nomidagi harbiy litsey.

8-rasm.
Haydar Aliyev nomidagi harbiy litsey

Ayni paytda Ozarbayjon armiyasi uchun turli toifadagi harbiy kadrlar va qurolli kuchlar xizmatchilarini tayyorlash Milliy mudofaa universitetining o‘quv muassasalarida olib borilmoqda.

Ozarbayjon Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni talablariga ko‘ra, Milliy mudofaa universitetida ta’lim bosqichlari va darajalari quyidagicha belgilangan:

-to‘liq o‘rta ta’lim;

- kasb-hunar va o‘rta maxsus ta’lim;

-oliy ta’limning bakalavriat, magistratura va aspirantura (doktorantura) darajalari.

Ta'limning birinchi bosqichi - to‘liq o‘rta ta’lim o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida: Jamshid Jafarquli o‘g‘li (Naxchivanskiy) nomidagi harbiy litsey (7-rasm) va Haydar Aliyev nomidagi harbiy litsey(8-rasm)larda amalga oshiriladi.

Kasb-hunar va o‘rta maxsus ta’lim Ozarbayjon armiyasining o‘quv – mashq markazida, uzoq muddatli harbiy xizmatchilarni tayyorlash kurslarida amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim bakalavriat bosqichi ofitser kadrlarni tayyorlash Haydar Aliyev nomidagi Harbiy institutda, magistratura bosqichi esa, Harbiy boshqaruv institutida, aspirantura (doktorantura) bosqichi - Harbiy ilmiy-tadqiqot institutida amalga oshiriladi.

Ozarbayjon va Turkiya Qurolli Kuchlari o‘rtasida 2000-yil 5-aprelda imzolangan protokolga muvofiq, Ozarbayjon Respublikasi Mudofaa vazirining 2001-yil 20-fevraldagi buyrug‘iga asosan Ozarbayjon respublikasi qurolli kuchlarida NATO o‘quv mashg‘ulotlaridan foydalanish tizimini qo‘llash munosabati bilan 2001-yil 26-martdan boshlab ofitserlar korpusi, harbiy kadrlar

tayyorlash va zahiradagi ofitserlarni tayyorlash kurslari asosida Ozarbayjon armiyasining **o‘quv - mashq Markazi** faoliyat ko‘rsata boshladi.

O‘quv - mashq Markazi Ozarbayjon armiyasida talab qilinadigan yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlaydigan qo‘shimcha ta'lim muassasasidir. Qo‘shimcha ta'lim kadrlar salohiyatini yaxshilash va harbiy xizmatchilarning doimiy o‘zgarib turadigan xizmat sharoitlariga moslashishini ta'minlaydi. Ozarbayjon armiyasining **O‘quv - mashq Markazida** quyidagi kurslar bo‘yicha o‘quv jarayoni olib boriladi:

-*ofitserlar malakasini oshirish kurslari* - Ozarbayjon armiyasi talablariga muvofiq barcha darajadagi va toifadagi ofitserlarning kasbiy mahorati va xizmat sifatini oshirish, kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish, yanada zamonaviy kasbiy ko‘nikma va malakalarni egallash uchun qo‘shimcha ta'lim;

-*zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash kurslari* - ofitserlar zaxirasini yaratish maqsadida tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha ofitserlarni tayyorlashni ta'minlaydigan qo‘shimcha ta'lim. Kursni muvaffaqiyatli tamomlaganlarga Mudofaa vaziri buyrug‘i bilan “leytenant” harbiy unvoni beriladi.

-*Gizir (praporshik)lar tayyorlash o‘quv kurslari* - bu tegishli qo‘mondonlik va maxsus lavozimlarda xizmat qilish uchun kadrlarni tayyorlashni ta'minlaydigan mutaxassislik bo‘yicha beriladigan ta'lim. Kursni muvaffaqiyatli tamomlaganlarga “Gizir” unvoni beriladi.

- uzoq muddatli muddatli harbiy xizmatchi (serjant)larni tayyorlash kurslari. Tegishli qo‘mondonlik va maxsus lavozimlarda xizmat qilish uchun tayyorgarlikni ta'minlaydigan mutaxassislik bo‘yicha tayyorgarlik. Kursni muvaffaqiyatli tamomlaganlarga “kichik serjant” unvoni beriladi.

Ikkinchi Qorabog‘ urushi davrida olib borilgan jangovar harakatlarda Ozarbayjon armiyasining O‘quv va o‘quv markazi ofitserlari va g‘izirlari qatnashgan, ulardan 21 nafari turli darajadagi tan jarohatlari olib, g‘oziy maqomiga ega bo‘lgan.

Ko‘rsatgan jasorati uchun **O‘quv - mashq Markaz**ining 500 nafardan ortiq harbiy xizmatchilari orden va medallar bilan taqdirlangan.

Maxsus harbiy ta’lim muassasalari tarmog‘i faoliyatini takomillashtirish maqsadida Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti janob Ilhom Aliyevning 2022-yil 5-martdagi 1626-sonli farmoni bilan **O‘quv - mashq Markaz**i Milliy mudofaa universiteti tasarrufiga o‘tkazildi.

Harbiy ilmiy – tekshirish instituti

Harbiy ilmiy-tadqiqot instituti Ozarbayjon Respublikasi Mudofaa vazirligi tarkibiga kiruvchi Milliy Mudofaa Universiteti qoshida faoliyat yurituvchi maxsus oliy o‘quv yurti hisoblanadi.

Institut qo‘shimcha ta’lim dasturlarini amalga oshiradi, oliy ta’limning magistratura va aspirantura bosqichlarida kadrlar tayyorlash, fundamental, nazariy-uslubiy, pedagogik-uslubiy va amaliy ilmiy tadqiqotlar olib boradi.

Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-martdagi 1626-sonli farmoni bilan Ozarbayjon Respublikasi Qurolli Kuchlarida yuqori malakali ilmiy va

ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish maqsadida Milliy mudofaa universiteti qoshida Harbiy ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi.

Harbiy ilmiy-tadqiqot instituti Ozarbayjon Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy akademiyasining huquqiy vorisi hisoblanadi.

Ozarbayjon armiyasidagi ilmiy faoliyat ilmiy bilimlarni egallash, qo‘llash va targ‘ib qilishga qaratilgan jarayon sifatida harbiy ta’limni rivojlantirish va mamlakat mudofaa qobiliyatini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan maqsadli ijodiy va tashkiliy ishdir.

Ilmiy faoliyat Ozarbayjon armiyasi faoliyatiga taalluqli barcha harbiy-siyosiy, taktik-strategik, moddiy-texnikaviy, ijtimoiy, ma’naviy-ruhiy masalalarni qamrab oladi, hamda mamlakat suvereniteti va hududiy yaxlitligi ta’minlashda harbiy ta’lim va fan tizimining turli muammolarini o‘rganadi.

Yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash oliy ta’lim bosqichi bo‘lgan aspiranturada falsafa doktori va fan doktori ilmiy darajasini berish orqali amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim muassasalarining falsafa doktori dasturi bo‘yicha magistratura bosqichini tamomlagan (magistrlik dissertatsiyasini himoya qilgan) yoki ma’lumoti bo‘yicha ularga tenglashtirilgan (tibbiyot mutaxassislari) harbiy xizmatchilar va davlat xizmatchilari tanlov asosida qabul qilinadi.

Harbiy boshqaruv instituti

Harbiy boshqaruv instituti Ozarbayjon Respublikasi Mudofaa vazirligi tarkibiga kiruvchi Milliy Mudofaa Universiteti qoshida faoliyat yurituvchi maxsus oliy o‘quv yurti hisoblanadi.

Harbiy boshqaruv instituti qo‘shimcha ta’lim dasturlarini amalga oshiradi, magistratura bosqichida kadrlar tayyorlaydi, uslubiy, nazariy, uslubiy, pedagogik va amaliy ilmiy tadqiqotlar olib boradi.

Harbiy boshqaruv instituti faoliyatining maqsadi Ozarbayjon Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun magistr-ofitserlarni, harbiy fanlar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va qo‘shimcha mutaxassislik bo‘yicha kadrlarni tayyorlash iborat.

Harbiy boshqaruv instituti Ozarbayjon Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy Akademiyasining huquqiy vorisi hisoblanadi.

Qurolli Kuchlar Harbiy Akademiyasi Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Haydar Alievning 1999-yil 20-fevraldagi farmoni bilan tashkil etilgan bo‘lib, uning vazifasi Ozarbayjon Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun komandirlar va shtab ofitserlarini, oliy ma’lumotli harbiy – ilmiy mutaxassislarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish, harbiy ish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish va mamlakat mudofaasi bilan bog‘liq bo‘lgan harbiy-strategik, harbiy-iqtisodiy va harbiy-siyosiy masalalar bo‘yicha yuqori mansabdor shaxslarni tayyorlashdan iborat.

Harbiy akademiya Qurolli Kuchlar tarkibida harbiy-nazariy va harbiy-amaliy bilimlarga, intellektual tafakkurga ega bo‘lgan, tezkor-strategik va tezkor-taktik darajadagi harbiy qo‘mondonlik va boshqaruv organlarida qo‘mondonlik, shtab va boshqa lavozimlarda xizmat qilish uchun oliy harbiy ma’lumotli ofitserlarni tayyorlashda alohida o‘rin egallaydi.

Harbiy akademiya ofitserlar shaxsiy tarkibi 2020-yil 27-sentabrda boshlangan Ikkinchi Qorabog‘ qurolli to‘qnashuvlarda faol ishtirok etdi.

To‘rt nafar harbiy xizmatchi turli darajadagi tan jarohatlari oldi.

Jasorati uchun Harbiy akademiyaning 53 nafardan ortiq harbiy xizmatchilari orden va medallar bilan taqdirlangan.

Haydar Aliev nomidagi harbiy institut

Haydar Aliev nomidagi harbiy institut - Ozarbayjon Respublikasi Mudofaa vazirligi tarkibiga kiruvchi Milliy Mudofaa Universitetiga bo‘ysunuvchi maxsus oliy ta'lim muassasasi. Haydar Aliyev nomidagi Harbiy institutda o‘rta maxsus, oliy va qo‘shimcha ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv jarayonini amalga oshirish bilan bir qatorda, amaliy ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Haydar Aliyev nomidagi harbiy institut Haydar Aliyev nomidagi oliy harbiy bilim yurtining huquqiy vorisi hisoblanadi.

1992 yil may oyida Boku oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik bilim yurti Ozarbayjon Respublikasiga qonuniy bo‘ysundi. O‘z mustaqilligini tiklagan respublika Qurolli Kuchlari va boshqa qo‘shin turlarini ofitserlar bilan ta’minlash zarurati tufayli, maktab Boku oliy birlashgan qo‘mondonlik bilim yurti deb nomlandi. 1992-1997-yillarda bu erda sobiq ittifoq harbiy ta’lim tizimi asosida ofitserlar tayyorlash bo‘yicha o‘quv jarayoni olib borildi.

9-rasm. Haydar Aliev nomidagi harbiy institut

Turkiya Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi o‘rtasida 1996-yilda imzolangan protokolga ko‘ra, Turkiya Qurolli kuchlari ofitserlari ko‘magida maktabda zamonaviy standartlarga javob beradigan ta’lim tizimiga o‘tish bo‘yicha tegishli ishlar amalga oshirildi. 1997-yildan boshlab sobiq Boku oliy harbiy-dengiz maktabida har yili yangi kursant batalyonlari tuzila boshlandi va 2000-yilda 4 ta kursant batalyonini shakllantirish ishlari yakunlandi. 2001-yil avgust oyida Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq, mavjud harbiy bilim yurti Ozarbayjon oliy harbiy bilim yurti, Ozarbayjon oliy harbiy uchuvchilar bilim yurti va Ozarbayjon oliy harbiy-dengiz bilim yurti deb nomlandi. Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining 2004-yil 10-martdagi farmoni bilan bilim yurtiga ozarbayjon xalqining umummilliy etakchisi Haydar Aliyev nomi berilgan. Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-dekabrdagi farmoyishi bilan

Ozarbayjon oliy harbiy uchuvchilar bilim yurti va Ozarbayjon oliy dengiz bilim yurti tugatilib, quruqlikdagi qo‘shinlar, havo kuchlari, havo hujumidan mudofaa va dengiz kuchlari fakultetlari esa Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon oliy harbiy bilim yurtiga birlashtirilgan. Maxsus ta’lim muassasalari faoliyatini yaxshilash maqsadida Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning 2022-yil 5-martdagi 1626-sonli qarori bilan Haydar Aliyev nomidagi Harbiy institut tashkil etildi va u Milliy mudofaa universiteti tasarrufiga o‘tkazildi. 1992 yil dekabr oyida umumo‘qshin fakultetining birinchi kurs kursantlaridan batalyon tuzildi va Agdam (Qorabog‘dagi shahar)ga jangovar topshiriqni bajarish uchun yuborildi. Yosh kursantlardan tashkil topgan batalyon shaxsiy tarkibi mardlik va vatanparvarlik namunasini ko‘rsatib, jangovar topshiriqni yo‘qotishlarsiz bajardi. 1993 yil fevral oyida umumo‘qshin fakultetining 2-kurs kursantlaridan 72 kishidan iborat vzvod tuzildi va Agdamga jangovar topshiriqni bajarish uchun yuborildi. Operatsiyalar davomida 8 kishi halok bo‘ldi, besh kishi bedarak yo‘qoldi. Maktabning 20 nafar bitiruvchisi 2016-yil aprel oyidagi janglarida arman agressiyasini munosib daf etib, g‘oliblar cho‘qqisiga ko‘tarildi. 2020-yil 27-sentabrda boshlangan Ikkinchi Qorabog‘ urushi qatnashchilari orasida Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon oliy harbiy bilim yurtining 4-kurs kursantlari va ofitserlari ham bor edi. 2020-yil 29-sentabrdan boshlab Oliy harbiy bilim yurtining 500 nafardan ortiq 4-kurs kursantlari va yuzlab Gizir(praporshik)lar Vatan urushida qatnashish uchun frontga jo‘nab ketdi. To‘rtinchi kurs kursantlari kichik leytenant harbiy unvoni bilan janglarda qatnashdilar. Oliy harbiy bilim yurtining 10 nafar harbiy xizmatchisi halok bo‘ldi, 28 nafari turli og‘irlikdagi tan jarohatlari olib, g‘oziy bo‘ldi, jasorat va jasorati uchun 400 dan ortiq kishi orden va medallar bilan taqdirlandi. Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining farmoni bilan janglarda ko‘rsatgan jasorati uchun bilim yurtining bir qator bitiruvchilariga Ozarbayjon Milliy Qahramoni unvoni va boshqa faxriy unvonlar berildi. Hozirda Haydar Aliyev nomidagi Harbiy institutning uchta fakultetida (quruqlikdagi qo‘shinlar va umumiy fanlar fakulteti, harbiy havo kuchlari fakulteti va dengiz qo‘shinlari fakulteti) 23 harbiy mutaxassislik bo‘yicha ofitser kadrlar tayyorlanmoqda. Bu yerda harbiy mutaxassisliklar bilan bir qatorda “Tizim muhandisligi”, “Aerokosmik muhandislik”, “Radiotexnika va telekommunikatsiyalar”, “Elektrotexnika va elektronika”, “Mashinasozlik” kabi yo‘nalishlar bo‘yicha bakalavr kadrlar tayyorlanmoqda. Maktab bitiruvchilariga tegishli mutaxassislik bo‘yicha bakalavriat darajasi va “leytenant” harbiy unvoni beriladi.

Ozarbayjon tibbiyot universitetining harbiy tibbiyot fakulteti

Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining 2000-yil 25-maydagi “Ozarbayjon Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun zahiradagi ofitserlar tayyorlashni takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori talablariga muvofiq Ozarbayjon Respublikasi Qurolli Kuchlarining professional harbiy shifokorlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida Ozarbayjon tibbiyot universiteti qoshida Harbiy tibbiyot fakulteti tashkil etildi. Fakultetda o‘qish muddati 2 yil. 2000-yil avgust oyidan boshlab mazkur fakultetga tibbiyot universitetining davolash-profilaktika, pediatriya va stomatologiya fakultetlarining 4-kursni tamomlagan talabalar

(erkaklar) saralash asosida qabul qilinadi. 2006 yildan boshlab Harbiy tibbiyot fakultetining 1-kurslariga “Harbiy tibbiyot” mutaxassisligi bo‘yicha kursantlarni qabul qilish boshlandi. Tibbiyot xizmati ofitserlarini tayyorlashning uzluksizligi tamoyilini ta’minlash maqsadida Harbiy tibbiyot fakultetida malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda. Ozarbayjon Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni talablaridan kelib chiqib, 2011-2012 o‘quv yilidan boshlab Ozarbayjon tibbiyot universitetining Harbiy tibbiyot fakultetida harbiy shifokorlarni ixtisoslashtirish maqsadida 11 ta mutaxassislik bo‘yicha rezidentlar tayyorlana boshladi.

Ozarbayjon Respublikasining harbiy kadrlarni tayyorlashdagi hamkorligi

1990 yillarda Ozarbayjonda harbiy kadrlar tayyorlash bo‘yicha Turkiyaning yordami beqiyos bo‘ldi.

Harbiy sohadagi birinchi hukumatlararo hujjat 1992-yilda imzolangan. Ushbu hujjatning nomi "Harbiy ta'lim to'g'risidagi bitim" edi.

1996-yil 10-iyun Anqara shahrida Turkiya va Ozarbayjon hukumatlari o‘rtasida "Harbiy texnikaviy va harbiy ta'lim sohalarida hamkorlik to‘g‘risida bitim" imzolandi.

Ozarbayjon Pokistondan mamlakat harbiy havo kuchlari uchun "Super Mushak" o‘quv samolyotini sotib oldi bu samolyotlarni yetkazib berish ikki davlat o‘rtasida 2017-yil iyul oyida imzolangan shartnoma doirasida amalga oshirildi. Qayd etish kerakki, ushbu samolyotlar har qanday sirtga qo‘na oladigan eng xavfsiz o‘quv samolyotlari hisoblanadi.

Umuman olganda, 2016-yil harbiy hamkorlik sohasidagi ikki tomonlama Ozarbayjon-Pokiston munosabatlarini kengaytirish nuqtai nazaridan juda samarali yil bo‘lganini ta’kidlash lozim. Yil boshida Pokiston Harbiy-dengiz kuchlari qo‘mondoni Muhammad Zakaulloh boshchiligidagi delegatsiya Ozarbayjonga yetib keldi. Bokuga rasmiy tashrif doirasida Pokiston generali Ozarbayjon prezidenti, bosh vazir, mudofaa vaziri, shuningdek, respublika Davlat chegara xizmati rahbari bilan uchrashuvlar o‘tkazdi harbiy tayyorgarlik, qo‘shma mashg‘ulotlar o‘tkazish masalalari muhokama qilinib, terrorizmga qarshi kurashda birgalikda hamkorlik qilish zarurligi ta’kidlandi.

Tahlil natijalari, Ozarbayjon respublikasi.

- Ozarbayjon respublikasi o'z harbiy qudratini oshirishga astoydil intilmoqda;
- harbiy ta’lim muassasalarining faoliyati zamonaviy raqobatbardosh harbiy kadrlarni tayyorlashga qaratilmoqda;
- Harbiy texnikaviy va harbiy ta'lim sohalarida qo‘shni davlatlar bilan o‘rnatilgan hamkorlik ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha amaliy ishlar davom ettirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar va axborot resurslari.

1.https://tarix-kitob.uz/category/jahon-tarixi-11/2-bob-1991-2017-yillarda-dunyo-mamlakatlari/

2.pressmd@mod.gov.az.

3.Infourok.ru

4. Zakon Azerbaydjanskoy Respubliki «Ob obrazovanii».

Мустақил Ўзбекистон шароитида резерв ва заҳирадаги офицерлар тайёрлаш тизимининг долзарблиги.

Ильясов Мақсуд Мильисович
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази ўқитувчиси, резервдаги подполковник

Аннотация. Дунё шиддат билан ўзгараётган, минтақалар ва давлатлар ўртасида сиёсий, иқтисодий ва мафкуравий курашлар тобора кескинлашаётган бир шароитда Республикамизда нафақат Қуролли Кучлар қўшинлар шароитида хизмат вазифасини олиб бораётган ҳарбий хизматчилар балки, қўшинлар шароитида ҳарбий хизматда бўлмаган мактаб ўқувчисидан тортиб то олий таълим муассасалари талабаларигача бўлган ёшларни, Ватанни ҳимоя қилишдек улуғ вазифани зиммасига ишонч билан ола биладиган, ҳарбий – сиёсий вазиятни чуқур таҳлил қилиб, жанг шароитида ўзини йўқотмай, мураккаб вазиятларда тўғри қарор қабул қиладиган даражадаги ватанпарварлик руҳида тарбиялаш тизимининг такомиллашуви ва ривожланиши учун асос бўлиб хизмат қилиб келмоқда. Резерв ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш ҳозирги кунда энг долзарб мавзулардан бири ҳисобланади. XXI асрга келиб, Давлатлар хавфсизлигига таҳдид соладиган эҳтимолий хавф, рўй бераётган жанговар ҳаракатлар сценарийси, ҳамда қўшинларнинг жанговар қўлланилиши, Мамлакат Қуролли Кучларининг такомиллашуви ва ривожланиши учун асос бўлиб хизмат қилиб келмоқда. Республикамизда фаолият олиб бораётган Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Ҳарбий тайёргарлик ўқув марказида олий таълим муассасаларининг талабалари таркибидан резерв ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш бўйича олиб борилаётган ислоҳотларнинг бир натижаси бўлиб, Қуролли Кучлар сафини резерв ва заҳирадаги офицерлар билан тўлдириш учун замин ҳисобланади. Мазкур ишда дунёда юзага келган ҳарбий сиёсий вазиятнинг ўзгариши натижасида, Қуролли Кучлар тизимига қўйиладиган талабнинг ҳам ўзгариб такомиллашиб бораётганлиги, тарихий фактларга ва ҳарбий манбалар томонидан берилган маълумотлар асосида юзага келган ўзгаришлар, хусусан резерв ва заҳирадаги офицерлар тайёрлаш тизими ривожланиш тенденцияси қиёсан таҳлил қилинди.

Калит сўзлар: резерв ва заҳирадаги офицер, ҳарбий кафедра, ҳарбий ҳисоб ихтисослигидаги мутахассислик, ҳарбий тайёргарлик, қўшинлардан ташқарида резерв ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш, олий таълим муассасаси (ОТМ), ҳарбий олий таълим муассасаси (ҲОТМ).

Кириш.

Заҳирадаги офицерларни тайёрлаш амалиётини ўрганиш орқали шуни кузатиш мумкинки, ҳар бир давлат Қуролли Кучлари олдига қўйилган вазифаларнинг муваффақиятли ҳал этилишига, асосан юқори даражада ҳарбий касбий тайёргарликка ҳамда илмий салоҳиятга эга бўлган мутахассислар, офицер кадрларни тайёрлаш орқали эришилади. Ҳозирги кунда юқори даражада касбий маҳоратга эга бўлган офицер кадрларни тайёрлаш бўйича

тайёргарлик тизимининг турли кўринишлари ва стратегияси мавжуд бўлиб, замонавий армия кадрлар таъминот тизимининг шартли элементлари мутахассисларнинг маълумоти ва илмий даражасига боғлиқ бўлиб қолди. Ҳарбий кадрларни тайёрлаш тизими ҳар бир мамлакатнинг ўз имкониятларидан келиб чиққан ҳолда, турли хил кўринишда амалга оширилиб, дунёда юзага келаётган ҳарбий сиёсий вазиятга қараб такомиллаштирилиб борилмоқда. Мамлакатда сафарбарлик эълон қилинганда, қуролли кучларни ҳарбий ҳолатдаги штат бўйича офицерлар билан тўлдириш учун барча армияларда заҳирадаги офицерлар тайёрланиб боради. Заҳирадаги офицерларни тайёрлашнинг бир неча кўринишлари мавжуд. Шулардан биринчиси, ҳақиқий ҳарбий хизматдаги офицерларнинг заҳирага бўшатилиши учун қонунда белгиланган ёшга етиб бормасдан муддатдан олдин, ҳақиқий ҳарбий хизматдан заҳирага бўшатилиши. Иккинчиси, фуқароларнинг ҳарбий хизматни ўташ тартиби тўғрисидаги қонунга кўра, ҳарбий хизматга чақирилиб, қонунда белгиланган муддат давомида хизмат вазифасини ўтаётган муддатли ҳарбий хизматчиларнинг қисқартирилган махсус дастур орқали ўқитилиб, офицер унвони билан заҳирага бўшатилиши. Учинчиси, таълим муассасалари талабалари таркибидан ҳарбий тайёргарлик бўйича ўқув дастури асосида тайёргарликдан ўтиши натижасида заҳирадаги офицер унвонининг берилиши.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review).

Буюк Британия қуролли кучларидаги мавжуд офицерларнинг 30%ни заҳирада тайёрланиб, кейинчалик ҳақиқий ҳарбий хизматга чақирилган офицерлар ташкил этади. Бу офицерларнинг тайёргарлик даражасига, НАТО қўмондонлиги томонидан Ироқ қуролли кучларига қарши ўтказилган «Чўл бўрони» операцияси давомида ижобий баҳо берилган. Ушбу тайёргарлик иқтисодий жиҳатдан ҳам тежамкор ҳисобланади. Мисол учун, муҳандислик ихтисослиги бўйича ҳарбий олий таълим муассасасида бир нафар мутахассисни тайёрлаш учун ўртача 100 минг доллар сарф қилинадиган бўлса, олий таълим муассасаси(кейинги ўринларда-ОТМ)да ўқув жараёнидан ажралмаган ҳолда худди шундай мутахассисни тайёрлаш учун 40 минг доллар, яъни 2,5 баравар кам харажат сарф қилинишини кўриш мумкин. ОТМ талабалари учун ҳарбий тайёргарлик бўйича ўқув жараёни ҳарбий тайёргарликка жалб қилинган талабалар билан ҳафтасига 2-4 соатдан 1-2 марта машғулот ўтиш, йиғинлар (ойда 1-2 марта) ташкил этиш орқали амалга оширилади. Ҳарбий тайёргарлик бўйича ўқув йили, ёзги таътилда икки ҳафталик йиғин ўтказиш билан якунланади. Ушбу курсларнинг фаолияти ОТМнинг ҳарбий тайёргарлик қўмитаси томонидан бошқарилади (бу қўмита таркибига ректорат вакиллари, ҳарбий кафедра бошлиғи киради. Машғулот раҳбарлари ва йўриқчилар хизмат ўтаётган ва заҳирага бўшатилган офицерлардан жамланади) [3, 12-14 б.]. Германияда анъавий усулга таянган ҳолда, заҳирадаги офицерлар тайёрланади. Бундесверда учта йўналиш мавжуд: биринчиси, ҳақиқий ҳарбий хизматни ўтаб, белгиланган тартибда заҳирага бўшатилган офицерлар ва контракт асосида ёлланган мутахассис

офицерлар заҳира учун рўйхатга олинади. Иккинчиси, ҳақиқий ҳарбий хизматга чақирилган, ҳамда муддатли ҳарбий хизматни ўтаб, заҳирага бўшатилган ҳарбий хизматчилардан заҳирадаги офицерлар тайёрланади. Учинчиси, ОТМни тугаллаган ва мутахассислиги ҳарбий мутахассисликка турдош бўлган фуқаролардан заҳирадаги офицерларни тайёрланади. Германияда қўшинлардан ташқарида офицерларни тайёрлаш мавжуд эмас, барча мутахассисликлар бўйича офицерларни тайёрлаш, фақат қўшинлар шароитида амалга оширилади. [4, 14-15 б.]. Францияда офицерларни тайёрлаш бўйича 80 ортиқ ҲОТМ, 50 ортиқ ОТМ шуғулланади. Бундан ташқари, ўрта таълим муассасалари, Париждаги лицейлар ҳам заҳирадаги офицерларни тайёрлашда иштирок этади. Ҳарбий манбаларнинг маълумот беришича, охирги йилларда олий таълим муассасалари битирувчиларининг ҳарбий соҳага қизиқиши ортиб, ҳарбий хизматни давом эттиришга ариза берганлар сони, ҲОТМ битирувчиларига нисбатан кўпайганлигини кузатиш мумкин. Мамлакат бутун офицерлар корпусининг 30%ни заҳирадаги офицерлар ташкил этади. Булардан 50%дан ортиғи техник профилдаги ОТМларига тўғри келади, қолганлари ҳуқуқшунослик, иқтисодиёт, савдо, бошқарув ва бошқа таълим йўналишларига тўғри келади. 1986 йилдан бошлаб, барча тиббиёт институти битирувчилари учун, ҳарбий тиббий тайёргарлик бўйича курс (Либурн шаҳри)дан ўтиш мажбурий қилиб белгиланган. Унда заҳирадаги офицерларни тайёрлаш бўйича ўқув дастури асосида машғулотлар олиб борилади [5, 14 б.]. АҚШда заҳирадаги офицерларни тайёрлаш, қўшинлардан ташқари (ROTC – Reserve Officers Training Corpc)да амалга оширилади. Мамлакатда 280 дан ортиқ ОТМлари ва колледжларида қуруқликдаги қўшин учун, 140 дан ортиқ ОТМларида эса ҳарбий ҳаво кучлари учун, 50 дан ортиқ ОТМларида ҳарбий денгиз кучлари учун жами 470 дан ортиқ ОТМлари ва колледжларда заҳирадаги офицерлар тайёрланади. ROTC курсларининг хусусияти шундан иборатки, бунда олий таълим муассасалари ва колледжларда ҳарбий тайёргарликни ташкил этиш учун мудофаа вазирлигининг ўзи манфаатдор ҳисобланади. Янги ҳарбий олий таълим муассасаларини ташкил этмасдан, қуролли кучларни офицер кадрлар билан тўлдиришда, ОТМларининг имкониятларидан фойдаланиш ушбу тайёргарлик тизимининг асосини ташкил этади. Бу тизимда асосан бўлажак ҳарбий врачлар, физиклар, химиклар, инженерлар ва бошқа мутахассислар тайёрланиб борилади. Заҳирадаги офицерларни тайёрлаш, тўрт йил муддатга мўлжалланган ўқув дастури асосида амалга оширилиб, у икки қисмдан, асосий ва такомиллаштирилган курслардан иборат. Асосий курсда, мамлакатнинг миллий мудофаа асослари, ҳарбий тарих, қуруқликдаги қўшинлар вазифаси, қуролли кучларда мавжуд қуроллар, алоқа воситалари ва бошқалар ўрганилади. Курсда ҳарбий тайёргарлик машғулотлари ҳафтасига 3 соатдан ўтказилади. Талабаларни ROTCга қабул қилиш шарти, курсни тугатиб, камида 3-4 йил давомида қуролли кучлар қўшинларида хизмат қилиш ҳисобланади [4, 3 б.]. 2010 йилга келиб, АҚШ қуролли кучлари армиясининг 38,5 % ёш офицерлари ушбу тизим орқали тайёргарликдан ўтган, шундан 1,8%

АҚШ денгиз пиёдалари қўшинлари (заҳирадаги офицерларни тайёрлаш Денгиз корпуси орқали), 16,7% ҳарбий денгиз флоти, 38,1% ҳарбий ҳаво кучлари, жами мудофаа Департаментининг 30% офицерлари ушбу тизим орқали тайёргарликдан ўтган. ROTC да ҳарбий тайёргарлик, ўзаро мусобақа ва ҳар бир ўқувчининг индивидуал қобилиятини инобатга олган ҳолда ташкил этилади. Тайёргарлик сўнгида битирувчиларнинг 25% офицер кадрлар сифатида хизматни давом эттириш имкониятини қўлга киритади, қолган 75% битирувчилар эса, заҳирадаги хизматини давом эттиради. Энг яхши деб топилган 3 нафардан 5 нафаргача битирувчилар мутахассислик ва хизмат ўташ жойини танлаш ҳуқуқини қўлга киритадилар. Мутахассислик бўйича таълим ушбу ўқув дастурини тугаллаганидан кейин офицерларни тайёрлаш махсус курсларида, давомийлиги мутахассислик турига қараб 3 ойдан 7 ойгача бўлган даврда амалга оширилади [6, 138-142 б.]. Россияда олий таълим муассасаларининг ҳарбий кафедраларида, шунингдек 2008 йилдан бошлаб эса, олий таълим муассасаларида ташкил этилган ҲТЎМ (ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази) ларида амалга оширилади. Олий таълим муассасасида таълим олаётган талаба, ўқув жараёнидан ажралмаган ҳолда ҳарбий тайёргарлик учун вақт ажратади. Ҳарбий ўқув Маркази талабаси ҳарбий хизматчи ҳисобланмасада, олий таълим муассасасини тугаллаганидан кейин, Мудофаа вазирлиги билан шартнома тузишга мажбур. Шундай қилиб, ҲЎМ тизими, Олий таълим муассасаси имкониятларидан қуролли кучлар мақсади учун фойдаланишни амалга оширувчи оралиқ восита ҳисобланади [7, 188-192 б.]. Юқори даражада касбий маҳоратга эга бўлган офицерларни тайёрлаш ва ҳарбий олий таълим тизимини ташкил этиш бўйича тайёргарликнинг турли кўринишлари ва стратегияси мавжуд. Деярли кўпчилик давлатларда қуролли кучларни кадрлар билан таъминлаш вазифаси махсус ҲОТМларининг зиммасига юклатилган. ҲОТМ ҳарбий кадрларни тайёрлашнинг асосий ядроси бўлишига қарамасдан, улар юқори даражада касбий маҳоратга эга бўлган ҳарбий кадрларни тайёрлаш учун зарур бўлган барча вазифаларни бажаришда имкониятлари етарли эмас. Замонавий қуролли кучларнинг юқори технологик характерга эга бўлиб бораётганлиги, тор йўналишлар бўйича кўп сонли мутахассисларга талабнинг ошиб бориши ҳамда кадрлар таъминотининг тежамкор йўлини топиш, офицер кадрлар тайёрлаш корпусининг яна бир турини ташкил этишни тақоза қилади. Яқин кунларгача ушбу вазифани Республикамизда мавжуд олий таълим муассасаларининг ҳарбий кафедралари, ал - Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари институтининг махсус факультети бажариб келмоқда эди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 24 октябрдаги ПҚ-4496м-сонли «Ўзбекистон Республикаси Олий таълим муассасаларида захирадаги ва резервдаги офицерларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида» қарори талаблари ижросини таъминлаш мақсадида, Ўзбекистон Миллий университети ҳарбий кафедраси базасида Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази ташкил этилди. Ҳарбий тайёргарлик ўқув марказига Тошкент шаҳрида жойлашган олий таълим муассасалари (Ўзбекистон Миллий

университети, Тошкент Давлат техника университети, Тошкент Давлат юридик университети, Тошкент халқаро вестминстер университети, Тошкент Давлат шарқшунослик университети, Тошкент Давлат аграр университети, Тошкент Давлат транспорт университети, Тошкент иригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислик институти, Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти, Тошкент кимё технология институти, Тошкент молия институти) нинг кундузги бўлимида таҳсил олаётган, 27 ёшгача бўлган 2 - босқич эркак талабалар танлов асосида саралаб олинади. Ҳарбий тайёргарлик ўқув марказида таълим олиш учун талабаларни саралаш танловининг асосий мезонлари: тиббий кўрик, шахсий-рухий ўрганиш, ОТМда таълим олиш жараёнида ўзлаштирилган билим даражаси натижалари, умумжисмоний тайёргарлик, чақириққача бошланғич тайёргарлик дастури буйича билим даражаси. Соғлиги бўйича ҳарбий хизматга яроқли ва танловдан муваффақиятли ўтган олий таълим муассасалари талабалари қуйидаги 30 та ҳарбий ҳисоб мутахассисликлари бўйича «Захирадаги ва резервдаги офицерларни тайёрлаш ўқув Дастури» асосида ҳарбий тайёргарлик машғулотларига жалб қилинади. Машғулотлар ҳарбий кун усули (фақат ҳарбий тайёргарлик) да ўтказилади. Бунда ўқув машгулотлари учун кунига 6-8 соат вақт ажратилади. Машғулотлар, Ҳарбий тайёргарлик ўқув марказига танлов асосида саралаб олинган профессор ўқитувчилар томонидан олиб борилади, уларнинг асосий қисмини резервдаги офицерлар ташкил этади. Ҳарбий тайёргарликнинг якуний босқичи - ўқув йиғини ҳисобланади. Ўқув йиғини талабаларнинг аудитория машғулотларида олган назарий билимларини мустахкамлаш, мутахассисликлар бўйича мажбуриятларни бажаришда амалий кўникмаларни такомиллаштириш, ўқотар қуроллардан отиш машқларини амалий бажариш ва ҳарбий тайёргарлик бўйича якуний давлат аттестацияси ўтказиш ҳамда талабаларни Ватанга касамёдга келтириш учун мўлжалланган. Ўқув йиғинига ҳарбий тайёргарлик бўйича барча турдаги назоратлар бўйича ижобий баҳоланган талабалар жалб қилинади. Ҳарбий тайёргарликни ўтаб бўлгач, назоратнинг барча турларини муваффақиятли топширган, ўқув йиғинларидан ўтган талабалар ҳарбий тайёргарлик бўйича якуний давлат аттестациясига жалб қилинади. Ҳарбий тайёргарлик бўйича якуний давлат аттестациясини ва бакалавриатнинг тўлиқ курсини муваффақиятли якунлаган талабаларга белгиланган тартибда «лейтенант» ҳарбий унвони берилади ва улар ҳақиқий ҳарбий хизматга чақирилади ёки резерв ёхуд захирага ўтказилади. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 15 апрелдаги ПҚ-5077-сонли «Жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасида профессионал кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» қарорига кўра, Миллий гвардия Ҳарбий-техник институти Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавсизлиги университети этиб қайта ташкил этилди. 2021/2022 ўқув йилидан бошлаб Университетда жорий этилаётган таълим тизимига мувофиқ ўқитишни йўлга қўйиш ташкил этилиши режалаштирилди. Умумий асосларда кадрлар тайёрлашни тўлов-контракт асосида амалга ошириш ва

битирувчиларга “заҳирадаги офицер” ҳарбий унвони ва тегишли мутахассислик бўйича диплом бериш тўғрисида Миллий гвардия ва ички ишлар вазирлигининг таклифлари қондирилди.

Таклифлар:

1.Ривожланган давлатларда заҳирадаги офицерларни тайёрлаш тизимини ўрганиш мақсадида мутахассисларнинг хизмат сафарини ва ўқув курсларида иштирокини ташкил этиш.

2.Ҳарбий тайёргарлик машғулотларида юқори натижаларга эришган ОТМ талабаларини моддий жиҳатдан рағбатлантириш тизимини жорий этиш.

3. Ўқув жараёнига фан техниканинг ва таълим технологояларининг энг сўнгги натижаларини тадбиқ қилиб бориш мақсадида ЎР ҚК академияси, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, ҳарбий олий таълим муассасалари билан доимий ҳамкорлик ўрнатиш.

4. Заҳирадаги ва резервдаги офицерлар билан тизимли равишда ўқув йиғинларини ташкил этиш, колледж ва лицейларда турдош мутахассисликлар бўйича, қуролли кучлар учун, заҳирадаги кичик мутахассисларни тайёрлаш, зарурат бўлганда уларни ҳарбий хизматга чақириш масаласини кўриб чиқиш.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 24 октябрдаги ПҚ-4496м-сонли «Ўзбекистон Республикаси Олий таълим муассасаларида захирадаги ва резервдаги офицерларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида» ги қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 15 апрелдаги ПҚ-5077-сонли «Жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасида профессионал кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги қарори.

3. Фильков С. Подготовка офицеров запаса в странах Западной Европы. //зарубежное военное обозрение. -1996.-№6. – с. 12-14.

4. Фильков С. Подготовка офицеров запаса в странах Западной Европы. //зарубежное военное обозрение. -1996.-№6. – с. 14-15.

5. Фильков С. Подготовка офицеров запаса в странах Западной Европы. //зарубежное военное обозрение. -1996.-№6. – с. 14.

6. Серов Е.О. О системе вневойсковой подготовки американской молодёжи.// Красная звезда.-1989. – 20 января –с. 3.

7. Хамула Л.А., Хамула А.Я. Подготовка офицеров резерва на курсах вневойсковой подготовки (ROTC) в сухопутных войсках США // Историческая и социальнообразовательная мысль. 2012. №1. – С.138-142.

8.Сокол Л.Н., Ярулин И.Ф. Учебные военные центры – современная система профессиональной подготовки офицеров Вооруженных Сил России // Государственное и муниципальное управление. Ученые записки. 2017. №4. – С.188-192.

9. https://lex.uz

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING HARBIY TA’LIMDAGI O‘RNI

Abdigapirov A.A., AKT va AHI, katta oqituvchi, t.f.n.
Alaev S.R., AKT va AHI, katta oqituvchi
Idiyev E.I., AKT va AHI, oqituvchi, dotsent

Annotatsiya: Bu ishda raqamli texnologiyalarning harbiy ta’limdagi ahamiyati yoritilgan. Harbiy ta’limning ildam rivojlanishi, ilmiy-texnik taraqqiyotning tezlashib borayotganligi, Qurolli Kuchlarni eng zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan jihozlanishidan kelib chiqadigan talablar yoritilgan. O‘quv jarayonida raqamli texnologiyalardan, elektron darsliklar va trenajyorlardan foydalanishning va axborot texnologiyalarni qo‘llashning samarali jihatlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Harbiy ta’lim, raqamlashtirish, raqamli texnologiya, elektron trenajyorlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Harbiy mutaxassislarni tayyorlash tizimini yuqori darajada turishini ta’minlash oliy harbiy ta’limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy-texnik taraqqiyotining jadal rivojlanishi sharoitida jamiyatning harbiy mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha ijtimoiy buyurtmasi harbiy ta’limdan intellektual faol, ijodiy, keng ilmiy dunyoqarashga ega, yuqori professional, kundalik faoliyatida turli masalalarni samarali va bilimdonlik bilan hal qiladigan ofitser shaxsini talab qiladi. Harbiy ta’lim muassasasi bitiruvchisining asosiy xususiyati uning chuqur bilimga ega bo‘lishi va harakatchanligidir.

Zamon talablariga, vaqt ruhiga mos kelish uchun yangi formatsiyadagi, o‘zining mutaxassisligi bo‘yicha bilimlarini mutassil yangilab boruvchi, innovatsion muhitda yashaydigan va ishlaydigan jo‘shqin harbiy kadrlar kerak. Harbiy ta’limning maqsad-mohiyati ijodiy qobiliyatni hosil qilish va tarbiyalashdan iborat bo‘lishi lozim. Harbiy ta’limning ildam rivojlanishi, ilmiy-texnik taraqqiyotning tezlashib borayotganligi, Qurolli Kuchlarni eng zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan jihozlanishi, ko‘p davlatlar armiyalarida oxirgi ilmiy yutuqlardan foydalanishilarini hisobga olganda harbiy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish alohida aktuallikni talab qiladi.

Yuqoridagi talablar va ularni amalga oshirishni harbiy ta’lim sohasiga raqamli texnologiyalarni tatbiq qilmasdan bajarish amri maholdir. Raqamlashtirish zamonaviy dunyoda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki bu xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, jarayonlarni optimallashtirish va innovatsiyalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamlashtirish nafaqat raqamli texnologiyalarni joriy yetish, balki tez o‘zgaruvchan raqamli dunyoga moslashish uchun o‘zgacha yondoshuv ekanligini tushunish muhimdir.[1]

Bu jarayon ta’limni boshqarish tizimi mexanizmini, tarbiyaning usullari va strategiyasini takomillashtirish va ta’limning uslubiy tizimini yaratish imkoniyatini beradi. Harbiy ta’limda raqamlashtirish o‘quv jarayonini takomillashtirish, mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish va harbiy ta’limda innovatsion usullarni

ishlab chiqish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Hozirda harbiy texnikalar va qurollarning simulyatorlari keng ko‘lamda qo‘llanilayotgani hech kimga sir emas.

Kompyuterda yaratilayotgan testdan o‘tkazish va diagnostika qilish usullari ta’lim oluvchilarning bilim darajalarini muntazam va tezkor nazorat qilish va baholashni, ta’lim samaradorligini oshirishni ta’minlashi lozim.

Zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan ya’ni, elektron darsliklar, o‘rgatuvchi dasturlar va elektron trenajerlar va shunga o‘xshash elektron vositalardan foydalanish zamonaviy professional harbiy ta’lim uchun o‘ta aktual hisoblanadi.

Zahiradagi ofitserlarni va Qurolli Kuchlarda xizmat qilish uchun ofitserlarni tayyorlash dasturi bo‘yicha oliy ta’lim yurtlarida olib boriladigan o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish quyidagi masalalarni hal qilishga yordam beradi:

o‘rganilayotgan fanga bo‘lgan qiziqishning ortishi;

harbiy tayyorgarlik fanlari bo‘yicha ma’lumotlar hajmining oshishi;

o‘quv jarayonini tashkil qilish sifatining yaxshilanishi;

ta’limning individual ko‘rinishlarini qo‘llash;

harbiy mutaxassisni virtual tayyorlash tizimi uchun o‘quv paketlari va dasturlari majmuasini yaratish;

masofaviy o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirish (bu ayniqsa malaka oshiruvilar uchun va pandemiya kabi turli xil holatlarda qo‘l keladi);

o‘qituvchilar, kursantlar, tinglovchilar va harbiy ta’lim muassasasi ma’muriyati o‘rtasidagi samarali ma’lumot almashish jarayonini tezlashtirish;

o‘quv materiallari, ilmiy ishlar, Qonunchilik va boshqa foydali ma’lumotlar bilan yelektron kutubxonalar va ma’lumotlar bazalarini boyitish;

o‘qitish va ilmiy tadqiqotlar uchun zarur resurslardan foydalanishni ta’minlash;

mashg‘ulotlarni rejalashtirish, davomatni nazorat qilish, kursantlar,talabalar, tinglovchilar faoliyatini hisobga olish va boshqa ma’muriy vazifalar kabi boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish.

Bularning barchasi o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni faol tadbiq qilish sharoitlarida bo‘lajak harbiy mutaxassis shaxsini shakllantirishga imkon beradi.

Eng yangi ishlanmalarni va raqamli texnologiyalarni qo‘llashning ijobiy tomonlari quyidagilar:

mutaxassislarni tayyorlashning boshlang‘ich bosqichida jangovar apparatura resursini yetarlicha iqtisod qilinishi;

zamonaviy kompyuter texnolgiyalari istalgan jangovar texnikaning ishini reallikka maksimal yaqinlashtirgan holda ko‘rsata olishi;

bir vaqtning o‘zida shaxsiy tarkibning chegaralanmagan sonini o‘qitish imkonini berishi.

Ishlab chiqilayotgan turli kompyuter uslublari ta’lim oluvchilarni tezkor tizimli nazorat qilish va bilim darajasini baholash, o‘qitish samaradorligini oshirishni ta’minlashi lozim. Raqamli texnologiyalarning masofaviy ta’lim, elektron

darsliklar, o‘rgatuvchi dasturlar kabi zamonaviy vositalarining qo‘llanilishi bugungi kundagi professional harbiy ta’lim uchun dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Ta’limdagi raqamli texnologiyalarning bosh maqsadi – doimiy o‘zgarib turgan dunyoda insonni hayotga tayyorlash. Bunday ta’limning mohiyati o‘quv jarayonini insonning potensial imkoniyatlariga va ularni amalga oshirishga yo‘naltirishdan iborat. Ta’lim innovatsion faoliyat mexanizmlarining rivojlantirilishi, hayotiy muhim muammolarni yechishning ijodiy usullarini topilishi, ijodning normaga va inson mavjudligining shakliga aylanishiga yordam berishi lozim.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, o‘quv jarayonida kursantlar, tinglovchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanishi fikrlashning faolligini oshiradi, o‘quv-bilish faoliyatining yuqori faolligini, kursantlarning, tinglovchilarning fanni bilishga bo‘lgan ijobiy munosabatlarini ta’minlaydi, ofitser kadrlarni yangi sharoitlarda mustaqil harakat qilishga tayyorligini shakllantiradi, fikrini zaruriy yo‘nalishda jamlay olishni va e’tiborini bir hodisadan boshqasiga tez qayta qarata olish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Yana shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, hozirgi kunda atrofimizdagi barcha kechayotgan jarayonlar tezlashib borayotganligini hisobga olib, kursantlarga, tinglovchilarga bevosita o‘qish jarayonida bilim berish bilan bir qatorda kelajakda yangi bilimlarni o‘zlari ham mustaqil o‘rganish usullarini o‘rgatishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Перевозников В.В., Бибик А.В. Индивидуализация обучения в военном вузе, информационно-коммуникационные технологии как средства ее реализации Ж-л Современ.проблемы науки и образования. М.– 2019. – № 3

2. Выговский И.И., Степанишин Н.С. Инновации в обучении, Вестник военного образования М.-2019 -№ 1

3. И. А. Новиков, В. М. Хобта Роль и место новых образовательных технологий при подготовке военных специалистов на военном факультете вуза Сборник тезисов докладов научно-практического семинара Минск, 26 м**а**рта 2019 г.

YUQORI MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASHDA MA’NAVIY VA AXLOQIY TARBIYANING DOLZARBLIGI MISOLIDA

Abdullayev Yo‘lchi Ziyayevich
BuxDU harbiy fakultet boshlig‘ining
ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, mayor.

Annotatsiya: Maqolada malakali kadrlarni tayyorlashda milliy ta’lim tizimini jahon meyorlariga moslashtirish bo‘yicha salmoqli islohotlar amalga oshirildi va bugungi kunda ularning dastlabki samaralari ko‘zga tashlanmoqda. Pedagogik ta’lim sohasida nimalarga e’tibor qaratish va qanday o‘zgarishlarni amalga oshirish lozimligi va uni hayotga joriy etish ham talab ham malakali kadrlarni tayyorlash to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar: Vatan, adolat, millat, ma’rifat, ta’lim, tarbiya, ma’naviyat, mehr, riyozat, ibrat, tuyg‘u, mas’uliyat.

Insonga faqat atrof-voqelik haqida, odobu axloq qoidalari haqida bilim berishning o‘zi uning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi uchun yetarli bo‘lmaydi. Unda iroda qudrati, mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish, ko‘nglida atrof-tabiatga, mehnatga, kasbga, ilmga, o‘zga insonlarga mehr uyg‘otish, dilida ulug‘ maqsadlar tug‘ilishiga erishish lozim. Masalan, tan olib aytish kerakki, Vatan yoki Adolat tuyg‘usi haqida kitoblarda yozilganlarni o‘qib chiqqan odam darhol Vatanning qadriga yetadigan, yoki Adolatga xiyonat qilmaydigan bo‘lib qoladi, deb tasavvur qilish o‘ta soddalik bo‘lur edi. Har bir inson Vatan, Millat, Adolat timsol-tushunchalarining o‘z ruhidagi poydor ma’naviy qadriyatlarga aylanishi uchun o‘zgalar ibratida sinashi, bu yo‘lda riyozat chekishi, ularga nisbatan ko‘nglida mehr uyg‘onishi zarur. Bunga turli yo‘llar, turli vositalar bilan, birinchi navbatda yosh avlod tarbiyasiga samimiy yoki chin ko‘ngildan va izchil yondoshuv, tinimsiz izlanishlar bilan erishiladi.

Malakali kadrlarni tayyorlashda milliy ta’lim tizimini jahon meyorlariga moslashtirish bo‘yicha salmoqli islohotlar amalga oshirildi va bugungi kunda ularning dastlabki samaralari ko‘zga tashlanmoqda. Ammo bu sohada ajdodlarimiz bizga meros qoldirgan beqiyos boylik juda katta imkoniyatlarni o‘z xazinasida asrab kelmoqda-ki, ularni to‘liq ishga solish nafaqat millat tarbiyasiga, balki jahon pedagogika ilmi rivojiga ham o‘z sezilarli ulushimizni qo‘shishga sabab bo‘lishi mumkin.

Yan Amos Komenskiy (1592-1670) “Buyuk didaktika”ni orzu qilganda zamon butkul boshqacha edi. Bu ulug‘ muallim va uning izdoshlari jahon ta’lim-tarbiya tizimida amalga oshirgan inqilob XX asrning birinchi yarmiga kelib, nafaqat Yevropada, balki yer yuzining deyarli barcha mamlakatlarida keng joriy etildi va insoniyat taraqqiyotida katta burilish yasadi. Bu tizim asosan ilm ma’rifati (ilm tarbiyasi) tamoyilini bosh yo‘nalish qilib olgan edi va, darhaqiqat, jahon ilmining yuksak taraqqiyotini ta’minlashga hal qiluvchi hissa qo‘shdi.

Ammo bugungi kunga kelib ilm-fan shunday taraqqiy etdi-ki, endi, birinchidan, “barchaga barcha narsani o‘rgatish” prinsipini astoydil amalga oshirish

mohiyatan mumkin bo‘lmay va kerak bo‘lmay qoldi. Ikkinchidan, yosh avlod tarbiyasida XVII-XVIII asr Yevropa ma’rifatchilari tasavvur ham qilmagan muammolar birinchi darajali ahamiyat kasb eta boshladi. Shunday qilib, XXI asr boshlanishida ta’lim-tarbiya tizimini yana tubdan yangilash ehtiyoji kun tartibiga qo‘yildi.

Avvalo, ta’lim, ya’ni yoshlarga ilm berishning ahamiyatini aslo kamsitmagan holda, ta’kid etish lozimki, bugungi sharoitda asos urg‘uni tarbiya masalasiga qaratmoq payti keldi. Endi “ta’lim-tarbiya” haqida emas, balki tarbiya va ta’lim haqida gapirganimiz ma’qulroq bo‘lib qoldi, ya’ni tarbiya masalasini oldingi o‘ringa o‘tkazish davr taqozosiga aylandi Nafaqat XVII-XVIII asr Yevropa ma’rifatchilari, balki XX asr boshlaridagi o‘zimizning ma’rifatchilarimiz ham agar bolaga xolis bilim berilsa, yosh avlod to‘g‘ri yo‘lni o‘z aqli bilan topib oladi, degan aqidaga qattiq ishonar edilar. Vaholanki, hayot murakkab ekan, bolaga xolis bilim berishning o‘zi bo‘lmas ekan, “xolis bilim” niqobi ostida yosh avlod ongiga turli buzg‘unchi mafkuralar ham ta’sir va tazyiq ko‘rsatishi mumkin ekan. Tarixning oxirgi 70 yillik achchiq saboqlari buni isbot qildi. Qolaversa, Yevropa ma’rifatchilari ko‘zda tutgan xolis bilim faqat aniq va tabiiy fanlarga nisbatan birmuncha to‘g‘ri bo‘lib chiqdi, ularning terminologiyasi bilan ifodalaganda, “ijtimoiy-gumanitar fanlar” tizimida, bizning ajdodlarimiz merosiga tayangan holda bugungi kun qarashlarimizga binoan olsak, “ma’naviyat sohasiga oid fanlar” tizimida bunday xolislik va umumjahoniy me’yorlar hanuz qoniqarli mukammallikka ega emas ekan.

Bugungi kunda milliy tarbiya masalasi borgan sari dolzarblashib bormoqda. Biz endi bu sohada Yevropa ilmi erishgan yutuqlarni nazardan qochirmagan holda o‘z milliy ma’naviy merosimiz an’analariga muvofiq mustaqil tarbiya tizimini ishlab chiqishimiz birinchi darajali vazifaga aylanmog‘i kerak. Buning uchun, birinchidan, yuqorida tilga olingan (bugungi kunda Yevropa pedagogikasining asosini tashkil qiluvchi) “ilm ma’rifati” tamoyiliga qo‘shimcha ravishda qadimdan milliy tarbiyamizga xos bo‘lgan “mehr ma’rifati”, “riyozat ma’rifati”, “ibrat ma’rifati” tamoyillarini ham tarbiya nazariyasiga kiritish va ongli va to‘laqonli ravishda tarbiya amaliyotiga tatbiq etish lozim bo‘ladi. Demakki, ushbu tamoyillarni qachon (qaysi yoshda) va qanday usullar bilan tarbiya jarayonida qo‘llash tartib-qoidalarini puxta ishlab chiqish, ya’ni farzandlarimiz tarbiya jarayonining turli davrlariga (oilada bola dunyoga kelmasidan ilgari bo‘lg‘usi ota-ona, ya’ni kelin-kuyovlarni oila qurish va bola tarbiyasiga tayyorlashdan boshlab, yangi tug‘ilgan bolaga munosabat, bog‘cha tarbiyasi, boshlang‘ich maktab, tayanch maktab, ya’ni 5-9 sinflar, kollej va litseylar, oliy maktab, oliy toifali mutaxassislar tayyorlash, ya’ni magistratura, aspirantura, doktoranturagacha) xos bo‘lgan barcha inson jismidagi anatomik, fiziologik va uning ruhiyatidagi o‘zgarishlarni hisobga oluvchi mukammal tizim yaratish va uni hayotga joriy qilish yo‘llarini aniqlash taqozo etiladi.

Ikkinchidan, yosh avlodda o‘z hayotiga, oila a’zolariga nisbatan, Vatan va millat oldidagi, balki atrof-tabiat, butun kurrayi zamin va jami bashariyat oldidagi mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish bugungi kun pedagogikasining eng muhim masalasi ekanligini barcha qiyinchiliklari bilan ro‘yi-rost ko‘ra bilish va shunga yarasha choralar tizimini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Bu muammoni to‘g‘ri

yechimiga erishish uchun pedagogik ta’lim sohasida nimalarga e’tibor qaratish va qanday o‘zgarishlarni amalga oshirish lozimligini aniqlab, uni hayotga joriy etish ham talab etiladi ham malakali kadrlarni tayyorlashda asqotadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi. - T., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3898 qarori. 2018.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // Oliy ta’limning me’yoriy hujjatlari. - T., 2001.
3. Karimov I.A. Bizdan ozodva obod Vatan qolsin. - T.: "O‘zbekiston", 1996.
4. Karimov I.A. Yoshlarimiz xalkimizning ishonchi va tayanchi. - T.: "Ma’naviyat", 2006.
5. Karimov I.A. Yuksakma’naviyat - yengilmas kuch. - T.: "Ma’naviyat", 2008.

TURKIYA QUROLLI KUCHLARIDA ZAHIRADAGI OFITSERLAR VA UNTER-OFITSERLARNI TAYYORLASH

Shavkatbek Uzoqbaevich Umirzaqov
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi o‘qituvchisi, rezervdagi podpolkovnik

Voxidjon Erkinovich Shaxobidinov
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi o‘qituvchisi, dotsent, rezervdagi podpolkovnik

Annotatsiya. Turkiya Qurolli Kuchlarida zahiradagi ofitserlar va unter-ofitserlarni tayyorlash va uni Qurolli Kuchlarimizga tatbiq qilishning o‘ziga xos jihatlari.

Аннотатция. Особенности подготовки офицеров запаса и унтер-офицеров в Вооружённых силах Турции и их применение в наших Вооружённых Силах.

Annotation. Features of the training of reserve officers and non-commissioned officers in the Turkish Armed Forces and their application in our Armed Forces.

Tayanch so‘zlar: Unter-ofitserlar, maktab, ta’lim, bilim yurti, dengiz floti, o‘qituvchi, ofitser, zaxira, kolledj.

Ключевые слова: унтер-офицер, школа, образование, учебное заведение, Морской флот, преподавател, офицер, запас, училище.

Key words: non-commissioned officer, school, education, educational institution, Navy, teacher, officer, reserve, school.

Hammamizga ma’lumki, Qurolli Kuchlarni ehtimoldagi dushmanning tajovuziga tayyorlanib, jangovar shay holatga keltirish har bir davlat armiyasining urushga tayyorlanishining asosini tashkil qiladi. Bo‘ladigan tajovuzga Qurolli Kuchlarni tayyorlashda shaxsiy tarkib, harbiy texnika va qurol-aslahalarning soni va ularning shayligi muhim o‘rin tutadi. Bu borada o‘sha harbiy texnika, qurol-aslaha va askarlarni harb ilmiga tayyorlashda serjantlar hamda ofitserlarning roli muhimdir.

Turkiya respublikasi Qurolli Kuchlarida serjantlar (unter-ofitserlar) va ofitserlarni tayyorlashning o‘ziga xosligini ko‘rib chiqamiz.

Turkiya respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmatga qabul qilish tizimi va tartibi umumiy muddatli harbiy majburiyat to‘g‘risidagi qonun bilan belgilanadi, unga ko‘ra, 21 yoshdan 45 yoshgacha bo‘lgan tibbiy sog‘lom barcha erkak fuqarolar uchun Qurolli Kuchlar safida xizmat qilish majburiydir.

Ishga qabul qilish jarayoni bevosita Turkiya Qurolli Kuchlari Bosh shtabi (Qurolli Kuchlar Bosh shtabi) xususan, tegishli ko‘rsatmalar va buyruqlar chiqaradigan asosiy operativ va harbiy safarbarlik bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda Bosh shtabning harbiy ta’lim muassasalari bo‘limiga taqdim etiladi, ular tegishli ravishda oliy va o‘rta harbiy

ta’lim muassasalariga muddatli harbiy xizmatga chaqirish va ishga olish rejalarini ishlab chiqadilar. Ular Bosh shtab boshlig‘i va Milliy mudofaa vaziri tomonidan tasdiqlanadi. Shundan so‘ng, rejalar harbiy akademiyalar va maktablar qo‘mondonligiga keltiriladi. O‘z navbatida rahbariyat oliy va o‘rta harbiy ta’lim muassasalariga qabul qilish tartibi, muddatlari, tanlov hamda abiturientlar va talabalar sonini belgilaydi.

Unter-ofitserlar ikki toifaga bo‘linadi: muddatli harbiy xizmat va uzoq muddatli xizmat. Muddatli harbiy xizmatga kichik ofitserlar qo‘shinlar va bo‘linmalardagi ixtisoslashtirilgan kurslarda qisqa muddatli tayyorgarlikdan o‘tgan eng malakali askarlar orasidan qabul qilinadi. Kursni muvaffaqiyatli tamomlaganlarga serjant (chavush) unvoni beriladi, ularning muddatli harbiy xizmat muddati olti oyga uzaytiriladi. Xizmat muddatini tugatgandan so‘ng, unter-ofitserlar zaxiraga o‘tkaziladi yoki ularning iltimosiga binoan uzaytirilgan xizmat uchun qoladi.

Ofitserlar ham bir nechta toifalarga bo‘linadi: kadr ofitserlari, zahiradagi ofitserlar va harbiy amaldorlar (advokatlar, moliya xodimlari va boshqalar). Kadr ofitserlarni tayyorlash litseylar (harbiy gimnaziyalar va progimnaziyalar), Qurolli Kuchlar oliy maktablari, harbiy qismlarning o‘rta maktablari va harbiy akademiyalarni o‘z ichiga olgan harbiy ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, fuqarolik oliy ta’lim muassasalaridagi harbiy fakultetlarda ofitserlar tayyorlanadi.

Harbiy maktablarning bitiruvchilari, shuningdek, fuqarolik oliy o‘quv yurtlarining turli fakultetlarini (Milliy Mudofaa vazirligi mablag‘lari hisobidan) tugatgan shaxslarga leytenant harbiy unvoni, zaxiradagi ofitserlar maktablari bitiruvchilariga esa kichik leytenant unvoni beriladi. Ofitserlarga ketma-ket harbiy unvonlar berish ularning lavozimdagi istiqbollari, qonun hujjatlarida belgilangan armiyada xizmat qilish muddatini hisobga olgan holda attestatsiya komissiyasi tomonidan belgilanadigan o‘rtacha ball (besh ballli tizim bo‘yicha) hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Zaxiradagi ofitserlar kontingenti zaxiradagi ofitserlar maktablarining bitiruvchilari, fuqarolik oliy ta’lim muassasalarini to‘rt yillik o‘qish muddati bilan tugatgan va harbiy bilim yurtlarida qisqa muddatli o‘qishni tamomlagan shaxslar, shuningdek zaxiraga o‘tkazilgan mansab ofitserlari tomonidan tuziladi.

Zaxiradagi ofitserlar muddatli harbiy xizmatni o‘tash davrida harbiy xizmatni o‘taydilar. Trening vaqti faol ish davriga to‘g‘ri keladi. Ular zahiradagi ofitserlar maktabini tamomlagandan so‘ng, ta’lim muassasasiga o‘qishga kirishda yoshi 30 yoshdan oshmasligi sharti bilan mansab zobitlariga o‘tkazilishi mumkin.

Ushbu toifadagi ofitserlar faqat yordamchi qo‘shin turlari va xizmatlarda qo‘llaniladi. Tinchlik davrida zaxiradagi ofitserlar Vazirlar Kengashining maxsus qarori bilan 45 kun muddatga yig‘inlarga, mashg‘ulotlarga va manevrlarga chaqirilishi mumkin.

Turkiyada amaldagi qonunchilik asosida ofitser kadrlar tayyorlash harbiy ta’lim muassasalari, universitetlar va boshqa fuqarolik oliy ta’lim muassasalari

tizimida, shuningdek, zaxiradagi ofitserlar va serjantlar orasidan tanlash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich harbiy ta’lim harbiy litseylarda beriladi, ularning bitiruvchilari harbiy bilim yurtlariga o‘qishga kirishda imtiyozli huquqqa ega bo‘ladilar, o‘rta (asosan nazariy tayyorgarlik) esa harbiy bilim yurtlarida o‘tkaziladi. Universitet va boshqa fuqarolik oliy ta’lim muassasalarida Turkiya Qurolli kuchlari uchun ofitserlar harbiy maktablarda tayyorlanishi mumkin bo‘lmagan mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlanadi.

Qurolli kuchlar maktablarida barcha mutaxassisliklar bo‘yicha ofitser kadrlari tayyorlanadi. Ularga o‘rta harbiy litsey va shunga o‘xshash ta’lim muassasalarini tamomlagan 17 yoshdan 20 yoshgacha bo‘lgan yigitlar qabul qilinadi. Biroq, qoida tariqasida, fuqarolik ta’lim muassasalaridan kursantlarning umumiy sonidan 20 foizdan ko‘p bo‘lmagan qabul qilinadi. Oldin biron bir litseydan haydalgan, uylangan yoki unashtirilgan, nutqi yoki jismoniy nuqsoni bor, chechak bilan kasallangan, muddatli harbiy xizmatni o‘tagan shaxslar qabul qilinmaydi. Qabul paytida abiturientning o‘zi va uning yaqin oilasining siyosiy ishonchliligiga alohida e’tibor beriladi.

Agar fuqarolik oliy o‘quv yurtlarida har bir kursda 200-250 kishi o‘qisa, harbiy maktablarda 15-20 kishidan iborat o‘quv guruhlari tuziladi va 65 kursantga mo‘ljallangan bitta o‘quv xonasi va bitta laboratoriya mavjud (universitetlarda 800-1000 talaba uchun bitta sinf).

Har yili maktabni leytenant harbiy unvoniga ega 450-500 nafar ofitser bitiradi. Ular harbiy qismlar maktablarida bir yillik mutaxassislikdan o‘tadilar, shundan so‘ng ular vzvod komandirlari lavozimlariga tayinlanadi va qo‘shinlarga yuboriladi.

Armiya ofitserlari quyidagi harbiy qismlar va xizmatlar maktablarida ixtisoslashgan.

- Bronetank (Etimesgut) – zirhli tank qo‘shinlari uchun qo‘mondonlik va texnik xodimlar. Uchta bo‘lim mavjud: kadr ofitserlari, zahiradagi ofitserlar va kadr unter-ofitserlar. Kadr ofitserlarining yillik bitiruvi 150 - 160 kishi, zahiradagi ofitserlar - 450 ga yaqin, unter-ofitserlar - 500 ga yaqin. Maktab negizida quyidagi kurslar tashkil etilgan: zirhli tank qo‘shinlari ofitserlarining malakasini oshirish; ofitserlarning malakasini oshirish va ixtisoslashtirish; zahiradagi ofitserlar uchun harbiy ishlarning asoslari; rezervdagi ofitserlarni tank va razvedka vzvodlari komandirlari lavozimlariga tayyorlash; texnik ofitserlarni tayyorlash; unter-ofitserlar uchun harbiy ish asosasoslari;

Piyodalar (Tuzla) – piyoda, motopiyoda, pulemyot, minomyot vzvodlari komandirlari va tepinmaydigan qurollar vzvodi komandirlari. O‘qish muddati 1-2 yil. Bilim yurtida bir qator doimiy faoliyatdagi kurslar: piyoda ofitserlarning malakasini oshirish, fuqaro oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari uchun harbiy ish asoslari, piyoda unter-ofitserlar malakasini oshirish, TQBR bo‘linma komandirlari va mo‘ljalga oluvchilari (unter-ofitserlari uchun) mavjud. Yiliga 1000 yaqin bitiruvchilar bitiradi.

Zahiradagi ofitserlar uchun piyodalar bilim yurti (Anqara) asosan muddatli harbiy xizmatni o‘tamagan fuqaro oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari bilan jamlanadi. O‘qish muddati olti oy, yillik bitiruvchilar soni taxminan 2000 kishi.

Raketa-artilleriya bilim yurti (Po‘latli) – quruqlikdagi qo‘shinlarning barcha artilleriya qism va bo‘linmalari uchun kadr ofitserlari, zahiradagi ofitserlar va unter-ofitserlar. Har yili 200 ga yaqin kadr, 250 ga yaqin zahiradagi ofitserlar va 300 ga yaqin unter-ofitserlar bitirishadi.

Xizmatdan tashqari unter-ofitserlar tarkibi – qism va bo‘linmalarda ofitserlarning asosiy tayanchi. Unter-ofitserlarlar tarkibiga nomzodlar harbiy xizmatni o‘tayotgan askar va matroslarning savodli (o‘rta ma’lumotga ega) ko‘ngillilaridan hamda 14-16 yoshli o‘smirlar qabul qilinadigan unter-ofitserlarga tayyorlaydigan maktablarning sakkizinchi sinf ma’lumotiga ega bitiruvchilaridan tanlab olinadi. Maktablarda o‘qish – 3 yil. Keyin bitiruvchilar qo‘shinlar va xizmatlar turining harbiy bilim yurtidagi unter-ofitserlar maktablariga yuboriladi. Unda o‘qish 2-3 yilni tashkil qiladi. Unter-ofitserlar maktablarini bitirganlar uchun xizmatning minimal muddati 15 yilni tashkil qiladi. Ushbu muddat tugaganidan keyin ular zahiraga chiqishlari yoki armiyada xizmatda qolishlari mumkin.

Zahiraga chiqarilgan unter-ofitserlarda harbiy unvon saqlanib qolinadi. Zahira yoshi – 55 yosh.

Ofitserlar tarkibi kadr ofitserlarga, zahiradagi ofitserlarga va erkin yollanib armiyada xizmat qilayotgan harbiy amaldorlarga (yuristlar, hisob-kitob ishidagilar va boshqalar) kiradi. Harbiy amaldorlar sakkiz razryadga bo‘linadi. Harbiy bilim yurti va turli oliy ta’lim muassasalari fakultetlarini bitirganlarga (milliy mudofaa vazirligi vositalari hisobidan) leytenant harbiy unvoni, zahiradagi ofitserlar maktabi bitiruvchilariga – kichik leytenant beriladi.

Zahiradagi ofitserlar kontingenti zahiradagi ofitserlar maktabini bitirganlar, to‘rt yillik ta’limga ega bo‘lgan fuqarolik oliy ta’lim muassasalarini bitirganlar va harbiy bilim yurtlarini qisqa muddatda o‘qib bitirganlar hamda zahiraga bo‘shatilgan zahiradagi ofitserlardan tashkil topadi.

Xulosa

Turkiya Qurolli Kuchlarida zahiradagi ofitser va serjantlarni tayyorlash tizimi ancha rivojlangan bo‘lib, tayyorlanayotgan mutaxassislarning tayyorgarligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Negaki, mana shunday tabaqalashtirib tayyorlash Qurolli Kuchlar zahirasini (ofitser va serjant kadrlar) son va sifat borasida yanada mukammallashtiradi. Ularda nafaqat zahiradagi ofitserlar, balki zahiradagi serjantlar tarkibi ham tayyorlanadi. Bunda har bir qo‘shin turi va xizmatida o‘zlarining bilim yurti va ularning tarkibidagi zahiradagi ofitser va serjantlarni tayyorlash maktablarining mavjudligi diqqatga sazovordir. Buning bilan bir necha muammolar barham topadi:

1. Fuqarolik oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari tarkibidan tayyorlangan zahiradagi ofitserlardan tashqari bilim yurti bazasidagi zahiradagi ofitserlar va

serjantlar tayyorlash maktablarning mavjudligi bo‘lib, bu bilan zahiradagi ofitser va serjantlarni tayyorlashning soni va sifati oshadi.

2. O‘qitishda zarur bo‘lgan o‘quv binolari va o‘quv-moddiy baza harbiy bilim yurtining bazasida amalga oshiriladi. Bu bilan bir qancha mablag‘ va moddiy boyliklar iqtisod qilinadi.

3. Tayyorlanayotgan zahiradagi ofitserlar va serjantlar kadr ofitserlarning tayyorlanishiga qarab harbiy xizmatning qiyinchiliklari va mashaqqatlarini engib o‘tishga intilishi, shuningdek, boshqa bir qator afzalliklarga egaligidir.

QUROLLI KUCHLAR UCHUN REZERV VA ZAXIRADAGI KADRLARNI TAYYORLASHDA XORIJIY DAVLATLARNING TAJRIBASI

Ismatov Мамасобир Маһаммадиевич
O‘zbekiston Milliy universiteti erkin izlanuvchisi

Har bir davlat o‘z mudofaasini tashkil etish va armiya faoliyatining huquqiy mezonlarini ishlab chiqilishiga alohida ahamiyat qaratadi. Zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan jihozlangan qurolli kuchlardan foydalanish xodimlarning yuqori darajadagi kasbiy bilimlarini talab qiladi. Shu maqsadda xozirgi kunda xorijiy mamlakatlarda Qurolli kuchlar uchun rezerv va zaxiradagi kadrlar tayyorlashni ta’minlaydigan eng yangi o‘quv-moddiy baza yaratilgan. Bugungi kunda zamonaviy harbiy ta’lim muammosi harbiy-siyosiy vaziyatning o‘zgarishi, yuzaga keladigan harbiy tahdidlar, urush mazmuni va qurolli kurash bilan tavsiflanib; ta’limni internatsionallashtirish va mamlakat ta’lim tizimining harbiy ta’lim tizimiga ta’siri; harbiy xizmatchilarni tayyorlashning professionalligi va sifatiga qo‘yiladigan talablar va harbiy ta’lim tizimini samarali boshqarish zarurati ortib bormoqda va bu shu bilan xarakterlanadi.

Xorijiy mamlakatlarda harbiy ta’limni har tomonlama ilmiy o‘rganish, shuningdek, rezerv va zaxiradagi ofitser kadrlarni tayyorlash va o‘qitish masalalariga bo‘lgan yondashuvlari harbiy ta’limning davlat kontseptsiyasini shakllantirish uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Harbiy ta’lim tizimi davlat ta’limi va xavfsizligining ajralmas qismidir. Shuning uchun Qurolli kuchlarni harbiy kadrlar bilan ta’minlash davlat darajasi talablariga javob berishi kerak.

Masalan:

Rossiya federatsiyasi

Harbiy tayyorgarlik tizimi (HTT)ning shakllanish bosqichi (17-18-asrlar boshidan va 1914-1917 yillargacha) ofitserlar va umumiy qo‘mondonlik profillarini tayyorlash uchun Rossiya universitetlarining o‘sib borayotgan tizimidan tobora faol foydalanish va texnik profillar bilan tavsiflanadi.

Birinchi harbiy kafedralar Rossiyada (1939 yilgacha harbiy idoralar) 1926 yilda Moskva davlat universiteti, Moskva oliy texnika maktabi kabi mamlakatning etakchi universitetlari negizida tashkil etilgan. 20-30-yillarda yaratilgan harbiy kafedralarning nafaqat piyoda (qo‘mondonlik) profilidagi, balki kimyoviy, tibbiy va texnik, shu jumladan artilleriya va tank bo‘yicha ham zaxira ofitserlarini tayyorlash tajribasi katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

1937 yilda qo‘mondonlik tarkibining harbiy kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarning oshishi va harbiy maktablar sonining ko‘payishi munosabati bilan universitetlar va texnikumlarda oliy noharbiy tayyorgarlikdan talabalarning boshlang‘ich harbiy tayyorgarligiga o‘tish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Biroq, ikkinchi jaxon urushning boshlanishi va borishi yangi tuzilmalarni ommaviy joylashtirishni va ko‘p sonli qo‘mondonlik tarkibini to‘ldirishni talab qildi. Shunday qilib, 1941 yil 22 iyundan iyul oyining oxirigacha 650 mingdan ortiq zahiradagi va zapasdagi ofitserlar faol armiya safiga chaqirildi, ularning muhim

qismi urushdan oldingi davrda fuqarolik oliy o‘quv yurtlarining harbiy kafedralarida tayyorlandi.

1987 yilga kelib, HTT tarkibiga 497 ta harbiy kafedralar va fuqarolik oliy o‘quv yurtlarining harbiy tayyorgarlik bo‘limlari kiritilgan bo‘lib, ular barcha qo‘mondonlik, muhandislik va ma’muriy profillar bo‘yicha zahiradagi ofitserlarni, shu jumladan oliy harbiy ta’lim muassasalarida tayyorlanmaydigan bir qator mutaxassisliklarni tayyorladilar. Sobiq Sovet ittifoqi davrida rezerv va zaxiradagi kadrlarni tayyorlash institut va universitetlar soni 440 tadan oshiq bo‘lgan, xozirgi kunda Rossiya Federatsiyasida mahalliy fuqarolik institut va universitetlarining 120-dan oshig‘i Rossiya Qurolli Kuchlarining barcha turlariga rezerv va zaxiradagi kadrlar tarkibi uchun zarur bo‘lgan har yili 100 mingga yaqin ofitser kadrlarni tayyorlab kelmoqda. Ushbu rezerv va zaxiradagi kadrlarni tayyorlash institut va universitetlarida o‘qish davriyligi 2-yil. 2019 yil 1 yanvarda 309-FZ-ning 08/03/2018 yildagi "Harbiy burch va harbiy xizmat to‘g‘risida" gi Federal Qonuniga kiritilgan o‘zgartishlar kuchga kirgach, harbiy kafedralar, harbiy tayyorgarlik fakultetlari va harbiy o‘quv markazlari o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Ularning o‘rnini harbiy o‘quv markazlari egalladi (HO‘M).

Buyuk britaniya (Birlashgan Qirollik)

Britaniya fuqarolik ta’lim muassasalarida harbiy tayyorgarlik tizimining paydo bo‘lishi Angliya, keyinroq Britaniya imperiyasining ko‘plab urushlar olib borgan tajribasi va shunga mos ravishda armiya va flotning harbiy xizmatchilarga, shu jumladan qo‘mondonlik tarkibiga bo‘lgan ehtiyoji bilan bog‘liq.

Mahalliy va jahon urushlarida qatnashgan Buyuk Britaniya metropol sifatida o‘zining tarixiy hukmronliklari (Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya), shuningdek, mustamlaka va qaram hududlardan harbiy kontingentlarni faol ravishda jalb qildi. Xozirgi kunda xam xorijiy harbiy kontingentlar hamon Britaniya qurolli kuchlarida harbiy xizmatga jalb etiladi.

Britaniya HTT mamlakatning kadrlar salohiyatini takror ishlab chiqarishning butun tizimining ajralmas qismi bo‘lib, harbiy xizmatchilarni ko‘paytirishga nisbatan uning miqdoriy ko‘rsatkichlarini oshirish imkoniyatiga ega. Bunga xususan ko‘p sonli qo‘mondonlik xodimlari va mutaxassislarni (shu jumladan ilmiy-pedagogik kadrlar, o‘qituvchilar) ko‘p bosqichli tayyorlash orqali erishiladi. Tinchlik davrida umumiy soni 300-350 ming bo‘lgan zamonaviy professional Britaniya armiyasida muntazam harbiy xizmatchilar, ofitserlar umumiy xodimlar sonining 1/8 qismini tashkil qiladi. Bunday katta miqdordagi (foiz hisobida) ofitserlarni tayyorlash nafaqat qurolli kuchlarning oliy ma’lumotli mutaxassislarga bo‘lgan hozirgi ehtiyojlari, balki ommaviy armiyani tezkor joylashtirish va tayyorlashga bo‘lgan ehtiyojning ortishi bilan ham bog‘liq. Shu munosabat bilan tegishli kadrlarni (xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bilan shug‘ullanadigan ofitserlar, ofitser o‘qituvchilar va turli xizmatlarning mutaxassislari) ko‘paytirish, shuningdek tarkibiy tayyorgarlik organlari, ularning o‘quv moddiy-texnik bazasi elementlarini to‘liq saqlash va rivojlantirish muhim tarkibiy qismlar sifatida ta’kidlangan.

Amerika Qo‘shma Shtatlari

AQSh universitetlarida birinchi harbiy o‘quv kurslarini yaratishning tarixiy tajribasi XIX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. 1820 yilda harbiy tayyorgarlik kursi birinchi marta Norvich universitetida (hozirgi harbiy muammolar bo‘yicha ofitserlar va fuqarolik mutaxassislarini tayyorlaydigan Norvich harbiy universiteti) joriy etildi. Zaxiradagi ofitserlar uchun birinchi universitet harbiy o‘quv kurslarining asoschisi G‘arbiy Point harbiy maktabining bitiruvchisi Alden Partrij edi. 1839 va 1842 yillarda Virjiniya va Janubiy Karolina universitetlarida harbiy tayyorgarlik joriy etildi. Ushbu universitetlar Norvich singari, keyinchalik fuqarolik ta’lim muassasalarida harbiy tayyorgarlik tizimining tarkibiy qismiga aylangan harbiy ta’lim muassasalariga aylandi. 1973 yilda AQSh Qurolli kuchlari to‘liq professional bo‘ldi. Bu qo‘mondonlar va mutaxassislarni harbiy tayyorlash sohasidagi nazariy qarashlar va amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishda yangi bosqichning boshlanishi bo‘ldi. Harbiy ta’lim muassasalarida va fuqarolik universitetlarida ofitserlar tayyorlash mazmunini tanlash muammosi paydo bo‘ldi. "Ixtiyoriy yollash" tamoyili sharoitida ofitserlarni tayyorlashning nazariy va amaliy masalalarini o‘rganish AQSh Mudofaa vazirining o‘rinbosari Klemens boshchiligidagi komissiya tomonidan amalga oshirildi. Xususan, amerikalik mutaxassislar Britaniyaning professional armiya tayyorlash tizimini yaratish va rivojlantirish tajribasini faol o‘rganishdi, shu jumladan Qurolli kuchlarni yangi asosda jalb qilish muammolariga echim izlash natijasida qo‘mondonlik kadrlarini noharbiy tayyorlash tizimiga yanada ahamiyat berila boshlandi. 80-yillarning o‘rtalariga kelib, quruqlikdagi kuchlar uchun zarur bo‘lgan ofitserlarning umumiy sonidan yiliga taxminan 8,5 ming kishini tashkil etadigan G‘arbiy Point harbiy maktabi 700 ga yaqin, ofitser nomzod maktablari esa 700 ga yaqin talabgorlarni o‘qitib, harbiy kafedralar fuqarolik universitetlarida 7 mingdan ortiq ofitser tayyorlandi. Talabalarning harbiy tayyorgarligida ham sezilarli o‘zgarishlarga yuz berdi. 80-yillarning o‘rtalariga kelib, fuqarolik universitetlarida harbiy bo‘lmagan o‘quv kurslari bitiruvchilari ofitserlar umumiy sonining 40 foizdan ortig‘ini va oddiy quruqlikdagi kuchlar generallarining taxminan 25 foizini tashkil etdi. Hozirgi kunda harbiy tayyorgarlik kurslari (faqat quruqlikdagi kuchlar mutaxassisliklari bo‘yicha) jami 350 ta universitetda, shu jumladan 280 ta universitetda (ulardan ikkitasi harbiy universitetlar va 51 ta sirtqi kurslar), 65 ta institut va oliy kollejlar, 4 ta harbiy institutlar (ulardan tashqarida ikkita oliy va ikkita o‘rta maxsus), shuningdek uchta o‘rta va bitta oliy maxsus harbiy kollejlarda kadrlar tayyorlanib kelmoqda. Ro‘yxatga olingan barcha ta’lim muassasalari AQSh armiyasi rezervi (armiya Rotc qo‘mondonligi) ofitserlarining noharbiy tayyorgarligi qo‘mondonligi (xizmati) yurisdiksiyasida. NATO shuningdek, umuman zaxiralarni va xususan ofitserlarning zaxiralarini shakllantirishga umumiy yondashuvni ishlab chiqdi. Qurolli kuchlarning kadrlar salohiyati sifatida ofitserlar zaxirasi va nafaqat aniq ish funksiyalarini, balki urush paytida safarbar qilingan zaxiralarni tayyorlash funksiyalarini ham bajarishga qodir. Shu sababli, NATO mamlakatlarida muntazam qurolli kuchlar sonining zamonaviy qisqarishi bilan ularning zaxirasi bir vaqtning

o‘zida, birinchi navbatda, ofitserlarning potensial zaxirasi ortib bormoqda. Shu bilan birga, zaxiradagi askarlar soni muntazam harbiy xizmatchilar bilan taqqoslaganda barcha zaxirachilarning tayyorgarligi etarli darajada yuqori emasligini hisobga olgan holda 1 dan 3 gacha yoki undan ko‘p nisbatda ko‘payishi ko‘zda tutilgan. Tinchlik davrida umumiy soni 300-350 ming doimiy harbiy xizmatchi bo‘lgan zamonaviy. Shu munosabat bilan tegishli kadrlarni (xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bilan shug‘ullanadigan ofitserlar, ofitser o‘qituvchilar va turli xizmatlarning mutaxassislarini) ko‘paytirish, shuningdek tarkibiy tayyorgarlik organlari, ularning o‘quv moddiy-texnik bazasi elementlarini to‘liq saqlash va rivojlantirish muhim tarkibiy qismlar xisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda Bugungi kunda zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan jihozlangan Qurolli kuchlardan foydalanish xodimlarning yuqori darajadagi kasbiy bilimlarini talab qiladi. Shu maqsadda xorijiy mamlakatlarda qurolli kuchlar uchun kadrlar tayyorlashni ta’minlaydigan eng yangi o‘quv-moddiy baza yaratilgan. Zamonaviy harbiy ta’lim muammosi harbiy-siyosiy vaziyatning o‘zgarishi, yuzaga keladigan harbiy tahdidlar, urush mazmuni va qurolli kurash bilan tavsiflanadi; ta’limni internatsionallashtirish va mamlakat ta’lim tizimining harbiy ta’lim tizimiga ta’siri; harbiy xizmatchilarni tayyorlashning professionalligi va sifatiga qo‘yiladigan talablar va harbiy ta’lim tizimini samarali boshqarish zarurati ortib bormoqda. XXI-asrning birinchi yarmida boshlangan Rossiya – Ukraina o‘rtasidagi Qurolli ziddiyatlar, yaqin sharqdagi Isroil-Falastin o‘rtasidagi qurolli mojoralar yuqori sifatli rezerv va zaxiradagi kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi.

ZAXIRADAGI OFISERLARNI TAYYORLASH TARIXI VA HOZIRGI ZAMON TALABLARI ASOSIDA YARATILGAN YANGI TIZIM RIVOJLANISHI

Sharipov A’zamjon Axmadjanovich
Mirzo Ulug`bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o’quv markazi umumqo’shin tayyorgarlik sikli katta o’qituvchisi
Asadullaev Laziz Maxamadievich
Mirzo Ulug`bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o’quv markazi umumqo’shin tayyorgarlik sikli katta o’qituvchisi

O’zbekistonda zaxiradagi ofiserlarning harbiy tayyorgarligi tarixini o’rganish har qanday davlat tarixi kabi insonlarni ma`naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalaydi, xalq ommasining ko’pchiligi manfaatlarini ruyobga chiqarishga qaratilgan insonparvar siyosat ko’nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Bu yo’nalishda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo’mondoni Shavkat Mirziyoev aytib o’tganlar *“...Harbiy kadrlar, birinchi navbatda, chuqur bilimga ega bo’lgan va zamonaviy fikrlaydigan, yuksak professional malakali, intellektual etuk ofitserlarni tarbiyalash tizimini tubdan yaxshilash Qurolli Kuchlar qo’mondonligi faoliyatining eng muhim yo’nalishlaridan biri bo’lishi darkor...”*.

Mamlakatimizning tarixiy geografik joylashish sharoitlari uni o’z davlati va milliy mustaqilligi uchun muttasil kurash olib borishga majbur qildi. Bu harbiy xizmatga alohida munosabatning shakllanishiga ta`sir qilishi aniq edi. Xalq eposi, qo’shiqlari, ertaklarida o’z kuchini, hayotini ayamagan, o’z Vatanini himoya qilganlarning qahramonligi, mardligi va jasorati tarannum etilgan. Bu o’zbek askarlarida quyidagi fazilatlarni tarbiyalagan: hujumda qat`iyatlilik, mudofaadagi matonat, mardlik, o’zaro yordam berish va jangning og`ir damlarida hattoki o’z jonini fido qilishdir.

O’tmishda mamlakat aholisini Vatan mudofaasiga tayyorlash tarixida davlatning mudofaa qobiliyatini mustaxkamlash uchun juda ko’p ibratli ishlar olib borilgan. O’sha paytlarda erishilgan yutuklar va hozirda e`tiborga loyiq natijalar buni tasdiqlab turibdi. Oliy ta`lim maskanlarida zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash, ya`ni harbiy tayyorgarlik markazi va chaqiruvgacha harbiy ta`lim fakultetlar tashkiliy poydevori o’z tiklanish tarixi va evolyuttsiyasiga ega.

Agar tarixga nazar solsak shuni aytish mumkinki bizning buyuk bobokolonlarimiz Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur va shu kabi sarkardalarimiz o’z davrida so’zsiz kuchli va o’ta mukammal armiyalarga ega bo’lganligi bizga sir emas. O’tmishda harbiy san`at nazariyasi va amaliyoti o’zoq va to’xtovsiz janglar olib borish taktikasidan ancha yiroq edi, shu bilan birga odam zaxiralarini to’plash ehtiyoji ham zarur bo’lmagan. Dushman ustidan g`alaba qozonish faqatgina uning qurolli kuchlarini bitta jangda tor - mor ettirishdan iborat bo’lgani tufayli, bu masala dolzarb bo’lmagan.

O’rta asr davrlarida buyuk sarkardalarning harbiy yurishlarini yutuqlari nafaqat ularning donoligidan, balki o’z qo’shinlariga harbiy rahbarlarni saralash va tayyorlash tizimini to’g`ri yo’lga qo’yganligidan dalolat beradi. Misol uchun Amir

Temur qo’shinlarida katta lashkarlar soni ustidan rahbarlik qilish tartibi odatda avloddan avlodga o’tgan, va shu qatorda uning qo’shinlar tarkibidagi kichik elatlar va qabilalar sarkardalari ham shunday yo’l tutishgan.

Amir Temurning qo’shinlarida sarkardalarni tayyorlash amaliyoti shartli uchta guruhga bo’lingan:

birinchisi –"tug`ma sarkardalar" bu guruhga faqat Amir Temurning farzandlari va nevaralari kirgan;

ikkinchisi –"lavozimi bo’yicha sarkardalar", o’z otalaridan meros sifatida qolgan Temur sarkardalarining farzandlari;

uchinchisi –"sarkardalikka moil", Amir Temur nazariga tushgan buyuk boshqaruvchanlik qobilyatiga ega insonlar.

17 - 18 asrlar davomida rus imperatori Pyotr I ning islohotlari tufayli oliy va maxsus ta`lim tizimi barpo etishga yo’l ochildi. 18 - 19 asrlarida esa bu oliy bilim yurtlarda ilk marotaba fuqaro mutaxassis bilan birga harbiy mutaxassislar ham tayyorlash yo’lga qo’yildi. Oliy bilim yurt bitiruvchilarini fuqarolik va harbiy xizmatda qo’llashga imkon yaratildi.

18-asrdan 20-asrning boshlarigacha armiya uchun zaxira va rezervdagi ofiserlar korpusini shakillantirish turli usullarda bo’lgan. Barcha universitetlarni ilg`or bitiruvchilariga ofitser unvonlari berilib, harbiy qismlarga oldindan biriktirilish amaliyoti yulga qo’yilgan.

19-asrning oxiri va 20-asrning boshlarida qo’shinlarni texnikaviy tez rivojlanishi va jihozlanishi sababli harbiy san`atni urush olib borish taktikasining nazariyasi va amaliyotidagi o’zgarishlar paydo bo’ldi. Aynan urushlar uzoq davom olib borish xarakteriga ega bo’lib va jangda qatnashuvchilarning soni ko’paygan sari, jangovar va sanitar qurbonlarining o’rnini o’z vaqtida to’ldirish dolzarb masalaga aylandi.

Masalan 1909 yilda rus armiyasidagi ofiserlar soni 42 735 odam bo’lgan bo’lsa, birinchi jahon urushi boshlanishi arafasida, ya`ni 1914 yilda ularniing soni 51 417 odamgacha etkazilgan. Urush boshlanishi bilan ofiserlarning soni 98 000 gacha oshirilgan. Urushning birinchi oylaridan boshlab to uning yakunigacha, ya`ni 1914 – 1917 yillargacha ofiserlar orasidagi qurbonlar soni 71 298 taga etgan. Bu raqamlar hattoki urushdan oldingi ko’rsatkichlardan ikki barobar yuqori ekanligidan bizga dalolat beryapti. Birinchi jahon urushi davomida rus armiyasida 75 % etishmovchi ofiserlarni o’rni aynan zaxiradan butlangan. Shu vaqtdan boshlab muvaffaqiyatli va to’htovsiz jangovor harakatlar olib borish maqsadida ofiserlar zaxirasini tayerlash masalasi oldinga surildi.

Birinchi jaxon urushi tajribasiga tayangan holda 1926-yil 20 avgustida SSSR Halq komissarlari kengashining Markaziy tanlov komissiyasi qarori bilan oliy ta`lim tizimida talabalarni harbiy tayyorgarlik bo’yicha tayyorlash tashkillashtirildi. Lekin ilk marotaba Respublikada Xalq Maorif Komissarining 1921 yil 22 fevraldagi 429 sonli buyrug`ida qayd qilingan ko’rsatmasi «TurkDU tarkibida beshta bo’limdan iborat harbiy fakultet ochilishi to’g`risida» ga asosan, harbiy fakultet o’z faoliyatini boshlagan.

O’zbekistonda talabalarni harbiy tayyorgarligi tizimining rivojlanishining boshlanishi deb, aynan 1921-1926 yillar Turkiston oliy o’quv bilim yurtlarida zaxiradagi ofiserlarni tayyorlash tarixidan boshlab, harbiy kabinetlar, harbiy kafedralar va hozirgi harbiy tayyorgarlik o’quv markazining namunaviy namunalaridan yaratila boshlangan deb hisoblanadi. Harbiy kabinetlarga qisqa vaqt ichida barcha qo’shin turlari uchun boshliqlarni tayyorlab berish vazifasi yuklatildi. Bu davrda talabalar harbiy tayyorgarlikni faqat nazariy qismini 180 soat ichida o’rganib chiqish lozim edi.

13-avgust 1930-yil “Majburiy harbiy xizmati to’g`risidagi qonun” qabul qilingandan so’ng, oliy ta`lim tizimida talabalarning oliy noharbiy tayyorgarligi joriy etildi, bu Qurolli Kuchlardagi muddatli harbiy xizmatga tenglashtirildi. Kiyinchalik harbiy kabinetlar harbiy kafedralarga aylantirildi va o’rta bo’g`in komandirlar toifasidagi harbiy mutaxassislarni 430-580 soatli dastur orqali tayyorlash boshlandi. Jismonan sog`lom va sinovlardan muvaffaqiyatli o’tgan oliy o’quv yurtlarining bitiruvchilari piyoda, tibbiy, kimyo va texnik profilidagi mutaxassisliklar zaxiradagi ofitserlar tarkibiga qabul qilindi.

30-yillarning oxirida bir yil davomida muddatli harbiy xizmatga tayyorlash va dastlabki harbiy tayyorgarlikdan o’tkazish maqsadida oliy noharbiy tayyorgarlik, boshlang`ich harbiy tayyorgarlik bilan almashtirildi va harbiy kafedralar harbiy jismoniy tayyorgarlik kafedralariga aylantirildi. Shu orada yangi o’quv dasturlari qabul qilinib ularga jangchini yakka tartibda tayyorlash tizimi kiritildi.

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi yangi qo’shilma va birlashmalarning ommaviy joylashtirishni va komandirlar tarkibini ko’p sonini almashtirishni talab qildi. O’n minglab talabalar, o’qituvchilar, tadqiqotchilar faol armiya safiga safarbar qilindi, mamlakatdagi zavod va qurilish maydonlarida ishlashga jalb qilindi. O’zbekiston front uchun kadrlar manbai, front arsenali, evakuatsiya qilinganlar uchun pana joy, qatag`onga uchraganlar uchun omon qolish maskaniga aylandi.

1942-1944 o’quv yillari mamlakatimizdagi barcha oliy o’quv yurtlari qisqartirilgan o’quv dasturlariga o’tqazildi va o’rta bo’g`in komandirlar toifasidagi harbiy mutaxassislarni tayyorlash soni oshirildi. Aynan ikkinchi jahon urushi boshida 20-30 yillarda yaratilgan zaxiradagi ofiserlar korpusi faol armiyadagi etishmaydigan vakantsiyalarni ko’p jihatdan harbiy qismlarning ommaviy joylashtirilishi ta`minlandi va komandirlik tarkibi bilan butlandi.

60-70 yillarda AQSH va SSSR orasida munosabatlar o’ta keskinlashgani sababli uchunchi jahon (yani yadroviy) urishi boshlanishi havfi paydo bo’ldi. Sovet xukumati tomonidan katta e`tibor berilib harbiy kafedralarni ofiser kadrlarini zaxirasining tayyorlash bo’yicha haqiqiy ustaxonasiga aylantirildi. Bu davrda talabalarni harbiy tayyorgarligi keng ko’lamli, muvofiqlashtirilgan va yaxshi tashkil etilgan harbiy tayyorgarlik tizimi shakllantirilib, ko’p tarmoqli harbiy mutaxassisliklari bo’yicha zaxiradagi ofiserlarni tayyorlashga qirishildi. Zaxiradagi ofiserlar orasidan oliy o’quv yurtlarining ko’plab bitiruvchilari 2-3 yil davomida ofiserlik lavozimlarida xizmat qilish uchun armiya va flot qatoriga chaqirila boshlandi va ularning bir qismi ixtiyoriy ravishda harbiy xizmatni o’z hayotiy

kasbiga aylantirdi. Bu orada talabalar uchun hizmatni muddatdan kechiktirish imkoni ham berildi.

O’zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan oliy o’quv yurtlarining tarixiy ma`lumotnomalari, arxiv materiallarini o’rganilishi zaxiradagi ofiserlarni tayyorlash, turli yillarda amalga oshirilgan:

O’zbekiston milliy universitetida -1921 - 2020 yilgacha;
Toshkent to’qimachilik va engil sanoat instituti -1936-2019 yilgacha;
Toshkent Davlat agrar universiteti - 1942-2020 yilgacha;
Samarqand Davlat tibbiyot instituti –1944-2020 yilgacha;
Andijon Davlat tibbiyot instituti -1955-2021 yilgacha;
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti –1955-2020 yilgacha;
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti -1961-2020 yilgacha;
Samarqand Davlat universiteti -1967-2020 yilgacha;
Toshkent Davlat texnika universiteti -1967-2020 yilgacha;
Toshkent Davlat transport universiteti -1975 -2020 yilgacha;
Buxoro Davlat universiteti -1978– hozirgi vaqtgacha
Farg`ona Davlat universiteti -1982– hozirgi vaqtgacha;
Toshkent Davlat pedagogika universiteti -1991– hozirgi vaqtgacha.

80-yillarda va ayniqsa, ularning ikkinchi yarmida zaxiradagi ofiserlarni tayyorlash tizimi, oliy o’quv yurtlarining harbiy kafedralari faoliyati bir qator ob`ektiv va sub`ektiv sabablarga ko’ra inqiroz davriga uchradi, bu esa ularni tubdan qayta ko’rib chiqishga talab qildi. Vaqt o’tishi bilan sovet ittifoqi parchalanib, O’zbekiston davlat mustaqilligiga ega bo’lgan davrga to’g`ri keldi.

O’zbekistonda suverenitet e`lon qilingandan so’ng sodir bo’lgan tubdan o’zgarishlar davlat faoliyatining barcha sohalariga, uning siyosiy va ijtimoiy institutlariga jiddiy ta`sir ko’rsatdi, shu qatorida milliy harbiy maktab ham isloh qilindi. Harbiy kadrlar tayyorlash tizimi nafaqat himoya qilindi, balki yangi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda ham rivojlantirildi. Bunga oldingi to’plangan tarixiy tajriba yordam berdi.

90-yillarning boshida eski zaxiradagi sovet ofiserlarni tayyorlash tizimini isloh qilish va o’zgartirish davrini va oliy o’quv yurtlarining harbiy fakultetlari va kafedralari uchun uning tashkiliy poydevorini yaratish jarayoni boshlandi. Aynan 90-yillarni boshlarida Qurolli Kuchlar qatoridan parchalangan sobiq sovet armiyasining ofiserlari o’z yurtlariga ommaviy ketish natijasida katta kadr etishmovchiligi mavjud bo’ldi. O’zbekiston hudidida joylashgan oliy harbiy bilim yurtlar, bu etishmovchilikni qisqa davr ichida ta`minlab bera olmaydigan jarayonda, zaxiradagi ofiserlar ya`ni harbiy kafedralarni tamomlagan fuqarolar o’z harbiy mutaxasislikligi bo’yicha shu kamchilikni to’lik ravishda to’ldirdi va milliy armiyamizning poydevorini tiklashda o’z hissasini qo’shdi.

Mustaqillik yillarida davlat oliy o’quv yurtlarida zaxiradagi ofiserlarni tayyorlashni tashkil etishga bo’lgan yondashuvlari bir necha bor o’zgardi. Talabalar bilan o’tkaziladigan o’quv jarayoni mazmuniga, oliy o’quv yurtlarida zaxiradagi ofiserlar tayyorlanadigan harbiy mutaxassisliklar ro’yxatiga o’zgartirishlar kiritildi,

oliy o’quv yurtlarining harbiy kafedralari shtati qisartirildi va qayta tiklandi, yangilari tashkil etildi. Harbiy fakultet va kafedralar faoliyatini tashkiliy, kadrlar, o’quv, moddiy-texnik, uslubiy ta`minlash mazmuni va xarakteri o’zgardi. Shunga qaramay, o’zgarishlar va islohotlarning bunday murakkab sharoitda ham oliy o’quv yurtlarida talabalarning harbiy tayyorgarligi, asosan, o’tgan davrda yaratilgan salohiyat tufayli, o’z samaradorligini saqlab qoldi. Bu mamlakatimiz Qurolli Kuchlari va boshqa qo’shnni muhofaza qiluvchi idoralar uchun zaxiradagi ofiserlarning safarbarlik rezervini tayyorlashni, shuningdek armiya va boshqa harbiy tuzilmalarning kichik ofiserlari lavozimlarini zaruriy ravishda to’ldirishni ta`minladi.

2017 - yildan boshlab yurtimizda olib borilgan islohatlar natijasida turli ijobiy o’zgarishlar amalga oshirildi va oliy ta`lim tizimidagi zaxirada ofiserlarni tayyorlash masalasida bu:

O’zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2018-yil 7-martdagi 21/1/671-sonli direktivasiga asosan oliy ta`lim muassasalari negizida mavjud bo’lgan barcha harbiy kafedralar shtati o’zgartirildi, buning natijasida kafedra ofiserlik lavozimlarining muhim qismi qisqartirildi, ularning lavozimlari Qurolli Kuchlar xizmatchilarining lavozimlari bilan almashtirildi;

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24 oktyabrdagi PQ-4496m-sonli «O’zbekiston Respublikasi Oliy ta`lim muassasalarida zaxiradagi va rezervdagi ofiserlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to’g`risida» qarori talablari ijrosini ta`minlash maqsadida, O’zbekiston Milliy universiteti harbiy kafedrasi bazasida Harbiy tayyorgarlik o’quv markazi tashkil etildi;

O’zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2020 yil 28 iyuldagi № 21/1/1188–sonli direktivasi, shuningdek O’zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2020 yil 29 iyuldagi 501–sonli “O’zbekiston Respublikasi oliy ta`lim muassasalarining harbiy kafedralari faoliyatini tugatish komissiyasining tashkil etish to’g`risida”gi buyrug`iga asosan harbiy kafedralar o’z faoliyatini tugatdi.

Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasida zaxiradagi ofiserlarni tayyorlashda harbiy maktabning ilg`or an`analari mamlakatimizdagi etakchi oliy ta`lim muassasalari chaqiriqgacha harbiy ta`lim fakultetlari harbiy tayyorgarlik o’quv markazi va zaxiradagi ofiserlarni tayyorlash kurslari tomonidan davom ettirilmoqda bular:

Mirzo Ulug`bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o’quv markazi;

Buxoro Davlat universitetining chaqiriqgacha harbiy ta`lim fakulteti;

Farg`ona Davlat universitetining chaqiriqgacha harbiy ta`lim fakulteti;

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetining chaqiriqgacha harbiy ta`lim fakulteti;

Toshkent axborot kommunikatsiya texnologiyalari harbiy aloqa inistitutining malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti, zaxiradagi ofiserlarni tayyorlash kursi;

O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar harbiy tibbiyot Akademiyasining rezervdagi va zaxiradagi ofiserlarni tayyorlash kursi.

Ularda barcha o’quv-moddiy texnik bazasi yaratilgan, professor-o’qituvchilar tarkibi tanlab, tayinlangan. O’quv jarayoni 2017 yil 9 oktyabrdagi 809-sonli O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori “O’zbekiston Respublikasi oliy ta`lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o’quv bo’linmalari to’g`risidagi nizomni tasdiqlash to’g`risida”asosida tashkillashtirilgan.

Xulosa va takliflar

O’zbekiston oliy o’quv yurtlarida zaxiradagi ofiserlarni tayyorlash tizimining o’tkazilgan tarixiy tahlildan quyidagi xulosa va takliflar chiqarildi.

1.Yurtimizda turli shakllarda kechgan zaxiradagi ofiserlarni tayyorlash tizimining tarixiy tajribasi o’z davrining hodisasi bo’ldi. Oliy o’quv yurtlarida ularni tayyorlash jarayoni murakkablashdi, uning bosqichlari xavfsizlik sohasidagi va davlat siyosatidagi o’zgarishlar bilan belgilandi.

2.Oliy o’quv yurtlari tizimida harbiy tayyorgarlik o’tgan asrning 20-yillarida joriy qilingan va hozirgi kunga qadar ofiserlar zaxirasini tayyorlashning asosiy shakli bo’lib qolmoqda. Shu bilan birga ularni tayyorlash yanada moslashuvchan, mobil va arzon tizimini rivojlantirishda to’xtovsiz izlanish kerak.

3.Oliy o’quv yurtlarida zaxiradagi ofiserlarni tayyorlashning eng muhim vazifasi bu talabalarni o’quv jarayonda moddiy-texnikaviy ta`minlash hisoblanadi. O’zbekiston Qurolli Kuchlarining yaqin kelajakda rejalashtirilgan qayta qurollanishi va texnik jihozlanishini hisobga olgan holda, uni harbiy texnika va qurollarning namunalari va maketlari bilan to’ldirish zarur.

4.Zaxiradagi ofiserlarni tayyorlash tizimi to’liq o’rganib chiqilgan va yo’lga qo’yilgan bo’lsada, ammo kichik mutaxasislar zaxirasi masalalari xozirgi kunda o’ta dolzarb bo’lib turibdi, yani hozirgi vaqtda Qurolli Kuchlarda qo’shinlarning jangovar saloxiyatini belgilab turuvchi kichik komandirlar, mo’ljalga oluvchi operatorlar, mexanik-haydovchilar va shu kabi lovozimlar etishmovligi va ularni tayyorlash va to’plash echimini topishni vaqt o’zi taqoslab turibdi.

E`tiboringiz uchun rahmat !!!

ЎЗБЕКИСТОНДА ҲАРБИЙ ТОПОГРАФИЯ ХИЗМАТИ ОФИЦЕРЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ БОСҚИЧЛАРИ

Наврузов Рахмат Махмудович
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети
ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази катта ўқитувчиси, доцент

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги тизимидаги ҳарбий топография хизмати офицерларининг асосий вазифаси жой (худуд) тўғрисида маълумот берувчи манбааларни яратиш ва ўз вақтида қўшинларга етказиб беришдан иборат. Манбаалар қуйидагилардан иборат: топографик хариталар (аналогли ва электрон кўринишда); махсус топографик хариталар; аэро-космо фотохужжатлар (фотохарита, фоторежа, фоточизма); геодезик таянч нуқталарининг координаталари кўрсатилган каталоглар; жой (худудлар) макетлари; жой чизмалари. Ушбу манбаларни қўшинлар, штаблар ва командирлар қуйидаги ҳолларда қўллайди: жанговар ҳаракатларни режалаштириш ва қарор қабул қилиш жараёнида жойни (худудни) ўрганиш, баҳолаш ва мўлжалланишда; қўшинларда бошқарув ва ҳамкорликни ташкиллаштиришда; қурол ва жанговар техникани самарали қўллашда.

Ҳарбий топография хизмати таркибига кирадиган офицерлар астрономия, география, геодезия, картография, топография, кадастр, навигация фанларидан чуқур, фундаментал билимларга эга бўлишлари керак, улар Қуролли Кучларда умумлаштириб “Ҳарбий топографлар” дейилади.

Ўзбекистон худуди акс эттирилган энг дастлабки харита ва шаҳар режалари 9-11-асрларда яшаб, ижод қилган буюк аждодларимиз Мухаммад ибн Мусо ал-Хоразмий, Абу Зайд Балхий, Абу Райхон Беруний, Хофизи Абру, Маҳмуд Қошғарий, Али Қушчи, Мирзо Улуғбек ва бошқа алломаларимиз томонидан яратилган. Ватанимиз ҳақидаги картографик мерос, бу ҳудудда туғилиб, яшаб, ижод қилиб келган буюк аждодларимизнинг қолдирган илмий ва маданий мероси каби қадимий ва қимматлидир. Дунё илм-фани, хусусан астрономия, геодезия, география ва картография каби соҳа фанлари ривожида улар мухим ўрин тутади. Буюк саркардаларимиз Амир Темур, Жалолиддин Мангуберди ўзларининг юришларида ва тезкор-жанговар қарор қабул қилишда, жанговар тактикани қўллашда жой тўғрисида маълумот берувчи манбаалардан моҳирона фойдаланиб жангларда ғолиб бўлганлар.

1867 йилда Ўрта-Осиё худудида Туркистон ҳарбий округи ташкил топилган бўлиб округ штатида ҳарбий топография бўлими очилган, худудни ўрганиш ишлари бошланган ва тизимли равишда топографик хариталарни яратиш мақсадида Ўзбекистон худудида топография хизмати ҳарбий қисмлар вужудга келган. Туркистон ҳарбий топография бўлимининг фаолияти кўп

жихатдан Чор ҳукуматининг бу ўлкадаги иқтисодий сиёсати билан, яъни бу ердаги ишлаб чиқариш кучларини ривожлантириш, табиат бойликларини ҳисобга олиш ҳамда улардан имкон борича тўла фойдаланиш билан боғлиқ эди. Шунинг учун ҳам биринчи навбатда иқтисодий жихатдан катта аҳамиятга молик ҳудудлар хариталари ишланди. Бу хариталар ўз даврининг илмий ҳамда амалий талаблари даражасида бўлиб, Ўзбекистон ҳудуди учун ягона картографик материал вазифасини бажарган.

Илк бор, 1919 йилда Москвадаги ҳарбий топографлар Корпуси томонидан Тошкент шаҳарида “Ҳарбий топографлар тайёрлаш мактаби” ташкил этилган, ўқув жараёнига офицер ўқитувчилар жалб этилган, керакли асбоб ускуналар билан таъминланган ва шу соҳа мутахассисларини тайёрлаш йўлга қўйилган. Битирувчилар томонидан Ўзбекистон худудининг топографик хариталари ва шаҳарлар режалари яратилган ва қўшинларга етказиб берилган. 1925 йилда штатлар қисқариши натижасида Тошкент шаҳаридаги “Ҳарбий топографлар тайёрлаш мактаби” ёпилган, офицер ўқитувчилар ва ўқув – моддий база Россиянинг Санкт-Петербургдаги мактабига юборилган (ҳозирда Ҳарбий Космик академиянинг филиали бўлиб фаолият олиб бормоқда).

Иккинчи босқичда, 1929 йилда собиқ совет давлатининг Министрлар советининг геодезия ва картография бош бошқармаси бўйсинувидаги Тошкент топографик техникуми ташкил топган. 1985 йилгача Техникум таркибида Геодезия, картография ва топография мутахассисликлари бўйича “Ҳарбий топографларни тайёрлаш” бўлими фаолият юритган, битирувчи талабаларга “кичик лейтенант” унвони берилган. Мазкур бўлим бирирувчилари нафақат Туркистон ҳарбий округи, балки бутун собиқ Совет Иттифоқи топография хизмати учун кадрларни тайёрлаш, ўқитиш бўйича асосий таълим масканларидан бири бўлиб хизмат қилган. Техникумни ўқув-

моддий базаси, топогеодезик воситалар ва кадрлар билан бутлаш Туркистон ҳарбий округи топография хизмати орқали амалга оширилган.

Учинчи босқичда, Иттифоқдош Республикаларда миллий кадрларга бўлган эҳтиёжни инобатга олиниб 1984 йилдан бошлаб ҳар бир мутахассислик, шу жумладан ҳарбий топография йўналиши бўйича 5 нафардан ёшларни ўқишга йўналтириш даври бошланган. 1990-йиллар охири 2000-йилларда мамлакатимиз ва унга чегарадош ҳудудларда бўлиб ўтган қуролли можароларда бўлинмаларни жойни (худудни) ўрганиш ва унга баҳо бериш ва жанговар вазиятни бошқариш, жанговор техника, қурол-яроқларни самарали қўллашда командирларнинг қарор қабул қилишида жойнинг тактик хусусиятларини ўрганиш, худудда ориентирланиш, жой тўғрисида аниқ, тўлиқ ва ўз вақтида маълумотга эга бўлишда ҳарбий топографлар каби мутахассисларга бўлган талабнинг янада долзарблигини намоён этди.

Ўзбекистон ҳудудида тўлиқ жиҳозланган топогеодезия ва картография ҳарбий қисмларининг мавжудлиги, қолаверса яхши тайёрланган миллий кадрлар билан уларнинг бутланиши 1990-йиллар ўртасидан бугунги кунга қадар мамлакатимизда ҳарбий топография хизмати фаолиятини давом эттириб, унинг келажагда ривожланишига асос бўлиб қолмоқда.

Тўртинчи босқичда, 2005-йилдан 2017-йигача маҳаллий офицер кадрлар Москвадаги Бош штаб муҳандислик академиясида, курсантлар эса Санкт-Петербург шаҳридаги ҳарбий Космик академия филиалида таҳсил олиш йўлга қўйилди ва ҳар йили 4-5 нафар ёшлар ўқишга йўналтирилди. Битирувчилар ҳарбий округ ва қисмларни офицер кадрлар билан бутлаш муаммоларини қисман ҳал этишга имкон яратилди ва замонавий технологияларни қўллаш йўли билан махсус, топогеодезик ва картографик ишларни сифатини оширишга эришилди. Геоахборот тизимлари ва навигация воситаларини қўллаган ҳолда офицерлар томонидан электрон хариталарни яратиш, янгилаш ва Қуролли Кучларга тадбиқ этиш натижасида жой тўғрисида маълумот берувчи манбаларни яратиш самарадорлиги ошди ва қўшинларга ўз вақтида етказиб беришга эришилди.

Бешинчи босқичда, 2014 йил 3 ноябрда Ўзбекистон Республикаси Мудофаа ҳамда Олий ва ўрта махсус таълим вазирликларининг 18/46-сонли қўшма қарори билан Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислар институти Ҳарбий кафедрасининг Махсус тайёргарлик циклида янги - *“Қўшин (бўлинма)ларда топогеодезик таъминотни ташкиллаштириш”, “Топографик ва махсус хариталар ҳамда режаларни тузиш ва таҳрирлаш”* мутахассисликлари бўйича резервдаги ва захирадаги офицерларни тайёрлаш гуруҳлари ташкил этилди. Хорижий давлатларни тажрибасини ўрганган ҳолда ҳарбий кафедрада янги ўқув дастури

ишлаб чиқилди, махсус топогеодезик асбоблар ва Геоахборот дастурлари билан таъминланди, ўқув моддий база бойитилди ва мавзуларга оид ўқув плакатлар яратилди. Кўп йиллик ҳарбий топография хизматида фаолият олиб борган, махсус ишларни бажариш тажрибасига эга резервдаги офицерлар билан ўқитувчилар лавозимлари бутланди. Талабаларга назарий билимлар бериш билан бир қаторда амалий машғулотлар ҳарбий қисмларда ҳамкорликда ташкиллаштирилди. Ҳарбий кафедрани битирган, ўндан ортиқ захирадаги лейтенантлар танлов йўли билан ҳарбий хизматга чақирилиб Картография, Навигация ва топогеодезия марказларига офицерлик лавозимларига тайинланди ва бугунги кунда хизмат олиб боришмоқда.

Олтинчичи босқичда, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 24 октябрдаги ПҚ-4496М-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирининг 2020 йил 28 июлдаги 21/1/1188-сонли дерективаси ва 29 августдаги 558-сонли буйруғига асосан, Тошкент шаҳрида жойлашган ҳарбий кафедралар ўз фаолиятини тугатиб, 2020 йил сентябр ойида Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети қошида “Ҳарбий тайёргарлик ўқув Маркази” ташкил қилинди. Марказнинг “Муҳандис-сапёр қўшинлари, кимёвий ҳимоя ва топогеодезик таъминоти” цикли таркибида *“Қўшин (бўлинма)ларда топогеодезик таъминотини ташкиллатириш”, “Топографик ва махсус харита ҳамда режаларни тузиш ва таҳрирлаш”* мутахассислиги бўйича захирадаги ва резервдаги офицерларни тайёрлаш гуруҳлари киритилган. Марказга Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислар институтининг (МТУ) “Ер ресурслари ва кадастр” факультетидан талабалар жалб қилинган. 2023 йилга келиб Мудофаа ҳамда Олий таълим ва инновация вазирликларининг тегишли қўшма қарорларига мувофиқ Ўзбекистон Миллий университети “География ва геоахборот тизимлари” факультетида яна бир гуруҳ очилди ва факультет талабалари илк бор ўқишга жалб этилди.

Бу соҳадаги малакали мутахассисларни тайёрлаш Ўзбекистон Миллий университетининг ҳарбий таёргарлик ўқув маркази зиммасига юклатилган, ҳозирги кундаги Мамлакатимиз ҳарбий топография хизматини замонавий технологиялар, электрон-рақамли хариталар ва уларни яхши ўзлаштирган етук мутахассисларсиз тасаввур этиб бўлмайди. Бунда Ҳарбий тайёргарлик ўқув Марказининг битирувчилари, захирадаги лейтенантларнинг олган назарий билимлари ва амалий кўникмалари алоҳида ўринга эга.

Адабиётлар:

1. И.Максимов «Топографическая служба СССР» альбоми, 1918-1988 йиллар. Дунаев фабрикаси, Москва шаҳри, 1988 йил.
2. О. Машарипов “Хоразмнома” китоби, 2007 йил.
3. “Топографическая служба ВС РФ” альбоми, Москва шаҳри, 2020 йил.
4. И.Долгов, С.Сергеев “Военные топографы Саветской Армии”, Москва шаҳри, 2015 йил.

ТУРКИЯДА ОФИЦЕР КАДРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИ

Усмонов Жамолидин Комолжонович

Чирчиқ олий такнк қўмондонлик-муҳандислик билим юрти қуруқликдаги қўшинларни ҳаво хужумидан мудофаа кафедраси бошлиғининг ўринбосари, подполковник.

АННОТАЦИЯ: Ушбу мақолада муаллиф Туркия Республикасида офицер кадрларни тайёрлаш тизими ҳақида маълумотлар ёритмоқда.

КАЛИТ СЎЗЛАР: Миллий ҳарбий таълим муассасалари, Олий ҳарбий билим юрти (ОҲБЮ), Ҳарбий лицейлар (ҲЛ).

АННОТАЦИЯ: В данной статье автор дает подробную информацию о подготовке офицерских кадров в Турецкой Республике.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Национальные военно-образовательные учреждения, Высшие военные училища (ВВУ), Военные лицеи (ВЛ).

SUMMERY: In this article author shows full information about officers training system in the Republic of Turkey.

KEYWORDS: National High Military Estabilishments, High Military Schools, Military Lyceums.

ТУРКИЯДА ОФИЦЕР КАДРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИ

Туркия Қуролли кучларининг қўмондонлиги офицер кадрларни тайёрлашга жиддий эътибор қаратиб, армия сафини малакали ва сиёсий томондан ишончли офицерлер билан тўлдириб боришга интилмоқдалар. Ўқитиш жараёнига янги энг самарали услублар киритилмоқда, ўқув моддий - базалар такомиллаштирилмоқда. Алоҳида эътибор офицер кадрларнинг ирода ва жисмоний сифатларини чиниқтиришга қўмаклашувчи аҳлоқий – руҳий ва жисмоний тайёргарлигига қаратилмоқда, бу уларга турли жанговар шароитларда ҳаракатлар олиб бориши учун зарур.

Офицер кадрлар асосан миллий ҳарбий таълим муассасаларида тайёрланади ва фақат уларнинг бир қисми чет эл давлатларида ўқитилади, (асосан АҚШ ва ГФР), у эрга улар қуролли кучлар учун сотиб олинадиган янги техника ва қуролларни ўзлаштириш учун юборилади. Туркиядаги мавжуд қонунчилик асосида офицер кадрларни тайёрлаш ҳарбий таълим муассасалар тизимида, университетларда ва бошқа фуқаро олий таълим муассасаларида, шунингдек заҳирадаги офицер ва унтер офицерларни танлаш ҳисобига амалга оширилади.

Бошланғич ҳарбий таълим ҳарбий лицейларда берилади, уларнинг аксарият битирувчилари ҳарбий билим юртларига кириш учун имтиёзлар олишади, ўрта ҳарбий таълим эса (асосан назарий тайёргарлик) – ҳарбий билим юртларида берилади.

Туркия қуролли кучларининг офицерлари олий ҳарбий таълимни ҳарбий академияларда олишади, улар худудий бирлаштирилган (олтита академиядан бештаси Истамбул шахрида жойлашган) ва ҳарбий академияларнинг ягона (армия генерали унвонидаги) бошлиғига бўйсинади. Унга яна норасмий равишда генерал штабнинг академияси деб номланувчи қўмондонлик таркибининг олий курслари ҳам бўйсинади.

Университетда ва бошқа фуқаролик олий таълим муассасаларида Туркия қуролли кучлари учун офицер кадрлар ҳарбий билим юртларида ўқитиб бўлмайдиган мутахассисликлар бўйича тайёрланади.

Ҳарбий лицейларга фақат умумтаълим мактабларини (ёки унга тенг бўлган мутахассислик мактабларини) саккизинчи синфини тугатган, Туркия фуқаролигига эга бўлган ўғил болалар қабул қилинади. Улар жисмонан ва руҳан соғ, судланмаган (бу шарт уларнинг яқин қариндошларига ҳам тегишли) ва сиёсий ишончли бўлишлари керак. Ҳарбий лицейга киришни хоховчилар ариза билан май ойининг охиридан июн ойининг ўртасигача бевосита лицей бошлиғига мурожаат қиладилар. Кириш имтиҳнолари июл ойининг биринчи ярмида ўтказилади. лицейда ўқиш муддати тўрт йил. Биринчи йил тайёргарлик йили ҳисобланади. Бу даврда асосий эътибор чет тилларини ўрганишга қаратилади. Тайёргарлик дастури бўйича имтиҳонларни топшира олмаганлар ўқишдан четлаштирилади.чет тиллар умумтаълим мактабларининг битирувчилари тўғридан-тўғри биринчи босқичга қабул қилинади.

Туркия Қуролли кучларининг таркибида бешта ҳарбий лицейлар мавжуд: қурикликдаги қўшинлари таркибида – учта, булар "Кулели" лицейи, бу асосий таълим муассасаси бўлиб қурикликдаги қўшинларнинг ҳарбий билим юртларига кадрларни тайёрлайди (Истамбул, ўқитиш инглиз тилида олиб борилади); "Ишиклар" (Бурса, немис ва франсуз тилларида); "Малтепа" (Измир, инглиз тилида); Ҳарбий денгиз кучлари таркибида – битта (Хейбелиада, Истамбул, инглиз тилида); Ҳарбий ҳаво кучлари таркибида – битта (Измир, инглиз тилида). Шунингдек рус тили ҳам ўқитилади (ҳафтада 2 соат). Ҳар бир лицейда рус тилини 200 киши атрофида ўқишади.

Ҳар йили қурикликдаги қўшинларнинг лицейи 500 та, ҲДК ва ҲҲК лицейлари 140-150 та битирувчилар чиқаради, улар ҳарбий билим юртларига кириш учун - асосий кадр ҳисобланадилар.

Барча мутахассисликлар бўйича офицер кадрлар қуролли кучларнинг турлари билим юртларида тайёрланади. Уларга 17 ёшдан 20 ёшгача бўлган, ҳарбий таълим лицейларини ва уларга тенг таълим муассасаларини тугатган ўсмирлар қабул қилинадилар. Бироқ, фуқаролик таълим муассасаларидан, қоидага кўра, умумий курсантлар сонининг 20 фоизидан кўп бўлмаган миқдорда қабул қилинади. Бирор-бир лицейдан ҳайдалган, уйланган ёки унаштирилган, нутқи ва жисмоний нуқсонлари бўлган, сувчечак касали билан

касалланган ва муддатли ҳарбий хизматни ўтаган шахслар қабул қилинмайди. Қабул қилишда асосий эътибор абитуриентнинг ва унинг яқин қариндошларининг сиёсий ишончлилилигига қаратилади.

Ҳарбий билим юртларига кириш учун қуйидаги хужжатларни (шахсан ёки почта орқали) тақдим қилинади:

* кириш имтиҳонларига қўйиш учун илтимос билан билим юрти бошлиғи номига ариза;

* лицейни тугатганлиги тўғрисидаги диплом ёки унинг нусхаси;

* лицейдан барча фанар бўйича олган баҳолар хақида маълумотнома, унда яна абитуриентнинг ноқонуний сиёсий ташкилотларда ва гуруҳларда қатнашганлиги кўрсатилади;

* шахсан абитуриентнинг ва унинг яқин қариндошларининг ишончлилиги тўғрисида ва ушбу шахс ўзининг дунёқараши бўйича офицерлар таркибига кириш учун номзод бўлиб кўриб чиқилиши мумкинлиги бўйича хулосалар мавжуд бўлган Туркия Республикаси прокуратураси томонидан тасдиқланган маълумотнома (офицер ва унтер – офицерларнинг болалари учун ҳарбий қисм командири томонидан тасдиқланган ишончлилиги тўғрисида маълумотнома кифоя);

* шахсни тасдиқловчи гувоҳнома ёки унинг нусхаси (ўзиники ва ота-онасиники);

* чечакка қарши эмлаш олганлиги тўғрисидаги тиббий сертификат;

* яшаш жойидаги ҳарбий – сафарбарлик бўлимидан маълумотнома;

* 4,5х6 см ҳажмли 15та фотосурат;

* Анқара шахридаги "Гюлхона" ҳарбий госпиталидан ёки яшаш жойидаги тиббий муассасадан соғлиги тўғрисидаги маълумотнома.

Ўқишга кирувчилар билан уларнинг сиёсий, маънавий ва маданий савияларини текшириш мақсадида дастлабки суҳбат ўтказилади. Суҳбатдан ва тиббий кўрикдан ўтганлар математика, физика, кимё, чет тили, тарих, жамиятшунослик, логика ва жисмоний тайёргарлик бўйича имтиҳонларга қўйилади.

Ўқув дастурлари билим юртининг академик кенгаши томонидан тузилади ва генерал штаб томонидан тасдиқланади. Ҳарбий фанларни ўрганиш учун (тўрт йил давомида) 1000 соат ажратилади.

Ўқув йили иккита ўқув даврини ташкил қилади: иккита семестрни (16 ва 26 хафта), ва ўқув марказида амалий ўргатишни ўз ичига олувчи академик йил. Ҳар семестрнинг охирида курсантлар барча ўтилган фанлардан имтиҳон топширадилар. Уларнинг натижасига кўра семестр учун умумий якуний балл чиқарилади, унинг асосида ўзлаштиришнинг умумий индекси аниқланади.

Билим юртлари яхши ўқув-моддий базаларига эга, ўқув синфлари электрон техника ва турли кўргазмали қуроллар билан жиҳозланган.

Қуруқликдаги қўшинларнинг умумҳарбий билим юрти ("Кара Харп Окулу" Анқара ш.) қуруқликдаги қўшинлар, жандармерия қўшинлари, топография хизматлари ва денгиз пиёдалари учун барча мутахассисликлар бўйича офицерларни тайёрлайди. Денгиз пиёдалари офицерларини тайёрлаш бўлимини ҳар йили 10-12 одам битиради. Ундан ташқари бу ерда ҳарбий юристлар ва ҳарбий қурувчилар тайёргарлиги ҳам ўтказилади. Биринчи учта босқичлар учун ўқув дастури бир ҳил. Бу даврда курсантлар асосан умумтаълим фанларни, шунингдек ҳарбий фанларни ҳам (тактика, отиш тайёргарлиги (ўқотар қуролларни) саф ва жисмоний тайёргарликни) ўрганишади. Тўртинчи босқичда қўшинлар тури ва хизматлари бўйича мутахассисликларга тайёрлаш бошланади.

Биринчи босқич: асосий ҳарбий, техник ва ижтимоий фанлар (960 ўқув соати, 100 фоиз вақт):

тактик-фронт орти хизмати, разведка асослари, ҳарбий топография, ўқитиш асослари ва услубиёти, ҳарбий ёзишувлар ва нотиқлик санъати, жисмоний ва жанговар тайёргарлик (480; 50);

физика, математика, кимё (288; 30);

чет тили, турк революсияси ва камолизм мафкураси тарихи, ҳуқуқшунослик, иқтисодиёт асослари (192; 20).

Иккинчи босқич (960 ўқув соати, 100 фоиз вақт):

тактик-фронт орти хизмати, разведка, ҳарбий топография, жанговар техника ва қуроллар, зирхли танк қўшинлари, артиллерия, муҳандислик иши, алоқа, жисмоний ва жанговар тайёргарлик (512; 53,4);

физика, математика, кимё (240; 25);

чет тили, турк революсияси ва камолизм мафкураси тарихи, иқтисодиёт, ҳуқуқшунослик (208; 21,6).

Учинчи босқич (960 ўқув соати, 100 фоиз вақт):

тактик-фронт орти хизмати, разведка, ҳарбий топография, ҳарбий қонуншунослик, коммуникатсия, арттахехник таъминот, интендандлик хизмати, шахсий таркиб, командирлик санъати, жисмоний ва жанговар тайёргарлик (608; 63,3);

физика, математика, кимё (192; 20);

чет тили, турк революсияси ва камолизм мафкураси тарихи (160; 16,7).

Тўртинчи босқич (960 ўқув соати, 100 фоиз вақт):

тактик-фронт орти хизмати, мутаассислик назарияси,урушлар тарихи, ҳарбий психология, бошқариш услубиёти, ялпи қиоғин қуроллари, жисмоний ва жанговар тайёргарлик (544; 57);

физика, математика, кимё (224; 23);

чет тили, турк революсияси ва камолизм мафкураси тарихи, сиёсат тарихи (192; 20).

Ҳар йили ушбу билим юрти 400-500 офицерни лейтенант унвони билан чиқаради. Улар қўшинлар турлари билим ютрларида бир йиллик мутахссислик тайёргарлигидан ўтишади, бундан кейин улар взвод командирлари лавозимига тайинланада ва қисмларга юборилади.

Техник фанларни ўқитиш чет (инглиз, франсуз ва немис) тилларида олиб борилади. Ўқитиш савияси керакли даражада юқори. Катта эътибор бўлажак офицерларнинг руҳий ва жисмоний тайёграрлигига қаратилади. Ўқув жараёнида билим юрти раҳбарияти кафедраларни ўқитувчилар таркиби билан тўлдириш муаммоларига дуч келишади. Ҳозирги даврда ўқитувчиларнинг аксарият қисми, айниқса умумназарий курслардан дарс бериш учун фуқаролик олий таълим муассасаларидан таклиф қилинади.

Ҳарбий денгиз кучларининг билим юрти "Дениз Харп Окулу" (Тузла ш.) кема ва соҳил хизматлари учун офицерларни тайёрлайди. Унинг иккита факултети мавжуд: қўмондонлик ва муҳандислик. Биринчи учта босқичда ўқитиш бир ҳил дастур бўйича амалга оширилади, тўртинчи босқичда - алоҳида факултетлар бўйича. Ўқув йили иккита семестрдан (курсантлар бевосита билим юртида шуғулланганда) ва Туркия Ҳарбий денгиз кучларининг ўқув ва жанговар кемаларидаги ёзги амалиётидан ташкил топган. Ҳар йили 100-140 офицерлар ушбу билим юртини тамомлашади. Билим юрти битирувчиларига лейтенант унвони ва денгиз офицери малакаси берилади. Кемаларга юборилишдан олдин офицерлар, қуруқликдаги қўшинлардагидек, мутахассислик бўйича тайёргарликдан ўтишади.

Билим юрти бир йил давомида денгизчилар мактаби ва техника университетининг битирувчилари таркибидан заҳирадаги офицерларни тайёрлайди. Битирувчилар кичик лейтенант унвонини олишади ва кемаларида, соҳилдаги қисмларда ва Ҳарбий денгиз кучларининг муассасаларида бир йиллик амалиётни ўтишади, ундан кейин заҳирага бўшатилади.

Шунингдек, офицерларни турли курсларда қайта тайёрлаш ҳам ўтказилади. Чет эл матбуотларида айтилишича 1952 йилдан бошлаб ушбу билим юртининг махсус танланган битирувчилари АҚШнинг Калифорния штати Монтерей шахридаги малака ошириш мактабига, шунингдек АҚШ, Буюк британия, ГФР ва Италия ҳарбий денгиз кучларининг турли турдаги қисқа муддатли малака ошириш курсларига юборилмоқда.

Ҳарбий ҳаво кучларининг учувчилар билим юрти "Хава Харп Окулу" (Ешилюрт, Истамбул) Туркия Ҳарбий ҳаво кучлари учун асосий офицер кадрларни тайёрлаш ўқув муассасаси ҳисобланади. Ҳар йили ушбу билим юрти 200-220 офицерларни чиқаради. Бу ерда курсантлар асосан назарий тайёргарликдан ўтишади. Биринчи босқичда ўқитиш барча курсантлар учун ягона бўлган дастур бўйича амалга оширилади иккинчи босқичдан бошлаб мутахассислик бўйича ўқитиш бошланади. Билим юртини тугатгандан сўнг битирувчиларга лейтенант унвони берилади ва улар қўшин ва хизмат турлари билим юртларига ўқишни давом эттириш учун юборилади.

Бутун ўқиш даври давомига барча билим юрти курсантлари учун ягона кун тартиби белгиланган:

Қўшин ва хизмат турлари билим юртлари сафдаги офицерларни, заҳирадаги офицерларни ва муддатли хизматдан ташқари унтер-офицерларни тайёрлайди. Сафдаги офицерларни тайёрлаш бўлимлари асосан Қуролли кучлар турлари билим юртлари битирувчиларидан бутланади.

Қуриқликдаги қўшинлар офицерлари, мутахассисликлари бўйича қуйидаги қўшин ва хизмат турлари билим юртларида тайёрланади:

Зирхли танк мутахассислари билим юрти (Етимесгут), зирхли танк қўшинлари учун – қўмондонлар ва муҳандислар таркибини тайёрлайди. Бу ерда учта бўлим мавжуд: сафдаги офицерлар, заҳирадаги офицерлар ва муддатли хизматдан ташқари унтер-офицерлар бўлимлари. Ҳар йили сафдаги офицерларни чиқариш 150-160 кишини, заҳирадаги офицерларни чиқариш 450 киши атрофида, унтер-офицерларни чиқариш 500 киши атрофидагини ташкил қилади.

Билим юрти базасида қуйидаги курслар ташкил қилинган: зирхли танк қўшинлари офицерларини қайта тайёрлаш курслари; офицерларни ихтисослаштириш ва малака ошириш куслари; заҳира офицерлар учун ҳарбий касб асослари курслари; заҳира офицерларини танк командирлари ва разведка взводлари командирлари лавозимларига тайёрлаш курслари; техник-офицерларни тайёрлаш курслари; унтер-офицерлар учун ҳарбий касб асослари курслари; унтер-офицерларни ихтисослаштириш курслари.

Пиёда қўшинлар билим юрти (Тузла) – пиёда, мотопиёда, пулемётчилар, миномётчилар взводлари ва откатсиз орудия взводлари командирларини тайёрлайди. Ушбу билим юртида доимий равишда фаолият кўрсатувчи ўқув курслари мавжуд, булар, пиёда қўшинлари офицерларини қайта тайёрлаш, фуқаро ОТМ битирувчилари учун ҳарбий касб асослари, заҳирадаги офицерлар учун ҳарбий касб асослари, пиёда қўшинлари унтер-офицерлари, бўлинма командирлари ва ТҚБР мўлжалловчиларининг (унтер-офицерлари учун) малака ошириш курсларидир.ҳар йили 1000 тагача одам битиради.

Пиёда қўшинлари заҳира офицерлари билим юрти (Анқара) асосан фуқаро ўқув муассасаларининг ҳарбий хизматга бормаган фуқароларидан тўлдирилади. Ўқиш муддати 6 ой, ҳар йили деярли 2000 тагача одам битиради.

Ракета – артиллериячилар билим юрти (Пўлатли) – артиллерия ҳарбий қисм ва бўлинмалари учун сафдаги офицерлар, заҳирадаги офицерлар, муддатли хизматдан ташқари хизмат қилаётган унтер-офицерларни тайёрлайди. Ҳар йили деярли 200 тагача сафдаги офицерларни, 250 тагача заҳирадаги офицерларни, 300 тагача унтер-офицерларни чиқаради.

Разведка – қўпорувчи қўшинлар билим юрти (Егридир) – командос қисмлари ва бўлинмалари учун офицер ва унтер-офицерларни тайёрлайди. Ҳар йили 50 тагача офицер ва 200-250 тагача унтер-офицерларни чиқаради. Бу ерда командос қисмлари шахсий таркиби учун махсус алпинистлик тайёргарлиги ва махсус командос курслари мавжуд.

Ядровий, биологик ва кимёвий ҳимоя хизмати билим юрти (Истамбул) – ялпи қирғин қуролларидан қўшинларни ҳимоя қилиш воситалари бўйича йўриқчи ва техник ходимларни тайёрлайди. Бу ерда бир қатор доимий фаолият кўрсатувчи қисқа муддатли курслар мавжуд, булар, штаб ходимлари ва қўмондон кадрларни тайёрлаш, ҳарбий академия тингловчилари учун ва унтер-офицерларни тайёрлаш курсларидир.

Ҳарбий муҳандислик билим юрти (Истамбул) – муҳандислик қўшинлари учун сафдаги офицерларни, заҳирадаги офицерларни ва унтер-офицерларни тайёрлайди. Ҳар йили 150-160 тагача сафдаги офицер, 400 тагача заҳирадаги офицер ва 500 тагача унтер-офицерларни чиқаради.

Алоқа билим юрти (Мамак, Анқара) алоқа қўшинлари учун офицер ва, унтер-офицерлар таркибини тайёрлайди. Ҳар йили 100 тагача сафдаги офицер, 300 тагача заҳирадаги офицер ва 350 тагача унтер-офицерларни чиқаради.

Артиллерия–техник таъминот билим юрти (Баликесир) - артиллерия –техник таъминот бўлинмалари ва хизматлари учун мутахассисларни тайёрлайди. Ҳар йили 50 тагача сафдаги офицер, 600 тагача заҳирадаги офицер ва 500 тагача унтер-офицерларни чиқаради.

Ҳарбий – транспорт билим юрти (Газиемир) – автотранспорт қисмлари, бўлинмалари ва хизматлари учун сафдаги, заҳирадаги ва унтер-офицерларни тайёрлайди. Ҳар йили 40-50 тагача сафдаги офицер, 350 тагача заҳирадаги офицер ва 150 тагача унтер-офицерларни чиқаради.

Молия – интендантлик билим юрти (Холиджиўғли, Истамбул) - молия ва интендантлик хизматлар учун офицерларни тайёрлайди.

Ҳарбий полиция билим юрти (Қайсари) – ҳарбий политсиячи офицерларни тайёрлайди.

Ҳарбий – тиббий билим юрти (Измир).

Ҳарбий топографик билим юрти (Анқара).

Тоғ-алпинистлик билим юрти (Мугла).

Чет тиллари билим юрти (Анқара) – чет тиллари ўқитувчилари ва таржимонларни тайёрлайди (Қурикликдаги қўшинлар билим юрти қошида).

ҲҲК офицерлари қуйидаги қўшинлар ва хизматлар тури ўқув муассасаларида мутахассисликлари бўйича тайёргарлик кўради:

Авиатсион – техник билим юрти (Измир) – реактив ва поршенли самолётларга хизмат кўрсатувчи офицер ва унтер-офицерлар техник таркибини тайёрлайди. Ўқиш муддати 1-2 йил. Ҳар йили 130-150 тагача ода битиради.

Учувчилар билим юрти (Газиемир, Измир) – бу ерда поршенли самолётларнинг парвоз назарияси ва уларда амалий учиш ўргатилади. Ўқиш муддати 1 йил.

Ҳаво ҳужумидан мудофаа билим юрти (Измир) бу ерда офицер ва унтер-офицерлар қуйидаги мутахассисликлар бўйича тайёргарлик кўришади: операторлар ва РЛС техниклари, ракетачилар, зенитчилар, авиатсияни йўналтириш ва бошқариш хизмати учун мутахассислар. Ўқиш муддати мутахассисликларига кўра 1-2 йил. Йилига 50-70 та одам битиради.

Авиация алоқаси ва электроникаси билим юрти (Измир) - алоқа ва электроника бўйича мутахассис офицер, унтер-офицер ва оддий аскарларни тайёрлайди. Ўқиш муддати мутахассисликларига кўра 1-2 йил. Йилига 200 тагача одам битиради.

Аеродром хизмати билим юрти (Измир) – турли ихтисосликдаги муҳандис-қурувчиларни тайёрлайди.

Таъминот хизмати билим юрти (Ескишахар) – ҲҲК таъминот хизмати офицерларини тайёрлайди.

ҲҲК чет тиллари билим юрти (Измир) – ҲҲК учун ҳарбий таржимонларни тайёрлайди.

Бомба улоқтириш мактаби (Адана).

Реактив авиатсия гуруҳи (Ескишахар) – бу ерда учувчилар билим юрти битирувчилари реактив самолётларда амалий учиш тайёргарлигидан ўтади.

Барча Қуролли кучлар турлари учун разведкачи офицерларни Қуролли кучларнинг разведкачилар билим юртида (Анқара) тайёрланади.

1982 йил 26 март куни № 2642 сонли қонун кучга киргандан буён, университет ёки олий таълим муассасаларининг турли факултетларини тугатганлар, агар уларнинг мутахҳассисликлари Қуролли кучлар учун зарур бўлса, хоҳиш истакларидан қатъи назар улар муддатли ҳарбий хизматга офицер сифатида чақирилиши мумкин.

Ҳарбий таълимнинг кўп поғонали тизими командир кадрларни пухта филтрлаш ва Қуролли кучларнинг раҳбарий таркибини қатъий синфий ва мафкуравий белгилари бўйича бутлаш имконини беради.

Хулоса

Шундай қилиб, Туркия Республикаси Қуролли кучларининг офицерлар корпуси ўзининг жасурлик, матонатлилик, бардошлилик ва итоатлилик каби анъанавий, миллий-психологик сифатларини сақлаб қолмоқда. Ҳозирги шароитларда ушбу офицерлар корпуси Яқин Шарқ регионида (Жануби-Шарқий Анатолияда Қурдистон ишчи партиясининг қуролли тузилмаларига қарши) ва кўплаб тинчликпарвар операцияларда жанговар ҳаракатларни олиб бориш бўйича тажрибага эга бўлган, жуда яхши тайёрланган командир кадрлардан бири ҳисобланади.

Туркиянинг давлат ва ҳарбий раҳбарияти ҳарбий хизматнинг мавжуд бўлган юксак савияси ва мавқеини сақлаб қолиш учун барча чораларни

кўрмоқда, шунинг учун, офицерларнинг моддий-молиявий таъминотини яхшилаш саволларига, шунингдек, бепул тиббий хизмат кўррсатиш, ҳаётини мажбурий давлат суғуртасидан ўтказиш ва Қуролли кучлар сафида хизмат ўташи даврида хизматдаги уй жой билан таъминлаш кабиларни ўз ичига олган ижтимоий ҳимояга доимий эътибор қаратмоқда.

Туркия Қуролли кучларининг офицерлари таркибининг пул таъминоти хозирги амалдаги қонунчилик асосида ҳисоб–китоб қилинади ва ҳар ойи ҳукуматнинг матбуот органлари орқали чоп этилади. Бу мамлакатда инфлясиянинг юқорилигига боғлиқ. Бироқ офицерларни амалдаги таъминот тизими индексатсияси, улар ва уларнинг оила-аъзоларининг моддий жиҳатдан таъминланганлигига ва оиласининг фаровонлигига ҳеч қандай таъсир кўрсатмайди (турк офицерларининг пул таъминоти АҚШ долларида ҳисобланади ва турк лирасида берилади).

Бундан ташқари турк офицери нафақага чиқишда, миқдори унга дарҳол уй ёки квартира (хоҳишига кўра), автомобил ва бошқа мол-мулк сотиб олиш учун этарли бўлган, бир марта бериладиган пул нафақасини олади, шунингдек, у давлатдан фоизсиз ссудани олиб уни қайтаришни наслдан-наслга қолдириш хуқуқига эга бўлади.

Фойдаланилган манбаалар:

1. В. Мураховский. Основы подготовки военных кадров в государствах, членах НАТО. http://www.otvaga 2014.narod.ru

2. А. Федин. Подготовка военных кадров. http://Attend.to/commi.

3. А.Карпенко. Как готовятся военные кадры в Турции. http://bastion-karpenko.narod.ru/, http://vestnik-rm.ru/

BO‘LAJAK REZERVDAGI VA ZAHIRADAGI OFITSERLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Sobirov Azizbek Abduraxmonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Jangovar ta’minot kafedrasi katta o‘qituvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya: *ushbu maqolada bo‘lajak rezervdagi va zahiradagi ofitserlarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *harbiy ta’lim muassasa, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, bilim, ko‘nikma va malaka, mahorat, maxsus, ijtimoiy, ekstremal, o‘z ustida ishlash, o‘zini o‘zi tahlil qilish, o‘zini o‘zi baholash.*

Аннотация: *в данной статье речь пойдет о совершенствовании технологии формирования профессиональной компетентности будущих офицеров запаса и резерва.*

Ключевые слова: *военное учебное заведение, компетентность, профессиональная компетентность, знания, умения и квалификация, навыки, специальные, социальные, экстремальные, самостоятельная работа, самоанализ, самооценка.*

Annotation: *this article will talk about improving the technology for the formation of professional competence of future reserve and reserve officers.*

Keywords: *military educational institution, competency, professional competence, knowledge, skills, special, social, extreme, self-work, self-analysis, self-assessment.*

Har qanday millat va mamlakat tamadduni ibtidosi aynan ta’lim bilan bog‘liq, ya’ni maktabdan boshlanadi. Shu sabab o‘zining ertangi kunini o‘ylagan davlat borki, ushbu soxaga alohida e’tibor qaratadi.

“Kelajakda O‘zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilan emas, balki bilimdon, ma’naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirishi lozim”, - deb ta’kidlaydi malakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoev.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va ana shu mustaqillikni, mamlakatimiz xalqining bunyodkorlik mehnatini va tinch hayotini, osoyishtaligini himoya qilish zaruratidan kelib chiqqan holda amalga oshirilayotgan harbiy islohotlarning talablaridan biri Qurolli Kuchlarimiz uchun yuqori malakali mutaxassislarni, yuksak intelektual, ma’naviy-axloqiy salohiyatga ega bo‘lgan harbiy kadrlarni tayyorlashdir. Inson, qaysi kasb egasi bo‘lmasin, o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur kasbiy mahorat mavjudligi bilan birga, kasbiy kompetentlik (bilim, ko‘nikma va malakalar) ham talab etiladi.

Xo‘sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur. Endi shu savollarga savollarga javob topamiz.

Inglizcha **“competence”** tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi.

“**Kompetentlik**” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik – *mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning (BKM) egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi.*

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

Harbiy kasbiy kompetentligi negizini quyidagi **tarkibiy asoslar** tashkil etishi mumkin:

- maxsus yoki kasbiy kompetentlik;
- ijtimoiy kompetentlik;
- autokompetentlik (*o‘zini ijtimoiy kasbiy rivojlantira olishi*);
- ekstremal kasbiy kompetentlik (*kutilmagan vaziyatlarda ishlay olishi*).

Kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishda **o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish** muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalarini **o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash** orqali aniqlanadi.

O‘z ustida ishlash *– bo‘lajak ofitserning izchil ravishda o‘zining BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish.*

O‘z ustida ishlash quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faolityaga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish.

Bo‘lajak ofitserning o‘z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi. Ular:

- tahlil qilish asosida yutuq va kamchiliklarini aniqlash;

- yutuqlarni boyitish, kamchiliklarni yo‘qotish haqida aniq qarorga kelish;
- qarorga ko‘ra amaliy harakatlarni izchil tashkil etish yo‘llarini izlash;
- xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish;
- qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borish.

Bo‘lajak ofitserning mutaxassis sifatida:
- aniq maqsadga intilish asosida kasbiy faoliyatini takomillashtirish;
- kasbiy faoliyat samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan harbiy bilimlarni o‘zlashtirish;
- ilg‘or jang san’ati, jang olib borish usul hamda vositalardan xabardor bo‘lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tatbiq etish;
- kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;
- salbiy nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo‘lida olib boradigan amaliy harakati uning o‘z ustida ishlashini ifodalaydi.

Bo‘lajak ofitserlarning o‘z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo‘l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. Modelda o‘z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd etiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o‘tish imkonini beradi. Ma’lum bosqich vazifalari hal etilgach, bo‘lajak ofitser bu holatni alohida bandda qayd etadi.

O‘zini o‘zi tahlil qilish *– bo‘lajak ofitser tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishidir.*

O‘zini o‘zi tahlil qilish orqali bo‘lajak ofitser o‘zini o‘zi ob’ektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zero, ofitserlarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishida ularning o‘z-o‘zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

O‘zini o‘zi baholash *(O‘O‘B) – shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishi.* ***O‘zini o‘zi baholash*** *sub’ekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o‘ziga ob’ektiv baho berish, o‘zidan qoniqishni ta’minlaydi.*

O‘z-o‘zini baholash shaxsning qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi harbiy xizmatchilarning ham o‘zini o‘zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zini o‘zi samarali baholash omillari:

1. O‘zini tushunish (o‘zi haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish).
2. Shaxs sifatida o‘z qadr-qimmatini anglash (o‘zi to‘g‘risidagi ijobiy ma’lumotlarni to‘plash).
3. O‘zini-o‘zi nazorat qilish (o‘zi to‘g‘risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi).

O‘z-o‘zini baholash darajasi shaxsning o‘z-o‘zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O‘zini o‘zi oshirib yoki pasaytirib ko‘rsatish o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlarining noto‘g‘ri bo‘lishiga olib keladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish *– shaxsning o‘zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi.*

Bir qator tadqiqotlarda mutaxassislar, shu jumladan, harbiy xizmatchining o‘zini-o‘zi rivojlantirishida “Individual rivojlanish dasturi” qo‘l kelishi haqida aytiladi.

Individual rivojlanish dasturi (IRD) *– har bir shaxs yoki mutaxassisning o‘zida ma’lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur.*

Ushbu dasturda kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan BKM hamda kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanadi.

Har qanday mutaxassis kabi harbiy xizmatchi ham o‘zi uchun shaxsiy-amaliy xarakterga ega “Individual rivojlanish dasturi”ni ishlab chiqa olishi, u asosida kasbiy faoliyatni yo‘lga qo‘yishi zarur.

Harbiy xizmatchining individual rivojlanish dasturi *– mutaxassis sifatida harbiy xizmatchining individual ravishda o‘zida u yoki bu kasbiy sifat, bilim, ko‘nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi.*

Harbiy xizmatchi tomonidan ishlab chiqiladigan “Individual rivojlanish dasturi” quyidagi tarkibiy elementlardan tashkil topishi mumkin:

- kasbiy bilimlar;
- psixologik bilimlar;
- mutaxassislik bilimlari;
- harbiy malakalar;
- tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari;
- ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadlari;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun topshiriqlar.

Shunday qilib, lug‘aviy jihatdan “qobiliyat”, mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish” ma’nosini anglatuvchi kompetentlik negizida ijtimoiy, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion hamda kommunikativ), shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik kabi sifatlar aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakillantirish. /Monografiya, – T.: Fan, 2004.

2. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetenligini shakllantirish texnologiyasi. /Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

3. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedogogik kompetentlik” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua – T., 2017.

4. Маркова А.К.Психология проффесионализма – М. Знание, 1996.

BO‘LAJAK REZERVDAGI VA ZAHIRADAGI OFITSERLARDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIKANING O‘RNI

Turg‘unboyev Bahodir Irgashboyevich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi sikl boshlig‘i, podpolkovnik

Annotatsiya: ushbu maqolada bo‘lajak rezervdagi va zahiradagi ofitserlarda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishda pedagogikaning o‘rni haqida so‘z yuritiladi.
Kalit so‘zlar: harbiy ta’lim muassasa, vatanparvarlik, dunyoqarash, insonparvarlik, ma’naviyat, ona-Vatan, kadrlar tayyorlash, zamonaviy o‘qituvchi, pedagogik mahorat, odamiylik, dilkashlik.

Аннотация: в данной статье речь идет о роли педагогики в развитии чувства патриотизма у будущих офицеров запаса и резерва.
Ключевые слова: военное учебное заведение, патриотизм, мировозрение, гуманизм, духовность, Родина, обучение, современный учитель, педогогическое мастерство, гуманизм, душевность.

Annotation: this article talks about the role of pedagogy in the development of a sense of patriotism in future reserve and reserve officers.
Keywords: military educational institution, patriotism, worldview, humanitarianism, spirituality, motherland, training, modern teacher, pedagogical skills, humanism, heartiness.

Harbiy ta’limning bosh vazifasi yuqori malakali, ijodiy fikrlaydigan, tez va to‘g‘ri qaror qabul qilishga qodir ofitserni tayyorlashgina emas, balki yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega, madaniyatli, o‘zining kasbiy va intellektual qobiliyatlarini faoliyati davomida namoyon eta oladigan, izlanuvchanlik asosida mamlakat va Qurolli Kuchlar rivojiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan, har qanday sharoitda va har qanday vaziyatda jangovar vazifani bajara oladigan mard, jasur, fidoyi, vatanparvar rezervdagi va zahiradagi ofitserlarni tayyorlashdan ham iborat.

Bunday serqirra, muhim va o‘ta mas’uliyatli vazifalarni bajarishda harbiy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar tarkibining o‘rni beqiyos. Chunki talaba (kursant) qaysi mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha saboq olmasin, undagi barcha fanlar yuzasidan zarur bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar, boshlang‘ich harbiy xizmat tajribalari o‘qituvchilar, ustoz-murabbiylar, instruktorlar tomonidan shakllantiriladi, rivojlantiriladi, takomillashtiriladi, bo‘lajak harbiy mutaxassis sifatida mustaqil xizmat faoliyatiga tayyorlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi. Bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”, - degan edi. Bu o‘rinda birinchi Prezidentimiz ma’naviyatning haqiqatan ham yengilmas

kuch ekanini siyosatchi sifatida emas, balki hayot saboqlarini puxta o‘zlashtirgan donishmand sifatida bayon qilgan edilar.

O‘qituvchi talaba (kursant)larning yaqin sirdoshi, maslahatgo‘yi hisoblanadi. Bas shunday ekan, talaba (kursant) ko‘proq o‘qituvchidan andaza oladi. Uning kiyinish madaniyati, talaba (kursant) ruhiyatini bilishi, ota-onalar bilan muloqot qilish uslubi, talaba (kursant)lar qalbida ona Vataniga muhabbat, ota-onasiga hurmat, bunyodkor g‘oyalarga intilish hissini uyg‘ota olishi-bir so‘z bilan aytganda, yuksak ma’naviyatga va vatanparvarlikka ega bo‘lmog‘ini hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Hozirgi globallashuv, mafkuraviy tahdidlar xuruj qilayotgan bir davrda talaba (kursant) qalbi va shuurida g‘oyaviy bo‘shliqlar paydo bo‘lmasligining oldini olish ham o‘qituvchilarning eng mas’uliyatli vazifalaridan biridir. O‘qituvchilarning yana bir vazifasi talaba (kursant) psixologiyasini tez anglay olish, uning ota-onasi bilan muloqotni yo‘lga qo‘yish, o‘smirda yuz beradigan har qanday salbiy holatlarning oldini olishdan iboratdir.

Shuningdek, ota-onalar bilan o‘tkaziladigan umumiy yig‘ilishlarda uning ta’sirini oshiruvchi an’anaviy usullarning qo‘llanishi o‘qituvchining talaba (kursant)lar oldida obro‘-e’tiborini ko‘taradi. Har qanday o‘smir fe’lida kamchiliklar bo‘lishi tabiiy. Umumiy ota-onalar yig‘ilishlarida bolaning ijobiy tomonlariga alohida ahamiyat berish zarur. Yakka tartibli suhbatlarda esa yotig‘i bilan o‘tkazilgan muloqotlar bolalarni kelajakka, o‘quv yurtiga, ona-yurtiga bo‘lgan ishonchini, ya’ni bir so‘z bilan aytganda ularda vatanparvarlik tuyg‘usini oshiradi.

Shu o‘rinda o‘rta asrlarning buyuk donishmandi Abu Ali ibn Sino (980 – 1037) “O‘qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo‘y va bolani tarbiyalash uslublarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo‘lmog‘i lozim. O‘qituvchi o‘kuvchining butun ichki va tashqi dunyosini o‘rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog‘i lozim”, deganlaridek, hozirgi kunda zamonaviy harbiy kadrlarni tayyorlashda o‘qituvchining tutgan o‘rni, pedagogik faoliyati davomida unga qo‘yilgan vazifalari va talablariga asos bo‘lmoqda.

O‘qituvchining o‘rni va uning vazifalari, o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e’tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi aniqlanadi. Mamlakatimizda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni hayotga tatbiq etish jarayonida o‘qituvchining yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishida jamiyat oldida javobgarligi yanada ortib boraveradi.

Zamonaviy o‘qituvchi ijtimoiy psixolog bo‘lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham talaba (kursant)lar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yo‘lga sola olishi, talaba (kursant)lar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

O‘qituvchining eng muhim xislatlari quyidagilardan iborat:

- o‘qituvchining o‘z Vataniga sodiqligi, yosh avlodni sevishi, ularni insonparvarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o‘z yurti, ona tili, o‘z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatining mustaqilligi g‘oyasida yashashidan iboratdir;
- ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;

- olijanobligi, aqli, farosati, ma’naviy pokligi, ma’naviyat va ma’rifat bo‘yicha yuksak maqsadlarni tinglovchilarga singdirib borishi;

- o‘zini qo‘lga ola bilishi, sabr-toqatli, bardam, matonatliligidir.

Kadrlarni tayyorlashda o‘qituvchi oldiga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardir:

- shaxsni ma’naviy va ma’rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg‘onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o‘z Vataniga, tabiatga va oilasiga bo‘lgan muhabbati;

- keng bilimga ega bo‘lishi, turli bilimlardan xabardor bo‘lishi;

- o‘zi dars beradigan fan bo‘yicha mustahkam bilimga ega bo‘lib, o‘z kasbi, sohasi bo‘yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bulishi;

- ta’lim-tarbiya metodikasini egallashi;

- o‘z ishiga ijodiy yondashishi;

- tinglovchilarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi;

- pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta’limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo‘lishi;

- o‘z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o‘qituvchi ana shu talablarga to‘la javob bera oladigan bo‘lishiga intilishi shart;

Zamonaviy kadrlarni tayyorlashda o‘qituvchi o‘z ishidan nimanidir kutayotganligining o‘ziyoq muhim ahamiyatga egadir.

O‘qituvchining kasbiga xos xislatlari.

Har bir mutaxassislik bo‘yicha o‘qituvchining ixtisoslashgan xarakteristikasini nazarda tutgan professiogrammasi tuziladi. Professiogrammada muhim xislatlaridan borgan sari birmuncha ortib borishini hisobga olgan holda o‘qituvchining quyidagi xislatlarini ko‘rsatib berishi lozim.

1. O‘qituvchining shaxsiy xislatlari:

- amaliy-psixologik aql-farosatlilik;

- mehnatsevarlik;

- jamoat ishlarida faollik;

- mehribonlik;

- kamtarlik;

- odamiylik, dilkashlik;

- uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo‘lish;

- o‘z bilimini oshirishga intilish.

2. Kasbiga xos bilimi:

- ta’lim-tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi;

- psixologiya asoslari, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi;

- etnopsixologik bilimlarni egallashi;

- hozirgi zamon pedagogikasi va metodologik asoslarini bilishi;

- o‘z fanini chuqur bilishi;
- tinglovchilarga tarbiyaviy ta’sir etishning samaradorligini bilishi;
- ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi.

3. O‘z kasbiga xos xislatlari:
- o‘qituvchining kuzatuvchanligi;
- o‘z diqqat-e’tiborini taqsimlay olishi;
- pedagogik fantaziya (xayol)ning rivojlanishi;
- o‘ziga tanqidiy munosabatda bulishi;
- o‘zini qo‘lga ola bilishi, o‘zini tuta oliish;
- pedagogik takt;
- nutqning emotsional ifodalanishi.

4. Shaxsiy pedagogik uddaburonligi:
- o‘quv mashg‘ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi;
- tinglovchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi;
- ta’lim-tarbiya jarayonida tinglovchilar ongining taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi;
- pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilishi;
- o‘quv maqsadlarini rejalashtira olishi;
- o‘zining talim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi.

5. Tashkilotchilik malakalari:
- tinglovchilar jamoasini uyushtira bilishi va boshqara olishi;
- tinglovchilarni biror narsaga qiziqtirib, ularni faollashtira olishi;
- amaliy masalalarni hal etishda o‘zining bilim va tajribalarini ustalik bilan foydalana olishi.

6. Kommunikativ malakalari:
- tinglovchilarni o‘ziga jalb etishni bilishi;
- tinglovchilarning jamoalararo va jamoa ichida o‘zaro munosabatlarni tartibga solishni bilishi;

7. Gnostik malakalari:
- tinglovchilarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi;
- o‘zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi;
- boshqa o‘qituvchilarning tajribalarini o‘rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to‘g‘ri xulosa chiqara olishi;
- psixologik va pedagogik adabiyotlardan foydalanishni bilishi;
- tinglovchilarni to‘g‘ri tushunib, ularning xulq-atvor sabablarini tushuntirishni bilishi.

8. Ijodiy xislatlari:
- pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilishi;
- tinglovchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati;

- o‘zini tinglovchi o‘rniga qo‘yib, bo‘lib o‘tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi;

- avvalgi voqealar, hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga yangicha qaray olish qobiliyati.

Shunday qilib, ko‘rsatib o‘tilgan o‘qituvchi modelning asosiy tuzilishi tariqasida quyidagilar keltiriladi;

- shaxsning jamoatchilik va kasbiy yo‘nalganligi;
- pedagogik mahorati va qobiliyati;
- xarakterining psixologik xususiyatlari;
- bilish faoliyati;

Professiogrammani kasbga xos ravishda o‘qitishni tashkil qilishda ta’limning samaradorligi va uning muvaffaqiyati qanday bilim va ko‘nikmalarga, ayniqsa, shaxsning qanday qobiliyatlari va shaxsiy xislatlariga bog‘liq ekanligini albatta ko‘rsatish zarurdir.

Mana shu professiogrammaga asosan bo‘lajak kadrlarning sifat jihatidan o‘z kasbiga naqadar tayyorligi haqida bir fikrga kelishimiz mumkin.

Pedagogik kasb, ma’lumki, har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Pedagogik faoliyatdan yutuqlarga faqat shu kasbga qiziqqan, shu faoliyat bilan shug‘ullanishga moyil, oqibat natijada esa pedagogik qobiliyatga ega bo‘lgan kishilargina erisha oladi.

Yuqoridagi aytilgan fikrlarga asoslanib yerga ekilgan navnihol ko‘chat ulg‘ayib, meva berganidek, ustoz-shogirdning sermashaqqat, mas’uliyatli, ayni paytda, sharafli mehnatlari o‘z shogirdining kelajakdagi shaxsiy kamolotida, uning jamiyatimizda egallagan o‘rnida o‘z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak, www.press-service.uz

2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - T.: «Ma’naviyat», 2008. - 176 b.

3. Satib-Aldiev A. Pedagogik mahorat asoslari. - T.: O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Uslubiy markazi, 2013. - 86 b.

MAMLAKATIMIZDA OFITSER KADRLAR TAYYORLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Chorshanbiyev Rashid Omanovich
mayor, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi
Harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasi fakul’teti 2 - bosqich tinglovchisi

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashning tarixi, harbiy kadrlar tayyorlash tizimi bevosita bo‘yicha rahbariy hujjatlarning qisqacha tavsifi va rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari nomlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Rezerv va zaxiradagi ofitserlar, qonunlar, mutaxassislar, kasbiy tayyorgarlik, harbiy tayyorgarlik tizimi, harbiy kadrlar.

Аннотация: В стате рассматривается история подготовки офицеров запаса и резерва высших образовательных учреждениях Республики Узбекистан, краткие сведение руководящих документов по системе подготовки военных кадров и раскрыты наименования высших образовательных учреждений осуществляющих подготовку офицеров запаса и резерва.

Ключевые слова: Офицеры запаса и резерва, законы, спесиалисты, профессионалный подготовки, система военной подготовки, военные кадры.

Annotation: In this article is disclosed the history of the training of reserve and off duty officers on military training at higher education institutions of the Republic of Uzbekistan, provides short characteristics of training of military personnel and names of higher education institutions that conduct training of reserve and off duty officers

Key words: reserve and off duty officer, laws, specialists, professional training, the system of military training, military personnel.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, davlatning ozodlik va mustaqillikka erishish yo‘lida bo‘lib o‘tgan janglarda bevosita zaxiradagi ofitser mutaxassislar ishtirok etganligini ko‘rishimiz mumkin. Ularning orasida muhim o‘rinni komandirlar tarkibi egallagan.

Zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimi – fuqarolik OTMda o‘qitish va tarbiyalash, ularning mo‘ljallanganligi va ma’lum harbiy-kasbiy mutaxassisligi bo‘yicha topshirilgan vazifalarni tinchlik va urush davrida ham muvaffaqiyatli bajarishi uchun zarur bo‘lgan harbiy kasbni shakllantirish maqsadida amalga oshiriladigan jarayondir.

Rezervchilar xizmati - haqiqiy harbiy xizmatni, shuningdek safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o‘tagan oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar jumlasidan bo‘lgan harbiy xizmatga majburlar uchun Qurolli Kuchlarning

qo‘shilmalari, qismlari va bo‘linmalari safini urush davrida taqozo etiladigan shtatlar darajasiga qadar to‘ldirish, shuningdek urush davri taqozo etadigan tuzilmalarni kuchaytirish maqsadida umumiy harbiy majburiyat asosida joriy etiladigan harbiy xizmat turidir.

Rezervchilar sifatida xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatga majburlar tinchlik davrida, qoida tariqasida, qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligini saqlab turish, rezervchilarning harbiy hisobdagi ixtisoslik bo‘yicha majburiyatlarni tinchlik va urush davrida bajarishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarini saqlab qolish va takomillashtirish maqsadida harbiy qismlar bazasida hududiy prinsip asosida tashkil etiladigan harbiy tayyorgarlik bo‘yicha harbiy yig‘inlarni o‘tashga jalb etilishlari mumkin.

Rezervchilardan urush va **tinchlik davrida** O‘zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz tahdidi va mamlakat xavfsizligiga tahdid tug‘ilganida, tabiiy ofatlar hamda favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan qo‘shilmalar va qismlar tarkibida jangovar maqsadlar bo‘yicha foydalanilishi mumkin.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari armiyalarida zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash uslubiyati, uning mazmuni va tashkillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilayotganini, shu bilan birga, barcha mamlakatlar qurolli kuchlari o‘quv markazlarida (harbiy kafedralarda) qo‘mondon mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha mavjud tizimni takomillashtirish va rivojlantirish masalasining dolzarb ekanini ko‘rsatmoqda. Dunyoning kuchli va yaxshi tayyorgarlikka ega armiyasi mavjud deya e’tirof etilayotgan bir necha mamlakatlaridagi zaxira ofitserlarini tayyorlash tizimi tajribasini o‘rganish va tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Talabalarning o‘z Vataniga, Prezidentiga sodiq bo‘lgan, intellektual salohiyatli, sog‘lom va jismonan baquvvat avlodni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasining Oliy ta’lim muassasalarida “Rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashda” fanlarning Davlat ta’lim standartlari talablarida berilgan tayanch ta’lim mazmuni bajarish, o‘quv dasturiga zamon talablaridan kelib chiqib, fanning falsafiy va metodologik jihatdan yangilanishini, ta’lim mazmunini va o‘qitish uslubiga nisbatan takomillashtirilgan, samarali boshqaruv usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi

Harbiy tayyorgarlikda o‘quv jarayonining tashkil etilishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 oktyabrdagi 809-son qaroriga, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, tasarrufida OTM bo‘lgan vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlariga hamda Yo‘riqnomaga amal qiladi.

1990 yilda mahalliy kadrlar yurtimizdagi harbiy kadrlarning atigi 0,6 foizinigina tashkil qilib, harbiy ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish, isloh qilish birinchi darajali vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yilgan edi.

Ilgari tor mutaxassislar tayyorlovchi bilim yurtlari keng qamrovli mutaxassislar tayyorlaydigan o‘quv muassasalariga aylantirildi, yangi bilim yurtlari ochildi,

fuqarolik oliy o‘quv muassasalari harbiy kafedralarida zaxira ofitserlari mutaxassisliklari ro‘yxati qayta ko‘rib chiqildi.

Mamalakatimiz Prezidenti tashabbusiga asosan Qurolli Kuchlarimiz malakali harbiy kadlar bilan ta’minlash maqsadida, yangi harbiy o‘quv muassasalarini tuzish va ularda tayyorlanayotgan mutaxassisliklarni soni ko‘paytirishga katta diqqat e’tibor qaratildi.

Shu tariqa Mudofaa Vazirligi va Oliy va o‘rta ta’lim vazirligining qo‘shma qaroriga asoslanib 1992 yil 21 avgustda harbiy mutaxassisliklar tayinlangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalari ro‘yxati amalga kiritildi. Unga 11 nafar o‘quv muassasasi kiritilgan. Bular,

1. O‘zbekiston Milliy universiteti
2. Toshkent davlat texnika universiteti
3.Toshkent davlat agrar universiteti
4.Toshkent tekstil va yengil sanoat instituti
5.Toshkent avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti
6. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
7. Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti
8. Buxoro davlat universiteti
9. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
10.Farg‘ona davlat universiteti
11.Samarkand davlat universiteti

Mamlakatda qabul qilingan chora tadbirlar natijasida harbiy kadrlar tayyorlashning ko‘p qirrali tizimi vujudga keldi.O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimidagi barcha harbiy ta’lim muassasalari o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunlari hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi Oliy ta`lim muassasalarida zaxiradagi va rezervdagi ofitserlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to’g`risida”gi 4496-sonli va 2020 yil 12 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarning harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 4447-sonli Qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta`lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o’quv bo’linmalari to’g`risidagi nizomni tasdiqlash to’g`risida”gi 809-sonli Qarori va boshqa qonunosti hujjatlar talablari asosida olib bormoqda.

Mamlakatimizda ofitser kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirishning samarali tizimi yaratilgan bo‘lib, bular oliy harbiy ta’lim muassasalari, oliy harbiy ta’lim muassasalari qoshidagi malaka oshirish fakultetlari, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi va akademiya qoshidagi ofitserlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish oliy kurslaridir. Bu o‘quv maskanlari faoliyatini zamon talablari va standartlarini e’tiborga olgan holda tubdan yaxshilash bo‘yicha samarali ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining oliy harbiy ta’lim muassasalarida Qurolli Kuchlarimiz uchun **40 dan ortiq**, ya’ni

radiokommunikatsiya, telekommunikatsiya tizimlari, axborot xavfsizligi va axborot texnologiyalari, radioelektron razvedka va kurash, artilleriya, muhandislik qo‘shinlari, kimyoviy qo‘shinlar, tank qo‘shinlari, havo-desant qo‘shinlari, zenit-raketa qo‘shinlari, motoo‘qchi va chegara qo‘shinlari, qo‘shinlar razvedkasi, shuningdek, *terrorizmga qarshi kurash, maxsus operatsiya kuchlari* kabi yo‘nalish va mutaxassisliklar bo‘yicha yuqori malakali ofitser kadrlar tayyorlanmoqda.

Harbiy islohot talablariga to‘la ma’noda javob berish uchun Qurolli Kuchlar Akademiyasida ham keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, jangovar harakatlarni tashkil qilish va olib borish, ularni har tomonlama ta’minlash bo‘yicha chuqur bilimlarga, yuksak shtab madaniyatiga ega bo‘lgan, tizimli tahlil uslublari, qo‘shilmalar va qismlarni vaziyatning har qanday sharoitlarida boshqara olish borasidagi mustahkam ko‘nikmalarni egallagan qo‘mondonlik tarkibi ofitserlarini tayyorlash maqsadida Akademiya tuzilmasida Oliy kurslar tashkil etildi va ular Qurolli Kuchlarimizga ko‘plab yuqori tayyorgarlikka, oliy harbiy malakaga ega bo‘lgan, zamonaviy harbiy san’at ustalarini yetkazib bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 10- iyuldagi Qarori bilan Toshkent tibbiyot akademiyasi huzurida harbiy tibbiyot fakulteti tashkil etildi. Yuqori intellektual salohiyatga ega, tibbiy xizmatning yuksak malakali ofitserlarini, zaxiradagi ofitserlar tarkibini tayyorlash, Qurolli Kuchlar tibbiy xodimlarining harbiy va kasb tayyorgarligi darajasini muntazam oshirish hamda ularni qayta tayyorlash, maxsus bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish, harbiy tibbiyot sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish mazkur fakultetning asosiy faoliyat yo‘nalishi etib belgilandi.

Ta’kidlash joizki, ofitser kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida vazirlik tasarrufidagi oliy harbiy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan barcha ixtisosliklar bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari ishlab chiqildi, kursantlar tayyorgarligiga oid dasturlar qayta ko‘rib chiqilib, sezilarli darajada yangilandi, ushbu muassasalarda o‘qitish ishlarini tashkillashtirish va uslubiyati takomillashtirildi.

Shu o‘rinda Mudofaa vazirligi tizimida ofitser kadrlarni tayyorlash bosqichlarining o‘ziga xosligiga e’tibor qaratsak. Aytish joizki, ***dastlabki bosqichda*** ofitser kadrlar Mudofaa vazirligi tizimidagi oliy harbiy ta’lim muassasalarida tayyorlanadi. ***Ikkinchi bosqich*** esa ofitser kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni ko‘zda tutadi. Mazkur bosqichda ofitser kadrlar oliy harbiy ta’lim muassasalari huzuridagi malaka oshirish fakultetlarida 3 oydan kam bo‘lmagan muddat ichida qayta tayyorgarlikdan o‘tib, malakasini oshirishlari mumkin. ***Uchinchi bosqichda*** taktik-qo‘mondonlik boshqaruvi ofitser kadrlari Qurolli Kuchlar Akademiyasi qoshidagi Oliy kurslarda qayta tayyorlanib va malakasi oshirilsa, ***to‘rtinchi bosqichda*** O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida ikki yil davomida tahsil olinadi. Operativ-strategik boshqaruvi ofitser kadrlari malakasini oshirish ***beshinchi bosqichda***, oliy rahbariyat tarkibining malakasini oshirish esa ***oltinchi bosqichda*** (O‘R Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi) amalga oshiriladi.

Bugungi kunda harbiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda yetakchi xorijiy davlatlar, jumladan, NATOga a’zo mamlakatlarning harbiy kadrlar tayyorlash tajribasidan keng foydalanilmoqda. Jumladan, oliy harbiy ta’lim muassasalarining xorijiy mamlakatlar harbiy ta’lim muassasalari va harbiy tadqiqotlar markazlari, halqaro tashkilotlar bilan hamkorligi keng yo‘lga qo‘yilgan. Muntazam ravishda xorijiy vakillar bilan ishchi uchrashuvlari va konsultativ muzokaralari olib borilib ularning natijalari bo‘yicha shartnomalar tuzilmoqda.

Bugungi kunda harbiy ta’lim sohasini yanada rivojlantirish, harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha bir qator ***ustuvor yo‘nalishlar belgilangan bo‘lib, ular quyidagilar:***

- o‘quv jarayonini harbiy sohani rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini, muayyan hudud doirasida tez va shiddatli tarzda kechadigan operatsiyalar va jangovar harakatlar olib borish bo‘yicha bugungi tajribalarni aks ettiradigan fan va ixtisosliklarni o‘zida mujassam etgan zamonaviy ta’lim dasturlariga asosan tashkil etish;

- harbiy ta’lim muassasalari, serjantlar tayyorlash maktablarini eng zamonaviy modellashtirish va simulyatsiya vositalari, kompyuter texnikasi, harbiy poligon asbob-uskunalari bilan ta’minlash;

- harbiy bilim yurtlarida tinglovchilarga harbiy soha va harbiy san’at rivojidagi asosiy yutuqlarni aks ettiradigan, prinsipial jihatdan yangi mutaxassislik va jangovar harakatlarini olib borishning xorijiy tajribasi, zamonaviy shakl va metodlarini hisobga olgan holda o‘rgatish;

- harbiy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari tarkibining malakasini yanada oshirish, ularning chet tillarini egallashi, ta’lim jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirishi va o‘quv ishlariga eng yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish;

- oliy qo‘mondonlik tarkibidagi ofitserlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish, mudofaa qurilishi sohasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni muvofiqlashtirish;

- harbiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda yetakchi xorijiy davlatlarning ofitser
va serjantlar tayyorlash tajribasidan keng foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, harbiy ta’lim sohasidagi bu kabi islohotlar keng bilim va tafakkurga, yuksak professional va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual jihatdan rivojlangan, shiddatli tarzda amalga oshiriladigan zamonaviy jangovar harakatlar sharoitida, o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli ado etishga qodir bo‘lgan harbiy kadrlarni samarali tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashda asosiy e’tibor ularga zaruriy harbiy-kasbiy bilimlar berishga alohida e’tibor qaratilganini, shu bilan birga barcha mutaxassislar, o‘z bo‘ysunuvchi tarkibni o‘qitish va tarbiyalash bo‘yicha kerakli uslubiy ko‘nikmalari ularning keyingi xizmatida muhim ahamiyat kasb etganini ko‘rish mumkin.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-5847-sonli qaroridagi Konsepsiya.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari to‘g‘risidagi Nizomni” 809-sonli qaroriga (ilova) Yo‘riqnoma.

3. O‘zbekiston respublikasi Mudofaa vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017 yil 5 dekabrdagi 33,24-2017 son qaroriga asosan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalarida o‘quv jarayonini tashkil qilish va amalga oshirish bo‘yicha” Yo‘riqnoma.

4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2020 yil 30 iyuldagi “Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta’lim muassasalarida harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi MV 505-sonli buyrug‘iga 1-ilova “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tasarrufidagi oliy harbiy ta’lim muassasalari faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida” Nizom.

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy universiteti qoshidagi harbiy tayyorgarlik o‘quv Markazi umumqo‘shin tayyorgarlik sikli “Motoo‘qchi qism va bo‘linmalarini BTR va avtomobilda jangovar qo‘llanishi” mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv Dasturi.

Bo‘lajak ofitserlarga qo‘yiladigan zamonaviy talablar

Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar sikli o‘qituvchisi
Qurolli Kuchlar xizmatchisi Ziyavitdinov Zafar Zoirovich

Zamonaviy ofitser - bu tayanch ustuni,
unga davlatning harbiy kuchi tayanadi!

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy ofitserning faoliyatiga qo‘yilgan talablar, harbiy ta’lim muassasalari pedagoglarining kasbiy tayyorgarligi, professionalligi, kompetentligi masalasi hozirgi kunning dolzarb muammolari, ofitserlarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligi darajasini takomillashtirish yo‘llari bo‘yicha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются требования к работе современного офицера, вопросы профессиональной подготовки, профессионализма, компетентности педагогов военно-учебных заведений, а также представлены актуальные пути повышения уровня подготовки офицеров к педагогической деятельности.

Annotation

This article discusses the requirements for the work of a modern officer, issues of professional training, professionalism, and competence of teachers in military educational institutions, and also presents current ways to improve the level of training of officers for teaching activities.

O‘zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati, Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligini ta‘minlash vazifalarini bajarishda ofitserlar muhim rol o‘ynaydi. Harbiy bilim, ma‘naviy va jangovar an‘analarni tashuvchisi sifatida ofitserlar korpusi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qobiliyatini saqlab qolishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida davom etayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlar o‘z qo‘l ostidagi bo‘ysunuvchi shaxsiy tarkibni o‘qitishga va tarbiyalashga qodir bo‘lgan ofitser shaxsidan yangi yondashuvlarni talab qiladi.

Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ayrim ofitserlar turli sabablarga ko‘ra zarur bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarga ega emas. Bundan tashqari, bu ularning harbiy-kasbiy faoliyatning ma‘lum bir sohasidagi mutaxassislar sifatida tayyorgarlik darajasiga va bo‘ysunuvchilarni tayyorlash va o‘qitish qobiliyatiga ham tegishli.

Ushbu holatning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rish mumkin:

- oliy harbiy bilim yurtlarida o‘quv jarayonini tashkil etishda aniq tizimli yondashuvning to‘laqonli ishlamasligi;

- o‘qituvchilarning o‘z kasbiy va uslubiy tayyorgarligining etarli darajada emasligi;

- oliy harbiy bilim yurtlarida o‘quv jarayonini o‘tkazish va ta‘minlash, qo‘shinlarda esa ma‘naviy-ma‘rifiy va jangovar tayyorgarlikni tashkil etish bo‘yicha nazoratni tolaqolni o‘rnatilmaganligi.

Rahbar va o‘qituvchi sifatida ofitserlar uchun quyidagi maxsus talablarni kiritish tavsiya etiladi.

Ofitserning harbiy-kasbiy faoliyatini yuqori sifatli bajarishga tayyorligi, shuningdek u tomonidan bo‘ysunuvchilarni o‘qitish va tarbiyalash qobiliyatiga belgilangan talabni professionallik deb hisoblash kerak.

Professionallik quydagi hollarda ko‘rinib turadi:

oliy harbiy-kasbiy va umumiy ta’lim tayyorgarligida va harbiy tabaqalarda o‘sishinining barcha darajalarida harbiy-kasbiy faoliyatni ishonchli bajarish imkonini beradigan ko‘p qirrali malakaga ega;

harbiy xizmatning yangi shartlari va talablariga moslashish tezligida;

Qurolli Kuchlarda xizmat qilish davomida egallaydigan harbiy-kasbiy faoliyat turlarini uzluksiz kengaytirishda;

egallangan bilim, ko‘nikma va malakalardan ijodiy foydalana bilishida, ularni jangovar va xizmat vazifalarini hal etishda qo‘llay olishda;

ofitserning bilimli shaxs va davlat xizmatchisi sifatida muayyan ijtimoiy maqomini ta’minlaydigan keng bilimi va yuqori umumiy madaniyatida;

yuqori kasbiy harakatchanlikda, bir faoliyat turidan boshqasiga o‘tish tezligi bilan xarakterlanadi (jangovar, operativ, pedagogik va boshqalar.);

bo‘ysinuvchilar va o‘z faoliyatini tahlil qilish, ongli qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirishga erishishda.

Ofitser kommunikativ kompetent bo‘lishi ya’ni psixologiya, pedagogika yo‘nalishida bilimlari, insonlar bilan so‘zlashish odob-axloqi, o‘z ona va chet tillarida yozma va og‘zaki nutq bilimi, ishlab chiqish va rasmiy hujjatlar bilan ishlash qobiliyati, kompyuter texnikasi, aloqa va axborot, zamonaviy texnologiya jixozlari va qurol vositalaridan foydalanish bo‘yicha mahorati bo‘lishi kerak.

Harbiy rahbarning yuqori professionalligi bo‘linmalar va qismlarning jangovar tayyorgarligi, shuningdek shaxsiy tarkib bilan tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirish va olib borish bo‘yicha uslubiy bilimlarining mavjudligi bilan bog‘liq.

Muhim talab - bu ofitserning boshqaruv faoliyatiga tayyorligi. Boshqaruv faoliyati hozirgi vaqtda funksional vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan barqaror ko‘nikmalar va qobiliyatlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Ayni paytda harbiy xizmatning tabiati bilan belgilanadigan ofitser-boshliqning to‘rtta asosiy faoliyat turi mavjud.

1. Harbiy mutaxassisning quyidagi vazifalarni tez va samarali bajarish qobiliyatini nazarda tutadigan tashkiliy va boshqaruv (qo‘mondonlik, qo‘mondonlik- shtab) faoliyati: eng qisqa vaqt ichida maqsadga erishish bo‘yicha optimal bo‘lgan qarorlarni qabul qilish va ularni ijrosini ta’minlash.

2. Harbiy mutaxassisning qurol-yarog‘ va harbiy texnikani to‘g‘ri ishlay olishini nazarda tutuvchi harbiy-texnik faoliyat, ularni jangovar shay va texnik soz holda saqlash. Harbiy-texnik ko‘nikmalari chuqur muhandislik bilimiga ega, ijobiy amaliy tajriba bilan qo‘llab-quvvatlanadigan ofitserning bo‘lishini ta’minlaydi.

3. Pedagogik faoliyat, bu ofitserning bo‘ysunuvchilarda O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va umumiy harbiy nizomlar talablarini so‘zsiz bajarish ruhida tarbiyalash va harbiy jamoaning axloqiy va psixologik holatini boshqarish qobiliyatini anglatadi. Pedagogik faoliyat ofitserdan harbiy pedagogika va psixologiya sohasida chuqur bilimga ega bo‘lishini, keng bilimdonlik va kirishimlilikka ega bo‘lishini nazarda tutadi.

4. Keyingi xizmat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan kichik guruh xodimlariga xos bo‘lgan tadqiqot faoliyati o‘qitish yoki tadqiqot faoliyati bilan bog‘liq.

Ofitser pedagogning boshqaruv faoliyatining muhim tarkibiy qismi psixologik va pedagogik komponent bo‘lib, u “**o‘qitishni boshqarish”**, “**tarbiyani boshqarish**” va shaxsiy tarkibning “**xulq-atvorini boshqarish”** tushunchalari yordamida yoritib beriladi.

O‘qitishni boshqarish, birinchidan, o‘z navbatida harbiy xizmatchilarga rahbarlik qiluvchi mansabdor shaxslar faoliyatini boshqarish sifatida namoyon bo‘ladi. Ofitser tegishli boshliqlarga (uning qo‘l ostidagilarga) o‘z qo‘l ostidagilarga nimani va qanday o‘rgatish kerakligini o‘rgatadi va ularning faoliyatini tashkil etadi. Ikkinchidan, u shaxsan o‘ziga bo‘ysunuvchilar faoliyatining tashkilotchisi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Harbiy xizmatchilarni tayyorlash paytida mansabdor shaxslarga rahbarlik qilish jarayoni uchta asosiy operatsiyani o‘z ichiga oladi: jangovar tayyorgarlikni rejalashtirish, mao‘g‘ulot rahbarlariga ko‘rsatma berish, mansabdor shaxslarning faoliyatini kuzatish va baholash.

Tarbiyalashni boshqarish taxminan bir xil tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi, ammo o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ofitser harbiy xizmatchilarda zarur axloqiy, jangovar va psixologik sifatlarni shakllantirish bo‘yicha mansabdor shaxslar faoliyatini rejalashtiradi. Shuningdek, mas’uliyatni taqsimlaydi, mansabdor shaxslarning joylashishi va vakolatlarini belgilaydi, ko‘rsatma beradi, ularning tarbiyaviy ishlardagi ishtirokini tizimli o‘rganadi va baholaydi. Harbiy xizmatchilarni muayyan talab va me’yorlarga javob beradigan xatti-harakatlarni talab qiladigan bunday ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritishda etakchi rol o‘ynaydi. Shaxs xulq-atvori va faoliyatining zarur sifatlarini shakllantirish uchun bo‘ysunuvchilarni doimo rag‘batlantirib, bo‘ysunuvchilar o‘rtasida ijtimoiy tajriba to‘plashga erishadi.

Xulq-atvorni boshqarish harbiy xizmatchining o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan xatti-harakatini ta’minlashni anglatadi. Bunga har bir

muayyan holatda emas, balki sizni shu tarzda harakat qilishga undaydigan maqsad va sabablarni doimiy ravishda ta’sir qilishi orqali erishiladi.

Shunday qilib, ofitserning boshqaruv faoliyatining pedagogik komponenti o‘quv-jangovar, jangovar va boshqa qo‘yilgan vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan harbiy xizmatchini tayyorlash uchun mo‘ljallangan.

Zamonaviy sharoitda ofitserga bo‘lgan muhim talab bu insonparvarlik, bo‘ysunuvchi harbiy xizmatchining shaxsini hurmat qilishdir. Insonparvarlik va harbiy xizmatchining shaxsini hurmat qilish tashabbus, iste’dod, kasbiy mahorat, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, axborot ehtiyojlarini maksimal qondirish, harbiy-kasbiy o‘sish va shaxsiy manfaatlarga muvofiq rag‘batlantirish uchun imkoniyat va zarur sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

Ofitserlar uchun eng muhim talab bu oddiy ijrochi askarlarni emas, balki harbiy-kasbiy vazifalarni konstruktiv va nostandart usullar bilan belgilash va hal etishga qodir ijodiy yondashuvchi shaxslarni shakllantirishdir.

Zamonaviy ofitser yuksak harbiy kasbiy, axloqiy va pedagogik madaniyatga ega bo‘lishi kerak. Harbiy xizmatda axloqiy va pedagogik fazilatlar kasbiy jihatdan shartlangan bo‘lib, ularsiz harbiy xizmatchi haqida gapirish mantiqsiz. Shu bilan birga, burch, g‘urur, vijdon, halollik va mas’uliyat kabi muhim axloqiy toifalar ofitserlar uchun professional maqomga ega.

Zamonaviy talablar ofitserlardan:

qo‘shinlarda funksional vazifalarni belgilangan tegishli ofitser lavozimlarning har qanday ko‘rinishida bajarishni;

ma’lum chegaralarda o‘z funksional faoliyati yo‘nalishlarini o‘zgartirish uchun, agar bu harbiy amaliyot talablari bilan belgilansa;

yangi jihozlar, qurollar va ulardan foydalanish usullarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Faoliyatning ushbu darajasiga muvofiq, ofitserlarda quyidagi fazilatlarni rivojlantirish kerak:

kasbiy harakatchanlik, ya’ni bir faoliyatdan ikkinchisiga tez o‘tish qobiliyati;

harbiy jamoalarda muayyan ijtimoiy maqomga (martaba) erishishga imkon beruvchi ijtimoiy faoliyat;

harbiy xizmat sharoitlariga xos salbiy omillar ta’siriga qarshilik, chidamlilik;

Qurolli Kuchlarda xizmat qilishning butun davrida mustaqil ta’lim olish istagi.

Zamonaviy ofitser rahbar va pedagog sifatida quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak:

malakali harbiy mutaxassis fazilatlari;

mahoratli bo‘linma rahbari, harbiy faoliyatning barcha turlarini tashkil etuvchi sifatlari;

bo‘ysunuvchi shaxsiy tarkibni o‘qitish, tayyorlash va tarbiyalashga qodir bo‘lgan malakali harbiy o‘qituvchining fazilatlari.

Shu bilan birga, bularning asosiylari orasida:

yuksak ma’naviyat, ma’rifat, madaniyat, rivojlangan vatanparvarlik tuyg‘usi, ofitserlik g‘ururi, shani, or-nomus, sharafi va harbiy burch, Vatanni himoya qilish uchun ruxiy va psixologik tayyorgarlik, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga mansublik uchun g‘urur va mas’uliyat;

rivojlangan mavhum-mantiqiy fikrlash, nostandart jangovar sharoitlarda ongli qaror qabul qilish va ularni amalga oshirishni tashkil etish qobiliyati;

shaxsiy tarkibni birlashtirish, askarlari o‘rtasidagi do‘stlikni, harbiy birodarlikni mustahkamlash, ularning milliy an’ana va urf-odatlarini hurmat qilish qobiliyati;

ishda asosiy narsani ko‘rish, maqsadlarni aniq belgilash va ularga erishishda qat’iyatlilikni ko‘rsatish, ijrochilarni tanlash va ular o‘rtasida mas’uliyatni oqilona taqsimlash, ishni oxiriga etkazish, bo‘ysinuvchilar tomonidan buyruqlar va ko‘rsatmalarni bajarilishini nazorat qilish qobiliyati;

uzluksiz o‘z-o‘zini takomillashtirish istagi, kasbiy martabaga erishishni rejalashtirish, kasbiy va shaxsiy o‘z-o‘zini rivojlantirish, yangi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash va shu maqsadda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish;

halollik va odob, so‘z va amal birligi; - asosiy boshlovchi bo‘lishi kerak.

Ofitser-pedagog quydagilarga tayyor bo‘lishi shart:

qiyin sharoitlarda qaror qabul qila olish va ularning to‘g‘ri ekanligini isbotlay olishga;

harbiy jamoalarda shaxslararo munosabatlarni o‘rnatish, harbiy qismning axloqiy va psixologik holatini boshqarishga;

o‘z-o‘zini o‘qitish va mustaqil malaka oshirishga ehtiyojni shakillantirish.

Ofitser-pedagogni tayyorlash harbiy bilim yurtlarida, universitetlarning harbiy tayyorgarlik o‘quv markazida, shuningdek, qo‘mondonlik tayyorlash tizimida va kundalik faoliyat davomida amalga oshiriladi.

Ofitser-pedagogning kasbiy tayyorgarlik tizimi quydagilarni ta‘minlashi kerak:

harbiy xizmatning ijtimoiy shart-sharoitlarini tushunadigan, rivojlangan fikrlash madaniyatiga ega bo‘lgan, bo‘linma va bo‘linmalardagi harbiy ta’lim jarayonining tendensiyalarini aniqlash va istiqbollarini bashorat qila oladigan ofitserning dunyoqarashini shakllantirish;

ofitserlarning shaxsiy tarkib bilan tarbiyaviy ishlarni olib borishga tayyorligini ta’minlovchi aniq kasbiy-axloqiy va jangovar sifatlarini tarbiyalash;

ofitserlarni shaxsiy tarkib bilan ishlash uslubi, ko‘nikmalari va usullari bo‘yicha tayyorlash.

Shunday qilib, zamonaviy ofitser-o‘qituvchi o‘zlariga yuklangan vazifalarga erishish uchun o‘z qo‘l ostidagilarni o‘qitish va tarbiyalash talablarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma va malakalarga, kasbiy muhim fazilatlarga ega bo‘lishi kerak.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda harbiy ta‘lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib borayotgan ofitser-o‘qituvchilarimizdan davlatimiz yoshlarini dunyoning rivojlangan mamlakatlarining harbiy ta’lim tizimida yo‘lga qo‘yilgan zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini o‘rganib, ularni chuqur tahlil qilgan holda o‘zlarining pedagogik faoliyatlarida samarali tadbiq etib borishlari talab etiladi.

РОЛЬ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДОВ ВОСПИТАНИИ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЕЖИ

Тохтаева Дилноза Эргашбаевна:
преподаватель высшей категории академического лицея при Ташкентском Государственном Юридическом Университете

Аннотация: в этой статье рассказывается о роли в изучении истории Амира Темура и Темуридов в воспитании молодежи в процессе духовной модернизации общества важны знания об отношениях великого Сахибкирана Амира Темура который заложил основы узбекской государственности, что его жизненные принципы и устремления и сегодня служат путеводной звездой для грядущих поколений.

Ключевые слова: «Уложение Темура», «Освободитель Европы», ЮНЕСКО «Отчизна», «справедливость», «просвещение», «совесть» и «доброта».

Роль в изучении истории Амира Темура и Темуридов в воспитании молодежи.

Роль в изучении истории Амира Темура и Темуридов в воспитании молодежи в процессе духовной модернизации общества важны, так как для молодежи, строящей жизненные планы, ориентированной на личный успех, понимание возможностей, открываемых модернизируемым обществом, является настолько его исторические личности как Амир Темур который был непобедимым полководцем и политическим деятелем, внесшим большой вклад в развитие науки, культуры и просвещения. Амир Темур объединил разоренные края на основе единого государственного флага, после этого стабилизировалась экономика страны, торговля и ремесленничество, промышленное развитие, расширились торгово-экономические отношения с далекими и близкими соседями участники были проинформированы об историческом, культурном, духовном наследии Амира Темура и эпохи Темуридов, его роли в мировой цивилизации.

Особое место в их ряду занимает величественный образ Сахибкирана Амира Темура, заложившего основы узбекской государственности. Его жизненные принципы и устремления и сегодня служат путеводной звездой для грядущих поколений. Проведенная в стране огромная работа по построению свободного и процветающего общества, благополучной жизни для народа и безоблачного будущего для наших детей и внуков перекликается с его мудрыми высказываниями, благородными идеями и принципами. В их числе справедливость, мир и стабильность, развитие образования, науки и культуры, патриотизм и самоотверженность, верность интересам Отчизны, которые и сегодня являются приоритетными направлениями национального развития нашей независимой Родины.

Именно благодаря независимости в процессе духовного возрождения общества личность Амира Темура, его роль в мировой истории и заслуги перед Родиной получили достойную оценку. По инициативе первого Президента И.А. Каримова в 1996 году в Узбекистане и во всем мире широко праздновалась 660-летие Амира Темура. В Ташкенте, Самарканде и Шахрисабзе установлены величественные памятники Сахибкирану. В честь нашего великого предка был создан 1995 году Международный фонд, учрежден 1996 году орден Амира Темура. Восстанавливались и переиздавались «Уложения Темура» как уникальный источник изучения истории национальной государственности. 18 октября 1996 года в центре столицы на сквере Амира Темура состоялось торжественное открытие государственного музея истории Темуридов, вошедшего в состав Академии наук.

Современная молодежь видя как наше государство уделяет огромное внимание на истории своих предков, привлекая музеями, которые являются центром притяжения в культурной и политической жизни нашей страны, обязательным местом для тысячи гостей из соседних стран, а также Англии, Франции, США, Германии, Турции, Израиля, Японии, Греции, Италии, Кореи и др. , также многие официальные делегации посетившие независимый Узбекистан с большим интересом глубже узнают здесь историю древнего Мавераннахра.

Изучая историю своих великих предков должен вдохновляться, гордиться что является последователем таких великих личностей как Амир Темур, которого чтят даже зарубежных странах, пример: во Франции по предложению ЮНЕСКО – 1994 году в Париже 600-летний юбилей темурида Мирзо Улугбека и в 1996 году был широко отмечен 660 летный юбилей Амира Темура тоже Париже, также во Франции была отлита золотая статуэтка «освободитель Европы»

Выдающееся государственный деятель, талантливый полоководец, покровитель науки и культуры

Сегодня этого великого человека во всем мире признают в качестве выдающегося государственного деятеля, талантливого полководца, покровителя науки и культуры. Государственные деятели, ученые тепло отзываются о Сахибкиране и высоко оценивают его жизнь и деятельность. С XVI века возрастает интерес ученых Европы к личности и деятельности Амира Темура. В 1553 году в итальянском городе Флоренция было издано произведение итальянского ученого Перондино «Величие Тамерлана из Скифии». Это было первым научным исследованием европейских ученых об Амире Темуре. В том же веке издается произведение испанского историка Перо Мексика «История великого Темура». В 1582 году изданы «Воспоминания» известного испанского посла Клавихо». В тот же период было создано сценическое произведение английского драматурга Христофора Морло «Великий Темур». Стех пор не прекращалось создание произведений, посвященных великому Сахибкирану. К настоящему времени в 33 странах

издано более 500 произведений зарубежных исследователей, посвященных Амиру Темру и темуридам. Издание 1968 году труда ученого-философа И.М.Мминова «Роль Амира Темура в истории Средней Азии» усилило интерес общественности к этой теме.

«… рождение этой личности было предопределено судьбой и временем требованием независимости народа и страны, уставших от гнета Чагатайского улуса, дикой тирании мелких феодалов, бесконечных нападений монгольских ханов и правителей Золотой Орды на Мавераннахр, длившегося на протяжении 150 лет иностранного влияния. Эта историческая необходимость проявилась в Темуре и его полководцах. Темур в качестве государственного деятеля в определенной степени своей личностью отобразил эти потребности и необходимость, создав в Мавераннахре независимое централизованное государство» писал И.М.Муминов [3].

Особенно много среди посетителей молодежи, которая стремится глубже узнать богатую историю своей страны, великих предков, внесших вклад в развитие мировой цивилизации. За годы деятельности музей неоднократно вызывал интерес новыми экспозициями, выставками и конференциями, посвященными жизни, деятельности и величайшему наследию Амира Темура. Огромен вклад Сахибкирана в мировую цивилизацию.

В конце XIV века он создает огромную империю, столицей которой был избран Самарканд, всесторонне развил и укрепил его, прославив на весь мир. Выгодное расположение государства Амира Темура –перекресток транзитных путей, богатая сырьевая база, связанная с добычей полезных ископаемых – свинец, золото, серебро, медь являлись благоприятными условиями для развития ремесел, наук и искусств. В Самарканде он собирает лучших мастеров и ученых архитекторов, поэтов и музыкантов. Все это оказало благотворное влияние на развитие Ренессанса в эпоху Темуридов. По свидетельству Ибн Арабшоха, при правлении Амира Темура действовал такой обычай: в ознаменование больших праздников объявлять жителей Самарканда тарханами, то есть освобожденными от податей и повинностей. Сам Сахибкиран пишет в «Уложениях» что людям, взявшимися за трудное и благородное дело, предоставлялись определенные льготы: « … в первый год с них не взимали ничего, на второй год довольствовались тем, что они сдавали по своему усмотрению, и только на третий год взимали с них харадж (налог) по установленной норме.

Воздавая должное личности правителя, Ибн Арабшох пишет: «Он не любил насмешек и фальши и не печалился в несчастии, был горячим и храбрым, внушал повиновение и вызывал чувство благовония.

Любил смелых и храбрых солдат…был спорщиком, мгновенно схватывал суть дела. Он четко отличал правду от вымысла, искренних советчиков от искусных и хитрых притворщиков». Нынешняя политика Узбекистана, суть которой определяется такими понятиями, как «справедливость», «просвещение», «совесть» и «доброта» - практическое воплощение его благородных устремлений, которые как не раз отмечал глава нашего

государства и в настоящее время остаются основополагающими. Проводимые в стране реформы в целях укрепления национальной государственности, повышения благосостояния народа, воспитания гармонично развитого поколения по своей сути и содержанию созвучны принципам великого предка, его напутствию, оставленному потомкам.

30 июня 2017 года на IV курултае Общественного движения молодежи «Камолот» Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев в ходе своей встречи выдвинул идею о присвоении военно-образовательным школам названия «Темурбеклар мактаби» [1.] Молодежь активно поддержала эту идею.

Молодое поколение современного Узбекистана отличается высоким интеллектом, наличием в своем потенциале самой разнообразной информации, духовным богатством и любовью к родине. Это далеко не пафосные слова. О том, насколько стремителен прорыв нашей молодежи в освоении наук, получении знаний, которые, безусловно, являются основной становления личности молодого человека, свидетельствуют многочисленные награды и признания достижений талантливой молодежи Узбекистана не только в республике, но и за рубежом.

Использованная литература

1. Ш. Мирзиёев. «Будущее будем строит с отважным и великим нашим народом. Т. «Узбекистан». 2017 год.

2. И.А. Каримов. «Без истории нет будущего «.- Т.»Узбекистан» 1998 г.

3. Т. Салимов Т. Всемирная история средневековья «Шарк» 2017 г.

4. А. Мухаммеджонов История Узбекистана средневековья «Шарк» 2017 г.

5. Кэрэн Л. Империя Амира Темура. –Т.: “Духовность”, 1999. –218-стр.

6. И. Муминов Роль Амира Темура в истории Средней Азии. –Т.: “Наука”, 1993. –40—41-стр.

HARBIY TA’LIMDA INNOVATSION O‘QITISH USULLARINI QO‘LLASH ASOSIDA BO‘LAJAK REZERV VA ZAXIRADAGI OFITSERLARNI MILLIY VA JANGOVAR RUHDA TARBIYALASH

Djuraev Rinat Ravshanovich
Mirzo Ulug‘bek nomidani O‘zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy ta’limda innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llash asosida bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash, harbiy pedagoglar tomonidan ta’lim jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi, mamlakatda safarbarlik e’lon qilinganda, qurolli kuchlarni harbiy holatdagi shtat bo‘yicha ofitserlar bilan to‘ldirishi va zamonaviy sharoitda harbiy ta’lim jarayonida innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llashning natijalari haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar: innovatsiya, texnologiya, bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlar, metodlar, ta’lim, tarbiya, milliy g‘urur, milliy ruh, jangovar ruh, harbiy vatanparvarlik, axloqiy-siyosiy madaniyat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы воспитания будущих офицеров запаса и запаса в национальном и боевом духе на основе применения инновационных методов обучения в военном образовании, применения военными педагогами различных активных методов и современных педагогических технологий инновационного характера в образовательном процессе, пополнения Вооруженных сил штатными офицерами на военном положении при объявлении мобилизации в стране и совершенствования инновационных методов обучения в военном образовании в современных условиях. речь идет о результатах применения.

Ключевые слова: инновации, технологии, будущие офицеры запаса и запаса, методы, образование, воспитание, национальная гордость, национальный дух, боевой дух, военный патриотизм, морально-политическая культура.

Annotation. This article examines the issues of educating future reserve and reserve officers in the national and fighting spirit based on the use of innovative teaching methods in military education, the use by military teachers of various active methods and modern pedagogical technologies of an innovative nature in the educational process, the replenishment of the Armed Forces with full-time officers in martial law when declaring mobilization in the country and improving innovative

teaching methods in military education in modern conditions. it's about the results of the application.

Base words: innovation, technology, future reserve and Reserve Officers, methods, education, upbringing, national pride, national spirit, fighting spirit, military patriotism, moral-political culture.

Ma’lumki, bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, “Xalq va armiya – bir tanu, bir jondir!” degan ezgu g‘oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas’ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g‘oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda [1].

Yurtimizda bugungi zamon talablariga javob beradigan, tezkor va harakatchan, tashkiliy jihatdan mukammal, zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan butlangan, professional milliy armiyani rivojlantirish, yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega, o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni so‘zsiz va aniq bajara oladigan, turli yot g‘oyalarlarga nisbatan immuniteti chuqur rivojlangan, dunyoqarashi keng, kreativ fikrlaydigan, or-nomusi yuqori, g‘ururli, harbiy vatanparvar, xalqparvar, fidoyi, vijdonli, tashabbuskor, halol va jonkuyar hamda muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qiladigan, milliy va jangovar ruhi matonatli, sadoqatli, halol, yuksak ma’naviyatli va faol hayotiy pozitsiyaga ega, barkamol shaxs – harbiy vatanparvar posponlarini tarbiyalash, Qurolli Kuchlarda amalga oshirilayotgan islohotlarning va harbiy-vatanparvarlik ishlarning asosiy maqsadidir. Bu maqsadlarga erishishda harbiy ta’limning innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llagan holda milliy va jangovar ruhda tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimiz “Taraqqiyot strategiyasi”da yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘ulari, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, hayotga e’tiqodi va dunyoqarashi mustahkam, zararli ta’sir va oqimlarga qarshi tura oladigan shaxs sifatida tarbiyalash” [2] vazifalari belgilab berilgan. Bunday vazifalarning belgilanishi bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash zaruratini yanada oshiradi.

Hozirgi kunda yuqori darajada kasbiy mahoratga ega bo‘lgan ofitser kadrlarni tayyorlash bo‘yicha tayyorgarlik tizimining turli ko‘rinishlari va strategiyasi mavjud bo‘lib, zamonaviy armiya, harbiy kadrlar ta’minot tizimining shartli elementlari

mutaxassislarning ma’lumoti va ilmiy darajasiga bog‘liq bo‘lib qoldi. Harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi har bir mamlakatning o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, turli xil ko‘rinishda amalga oshirilib, dunyoda yuzaga kelayotgan harbiy siyosiy vaziyatga qarab takomillashtirilib borilmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning [6] Vatan himoyachilari kuni arafasida Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida so‘zlagan nutqi ilm-ma’rifat ahlini nihoyatda to‘lqinlantirib yubordi. Prezidentimizning yig‘ilishdagi: “Mustabid tuzum davrida tiz cho‘kib, yerga qarab yashadik” [6], degan haqqoniy so‘zlari barcha vatandoshlarimizning qalbini, ruhini ifoda etdi. Menga muhtaram Prezidentimizning bir gaplari juda kuchli ta’sir qildi. Muhtaram Prezidentimiz harbiy okruglar o‘rtasida uch bosqichdan iborat musobaqalar o‘tkazish, g‘oliblarga muqaddas Vatan, kuch-qudrat timsoli bo‘lgan Sohibqiron Amir Temurning jangovar bayrog‘ini Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni sifatida shaxsan o‘zi topshirishini ma’lum qildi. Bu so‘zlar minbardan yangraaytilganda esa bir necha yillar davomida bizning qalbimizni, nafaqat bizning, balki ko‘plab buyuk bobolarimizning, ajdodlarimizning qalbini ezgan “Biz nega bunchalar zaif bo‘ldik?” degan savolga javob topgandek bo‘ldim. Shu jumladan, biz o‘zgalarga qaram bo‘lgan yillarda Amir Temur ruhidan, Amir Temur shijoatidan, boy tariximizdan uzoqlashdik. Bugun muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich ana shu buyuk kuch-qudratni yana fuqorolarimiz qalbiga qaytarmoqda.

Shuning uchun ham bugungi kunda dunyo shiddat bilan o‘zgarayotgan, mintaqalar va davlatlar o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy kurashlar tobora keskinlashayotgan bir sharoitda Respublikamizda rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash hozirgi kunda eng dolzarb muamolardan biri hisoblanadi. Shunday ekan mazkur masalani barcha rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyoti o‘rganilishi zarur, shuningdek, ular tomonidan so‘nggi yillar davomida erishilgan natijalar, hamda dunyoda yuzaga kelayotgan harbiy siyosiy vaziyatni inobatga olgan holda, rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimini rivojlantirishda innovatsion yondashuv asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan sifatli foydalangan holda harbiy ta’lim sifatini takomillashtirish aktual muammo sifatida qarashni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim va fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh negizida yosh-avlodni ya’ni vatanparvar avlod qilib tarbiyalash eng birinchi masala sifatida qaralmoqda. Ma’lumki, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida [3] yangi avlod kadrlarida diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik, ma’naviy barkamol, ma’naviy-ruhiy va intellektual, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy pozitsiyaga ega, demokratik islohotlarni chuqur anglagan va fuqarolik jamiyatini qurishda, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash kabi ustivor vazifalar etib belgilandi. Natijada,

bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari kengaytirildi [3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar natijasida jamiyatda ijtimoiy hayot globallashayotgan dunyoda, har qanday ahborot va xurujlar shiddat bilan o‘zgarayotgan bir davrda yoshlarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasi muhim o‘rin tutadi. Bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhida tarbiyalashga ta’sir etuvchi omillarning tayyorgarligi bo‘yicha o‘quv-tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan vazifalar innovatsion o‘qitish usullaridan to‘liq foydalangan holda o‘tiladigan mashg‘ulotlar jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlik faoliyatilarini rivojlantirgan holda tashkil etib borish samarali hisoblanadi. Mamlakatda safarbarlik e’lon qilinganda, qurolli kuchlarni harbiy holatdagi shtat bo‘yicha ofitserlar bilan to‘ldirish uchun barcha qurolli kuchlar tizimida rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlab borish yo‘lga qo‘yilgan.

Rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashning bir necha ko‘rinishlari mavjud bo‘lib bularning: birinchisi, haqiqiy harbiy xizmatdagi ofitserlarning zaxiraga bo‘shatilishi uchun qonunda belgilangan yoshga etib bormasdan muddatdan oldin, haqiqiy harbiy xizmatdan zaxiraga bo‘shatilishi; ikkinchisi, fuqarolarning harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi qonunga ko‘ra, harbiy xizmatga chaqirilib, qonunda belgilangan muddat davomida xizmat vazifasini o‘tayotgan muddatli harbiy xizmatchilarning qisqartirilgan maxsus dastur orqali o‘qitilib ofitser unvoni bilan zaxiraga bo‘shatilishi; uchinchisi, ta’lim muassasalari talabalari tarkibidan harbiy tayyorgarlik bo‘yicha o‘quv dasturi asosida tayyorgarlikdan o‘tishi natijasida zaxiradagi ofitser unvonining berilishi.

Ma’lumki, oxirgi yillarda bizning mamlakat innovatsion rivojlanish yo‘lini tanladi. Mamlakatni innovatsion yul bilan rivojlanishi eskilikning qarshiligini engilishi bilan bog‘liq. Bu jarayon jamiyatning evolyusiyasi, insonning kognitiv imkoniyatlarining evolyusiyasi, inson intellektining evolyusiyasini namoyon etishidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezdenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan murojaatlarida [4] “Ta’lim sifatini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona yo‘lidir” deb ta’kidladilar. Bu esa, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda hamda ularning ichki dunyosi va axloqiy majburiyatini oshirishda alohida o‘rin egallaydi.

Mamlakat tinchligi va rivojining buguni, kelajagi bo‘lgan bo‘lajak zaxiradagi ofitserlar jahonda ro‘y berayotgan vaziyatlarga o‘z shaxsiy prozitsiyasininng bo‘lishi, o‘z mamlakati kelajagi uchun qayg‘urishida ularda milliy va jangovar ruhni yanada rivojlantirish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil ravishda nostandart qarorlar qabul qilish malakalarini oshirish uchun ham harbiy ta’lim berish

jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan va zamonaviy innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llagan holda vatan himoyachilarining onggi singidiri borish talab etiladi.

Zamonaviy sharoitda kursantlarning o‘quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, innovatsion o‘qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta’lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol ta’lim, modulkredit tizimi, masofali o‘qitish, aralash o‘qitish va mahorat darslari ta’limning innovatsion shakllari sifatida e’tirof etilmoqda.

2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2022-2023 yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. [5] Ushbu “Yo‘l xaritasi”da ta’limning barcha bosqichlarida yaratuvchanlik, innovatsion tadbirkorlik va ratsionalizatorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatni boshqarishda inson kapitalini yanada rivojlantirish bo‘yicha ham ko‘pgina vazifalar belgilab o‘tildi.[5]

Ta’lim berishda jahon tajribasini o‘rganib, ularning ilg‘or sifatlarini mamlakatimiz harbiy ta’lim tizimiga moslashtirib tatbiq etish, yangicha omilkor innovatsiyalardan foydalanishga O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari (harbiy ta’lim fakultetlari, harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi, sikllar va kurslar) ham jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Harbiy pedagoglar tomonidan ta’lim jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi kursantlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash, ularning jangovarlik qobiliyatlarini yanada o‘stirishga xizmat qiladi.

Xususan:

muammoli izlanish;

kichik tadqiqotlarni olib borish;

debat;

bahs-munozara;

evristik suhbat;

kichik guruhlarda ishlash va boshqalardir.

Mashg‘ulotlarini tashkil etishda harbiy pedagoglar o‘quv ma’lumotlarining kursantlarning bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqtira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratishlari zarur.

*Ta’lim jarayonida pedagoglar tomonidan:*turli shakl, metod, vosita va innovatsion o‘qitish texnologiyalaridan samarali, maqsadli foydalanish; o‘quv topshiriqlarini bajarishda kursantlarga interfaol usullarni mustaqil tanlash imkonini berish; kursantni juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta’minlash; harbiy

tayyorgarlik mashg‘ulotlarining loyihalashtirilishiga e’tiborning qaratilishi, nafaqat innovatsion o‘qitish sifatini yaxshilaydi, shuningdek, uning samaradorligini ham oshiradi.

Eng muhimi harbiy pedagoglar harbiy tayyorgarlik o‘quv mashg‘ulotlarining nafaqat axborot berish, balki rivojlantirish xarakteriga ega bo‘lishlariga e’tiborni qaratishlari zarur.

Shuningdek, muhokama qilinayotgan masala, muammo, o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan kursantlarning mustaqil fikr bildirishlari (noto‘g‘ri bo‘lsa-da, fikr bilirishlari)ga imkon berish, nima bo‘lganda ham ularni o‘ylashga, fikrlashga undash shaxsga yo‘natirilgan ta’limga xos muhim belgilardan biri sanaladi.

Ta’lim jarayonida quyidagilardan foydalanish shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning yana bir belgisidir: ijodiy topshiriqlar; kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar; muammoli vaziyatlar; rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari; bahs-munozara, debat; musobaqa ko‘rinishidagi bellashuvlar.

Yuqorida keltirilgan fikrlar tahlili asosida quyidagicha xulosa qilish mumkin: Zamonaviy pedagogik texnologiya o‘zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog‘liq xususiy nazariyasiga ega; u birinchi galda o‘quv-tarbiyaviy jarayonini ilmiy asosda qurishga yo‘naltirilgan, o‘qitishning axborotli vositalaridan va didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o‘qituvchi va kursantlarning birgalikdagi hamkorligi asosida innovatsion texnologiyalar ta’lim oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartidir.

Innovatsion texnologiyalar - ta’limga yangi tartib-qoidalarni kiritish uchun eng muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Biroq ularni qanday qilib tatbiq etish va amalda foydalanishni bilib olish, aslida, hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Buning uchun maxsus tayyorgarlik, katta kuch va ko‘p vaqt sarflash lozim, ya’ni ta’limda innovatsion jarayonlarning tatbiq qilinishi bilan harbiy pedagogning roli pasaymaydi, balki o‘quv-tarbiya jarayonining yuksak bosqichlarida yana ham ortadi. Bu esa harbiy pedagogdan o‘z ilmini yangidan va tanqidiy tahlil etishni talab etadi.

Ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kiritish va ularni qo‘llashda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llagan holda ishlamoqchi bo‘lgan harbiy pedagoglarni mashg‘ulot mavzulari bo‘yicha interfaol metodlar asosida ishlab chiqilgan ssenariylar bo‘lishi, unda harbiy bilimlarning shakllanishi uchun vaqt o‘rnini belgilash, kursantlarda motivatsiyani o‘yg‘otish uchun da’vat qismining bo‘lishi, loyihalanayotgan matnni bo‘laklarga bo‘lish asnosida innovatsion metodlarni qo‘llash yoki loyihalash hamda ko‘rgazmalilikning ko‘rsatilishi lozim; zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlovchi harbiy

pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion o‘qitish usullarini va pedagogik texnologiya loyihasini mashg‘ulotlar jarayonida sinash, maqsadning natijalanganlik darajasini tahlil etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ishlashning afzalliklarini innovator harbiy pedagoglarni kafedra yig‘ilishida, ilmiy-uslubiy seminarlarda, harbiy muassasa ilmiy kengashlarida chiqishlarini tashkillashtirib, harbiy pedagogik jamoa tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlash.

Shunday qilib, bugungi tezkor davr kursantlarni ham qisqa muddatda va asosli ma’lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli harbiy ta’lim fan asoslarini puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy sharoitda harbiy ta’lim jarayonida innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llashning barcha imkoniyatlariga ko‘ra vatanparvar insonni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda.

O‘zida ana shunday imkoniyatlarni namoyon eta olgan harbiy ta’limni Vatan himoyachisiga yo‘naltirilgan harbiy ta’lim deb nomlasa xato bo‘lmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bu turdagi harbiy ta’lim kursantlarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, ijodiy, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga, davlat va jamiyat rivoji, uning kelajagi uchun har qanday vaziyatda oldiga qo‘yilgan jangovar vazifani og‘ishmay bajaradigan, mafkuraviy immuniteti mustahkam, yuksak milliy va jangovar ruhda tarbiyalangan bo‘lajak zaxiradagi ofitserlar kamol topishi uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi 267-sonli “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori: https://lex.uz/docs/-3645849

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning “Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni: https://lex.uz/uz/docs/-5841063

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning “Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni: https://lex.uz/uz/docs/-5841063

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrdagi 272-sonli Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi PQ-307 sonli “2022-2026 yillarda o‘zbekiston respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori https://lex.uz/docs/6102466

6. https://yuz.uz/news/milliy-ruh-milliy-yuksalish-manbai

БЕЛАРУСЬ РЕСПУБЛИКАСИДА ЗАХИРАДАГИ ОФИЦЕРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШГА ЯНГИЧА ҚАРАШ

Валижанов Ҳасанбой Акбаралиевич
Ўзбекистон миллий университети
Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази ўқитувчи

Аннотация: Мақолада Беларусь республикасида заҳирадаги офицерларнинг сафарбарлик резервини тайёрлашнинг муаммоли масалалари ва уларни ҳал қилиш йўллари кўрсатилган.

Калит сўзлар: сафарбарлик резерви, ҳарбий тайёргарлик, ҳарбий таълим, заҳирадаги офицерлар, ҳарбий факультетлар.

Қуролли Кучларнинг янги сифат кўринишига ўтиш даврида заҳирадаги офицерларнинг сафарбарлик резервини тайёрлаш жараёнида, унинг миқдорий ва сифат жиҳатлари ҳақида савол туғилиши табиий. Кўпгина хорижий давлатлар бу масалага катта эътибор қаратилиб келмоқда.

Сацута С.А. томонидан олиб борилган хорижий давлатлар ва Россия тажрибасини таҳлил қилиш ва ўрганишлар шуни кўрсатдики, НАТО мамлакатлари мунтазам кучлар сонидан анча кўп бўлган сафарбарлик захираларини яратишга устувор аҳамият беришмоқда, уларда ҳатто минтақавий ҳарбий тўқнашувлар (маҳаллий урушлар) бўлса ҳам, захираларнинг мавжудлиги қуролли кучлар сонини кўпайтиришга имкон беради. Бу кўрсатличлар АҚШда 2,2 мартадан Францияда 4,4 гача ташкил этади. Россияда тарихан сафарбарлик захираси мавжуд мунтазам армиядан 3 баравар кўп бўлган [1].

Ҳарбий тайёргарликдан ўтган ресурсларни тайёрлаш ва уларни Қуролли Кучлар захираларига тўплаш ҳарбий бошқарув органлари тизими, ҳарбий факультетлар ва олий ва ўрта махсус таълим олишни таъминлайдиган фуқаролик институтларининг кафедралари томонидан амалга ошириладиган тадбирлар мажмуини, ва Қуролли Кучларни тўғридан-тўғри лавозимдаги мутахассислар билан тўлиқ таъминлаш мақсадида ҳарбий комиссарликларни ҳарбий тайёргарликдан ўтган захираларнинг белгиланган ҳажмларини белгилаш ва бутлаш ишларини ўз ичига олади.

Шу билан бирга, алоҳида ҳарбий ҳисоб мутахассислари учун захирага тўпланган заҳирадаги офицерлар ресурсининг сифати пасайиб, сони ортиб бораётганини айтишимиз мумкин. Бу ҳарбий қисмларда ҳарбий қисм командири (штаб бошлиқлари) томонидан тасдиқланган ҳарбий давр штати бўйича сафарбарликка мўлжалланган ҳарбий лавозимларга ўқув йиғиндиларида ҳарбий (махсус) тайёргарликдан ўтган шахсий таркибни тайинлаш билан содир бўлади. Агар мисол учун иқтисод мутахассисликларини олсак, бундай мутахассисликлар бўйича йиғинлар ўтказилмайди, лавозимларга эса ҳарбий кафедраларда тахсил олмаган, фақат олий таълим муассасаларида шу мутахассисликка яқин бўлган мутахассисликни тугатганлар таркибидан тайинланадилар. Ҳарбий қисмларни

молия таъминотини (молиявий ҳисоб, пул таъминоти) ташкиллаштириш ташкилотларнинг молия таъминотидан фарқ қилишини ҳисобга олсак, унда ушбу мутахассислар ўзининг мўлжалланиши бўйича мажбуриятларини сифатли бажара олмайдилар. Бу ҳолат ҳарбий факультетда заҳирадаги офицерларни тайёрлаш бўйича буюртмани пасайишига ва шунга мос равишда кафедра профессор-ўқитувчилари таркибининг тайёргарлигини сифат жиҳатидан пасайишига олиб келади.

Муайян мутахассисликлар бўйича захирадаги офицерларни тайёрлашга янгича қараш керак, деб ҳисоблаймиз. Украина, Россия, Қозоғистоннинг хорижий тажрибаси ҳамда олимларнинг бу борадаги ишларини таҳлил қилиб, қуйидаги тадбирларни таклиф этамиз.

Беларус Республикаси Таълим кодексининг XIV бўлимига ("Катталар учун қўшимча таълим") мувофиқ, фуқаролик олий ўқув юртларининг ҳарбий факультетларида (кафедраларида) заҳирадаги офицерларни (кичик командирларни) алоҳида лавозимларни эгаллаш учун зарур бўлган махсус тайёргарликнинг таълим дастури бўйича, яъни ҳарбий рўйхатга олиш мутахассислиги тайёрлашни амалга оширишни ташкил этиш керак.

Муайян лавозимларни эгаллаш учун зарур бўлган махсус тайёргарликнинг таълим дастури қонун ҳужжатларида махсус тайёргарлик кўриш назарда тутилган лавозимларга даъвогарлар томонидан билимларни чуқурлаштириш ва амалий касбий кўникмаларни эгаллашга қаратилган таълим дастуридир [2].

Ушбу турдаги таълим муддати 2 йилгача. Таълим кодексининг 246-моддаси бошқа ташкилотларга тегишли бўлган зарур лавозимларни эгаллаш учун махсус тайёргарликнинг ўқув дастурларини амалга ошириш учун таълимни амалга ошириш ҳуқуқини беради, бизнинг ҳолатда ҳарбий факультетларга (кафедраларга).

Алоҳида лавозимларни эгаллаш учун зарур бўлган махсус тайёргарликнинг таълим дастурининг ўқув-дастурий ҳужжатлари рўйхати ва уларни ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш тартиби махсус тайёргарликни ўташни назарда тутувчи қонун ҳужжатлари билан белгиланади [2].

Ўқишни тугатгандан сўнг, талабаларга индивидуал лавозимларни эгаллаш учун зарур бўлган махсус тайёргарликнинг таълим дастурининг мазмунини ўзлаштирганлигини тасдиқловчи ҳужжатни белгиланган шаклдаги ўқув сертификати шаклида бериш керак, улар уни тақдим этишлари мумкин. университетда ўқишни тугатгандан сўнг ҳарбий унвон ("заҳирадаги лейтенант") бериш учун ҳарбий комиссарликларга.

Ўқишни тугатгандан сўнг талабаларга алоҳида лавозимларни эгаллашлари учун махсус тайёргарлик ўқув дастурини ўзлаштирганлигини тасдиқловчи белгиланган намунадаги маълумотномани ҳужжатни бериш керак, буни улар ҳарбий унвон (“заҳирадаги лейтенант”) бериш учун ҳарбий комиссариатларга тақдим этадилар.

Талабалар таркибидан сифатли танлов ўтказиш мақсадида қонунан олий таълим муассасалари талбаларига нафақат давлат ОТМлари, ҳарбий

кафедраси мавжуд бўлмаган ОТМлар талабаларига ҳам ҳарбий кафедраси мавжуд ОТМларда II даражали дастур бўйича таълим олишга рухсат этиш керак, агар талабанинг фуқаролик мутахассислиги ҳарбий кафедрада олётган ҳарбий-ҳисоб мутахассислигига тўғри келса. В.С. Добровольскийни фикрича ушбу талаб талабаларни ўқитиш ва тарбиялаш сифатини ва самарадорлигини оширишга ёрдам беради ва қуйидаги имкониятларни таъминлайди: рақобатбардош танлов сифатини ошириш; бир нечта ОТМларнинг саъй-ҳаракатлари ва ресурсларини бирлаштириш натижасида ҳарбий кафедрани молиялаштириш ва бошқа турдаги таъминотни сезиларли даражада ошириш; ҳарбий-касбий тайёргарлик ва ҳарбий-ватанпарварлик тарбияси билан турли олий ўқув юртлари талабаларининг катта қисмини қамраб олади [3].

Украинадаги заҳирадаги офицераларни тайёрлаш тажрибасини ижобий деб ҳисоблаш мумкин. 2001/2002 ўқув йилида

2001/2002 ўқув йилида Харков ҳарбий университети ва Харков Ҳарбий Ҳаво Кучлари институтида жисмоний ва юридик шахслар ҳисобидан Украина олий ўқув юртлари талабалари орасидан захирадаги офицерларни тайёрлаш учун бўлинмалар ташкил этилди. Харков Ҳаво Кучлари университети ташкил этилганда, ушбу бўлинмалар шартнома асосида захирадаги офицерларни тайёрлаш факультетига бирлаштирилди.

Факультет мавжуд бўлган даврда Украина олий ўқув юртларининг 10 000 дан ортиқ талабалари шартнома асосида захирадаги офицерлар дастури бўйича ҳарбий тайёргарликдан ўтган. Ўқиш муддати: 2 йил. 2013-йилда олий ўқув юртларидан турли профилдаги 35 ҳарбий мутахассислик бўйича лицензияланган 2000 кишилик талабалар қабул қилинди.

Талабалар Иван Козҳедуб номидаги Харков Ҳаво Кучлари университетида жисмоний ёки юридик шахслардан олий таълим соҳасидаги хизматлар учун тўловдан олинган маблағлар ҳисобидан ҳарбий тайёргарликдан ўтадилар. 2013 йилда Иван Кожедуб номидаги Харков Ҳаво Кучлари университетида захирадаги офицерларни тайёрлаш дастури бўйича талабалар учун ҳарбий тайёргарлик хизматлари нархи (икки йиллик ўқиш учун) 11200 гривен даражасида қолди. Умумий ўқитиш тартиби Беларус Республикасида қўлланиладиган тартибга ўхшаш.

Ҳарбий тайёргарлик ўқув дастурини тўлиқ ўтаган, битирув имтихоналарини топширган, Ҳарбий қасамёд қабул қилган ва офицерлар таркибига аттестациядан ўтган, олий билим юртини бакалавр даражасидан паст бўлмаган олий таълим олгандан сўнг Украина Мудофаа вазири буйруғига асосан кичик лейтенант унвони берилади.

Ҳозирги вақтда заҳирадаги офицерлар дастури бўйича ўқишни истаётган аёл талабалар кўпаймоқда. 2014 йилгача Божҳона қўмитаси мурожаати бўйича мудофаа вазири қарори билан қизларни тайёрлаш 310101 ҲҲМ “Жанговар ва хўжалик фаолиятини молиявий ва иқтисодиёт таъминоти” бўйича амалга оширилди. Қизларни ҳарбий қисмларга рўйхатга қўшиш имконияти йўқлиги муносабати билан 2013 йилда уларни тайёрлашни мақсадга муофиқ эмаслиги бўйича қарор қабул қилинди. Ўйлаймизки, ҳарбий тайёргарликни шартнома

асосида ўқитишга ўтказиш таълим хизматларига, жумладан, қизлар ва манфаатдор идоралар талабини қондириш, шунингдек, кичик гуруҳларда ўқитишнинг иқтисодий мақсадга мувофиқлиги муаммосини ҳал этиш имконини беради.

Шундай қилиб тақдим этилган таклифларни бажарилиши, қуйдагиларни имконини беради:

1. Таълим кодекси ва алоҳида ҳуқуқий ҳужжатлардаги номувофиқликларни бартараф этиш.
2. Заҳирадаги офицерлар сафарбарлик резерви таркибини сифатини ошириш.
3. Ҳарбий факультетларнинг (кафедраларнинг) тўпланган салоҳиятини сақлаб қолиш.
4. Пуллик таълим хизматлари ҳажмини ошириш.
5. Таълим шакллари ва турларини танлашда фуқароларнинг эркинликларини тўлиқроқ амалга ошириш.

Адабиётлар

1. Сацута С. А. История и современное состояние подготовки офицеров запаса в гражданских вузах России // Армия и общество 2009. .N22. [Электронный ресурс]. Режим доступа: http ://cyb erl eninka. ru/arti cl e/n/istoriya-i-sovremennoe-sostoyanie-podgotovki ofltserov-zapasa-v-grazhdanskih-vuzah-rossii — Дата доступа : 15.10.2012. : 16.02.2014).

2. Кодекс Республики Беларусь от 13.01.2011 N 243-З (ред. от 26.05.2012) «Кодекс Республики Беларусь об образовании» [Электронный ресурс] [КонсультантПлюс] Дата доступа : 15.10.2012. : 16.02 2014).

3. Добровольский В.С. Подготовка офицеров запаса в гражданских вузах // Высшее образование в России. 2003. МЗ. . — С. 66—67.

HOZIRGI VAQTDA HARBIY KADRLARNI TAYYORLASHDA RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI

Azimov Mirodil Abdixalimovich
O‘R QK Akademiyasi kafedra katta o‘qituvchisi, polkovnik
Matmusayev Xusniddin Xursandjonovich
O‘R QK Akademiyasi HX va DM fakulteti tinglovchisi, podpolkovnik

Annotatsiya: Ushbu tezisda Kanada, Germaniya, Hindiston va Yaponiya davlatlarining armiyalari misolida harbiy kadrlarni tayyorlash, shuningdek qo‘shinlar tayyorgarligini takomillashtirishning dolzarb masalalari bayon etilgan.

Kalit so’zlar: modernizatsiya, ta‘lim, “ishonchlilik”, universitet, trening, yosh.

Аннотация: В данной диссертации на примере армий государств Канада, Германия, Индия и Япония изложены актуальные вопросы подготовки военных кадров, а также совершенствования подготовки войск.

Ключевые слова: модернизация, образование, “надежность”, вуз, обучение, возраст.

Abstract: in this thesis, on the example of the armies of the states of Canada, Germany, India and Japan, topical issues of training military personnel, as well as improving the training of troops are described.

Key words: modernization, education, “reliability”, university, training, age.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha muhtaram prezident, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M.Mirziyoyev harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi masalalariga katta e’tibor qaratdi. Mahalliy harbiy ta’lim muassasalari yuqori malakali harbiy mutaxassislarni tayyorlashni ta’minlovchi ta’limning barcha darajalari va bosqichlarini ifodalaydi. Bugungi kunda milliy kadrlar tayyorlash tizimi, uning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari muttasil takomillashtirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi yangi ta’lim standartlarini ishlab chiqib, mavjud o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqdi, ularda shaxsiy tarkib bilan ishlashga amaliy e’tibor sezilarli darajada oshirildi. Harbiy kadrlarni tanlash va tayyorlash tizimida barcha yo‘nalish va bosqichlarda keng ko‘lamli va maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy qurolli to‘qnashuvlar sharoitida barqaror va uzluksiz boshqaruvni ta’minlash uchun yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikka, individual shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga ega bo‘lgan ofitserlar zarur. Shu bilan birga, “Xorijiy tajribani hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy qo‘mondonlik va nazorat organlari mansabdor shaxslarining tayyorgarlik darajasini baholash metodikasi”ni takomillashtirish zarur. Shu munosabat bilan ayrim xorijiy davlatlarning ofitser kadrlarining harbiy tayyorgarligi xususiyatlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq [1].

Kanada Qurolli Kuchlarining barcha bo‘linmalari uchun ofitserlar birinchi navbatda Kanada kuchlari qo‘mondonlik va yollash maktabida va alohida,

Ontariyodagi Qirollik harbiy kollejida tayyorlanadi. O‘qishdan so‘ng ular o‘z mutaxassisligi bo‘yicha harbiy xizmatga mamlakat bo‘ylab taqsimlanadi. Kanada Qurolli Kuchlari o‘zining qutqaruv va qidiruv bo‘linmalari va mexanizatsiyalashgan piyoda qo‘shinlarining professionalligi, shuningdek, BMT tinchlikparvar missiyalariga qo‘shgan hissasi bilan mashhur. Kanada hukumati 2010-yillarda Ta’limga yordam dasturini (MTAP) tuzgan. Shunday qilib, MTAP dasturining yo‘nalishlarida Markaziy va Janubiy Amerika, Karib dengizi, Tinch okeani, Afrika va Yaqin Sharq mintaqalaridagi rivojlangan mamlakatlar uchun dasturlar to‘plami ishlab chiqilgan. Harbiy ta’limga ko‘maklashish dasturi tinchlikparvar operatsiyalarda zarur ofitser va mutaxassislarni tayyorlashda alohida o‘rin tutadi. Xususan, dastur asosini harbiy kasbiy tayyorgarlik va xorijliklarning til o‘rgatish tashkil etadi. Har yili Kanadadagi 82 ta harbiy maktabda 700 ga yaqin tinchlikparvarlar ushbu tayyorgarlikdan o‘tadilar. Tillarni o‘qitish Sen-Jan va Borden harbiy bazalaridagi chet tillari markazida, ingliz tili o‘qituvchilarining uslubiy tayyorgarligi Ottavadagi (Kanada) chet tillari maktabida olib boriladi. Harbiy xizmatchilarni tinchlikparvarlik missiyalariga harbiy tayyorgarlik L.Pirson nomidagi tinchlikparvar kuchlar maktabida, kuzatuvchilar – BMT tinchlikparvar missiyalari ofitserlari esa Kingston harbiy bazasidagi o‘quv markazida olib boriladi. Ayniqsa, tinchlikparvarlik va harbiy xizmatchilarning tillarini o‘qitish uchun harbiy ta‘limga ko‘maklashish dasturi xorijiy davlatlarning maxsus vakillarining qisqa muddatli kurslarda ishtirok etishini ta‘minlaydi.

Bundesver (Germaniya) harbiy qo‘mondonligi zobitlar tayyorlashga ustuvor ahamiyat beradi. Ofitserlikka nomzod 17 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan, to‘liq bo‘lmagan va to‘liq o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan, tibbiy ko‘rikdan, “ishonchlilik” testidan va harbiy xizmatga kasbiy yaroqlilik testlaridan o‘tgan Germaniya fuqarosi bo‘lishi mumkin. Ofitserlikka nomzodlar Bundesver a‘zolari va fuqarolik yoshlari orasidan tanlanadi. Ofitserlarning harbiy kasbiy ta‘limi Bundesver universitetlarida amalga oshiriladi. Talabalar soni Bundesver bo‘linmalarining ehtiyojlari bilan aniq belgilanadi. O‘quv jarayoni fan, texnika va qurol-yarog‘ sohasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq. Trening davomida talabalar nazariy, pedagogik ko‘nikmalarga ega bo‘lib, harbiy xizmatni o‘tash uchun zarur bo‘lgan maxsus bilimlarga ega bo‘ladilar. Universitetlarda o‘qish kichik miqdordagi guruhlarda amalga oshiriladi, bu professor-o‘qituvchilar tarkibiga har bir talabani tayyorlashga ko‘proq e‘tibor berish imkonini beradi. Bundesver talabalari va kursantlari ko‘plab gumanitar fanlarni o‘rganadilar: xavfsizlik asoslari, iqtisodiyot va jamiyat, harbiy huquq, sotsiologiya, davlat va xalqaro huquq, harbiy geografiya, siyosatshunoslik, xristian etikasi, boshqaruv nazariyasi, falsafa, pedagogika va psixologiya, tarixi, shaxs shakllanishi nazariyasi, jamiyat taraqqiyoti nazariyasi, iqtisodiyot, adabiyot va san‘at, chet tillari va boshqalar. Ikki yo‘nalishdan biriga - texnik yoki gumanitar yo‘nalishga taalluqli bo‘lajak mutaxassislikka qarab, umumiy o‘quv vaqtining 25% dan 50% gacha ushbu fanlarni o‘rganishga ajratiladi. Qo‘mondonlik va undan yuqori malakali ofitserlarning oliy harbiy kasbiy ta‘limi Bundesver Harbiy Akademiyasida amalga oshiriladi.

Bu Qurolli Kuchlar bo‘linmalari shtab-ofitserlarini tayyorlashdagi farqlar muammosini hal qilish va ularni o‘rganish imkonini berdi. Har bir kursda xodimlarni tayyorlash quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olgan o‘ziga xos xususiyatlarni o‘z ichiga oladi:

1) tayyorgarlikning birinchi bosqichi - Bundesver shtab-kvartirasida xizmat qilish uchun ofitserlar uchun boshlang‘ich tayyorgarlik kursi, maxsus tayyorgarlik va malaka oshirish kursi; asosiy kurs (kurs davomiyligi 3,5 oy). Qurolli Kuchlar turidan qat‘iy nazar, yagona dastur bo‘yicha barcha talabalar tomonidan o‘tiladi; kurs davlatning harbiy xavfsizligini, umumiy tashkil etish va boshqaruv tizimini, shuningdek, falsafiy tayyorgarlikni o‘rganishni ta‘minlaydi, o‘qishni tugatgandan so‘ng 1- si og‘zaki va 3-si yozma imtihon topshiriladi;

2) o‘qitishning ikkinchi bosqichi - shtab-kvartirada xizmat ko‘rsatish kurslari asosiy tayyorgarlik kursini tugatgandan so‘ng kurslarga yuboriladi;

divizion shtab-kvartirasining tavsiyasiga binoan ularni Germaniya Mudofaa vazirligi ofitserlar boshqarmasi tomonidan tanlaydi; katta ofitserlarni o‘qitish ularning maqsadini hisobga olgan holda amalga oshiriladi;

3) o‘qitishning uchinchi bosqichi - maxsus tayyorgarlik va malaka oshirish kurslari (o‘quv muddati 10 haftagacha), kurslar katta ofitserlar, generallar va admirallarni, shuningdek, fuqarolik xodimlarini NATO shtabkvartirasida xizmat qilish uchun tayinlanishidan oldin tayyorlaydi. Har yili Bundesver akademiyasining barcha kurslarida 2 minggacha Bundesver zobitlari va boshqa davlatlar bilan harbiy hamkorlik doirasida qabul qilingan bir guruh chet ellik harbiy xizmatchilar yoki tinch aholi vakillari qatnashishi mumkin.

Tinchlik davrida Hindiston Qurolli Kuchlari diniy mansubligidan qat‘iy nazar, fuqarolar orasidan ko‘ngillilarni jalb qilish yo‘li bilan qo‘shinlarni tashkil etish tartibi va xizmat shakllarini takomillashtirmoqda. Qurolli Kuchlarning tegishli bo‘linmalarining ofitser kadrlarini tayyorlash harbiy kasbiy ta‘limning umume‘tirof etilgan darajasini amalga oshirishga asoslanadi: umumiy ta‘lim va boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik; Qurolli Kuchlarning barcha bo‘linmalari uchun kollejlar va maktablarda harbiy tayyorgarlik, bazaviy kurslarda qayta tayyorlash va harbiy bilimlarni oshirish, shu jumladan, xorijiy harbiy ta‘lim muassasalarida malaka oshirish kurslarida o‘qitish. Ariza beruvchilarni tanlash va Hindiston Qurolli Kuchlarining harbiy ta‘lim muassasalarini to‘ldirish bolalar harbiy ta‘lim muassasalari bitiruvchilari, Hindiston kadetlar korpusi, fuqarolik universitetlari va kollejlari bitiruvchilari va talabalari, shuningdek, ofitserlik xizmatiga biriktirilgan ko‘p sonli askarlar va dengizchilar orqali amalga oshiriladi. Armiya kursantlari 3 yil davomida Milliy harbiy akademiyaning armiya filialida (Xadakvasla) yoki Armiya kollejida (Pune) umumiy Ta‘lim va boshlang‘ich harbiy tayyorgarlikdan o‘tadilar. O‘qishni tugatgandan so‘ng kursantlar Hindiston Harbiy akademiyasiga (Dehra Dun)

1-1,5 yillik o‘qish muddatiga keyingi o‘qishga yuboriladi, shundan so‘ng ularga ofitser unvonlari beriladi. Rota komandiri lavozimlaridan bo‘linma komandirigacha bo‘lgan kapitan va undan yuqori unvonga ega bo‘lgan, ijobiy tavsiya va attestatsiyaga ega bo‘lgan hamda kirish imtihonlarini topshirgan tengdoshlari

Qurolli Kuchlarning barcha bo‘linmalari bo‘yicha kollej va maktablarda malaka oshirmoqda. Ofitserlar korpusi **2 turga** bo‘linadi: **kadrlar** va **kadr bo‘lmagan** ofitserlar xizmati. Ofitserlar korpusi Hindistondagi harbiy ta‘lim muassasalari bitiruvchilaridan tashkil topgan. Kadrdan tashqari ofitserlar korpusi asosan oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan va Qurolli Kuchlar safida xizmat qilish istagini ko‘rsatgan fuqarolardan yig‘ilgan. Tibbiy va texnik ma‘lumotga ega bo‘lgan shaxslarga alohida e’tibor beriladi.

Yaponiya Qurolli Kuchlari ofitserlarini tayyorlash tizimi boshlang‘ich tayyorgarlikdan o‘tishni, ofitserlarni qo‘mondonlik va oliy qo‘mondonlik tarkibiga tayyorlashni, shuningdek, harbiy xizmatchilarning kundalik mashg‘ulotlari davomida olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni oshirishni o‘z ichiga oladi. Ofitserlarning dastlabki tayyorgarligi oliy harbiy oliy o‘quv yurtlari va harbiy tibbiyot kollejlarida, shuningdek, harbiylarning turli bo‘linmalarining ofitserlar maktablarida amalga oshiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, harbiy ofitserlarni tayyorlash bo‘yicha xorijiy tajribani tanlab qiyosiy tahlil qilish natijalari ushbu sohadagi mavjud muammolarni hal qilishning yangi yondashuvlari va usullarini aniqlash, bunday tayyorgarlikda xorijiy tajribadan zarur ma’lumotlarni olish va mumkin bo‘lgan xatolardan xalos bo‘lish imkonini beradi. Harbiy kasb-hunar ta’limi tizimini rivojlantirish samaradorligini oshirish. Yetakchi xorijiy mamlakatlarda harbiy kasb-hunar ta’limining zamonaviy tizimini rivojlantirishning asosiy tendentsiyalari quyidagilardan iborat:

ofitserlarning harbiy kasbiy ta’limini tashkil etishga tizimli yondashish;

harbiy xizmatchilarning ta’lim va malakasini oshirishning uzluksizligini ta’minlash;

harbiy tayyorgarlikda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish;

ta’lim jarayoninig tadqiqot xarakteri;

harbiy tayyorgarlikni modulli yo‘naltirish, oliy harbiy o‘quv yurtlari talabalari va kursantlarida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://archive.uz/analytics/подготовка военных кадров-зарубежный опит. 172421724/# - Дата обращения: 24.09.2024 г.
2. . Иовлев, А.М. Деятельность КПСС по подготовке военных кадров / А.М. Иовлев//– М., 1976.

REZERVDAGI VA ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASHDA ASOSIY JANG TURLARIDA RAZVEDKANING MUXIMLIGI

Savin Yevgeniy Vladimirovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazining o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola rezerv va zaxiradagi ofitserlarini tayyorlashda mudofaa va hujum kabi asosiy jang turlarida razvedkaning ahamiyatini, hamda razvedka tartibini, jangning asosiy turlarini tayyorlash va o‘tkazishda ularning bevosita vazifalari ochib berildi. Razvedka organlarining harakatlari ularning qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ko‘rib chiqildi.

Kalit so'zlar: razvedka, jang, razvedka organlari, harbiy razvedka, hujum, mudofada, razvedka ma’lumoti, jangovar razvedka.

Razvedka - [r. Razvedat – «surishtirib, tekshirib bilmoq, qidirib topmoq»] davlatlar manfaatlarini himoya etishda muhim rol o‘ynashi barchaga ma’lum. Chunki jangning istalgan turida, u xoh mudofaa bo‘ladimi yoki hujum dushman, uning bo‘linmalari, tarkibi, qurol yaroqlari, uning joylashuv o‘rni haqida aniq ma’lumotlarsiz olg‘a yurish, yoki g‘alabaga erishish mushkul va bu ma’lumotlar razvedka organlari tomonidan to‘planadi. Harbiy razvedka oldiga qo‘yilgan vazifalar xususiyatlaridan va olib boriladigan faoliyat hajmidan kelib chiqqan holda uchta asosiy qismga ajratiladi va bular – strategik, operativ va taktik razvedka hisoblanadi. Umuman olganda razvedka - bu vaziyatni baholash va qaror qabul qilish uchun mavjud yoki ehtimol tutilgan dushman, joy va boshqa xaqida ma’lumotlar to‘plash maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar majmui. [2, 453-459]

Hujum va mudofada razvedkaning vazifalari.

Razvedka olib borish tartibi.

Askarlarning razvedka kuzatuvidagi harakati (dozor) motoo‘qchi guruhi batalyondan, ba’zida esa, vzvoddan, qoidaga ko‘ra dushman mudofaasining ichkarisida hujum olib borganda hamda dushman bilan yuzma-yuz kelganda, mudofaaga o‘tishda jangovar razvedka kuzatuvi(dozor) tayinlanishi mumkin. Jangovar razvedka kuzatuvi qaysi bo‘linmadan yuborilsa, o‘shaning manfaatiga doir razvedka vazifalarini bajaradi.

• dushman haqida ma’lumot;

• razvedka yo‘nalishi (obyekti), qanday ma’lumotlarni qanda muddatda olish;

• aloqa bog‘lab turish va razvedka natijalari haqida bildiruv berish;

• vazifa bajarib bo‘lingandan keyin harakat tartibi;

• xabarlashish, boshqaruv va o‘zaro harakat signallari ko‘rsatiladi.

Bulardan tashqari jangovar razvedka dozoriga razvedka olib borayotgan qo‘shni bo‘linmalar harakati haqida, o‘zaro tanib olish usullari tartibi, hamda jarohatlanganlarni evakuatsiya qilish tartibi, asirlar va hujjatlarni eltib berish haqida ko‘rsatmalar berish mumkin.

Dozor ko‘rish uzoqligi va pulemyotlar, BTR, BMPlar bilan qo‘llab-quvvatlash imkoniyati bor bo‘lgan masofada harakatlanadi.

Hujumda razvedkaning o’rni.

Hujumda jangovar razvedka kuzatuvi quyidagi vazifalarni olishi mumkin:

• hujumga o‘tgan bo‘linmalarning front oldida va qanotlarda dushmanning bor-yo‘qligini aniqlash;

• dushman harakatlarining xarakterini aniqlashga, ularni front bo‘ylab va ichkarida manyovrga o‘tish imkonini aniqlash;

• o‘t ochish vositalarini, ayniqsa, tankka qarshi vositalarning joylashuv yerini ochish;

• dushman mudofaasining zaif uchastkalari va ochiq qanotlaridagi ochiq joylarini aniqlash;

• dushmanning jangovar tartibi ichkarisi va front oldida to‘siqlar hamda g‘ovlar mavjudligini bilish kerak.

Jangovar razvedka kuzatuvi komandiri razvedkani olib borish vazifasini, qoidaga ko‘ra, hujum boshlanishidan oldin oladi. Kerak bo‘lgan paytda jangovar razvedka kuzatuvi jang davomida ham yuborilishi mumkin, bu holatda vazifa uni yuborilishdan oldin qo‘yiladi. Dushman mudofaasi yorib kirilganda jangovar razvedka kuzatuvi o‘z bo‘linmasining jangovar tartibida harakatlanadi.

Jangovar tartibdagi o‘rinni kuzatuvga yuborilgan komandir aniqlaydi, u jang maydonidagi vaziyatga, jangovar razvedka kuzatuvining dushman jangovar tartibi ichkarisiga taxminiy kirib borish vaqti va marrasiga bog‘liq.

Agar jangovar razvedka kuzatuvi dushman mudofaasini birinchi pozitsiyasini yorib kirishga yuborilsa, mudofaani yorib kirishda u jangovar mashinalar liniyasi ortida bo‘ladi. Bu holatda jangovar razvedka kuzatuvi shaxsiy tarkibi jang maydonini kuzatadi, vaziyatni o‘rganadi, kirish marrasiga yaqinlashganda esa, kuzatuv komandiri dushmanning jangovar tartibidagi oraliqlar va uni buzish joylarini izlaydi.

Jangovar razvedka kuzatuvi hujum rivojida dushmanning jangovar tarkibi ichkarisiga kirishida, guruh kolonna safida hujumga o‘tayotgan bo‘linmalar jangovar tarkibiga shiddat bilan kelib qo‘shiladi.

Joydan ustalik bilan foydalanib, dushmanga yuzma-yuz chiqiladi va o‘z bo‘linmasi fronti oldidagi hamda qanotlardagi tayanch pulemyotlari va qarshilik tugunlarining chegaralarini aniqlaydi.

Dushmanning faoliyat xarakteri, o‘t ochish vositalarining joylashuvi, g‘oyalar va to‘siqlar bor yo‘qligini belgilaydi. Keyinchalik dushmanning jangovar tarkibidagi oraliqlar va zaif joylardan foydalanib, jangovar razvedka kuzatuvi marralariga asosan qat’iy harakatlanib, uning mudofaa ichkarisiga kirib boriladi.

Jangovar razvedka kuzatuvi jangga shunday holatlarda kiradiki, qachonki, dushman haqidagi kerakli ma’lumotlarni kuzatish yo‘li bilan olib bo‘lmaganda, dushmanni o‘t ochishga majburlab, kuzatuv orqali uning o‘t ochish vositalari joyini aniqlaydi va boshqa ma’lumotlarni oladi.

Mudofada razvedkaning o’rni.

Mudofaada jangovar razvedka kuzatuvi quyidagi vazifalarni olishi mumkin:

• mudofaa chizig‘iga yaqinlashayotgan dushman harakatini bilib olish;

• dushman artilleriyasi va minomyotlarini o‘t ochish pozitsiyalarida yoyilish joyi va vaqtini aniqlash;

• hujumdagi dushmanning motopiyoda va tanklarini hamlaga o‘tishga yoyilish marralarini aniqlash;

• boshqaruv punkti va boshqa obyektlarni yoyilish joylarini ochish.

Jangovar razvedka kuzatuvining komandiri razvedka olib borish vazifasini otkazishga ko‘ra, mudofaa tashkillashtirilayotganda oladi.

Belgilangan vaqtda ko‘rsatilgan marraga chiqadi va dushman harakatlari kutilayotgan ehtimoldagi yo‘llarda kuzatuvni tashkillashtiradi. Dushman kolonnalari yaqinlashganda, razvedka dushman harakat yo‘nalishini parallel yo‘nalish bo‘yicha kesib chiqadi va uni yoyilish rayoni yoki marrasigacha kuzatib boradi.

Dushman mudofaani yorib kirganda, jangovar razvedka kuzatuvi qo‘yilgan vazifalarni bajarishda davom etadi. Qaltis vaziyatda o‘z qo‘shinlari joylashgan yerga qaytarilishi mumkin. Yuqori manyovrli jangovar harakatlar sharoitida motoo‘qchi va tank batalyonlarida jangovar razvedka kuzatuvi o‘z kuchlari bilan razvedka olib boradi.

Jangovar razvedka kuzatuvi dushman mudofaasining jangovar tartibini bosib o‘tib, uning mudofaasi ichkarisida razvedka olib boradi.

Xulosa

Yuqorida aytib o‘tilganidek razvedka jang asosiy turlarida muhim ahamiyatga ega, chunki dushman haqida ma’lumotlar qanchalik ko‘p va aniq bo‘lsa, jang shunchalik talafotlarsiz, ortiqcha yo‘qotishlarsiz bo‘ladi. Bu esa g‘alabani ta’minlashda asosiy omillardan biridir. Ammo razvedka nafaqat jangda, balki tinch davrlarda ham olib borilib, o‘z davlati manfaatiga, uning daxlsizligiga raxna solishi mumkin bo‘lgan har qanday kuchdan ogoh qiladi, faol, uzluksiz, yashirin, tezkorlikda xarakat qiladi va bu mamlakat xavfsizligini barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston bir necha davrlardan beri dunyo urush o‘choqlaridan biri bo‘lgan Afg‘oniston davlati bilan chegaradosh. Bugungi kunda ham bu davlatda tolibonlar va sobiq hukumat o‘rtasida qurolli to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tayotgani unga chegaradosh davlatlar, xususan, O‘zbekistonga ham katta havf tug‘diradi. Bunday hollarda Afg‘onistondagi vaziyatda doimo xabardor bo‘lish, u tomondan O‘zbekiston hududiga bo‘lish mumkin bo‘lgan har qanday xavfni razvedka yo‘li bilan oldindan aniqlash ushbu mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun juda zarur. Buning uchun esa razvedkachidan ham aqliy, ham jismoniy jihatdan kuchli bo‘lishi talab etiladi. Negaki, kundan-kunga rivojlanib borayotgan yangi asbob-uskunalar razvedka ishlarini bir qancha osonlashtirishi bilan birga, razvedkachidan shuncha o‘z mahorat va malakasini oshirishini talab qilmoqda. Chunki, qachonki bir yangi harbiy texnika yaratilsa, albatta unga qarshi boshqa bir narsa ishlab chiqiladi. Bunday holatda harbiy xizmatchilarning doimo malakasini oshirib borish xavfsizlikni ta’minlashda juda muhimdir

Adabiyotlar ro’yhati:

1. Radio va radiotexnik razvedka serjantlari darsligi. (Toshkent-2017)
2. Umumiy taktika.
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Razvedka
4. https://zamin.uz/uz/dunyo/49358-razvedka-sirlari.html

REZERVDAGI VA ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASHDA XAVFSIZLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Raimov Sodiq Sobirovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi umumqo‘shin tayyorgarlik sikli o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy texnik taraqqiyot va inson hayot faoliyati bilan bog’liq vaziyatlarda harbiy tayyorgarlik bo’linmalari zahiradagi ofitserlarining kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun zaruru bo’lgan xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishning mazmuni, o’ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: texnik taraqqiyot, xavsizlik, xavfsizlik madaniyati, zahiradagi ofitserlar, kasbiy tayyorgarlik.

Zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning hozirgi bosqichi insoniyatning farovon turmush sharoitlarini yuzaga keltirish bilan birga, hayotiy faoliyatida yangi antropogen yashash muhitining ko'plab zararli va xavfli omillar qurshovida qolishi hamda potentsial xavf manbaalarining ortishi bilan izohlanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Barqaror rivojlanish kun tartibi”da jahon miqyosida insonlarning bexatar yashash darajasini ta’minlash choralari belgilab berilgan [1]. Shu nuqtai nazardan jahonda sodir bo‘layotgan tabiiy, texnogen favqulodda vaziyatlar hamda global ekologik muammolar sonining oshib borishi kuzatilayotgan bir davrda bo'lajak mutaxassis kadrlarning xavfsizlik madaniyatini shakllantirish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquqtartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shartsharoitlar yaratdi [2].

Odamlar va tabiiy ekotizimlar uchun maqbul sharoitlarni ta'minlaydigan texnosferani oqilona va mulohazali shakllantirish bo'yicha jamiyat oldida turgan vazifa juda murakkab. U turli xil va o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlarning butun majmuasini amalga oshirishni nazarda tutadi: inson ehtiyojlarini oqilona cheklash; kam chiqindilarga va resurslarni tejashga yo'naltirilgan yangi texnik ob'ektlar va

texnologiyalarni yaratish; texnika va texnologiyalarning odamlarga va tabiiy muhitga ta'sirini kamaytirish; texnosferada hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish lozim [3, 4]. Mazkur vazifalarni amalga oshirish zarurati oliy kasbiy ta'lim tizimidan ularni malakali ravishda echishga qodir mutaxassislarni tayyorlash dasturini ishlab chiqishni talab qiladi. Texnosfera xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi maxsus tayyorgarlik masalalarini aks ettiruvchi tendentsiyalar: Z.F.Ilyasova, S.I.Xusanova, S.V.Belova,

N.E. Garnagina, V.A. Devisilova, N.G. Zanko, A.V. Ilnitskaya, A.F. Koz'yakov, P.P. Kukina, E.A. Podgornyx, N.L. Ponomareva, O. N. Rusaka, N.I. Serdyuk, M.B. Sulla va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Harbiy tayyorgarlik bo’linmalarida zahiradagi ofitserlarning kelgusidagi kasbiy faoliyati sharoitida harbiy bo’linmalarda va zamonaviy harbiy inshootlarda shaxsiy va jamoa xavfsizligini ta'minlash muammolarini shartli ravishda har qanday faoliyat ob'ekti uchun xos bo'lgan: ijtimoiy va texnologik jarayonlarning xususiyatlari, tashkil etish bilan bog'liq muammolarga ajratish mumkin. Ishlab chiqarish va harbiy ob’ektlarning joylashuvi, bu ham harbiy, ham boshqa mutaxassisliklarning kasbiy faoliyat xavfsizligini ta’minlash hamda xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish masalalarini o'rganishni talab qiladi.

Shu bilan birga, hayot xavfsizligi sohasida ta'lim tizimida allaqachon erishilgan ijobiy natijalarni hisobga olgan holda, harbiy tayyorgarlik o’quv bo’linmalarida xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishga ehtiyojning ortganligi, ta’lim jarayoniga “Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar uslubiyoti” fani kiritilganligi bilan yanada dolzarblik kasb etadi. Kasbiy faoliyat sohalari va ijtimoiy texnologiyalarni rivojlantirishning hozirgi darajasi uchun xavfsizlik qoidalariga yuqori darajada rioya qilish etarli emas, chunki hayot xavfsizligini ta'minlash uchun nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarga, balki har qanday faoliyat turini xavfsiz amalga oshirishga, ularning harakatlarining maqsadlari hamda jamiyat va atrof-muhit uchun oqibatlarini tushunishga ehtiyoj bor. Shu bilan birga, xavfsizlik sohasidagi ta'lim jarayonining eng muhim maqsadi bo’lajak harbiy soha mutaxassislarida asosiy tamoyilni - har qanday kasbiy va shaxsiy vazifalarni hal qilishda xavfsizlik ustuvorligini ta’minlash, xavfsizlik madaniyatini yuqori darajada egallashdan iborat. Binobarin, xizmat joyini, hayot xavfsizligi madaniyatini samarali egallash inson faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan maxsus madaniyat turini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xavfsizlik madaniyati shaxsning asosiy madaniyatining tarkibiy qismi va har bir mutaxassisning kasbiy madaniyatining ajralmas qismi sanaladi. Tug'ilgandan berilmagan, balki mutaxassisni kasbiy tayyorlash jarayonida shakllantiriladigan va rivojlantiriladigan kasbiy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lganligi sababli, xavfsizlik madaniyati pedagogik tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Turli o'quv

yurtlari va pedagogik jamoalar tomonidan amalga oshiriladigan ushbu madaniyatni shakllantirish jarayoni o'rganilayotgan hodisani rivojlantirish uchun mazmun, texnologiyalar va pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqishning muhimligi va zaruratini belgilaydi.

Shuningdek, harbiy tayyorgarlik o’quv bo’linmalarida zahiradagi ofitserlarning xavfsizlik madaniyati mohiyati va tuzilishiga aniqlik kiritishni talab qiladi. Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish:

1. Zahiradagi ofitserlarni xavfsizlik madaniyatining mohiyati, mazmuni va tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish.

2. Ularning xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalarini ishlab chiqish.

3. Zahiradagi ofitserlarning o'quv faoliyatidagi asosiy nomutanosibliklarni xavfsizlik madaniyati kontekstida ochib berish.

4. Tadqiqot natijalariga ko'ra, zahiradagi ofitserlarning xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish.

5. Zahiradagi ofitserlarning xavfsizlik madaniyatini samarali rivojlantirish uchun kasbiy-metodik shartlarning umumiyligini aniqlash va eksperimental asoslash zarur.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, harbiy bo‘linmalardagi zahiradagi ofitserlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning xafsizlik madaniyatini rivojlantirish jamiyat va atrof-muhit xavfsizligini ta’minlash imkoniyatlarini orttirishga, xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.Sustainable development agenda. www.un.org.

2.O‘zbekiston respublikasi Prezidentining farmoni “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 07.02.2017yildagiPF-4947-n//https://lex.uz/docs/3107036?ONDATE=11.12.2019.

3.И.Н.Немкова Формирование культуры безопасности жизнедеятельности студентов в процессе профессиональной подготовки в вузе. Автореф дисс. к.п.н. Тамбов -2005 г.

4. https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/madaniy.

AMIR TEMUR QO‘SHINLARINI QUROL-YAROG‘ VA ANJOM-ASLAHA BILAN BUTLASHDA TASHKIL ETILGAN SAFARBARLIK TIZIMI

Iskandarov J.G‘.
podpolkovnik, HX va DM fakulteti 2- bosqich tinglovchisi

Amir Temur qo‘shinni to‘plashda amir va boshqa harbiy mansab egalarining imkoniyati yo‘qligini inobatga olib, bu masalani tezkorlikda amalga oshirish maqsadida tovachi (yoki tavochi) mansabini joriy qilgan. Temur davrida eng mas’ul topshiriqlarni tovachilar bajargan.

Amir Temur har bir yurishdan oldin Temurbek, ulusining turli viloyat va tumanlaridan, shuningdek tobe yurtlardan qo‘shin to‘plash uchun maxsus buyruq e’lon qilingan. Farmon tavachi (safarbarlik bosh boshqarma boshlig‘i)tomonidan tezlik bilan joylarga yetkazilgan.

Farmonga binoan viloyat hokimlari, tuman yoki shahar beklari, Temurbek tomonidan tuzilgan ro‘yxat-songa muvofiq o‘z jangchilari, zarur ot-ulovi, qurol-yarog‘i, oziq-ovqati, yem-xashagi bilan belgilab quyilgan yig‘in hududiga o‘z vaqtida kechikmasdan yetib kelishi shart hisoblangan.

Hozirgi kunda tovachi lavozimi safarbarlik ishlari bo‘limlari va harbiy qismlardagi safarbarlik ish yurituvi lavozimlariga to‘g‘ri kelganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tovachining zimmasiga askar jamlashdan tashkari kushin kismlarining karorgou yoki safardagi urni, jangovar tartib - yasoli uamda bir joydan ikkinchi joyga kuchishni nazorat kilish uam yuklatilgan.

Amir Temur har doim oldinda turgan jangga puxta tayyorlanib, jang vaqtida ta’minot masalalarini, qo‘shindagi talafotlarni o‘rnini butlash choralarini oldindan ko‘rgan. Shu o‘rinda Amir Temur “Boy mamlakatning askari quvvatli bo‘lur, askari quvvatli mamlakat boy bo‘lur” deb bejiz aytmaganligini ta’kidlashimiz o‘rinlidir. Amir Temur o‘z davlatini boyitish va bu boylik negizida qo‘shinlarni yengilmas, dovyurak va jasur askarlardan tash qilish kerakligini ta’kidlagan.

Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishiga ko‚ra, Temurbek Dashti Qipchoqqa qilingan yurish (1390-1391) oldidan qo‘shinni bir yilga yetadigan oziq-ovqat qurol-yarog‘, kiyim-kechak va boshqa safar uchun zarur ashyolar bilap ta’minlashni o‘z noiblariga buyurgan. Har bir suvoriyga bitta yoy, 30 ta o‘q, bir sadoq, bir qalqon va bitta qo‘shimcha ot ajratilgan. Yurish vaqtida har o‘n jangchi bir chodir, ikki belkurak, bir kerki, bir uroq, bir arra, bir tesha, bir bolta, 100 dona nina olgan.

Ko‘rikdan nafaqat jangovar qismlar, shuningdek ularni qurol-yarog‘, oziq-ovqat, kiyim-kechak zaxiralari ortilgan bir qator og‘ir karvonlar ketma-ket o‘tkazilgan.

Oliy bosh qo‘mondonning buyrug‘i ostida, jangchilar himoya sovutlarida, to‘liq qurol-yarog‘lari bilan saflanganlar. Ko‘rik o‘tkaziladigan maydonda turli qismlarga tegishli bo‘lgan yashil, qizil, sariq, binafsha, qora, ko‘k bayroqlar ostida

turgan. Harbiy musiqa sadolari ostida qo‘shin turlari birin-ketin jangchilar Amir Temur oldidan o‘tgan. Jangchilar nayzalarini baland ko‘tarib bo‘lajak jangga tayyor ekanliklarini namoyon etib baland ovozda na’ra tortganlar.

“Yurishim oldidan ko‘rik qilib, lashkarim qayergacha yetishini bilmoqchi bo‘ldim. Qarasam, to‘rt farsang masofada lashkarlarini saf tortib turardi. Tangri taologa shukur keltirdim. So‘ng Temur daryosidan o‘tib, dashti qipchoqning el-u ulusiga ushbu mazmunda yorliqlar yo‘lladim: “Kimki menga kelib qo‘shilsa - ulug‘lanadi, kimki men bilan kurashmoqchi bo‘lsa – yiqiladi” deb ta’kidlagani ham bejizga emas edi. Amir Temurning bir ishni boshlashdan oldin, o‘sha ishning oxir oqibatini o‘ylab ish ko‘rishi, uning uzoqni ko‘ra bila olishini yaqqol misoli bo‘la oladi desak ayni haqiqat bo‘ladi.

Temurbek turxi xil vaziyatlarda qo‘shinlarni uzliksiz ta’minot masalalarini hal qilish maqsadida strategik, operativ va qo‘shinlar zaxirasini tashil etish diqqat markazida bo‘lgan. Mo‘lton shahrini qamak qilish maqsadida qo‘shinda katta yo‘qotishlar va qiyinchiliklarga uchraydi. Natijada Temur yo‘qotishlar o‘rnini to‘ldirish maqsadida o‘z zaxirasidan (strategik zaxira) hisobidan 30 000 ot ajtatishga qaror qabul qiladi. Hindiston safariga otlangan qo‘shin 92 000 000 kishiligini hisobga olsak, strategik zaxira taxminan 30 % degan xulosa chiqarishimiz mumkin.

Sulton Mahmudning yovvoyi fillariga qarshi chiqish uchun Temur o‘zining maxsus buyrug‘ini e’lon qiladi. Asosiy jangchilari o‘zlaridagi mavjud qilich, shamshir va nayza orqali fillarning hartum qismiga zarba berishlari kerakligini uqtiradi. Bundan tashqari, Temur jangchilari ko‘zi o‘rganib, ruhan kuch to‘plashi uchun fil maketlarini yasattirib fillarga qarshi jang maydonida qanday jang olib borish amaliy harakatlarini o‘tkazadigan edi.

Bundan tashqari, u temirchilariga o‘tkir tig‘li uchburchak shaklidagi temir sanchqilar yasattirdikim, ular qanday holatda havoga otilishidan qat’iy nazar, yerga tushgach, bir qirrasi albatta, tik turib qolardi. Suvoriylar yashin tezligida ot qo‘yib, bu sanchqilarni fillar kelishi kutilayotgan yo‘llarga qadab chiqishdi [3; 86 b].

Amir Temurning temirchi va chilangar bo‘linmalari yasashgan bu sanchqilarini Mahmud shoh kutmagan va jang taqdirini ham fillarga bog‘liq deb bilgan edi. Chunki Amir Temurni temirchi bo‘linmalari borligini, ularni qo‘shin bilan birga olib yurishiga ahamiyat bermagan edi. Bu maxsus temirchi bo‘linmalar ham o‘zlari bilan doim kuvalda, temir qaychi, olov purkagich, temir o‘tkirlovchi charx toshlari, kabi temir materiallarini karvon bilan qo‘shin ortidan olib kelishardi.

Temur qo‘shini anjom-aslaha ta’minoti haqida to‘xtalganimizda shuni alohida ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, har bir turdagi qo‘shin turi, sipohiylarni ta’minlash uchun aniq belgilangan me’yorlar mavjud bulgan.

Masalan, sara jangchilarning qurol-yarog‘i dubulg‘a, zirh, sovut, nayza, sadoq, qilich, xanjar, oybolta va o‘q-yoydan iborat bo‘lgan. Ularning otlari ham o‘ziga xos sovut bilan himoyalangan. Bu suvoriylar jangovar safar boshlanishidan oldin ham jam qilinar, kecha-yu kunduz olib borilgan mashg‘ulotlar natijasida ular kamondan bexato otadigan va jangda doimo g‘olib chiquvchi jangchilar bo‘lib yetishar edi.

Amir Temurning sara jangchilarini qurol-yarog‘lari aksariyat jangchilarnikidan har doim ustun va ko‘rkam bo‘lgan. Dubulg‘alariga ishlangan metallarning

tanlanishi muhim sanalgan. Chunki bu jangchilarning dubulg‘alari jang davomida quyoshda nur qaytarishi, dushman g‘animlarini esa ko‘zlarini qamashtirib qo‘yishi e’tiborga olinar va ko‘rkam, bejirimligi esa oddiy jangchilarni sara jangchilar darajasida bo‘lishga intilishi uchun umid o‘yg‘otar edi. Bu oddiy jangchilar ham sara jangchilar qatoriga qo‘shilishi uchun uzliksiz, mustaqil ravishda o‘z ustida ishlashi uchun turtki vazifasini o‘tardi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, Qurol-yarog‘ ishlab chiqaruvchi viloyatlardan eng asosiysi Samarqand bo‘lgan.

Masalan, yozma manbalarda XVI-XVII asrlarda qurollar ishlab chiqarish markazlari bo‘lgan Samarqand va Buxoroda ko‘plab sovutlar, kamon o‘qlari, shamshir, dubulg‘a, qilich, qalqon, pichoqlarni ko‘plab ishlab chiqarganligi ma’lum.

Amir Temur lashkarlaridagi himoya bosh kiyimlari ham turlicha bo‘lib askar va yuqori amaldorlarniki bir-biridan farqlanib turgan. Ba’zi bosh kiyimlarda yuzni ham himoya qiluvchi sim bilan to‘qilgan yopqichlari mavjud bo‘lgan.

Amir Temur shunisi bilan ahamiyatliki o‘z zamonasing eng yetuk qurolsozlarini Samarqandga jamlay olgani va qo‘shinining jangovor ta’minotini yuqori darajada amalga oshirganida edi.

Qurol-yarog‘ni Ko‘ksaroy va boshqa yerlardagi maxsus korxona (qurxona) lari ishlab berib turgan [4; 122 b].

Temur qanday sharoitlarda qaysi qurol aslahalar kerak bo‘lishini ko‘ra bila olib qo‘shinga ana o‘sha qurollarni olishini buyurgan. Qo‘shinni asosiy anjom aslahalari bilan ta’minlanishini o‘zining “Tuzuklarida” bayon etgan:

“Shunday buyruq berdimki, yurish vaqtida oddiy askarlardan har o‘n sakkiz kishi o‘zi bilan birga bir chodir (xayma) olsin, har bir askar ikki ot, bir kamon, bir sadoq, o‘qdon (tarkash), bir qilich, arra, bigiz, bir qop, (juvol) juvoldo‘z, bolta, o‘nta igna va orqaga osiladigan charm xalta (charm po‘sht) olsin”.

Sohibqiron bu anjom-aslahalarni olishiga buyruq berganining sababi har 18 kishi bir chodir olishidan maqsad jangchilarni turli xil kutilmagan ob-havo sharoitlarida askarlarni dam olishlari uchun bundan tashqari chodirning o‘lchami ham o‘lchami 18 ta askarni bemalol joylasha olishi ko‘zlangan edi. Har bir askarning ikki otni o‘zi bilan olib ketishi esa Temurni eng tezkor qo‘shinni tuzganida namoyon bo‘ladi. Chunki jangchilar yurish vaqtida bu ikki otda harakatlangan vaqtda, birinchi ot charchagan paytida ikkinchi otga minib yurishni davom ettirgan. Bu otlar doimiy baquvvat bo‘lishiga va qo‘shinni eng tezkor harakat qilishiga imkon yaratgan. Temur qo‘shini kelayotganidan xabar topgan dushmaniga, janga tayyorgarlik ko‘rishi va mudofaalanish uchun vaqt qoldirmagan. Bir kamon, sadoq va qilich olishi askarni jang mobaynidagi asosiy quroli bo‘lib xizmat qilgan. Arra yurish mobaynida yuzgaka keladigan to‘siqlarni bartaraf etishda qo‘llanilgan.

Xulosa qilib aytish lozimki, Temurbek hukmronligi davrida harb ishi va harbiy san’at, qo‘shinlarni qurol-yarog‘, anjom-aslaha ta’minoti hamda qo‘shinlar ko‘rigi masalalariga e’tibor o‘zining oliy pog‘onasiga ko‘tarilgan.

Sohibqironning harbiy ta’limoti bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Temurbekning harbiy mahorati, jahon harb san’atidagi novatorligi Respublikamiz sarhadlarini kuz qorachig‘iday saqlash maqsadida barpo etilgan

Milliy armiyamizning har bir a’zosi uchun dasturulamal bulmog‘i maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Temur Tuzuklari. “Fan”,Toshkent, 2019- yil.
2. Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy mahorati. – T.: “Yozuvchi”, 1996.
3. Lyusen Keren. Amir Temur Saltanati. “Fan”, Toshkent, 2018- yil.
4. Bo‘riboy Axmedov. Amir Temurni yod etib. “Fan” Toshkent 2018- yil.
5. Xodjixodjayev F.M. Sohibqiron Amir Temur saltanatida harbiy boshqaruv tizimi: harbiy xavfsizlikni ta’minlash kontekstida (retrospektiv tahlil) F.M. Xodjixodjayev // O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi xabarlari. - 2022.

ILG‘OR TAJRIBALI DAVLATLAR QUROLLI KUChLDRINI QO‘SHINLAR MAXSUS HARAKATIDA QO‘LLASH ASOSLARI. (ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA)

Isrofilov Suxrob Abduraxmon o‘g‘li
kapitan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Harbiy havfsizlik va davlat mudofaasi fakulteti 2-bosqich tinglovchisi

Annotatsiya: Maqolada rossiya federatsiyasi QK mimg QMH da harakatlanishining huquqiy asoslari to‘g‘risida tushunchalar, oqibatlarini bartaraf etishda ta’minotning o‘rni va vazifalari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar noqonuniy qurolli guruxlar, ekologik, tabiiy, texnogen, yadroviy xavf .

Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi: Axolini va xududlarni tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlardan ximoya kilish asoslari. 1994 yil 21 dekabrdagy 68-FZ-sonli "Aholini va hududlarni tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida" Federal qonuniga va Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2003 yil 30-dekabrdagi 794- sonli karoriga muvofiq favkulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf qilishning yagona davlat tizimi ", Rossiya mudofaa vazirligi favkulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha yagona davlat tizimining ajralmas qismi bo‘lgan favkulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish uchun qurolli kuchlarning funksional quyi tizimini yaratdi.

Bunga ko‘ra: qurolli kuchlar nafaqat mudofaa masalalari balki favkulodda vaziyatlarda ham qonunga asosan qo‘llanilishini inobatga olgan xolda, ko‘shinlarda komandirlar va bdshqaruv organlari FV larda ham o‘z ishlarini tashkillashtirish va ko‘shinlarni boshqarish tajribasiga ega bo‘lishlari kerak.

Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirining 2009 yil 25 martdagi 113- sonli buyrug‘iga binoan, Quruklikdagi Bosh Ko‘mondonlik funksional quyi tizimning xarbiy nazoratining asosiy organi bo‘lib, oqibatlarning oldini olish va ularni bartaraf qilish bo‘yichatadbirlarni tashkil etadi.

Ya’ni: Kuruqlikdagi Bosh Shtab favqulodda vaziyat e’lon qilinishi bilan umu.mmamlakat miqyosida favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf qilishga jalb qilingan kuch va vositalar hamda vazirliklarning harakatlarini muvofiqlashtiradi, hamda bevosita boshqaruvini amalga oshiradi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 10.11.2007 yildagi 1495-sonli buyrug‘i (01.02.2021 yildan boshlab qayta ko‘rib chiqilgan) "Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlarining umumiy harbiy nizomlarni tasdiklash to‘g‘risida" ("Ichki xizmatning Nizomi bilan birgalikda" Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlari Qurolli Kuchlarning intizom nizomi").

Garnizon qo‘shinlari istisno holatlarda Rossiya Federatsiyasi Prezidentining farmoni asosida quyidagi vazifalarni bajarish uchun favkulodda holatni ta’minlashga jalb qilinishi mumkin:

a) favqulodda holat e’lon qilingan hududga kirish va chiqish uchun maxsus rejimni sakdash;

b) axolining hayoti va transportning ishlashini ta’minlaydigan ob’ektlarni va inson hayoti va sog‘lig‘i, shuningdek atrof-muhit uchun katta xavf tug‘diradigan ob’ektlarni himoya qilish;
c) qurol-yarog‘, harbiy ra maxsus texnika vositasida zo‘ravonlik harakatlariga olib keladigan mojarolarda ishtirok etayotgan qarama-qarshi tomonlarni zararsizlantirish;
d) noqonuniy qurolli guruxlar faoliyatini to‘xtatishda ishtirok etish;
e) favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha yagona davlat tizimi kuchlari tarkibida favkulodda vaziyatlarni bartaraf etish va hayotni saqlab qolishda ishtirok etish.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining farmoni asosida garnizon harbiy qismlarini favqulodda holatni ta’minlash muammolarini hal kilishga jalb qilish harbiy okrug qo‘mondonining buyrug‘i bilan (Shimoliy flot qo‘mondoni buyrug‘i, garnizon boshlig‘ining buyrug‘i) amalga oshiriladi.

Favqulodda holatni ta’minlash uchun ajratilgan harbiy kismlarning komandirlari, garnizon boshlig‘i (tarkib komandiri) ularga tegishli kismda kuyidagilarni xabardor qiladi: favqulodda xolatni joriy etish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan holatlar, va u kiritiladigan hududning chegaralari; uning rejimini ta’minlash uchun kuch va vositalar; favqulodda choralar ro‘yxati va ularning xarakatlari chegaralari; favqulodda vaziyatda qo‘llaniladigan chora-tadbirlarni amalga oshirishga mas’ul bo‘lgan davlat organlari (harbiy qo‘mondonlik va nazorat organlari, mansabdor shaxslar);

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining favqulodda holatni joriy etish to‘g‘risidagi farmoni kuchga kiradigan vakt, shuningdek uning davomiyligi.

Harbiy qismlarga topshiriq berishda garnizon boshlig‘i (tarkib komandiri) kuyidagilarni ko‘rsatib beradi:

a) favkulodda holat joriy qilingan hududning qo‘mondoni (boshlig‘i), komendanti yoki qo‘shma tezkor shtabning vakolatli vakili (vaqtinchalik maxsus nazorat organi yoki favqulodda holat joriy qilingan hududning federal ma’muriyati), favkulodda holatni ta’minlash to‘g‘risidagi buyruklar (ko‘rsatmalar) harbiy kismlar uchun majburiydir;
b) jalb kilingan kuchlar va vositalar;
c) boshqa ko‘shinlarning harbiy qismlari (bo‘linmalari), xarbiy tuzilmalar va organlar, shuningdek Rossiya Federatsiyasi ichki ishlar organlari bo‘linmalari, jazoni ijro etish tizimi, xavfsizlik organlari, aholi punktlari va ob’ektlarning hayotini ta’minlash xizmatlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lish;
d) favqulodda holatni ta’minlash uchun ko‘zda tutilgan favkulodda choralar ro‘yxati. ularning xarakatlari chegaralari va ulardan foydalanish uchun shaxsiy tarkibni tayyorlash tartibi;
e) maxsus vositalar va jihozlarni o‘z ichiga olgan qurol;
f) favqulodda xolatni ta’minlash uchun belgilangan hududga o‘tish usuli va tartibi;
g) buyrukbozlik, xarbiy-siyosiy ishlarni, texnik va moddiy-texnik ta’minotni tashkil etish tartibi;

Favkulodda holat joriy etilishi bilan va topshiriqlar olingandan so‘ng, vaziyatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri favkulodda vaziyat zonasida yomonlashuvining sabablarini aniklash va uni normallashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chikish uchun tezkor guruxlar yuborilishi mumkin.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha yagona davlat tizimi kuchlari tarkibidagi qo‘shinlarning harakatlari bo‘lsa, maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan harbiy qismlar (bo‘linmalar), garnizon harbiy qismlarining o‘t o‘chiruvchilar guruhlari ishtirok etadilar.

Ushbu Nizomning 332-moddasi "a" - "d" bandlarida ko‘rsatilgan vazifalarni bajarishda qismidagi harbiy xizmatchilarga Rossiya Federatsiyasi Milliy gvardiyasi qo‘shinlari to‘g‘risidagi qonunxujjatlarining qoidalari qo‘llaniladi. Jismoniy kuch, maxsus vositalar, qurol-yarog‘, harbiy va maxsus texnika, shaxsiy xavfsizlik kafolatlari, xarbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini xuquqiy va ijtimoiy muxofaza kilish shartlari, tartibi va chegaralari to‘g‘risida qayd etilgan.

Favqulodda vaziyatda harbiy xizmatchilar tomonidan qo‘llaniladigan va federal ijro etuvchi organlar, Rossiya Federatsiyasi ta’sis ob’ektlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshkarish organlari vakolatlari, tashkilotlarning va jamoat birlashmalarining huquklari, inson va Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasida, Rossiya Federatsiyasining federal konunlarida va boshqa normativ-xuquqiy hujjatlarida belgilangan fuqarolik hukuklari va erkinliklari mavjud vaziyatning og‘irligi talab qilinadigan chegaralarda amalga oshirilishi va Rossiya Federatsiyasining xalqaro majburiyatlariga muvofik bo‘lishi kerak.

Harbiy qism komandiri favqulodda holatni bartaraf etishda xarbiy qismni jalb qilish to‘g‘risida yozma buyruq chiqaradi va shtab ushbu vazifada ishtirok etayotgan xarbiy xizmatchilarning shaxsiy hisobini tashkil qiladi.

Garnizon qo‘shinlari istisno holatlarda Rossiya Federatsiyasi Prezidentining farmoni asosida kuyidagi vazifalarni bajarish uchun favqulodda holatni bartaraf kilishga jalb qilinishi mumkin:

a) favkulodda xolat e’lon qilingan xududga kirish va chiqish uchun maxsus rejimni saklash;
b) aholining xayoti va transportning ishlashini ta’minlaydigan ob’ektlarni va inson hayoti va sog‘lig‘i, shuningdek atrof-muhit uchun katta xavf tug‘diradigan ob’ektlarni himoya qilish;
c) qurol-yarog‘, harbiy va maxsus texnika vositasida zo‘ravonlik xarakatlariga olib keladigan mojarolarda ishtirok etayotgan qarama-qarshi tomonlarni ishdan bo‘shatish;
d) noqonuniy kurolli guruhlar faoliyatini to‘xtatishda ishtirok etish;

Harbiy qis.mlarni (bo‘linmalarni) Rossiya Federatsiyasi ta’sis ob’ektlari (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari) ijro etuvchi xokimiyat vakillariga bo‘ysundirish takiklanadi.

Vaktinchalik qo‘riqchilar avariya, falokat yoki tabiiy ofat joyidan qolgan yoki olib ko‘yilgan mol-mulkni himoya qilish uchun tayinlanadi; tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun ajratilgan harbiy qismlardan

(bo‘linmalar, harbiy komendatura) - harbiy kism komandiri buyrug‘i bilan (bo‘linma, garnizon harbiy komendanti). Ushbu qo‘riqchilar harbiy qism komandiriga (qism, garnizonning harbiy komendantiga) bo‘ysunadilar; boshqa xarbiy qismlardan (bo‘linmalardan) - garnizon boshlig‘ining buyrug‘i bilan. Ushbu soqchilar o‘zlari tayinlangan xarbiy qism (bo‘linma) komandiriga, garnizon boshlig‘iga va garnizon (xarbiy qism) navbatchisiga bo‘ysunadilar.

Favqulodda vaziyatlarda ko‘shinlardan foydalanish tartibi tegishli qonunlar, shuningdek, harbiy nizomlar va maxsus qoidalar (Mudofaa vazirligining buyruklari, ko‘rsatmalari, qo‘llanmalari va ko‘rsatmalari) bilan belgilanadi. Ularning harakatlarining muvaffaqiyati ko‘p jixatdan ko‘shinlar, bo‘linmalar va bo‘linmalar komandirlari va shtablarining, hatto tinchlik davrida xam, kundalik faoliyat jarayonida shaxsiy tarkibni tayyorlashni va belgilangan vazifalarni bajarish uchun zarur vositalarni ta’minlash kobiliyatiga bog‘lik. o‘ta og‘ir sharoitlarda.

Aholini qutqarish, fuqarolarning xavfsizligini va korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning normal ishlashini ta’minlash uchun shoshilinch choralarni talab qiladigan holatlarda, ayrim joylarda yoki butun respublikada (respublikada) favqulodda holattegishli qarori bilan joriy qilinishi mumkin. davlat hokimiyati organi yoki prezident. Shuningdek, bu harbiy qismlarni jalb qilishni nazarda tutadi.

Katta garnizonlarda bir nechta bo‘linmalar navbatchilik qilishlari mumkin. Qutqaruv va favqulodda vaziyatlarni tiklash ishlarini amalga oshirish uchun yuqorida ko‘rsatilgan tuzilmalar, agar kerak bo‘lsa, vaqtincha Favkulodda vaziyatlar vazirligining tegishli rahbarlarining bo‘ysunishiga o‘tkaziladi.

Favqulodda vaziyatlarning okibatlarini bartaraf etish uchun ajratilgan xarbiy qismlar (tuzilmalar) xarakatlarini muvofiqlashtirish va rahbarlik qilish uchun, shuningdek ularning ichki ishlar organlari, davlat xavfsizligi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi bo‘linmalari bilan o‘zaro aloqalarini tashkil etish uchun, qonunda qo‘shma tezkor shtab tuzish va tegishli xudud (yashash punkti bandaji) komendantini tayinlash ko‘zda tutilgan. Ikkinchisiga favkulodda holatni saklashni tartibga soluvchi buyruklar chikarish huquqi beriladi.

Favqulodda vaziyatlarda ishtirok etadigan qo‘shinlarning umumiy vazifalari: axoliga yordam ko‘rsatish uchun vayron kilish markazlarining radiatsion, kimyoviy va muhandislik razvedkasini o‘tkazish; qutqaruv va shoshilinch favqulodda tiklash ishlarini bevosita amalga oshirish; odamlar, xayvonlar va moddiy qadriyatlarni evakuatsiya qilish; jaroxatlanganlar, yaradorlar, kasallar va evakuatsiya qilinganlarga tibbiy yordam ko‘rsatish, ularni suv, issik ovkat va kiyim-kechak, isitish chodirlari va yoqilg‘i bilan ta’minlash. Zarur bo‘lganda, harbiy qismlar va bo‘linmalar davlatkorxonalari va muassasalarining normal ishlashini, karantin rejimini ta’minlashda, vayron qilish markazlarini kuzatish va o‘rab ko‘yishda, shuningdek ulardagi jamoat tartibini himoya qilishda, yig‘ilish punktlarida va joylarda ishtirok etish uchun jalb qilinishi mumkin. evakuatsiya qilinganlarni yuklash (tushirish).

Toshqinlar va sunamilar bo‘lsa, ko‘shinlarning vazifalari quyidagilar: odamlar, xayvonlar va suzuvchi xarbiy texnikada moddiy kadriyatlarni kutkarish; drenaj kanallari, to‘g‘onlar, to‘g‘onlar va boshkalarni qurish orkali milliy iktisodiy va

xarbiy ob’ektlarni suv bosishini oldini olish; ko‘priklar va o‘tish joylarini qurish; suv bosgan xududdagi suv sathining pasayishidan so‘ng pastki qavatlardan, binolarning podvallaridan va himoya inshootlaridan suvni chiqarib tashlash.

Qo‘shinlarning o‘rmon, torf yoki boshqa katta yong‘inlarini mahalliylashtirish va o‘chirish uchun yangi katlamlarda standart muxandislik uskunalari va portlovchi moddalar ishlatilishi mumkin. Yadro kuroli bilan texnik baxtsiz xodisalar yoki falokatlarning okibatlarini bartaraf etishda, yadroviy qurilmalar yoki juda zaxarli moddalar bo‘lgan ob’ektlarda, xarbiy qismlar va ularning maxsus bo‘linmalari quyidagilarni amalga oshiradilar: ish joylari va hududlarning o‘zlariga marshrutlarni to‘liq radiatsiya va kimyoviy razvedka kilish, ifloslangan havoning tarqalish yo‘nalishi va uning turg‘unlik holatini hisobga olish; ifloslangan joylarning chegaralarini, ish joylariga yaqinlashish usullarini belgilash, xodimlar va mahalliy aholini ifloslanish borligi va xususiyati to‘g‘risida ogoxlantirish; hududni, binolarni, jixozlarni, mashina va jixozlarni zararsizlantirish va degazytsiya qilish, odamlar va hayvonlarni sanitariya bilan davolash; davolash-profilaktika va sanitariya-gigiena tadbirlari.

Maxsus vositalar va kurollar faqat qonunda qatiy belgilangan xollarda va belgilangan tartibda qo‘llaniladi.

Jamoat tartibini muxofaza qilishni amalga oshirish va fukarolarning xavfsizligini ta’minlash, harbiy qismlar va bo‘linmalar quyidagi asosiy vazifalarni bajaradilar: shaharlarda va posyolkalarda patrul xizmatini (ichki ishlar organlari bilan birgalikda - patrul va qo‘riqlash xizmati) amalga oshirish; ba’zi ommaviy tadbirlar paytida jamoat tartibini ta’minlash, epidemiya va epizootiya sharoitida, shuningdek tabiiy ofatlar, katta baxtsiz xodisalar yoki falokatlar paytida yuqtirish joylarini o‘rab olishga yordam berish; jamoat tartibini buzish, agar ular ommaviy xarakterga ega bo‘lsa. fuqarolarning xayoti va sog‘lig‘iga tahdid solsa yoki davlat, xarbiy, jamoat va shaxsiy mulkni yo‘q qilishga yoki bartaraf kilishga karatilgan bo‘lsa, ularni to‘xtatishda ishtirok etish; xarbiy qismlarda, bo‘linmalarda, shtablarda harbiy xizmatchilarning gurux itoatsizligi va tartibsizliklarini bostirish. Shunday kilib, favqulodda vaziyatlarda qo‘shinlar bajaradigan vazifalar doirasi juda keng.

Xulosa: Xozirgi vaqtda mudofaa vazirligi tizimidagi qo‘shinlarni nafaqat jangovar vazifalarni bajarish uchun balki favqulodda vaziyatlarda qo‘llash va fukarolarga yordam ko‘rsatish uchun xam qo‘llanilishi konunlar bilan belgilab qo‘yilgan. Umumko‘shin bo‘linmalarini samarali qo‘llash uchun favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy bo‘linmalari tomonidan o‘tkaziladigan o‘kuvlarda, umumko‘shin bo‘linmalarining komandirlari va tegishli xizmat boshliklarini ishtiroki ko‘lamini oshirish; soxa vakillari bilan umumko‘shin bo‘linmalari shaxsiy tarkibi bilan aloxida vaziyatlarda kidiruv - qutkaruv, evakuatsiya kilish, oqibatlarni bartaraf qilsh bo‘yicha rejali ravishda mashg‘ulotlar tashkillashtirish va birgalikda o‘tkazib borish maksadga muvofiq bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Raxmankulova, A.B. Analiz organizatsii materialno-texnicheskogo obespecheniya VS RF na sovremennom etape / A.B. Raxmankulova // Jurnal Vestnik Akademii VS RU. – 2013. - №1 (12). – 80-83 b.

2. Svechina, A.A. Materialno-texnicheskoe obespechenie Voorujyonnых sil Rossiyskoy Federatsii / A.A. Svechina // Jurnal Zarubejnoe voennoe obozrenie. - 2002. - № 9. - 118 b.

3. Stoka, D.R. Strategicheskoe upravlenie logistikoy / D.R. Stoka // Moskva: Infra-M. - 2005. - 76 b.

ҲАРБИЙ ТАЙЁРГАРЛИК ЎҚУВ МАРКАЗИДА РЕЗЕРВДАГИ ВА ЗАХИРАДАГИ АРТИЛЛЕРИЯЧИ ОФИЦЕРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ ТАРИХИ, ИСТИҚБОЛИ ВА КЕЛАЖАГИ.

Сотиволдиев Фаррух Рўзиматович
подполковник, Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлар Академияси
Ҳарбий хавфсизлик ва Давлат мудофааси факултети тингловчиси

Annotatsiya: Ushbu tezisda ҳарбий тайёргарлик ўқув марказида резервдаги ва захирадаги артиллериячи офицерларни тайёрлаш тарихи, истиқболи ва келажаги ёритилиб ўтилган.

Kalit so’zlar: Ҳарбий қудрат, резервдаги ва захирадаги офицерларни тайёрлаш.

Ҳарбий қудрат - жамиятдаги барқарорликни ва мамлакатнинг миллий хавфсизлигини таъминлашда муҳим роль ўйнайди. Захирадаги ва резервдаги офицерларни тайёрлаш миллий хавфсизликнинг муҳим элементи ҳисобланади. Резервдаги ва захирадаги офицерларни тайёрлаш ҳарбий хизматнинг муҳим қисми ҳисобланади. Тайёргарликдан ўтган офицерлар давлат хавфсизлигини таъминлаш ва мамлакат мудофасини мустаҳкамлашнинг асоси ҳисобланади.

Мақсад:

1. Офицерларни тайёрлаш тарихини ўрганиш;
2. Замонавий ўқитиш усуллари ва ёндашувларини таҳлил қилиш;
3. Келажакдаги инновициялар ва ишлаб чиқаришларни муҳокама қилиш;
4. Келажакдаги вазифа ва мажбуриятларини белгилаш.

Жаҳонда содир бўлаётган қуролли тўқнашувларда талафот етказиш вазифаларининг деярли 80% артиллерия ҳиссасига тўғри келаётганлиги унинг ўрни ортиб бораётганлигидан далолат беради. Қуролли можароларда иштирок этаётган артиллерия қўшилма ва бўлинмалари душманнинг жанговар тартиби чуқурлигида жойлашган муҳим обектларига аниқ талафот етказишга қодир артиллерия қуролларига эгалиги унинг ўт очиш имкониятини янада оширмоқда.

Бўлинмаларнинг имкониятларини кўришларингиз мумкин:

1. Юқори аниқлик;
2. Ўзоқ масофда таъсир қила олиши;
3. Тезкорлиги ва манёврчанлиги;
4. Ўқ – дориларнинг ҳар хиллиги.

Офицерларни тайёрлаш тарихи:

Тарихий давр - ҳарбийларни тайёрлаш ўқув марказлари тарих давомида армияларни жанговар шайликда сақлашда муҳим рол ўйнаб келган. Захирадаги ва резервдаги офицерларни тайёрлаш эса, ҳарбий қудратни доимий равишда янгилаб туриш учун зарур жараёндир.

Захирадаги ва резервдаги офицерларни тайёрлашнинг илк шакллари XVIII асрга бориб тақалади. Ушбу даврда кўпгина давлатлар, хусусан, Россия, Пруссия, Франция каби давлатлар мунтазам армия билан бир қаторда

захирадаги кучларни ҳам шакллантира бошлаган. Ушбу кучлар қисқа муддатли чақириқ вақтида сафарбар қилинадиган аскар ва офицерлардан иборат эди. Шу сабабли, захирадаги офицерларни тайёрлаш тизимига эҳтиёж пайдо бўлди.

Иккинчи жаҳон уруши даврлари - иккинчи Жаҳон уруши даврида ва ундан кейин захирадаги ва резервдаги офицерларни тайёрлаш стратегияси янги босқичга ўтди. Кўплаб давлатлар урушда катта талофатлар кўрди ва янги офицерлар тайёрлаш зудлик билан амалга оширилди. Шу даврда ҳарбий академиялар, олий ҳарбий ўқув юртлари ва қисқа муддатли интенсив курслар орқали офицерлар тайёрланди.

Собиқ Совет Иттифоқида 1941-йилда Иккинчи Жаҳон уруши бошланганда захирадаги ва янги тайёрланган офицерлар армияни кенгайтириш ва жанговар тайёргарликни тезда оширишда катта рол ўйнаган. Кейинчалик, ҳарбий кафедралар тизими орқали захира кучлари доимий тайёргарликда сақланган.

Мустақилликдан кейинги давр - мамлакатларда захирадаги ва резервдаги офицерларни тайёрлаш тизими барқарор ишлай бошлади. Замон талабидаги янги ўқув дастурлари, методологиялар ва илмий тадқиқотларга асосланган тайёргарлик тизими яратилди. Институтлар қошида мутахассислик бўйича ҳарбий кафедралар яратилди.

Ҳозирги давр - бугунги кунда кўпгина мамлакатларда захирадаги ва резервдаги офицерларни тайёрлаш тизими барқарор ишлайди. Ҳарбий олий ўқув юртлари ва махсус ўқув марказлари офицерларни захира учун тайёрлашда муҳим бўғин ҳисобланади. Кўплаб давлатлар ўз университетлари таркибида ҳарбий кафедралар ташкил этган бўлиб, бу ерда талабалар ҳарбий тайёргарликдан ўтиб, захирадаги офицер бўлиш учун малака оладилар.

Ўқув марказларини яратилиш зарурати:

1. Армия сонининг ошиши - Мустақилликка эришгандан кейин давлатлар ўзларининг армияларини сонини кўпайтиришга эҳтиёж сезилганлиги сабабли офицерларни тайёрлаш тизимини яратишга туртки бўлди.

2. Малакали кадрларга талабнинг кучайиши - Ҳарбий тўқнашувлар ёки қуролли можаролар вақтида ҳарбий тайёрлагликка эга қўшинларни бошқаришга қодир офицерларга талаб кучайиши.

3. Ҳарбий ўқитишнинг ривожланиши - Ҳарбий ўқитишни ривожлантириш учун ҳарбий билим юртларни ва ўқитиш марказларини яратишга зарурат туғилди.

4. Қуролли можароларнинг кенгайиши - Қуролли тўқнашувларнинг кўлами ортиб бориши билан бирга қўлланиладиган қурол турлари ҳам кенгайиши.

5. Тезкорлик билан ҳаракатланиш зарурати - Қуролли тўқнашувларда ҳаракатланаётган бўлинмаларни зудлик билан кучайтириш мақсадида янги бўлинмаларни сафарбар қилиб тузишга бўлган эҳтиёж.

Ўқув марказларида офицерларни тайёрлаш жараёни:

1. **Танлов ва Саралаш** - Захирадаги офицерларни танлов ва саралаш жараёни орқали танланади.

2. **Назарий таълим** - Офицерлар назарий билимларни, ҳарбий фанлар, стратегия ва тактикаларнинг асосларини ўрганади.

3. **Амалий машғулотлар** - Офицерлар жанговар қуроллардан отиш, ҳарбий техникаларни ҳайдаш ва бошқа амалий машқларни бажаради.

4. **Диплом бериш** - Ўқишларни муваффақиятли бажарган офицерларга диплом берилади.

Офицерларни тайёрлаш дастури:

1. Ҳарбий фанлар асослари - Ҳарбий тарих, стратегия тактика, ҳарбий технология ва бошқа фанларнинг асосларини ўргатиш.

2. Жанговар тайёргалик - Қуроллни ишлатиш, ҳарбий технология билан ишлаш ва жанговар ҳаракатларни амалга ошириш бўйича амалий машғулотлар ўтказиш.

3. Раҳбарлик ва бошқарув - Шахсий таркибни, ҳарбий бўлинмаларни бошқариш ва жанговар ҳаракатларни режалаштириш бўйича билимларни бериш.

4. Тиббий тайёргарлик - Жанговар шароитда тиббий ёрдам кўрсатиш бўйича билим ва кўникмаларини ошириш.

Офицерларни тайёрлашнинг замонавий тенденциялари:

1. **Ўқув жарайнини модернизация қилиш -** Янги технологиялар ва ўқитиш методларини жалб қилиш, офицерларни тайёрлаш сифатини ошириш. (Мисол, симуляция, виртуал реаллик ва масофавий ўқитиш)

2. **Янги қурол аслаха ва ҳарбий техникаларни қўллаш -** Янги турдаги қурол-аслаха ва ҳарбий техникалардан фойдаланган ҳолда офицерларни тайёрлаш.

3. **Бошқа ҳарбий ўқув ташкилотлари билан ҳамкорликни йўлга қўйиш -** Малака ва замонавий ўқитиш дастурларини алмашиш, офицерларнинг тайёргарлик даражаси ва сифатини ошириш.

4. **Лидерлик ва командирлик сифатларини ривожлантириш -** Офицерларда лидерлик сифатларини шакллантириш йўналишида тайёрлаш, қийин вазиятларда мустақил қарор қабул қилишни ўргатиш

Офицерларни тайёрлашнинг келажак дастури:

1. Масофавий ўқитиш тизимини ривожлантириш, рақамли технологиялар ва сунъий интеллектни киритиш.

Замонавий урушлар тобора технологик тус олиб бормоқда, бу эса захирадаги ва резервдаги офицерларни тайёрлашда юқори технологиялардан фойдаланишни талаб қилади. Сунъий интеллект, киберхавфсизлик, дронлар ва робот технологиялари ҳарбийлар учун асосий кўникмалардан бирига айланиб бормоқда. Келажакда ҳарбий ўқув марказларида технологик билимларга эга бўлган офицерларни тайёрлаш жараёнлари янада ривожланади.

2. Кўп тармоқли ҳарбий тайёргарлик.

Замонавий ҳарбий низолар кўп тармоқли операцияларни талаб қилади, яъни ҳарбийлар бир вақтнинг ўзида қуруқлик, ҳаво, денгиз ва киберфазода

ҳаракатлана олишлари керак. Шу сабабли, захирадаги ва резервдаги офицерларни кўп тармоқли тайёргарликдан ўтказиш долзарб масалалардан бирига айланиши кутилмоқда. Ҳарбий ўқув марказлари ва ҳарбий кафедралар талабаларга бу йўналишларда махсус билимлар беришни кучайтириши лозим.

3. Глобал ҳамкорлик ва тажриба алмашиш

Ҳарбий ўқув марказларида захирадаги ва резервдаги офицерларни тайёрлаш жараёнида халқаро ҳамкорлик кенгайиши кутилмоқда. Дунё миқёсида ҳарбий хавфсизлик, терроризмга қарши кураш ва глобал хавфсизлик масалалари бўйича ўқув дастурларини биргаликда ишлаб чиқиш ва тажриба алмашиш зарур бўлади.

Глобал ҳамкорлик захирадаги офицерларни тайёрлашда халқаро миқёсдаги стандартларни жорий қилишга ёрдам беради. Келажакда НАТО каби ташкилотлар билан қўшма ўқув машғулотлари, халқаро ўқув марказлар билан алмашув дастурлари кенгаяди. Бу эса захирадаги офицерларга глобал ҳарбий амалиётлар ҳақида чуқурроқ билим беради.

4.Захирадаги офицерлар билан миллий мудофаа стратегияларини мослаштириш

Келажакда кўплаб давлатлар мудофаа стратегияларини захирадаги кучларни тезкор сафарбарлик имкониятларини оширишга йўналтириши мумкин. Захирадаги офицерлар ҳарбий стратегияларни амалга оширишда муҳим рол ўйнаши кутилади. Бу эса уларнинг тайёргарлик сифатини ошириш, миллий хавфсизлик ва мудофаа тизимларига интегратсия қилишни кучайтиради.

Офицерларни тайёрлашдаги муаммолар

• **Молиявий ресурслар** - офицерларни тайёрлаш учун молиявий ресурсларнинг етишмовчилиги.

• **Вақт** - Кўпчилик офицерларнинг ишлаши ва оилалиги, шу сабабли етарлича вақт ажрата олмаслиги.

• **Жихозлар ва қурол –аслахалар** - Офицерларни тайёрлаш учун замонавий ҳарбий жихозлар ва қуроллар билан таъминлаш зарурлиги.

Хулоса ўрнида, резервдаги ва захирадаги офицерларни тайёрлаш – бу мамлакат хавфсизлигини таъминлаш учун муҳим жараён ҳисобланади. Ўқитиш жараённи замонавий таҳдид ва чақирувларга жавоб берадиган, проффесионал малакага эга, қийин вазиятларда тўғри қарор қабул қиладиган юқори савияли офицерларни тайёрлашни тақоза этади.

Ҳарбий ўқув марказларида ўргатиш жараёнини ривожлантириш қуролли кучлар жанговар шайлиги ва самарадорлигини оширишга, шунингдек ҳар қандай таҳдид ва хавфга қарши тура оладиган ишончли ҳимояни таъминлайди.

Армиядаги кадрларни сифатли тайёрлашда, қуролли кучларни жанговар шайлигини ошириш учун ўқитиш жараёнига замонавий технологиялар ва инвеститцияларни киритиш муҳим аҳамият касб этади.

Хулосаларга асосланган ҳолда қуйидагиларни таклиф қилишимиз мумкин:

1. Ўқитиш методларни такомиллаштириш - Ўқитиш жараёнини самарадорлигини ва замонавийлигини таъминлайдиган ўқитиш методларини доимий равишда такомиллаштириб бориш. Янгича ёндашувларни қўллаш, интерактив ўқитиш методларидан фойдаланиш ва замонавий ўқитиш технологияларни қўллаш тайёргарлик сифатини оширади.

2. Ҳарбий ўқув муассасалар ва бошқа куч тузилмалар билан ҳамкорликни йўлга қўйиш - Ҳарбий ва бошқа куч тузилмаларнинг билим юртлари билан малака, билим ва ўқитиш методларини алмашиш, шунингдек, юқори тиофали ўқитувчиларни жалб қилиш мақсадида доимий ҳамкорликни таъминлаш.

3. Проффессионал йўналтирилган тизимини ривожлантириш - Резервчилар ва захирадагилар хизматига керакли мутахассисликка ва сифатларга эга ёшларни жалб қилишга асосланган проффессионал йўналтирилганлик тизимини ривожлантириш зарур.

4. Ўқув моддий базасини такомиллаштириш - Офицерларни тайёрлаш ва ўқув сифатини оширишга қаратилган замонавий қурол-аслаха, ҳарбий техника, ўқув қўлланмалар ва тренажёрлар билан таъминлаш.

Фойдаланилган манбаалар рўйхати

1. https://archive.uz/analytics/подготовка военных кадров-зарубежный опит. 172421724/# - Дата обращения: 24.09.2024 г.
2. Иовлев, А.М. Деятельность КПСС по подготовке военных кадров / А.М. Иовлев//– М., 1976.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш консепсиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-5847-сонли қароридаги Консепсия.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 9 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларининг ҳарбий тайёргарлик ўқув бўлинмалари тўғрисидаги Низомни” 809-сонли қарорига (илова) Йўриқнома.
5. Ўзбекистон республикаси Мудофаа вазирлиги ҳамда Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2017 йил 5 декабрдаги 33,24-2017 сон қарорига асосан “Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларининг ҳарбий тайёргарлик ўқув бўлинмаларида ўқув жараёнини ташкил қилиш ва амалга ошириш бўйича” Йўриқнома.
6. Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирининг 2020 йил 30 июлдаги “Мудофаа вазирлиги олий ҳарбий таълим муассасаларида ҳарбий кадрларни тайёрлаш тизимини такомиллаштириш тўғрисида”ги МВ 505-сонли буйруғига 1-илова “Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги тасарруфидаги олий ҳарбий таълим муассасалари фаолиятини тартибга солиш тўғрисида” Низом.
7. Ўзбекистон Республикаси Миллий университети қошидаги ҳарбий тайёргарлик ўқув Маркази умумқўшин тайёргарлик цикли “Мотоўқчи қисм ва бўлинмаларини БТР ва автомобилда жанговар қўлланиши” мутахассислиги бўйича ўқув Дастури.

Harbiy safarbarlik yig‘inlarini tashkillashtirish bo‘yicha xorij tajribasi

Azimov Mirodil Abdixalimovich
O‘R QK Akademiyasi kafedra katta o‘qituvchisi, polkovnik

Suyarkulov Onorqul Abdurayimovich
O‘R QK Akademiyasi Harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasi fakulteti 1-bosqich tinglovchisi, mayor

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlarning eng muhim vazifalardan biri mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, armiyaning jangovar qudrati va salohiyatini oshirish hisoblanadi. Holbuki, harbiy yig‘inlarni tashkillashtirish masalalari bir qancha xorijiy olimlar ilmiy izlanishlarini asosiy obyektiga aylanayotgani, katta ahamiyat kasb etmoqda. Ta’kidlash joizki, qo‘shinlarning doimiy shayligi va barcha ta’minot turlari bilan ta’minlanganligi mamlakat xavfsizligini ta’minlashda asosiy omillardan biri bo‘lib kelmoqda.

Davlatlarning “Harbiy safarbarlik yig‘inlari”ni tashkilashtirishdan maqsad – istiqbolda mamlakatning safarbarlik tayyorgarlik darajasini oshirish, ya’ni iqtisodiyotni, davlat va boshqaruv organlarini, hududlarni, aholini va Qurolli Kuchlarni harbiy tajovuzning daf etilishini ta’minlashga hamda urush davrida davlat va aholi ehtiyojlarini qanoatlantirishga tayyorlashdan iborat.

Xususan Rossiya Federatsiyasida harbiy xizmatga majburlarni safarbarlik yig‘inlarda muntazam jalb etib borishga qo‘yilgan asosiy talablardan biri, ularning jangovar tayyorgarligini oshirish barcha qo‘shin turlarining vazifasidan kelib chiqib hamkorlikda harakat qilishga erishishdan iborat. Ma’lumot uchun: jangovar tayyorgarlik bu shaxsiy tarkibni o‘qitish va harbiycha tarbiyalashning, bo‘linmalar, qismlarning uyg‘unlikda va jangovar harakatlarni olib borish va ularning boshqa vazifalarni ham bajara olishga tayyorlash bo‘yicha tizimli tadbirlar yig‘indisidir. U tinchlik va urush davrida o‘tkaziladi, uning sifatli o‘tkazilishi ma’lum darajada qo‘shinlarning jangovar qobiliyati va jangovar shayligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Harbiy safarbarlik yig‘inlarini tashkilashtirish va o‘tkazish harbiy ta’lim, xavfsizlik va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishning tizimli jarayoni bo‘lib Rossiya davlati harbiy-siyosiy hukumati oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, tadqiqot mobaynida o‘rganilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki harbiy safarbarlik yig‘inlarini tashkillashtirish va o‘tkazish harbiy xavfsizlikni ta’minlashning muhim elementi sifatida ko‘rib kelinmoqda. Misol uchun Markaziy Osiyo davatlaridan hozirgi kunda Qozog‘iston Respublikasi 2011- yil 9- noyabrdagi yangi taxrirdagi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuniga asosan harbiy xizmatga majburlar bilan harbiy safarbarlik o‘quv yig‘inlarini Qurolli kuchlari Bosh Shtabining rejasiga asosan o‘tkazib keladi.

Ushbu bo‘linmalarning asosiy vazifasi aholini, muhim axamiyatga ega ob’ektlarni mamlakat hududida dushman, diversion terrorchi harakatlaridan himoya qilish va favqulotda vaziyat, harbiy holat e’lon qilinganda tadbirlarni bajarishdan

iborat. Ma’lumotlarga ko‘ra 2002- yildan 2014- yilga qadar viloyat akimlari (hokimlari) tomonidan hududiy mudofaa brigadasi tarkibidagi 11 mingga yaqin harbiy xizmatga majbur fuqarolar bilan harbiy yig‘inlar tashkil etilgan. Hozirgi kunda, respublika bo‘ylab 16 qisqartirilgan tarkibdagi hududiy mudofaa brigadalari tashkil etilgan ularning tinchlik davridagi shtat tarkibi 20 nafar harbiy xizmatchidan iborat bo‘lib, asosiy vazifasi yig‘inga jalb qilingan harbiy xizmatga majburlarni harbiy tayyorgarlik (partizanlik jang qilish) usullaridan saboq berish va favqulodda vaziyatlarga tayyorlashdan iborat. Ushbu qo‘shin turining afzallik tomoni shundaki, kam harajatliligi va qisqa vaqt ichida (15 kun) harbiy tayyorarlik bo‘yicha malakalarini oshirish va shakllantirish imkonini beradi.

Qozog‘iston Respublikasi Qurolli kuchlar shartnoma asosidagi harbiy xizmat turiga o‘tish natijasida mudofaa vazirligi tizimida muddatli harbiy xizmatchilarning lavozimi qisqarishi natijasida safarbarlik inson resurlarining kamayib ketishiga olib keldi.

Soha ekspertlarining fikriga ko‘ra, hozirgi kunda safarbarlik yig‘inlariga asosiy e’tibor berib muntazam ravishda o‘tkazib kelayotgan davlatlardan biri Belorusiyadir.

Belorusiya Respublikasida harbiy safarbarlik yiinlarini tashkilashtirishga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, harbiy hamqorlik asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Harbiy yig‘inlarni tashkillashtirishda asosan safarbarlik resurlarining soniga e’tibor berib kelmoqda.

Rasmiy Minsk harbiy xizmatga majbur fuqarolar bilan harbiy safarbarlik yig‘inlarini bir qator rahbariy hujjatlarga asosan tashkillashtirmoqda.

Ushbu davlatning harbiy yig‘inlarni tashkillashtirishda va o‘tkazishda o‘ziga xos jihati shundaki, harbiy xizmatga majburlar bilan harbiy safarbarlik yig‘inlari bosqichlarga bo‘lib o‘tkaziladi:

dastlabki bosqich: safarbarlik e’lon qilinganda chaqiriladigan harbiy xizmatga majburlar bilan 25 kungacha bo‘lgan yig‘inga jalb etiladi;

ikkinchi bosqich: harbiy xizmatga majbur fuqarolarni qayta mutaxassislik bo‘yicha tayyorlash bu jarayonda noyob mutahassisliklar bo‘yicha harbiy xizmatga majbur fuqarolarni boshqa mutahassislik bo‘yicha tayyorlashdan iborat. Ushbu masala hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligida ham dolzarb muammo sifatida saqlanib kelinmoqda;

uchinchi bosqich: Qurolli kuchlaridagi tegilmaydigan qurol-aslaha va harbiy texnikalarga xizmat ko‘rsatish yig‘ini bo‘lib undan asosiy maqsad harbiy xizmatga majbur fuqarolarni harbiy texnikalarda ishlash bo‘yicha malakasini oshirish va uzoq muddatli saqlanishda turgan harbiy texnikalarga o‘z vaqtida texnik xizmat ko‘rsatib borishdan iborat.

Belorusiya davlati hozirgi kunda asosiy e’tiborni II va III bosqichga qaratib kelmoqda. Chunki inson omili va davlatning harbiy texnik potensiali – jangovar harakatlarning in’ikosini belgilab beradi. Xususan dunyoda yuz berayotgan voqea va hodisalar nafaqat tinchlik davridagi qo‘shinlarni doimiy shay holatda ushlab turishni balki harbiy xizmatga majburlarni ham o‘z vaqtida butlab borishni taqozo etmoqda.

Jumladan, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki Shvetsariya tajribasi e’tiborga molikdir. “SIPRI” tadqiqot markazi va “Global fire powers” jahon reytingi ma’lumotlariga ko‘ra, Qurolli kuchlarni harbiy xizmatga majburlar bilan butlash bo‘yicha Shvetsariya armiyasida qo‘llanilayotgan militsion safarbarlik (butlash) uslubi jahondagi ilg‘or tajribalardan biri sifatida e’tirof etib kelayotganligidan dalolat beradi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 1 mln.dan ortiqroq axoliga ega ushbu davlat, safarbarlik e’lon qilingandan so‘ng 24 soat ichida 650 ming nafar va 48 soat ichida esa 1,7 mln. nafar harbiy xizmatga majburlarni yig‘ish qudratiga ega. Ko‘rsatkichlar yuqori bo‘lsada, biroq boshqa davlatlarga nisbatan Shvesariyada harbiy xizmatdan (harbiy yig‘inlar)dan bo‘yin tovlovchilar ham uchrab turadi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, ushbu muammo yiliga 464 ming harbiy xizmatga yaroqlilarning o‘rtacha (20%)ni tashkil etib kelayotganligini e’tirof etishgan va bu xolat umumiy safarbarlikka putur yetkazuvchi omilga aylanishini ta’kidlash joiz. Shuning uchun, mamlakat harbiy-siyosiy rahbariyati tomonidan bunday salbiy holatlarni qisqartirish maqsadida Konstitutsiya asosida amalga oshiradilar.

Yana bir inobatga oladigan jihatlardan biri shundaki yig‘in mobaynida mashg‘ulotlar asosan keng miqiyosdagi harbiy harakatlar bo‘yicha emas, aynan mayda terrorchi guruhlarga qarshi turish maqsadida taktik harakatlar bo‘yicha mashg‘ulotlari o‘tkazib kelinadi.

Buyuk Britaniya davlati 1976- yildan shartnoma asosidagi harbiy xizmat turiga o‘tildi, biroq shartnoma asosidagi harbiy xizmat turiga o‘tilgandan buyon harbiy holatlarda butlanadigan harbiy qismlarga chaqiriladigan rezervchilar sonining kamayib ketishiga olib keldi. Mamlakat harbiy siyosiy raxabariyati buni oldini olish maqsadida shartnoma asosidagi harbiy xizmatga jalb etilmagan fuqarolar bilan yig‘inlar o‘tkazila boshlandi.

Shuningdek halqaro “Globall fire powers” reyting markazining 2017- yildagi keltirgan ma’lumotlariga ko‘ra AQSh qurolli kuchlari reytingida dunyoda 1 o‘rinni egallab kelmoqda. Biroq, harbiy qudratga ega bo‘lgan rasmiy Vashington ham rezervchilar kuch va imkoniyatidan foydalanib keladi. Jumladan, 2001- yil 11- sentabr voqealaridan so‘ng Miliy gvardiya tarkibidagi 280 ming nafar, 2005- yil 100 mingdan ortiq va 2015- yilda 16 ming 500 nafarga yaqin rezervchilarni harbiy operatsiyalarni bajarish uchun jalb qilishga majbur bo‘ldi. Ta’kidlash joizki yuqorida keltirib o‘tilganidek harbiy safarbarlik resurslari mamlakatning xavfsizligini ta’minlashda muhim axamiyatga ega. Shu jihatdan harbiy xizmatga majburlar bilan “Harbiy safarbarlik yig‘inlari”ni tashkillashtirishda ta’minot masalalariga ya’ni, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jihatlarga e’tibor qaratish muhim axamiyatga egadir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki Umuman olganda, xorij davlatlarining Qurolli kuchlarida safarbarlik tayyorgarligini olib borishning o‘ziga xosligi quyidagilarda, ko‘rinadi:

yo‘lga qo‘yilgan militsion xizmati, qisqa vaqt ichida mamlakat xududiy yaxlitligi va xavfsizligini ta’minlay bera olishga qodir, yuqori tayyorgarlikka hamda qo‘shinlarni butlash salohiyatiga egaligi;

davlat hukumati tomonidan fuqarolarning harbiy safarbarlik tayyorgarlikdan o‘tkazish dasturini puxta ishlab chiqilganligida.

Yuqorida keltirilgan nazariy qarashlar hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligini, aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning ulardan harbiy faoliyatni tashkillashtirish va olib borishda foydalanib kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Zamonaviy harbiy harakatlar tahlili doimiy shaylik, ta’minot va yuqorida keltirib o‘tilgan elementlarni birgalikda qo‘llash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatmoqda. Bu borada keng ishlar olib borilgan bo‘lib, harbiy ta’lim tarbiya nazariyasi, harbiy iqtisodiyot nazariyasi, Qurolli kuchlar front orti ta’minoti nazariyasi shular jumlasidandir.

O‘R QK safida zahiradagi harbiy xizmatga majbur fuqarolar bilan o‘tkaziladigan safarbarlik tadbirlarini takomillashtirishda, xorij davlatlarining harbiy safarbarlik yig‘inlarini tashkillashtirish tajribasinining tashkiliy-amaliy jihatlari e’tiborga molikdir.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ ҲАРБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ

Гофуров Ёдгорбек Қодирович
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети, Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази, Авиация мутахассисликлари ва ҳарбий ташувлар цикли ўқитувчиси, резервдаги подполковник
Джабборов Шамсиддин Хужакулович
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети, Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази, Авиация мутахассисликлари ва ҳарбий ташувлар цикли бошлиғи, доцент, подполковник

АННОТАЦИЯ

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа Вазирлиги қўшинлари учун олий таълим муассаларида таълим олаётган талабалар таркибидан “резервдаги ва заҳирадаги офицерларни” тайёрлаш тизимидаги ҳарбий тайёргарлик ўқув жараёнларнинг ташкилий-тарихий жиҳатлари билан танишиш ва ўрганиш.

Ўзбекистон Республикаси олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги тасарруфида бўлган ОТМ, давлат қўмиталари ва идоралари муассаларидаги талабаларни ҳарбий тайёргарлик жараёнини ташкил этиш ва мувофиқлаштириш ҳозирги кунда долзарб вазифалардан бири бўлиб қолмоқда.

Калит сўзлар: Ҳарбий тайёргарлик бўлинмаси, ҳарбий кафедра (ҲК), ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази (ҲТЎМ), олий таълим муассасалари (ОТМ), мудофаа вазирлиги (МВ) олий ва ўрта махсус-таълим вазирининг (ОЎМТВ), Тошкент давлат техника университети (ТДТУ), Ўзбекистон миллий университети (ЎзМУ).

Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассаларида (ОТМ) талабаларнинг ҳарбий тайёргарлигини ташкил топиши ўтган асрнинг 60-чи йилларининг иккинчи ярмига бориб тақалади.

Собиқ СССР даврида мамлакат мудофаа қудратини мустаҳкамлаш мақсадида СССР министрлар советининг 1965 йил 25 июндаги «Захира ва резерв офицерларини тайёрлаш мақсадида олий таълим муассасалари талабалари билан ҳарбий тайёргарликни ташкиллаштириш» тўғрисидаги қарорига асосан Олий ўқув юртларида талабаларнинг ҳарбий тайёргарлик ўқув жараёни йўлга қўйилган.

Ушбу қарорга асосан Тошкент политехника институтида (ҳозирги Тошкент давлат техника университетида) ҳарбий кафедрани ташкил этиш тадбирлари 1966 йилнинг ноябр ойидан 1967 йилнинг март ойигача давом этган.

Туркистон ҳарбий округи қўмондонининг буйруғига асосан 1967 йилнинг 6 мартидан бошлаб Тошкент политехника институтининг ҳарбий кафедрасида талабаларни ҳарбий тайёргарлик бўйича ўқитиш жараёнлари бошланган.

Ҳарбий тайёргарлик ўқув жараёнлари СССР мудофаа вазирининг 1966 йил 21 апрелдаги бўйруғига асосан йўлга қўйилган.

Ҳарбий кафедрани шакиллантириш вақтида уларнинг штатдаги сони ўқитувчиларнинг ўқув юкламасидан келиб чиққан ҳолда белгиланган.

Ҳарбий кафедрани профессор-ўқитувчилар таркиби ва ўқув-ёрдамчи мутахассислар билан тўлдириш билан бир қаторда ҳарбий кафедранинг иш фаолиятини режалаштириш, ўқув-услубий қўлланмалар, ўқув ва моддий-техник баъзасини шакиллантириш ишлари амалга оширилган.

СССР мудофаа вазирининг жанговар тайёргарлик бўйича ўринбосарининг 1967 йил 12 сентябридаги директивасига асосан Тошкент политехника институтининг ҳарбий кафедрасида бешта цикл ташкил этилган.

1969 йили ҳарбий муҳандис, двизион артиллерияси взвод командири ва артиллерия қуролларини таъминлаш бўйича взвод командирлари мутахассисликлари бўйича 958 нафар захирадаги ва резервдаги офицерлар ҳарбий кафедранинг биринчи битирувчилари деган номга сазовор бўлишган.

1969 йил ҳарбий кафедрани биринчи битирувчилари 958 нафарни ташкил этган бўлса, 10 йил мобайнида 11963 нафар захирадаги офицерларни етказиб берди. Шулардан 800 нафари офицер сифатида хақиқий ҳарбий хизматга чақирилган.

1976 йилда ҳарбий кафедра СССР МВ бош инспекцияси томонидан текширилган ва унда СССР мудофаа вазирининг ўринбосари совет иттифоқи маршали Москаленко Кирилл Семёнович ташриф буюрган. Текширув натижалари бўйича умумий баҳо – «қониқарли» деб топилган.

1977 йилда ҳарбий кафедра таркибида Ҳаво ҳужимидан мудофаа цикли шакиллантирилди.

1977 йил ҳарбий кафедра ўзининг 10 йиллик юбелейини нишонлайди. Бу тадбирга кўпгина қўшин қўмондонлари ва қисм командирлари ташриф буюришади.

Ўтган йиллар мобайнида ҳарбий кафедра бир қатор комиссиялар томонидан текширилган ва ҳар доим ижобий баҳоланиб келинган.

1981 йил феврал ойида ҳарбий кафедра Туркистон ҳарбий округи ракета қўшинлари ва артиллерия қўмондонлиги комиссияси томонидан текширилган. Текширув натижажасида умумий «яхши» баҳога тавсия этилган.

1983 йилдан бошлаб ҳарбий кафедрада заҳирадаги ва резервдаги офицерларни тайёрлаш янги дастур бўйича олиб борилган.

1985 йилда ҳарбий кафедра Туркистон ҳарбий округи қўмондонлигининг олий ўқув юртлари тайёргарлиги бўйича ўринбосари комиссияси томонидан текширилган. Текширув натижасида умумий баҳо – «яхши» деб тасдиқланган.

Олий таълим муассаларининг ҳарбий кафедраларида ҳар йили 2000 нафардан зиёд захирадаги ва резервдаги офицерлар тайёрлаган.

1991 йилгача ҳарбий кафедра Туркистон ҳарбий округининг ҳарбий бўлмаган қўшинларни тайёргарлигини ташкиллаштириш бўйича ўринбосарига бўйсинган.

1991 йилдан 2013 йилгача Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлигининг ҳарбий таълим бошқармаси бошлиғига бўйсинган.

1993 йил Ўзбекистон Республикасининг биринчи президенти И. А. Каримов Тошкент политехника институтига ташриф буюрган ва институт нуфузини Тошкент Давлат техника университети деб ном беради.

1994 йил Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлигининг ҳарбий бўлмаган қўшинларни тайёргарлигини ташкил этиш бўлими қарори билан ҳарбий кафедрада саккизта цикл шакиллантирилади.

Ҳарбий тайёргарлик Ўзбекистон Республикаси мудофаа вазирининг ўринбосари, бошқарма, бўлим ва хизмат бошлиқлари, ҳамда Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта-махсус таълим вазири ўринбосари томонидан тасдиқланган ўқув дастурига асосан ташкиллаштирилган бўлиб, ҳарбий тайёргарлик учун 100% эркак жинсига мансуб талабалар жалб қилинган.

Мамалакатни ҳаракатчан армияси учун Ўзбекистон Республикаси ОТМ талабалари таркибидан ташкил топган захира ва резервдаги офицерларни сифатли тайёрлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президент Аппаратининг фармонига, ҳамда Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа вазири ва Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус-таълим вазирининг қўшма буйруғига асосан захира ва резервдаги офицерлар тайёрлаш квотаси белгиланади.

1999 - 2000 йилларда ҳарбий кафедрага ЎР МВнинг тарбиявий ишлар бўйича ўринбосари генерал-майор Қ.Мамедов ва ЎР олий ва ўрта-махсус таълим вазири С.С.Гуломовлар ташриф буюришган.

Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримовнинг расмий фармонига асосан ҳарбий кафедра 1999 йил Тошкент шаҳрининг Шайхонтахур тумани ва Яккасарой туманларига жойлаштирилади.

Ҳарбий кафедранинг офицерлари томонидан қурол-яроғларни, техника ва бошқа ўқув-моддий техник базаларини кўчириш ва сақлаш бўйича тадбирлар амалга оширилган.

2004-йил ҳарбий кафедрага Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта-махсус таълим вазири ташриф буюрган ва рузурв ва захира офицерларини тайёрлаш бўйича “энг яхши” ҳарбий кафедра деб белгилаган.

2005-2006 йиллар давомида ҳарбий кафедрага бир неча бор Ўзбекистон Республикаси Бош Вазири Ш.М.Мирзиёев ва Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта-махсус таълим вазири С.Қосимовлар ташриф буюришган.

Тошкент давлат техника университетининг ҳарбий кафедраси 2005 йилдан янги штат тузилмасига ўтади. Жами ҳарбий кафедрадаги офицер-ўқитувчилар сони 49 кишидан ташкил топган, ёрдамчи-ўқув ходимлари билан 58 кишини ташкил қилган.

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирининг 2014 йил 29 сентябрдаги 686 сонли буйруғига асосан Тошкент давлат техника университети ҳарбий кафедраси “2013-2014 ўқув йилида Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасалари ҳарбий кафедралари орасида 2-ўринни эгалагани учун” диплом билан тақдирланган.

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирининг 2014 йил 5 ноябрдаги директиваси билан саккизта цикл шакиллантирилади ва ушбу цикллар 2020 йилгача ўз фаолиятини юритиб келган.

2013 йил апрелдан ҳозирги кунгача Ўзбекистон Республикаси олий таълим муссасаларининг ҳарбий тайёргарлик бўлинмалари Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлигининг ҳарбий кадрларни тайёрлаш бошқармаси бошлиғига бўйсинган.

2020-йилгача ҳарбий кафедрада 19та ҳарбий-хисоб мутахассисликлари бўйича захирадаги ва резервдаги офицерларни тайёрлаган.

1967-йилдан 2017-йилгача ҳарбий кафедра мамлакат мудофааси учун жами 53 128 нафар захира ва резерв офицерларини тайёрлаб берган. Шундан 17 561 нафари Ўзбекистон Республикаси мустақиллигидан кейинги йилларга тўғри келади. 2017-2018 ўқув йиллари давомида ҳарбий кафедрада 19та мутахассислик бўйича 647 нафар талабалар ҳарбий тайёргарликдан ўтган.

2020 йилгача ҳарбий кафедра 40 нафардан ортиқ резервдаги офицерлар талабаларга ўз мутахассисликлари бўйича таълим бериб келмоқдалар.

Ўқув машғулотлари махсус қурол-яроғлар ва ҳарбий техникалар билан таъминланган ўқув синфлари ва ўқув полигонларида ташкиллаштирилади.

Саф тайёргарлигидан амалий машғулот

Авиация двигателларининг тузилиши ўқув фанидан машғулот

Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассаларининг ҳарбий тайёргарлик бўлинмаларини ислоҳ қилиш мақсадида, ҳамда уларда таълим олётган талабаларни ҳарбий тайргарлигини хозирги замон талабларига жавоб берадиган бир бутун, ягона ўқув дастурлари асосида тайёрлашга мўлжалланган ўқув марказини ташкил этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирининг 2020 йил 28 июлдаги директивасига асосан Тошкент шахрида жойлашган Ўзбекистон Республикасининг барча олий таълим муассаларидаги ҳарбий тайёргарлик бўлинмалари ислоҳ қилинди ва Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети қошида Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази (ҲТЎМ) ташкил этилди.

Ҳозирда Ҳарбий тайёргарлик ўқув марказида Тошкент шаҳрида жойлашган Ўзбекистон Республикасининг ўн битта олий таълим муассасаларининг талабалари резерв ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш учун ўқув дастури бўйича ҳарбий тайёргарлик машғулотларига жалб қилинган.

Резерв ва заҳирадаги офицерларни тайёрлаш ўқув дастури талаблари ижросини таъминлаш мақсадида, ўрганилиши кўзда тутилган ҳарбий техник ва махсус тайёргарлик фанларидан ўтиладиган амалий машғулотларни сифатли ташкиллаштиришда ўқув ва моддий техник базаси шакллантирилди.

Ҳозирда Ҳарбий тайёргарлик ўқув марказининг барча циклларида 2020-2021 ўқув йили давомида ҳарбий-ҳисоб мутахассисликларини тайёрлаш учун ўқув хоналари, зарур бўлган ўқитишнинг замонавий техник воситалари (компьютер ва мультимедиа ёритгичлари, электрон доскалар ва бошқа техник воситалари билан), кўргазмали қуроллар, ҳарбий техника ва анжомлар намунаси билан жиҳозланди.

Ҳозирда Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази профессор ўқитувчилари томонидан цикл ҳарбий ўқув фанлари бўйича ўқув машғулотларини ўтказиш сифатини янада ошириш, уларни юқори савияда ўтказиш, талабаларни билим даражасини ошириш, керакли техник адабиётлар ва ўқув-услубий материаллар билан етарли даражада таъминлаш мақсадида, ҳамда марказнинг ўқув ва моддий техник базасини такомиллаштириш бўйича ишларни бажариш давом этмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 9 январдаги 458-сонли Қонуни, “Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа доктринаси”.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 9 октябрдаги 809-сонли қарори “Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларининг ҳарбий тайёргарлик ўқув бўлинмалари тўғрисидаги Низом”.

3. Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлигининг ва Ўзбекистон Республикаси олий таълим, фан ва инновациялар вазирлигининг 2023 йил 5 октябрдаги 22/35-сонли қўшма қарори “Давлат олий таълим муассасаларининг ҳарбий тайёргарлик ўқув бўлинмаларида ўқув жараёнини ташкиллаштириш ва амалга ошириш бўйича Йўриқнома”.

MUNDARIJA

Kirish..........	3-5
Файзиев М.Г. Mafkuraviy tarbiya asosida yoshlar madaniyatini rivojlantirish istiqbollari.....	6-9
Tagayev V. I. Zaxira (rezerv) dagi ofitserlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qahramonlarimizning o‘rni	10-12
Медетова Р. М., Хушвактов Б. М. Педагогические аспекты эффективного исползования деловых игр при подготовке курсантов высших военных образовательных учреждений……	13-18
Джураев А. С. Таълим тизимининг мослашувчан бошқаришнинг ташкилий-педагогик шакллари ва тамойиллари.....	19-23
To‘xtayev N. Ya., «Ta’lim amaliyotida bo‘lajak ofitserlarning kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirishda kognitiv tadqiqotlarni qo'llash».....	24-27
Jurayev B. X. Harbiylar faoliyatida yuksak ma’naviyat va milliy madaniyat tarbiyasi.....	28-33
Raxmonov M. Z., Davlatov J. Q. Harbiy tayyorgarlik o’quv muassasalarida sifatli ta’limni rivojlantirish yo’llari va istiqbollari.....	34-35
Abdullaev B. T. Zaxira ofistirlarni tayyorlash sifatini oshirish xorijiy tajribasi va tarihi yo'llari.....	36-41
Муродов А. А. Ривожланган дунё мамлакатларида резервдаги ва захирадаги офицерларни тайёрлаш.....	42-47
Anorboyev A. A.Harbiy tayyorgarlik fanini o‘qitishda bo‘lajak zaxiradagi ofitserlarning shaxsiy-kasbiy sifatlarini tarbiyalashdagi o‘rni.....	48-53
Ataxanov Sh. T. Talabalarni tarbiyalashda ilmiy-uslubiy yondashuv.....	54-57
Kurbanov G.A. Oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining yosh avlodni ma’naviy tarbiyalashdagi o‘rni……	58-61
Nurulloyev L. L Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik darsi jarayonida o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash xususiyatlari	62-64
Nurulloyev L. L, Aliyev F. F. “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarida vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish usullari”.....	65-67
Hamroyev K. Q. “Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi ajdodlar merosida”.....	68-72
Nazarov T. T. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning tarixiy ahamiyati.....	73-75
Qandov Z. N. Harbiy ta’lim talabalarining ma’naviyatini shakllantirinshga yangicha yondashuv - davr talabi.....	76-83
Madaminov G‘. M. AQSH armiyasida rezervdagi ofitserlarni tayyorlash korpusi - rotk (reserve officers training corps).....	84-89
Jabbarov Z. R. Harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalarida ta’lim sifatini takomillashtirish istiqbollari	90-95
Иргашев Т. А. Захира офицерларни тайёрлаш тизимида чет давлатлар тажрибаси. АҚШ ҳарбий-денгиз кучлари мисолида	96-100
Ilyasov B. K., Xodjaev O Sh. Kelajak aviatsiya texniklarni tayyorlash uchun pedago strategiyalari.....	101-106
Axatov S. A., Aliqulov L. S. Fuqarolik universitetlarida zahiradagi ofitserlarni tayyorlash tarixi.....	107-109
Axatov S. A., Turgunbaev T. A. “Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazida talabalrni kasbiy pedagogik talim jarayonida manaviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish texnologiyasi.....	110-113

Raimov S, S., Kazakov N. N., Shaxobidinov V. E., Zaxiradagi ofitserlarning xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik ta’siri	114-119
Djabbarov Sh. X. Harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari kursantlarida kasbiy kompetensiyalari shakllantirish.....	120-123
Муродов А.Д., Эгамов Х.Ю. Резервдаги ва захирадаги офицерларни тайёрлаш тарихи, бугуни ва келажаги.....	124-129
Narzullayev I.S. Amerika Qo‘shma Shtatalari armiyasining ROTC kurslarida zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash.....	130-135
Bedilov O. T. Pokiston harbiy kadrlar tayyorlash tizimi	136-140
Сапаев Ж.К., Суннатов И.Х. Ҳарбий қўшинларда ахлоқий-руҳий тайёргарлик тизимини такомиллаштиришнинг устувор йўналишлари.....	141-146
Уралов Х.Б. Ўқув-тарбиявий жараёнда педагогик инновацияларни қўллаш шартлари ва механизмлари……..	147-152
Боймуродов О.Т. Система военной подготовки в гражданских вузах в США (Великобритании/ Франции/ Германии).....	153-158
Камбаров А. Э. Машғулотлар жараёнида ҳарбий қуролли тўқнашувлар тажрибасидан фойдаланиш ҳақида.....	159-163
Ganjiyev Sh. J., Iminjanov M. M. Harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy mahoratini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini modulli o‘qitish texnologiyasi dan foydalanish.....	164-167
A.I. Hikmatov, F.Aliyev Yoshlarni vatan himoyasiga tayyorgarligini oshirishda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish.....	168-172
Холбеков Р. А. Система военной подготовки в гражданских вузах великобритании……	173-179
Xoliqov.I.R. Zaxiradagi (rezerv) ofitser kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish.....	180-183
Safoyev H. A., Mirzaliyev Z. R., Jumayev Q. J. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi.....	184-188
Аминжонов Q.X., Ҳамроев Б. Ж. Замонавий жангларда жангчиларнинг ахлоқий-руҳий тайёргарлигига таъсир этувчи омиллар.....	189-197
Эгамов Х.Ю., Муродов А.Д. Ҳарбий кадрларни тарбиялашнинг мезонлари...	198-201
Samadov A.A. O’zgaruvchan ta’lim paradigmasi sharoitida bo’lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o’qituvchisining kasbiy mahorati muammosining pedagogik-psixologik tadqiqotlarda o‘rganilishi……..…….	202-204
Samadov A.A.., Sadullayev A. B. O’zgaruvchan ta’lim paradigmasi sharoitida bo’lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o’qituvchisining harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy asoslari…….....……	205-208
Alimov M. M. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muammo va echimlar……...	209-214
Alimov M. M. Kursantlarning kasbiy madaniyatiga o'qitishning innovatsion tamoyillarining ta'siri (xorijiy harbiy ta’lim muassasalari tajribasi asosida).....	215-224
Alimov M. M. Kursatlarning ta’lim jarayonida kasbiy madaniyatini rivojlantirish usullari.....	225-231
A.I. Hikmatov, F.Aliyev. Yoshlarni vatan himoyasiga tayyorgarligini oshirishda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish.....	232-236
Rayimov G. R. Harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalarida taxsil olayotgan yoshlarda vatanparvarlik ko‘nikmalarini shakllantirishda rivojlangan davlatlar tajribasi	237-240

Teshaboev T. Ya., Aliyorov A. B. Zaxiradagi ofitserlarni o‘quv mashg’ulotlariga tayyorlash.....	241-246
Alijonov B. X. Vatanparvar avlodni qanday tarbiyalaymiz?.....	247-249
Тургунбаев Т.А. Талабаларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда миллий ўзлигини англашнинг мазмун ва моҳияти.....	250-253
Esanov A.A. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ijtimoiy-psixologik muammo sifatida.....	254-259
Xurramov J. A. Harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	260-264
Tojiyev X. X. Bo‘lajak harbiy ta’lim o‘qituvchilarining interfaol metodlar asosida kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish.....	265-269
Тошпулатов А. М. Педагогические условия концепции подготовки молодежи к военной службе.....	270-272
Umarov I. O. Talabalarda axborot va mafkuraviy tahdidlargaqarshi immunitetni shakillantirish.....	273-276
Usmonov Sh. R. Rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyoralashda harbiy tayyorgarlik fanining dolzarb masalalari.....	277-279
Uralov X.B. Oliy harbiy ta’limda innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llashda “Pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish mexanizmlari.....	280-285
Uralov X.B. Oliy harbiy ta’lim muassasalari talabalarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari.....	286-290
Karimov A. X. Amerika Qo‘shma Shtatlari harbiy-dengiz kuchlari uchun zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tajribasi.....	291-294
Saparov B. X. Zaxiradagi ofetserlarni tayyorlash istiqbollari.....	295-298
Qurbonov J.SH. 1850-1890-yillarda Xiva va Qo‘qon xonliklari hamda Buxoro amirligida zaxira qo‘shinlarni jamg‘arish va tayyorlash masalalari.....	299-302
Boboyev X. Yu., **Zakirov Q. S.** Yaponiyada va saudiyada rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tartibi……..	303-306
Boboyev X. Yu., **Ablakulov S. M., Mamajanov A. T.** Xitoy xalq respublikasida va turkiya respublikasida rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimi.....	307-312
Байдадаев И.Ш. ИИВ Академиясида ҳарбий хизмат тайёргарлиги фани орқали курсантларни жанговар тайёргарлигини шакллантириш йўллари.....	313-316
Ergashev X. I. Kavkazorti Respublikalarida harbiy kadrlar tayyorlash tizimining qiyosiy tahlili,ozarbayjon respublikasi misolida	317-325
Ильясов М. М. Мустақил Ўзбекистон шароитида резерв ва заҳирадаги офицерлар тайёрлаш тизимининг долзарблиги.....	326-331
Abdigapirov A.A., Alaev S.R., Idiyev E.I Raqamli texnologiyalarning harbiy ta’limdagi o‘rni	332-334
Abdullayev Y. Z. Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda ma’naviy va axloqiy tarbiyaning dolzarbligi misolida.....	335-337
Umirzaqov Sh. U., Shaxobidinov V. E. Turkiya qurolli kuchlarida zahiradagi ofitserlar va unter-ofitserlarni tayyorlash.....	338-342
Ismatov M.M. Qurolli kuchlar uchun rezerv va zaxiradagi kadrlarni tayyorlashda xorijiy davlatlarning tajribasi.....	343-346
Sharipov A. A., **Asadullaev L.M.**Zaxiradagi ofiserlarni tayyorlash tarixi va hozirgi zamon talablari asosida yaratilgan yangi tizim rivojlanishi	347-352
Наврузов Р. М. Ўзбекистонда ҳарбий топография хизмати офицерларини тайёрлаш босқичлари.....	353-357

Усмонов Ж. К. Туркияда офицер кадрларни тайёрлаш тизими.....	358-366
Sobirov A. A. Bo‘lajak rezervdagi va zahiradagi ofitserlarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish.....	367-370
Turg‘unboyev B. I. Bo‘lajak rezervdagi va zahiradagi ofitserlarda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishda pedagogikaning o‘rni.....	371-375
Chorshanbiyev R. O. Mamlakatimizda ofitser kadrlar tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlari.....	376-381
Ziyavitdinov Z. Z. Bo‘lajak ofitserlarga qo‘yiladigan zamonaviy talablar.....	382-386
Тохтаева Д. Э. Роль в изучении истории Амира Темура и Темуридов воспитании современной молодежи.....	387-390
Djuraev R. R. Harbiy ta’limda innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llash asosida bo‘lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarni milliy va jangovar ruhda tarbiyalash.....	391-397
Валижанов Ҳ.А. Беларусь Республикасида захирадаги офицерларни тайёрлашга янгича қараш.....	398-401
Azimov M. A., Matmusayev X. X. Hozirgi vaqtda harbiy kadrlarni tayyorlashda rivojlangan davlatlar tajribasi.....	402-405
Savin Y. V. Rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashda asosiy jang turlarida razvedkaning muximligi.....	406-409
Raimov S. S. Rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashda xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik aspektlari.....	410-412
Iskandarov J.G‘. Amir Temur qo‘shinlarini qurol-yarog‘ va anjom-aslaha bilan butlashda tashkil etilgan safarbarlik tizimi.....	413-416
Isrofilov S. A. Ilg‘or tajribali davlatlar qurolli kuchldrini qo‘shinlar maxsus harakatida qo‘llash asoslari. (rossiya federatsiyasi misolida).....	417-422
Сотиволдиев Ф. Р. Ҳарбий тайёргарлик ўқув марказида резервдаги ва захирадаги артиллериячи офицерларни тайёрлаш тарихи, истиқболи ва келажаги.....	423-427
Azimov M. A., Suyarkulov O. A. Harbiy safarbarlik yig‘inlarini tashkillashtirish bo‘yicha xorij tajribasi.....	428-431
Гофуров Ё. Қ., Джабборов Ш.Х. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим муассасаларида талабаларнинг ҳарбий тайёргарлигини ташкил этиш ва ривожланиш тарихи.....	432-436

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HARBIY TAYYORGARLIK O‘QUV MARKAZI

“HARBIY TAYYORGARLIK O‘QUV MARKAZIDA REZERVDAGI VA ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASH: TARIXI, ISTIQBOLLARI, KELAJAGI”

MAVZUSIDA O‘TKAZILGAN RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MA’RUZALAR TO‘PLAMI

2024 yil 24 oktyabr

Adadi 50 nusxa. Hajmi 436 b/t. Bichimi 60x84 1/8
O‘zMU bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, 100074, Universitet ko‘chasi.

© Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi, 2024.

Toshkent 2024